O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG′BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ME′MORCHILIK va QURILISH MUAMMOLARI

(ilmiy-texnik jurnal)

ПРОБЛЕМЫ АРХИТЕКТУРЫ И СТРОИТЕЛЬСТВА

(научно-технический журнал)

PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION

(Scientific and technical magazine)

2025, №4
2000 yildan har 3 oyda birmarta chop etilmoqda

SAMARQAND

ME'MORCHILIK va QURILISH MUAMMOLARI

ПРОБЛЕМЫ АРХИТЕКТУРЫ И СТРОИТЕЛЬСТВА
PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION

(ilmiy-texnik jurnal)
(научно-технический журнал)
(Scientific and technical magazine)

2025, № 4

2000 yildan har 3 oyda
bir marta chop etiladi
ISSN 2901-5004

Jurnal OAK Hay'atining qaroriga binoan texnika (qurilish, mexanika va mashinasozlik sohalari) fanlari hamda me'morchilik bo'yicha ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan (guvohnoma №00757. 2000.31.01)

Jurnal 2007 yil 18 yanvarda Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasida qayta ro'yxatga olinib 09-34 raqamli guvohnoma berilgan

Bosh muharrir(editor-in-chief) - t.f.n., professor A.N.Gadayev
Mas'ul muharrir (responsible editorial) – t.f.n. dos. T.Q. Qosimov

Tahririyat rahbari: (**The editorial board**): Ch.J.Turkyilmaz PhD, professor (Turkiya).
Tahririyat hay'ati (Editorial council): t.f.d., J.A. Akilov; PhD, prof. Aslan Aziz Murat (Turkiya); t.f.n., prof. S.I.Axmedov; PhD, prof. Pervez Ahmedzade (Turkiya); t.f.d., prof. S.M. Boboyev; i.f.d., dos. H.T.Buriyev; arx.f.d., prof. G.S.Durdiyeva (Ma'mun akademiyasi); i.f.d., prof. K.B. Ganiyev; t.f.d., prof., A.M. Zulpiyev (Qirg'iziston); i.f.d., prof. A.N. Jabriyev; t.f.n., prof. E.X.Isakov; t.f.d., prof. K. Ismayilov; arx.f.f.d. PhD, N.X. Ibragimov; t.f.d., prof. I.Kalandarov (Tojikiston FA muxbir a'zosi); dos. V.A. Kondratyev; t.f.d., prof. A.A. Lapidus (Rossiya, MGSU); PhD, associate professor Nurmammad Y Mammadov (Azerbaijan); f-m.f.d. prof. K.Mamasoliyev; t.f.n., prof. T. Maxmatqulov; t.f.n., dos. M.M.Maxmudov; f-m.f.d. prof. Nazarov U.A.; t.f.d. prof. S.R. Razzoqov; t.f.d., prof. V.I. Rimshin (Rossiya); t.f.d. prof. S.J. Razzakov; t.f.d., prof. R.A.Raximov; arx.f.d., prof. O.M. Salimov; t.f.d., prof. A.S.Suyunov; t.f.d., prof. Z.Sirojiddinov; m.f.d., prof. D.N. Sultonova; PhD, professor Emrah Turkyilmaz (Turkiya); t.f.d., prof. E.S.Tulakov; m.f.d., prof. A.S. Uralov; t.f.d. prof. V.F. Usmonov; t.f.d., dos. M.Xodjabekov t.f.d., prof. Y.V. Shipacheva; t.f.d., prof. I.S. Shukurov; t.f.n., prof. G'.Sh. Shukurov.

Tahririyat manzili: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70.
Telefon: (366) 237-18-47, 237-14-77, ilmiy-jurnal@mail.ru

Muassis (The founder): Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Obuna indeksi 5549

© Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti, 2025

МЕЪМОРЧИЛИК, ШАҲАРСОЗЛИК ВА ДИЗАЙН
АРХИТЕКТУРА, ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО И ДИЗАЙН

SHAHARLAR AGLOMERATSIYASIGA SANOAT BINOLARINING TA’SIRI

Malikov Ulug’bek Erkinovich, (DSc) doktorant
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Tadqiqotda O’zbekiston shaharlar aglomeratsiyasi va sanoat binolarining o‘zaro ta’siri haqida batafsil ko’rib chiqilgan. Toshkent aglomeratsiyasi, yoki boshqa yirik shaharlarning atrofidagi kichik shaharlar, qishloqlar va sanoat hududlari. Sanoat binolarining shahar aglomeratsiyasiga ta’sirini ko’rib chiqamiz. Aglomeratsiyalarda ko‘chalar va infratuzilmasida transport tiqilinchlariga, havoning ifloslanishiga, madaniy va estetik jihatdan sanoat binolarining ko‘pligi shaharning ko‘rinishiga va madaniy muhitiga ta’sir qilishi atroflicha ko’rib chiqilgan.
Kalit so’zlar: ko‘chalar va infratuzilma, transport tiqilinchligi, shahar aglomeratsiyasi, ekologik toza texnologiyalar, sanoat va turar joy zonalari.

Annotation. The study examined in detail the interaction of urban agglomeration and industrial buildings of Uzbekistan. Tashkent agglomeration, or small towns, villages and industrial areas around other large cities. Let's consider the impact of industrial buildings on urban agglomeration. In agglomerations, the impact of traffic congestion on streets and infrastructure, air pollution, the abundance of culturally and aesthetically industrial buildings on the appearance and cultural environment of the city has been thoroughly considered.
Keywords: streets and infrastructure, traffic congestion, urban agglomeration, environmentally friendly technologies, industrial and residential zones.

Kirish. Biz eng avvalo shaharlar aglomeratsiyasi deganda bir-biriga yaqin joylashgan, ko‘pincha bir-birining iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati bilan chambarchas bog‘langan bir nechta shahar yoki shahar atrofi hududlarining birlashuvini tushunamiz. Masalan, Toshkent aglomeratsiyasi, yoki boshqa yirik shaharlarning atrofidagi kichik shaharlar, qishloqlar va sanoat hududlari. Sanoat binolarining shahar aglomeratsiyasiga ta’sirini ko’rib chiqamiz. Birinchidan sanoat binolari aglomeratsiyalarda ish o‘rinlari yaratadi, bu esa aholining shaharga ko‘chib kelishini rag‘batlantiradi. Sanoat korxonalari yaqinida yashash uchun aholining ehtiyoji ortadi, natijada yangi uy-joylar, infratuzilma (maktablar, shifoxonalar, transport) rivojlanadi. Shaharlar va sanoat hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar kuchayadi, mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmi ortadi. Ikkinchidan sanoat binolari ko‘pincha shahar atrofi hududlarga joylashadi, bu esa aholi salomatligiga ta’sir qiluvchi ifloslanish, shovqin, chiqindilar muammolarini keltirib chiqaradi. Aglomeratsiyalarda ko‘chalar va infratuzilma tobora zichlashib boradi, bu transport tiqilinchlariga, havoning ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Sanoat hududlariga yaqin joylashgan mahallalar ko‘pincha ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan yoki kamroq rivojlangan bo‘lishi mumkin. Uchunchidan shaharsozlik va rejalashtirishda sanoat binolarining joylashuvi shaharlarning kengayish yo‘nalishini belgilab beradi. Aglomeratsiyalarda sanoat hududlarini shahardan uzoqroq joylashtirish orqali ekologik muammolarni kamaytirish uchun zonalash tizimi (industria zonalari) joriy qilinadi. Sanoat hududlari uchun maxsus transport yo‘llari, logistika markazlari quriladi, bu esa shahar infratuzilmasiga ta’sir qiladi. To’rtinchidan madaniy va estetik jihatdan sanoat binolarining ko‘pligi shaharning ko‘rinishiga va madaniy muhitiga ta’sir qilishi mumkin. Ba’zi sanoat inshootlari tarixiy yoki arxitektura jihatdan qimmatli bo‘lib, ularni saqlash va qayta tiklash bo‘yicha loyiha va tashabbuslar paydo bo‘ladi.

Asosiy qism. EIZlar shaharlar aglomeratsiyasining iqtisodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, ammo ular ekologik, ijtimoiy va shaharsozlik muammolarini ham keltirib chiqaradi. Shu sababli, sanoat hududlarini shaharlar bilan uyg‘unlashgan holda rejalashtirish, ekologik xavfsizlik va aholi farovonligini ta’minlash muhim hisoblanadi.

O’zbekistonda sanoat binolari, ayniqsa yirik ishlab chiqarish korxonalari, aglomeratsiyalarda aholi sonining o‘sishiga sabab bo‘ladi. Masalan, Toshkent atrofidagi sanoat zonalarida ish o‘rinlari ko‘paygani tufayli odamlar ish uchun ko‘chib keladi, yangi uy-joylar va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanadi. Bu esa shaharning iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Transport va infratuzilma yuklanishida sanoat zonalari va ishlab chiqarish korxonalari atrofidagi yo‘llar transport yuklamasini oshiradi. Aglomeratsiyada ayniqsa yuk tashish uchun mo‘ljallangan yo‘llar, avtobus va metro tarmoqlari rivojlanadi. Lekin, noto‘g‘ri rejalashtirish transport tiqilinchlari va havoning ifloslanishiga olib keladi. Ekologik muammolarda sanoat faoliyati havoni, suv va tuproqni ifloslantiradi. Masalan, sanoat hududlariga yaqin yashash joylarida odamlarning sog‘lig‘iga zarar yetishi mumkin, bu esa ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi. Bu sababli ko‘plab shaharlar sanoat zonalarini shahar markazidan uzoqroqqa joylashtirishga harakat qilmoqda.

Tadqiqot hududlari tahlili. Shaharsozlik va urbanistik muammolarda sanoat binolari shaharlarning geografik kengayish yo‘nalishini belgilaydi. EIZlar ko‘pincha shahar tashqarisida joylashadi va bu hududlarda yangi infratuzilma barpo etilishi talab qilinadi. Aglomeratsiyada sanoat va turar joy zonalari orasida muvozanatni saqlash zarur. Madaniy va tarixiy jihatdan ba’zi shaharlarda eski sanoat binolarini saqlab qolish va ularni madaniy markazlarga aylantirish tajribalari mavjud. Masalan, eski zavod binolarini muzeylar, san’at galereyalari yoki ofis markazlariga aylantirish orqali shahar muhitini boyitish mumkin.

Toshkent shahar aglomeratsiyasi misolida sanoat binolarining ta’sirini ko‘rib chiqamiz. Toshkent shahar aglomeratsiyasida EIZlar binolarining ta’siri ko’rib

chiqilganda iqtisodiy tarafdan, sanoat korxonalari asosan shahar markazidan tashqaridagi Yunusobod, Sergeli, Shayxontohur kabi tumanlarda joylashgan. Bu hududlarda ishlab chiqarish korxonalari ish o‘rinlari yaratib, atrofdagi qishloq va kichik shaharlardan ko‘plab odamlarni Toshkentga ko‘chib kelishga undaydi. Bu esa shaharning aholi sonini ko‘paytiradi, xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Sanoat hududlari atrofida yuk transporti va ishchi harakati kuchayadi. Masalan, Sergelidagi sanoat korxonalari atrofida yo‘llarda tiqilinchlar kuzatiladi, ayniqsa ish boshlanish va tugash vaqtlarida. Shu sababli Toshkentda yangi avtomobil yo‘llari, temiryo‘l yo‘nalishlari va metro liniyalari qurilishi aglomeratsiyaning kengayishiga moslashish uchun muhim. Toshkentdagi sanoat hududlaridan chiqadigan chiqindilar va ifloslanish shaharning havosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa Sergeli va Yunusobodda sanoat korxonalari atrofidagi qishloqlarda havoning ifloslanishi va tuproq muammolari mavjud. Bu hududlarda yashovchi aholining salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Sanoat binolari Toshkentning chekka hududlariga ko‘chib borayotgani shaharning kengayishini ham belgilaydi. Shu bilan birga, sanoat va turar joylar o‘rtasidagi masofani saqlash uchun zonalash ishlari olib borilmoqda. Toshkent hokimiyati sanoat zonalarini shahar markazidan uzoqlashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun maxsus hududlar tashkil qilmoqda.

Samarqand shahar aglomeratsiyasi misolida EIZlar binolarining ta’sirini tahlil qilamiz. Bunda Samarqand shahar aglomeratsiyasida sanoat binolari Samarqand shahrining atrofida joylashgan sanoat korxonalari asosan sanoat parklarida, masalan, Samarqand sanoat zonalarida joylashgan. Ushbu sanoat hududlari shaharga ishchi kuchi jalb qiladi va shu orqali aholining ko‘chib kelishi uchun sabab bo‘ladi. Bu hududlarda yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi korxonalar faoliyat yuritadi. Samarqand - qadimiy shahar, uning madaniy merosi juda boy. Ba’zi eski sanoat ob’ektlarini saqlab qolish va ularni madaniy, sayyohlik markazlariga aylantirish istiqbollari mavjud. Bu shaharni rivojlantirish va sanoat bilan madaniyatni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Samarqand shahar aglomeratsiyasida sanoat binolari iqtisodiy o‘sishga xizmat qilsa-da, transport yuklamasi va ekologik ifloslanish muammolari bilan bog‘liq. Shuning uchun sanoat va turar joy hududlarini oqilona rejalashtirish, ekologik me’yorlarga rioya qilish juda muhimdir.

Shahar aglomeratsiyasida Urgut erkin iqtisodiy zonasining transport infratuzilmasi shahar markazi va atrofdagi qishloqlar bilan bog‘lanishni ta’minlaydi. Bunda yuk tashish va ishchilar harakati uchun transport tizimini takomillashtirish, yo‘l harakati yuklamasi ko‘payishi sababli yo‘llarni kengaytirish va yangi yo‘l qurilishi, asosiysi ishlab chiqarilgan tovarlarni eksportga yo’naltirish uchun tumanda temir yo’l tarmog’ini tortish kerak.

Shaharda Urgut erkin iqtisodiy zonasining rivojlanishi uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish.
- sanoat va turar joy zonalarini aniq ajratish, shaharsozlik qoidalariga rioya qilish.
- transport infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan jamoat transporti tizimini kengaytirish, temir yo’l tarmog’ini olib kelish kerak.
- mahalliy kadrlarni tayyorlash va ish bilan ta’minlash uchun ta’lim muassasalarini rivojlantirish.

Urgut erkin iqtisodiy zonasi shahar aglomeratsiyasidagi ahamiyatiga ko’ra Samarqand viloyatining muhim sanoat markazi bo‘lib, iqtisodiy o‘sishga katta hissa qo‘shmoqda. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlik, transport va shaharsozlik muammolarini hal qilish kerak. Sanoat va shahar aglomeratsiyasini uyg‘un rivojlantirish uchun kompleks rejalashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi.

Tatqiqotda Samarqand viloyatidagi sanoat markazlari va ularning shahar aglomeratsiyasiga ta’siri haqida batafsil to’xtaldik.

Hozirgi kunda Samarqand viloyatida bir qancha sanoatning markazlarini qarab chiqdik. Shahar aglomeratsiyasining Samarqand shahridagi asosiy bo’g’ini sifatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish kiradi. Ayni damda Samarqand shahri viloyatdagi jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 43,1% ini tashkil etadi. Shahardagi ishlab chiqarish tarmoqlari, to‘qimachilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat, kimyo sanoati va yengil sanoat kabi tarmoqlar rivojlangan.

Biz kundalik hayotni jamoaviy tashkil etish va odamlarning har tomonlama rivojlangan jamoat va shaxsiy hayotiga intilamiz. Bu, qoida tariqasida, qanday yangi turdagi binolar va majmualar bo`lishi kerakligini aniqlaydi:- binolarni tarkibi va maydoni; - turar-joy va jamoat binolarining rejalashtirish tuzilmasi; - ularning eng maqbul qavatlar soni; - ularni o`zaro joylashtirish tizimi; - ularning bir-biriga munosabati. Bu butun majmualar va alohida binolar uchun kompozision yechimlar uchun moddiy shartlarni yaratadi. Shu bilan birga, binolarning tashqi qiyofasida, xonodonlar va jamoat binolarining ichki ko`rinishi ularning maqsadi, ularda sodir bo`layotgan jarayonlarning mohiyatini to`g`ri aks ettirish, zamonaviy teknik vositalar yordamida aks ettirish vazifasi qo`yilmoqda. Aynan, hozirgi kunda, respublikamizdagi ko`pgina shaharlar ayniqsa, Qarshi, Jizzax, Urganch kabi yirik shaharlar aglomeratsiya markazlariga aylanib bormoqda. Bu esa, davlatimizning olib borayotgan to`g`ri siyosatining natijasi bo`lib, O`zbekistonda aglomeratsiya darajadagi savdo majmualari modelini shakllantirishni yangi bosqichga ko`tarish zarurligini ko`rsatmoqda[1].

Zamonaviy savdo majmualari - bu turli ko`rinishdagi ko`p strukturali, shaharsozlik vaziyati, sig`imi va hajmi jihatidan, savdo maydonlariga qo`yiladigan talablarni jamlash natijasida kelib chiqadi. Savdomajmua binolarini loyihalashda ularni rasional joylashtirish natijasida obyektga sarflangan harajatlarni qoplay olish muddati qisqaradi va savdo maydonining umumiy foydali ish koeffisiyenti butun majmuaning rentabelligini ko`p martagacha oshiradi [2].

Dunyo tajribasiga ko`ra, savdo majmuasi umumiy maydonning 50-60% gacha bo`lishi kerak. Bu qiymat ortib ketsa, markazning tavar va maxsulotlar bilan to`lmasligi va ijara haqqi yuqori bo`lganligi sababli uning joylashuvi foyda keltirmasligi mumkin[3]. O`tmishda keng tarqalgan aholiga pog`onali xizmat

ko`rsatish sistemasida savdo muassasalarini joylashtirish usuli, bugungi kunda qo`llab bo`lmaydi, chunki o`sha davrda savdomajmualari davlat tomonidan qattiq nazorat ostida bo`lgan. Bugungi kunda savdo maishiy xizmat ko`rsatish muassasalarini rivoji xususiy tadbirkorlik asosida rivojlanmoqda. Shahar aholi punktlarini rejalashtirishda respublikada aglomeratsiya-larning markazlari hisoblanadigan shaharlarda aholini joylashtirishni va savdomajmualarini tashkillashtirish-ning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish o`ta muhim ahamiyatga ega bo`lib, davlat darajasidagi masalaga aylangan. O`zbekistonda viloyat markazlari-aglome-ratsiya yadrolari rivojlanishi ustuvor ekanligini hisobga oladigan bo`lsak, bu masalaga shunchalik katta e`tibor qaratilishini ochiq-oydin e`tirof etish mumkin [4].

Qashqadaryo, Xorazim, va Jizzax viloyat va shahar hududida savdo majmualarini aglomeratsiya guruhli aholi joylashuvi sxemasi: 1-hududiy aholi joylashuvi va viloyat ma`muriy chigarasi; 2-viloyat markazi asosidagi aholining guruhli joylashuvi; 3-tumanlararo mahalliy aholi joylashuvining chegarasi; 4-tuman mahalliy aholi joylashuvining chegarasi; 5-tumanlararo mahalliy aholi joylashuvining markazi; 6-tuman mahalliy aholi joy-lashuvining markazi. Respublikamizda jahon tajribasini qo`llagan holda nazariy va amaliy bilimlarga tayanib aglomeratsiyalarda shahar aholi punktlarini rivojlan-tirish loyihalari amalga oshirilmoqda. Shaharlarni rejalash-tirishda mintaqani tabiiy va iqlim sharoitlarini o`rganib, aholining turmush tarzini hisobga olgan holda barcha sharoitlarga ega bo`lgan savdobinolarini komp-leks tarzda loyixalash va qurish talab qilinadi. Shahar-sozlik omili bu: Shaharsozlik omillari jamoat binolarini shaharning rejali tuzilmasidagi joylashuvini belgilab beradilar. Viloyat va shahar aholi punktlaridagi istiqo-mat hududlarining rejali tuzulmasini jamoat markazlari, turar-joy imoratlari, ko`cha-yul tarmog`i, umumiy foydalanishdagi ko`kalamzorlashtirilgan hududlarning o`zaro bog`lanishini va, shu bilan birga, umuman, aholi punktining maydoni va hududining tabiiy-iqlimiy sharoitlariga bog`liq bo`lgan rejali tuzilmasini inobatga olgan holda loyihalashtirish lozim. Shaharlarda o`z tarkibida umumshahar markazi, rejalashtirilgan hudud-lar (zonalar) markazlari, jamoat, turar-joy zonalari, dam olish zonalari, kundalik ehtiyojlar uchun savdomaj-mualari, shuningdek shahar yaqinida joylashtirilishi mumkin bo`lgan mavjud bo`lgan jamoat markazlari tizimini shakllantirish lozim [5].

Savdo majmualarini shaharning rejalashtirish strukturasida joylashishini hal qiladi. Shahar hududi asosan, funksional foydalanishni e`tiborga olgan holda seliteb, ishlab chiqarish va landshaft-rekreasion qismlarga ajratiladi. Seliteb hududda turar-joy fondi, jamoat bino va inshootlari joylashtiriladi. Jamoat binolarining soni, tarkibi va joylashtirilishni shahar kattaligiga, hudud funksional-rejaviy tashkillashtiri-lishiga va uning aholini joylashtirish sistemasidagi roliga qarab qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Savdo majmualari uchun tanlangan maydon, unga kirish va chiqish joylarning qulayligi hamda jamoat va individual transport uchun to`xtash joyi bilan ta`minlashi nuqtai nazaridan tanlanadi [10].

Savdo majmualarini tashkilashtirilishiga va rejalash-tirilishga bog`liq ravishda o`zining o`lchamlari bilan umumshahar markazining yadrosini tashkil etuvchi o`zaro bog`langan jamoat fazoning (shoh ko`chalar, maydonlar, piyoda yurishiga mo`ljallangan zonalar) tarkibiy rivojlashiga bog`liq bo`lib qoladi. Bu esa, qurilish zonasi chegarasida mavjud tarixiy muhitning butunligini ta`minlash sharti bilan umumshahar markazining yadrosini to`liq yoki qisman tashkillashtirishni tartibga keltiradi. Shahar aholi punktlarining loyihaviy strukturasini shakllantirish, shahar hududining kompleks rivojlanishi ta`minlash, aholi yashash sharoitini va unga savdodarajasini yaxshilash, shahardagi ishlab chiqarishni rivojlantirish, atrof-muxit muhofazasi, tabiiy va inson resurslaridan unumli foydalanish va rekreasion xizmatlarni tashkillashtirish hozirda katta ahamiyatga ega [8]. Aglomeratsiya markazi hisoblanadigan shahar bosh rejasi aholi punktini rivojlantirishni uzoq muddatli istiqbollari, uning rejalashtirish tuzilmasi, turar joy, ishlab chiqarish, kommunal-ombor va boshqa funksional zonalarni joylashtirishni, aholiga ijtimoiy xizmat ko`rsatish tarmoqlari, transport va muhandislik tizimlari, shuningdek, atrof muhitni muhofaza qilish yo`nalishlarini belgilovchi asosiy shaharsozlik hujjati hisoblanadi. Bosh rejada ko`chalar va maydonlar tizimi, shaharning jamoat va savdomajmualarini bosh markazi, mahalla markazlari, turar-joylar, jamoat binolari, ishlab chiqarish, ombor, kommunal obyektlarining joylashuvi, umumiy foydalanishdagi yashil ko`kalamzorlar, atrof muhitni, tabiat va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bo`yicha chora-tadbirlar, shuningdek, ishlab chiqarish va turar joylarni rivojlantirish uchun zahiradagi hududlar ko`rsatiladi [9].

Bizning ishimizda Qashqadaryo, Xorazm va Jizzax aglomeratsiyasi markazi hisoblangan Qarshi, Urganch va Jizzax shaharlarida mavjud savdo maishiy xizmat ko`rsatish majmualarining joylashtirish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan:- Aglomeratsiya savdomaj-mualarining shahar strukturasida joylashuvi, funksional tarkibi va tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashtirish yo`llari ishlab chiqilgan; Qarshi, Urganch va Jizzax shaharlarida savdo majmualari mikroiqlimini mahalliy tabiyi-iqlimiy sharoitlarga moslashtirish va bog`lash yo`llari tavsiya qilingan; O`zbekistonda qulay iqlim sharoiti (issiq davr davomiyligi) savdo majmuasi maydonlarini tuzishga olib keldi: I. Ochiq turdagi savdo majmuasi qo`yidagicha bo`lib chiqildi: 1. Savdo majmualarining ochiq turda tashkil qilish uchun asosiy savdo ko`chalari ochiq bo`lib uning atrofidan turli savdo korxonalari joylashtiriladi. Ochiq turdagi savdo majmualari iqtisodiy jixatda samarali hisoblanadi. Savdo majmualar iqlimi mutadil shaharlaridan masalan Jizzax viloyatida tashkil qilinadi. II. Yarim ochiq turdagi savdomajmuasi qo`yidagicha bo`lib chiqildi: Savdo majmualarining ochiq turda tashkil qilish uchun asosiy savdo ko`chalari ochiq bo`lib uning atrofidan turli savdo korxonalari joylashtiriladi. Yarim ochiq turdagi savdo majmualari asosiy savdo ko`chalari ochiq va yopiq turda tashkil qilinadi. Savdo korxonalari ko`chalar bo`ylab joylashtiriladi. Bunday savdo majmualarini dashli tekis hududlarda tashkil qilinadi. Masalan Qashqadaryo viloyatida tashkil qilinadi. III. Yopiq turdagi savdomajmuasi qo`yidagicha tashkil-lashtiriladi: 1. Yopiq turdagi savdo majmualarining

asosiy yopiq savdo ko`chalari atrofida kompakt shakllantirishda tashkil qilinadi. Bunda savdo majmualari xaridorlarning salbiy iqlimiy sharoitlarda to`liq himoyalash mumkin. Bunday savdo majmualarini asosiy cho`l ta`sirida bo`lgan shaharlarda tashkil qilinadi. Masalan Xorazm viloyatida tashkil qilinadi. Qarshi, Urganch va Jizzax shaharlarida savdomajmualarini rivojlantirishda rejaviy xilma-xillik va kompozision birlikka erishish yo`llari tavsiya qilingan. Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qilsak, qurilish uchun tanlangan joy har tomonlama qulay bo`lib, shahrimizda turizmni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning bir yo`nalishi deb qarash mumkin. Majmua markazlarining muvafaqqiyatli faoliyat ko`rsatishi uchun mavjud odamlar oqimi yunalishiga to`sqinlik qilmaydigan bir necha kirish joylari tashkil kilingan bo`lib, bu odamlar oqimini tartibga keltirishga hamda savdo markazining ta`sir zonasini kengayishiga olib keladi. Bu o`z navbatida, shahar aholisi va shaharga kelayotgan har bir mexmon yoki turist bu markazda savdo qilishi va ko`ngil ochib dam olib ketishiga imkon ochiladi. Tahlil natijasida Qarshi, Urganch va Jizzax shaharlarida hozirda mavjud ko`pchilig savdo korxonalari yagona majmualar sifatida birlashtirilmagan, alohida olingan kichik-kichik savdo muassasalari sifatida ish yuritib kelgan. Oxirgi yillar davomida juda katta hajmdagi Qarshi shahridagi "Yerqurg`on" bozori "Eski shahar savdo majmuasi" Urganch shahar markazida mavjud Urganch markaziy savdo bozori, Jizzax shahridagi markaziy dehqon bozorlari kabi savdomajmualari barpo qilingan. Ushbu savdomajmualari aglomeratsiya darajasidagi xizmatlarni tashkil qilishga yo`naltirilgan [11].

Shuningdek o`rganilayotgan viloyatlarda savdo majmuasiga tutash ko`chaning ikki tomonida mavjud savdo korxonalari va muassasalari uchun piyodalar harakatini tashkil qilish ham muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Hozirda piyodalar katta oqimlari ko`chaning bir tomonidan ikkinchi tomoniga o`tish uchun transport harakatiga to`siqlar yaratmoqda. Tirbandlik masalasini yechish uchun piyodalar va imkoniyati cheklanganlar uchun yer osti yoki yer ustki o`tish yo`lagi tashkil qilinishi maqsadga muvofiq bo`ladi [10]. Savdomajmualari uchun tanlangan maydon unga kirish va chiqish joylari, jamoat transporti bilan bog`lanishlar va individual transport uchun avto turargohlar bilan ta`minlanganligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi va loyiha takliflar asosida tashkil qilindi.

O`zbekiston viloyat markazlari - aglomeratsiya yadrolarida savdo maishiy xizmat ko`rsatish majmuarining muvaffaqiyatli ishlashi va bunday binolarni loyihalash uchun arxitektorlar va dizaynerlar, injenerlar va texnologlar, quruvchilar va marketologlar, jihozlar bilan ta`minlovchilar va savdo bo`yicha mutaxassislar to`planishib, ularni birgalikda ishlashini tashkil etish maqsadga muvofiq bo`lib qolmoqda. Bo`lajak loyiha yechimlarida savdomajmualarini zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ochib berilishi kerak. Shu sababli aglomeratsiya markazlarida har xil darajadagi savdo va xizmat ko`rsatish turlarini tashkil qilishning yangi tamoyillari o`rganish muxim ahamiyatga ega. Savdomajmualarini loyihalash va qurish nuqtai nazaridan aholi uchun qulay sharoitlar yaratish va hududning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olish dolzarb masala sanaladi [11].

Xulosa. Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat majmualari arxitekturaviy yechimlarida piyodalar va transport harakatini rasional tarzda tashkil qilish ham katta ahamiyatga ega bo`ladi. Kelgusida Aglomeratsiya darajasidagi savdomajmualarini zamonaviy shaharsozlik talablar darajasida loyihalash amaliyoti va qurishni yanada takomillashtirish masalasini hal etishda arxitektorlar va qurilish sohasidagi kadrlar zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan bo`lishi kerak[7]. Ana shu nuqsonlarni bartaraf etish, fan-texnika yutuqlaridan oqilona foydalanish, zamonaviy me`morchilikning eng yaxshi qirralarini o`zaro uyg`unlashtirish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston shaharlarida aglomeratsiya jarayonlari sanoat binolari, erkin iqtisodiy zonalar va savdo-maishiy xizmat majmualarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Sanoat korxonalari va EIZlar iqtisodiy faollikni oshirib, yangi ish o'rinlari yaratadi, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtiradi hamda shahar infratuzilmasining kengayishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, sanoat hududlarining ko'payishi ekologik yuklama, transport tiqilinchlari va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Toshkent, Samarqand va Urgut aglomeratsiyalari misolida o'rganilganidek, sanoat binolari aholi zichligini oshirib, yangi turar joy massivlari, transport tarmoqlari va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga turtki bermoqda. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, chiqindilarni kamaytirish, yashil zonalarni kengaytirish va sanoat hududlarini shahardan oqilona masofada joylashtirish dolzarb masaladir.

Qashqadaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlaridagi aglomeratsiya markazlarida savdo-maishiy xizmat majmualarining shakllanishi shaharlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynamoqda. Ammo amaldagi me'moriy-rejalashtirish tizimlarida transport va piyodalar harakatini tashkil etish, ekologik va iqlimiy sharoitlarga moslashuv yetarli darajada emas. Shu bois zamonaviy aglomeratsiya darajasidagi savdo majmualarini loyihalashda tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar uyg'unligini ta'minlash lozim.

Shahar aglomeratsiyalari va sanoat binolarining o'zaro ta'siri O'zbekiston shaharlarining iqtisodiy, ekologik va urbanistik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ularni muvozanatli, ekologik xavfsiz va funksional rejalashtirish mamlakatning barqaror urbanizatsiyasi uchun asosiy shartdir.

O'zbekiston shaharlarida sanoat binolari va erkin iqtisodiy zonalarning shakllanish jarayonlari urbanizatsiya, iqtisodiy o'sish va me'moriy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu jarayon iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va me'moriy-urbanistik omillar uyg'unligida kechib, shaharlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Sanoat binolari shahar yaqinida joylashtirilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, transport va logistika tizimlari bilan qulay bog'lanishni ta'minlaydi. Erkin iqtisodiy zonalar esa xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport hajmini oshirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyotga katta turtki beradi.

Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan va

Buxoro kabi yirik shaharlarda sanoat va EIZlarning rivojlanishi urbanistik muhitni modernizatsiya qilmoqda. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlik, transport oqimlarini tartibga solish, yashil hududlarni kengaytirish kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Sanoat binolarining me'moriy yechimlari energiya tejamkorlik, ekologik barqarorlik va estetik talablarga javob berishi lozim.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat binolari va erkin iqtisodiy zonalarni oqilona rejalashtirish shahar infratuzilmasining yaxshilanishi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va xalqaro integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu obyektlarning joylashuvi, me'moriy yechimi va funksional tashkil etilishi uzoq muddatli shaharsozlik strategiyasi bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Уралов А.С. Гражданское зодчество средневековой центральной Азии (общеественные здания и сооружения), -Т, 2021,
2. Смирнова О.В., Хромов В.Я. Учреждения обслуживания и общественные центры городов. М., Стройиздат, 1973.
3. СНиП, 23-01-99 Строительная климатология. М. 2000.
4. ШНК 2.07.01 - 94 «Шахарсозлик, шахарва қишлоқ аҳоли пунктларини режалаштириш ва куриш» Тошкент, 1994 й.
5. Xidirov M.M., Eshatov I.Q. Chet el davlatlarida savdo binolari yechimlarining holati va arxitekturaviy xususiyatlari. // Me`morchilik va qurilish muammolari ilm.tex. jurnali, SamDAQI № 2, 2021.
6. Xidirov M.M., Eshatov I.Q. O'zbekiston viloyatlarida aglomeratsion savdo va maishiy xizmat ko'rsatish majmualarining joylashtirishni prognoz qilish. // Me`morchilik va qurilish muammolari ilm.tex. jurnali, SamDAQI № 1, 2022.
7. Xidirov M.M., Eshatov I.Q. Qashqadaryo viloyati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish majmualarini takomillashtirish yo'llari. // "Zamonaviy qishloq aholi punktlarini loyixalashning dolzarb masalalari" mavzusidagi oliy ta`lim muassasalariaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2014 yil, 60-61 betlar. SamDAQI.
8. Анарбаев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии (V- начало XIII в.). - Т: 1981. Стр. 26.
9. Бочаров Ю.П., Демин Н.М. Социально-экономическое развитие крупного города как объект имитационного моделирования. Киев, 1982. - 84 с.
10. Ибрагимов Н. Ибн Батрута и его путишествия по Средней Азии. – М., 1988. – Стр. 58.
11. Маклакова Т.Г. Архитектура гражданских промышленных зданий. / М.: Стройиздат, 1987. - 287 с.

SANOATLASHGAN HUDUDLARDA TURAR JOY VA ERKIN IQTISODIY ZONALAR BINOLARINING ARXITEKTURAVIY TIPOLOGIYASINI ANIQLASH

Malikov Ulug'bek Erkinovich, DSc doktorant
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Tadqiqot davomida O'zbekiston shaharlaridagi sanoatlashgan hududlar, turar joy massivlari va erkin iqtisodiy zonalar binolarining arxitekturaviy-tipologik xususiyatlari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda EIZlar tashkil etilishi sanoat rivojlanishi bilan birga shaharsozlik, arxitektura, ijtimoiy va ekologik omillar bilan chambarchas bog'liqdir. EIZlarning paydo bo'lishi yangi ishlab chiqarish, logistika va xizmat ko'rsatish infratuzilmasining shakllanishiga, shu bilan birga, yaqin hududlarda yangi turar joy massivlarining rivojlanishiga olib kelmoqda.
Kalit so'zlar: ekologik barqaror, funksional jihatdan qulay, monolit, blokli va g'ishtli binolar, turar joy infratuzilmasi.

Annotation. During the study, the architectural and typological features of the buildings of industrialized regions, residential arrays and free economic zones in the cities of Uzbekistan were studied. The results show that the establishment of EEZs in the country is closely related to Urban Planning, Architecture, Social and environmental factors along with industrial development. The emergence of EEZs leads to the formation of new production, logistics and service infrastructure, as well as the development of new residential arrays in nearby areas.
Keywords: environmentally sustainable, functionally comfortable, monolithic, blocky and brick buildings, residential infrastructure.

Kirish. Sanoatlashgan hududlardagi turar joy binolari asosan sobiq ittifoq davridagi tipologik an'analarga tayanib shakllangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda energiya tejamkor, ekologik barqaror va funksional jihatdan qulay yangi turdagi monolit, blokli va g'ishtli binolar kengayib bormoqda. Ushbu uylar sanoat zonalari yaqinida joylashtirilib, ishchi aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratadi. Arxitektura yechimlarida soddalik, modul shakllar va texnologik samaradorlik ustunlik qiladi. EIZ binolarining arxitekturasi esa, asosan, funksionallikka qaratilgan bo'lib, metall karkasli, modulli, tez yig'iladigan inshootlar, logistika markazlari, omborxonalar, boshqaruv ofislari va texnoparklardan iborat. Ularning fasadlarida minimalizm, texnologik dizayn, funksional zonalashuv va energiya samaradorligi asosiy tamoyillar sifatida kuzatiladi. Ma'muriy binolar zamonaviy ofis tipologiyasiga mos, oynali fasadlar, geometrik soddalik va texnologik estetika bilan ajralib turadi. "Qo'qon" va "Urgut" erkin iqtisodiy zonalarining o'rganilishi shuni ko'rsatdiki, EIZlar va ularning atrofidagi turar joylar o'zaro funksional bog'lanishga ega[4]. Qo'qon EIZida sanoat infratuzilmasi, logistika markazlari va ma'muriy binolar bilan bir qatorda, atrofida arzon, o'rta qavatli va funksional turar joy massivlari shakllanmoqda. Urgut EIZida esa tog'li relyef va iqlimiy omillar bino joylashuvi, tom konstruksiyasi va issiqlik izolyatsiyasi tizimlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu hududlarda sanoat, logistika va turar joy infratuzilmasi o'zaro muvozanatli joylashgan bo'lib, shaharsozlik rejalashtirish jarayonlarida bu integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Respublikamizning yana bir hududidagi Urgut erkin iqtisodiy zonasini ko'rib chiqsak, uning arxitekturasidagi jihatlari funksiyalari qaraldi. Urgut erkin iqtisodiy zonasi Samarkand viloyatida joylashgan bo'lib, 2017-yil 12-yanvarda davlat qarori bilan tashkil etilgan. Urgut erkin iqtisodiy

zonasiga dastlab 4 ta massiv (yer maydoni) ajratilgan bo‘lsa, keyinchalik hudud kengaytirilgan. Hozirda massivlar soni ko'proq va umumiy yer maydoni taxminan 1900 gektar atrofida. Urgut erkin iqtisodiy zonasi bir nechta massivlardan iborat bo’lib, "Sariq-tepa", "Mergancha", "O’ramas", "Dustlik" kabi hudud-lar bilan chegaradosh. Urgut erkin iqtisodiy zonasini kengaytirilishidan maqsad yuqori teksnologiyali, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, importni almashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, muhandislik-kommunikatiya infratuzilmasi, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdan iboratdir [1].

Rasmiy manbalarga ko’ra Urgut erkin iqtisodiy zonasining aniq arxitekturasi (fasad shakllari, bezak, uslubiy jihatlar) haqida keng ma'lumotlar kam. Lekin infratuzilma va makon tashkiloti jihatlari bo'yicha bir qancha ma'lumotlar mavdjud: erkin iqtisodiy zonalar hududi ko'p massivlardan iborat. Masalan, "Urgut-1", "Urgut-2", "Urgut-3", keyinchalik boshqa hududlar qo'shilgan. Ushbu massivlar orasidagi yo'l va infratuzilma tarmog'i markazlashtirilgan. Har bir massiv o'z infratuzilmasi bilan ta'minlanadi[8]. Qurilish materiallari sifatida oddiy beton va metall karkasli strukturadan foydalanilgan, ayniqsa ishlab chiqarish sexlari va omborlar uchun qo’llanilgan. Fasadlar soddaroq, dekorativ elementlar kam, ranglar neytral yoki korporativ identifikatsiyalarga mos keladi. Ma'muriy binolar, ofislar esa zamonaviy ofis dizayniga yaqin qilib qurilgan bo’lib, panjara, oynali fasadlar, muntazam geometrik shakllardan iborat. Joylashuvidan kelib chiqib tog'li hududligi bois shamollatish, quyosh nuridan foydalash, iqlimga mos texnologiyalar (isolatsiya, oynalar, soyalar) qo'llanilgan. Atrofida turar joy binolari kamligi sababli asosiy e'tibor sanoat va ishlab chiqarish infratuzilmasiga qaratilgan.

Tadqiqot ostidagi hududlar tahlili. Sanoatlashgan hududlarda turar joy va erkin iqtisodiy zonalar binolarining arxitekturaviy tipologiyasi ularning funksiyasi, joylashuvi, iqtisodiy maqsadlari va urbanistik siyosatiga qarab shakllanadi. Quyida ushbu ikki yo‘nalishdagi binolarning asosiy arxitekturaviy tipologiyalarini o’rganib chiqdik.

1. Sanoat hududlaridagi turar joy binolari. Ko‘p qavatli (7–12 va undan yuqori) beton blokli yoki monolit binolar. Sanoatlashgan hududlarda ishchilarga arzon va tez quriladigan uy-joylar ta'minlash maqsadida barpo etilgan. Odatda kvartal bo‘ylab guruhlangan, bir xilda loyihalashtirilgan, Sobiq Ittifoq davrida keng tarqalgan (masalan, "Xrushchyovka", "Panelka") uylari hisoblanadi. Qavatli monolit yoki g‘ishtli uylar yangi sanoat zonalar yaqinida qurilgan zamonaviy ko‘p va kam qavatli uylar tushuniladi. Loyihasi zamonaviy, energiya tejovchi texnologiyalar bilan uyg‘unlashtiril-gan, yashash qulayligi, ekologik barqarorlik, yaqin masofadagi xizmatlari qulay erkin iqdisodiy zonalar binolarining asosidir. Ayrim sanoat hududlarida, ayniqsa, yuqori daromadli ishchilar yoki muhandislar uchun tashkil etilgan sanoat hududlarida past qavatli (1–2 qavatli), ko‘pincha yopiq turar joy majmualari mavjud (2-jadval).

2. Erkin iqtisodiy zonalar binolari. Zavod va ishlab chiqarish sexlari tarkibiga katta ochiq maydonli, baland shiftli binolar kiradi. Tuzilmalari esa metall konstruksiyali, tez yig‘iladigan, modulli strukturalar, ichki makon ishlab chiqarish liniyalari va logistikaga moslashtirilgan. Logistika va omborxona binolari keng, funksional, yuk mashinalari kirib-chiqishi uchun moslashtirilgan. Avtomatlashtirilgan tizimlar (skladlar, terminal uskunalari) uzoq muddatli saqlash uchun klimat nazorati bilan jihozlangan. EIZ boshqaruv organlarida, investitsion kompaniyalar uchun xizmat qiluvchi zamonaviy ofislari bor. Arxitekturasiga kelsak minimalistik, funksional, ko‘p qavatli bo‘lishi mumkin. EIZlarda startaplar, texnologik kompaniyalar uchun maxsus jihozlangan binolar, modulli, transformatsiyalanuvchi ichki ko’rinishga ega umumiy laboratoriyalar, konferens-zallar, kaverkinglar mavjud (1-jadval).

Turar joy va erkin iqtisodiy zonalar binolari zamonaviy urbanizatsiya va sanoat rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridir.

Turar joy binolari tarixiy (masalan, “Xrushchyovka”, “Panelka”) va zamonaviy shakllarda namoyon bo‘lib, aholi uchun yashash sharoitlarini ta’minlashga xizmat qiladi. Sanoatlashgan hududlarda ular arzon, energiya tejovchi va qulay yashash imkonini beruvchi qurilish texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Ayniqsa, yangi sanoat zonalari yaqinida qurilayotgan zamonaviy monolit va g‘ishtli uylar ekologik barqarorlik va xizmatlar yaqinligi bilan ajralib turadi[6].

Erkin iqtisodiy zonalardagi binolar esa ishlab chiqarish, logistika, boshqaruv va innovatsion faoliyat uchun maxsus moslashtirilgan. Metall konstruksiyali, modulli, tez yig‘iladigan zavod binolari, avtomatlash-tirilgan omborlar va funksional ofis inshootlari EIZ infratuzilmasining asosi hisoblanadi. Bundan tashqari, startap va texnologik kompaniyalar uchun moslashtirilgan zamonaviy laboratoriyalar, konferens-zallar va kaverkinglar EIZlarni innovatsion rivojlanish markaziga aylantirmoqda.

1-jadval

Hudud turi	Arxitekturaviy tipologiyasi	Asosiy xususiyatlari
Turar joy hududi	Ko‘p qavatli bloklar, monolit uylar, xususiy uylar	Arzon, zich, funksional yoki qulay yashashga mo‘ljallangan
Erkin iqtisodiy zonalar	Sexlar, omborlar, ofislar, texnoparklar	Modullik, sanoatga yoki texnologiyaga mos, tez yig‘iladigan, transformatsiyalanuvchi

Yuqoridagi fikirlardan kelib chiqib “Qo’qon” erkin iqtisodiy zonasi (EIZ) va uning atrofi - turar joy hududlari arxitekturasi haqida mavjud ma’lumotlar, kuzatuv hamda umumiy tendensiyalar ko’rib chiqildi. “Qo’qon” EIZ umumiy yer maydoni 709 gektardan iborat. Uning tarkibida ma’muriy bino, logistika markazi, yo‘l, temir yo‘l infratuzilmasi, kommuni-katsiya tarmoqlari (elektr, suv, gaz, aloqa) qurilishi rejalashtirilgan yoki amalga oshirilgan. 2024 yil iyul oyidagi prezident qaroriga ko‘ra, EIZ hududi yana 210.4 gektarga kengaytirilmoqda[3]. EIZ hududida ko‘plab sanoat korxonalari, eksport-orientatsiyalangan ishlab chiqarish turlari mavjud. Baholanayotgan arxitekturaviy jihatlari esa asosan sanoat infratuzilmasi, ma’muriy ofislar, logistika inshootlari,atrofidagi turar joy binolari,

shuningdek, tarixiy va madaniy qiymatga ega ob'yektlar (masjidlar, madrasalar, saroy kabi) bilan bog'liq.

Umumiy malumotlar tahlil qilinib Qo'qon EIZsi va turar joy binolarini ushbu jadvalda umumlashtirildi (2-jadval).

2-jadval

Tuplari	Xususiyatlari	Qo'qonda misollar
Sanoat - ishlab chiqarish binolari	-Katta hajm, metall karkasli qurilish, keng ochiq maydonlar, logistika ehtiyojiga mos yo'llar va kirish-chiqish nuqtalari, skladlar. -Funksionallikka urg'u beriladi; dekorativ jihatlar kam.	"Qo'qon" EIZda logistika markazi va ma'muriy binolar qurilishi rejalashtirilgan.
Ma'muriy va infratuzilma binolari	-Zamonaviy ofis binolari, boshqaruv markazlari, yo'l infratuzilmasi, elektr, gaz, suv ta'minot ob'ektlari. -Optimizatsiyalashgan reja (masterplan) asosida joylashtirilgan.	EIZ infratuzilmasi va ma'muriy bino qurilishi rejalashtirilgan.
Turar joy binolari	- Past va o'rta qavatli uylar - Qattiq shaklli, oddiy geometrik formalarda - Blokli yotoqxona tipidagi uylar yoki kvartiralar (Sovet arxitekturasi ta'siri) - Beton, g'isht, blok materiallar - Ayrim hududlarda hovli, - uylar o'z hovlilariga ega bo'ladi - Fasadlarda soddalik, balki lokal ornamentlar kamroq, ranglar neytral bo'lishi ehtimoli yuqori	Kuchli malakali ma'lumot kam, lekin Qo'qondagi odatiy turar joy hududlarida sovet - post-sovet zamoni qurilishlari ko'p; shahar markazi va tarixiy yadrolarida esa ko'proq ganch, chinni, dekorativ elementlar uchraydi.
Tarixiy - madaniy binolar	Norbuta-bey madrasasi, Jome masjidi, Khudayar Khan saroyi kabi ob'ektlar - dekorativ chinni, ganch ishlari, an'anaviy o'zbek ornamentikasi; simmetriya, kirish portalari (peshtak), kubik shakllar, hovuzli bog'lar; yog'och ustunlar, ainaviy panjara, geometrik va floraly motiflardan foydalanish.	Misollar: Jome masjidi, Norbuta-bey madrasasi, Saroy of Khudayar Khan

Turar joylar va EIZ hududi orasidagi hududlarda shaxsiy qurilishlar, hovli uylari aralashib ketgan bo'lishi mumkin, bu esa arxitektura jihatidan turlicha bo'ladi. Kundan kunga rasmiy master-reja va arxitektura normativlari yangilanib bormoqda. Bu yangi loyihalar zamonaviy texnologiyalar, materiallar va estetika talablari bilan mos ravishda qurilishni talab etadi, bu sovet tipologiyasidan sezilarli farq qiladi[7]. Loyihalashda ob-havo, iqlim shartlari Farg'ona vodiysida ham qurilish materiallarini va shakllarini belgilovchi omil hisoblanadi.

Mavjud ma'lumotlarga asoslanib turar joy arxitekturasiga oid masalalarda Qo'qon EIZ atrofidagi turar joylarga nisbatan umumiy o'zbek shaharlarida va sanoat zonalari yaqinida uchraydigan qurilish tendensiyalari rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Qo'qon EIZ ga yaqin joylarda turar joylar odatda ishchilar uchun qurilishlari - qulay narxda va samarali joylashtirilgan. Bu yerda blokli binolar, bir xil fasad, kam dekorasiya, qat'iy geometrik shakllar, qulay transport va yo'l tizimiga ega. Kengayish jarayonida master plan bo'yicha qurilayotgan turar joylar zamonaviy talablar, energiya tejamkorligi, ekologik jihatlar, parametrlarga muvofiq bolalar maydonchalari, ochiq maydonlar bilan ko'proq jihozlangan bo'ladi. EIZ hududining kengaytirilishi bilan, sanoat binolari, logistik punktlari, omborxonalar, ofislar bilan aralash turar joylar paydo bo'lishi ehtimoli yuqori - ya'ni sanoat infratuzilmasi bilan turar joylar chegaralari yaqin bo'ladi. Agar transport yo'llari yoki atmosferada ifloslanish bo'lsa, fasad materiallarining chidamliligi muhim - sovuq-issiqlik o'zgarishlari, chang, kimyoviy bo'yoqlarning chidamliligiga bog'liq[2].

Qo'qon EIZ hududida turar joy arxitekturasini rejalashtirishda bosh rejani (master plan) puxta ishlab chiqish muhim. Kengaygan hududda yo'llar, infratuzilma, yashil zona va xizmat ko'rsatish obyektlarini oldindan belgilab qo'yish kerak. Fasad dizaynida, zamonaviy, estetik va mahalliy madaniyat elementlarini aks ettiruvchi elementlar bilan boyitilishi mumkin (masalan, qurilish materiallarida chinni, ganch ornamentlar, derazalar shakli va ranglari, balkon panjaralari). Turar joy va EIZ funksionalarining uyg'unligida, transport, yuk tashish, toza havoni saqlash, shovqin kabi omillarni hisobga olish. Arxitektura sifatini nazorat qilish uchun standart normativlarga, energiya samaradorlilig, isitish-sovutish izolyatsiyasi, fasad materiallarining chidamliligini belgilaydi [12].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib shaharsozlik va Urgut shahrining mintaqaviy joylashuvi asosida 3-jadval tuzildi:

3-jadval

Yo'nalishlar	Keltirilgan ma'lumotlar	Ishlab chiqilgan aniq takliflar
Hudud tuzilishi va massivlar	EIZ bir nechta massivlardan iborat; transport yo'llari, kirish-chikish yo'l tarmoklari, industrial maydonlar adjratilgan. Har bir massiv infratuzilma tarmoqlari bilan ta'minlangan.	Sanoat sexlari biridan ajratilgan, blok-strukturali va modulli dizayn; logistika va omborxona binolari keng, baland shiftli bo'lishi kerak.
Fasad materiali va texnologiyalari	Qurilishda odatda beton, metall karkas, blok, gisht ishlatiladi. Issiqlik izolyatsiyasi va shamollatish ehtiyojlari bor.	Ma'muriy binolar va ofislar uchun zamonaviy oynali fasadlar ko'proq bo'lishi kerak. Sanoat binolari esa funksionallik va chidamlilik asosida qurilishi kerak.
Yashash joylari atrofidagi turar joylar	Urgut shahridagi turar joylar an'anaviy uy - material jihatdan loy va g'isht, tom yopish an'anaviy shaklda. Markaziy hududlarda ko'p qavatli blokli uylar.	EIZga yaqin joylarda yangi qurilishlar: o'rta qavatli bloklar, modulli uy-majmualari, xizmat obyektlari bilan integratsiyalashtirilgan turar joy majmualari loyihalsh kerak.
Shaharsozlik, yo'l infratuzilmasi va yashil zonalar	EIZlar infrastrukturasida yo'l, suv-gaz, kanalizatsiya, elektr ta'minoti, logistika va transport yo'llariga ehtiyoj katta. Shahar markazida tor va egri ko'chalar, tabiiy	Turar joylar uchun yo'l tarmoqlari va ichki transport aloqalari, bolalar maydonchalari, yashil parklar, daraxtzor zonasini ko'proq rejalashtirish zarur.

Yo'nalishlar	Keltirilgan ma'lumotlar	Ishlab chiqilgan aniq takliflar
	cho'qqilar va relyef farqlari mavjud.	
Estetik va madaniy elementlar	Urgut madaniyati - bozor, an'anaviy xunarmandchilik, chor-chinor kabi elementlar shahar muhitida sezilarli. Arxitekturada bu elementlar, uylar fasadlarida, bozorlarda, madaniy markazlarda aks etgan.	Yangi binolarda ham mahalliy ornamentlar, rang palitrasi, tom shakllari va g'isht materiallari orqali regional estetikaga moslik qo'shilishi isbotlandi.

Urgut erkin iqtisodiy zonasini shaharsozlik jihatdan loyihaviy strukturalaridan kelib chiqib quyidagicha xulosolarga kelindi. Zonalar va bo'linmalarda- EIZ hududi tekis yerlar bilan o'ralgan, yer maydonlari bo'lak-bo'lak bo'lib ajratilgan. Bu bo'laklar ehtimoliy sanoat bloklari yoki ishlab chiqarish sexlari joylashuvi uchun belgilanmagan yerlar bo'lishi mumkin. Yo'l tarmoqlari- tashqi kirish-yo'llari ko'rinib turadi - asosiy transport yo'llari, ichki yo'llar tarmoqlariga ulanish joylari bir biriga bog'lanadi. Sanoat infratuzilmasi joylashuvi uchun yaxshi aloqaga ega joylar tanlangan bo'ladi. Stadion tarzidagi katta, past shiftli inshootlar-kvadrat yoki to'rtburchak shaklga ega, keng shiftli binolar ko'zga tashlanadi. Bular ombor, ishlab chiqarish sexi yoki logistik markaz bo'lishi mumkin. Shahar va turar joy hududlari yaqinligi- EIZ yaqinida joylashgan odatiy turar joy qurilishlari, ko'p qavatli va past qavatli uylar aralashmasi ko'riladi. Turar joylar yo'l tarmoqlari bilan mumkin kadar bog'langan bo'ladi. Tabiiy relyef va landshaft- Urgut mintaqasi tog'li va tekis emas. Ba'zi massivlar tog' etaklariga yoki relyefga mos ravishda joylashgan. Bu esa bino joylashuvi, drenaj, tom tuzilmalari va quyosh va shamolga orientatsiyaga ta'sir qilishi mumkin.

Urgut erkin iqtisodiy zonasini arxitekturaviy jihatdan binolarning tipologiyasidan kelib chiqib quyidagicha xulosolarga kelindi.

Bunday tahlil va o'rganishlardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, O'zbekiston shaharlaridagi erkin iqtisodiy zonalarning shaharsozlik jihatdan ham, tipologik jihatdan ham, turar joy binolarini hisobga olgan holda uning kelajakdagi rivojlanishini belgilovchi asosiy masala qilib, mintaqaviy joylashuvi, loyihaviy strukturasi, arxitekturaviy jihatlarini hisobga olish kerakligi hisoblandi.

Tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

Sanoatlashgan hududlarda turar joy va EIZ binolarining arxitekturaviy tipologiyasi funksional zarurat, iqtisodiy maqsad va urbanistik siyosat bilan belgilanadi; ularning shakllanishi zamonaviy texnologiyalar, energiya samaradorlik va ekologik me'yorlar asosida amalga oshirilishi zarur.

Qo'qon va Urgut EIZlarining arxitektura modeli O'zbekiston uchun tipik namunaviy tizim bo'lib, unda sanoat, logistika, ma'muriy va turar joy zonalari bir-birini to'ldiruvchi urbanistik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Turar joylar arxitekturasida sovet davri merosini bosqichma-bosqich zamonaviy, ekologik va estetik jihatdan mukammal yechimlarga almashtirish zarur; bunda mahalliy iqlim, madaniyat va an'anaviy bezak elementlarini qayta talqin qilish muhim.

EIZ hududlarining rivojlanishida master plan (bosh reja) ishlab chiqish muhim omil bo'lib, u transport, yashil hududlar, ijtimoiy infratuzilma va ekologik xavfsizlikni kompleks tarzda ta'minlashi kerak.

Shaharsozlik nuqtayi nazaridan, EIZ va turar joylarning integratsiyasi O'zbekistonning barqaror urbanizatsiyasi, iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanatini ta'minlashda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Farg'ona viloyatidagi Qo'qon EIZ va atrofidagi turar joylar arxitekturasi quyidagi jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi: Funksionallik ustunligi - EIZda ishlab chiqarish, logistika va ma'muriy ehtiyojlarga qaratilgan binolardir. Soddalik va samaradorlik asosiy tamoyillari hisoblanadi. Sobiq ittifoq qurilish merosi - ko'p qavatli oddiy shaklli uylar, blokli va loyihalashtirilgan kvartallar. Mahalliy madaniyat, tarixiy estetik elementlarning qayta jonlanishi - tarixiy binolarda ornamentika, an'anaviy materiallar (chinni, ganch, yog'och), simmetriya, hovli va ibodatxona-madrasalar komplekslarida o'z aksini topgan. Yangi innovatsiyalar - EIZ kengayishi, yangi infratuzilma, logistika va ma'muriy binolar zamonaviy arxitektura tamoyillariga mos ravishda qurilib, ehtimoliy energetik samaradorlik, ekologik dizayn elementlari qo'shilishi mumkin.

Umumiy xulosa. O'zbekiston shaharlarida EIZlarning kengayishi nafaqat sanoatning rivojlanishiga, balki yangi arxitekturaviy tipologiyalar, urbanistik shakllar va zamonaviy yashash makonlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayon milliy me'moriy meros va global texnologik yondashuvlar uyg'unligida rivojlanib, mamlakatning kelajakdagi shaharsozlik siyosatini belgilab beruvchi asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. Учебное пособие. – М., 2004. – 260 с.
2. Абдурахманов К.Х., Абдуллаев А.М., Дадабаев Ш.Х. Региональная экономика и управление. – Т.: 2007. – С. 739.
3. Данько Т., Округ 3. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве: Учебное пособие. // Российская экономическая академия им. Г.В.Плеханова. – М.: Инфра-М, 1998. – 168 с.
4. Kim Young Rae. The study on issues related between limits of land development and total control restriction system in the actual conditions within capital region, Seoul National University of Technology, 2009. – R. 8-75.
5. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. унта, 2017. – 170 с.
6. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особие экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.
7. Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006 – 248 с.
8. Семенов К.А. Международные экономические отношения: Учебник для вузов. – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 544 с.

ТЕРРИТОРИАЛЬНО-ПЛАНИРОВОЧНОЕ РАЗВИТИЕ ЖИЛОЙ ЗАСТРОЙКИ Г. КАБУЛА В ПОСЛЕВОЕННЫЙ ПЕРИОД

Салиева Н. М.[1], Усмонов К.Т.[2], Ali Sina[3],
СамГАСУ[1], ТАСУ[2], GmbH (Германия)[3],

Аннотация: это описательное исследование направлено на понимание природы и функции ограниченной политики городского развития и планирования, на изучение проблем в развитии территориально-планировочной структуры Кабула, на выявление правильных подходов к решению проблем эффективного развития территориально-планировочной структуры города Кабула, так же о сдерживающих факторах урбанизации в условиях нестабильного экономического положения Афганистана.
Ключевые слова: урбанизация, территориально-планировочная структура, река Кабул, неофициальные поселения, генеральный план, инфраструктура.

Annotation: this descriptive study aims to understand the nature and function of limited urban development and planning policies, to study the problems in the development of the territorial planning structure of Kabul, to identify the correct approaches to solving the problems of effective development of the territorial planning structure of the city of Kabul, as well as the constraints on urbanization in the context of the unstable economic situation in Afghanistan.
Key words: urbanization, territorial planning structure, Kabul River, informal settlements, master plan, infrastructure.

Annotasiy: Ushbu tavsifli tadqiqot cheklangan shaharsozlik va rejalashtirish siyosatining mohiyati va funktsiyasini tushunishga, Kobulning hududiy rejalashtirish tuzilmasini rivojlantirishdagi muammolarni o'rganishga, Kobul shahrining hududiy rejalashtirish tuzilmasini samarali rivojlantirish muammolarini hal qilishning to'g'ri yondashuvlarini, shuningdek, Afg'onistondagi beqaror iqtisodiy vaziyat sharoitida urbanizatsiyaga cheklovlarni aniqlashga qaratilgan.

Существующая территориально-планировочная структуры Кабула зависит от многих факторов, таких как природно-климатические условия, тип рельефа, функциональное значение города, традиций страны, внешнее окружение, а так же неотъемлемой частью, а может быть основной направляющей в развитии территориально-планировочной структуры Кабула является процесс острых и постоянно изменчивых политико-исторических событий, происходящих на территории Афганистана [1].

Кабул имеет субтропический внутриконтинентальный высокогорный климат. Особенностью климата Кабула являются очень большие суточные колебания температур, которые составляют 10-15 °C круглый год. Зима в Кабуле относительно холодная, с холодными ночами и умеренными оттепелями днём. Лето жаркое, но ночью почти всегда прохладно. Самая высокая температура, которая была зарегистрирована, составляла +40 °C (август), самая низкая −21 °C (январь и февраль). За год выпадает 323 мм осадков. Все осадки идут в зимне-весенний период, летом и осенью осадков практически не бывает. Зимой осадки обычно часто выпадают в виде снега. Солнечные условия доминируют круглый год [2].

Анализируя рельефные особенности расположения Кабула важно отметить, что город сосредоточен в двух межгорных бассейнах. Эти горы называемые Вратами Льва (Шер Дарваза) прорезает река Кабул, протекающая к северу от бассейна Чар-Дехи в юго-западном направлении, вливающаяся в большой северо-восточный бассейн, через который она течет на восток через Джалал-Абад и в Пакистан.



Рис. 1.

Река Кабул, единственная главная река в провинции, питается источниками и талыми водами с перевала Онис - озеро в районе Пагман. Система каналов, простирающаяся от города Пагман до Тапы, нуждается в ремонте и очистке для функционирования в качестве водного ресурса. Плотина Карга, озеро в районе Пахман, частично восстановлена и действует как зона отдыха. Плотина Банде Гази в районе Хаки Джаббар требует огромных восстановительных работ, так как эта территория имеет хороший потенциал для туризма. Дамба может также питать систему каналов, чтобы увеличить площадь орошаемых земель, тем самым создавая возможности внутрихозяйственного труда, особенно во время сбора урожая, а также обеспечение расширения сектора садоводства. Район Пагман является домом для самых известных, высококачественных ресурсов питьевой воды в провинции, которая уже снабжает центр города Кабула через трубопроводную систему [3].

Кабульский регион включает в себя в значительной степени озеленённые и очень плодородные пастбища, которые обеспечивают жизненно важные территории для стад. Общая площадь пастбищ в Кабульском регионе включает в себя приблизительно 350296 га (MAAHF, декабрь 2005 г.) [4].

Однако из-за быстрой урбанизации и роста населения в городе Кабуле и его окрестностях наступление на плодородные территории увеличивается. Поэтому наблюдается превращение пастбищ в городские районы, которые в силу своей принадлежности должны быть сельскохозяйственными угодьями.

В связи с этим понаблюдаем за историей развития, планирования и размещения жилых территорий.

Первый генеральный план Кабула был разработан в 1964 году. Разработка и обновление последующих двух планов города как 1970 года, так и 1978 годов были разработаны с помощью Советских специалистов в области архитектуры и градостроительства. Хотя имеется неоднозначное мнение: - сотрудники городского бюро по планированию стараются подчеркнуть, что первый и вторые генеральные планы Кабула были разработаны с участием международных команд Организацией Объединенных Наций - попытки преуменьшения значения Советской роли в жизни Афганистана.



Рис.2. Генеральный план Кабула: а) 1970 г., б) 1978 г.

Третий генеральный план, показанный на рисунке 2, был разработан, для вместимости населения с количеством в два миллиона человек в течение двадцати пяти лет, с 1978 по 2003 год [5].

Реализация генерального плана 1978 года требовала сноса большей части неофициального жилья в Кабуле с его заменой на многоэтажные жилые дома, парки и дороги по типу советского модернистского города. В городе намеревались переселить неофициальных жителей во временное жилье за пределы Кабула и восстановить неофициальные зоны в соответствии с генеральным планом; а затем переселить людей обратно в новое жилье [6].

Однако, поставленная задача ввиду не имения сильных исполнительных рычагов и постоянно конкурирующих между собой противоборствующих сторон практически была не выполнима.

Кабул - это густой, пыльный мегаполис, который сейчас считается пятым самым быстрорастущим городом в мире. Прирост населения к 2003 году составил около 3 миллионов человек. В связи с этим, после 2002 года началось уплотнение только в нескольких районах Кабула в виде частных квартирных кварталов. Но в то же время город добавил еще два миллиона жителей - хотя никто не может с уверенностью сказать конкретную цифру, так как последняя полная перепись страны также датируется концом 1970-х годов. Поэтому окончательная цифра в отношении численности населения, скорее всего, превалирует значение более чем в 7 млн. человек [7].

Неофициальное является частью общего процесса планирования города, но это совершенно другой способ городского планирования, чем явное, официальное планирование. Поэтому территориально-планировочное развитие Кабула можно отнести к иррегулярной планировочной структуре.

Неофициальная урбанизация в Кабуле часто неверно истолковывается как доказательство отсутствия планирование в Кабуле. Большинство неофициального жилья в Кабуле построено из высушенного на солнце кирпича, называемого «Земляной кирпич» или «глиняный кирпич». Большие массивы неофициального жилья в Кабуле внешне напоминают гораздо более старые поселения на Ближнем Востоке и в Северной Африке [8].

На сегодняшний день Кабул продолжает свой быстрый рост населения, которое в основном образует хаотичные малоэтажные жилые массивы, таким образом, быстро расширяя границы города.

ООН Хабитат тесно сотрудничает с правительством Афганистана и местных органов власти по широкому кругу амбициозных градостроительных проектов, укрепление институционального потенциала, поддержки жилищной политики [10].

Этот подход был принят Правительством Афганистана в качестве методологии, которая будет использоваться в ходе осуществления своей флагманской программы Национальной солидарности и в своих градостроительных проектах, связанных с поддержкой политики и укрепления потенциала местных органов власти в сфере предоставления услуг.

Учитывая ситуацию острой нехватки жилья Министерство городского развития, прогнозируя существенные потребности в инвестициях в жилищный сектор, рекомендовало разработать систему стимулов для застройщиков, чтобы уменьшить нехватку городского жилья. В конце 2000-х годов, в Кабуле начал образовываться средний класс, для которых начали строить жилые массивы, которые тщательно закрыты и защищены. Некоторые из таких новых районов называются «Город Ария» и «Золотой Город», другие элитные районы были построены за городом, такие как поселок Омид-э-Сабз, поселок Касаба/Хваджа Раваш и поселок Сайед Джамалудин. К северу от Кабула также с 2015 года реализуется амбициозный проект «Новый Кабул» — новый жилой массив на площади в 1700 акров к северу от Кабула с 250000 единиц жилья, стоимостью 13000 долл. США за дом, для размещения 700000 жителей[11]. Правительство пожертвует землю застройщику, чья прибыль будет гарантирована фиксированными ценами. Ожидается, что проект будет стоить 250 миллионов долларов. Планируется, что он будет завершен к 2013 году, а в ближайшем будущем будет запущен другой участок на 20 000 домов [12].

Присутствует мнение, что жилой район города может вмещать еще больше населения с точки зрения увеличения плотности населения. Следующие предположения, которые учитывают фактическую жилую площадь, были использованы в расчете.

Малоэтажная жилая застройка: 12 человек - это 2 семьи, состоящей из 6 человек в каждой семье на которую приходится предположительно 400 м^2 земли. Плотность населения была рассчитана на 300 человек/га жилой площади.

Средне этажная жилая застройка: высотное жилье (до 16 этажей) так же было запланировано в генеральном плане - это 5 человек в 1 доме (домохозяйство) на которую приходится 100 м^2 земли. Плотность населения была рассчитана на 500 человек/га жилой площади.

Количество населения в 3,7 миллиона человек рассчитывалось в соответствии с вышеуказанными предположениями.

Кроме того, Министерство городского развития подписало соглашение с американской жилищной компанией о строительстве 10000 одноэтажных домов для жителей Кабула, принадлежащих к категории с низким и средним уровнем достатка. Земля будет бесплатной, а цена продажи домов 20000 долларов. В течение последних трех-четырех лет усилия министерства по продвижению таких жилищных проектов предпринимались в основном из-за трудностей с мобилизацией финансовых ресурсов.

Другой наиболее яркий шаг в преобразовании территориально-планировочного развития является повышение безопасности владения в неформальных поселениях в Кабуле. Также в 2005 году проект USAID по присвоению прав на землю и экономической реструктуризации в Афганистане (LTERA) запустил два проекта в Кабуле [13]. Цель состояла в том, чтобы разработать и опробовать способы повышения безопасности владения жильцами в неформальных поселениях. В проекте использовались три руководящих принципа: во-первых, у общин есть средства для самостоятельного решения большинства земельных проблем (старейшины общин осведомлены об имуществе жителей и, как правило, могут поддерживать претензии в отношении собственности, разрешать споры и отсеивать мошеннические документы). Во-вторых, решения должны быть интегрированы в официальные правовые и земельные системы планирования. В-третьих, процесс должен включать партнерство между властями, сообществами и предпринимателями.

Формализация правового титула и картирования собственности в этих двух районах дала впечатляющие результаты, что нашло свое отражение в значительном росте жилищного строительства, благоустройства жилья, новых предприятий и цен на землю.

Вывод

Процесс восстановления столицы Кабула с точки зрения территориально-планировочного развития сталкивается со многими проблемами, решение которых должно заключаться на основе согласованных и гибких решений Центрального правительства, Министерства городского развития, а так же частного сектора и других заинтересованных лиц.

Учитывая глубокий анализ историко-политического развития Кабула, начиная с 1970 года по современный день, эффективное планировочное развитие территории города возможно в рамках комплексного развития с согласованным землепользованием, транспортом и инфраструктурой.

Создание системы планирования благоустройства микрорайонов для неофициальных жилых районов, основанных на совместном подходе принятия решений Министерством городского развития, местных сообществ и частных застройщиков зданий и сооружений в зависимости от застройки с обязательным учётом планировки сети дорожных артерий.

Для выработки устойчивого видения в долгосрочной перспективе, вопросы реализации генерального плана должны определённым образом периодически пересматриваться, поскольку эффективный вклад каждого зависит от развития управления, финансового института и предпринимательства.

Литература:

1. Kabul : Ministry National Area Based Development Programme, Ministry of Rural Rehabilitation and Development (MRRD), 2006.

2. For a Lucky Few, Life Is Better in This Kabul Neighborhood. www.nationalgeographic.com (28.12 2017).

3. Kabul – the fifth fastest growing city in the world – is bursting at the seams. The Guardian (11.12.2014).

4. To go with story 'Afghanistan-elections-presidency-economics' by... Getty Images.

5. The Changing Face Of Kabul RFE/RL.

6. Completed Projects - Gholghola Group. gholghola.com.

7. New township changes Kabul ring road course. www.pajhwok.com.

8. Urban Development In Kabul: An Overview Of Challenges And Strategies 25.02.2012 by Dr. Annette Ittig

9. Source: Interview with Dr. Greg Massen, LTERA Project Team Leader.

10. Regional Rural Economic Regeneration Strategies

(RRERS)
11. Housing Finance in Afghanistan: Challenges and Opportunities July 2008
12. Planning Kabul: The politics of urbanization in Afghanistan by Pietro Anders Calogero Spring 2011
13. Kabul city current status report for urban evelopment recs International Inc. T. & Associates Yachiyo Engineering Co., Ltd. June 2011.

BUXORO SHAHRINING TARIXIY LANDSHAFTINI MADANIY MEROS MARKAZI SIFATIDA REKONSTRUKSIYA QILISHNING AHAMIYATI

Raxmatova Nodira Baxrievna - katta o'qituvchi, **A`zamova Sitora Murod qizi -** magistrant
Toshket arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniy meros obyektlarini saqlash,qayta qurish va restavratsiya qilish hususan Buxoro shahrida joylashgan Registon maydonini qayta grafik tiklash, tekshirish va restavratsiya qilish qoidalari va tamoyillari bayon etilgan.
Kalit so'zlar: Madaniy meros,ta`mirlash, qayta tiklash,qayta qurish,beton,gumbaz,gips, restavratsiya ishlari , yodgorliklar,zamonaviy materiallar va x.k.

Аннотация. В данной статье изложены правила и принципы сохранения, реконструкции и реставрации объектов культурного наследия, в частности, восстановление, проверка и реставрация площади Регистана в городе Бухара.
Ключевые слова: Ремонт, восстановление, реконструкция, бетон, купол, гипс, реставрационные работы, памятники, современные материалы и т.д.

Annotation. This article outlines the rules and principles for the preservation, reconstruction, and restoration of cultural heritage objects, specifically focusing on the restoration, verification, and renovation of the Registan Square in the city of Bukhara.
Keywords: Repair, restoration, reconstruction,concrete,dome,plaster,restoration works, monuments, modern materials, etc.

Kirish. Buxoro shahri — O'zbekistonning eng qadimiy, boy tarixiy va madaniy merosga ega shaharlaridan biri hisoblanadi. Uning tarixiy markazi butun dunyo bo'yicha tan olingan va YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Buxoroning markazida joylashgan Registon maydoni esa shahar hayotining asrlarga cho'zilgan tarixiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarida muhim o'rin egallagan maskanlardan biridir. Ushbu maydon faqatgina me'moriy yodgorliklar jamlanmasi emas, balki shahar identitetining timsoli, madaniy qatlamlarning real aksidir.Zamonaviy urbanizatsiya jarayonlari, aholi sonining o'sishi, va infratuzilmaning yangilanishi kabi omillar tarixiy obidalarni muhofaza qilish va tiklash muammolarini yuzaga chiqaradi. Registon maydoni ham ushbu bosim ostida qolgan muhim tarixiy hududlardan biri bo'lib, uning rekonstruksiya qilinishi nafaqat estetik va arxitektura nuqtayi nazaridan, balki madaniy merosni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyatga ega.Ushbu maqolada Registon maydonini qayta tiklashning zarurati, bu jarayonning madaniy merosni saqlashdagi o'rni, shuningdek, xalqaro tajriba va zamonaviy metodlarga asoslangan yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqsad — Registon maydoni misolida tarixiy shahar makonini saqlab qolish va uni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy asoslarni yoritishdan iborat.

Asosiy qism. Buxorodagi Registon maydoni — qadimiy shaharning ijtimoiy, diniy va siyosiy hayot markazi sifatida shakllangan tarixiy makondir. U yillar davomida madrasalar, masjidlar, karvonsaroylar va jamoat binolari joylashgan hudud bo'lgan. Registon faqatgina me'moriy obidalar to'plami emas, balki Buxoro shahrining urbanistik rivojlanishida, aholi madaniy hayotida muhim o'rin tutgan.Buxorodagi Registon maydoni, Ark, Dor-ush Shifo madrasasi (saqlanmagan), Bozori Gusfand madrasasi (saqlanmagan), Usto Ruhiy xonaqohi (saqlanmagan), Bola hovuz majmuasi, Poyandabiy Otaliq masjidi (saqlanmagan), Shodimbek madrasasi (saqlanmagan), Xo'ja Nihol madrasasi (saqlanmagan) va toqlar (saqlanmagan) bilan o'ralgan maydon tarzida shakllangan. Bu ob'yektlar o'rab turgan maydonning o'lchami 137x124 metrni tashkil etadi

1.

2.

Rasm 1. Buxoro shahrida joylashgan Registon maydoning joylashuvi.

O`rta asr Registoni binolariga umumiy sharhi. 1. Ark qa`lasi.Ark qal'asi barpo etilishi Eron podshosi va turk

ayolining farzandi Siyovush nomi bilan bog‘liqdir.VII asrda Buxoro hokimi Ark qal'asi vayron bo‘lgan holatda qayta tiklatgan. O‘sha davrda Ark oldida katta registon maydoni bo‘lib, uning atrofida savdogarlar va zodagonlarning ko‘plab qo‘rg‘onlari joylashgan. Hokim va uning qarindoshlari esa shahriston joylashgan. Ark qal'asi ko‘p asrlar davomida amirlikning qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan. Ark qal'asi Buxoro shahrining g'arb tomonida joylashgan va 20 metr balandlikdagi tepalik ustiga qurilgan.Ark qal'asining devorining uzunligi 789,6 metrni tashkil etadi, balandligi esa 16-20 metr orasida. Qal'a hududi 3,96 gektarni egallaydi. U bir necha marta ta'mirlangan va qayta qurilgan, bu esa uning tarixiy ahamiyatini yana-da oshiradi. Arkning tepasiga chiqib qaragan kishiga, qadimiy Buxoroning betakror manzarasi namoyon bo'ladi.

Ark qa`lasi

2. Toqi Tirgaron va Ordifurusho. Abdullaxon II davrida (1557-1598; 1583-yilgacha otasi Iskandarxon nomidan hukmronlik qilgan) Buxoro tanib bo'lmas darajada o'zgargan. U ko'plab bozorlar, shiyponlar va hammomlar qurib, ularni madrasalarga vaqf qilgan. Bu inshootlarning ba'zilari Registon hududida joylashgan edi. Eng muhim pishiq g'ishtdan qurilgan bino Toki Tirgaron, hozirgi Registon shossesining chorrahasida joylashgan edi. Tirgaronning savdo gumbazi Ordfuroshon esa 7 raqami bilan berilgan. 16-asr oxiri O'rta Osiyo shaharlarini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyati savdo markazlarini joylashtirish edi. Buxoroning uchta asosiy o‘tish joyi – To‘ki Zargaron, To‘ki Telpakfurushon va To‘ki Sarrofon bir ko‘cha bilan tutashgan

Toqi Tirgaron.

3.Poyanda-biy Ataliq masjidi.Imomqulixon (1611-1642) amirlaridan biri, Qosimbiy turkmanning o'g'li Poyandabiy otaliq turkman 1610-1611-yillarda Ark janubida, Darvozay Islom mahallasi yaqinida juma masjidi qurdirgan. Poyanda-biy ataliq masjidi Buxoroda Kalyan masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi (40,5x62,5 metr). Masjidning o'nta hujrasi borligi aytib o`tilgan. Masjid bir necha asr davomida qayta tiklangan. Shunga qaramay, 20-asr boshlarida fasadi yomon ahvolda bo'lgan. Qayta tiklash katta mablag' talab qilgan va shuning uchun 1927-yilda ijroiya qo'mitasi binolarni buzib, bu yerda bog' qurishga qaror qildi. Masjid binosi to‘g‘ri burchakli hovli bo‘lib, janubiy, g‘arbiy va shimoliy tomondan to‘rtburchak g‘isht suyanchlar ustidagi uch qavatli galereya bilan o‘ralgan, shiftlari gumbazli edi. Masjidning asosiy qismi kichkina gumbazli qovurg'ali gumbaz bilan qoplangan. Poyanda masjidining sharqiy devori va qal’a tomon olib bordi. Galereya va qal'a devori o'rtasida kichik, cho'zilgan kvadrat shakllangan.



Poyanda-biy Ataliq masjidi

4. Bozori Gusfand madrasasi. Registonning shimolida Abdulazizxon (1645-1681) tomonidan qurilgan ikki qavatli madrasa mavjud edi. U 1669-yilda qurilgan bo'lib, 72 hujra, bir masjid va bir darovzadan iborat edi. Tashqi fasad baland va mahobatli bo'lib, tashqi va ichki ravaklar, oqimlar mozaikaga ega bo'lgan.Madrasa 1920-yilda Buxoro operatsiyasi vaqtida vayron qilingan, 1930-yillarda esa buzib tashlangan. Madrasa Usto Ruhiy mahallasiga qarashli edi. Bozori G‘usfand madrasasi kuydirilgan g‘ishtdan qurilgan hujralariga ega, katta bino edi. Ikki qavatli qatorli uning o‘ziga xos xususiyati baland old portali bo‘lib, u mozaikalar bilan bezalgan. Madrasa rejasi bo‘yicha to‘rtburchak shaklda edi. Madrasaning asosiy fasadi burchaklarida qalin guldasta minoralari bilan o‘ralgan edi..



Bozori Gusfand madrasasi.

5.Dor ush-Shifo madrasasi. Buxoroning hokimiyat tepasiga kelgan Subxonqulixon (1681-1702) mamlakatda barqarorlik o'rnatilgandan so'ng ilm-fan va ma'rifatga katta e'tibor qaratgan. Tibbiyot va matematika sohalariga katta ahamiyat bergan va 1696-yilda Dor ush-Shifo madrasasini qurdirgan. Bu pishiq g‘ishtdan qurilgan, ko‘rinishi madrasaga o‘xshagan, sakkiz burchakli hovlisi bo‘lgan, sardoba qurilgan kichik bir qavatli, madrasa-shifoxona binosi edi. Madrasa-shifoxonaning asosiy darvozasi g‘arbga

qaragan. Binoda shifoxona bo‘limlaridan tashqari zal (jamoatxona), tibbiy kitoblar kutubxonasi, ovqatxona, dorixona va ambulatoriya mavjud edi. Xonalar va hujralar kirish eshigi yonida o'rnatilgan kichik panjara orqali yoritilgan.



Dor ush-Shifo madrasasi

6.Xoja Nihol madrasasi. Bugungi kunda saqlanib qolmagan yana bir bino Xoja Nihol madrasasi Registonda qurilgan. Ubaydullaxon II (1702-1711) davrining oxirgi amirlaridan biri Xoja Nihol tomonidan qurilgan. Xoja Nikol madrasasi Registon maydonining janubida Murdashuyon kvartalida joylashgan edi. Xoja Nikhol madrasasining ikki tomonida ikkita savdo gumbazi bor edi. Madrasa ikki qavatli, to‘rtburchak shaklda, kuydirilgan g‘ishtdan qurilgan. G'ishtlar Shimoldan janubga bo'ylama o'qida mozaiksiz portal kirish joyi, uning orqasida madrasaning burchaklari kesilgan to'rtburchaklar hovli bor edi. Birinchi qavatda masjid binolari (yozgi va qishki) va keng darsxona, ikkinchi qavatda esa hujralar, madrasa talabalari uchun turar joy bor edi. Madrasaning ichki va tashqi hududi bor edi. Madrasaning asosiy fasadi burchaklarida qalin guldasta minoralari bilan o‘ralgan edi.

Xoja Nihol madrasasi

7.Bolo-Xauz masjidi va madrasasi.Bola-Hovuz masjidi va madrasasining arxitekturasi Buxoro me'morchiligi uchun xos bo'lgan an'anaviy uslublar va uslublar aralashmasini o'z ichiga oladi. Bola Hovuz Masjidi va Madrasasi katta va majmuaviy eshiklar bilan o'ralgan. Masjid va madrasaning kirish qismi ko'plab gumbazlar bilan bezatilgan.Gumbazlar va eshiklar naqshinkor va mukammal ishlangan bo'lib, ular islomiyning klassik elementlarini o'zida aks ettiradi.Madrasaning ichki hovuzi ancha keng va ochiqdir. Hovuz masjid va madrasaning markazida joylashgan bo'lib, eski uslubdagi hovuzlar islom arxitekturasi uchun juda muhim hisoblanadi. Bu me`moriy obida Buxoro me'morchiligining yuqori darajasini ko'rsatadi.

Bolo-Xauz masjidi va madrasasi.

8.Shodim-biy madrasasi. Shodibiy madrasasi Buxoro madrasalaridan biri bo'lib, Registonning g'arbida joylashgan. XVI asrda Abdullaxon II davrida Shodibiy otaliq ibn Lalbiy otaliq tomonidan qurilgan. Buxorodagi uchinchi darajali oliy madrasalardan biri bo'lib, banoraspo'sh mudarrislar talabalariga tahsil bergan. Madrasa xom va pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, tashqi hovlisi bo'lgan. Mazkur madrasa sovet inqilobi davrida vayron etilgan Shodibly madrasasi 87 ta hujradan iborat bo'lgan. Ushbu madrasa O'rta Osiyo me'morchiligi uslubida bunyod etilgan



Shodim-biy madrasasi.

9.Xonaqo Usta Ruhiy. Usto Ruhiy me’moriy majmuasi XVI asrning ikkinchi yarmida qurilgan xonlik, masjid va madrasadan iborat bo‘lgan. Hududda ikkita masjid bor edi: bitta masjid Usto Ruhi "panjvakti", ya'ni kundalik foydalanish uchun mo'ljallangan edi. Bu masjidning ro‘parasida katta marmar bilan qoplangan houz bo‘lib, masjidga o‘z nomini bergan. Usto Ruhiy mahallasi ziyoratgohi avliyo Usta Ruhiy qabri bo‘lib, unga o‘z nomini bergan va masjid ichida joylashgan.

Sovetlar davrida ham Registon maydonini tiklashga harakatlat bo`ldi.Maydonda bog' tashkil etildi, haykal o'rnatildi va Lenin sharafiga "VI Lenin" deb nomlandi. Amalda bajariladigan ishlar haqida gapiradigan bo‘lsak, birinchi navbatda maydondagi Bola-xovuzni saqlab qolishimiz kerak. Bu bino tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, hozirgi holatini yaxshi saqlash, kelgusi avlodlarga yetkazish lozim. Ark qal’asini ham yaxshi holatda saqlab, uni ham kelgusi avlodlarga o‘rgatishimiz kerak. Bunday ishlar katta mablag‘ni talab qiladi, shuning uchun hozirdan harakatni boshlab, saqlanib qolgan

binolarni yaxshi parvarishlash zarur.



Rasm 2. Buxoro Registon maydoning 1920-yillargasha bo`lgan holat grafik rekonstruksiyasi va hozirgi holati.



Rasm 3. Buxoro Registon maydoning 1920-yillargasha bo`lgan holat grafik rekonstruksiyasi va hozirgi holati.

Sobiq sho`rolar davrida buzg‘unchiliklar sababli ko‘plab tarixiy obidalar buzib tashlangan.Mavjud manbalar va bilimlar asosida, barcha sharoitlardan foydalangan holda, bu binolarni qayta tiklashimiz kerak. Poyanda-biy Ataliq Jome masjidini tiklashni ko‘rib chiqaylik. Bu masjid haqida bizda faqat taxminiy chizmalar va eski suratlar mavjud. Bu ma'lumotlar asosida masjidni qayta rekonstruksiya qilishimiz mumkin. Ark qal’asi orqasida odamlar ko‘pligi tufayli, janubiy tomondan yana bir eshik o‘rnatish lozim. Binoning ichki qismini esa arxitektura-restavratorlarga topshirib, ular tarixiy manbalarni o‘rganib, ichki

dizaynni yaratib, tiklash ishlarini amalga oshiradilar. Madrasa ham tarixiy mutaxassislar bilan maslahatlashib, isbotlangan faktlarga asoslanib tiklanadi.Tarixiy muhitni yaratishda foydalanadigan materiallar haqida gapiradigan bo‘lsak, hozirgi kunda ko‘plab joylarda sement va beton ishlatilmoqda. Ammo biz tarixiy obidalarni tiklashda zamonaviy materiallar o‘rniga, aslida eski binolarda foydalanilgan materiallar, masalan, lo‘nda g‘isht, tosh, gips va boshqa tabiiy materiallardan foydalanishimiz kerak. Bu materiallar tarixiy ruhni saqlab qolish va obidalarni asl holatiga yaqinlashtirishga yordam beradi. Shu tarzda, Buxorodagi tarixiy obidalarni tiklash orqali biz O‘zbekistonning madaniy merosini saqlash, turizmni rivojlantirish va tarixiy muhitni jonlantirishga erishamiz. Buxorodagi Registon maydonini tiklashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash uning tarixiy ko‘rinishini saqlab qolish va obidalarni barqaror holatda saqlash uchun muhimdir. Registon maydoni, o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan, O‘zbekistonning eng mashhur turistik hududlaridan biridir.

Xulosa va takliflar. Buxoro shahridagi Registon maydoni shahar tuzilishining eng qadimiy qatlamlarini mujassam etgan, o‘zida me’moriy, tarixiy va madaniy qadriyatlarning uyg‘unlashgan majmuasidir. Ushbu hududni qayta tiklash jarayoni nafaqat moddiy-madaniy merosni saqlash, balki tarixiy shahar makonining ijtimoiy va estetik qiymatini tiklash yo‘lida muhim ilmiy-amaliy vazifani bajaradi.Registon maydonining restavratsiyasi va rekonstruksiyasi shahar arxitektura tizimida tarixiy izchillikni ta’minlash, qadimiy makonning morfologik va vizual yaxlitligini saqlashni ko‘zda tutishi zarur. Tiklanish ishlari ilmiy asosda, xalqaro me’yorlar hamda zamonaviy restavratsiya prinsiplari asosida olib borilishi tarixiylik, haqiqiylik va badiiy yaxlitlikning kafolati hisoblanadi.Registon maydonini qayta tiklash loyihalari faqat restavratsion amaliyot sifatida emas, balki ilmiy izlanishlar, innovatsion yondashuvlar va madaniy siyosat uyg‘unligida ko‘rib chiqilishi lozim.Buxoro Registoni bu o‘tmish va zamon o‘rtasidagi madaniy ko‘prikdir. Uning qayta tiklanishi orqali nafaqat me’moriy yodgorliklar, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zlik va estetik dunyoqarashi ham jonlanadi.Ushbu loyiha madaniy merosni saqlash siyosatining tarkibiy qismi sifatida strategik ahamiyatga ega.Qayta tiklashdan oldin maydon va uning atrofidagi obidalar bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tarixiy, arxeologik va geodezik tadqiqotlar o‘tkazilishi zarur.Restavratsiya jarayonlari xalqaro tajriba va Venetsiya Xartiyasi tamoyillari asosida olib borilib, inshootlarning asl ko‘rinish va material yaxlitligini saqlab qolish ustuvor bo‘lishi kerak.Loyihaga mahalliy mutaxassislar, restavratorlar va aholi vakillarini jalb etish orqali madaniy merosni asrashda ijtimoiy mas’uliyat va egalik hissi kuchaytiriladi. Tiklangan Registon maydoni faqat tarixiy yodgorlik emas, balki madaniy-ma’rifiy faoliyatlar, ilmiy anjumanlar va turizm infratuzilmasi uchun mo‘ljallangan ochiq makon sifatida faol foydalanilishi lozim.Rekonstruksiya qilingan hududni muntazam monitoring va boshqaruv tizimi orqali nazorat qilish, ekologik va vizual muvozanatni saqlash mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak.Umuman olganda, Registon maydonining qayta tiklanishi — bu nafaqat Buxoro shahrining tarixiy qiyofasini tiklash, balki O‘zbekistonning milliy madaniy merosini asrab-avaylash va uni global madaniy maydonga olib chiqish yo‘lida muhim qadamlardan biridir. Ushbu jarayon ilmiy asoslangan, estetik jihatdan uyg‘un va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, kelajak avlodlarga bebaho tarixiy merosni to‘laqonli yetkazishning eng samarali yo‘lidir.

Adabiyotlar:

1. Rempel, L. Далёкое и близкое Страницы жизни, быта строительного.Toshkent,1980.
2. Erqo‘ziyev, A. A. “Buxoro xonligi tarixi O‘quv qo‘llanma” Namangan, 2018.
3. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. “Buxoro tarixi”
4. Abdurahmoni Toli. “Istoriya Abulfeyzxana”. Toshkent, 1959.
5. Ahmad Donish. “Istoriya Mang‘itskoy dinastii (Buxoro shahri)” Dushanbe, 1967.
6. “Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi uchinchi ming yillikka Buxoro–Xiva.” Toshkent, 1997.

SARDOBALARNING MINTAQAVIY BARQORARLIKNI TA'MINLASHDAGI TARIXIY TAHLILI

Aymatov Anvarbek Abduxoliqovich, PhD dotsent
TKTU (Samarqand filali)
Kuysinova Farangiz Ziyodulloyevna - mustaqil tadqiqotchi PhD
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola Qadimgi va O‘rta asrlarda, ayniqsa Buyuk Ipak Yo‘li bo‘ylab, Markaziy Osiyo cho‘l va dasht hududlarida qurilgan tarixiy sardobalarning (yer osti yoki yopiq suv saqlash inshootlari) ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni, transchegaraviy savdo xavfsizligini va siyosiy nazoratni ta’minlashdagi ko‘p funksiyali tarixiy rolini tahlil qilish.
Kalit so’zlar: Sardoba, gumbaz, qubba, Ipak yo’li, suv, ijtimoiy- iqtisodiy, barqarorlik.

Kirish. Markaziy Osiyo geografik jihatdan, qadim zamonlardan buyon, keng cho‘l va dasht hududlarining mavjudligi tufayli suv tanqisligi muammosi bilan yuzma-yuz kelib kelgan. Tarixan bu mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va siyosiy barqarorligi bevosita suv resurslarini samarali boshqarish, saqlash va taqsimlash salohiyatiga bog‘liq bo‘lgan. Ushbu kontekstda, sardoba deb nomlanuvchi, asosan yer ostida qurilgan yopiq suv saqlash inshootlari mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda nafaqat texnik, balki fundamental ijtimoiy-siyosiy rol o‘ynagan.

Sardoba (fors-tojikcha so'z, so'zma-so'z ma'nosi "sovuq suv" yoki "muzdek suv") – bu qadimiy va o'rta asrlarda quduq, buloq yoki yer osti hovuzi ustiga

qurilgan, baland gumbazsimon shakldagi inshootdir.

Sardoba o'zining arxitekturasi va muhandislik yechimi bilan ajralib turadi, bu esa suvni uzoq vaqt toza va salqin saqlashga imkon bergan:

Gumbaz (Qubba): Sardobaning eng ko'zga ko'ringan qismi baland, pishiq g'ishtdan terilgan gumbazdir. Bu gumbaz quyosh nurlaridan himoya qiladi, haroratni bir me'yorda ushlab turadi va chang-g'ubor tushishining oldini oladi.

Hovuz (Rezervuar): Gumbaz ostida yerga chuqur kovlangan, doira yoki boshqa shakldagi suv saqlanadigan qism joylashadi. Hovuzning ichki devorlari va tubi suv sizib ketmasligi uchun maxsus materiallar (masalan, qo'y terisi, kigiz, ganch va loy qorishmalari, qir deb atalgan maxsus suv o'tkazmas yelim) bilan qoplangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu maqola Markaziy Osiyo mintaqaviy barqarorligini tarixiy sardobalar misolida tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, u uchta asosiy ilmiy yo‘nalish kesishmasida joylashgan: qadimgi gidrotexnika va suv boshqaruvi tarixi, Buyuk Ipak Yo‘li tadqiqotlari va ekologik-siyosiy barqarorlik nazariyalari. Markaziy Osiyo suv resurslari tarixi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar Sovet davridagi arxeologlar (masalan, S.P. Tolstov, Ya.G‘. G‘ulomov) tomonidan olib borilgan. Biroq, ularning ishlari asosan yirik sug‘orish tizimlari va kanallarga e’tibor qaratgan. Sardobalarga oid adabiyotlar ko‘proq o‘rta asr geograflari (Al-Istaxriy, Ibn Havqal) asarlarida uchraydi. O‘zbek va mintaqaviy arxeologlar ishlari (masalan, R.X. Sulaymonov, A. Muhammadjonov) sardobalarning qurilish texnologiyasi va joylashuvi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni beradi. Mavjud adabiyotlar sardobalarning fizik xususiyatlarini yaxshi yoritgan, ammo ularning suv tanqisligi davrida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlashdagi funksional ahamiyati chuqur tahlil qilinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy sardobalarning Markaziy Osiyo mintaqaviy barqarorligiga ta’sirini chuqur tahlil qilishdan iborat bo‘lgani sababli, tadqiqot asosan sifat tahlili uslublariga tayanadi va bir nechta ilmiy-tarixiy yondashuvlarni birlashtiradi. Sardoba shunchaki alohida inshoot emas, balki Markaziy Osiyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy tizimi (ayniqsa, Buyuk Ipak Yo‘li tizimi)ning ajralmas elementi sifatida ko‘rib chiqiladi.Sardoba funksiyasining (suv zahirasi) umumiy tizimdagi elementlarga (karvonlar harakati, savdo hajmi, aholi joylashuvi) o‘zaro ta’siri va bu ta’sirning mintaqaviy barqarorlikni yaratish yoki buzishdagi oqibatlari o‘rganiladi.

Tahlil va natijalar. Sardobalar o‘rganilayotgan davr uchun eng muhim ijtimoiy chidamlilik mexanizmi bo‘lib xizmat qilgan.

Aholi ko‘chishining oldini olish. Qurg‘oqchil yillarda Sardobalar yagona ishonchli chuchuk suv manbai bo‘lib, cho‘l va dasht chekkalarida yashovchi kichik jamoalarning hayotiy faoliyatini uzluksiz ta’minlagan. Suv zahirasi borligi sababli, cho‘l bo‘yidagi aholi suv izlab ommaviy ravishda unumdor hududlarga ko‘chishga (migratsiya) majbur bo‘lmagan.

Tahlil: Tarixiy manbalar (masalan, Ibn Havqal) ko‘rsatganidek, savdo yo‘llari bo‘ylab barqaror suv ta’minoti joylarda dehqonchilikning cheklangan shaklini va chorvachilikni saqlashga imkon bergan. Sardobalar atrofida kichik rabat (qishloq)lar paydo bo‘lishi o‘troq turmush tarzi elementlarining saqlanib qolishini ta’minlagan.

Iqtisodiy Barqarorlik va Global Logistika. Sardobalarning eng muhim siyosiy natijasi Ipak Yo‘lining ishonchliligi va, demak, butun mintaqaning iqtisodiy gullab-yashnashini ta’minlashda namoyon bo‘lgan.

Savdoning Uzluksizligi Kafolati. Sardobalar karvon yo‘li bo‘ylab har 25-30 km masofada joylashgan karvonsaroylar yoki rabatlarning ajralmas qismi bo‘lgan. Ular karvonlar uchun suv bilan ta’minlangan dam olish, oziqlanish va xavfsizlik nuqtasi vazifasini o‘tagan.

Sardobalar to‘xtash joylarida suvning barqarorligi tufayli, yirik yuk tashuvchi karvonlar **v**aqtni tejab, yo‘l bo‘yi xavflarini kamaytirgan holda, o‘z marshrutini aniq rejalashtirish imkoniga ega bo‘lgan. Sardobaning qurishi savdo yo‘lining falaj bo‘lishiga, bu esa mintaqa iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga olib kelgan. Siyosiy Barqarorlik va Hukmronlik Manbai Sardobalarning qurilishi va nazorati Markaziy Osiyo hukmdorlari uchun muhim siyosiy va harbiy vosita bo‘lgan.

Hokimiyat Legitimligi va Ta’siri. Sardobani qurish va ta’mirlash uchun mablag‘ ajratish hukmdorning fuqarolariga g‘amxo‘rlik qilishi va din (sadaqa, vaqf) talablarini bajarishi belgisi bo‘lgan. Bu hokimiyatning ijtimoiy legitimligini oshirgan.

Tahlil: Amir Temur va Temuriylar kabi yirik sulolalar sardobalarni ko‘p qurishgan va ta’mirlashgan. Bu faoliyat ularning siyosiy qudratini kengaytirishga xizmat qilgan. Sardobalar atrofidagi qal’a va istehkomlar ustidan nazorat strategik hududiy nazoratni, demakki, harbiy barqarorlikni ta’minlashga yordam bergan.

Ilk bor E.E. Masson tomonidan Sardoba o’rganilagn va ilmiy adabiyotlarda kiritgan.Quyida ayrimlari haqida namunalar keltirib o’tamiz.

1-rasm . O’rta Osiyoda joylashgan qadimiy sardobalarning rasmlari.

O'zbekistonda bugungi kungacha bir nechta tarixiy sardobalar saqlanib qolgan (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 44 tadan ortiq bo'lgan). ularning 29 tasi Qarshi cho‘lida, 3 tasi Mirzacho‘lda, yana 3 tasi Toshkent - Farg‘ona o‘rtasidagi qadimgi savdo yo‘lida hamda bittasi

Karmana yaqinida Malikcho‘lda joylashgan.Tarixda Mirzacho‘lni kesib o‘tuvchi bir nechta karvon yo‘llari bo‘lgan.

Eng mashhurlari: Raboti Malik Sardobasi (Navoiy viloyati) Qarshi Sardobasi (Qashqadaryo viloyati. Yog'ochli Sardoba (Sirdaryo viloyati) Qaynargumbaz (Sardoba Qaynar) (Toshkent viloyati).

Yogo‘chli sardoba shu yo‘llardan birining yoqasida joylashgan bo‘lib, Mirzasardobadan 30 km janubda, Jizzaxdan 35 km shimolda o‘rnashgan. Hozirda bu joy O‘zbekistonning Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Gumbaz qishlog‘i hududiga to‘g‘ri keladi. Tadqiqot-chilarning fikricha, Mirzacho‘ldagi sardobalarning barpo etilishi Amir Temur va Abdullaxonning bunyodkorlik faoliyati bilan bog‘liqdir. Yog‘ochli sardoba haqidagi ilk ma’lumotlar Hofiz Tanish al-Buxoriyning „Abdullanoma“ asarida keltirilgan. Tarixiy manbalarga asosan ichkihovuzlar 2 ta bo‘lgan. Bu hovuzlarda quduq bo‘lib doimiy muzday suv bilan ta’minlanib turilgan. Keyinchalik 1 ta hovuz yopilib ketgan va hozirda 1 ta hovuz qolgan. Sardoba hovuzi loyqalanib, inshootni ishdan chiqarmasligi uchun uning oldida kattagina suv tindirgich — ochiq hovuz qurilgan. Atrofdan oqib kelgan qor va yomg‘ir suvlari avval suv tindirgichda to‘planib, undan loyqa hovuz tubiga cho‘kkan, so‘ngra toza suv sardobaga quyilgan. Suv tindirgichga chorva mollari kirib, ifloslamasligi uchun uning atrofi paxsa devor bilan o‘ralgan.

2-rasm . Yog’ochli sardobasining fasd ko’rinishi va bosh rejasi ya’ni hoziri joylashgan o’rni.

Sardoba Malik — g‘ishtli yerosti sisternasi bo‘lib, O‘zbekistonning Navoi shahri yerlarida joylashgan. Sardoba XI asrda Rabot Malik karvon saroyini ta’minlash maqsadida bunyod etilgan. Qurilishidan sardoba 13 metr chuqurlikka ega, diametri 12 metrli yopqichli hovuz ko‘rinishida. Gumbazning uchta yorug‘lik oynalari mavjud. Hozirgi vaqtda kirish qismi portal (qurilganiga ko‘p bo‘lmagan) ko‘rinishida. Portaldan suv tomonga tushish yo‘li — pandus mavjud. Sardoba Zarafshon daryosi suvi orqali yerosti kanali bo‘lmish koriz, ya’ni quduqlar tarmog‘i yuzasiga chiquvchi suv bilan to‘ladi.

Qarshi sardobasi — Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida joylashgan me’moriy yodgorlik[1]. Registon maydoning janubi, Odina masjidiga yaqin joyda (hozirgi Eski shahar) joylashgan. Qarshi sardobasi Qarshi cho‘lida joylashgan 29 ta sardobadan biri hisoblanadi. Me’moriy yodgorlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston moddiy va madaniy merosining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan.

Xulosa. shbu tadqiqot "Sardobalarning Mintaqaviy Barqarorlikni Ta’minlashdagi Tarixiy Tahlili" mavzusi doirasida Markaziy Osiyo cho‘l mintaqalarining qadimgi va o‘rta asrlardagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chidamliligini ta’minlashda sardobalarning ko‘p funksiyali rolini chuqur yoritib berdi. Tizimli va tarixiy-qiyosiy tahlil natijalari sardobalar shunchaki texnik inshoot emas, balki mintaqaviy hayotning barqarorligini ta’minlovchi fundamental tizim bo‘lganligini tasdiqladi.

Ekologik-Ijtimoiy Barqarorlikning Asosi: Maqolaning tahlili Sardobalar qurg‘oqchilik sharoitida ijtimoiy chidamlilik (social resilience) ning asosiy mexanizmi bo‘lib xizmat qilganligini isbotladi. Yog‘ochli Sardoba, Qarshi Sardobasi kabi inshootlarning strategik joylashuvi suv zahirasi yaratib, cho‘l bo‘yidagi aholining ommaviy migratsiyasini oldini olgan hamda suv taqsimoti borasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy nizolarni yumshatgan.

Global Iqtisodiy Logistika Kafolati: Sardobalar karvonsaroylar (masalan, Raboti Malik) bilan integratsiyalashgan holda Buyuk Ipak Yo‘li savdo-logistik zanjirining uzluksiz ishlashini ta’minlagan. Ular har 25-30 km masofada joylashgan "hayot nuqtalari" bo‘lib, yuk tashish vaqtini tejash, yo‘l xavfsizligini oshirish orqali butun mintaqaning iqtisodiy barqarorligiga xizmat qilgan.

Hukmronlikning Infratuzilma Asosi: Sardobalarni qurish va himoya qilish (Amir Temur va Abdullaxon faoliyatiga oid ma’lumotlar ko‘rsatganidek) hukmdorlar uchun siyosiy legitimlikni oshirish va o‘z ta’sir doirasini cho‘l hududlari bo‘ylab kengaytirishning samarali vositasi bo‘lgan. Sardobalar ustidan nazorat qilish strategik hududiy nazoratni anglatib, mintaqaviy siyosiy barqarorlikni mustahkamlagan.

Tarixiy Gidro-Diplomatiya Tadqiqotlarini Kengaytirish: Ilmiy-tadqiqot institutlari (TKTU, SamDAQU) sardobalarning suvni boshqarish va taqsimlash qoidalari (vaqf hujjatlari) bo‘yicha tarixiy hujjatlarni o‘rganish orqali an’anaviy suv nizolarini hal qilish modellarini tahlil qilishlari va bu tajribani zamonaviy transchegaraviy suv diplomatiyasiga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganishlari tavsiya etiladi.

"Madaniy Meros va Barqaror Rivojlanish" Dasturlariga Integratsiya: O‘zbekistondagi noyob sardobalar majmuasini (masalan, Qarshi, Raboti Malik, Yog‘ochli) himoya qilish va restavratsiya qilish bilan birga, ularni zamonaviy turizm dasturlariga "Mintaqaviy Chidamlilik Yodgorliklari" sifatida kiritish zarur. Bu, aholi va xalqaro hamjamiyatga tarixiy suv boshqaruvining ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Ilmiy Adabiyotlardagi Bo‘shliqni To‘ldirish: E.E. Masson kabi ilk tadqiqotchilar faoliyatini davom ettirgan holda, mavjud adabiyotlarda to‘liq yoritilmagan sardobalarning ijtimoiy-siyosiy funksional ahamiyatini chuqur o‘rganish, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda bu mavzuni yanada keng yoritishni rag‘batlantirish

maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1 G‘ulomov, Ya. G‘. (1957). O‘zbekiston sug‘orish tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti. (Sardobalarning umumiy suv boshqaruvi tizimidagi o‘rnini belgilash uchun fundamental manba.)

1- Tolstov, S. P. (1948). Drevniy Xorezm. Opyt istoriko-arxeologicheskogo issledovaniya. Moskva: Nauka. (Markaziy Osiyo qadimiy gidrotexnik inshootlari va suv madaniyati kontekstini tushunish uchun.)

2- Muhammadjonov, A. (1978). Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixi. Toshkent: Fan. (Qarshi cho‘lidagi sardobalar kabi kichik suv inshootlarining lokal ahamiyatini yoritish uchun.)

3- Hofiz Tanish al-Buxoriy. (XVI asr). Abdullanoma. (Yog‘ochli sardobasi kabi inshootlarning qurilishi va uning davr tarixidagi ahamiyatini aniqlash uchun birlamchi manba.)

4- Ibn Havqal. (X asr). Kitob surat al-arz. (O‘rta asr geograflarining Markaziy Osiyo karvon yo‘llari, manzilgohlari va suv manbalari to‘g‘risidagi ta’riflari.)

5- Pugachenkova, G. A. (1979). Zodchestvo Sredney Azii XV v. Moskva: Iskusstvo. (Karvonsaroylar va ularga tutash sardobalar me’moriy xususiyatlarini tahlil qilish uchun.)

6- Masson, M. E. (1954). Srednevekovyye karavan-sarai i sardoby v Turkestane. Tashkent: Izdatelstvo AN UzSSR. (Sardobalarni ilmiy adabiyotlarga kiritgan ilk fundamental ish.)

7- Sulaymonov, R. X. (2002). O‘zbekistonning arxeologik yodgorliklari. Toshkent: Fan. (Sardobalarning arxeologik topilmalari va texnik xususiyatlarini yoritish uchun.)

8- UNESCO Silk Road Programme. The Silk Roads: Nomads and Settled Peoples Interaction. (Sardobalarning global savdo va mintaqaviy o‘zaro munosabatlardagi rolini nazariy asoslash uchun.) [Manba: http://uz.unesco.org/silkroad]

LANDSHAFT SAN’ATIDA SUV VA YASHIL O‘SIMLIKLARNING BADIIY IFODASI

Norov Jahongir Saidovich - katta o’qituvchi. KIUT Samarqand filiali

Annotatsiya. Mazkur maqolada landshaft san’atining muhim tarkibiy elementlari hisoblangan suv va yashil o‘simliklarning badiiy ifodasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Suv insoniyat madaniyatida hayot manbai, poklik va ruhiy osoyishtalik ramzi sifatida qadrlangan bo‘lsa, yashil o‘simliklar tabiatning jonli ifodasi, hayotiylik, go‘zallik va barqarorlik timsoli sifatida talqin qilingan. Tadqiqotda suv va o‘simliklarning qadimiy Sharq, G‘arb va milliy bog‘-park an’analaridagi o‘rni, ularning falsafiy va estetik ramziyligi, zamonaviy landshaft arxitekturasi va dizaynidagi talqinlari keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada suv va o‘simlik uyg‘unligining inson psixologiyasi, ekologik barqarorlik va badiiy kompozitsiyalarni boyitishdagi roli tahlil qilinadi. Yapon bog‘lari, islomiy bog‘ san’ati va zamonaviy ekologik landshaft loyihalari misolida suv va yashil o‘simliklarning uyg‘unlashuvi san’at asari sifatida ko‘rib chiqiladi. Natijada, maqola landshaft san’ati nazariyasi va amaliyotida suv hamda yashil o‘simliklarning badiiy ifodasi chuqur ilmiy asoslanganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: landshaft san’ati, suv, yashil o‘simliklar, ekologik barqarorlik, bog‘-park madaniyati, estetik ifoda.

Аннотация. В данной статье научно анализируется художественное выражение воды и зелёных растений, являющихся важными составными элементами ландшафтного искусства. Вода на протяжении всей истории человечества воспринималась как источник жизни, символ чистоты и духовного спокойствия, тогда как зелёные растения трактовались как живая эмблема природы, символ жизненности, красоты и устойчивости. В исследовании подробно рассматривается роль воды и растений в древних восточных, западных и национальных садово-парковых традициях, их философская и эстетическая символика, а также интерпретации в современном ландшафтном дизайне и архитектуре. Кроме того, в статье анализируется значение гармонии воды и растений в обогащении художественных композиций, обеспечении экологической устойчивости и влиянии на психологию человека. На примере японских садов, исламского садово-паркового искусства и современных экологических ландшафтных проектов рассматривается синтез воды и зелени как произведение искусства. В итоге статья показывает, что художественное выражение воды и зелёных растений имеет глубокое научное обоснование в теории и практике ландшафтного искусства.

Ключевые слова: ландшафтное искусство, вода, зелёные растения, экологическая устойчивость, садово-парковая культура, эстетическое выражение.

Agrosanoat binolari, yirik hajmga, mustahkam konstruksiyalarga va o‘ziga xos arxitekturaga ega bo‘lishiga qaramay, ularning tarixiy qadr-qimmati mahalliy hokimiyatlar va ko‘chmas mulk ishlab chiquvchilari tomonidan ko‘pincha to‘liq anglanmaydi. Natijada, ushbu inshootlar buzib tashlanish xavfi ostida qolmoqda, bu esa shahar o‘tmishining jamoaviy xotirasini yo‘qotish va ekologik iz (ecological footprint) ni oshirishga olib keladi (yangi qurilish materiallari sarfi hisobiga). Shu sababli, ushbu tadqiqot ushbu meros obyektlarining adaptiv qayta foydalanish (adaptive reuse) nazariyasi va amaliyoti orqali ularning barqaror shahar rivojlanishidagi real iqtisodiy va ekologik ahamiyatini ilmiy asoslashni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu maqola Sanoat merosi konsepsiyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllangan bo‘lib, bu borada TICCIH (The International Committee for the Conservation of the Industrial Heritage) kabi tashkilotlarning yo‘riqnomalari asosiy o‘rin tutadi. Tadqiqotchilar (masalan, K. Korbett, D. Makklelland) o‘z ishlarida sanoat binolarini texnologik tarixning moddiy guvohi sifatida ko‘rishni taklif qiladi.

Adaptiv qayta foydalanish kontseptsiyasi binolarni buzish o‘rniga ularning funksional maqsadini o‘zgartirish orqali hayotini uzaytirishni nazarda tutadi. Bu borada J. Geyl va R. Koul ishlari muhim hisoblanadi. Ular eski binolarning o‘ziga xosligini saqlash, energiya samaradorligini oshirish va madaniy boylik yaratishdagi rolini nazariy asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy nazariy yondashuvi Adaptiv Qayta Foydalanish (Adaptive Reuse) modeliga asoslanadi. Bu yondashuv agrosanoat binolarini buzishga alternativa sifatida, ularning tarixiy, me’moriy va konstruktiv qadrini saqlagan holda zamonaviy funksiyalarga (turar-joy, madaniy, tijorat) moslashtirish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Agrosanoat binolari merosini barqaror rivojlanish kontekstida o‘rganish uchun tarixiy-qiyosiy tahlil metodi qo‘llaniladi.Markaziy Osiyo shaharlaridagi (masalan, Toshkent, Samarqand) yirik agrosanoat obyektlarining (masalan, eski tegirmonlar yoki vino zavodlari) me’moriy tuzilishi va tarixiy-ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Xalqaro Tajribani Qiyoslash: Agrosanoat binolarini qayta foydalanish bo‘yicha muvaffaqiyatli xalqaro amaliyotlar (masalan, Yevropadagi tashlandiq omborlarning ijodiy klasterlarga aylantirilishi) o‘rganiladi va ularni O‘zbekiston shaharsozligi sharoitiga moslashish imkoniyatlari qiyoslanadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning Adaptiv Qayta Foydalanish (Adaptive Reuse) modeliga tayangan tizimli va tarixiy-qiyosiy tahlil metodologiyasi Markaziy Osiyo shaharlaridagi agrosanoat binolarining zamonaviy shaharsozlik va barqaror rivojlanishga ta’sirini uchta asosiy jihat bo‘yicha baholadi.

1. Ekologik Barqarorlik va Resurslarni Tejamkorlik.Agrosanoat merosini saqlab qolish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs) – xususan, 12-maqsad (Mas’uliyatli iste’mol) va 11-maqsad (Barqaror shaharlar) ga erishishda bevosita strategik yechim hisoblanadi.

Tahlil: Sanoat obyekti sifatida qurilgan agrosanoat binolari o‘zining yirik konstruksiyalari (qalin devorlar, mustahkam poydevorlar) tufayli katta miqdorda "kulrang energiya" (Embodied Energy) ni o‘zida saqlaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra (Addis va Schouten, 2004), bino buzilsa, ushbu energiyaga sarflangan resurslar (minerallar, suv, ishchi kuchi) bekor ketadi va qurilish chiqindisi sifatida atrof-muhitga tashlanadi.

Natija (Ekologik): Agrosanoat binolarini yangi funksiya (ijodiy makon, turar-joy) uchun qayta tiklash yangi qurilishga nisbatan 40% dan 60% gacha energiya tejash imkonini beradi (Riffat, 2013). Bu, Markaziy Osiyo sharoitida — yangi qurilish materiallarining qimmatlashuvi va ekologik ta’siri yuqori bo‘lgan joylarda — ekologik izni (carbon footprint) pasaytirishning eng samarali yo‘li ekanligini isbotlaydi. Qayta foydalanish orqali qurilish chiqindilari ham minimallashtiriladi [1].

2. Ijtimoiy Barqarorlik va Lokal Identikatorni Mustahkamlash

Agrosanoat merosi shahar o‘tmishining moddiy guvohi bo‘lib, aholining jamoaviy xotirasi va shaharning o‘ziga xosligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Tahlil: Makklelland (2009) ta’kidlaganidek, sanoat binolari "joy ruhi" (Genius Loci) ni saqlaydi. Eski paxta zavodlari, tegirmonlar yoki vino zavodlari Markaziy Osiyo shaharlarining industrial o‘tmishi, iqtisodiy jarayoni va mahalliy aholining mehnati bilan bevosita bog‘liq. Ushbu binolarni buzib, ularning o‘rniga bir xil shisha-beton inshootlar qurish shaharning tarixiy qiyofasini yo‘qotishga va ijtimoiy bog‘liqlikni susaytirishga olib keladi.

Natija (Ijtimoiy): Agrosanoat binolarini madaniy markazlar yoki jamoat joylariga aylantirish (masalan, Yevropadagi ko‘plab sanoat ob’ektlari singari) o‘tmishni hurmat qilgan holda, mahalliy hamjamiyatning o‘z shahriga bo‘lgan sadoqatini (sense of place) kuchaytiradi. Bu, o‘z navbatida, shaharning ijtimoiy barqarorligi va madaniy boyligini ta’minlaydi [2].

3.Iqtisodiy Barqarorlik va Sarmoyaviy Samara. Adaptiv qayta foydalanish strategiyasi uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tahlil: Al-Haddad (2012) tomonidan o‘tkazilgan

tahlillarga ko‘ra, garchi dastlabki ta’mirlash xarajatlari yangi qurilishdan yuqori bo‘lsa-da, Adaptiv Qayta Foydalanish (AQF) loyihalari butunlay yangi joylarni o‘zlashtirishga ketadigan infratuzilma xarajatlarini (yo‘l, kommunikatsiya, elektr tarmoqlari) tejaydi. Agrosanoat binolari odatda shahar ichidagi mavjud kommunikatsiya tarmog‘iga ulangan bo‘ladi.

Natija (Iqtisodiy): Tarixiy bino bazasida yaratilgan zamonaviy makonlar (masalan, loft ofislar yoki dizayn studiyalari) ko‘pincha ijodiy biznes va yuqori daromadli segmentlar uchun jozibador bo‘lib, bu shaharning tashlandiq hududlari (brownfields) ga sarmoya jalb qilish orqali mulk qiymatini oshirishga va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Bu gentrifikatsiya jarayonini ijobiy boshqarish imkonini beradi [3].

Xulosa. Ushbu tadqiqot agrosanoat merosi binolarining shaharsozlik va barqaror rivojlanish jarayonlari uchun naqadar muhimligini ilmiy jihatdan asosladi. Adaptiv qayta foydalanish (Adaptive Reuse) modeliga asoslangan tizimli tahlil natijalari bu inshootlarning nafaqat madaniy yodgorlik, balki ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi strategik resurs ekanligini tasdiqlad

Uch Tomonlama Barqarorlik Omili: Agrosanoat binolarini saqlab qolish va qayta foydalanishga kiritish yangi qurilishga sarflanadigan kulrang energiyani (Embodied Energy) tejash hisobiga ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi; shaharning lokal identikatorini va jamoaviy xotirasini saqlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi; hamda mavjud infratuzilmaga sarmoya kiritish hisobiga iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

Rivojlanish uchun Katalizator: Tahlil natijalari eski agrosanoat hududlarini (brownfields) madaniy, ijodiy va iqtisodiy faoliyat markazlariga aylantirish — shaharning periferik yoki tashlandiq qismlariga sarmoya jalb qilishning samarali usuli ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa, shahar iqtisodiyotiga diversifikatsiya kiritishda muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy Bo‘shliqni To‘ldirish: Tadqiqot Markaziy Osiyo shaharsozligi nuqtai nazaridan yirik agrosanoat merosiga (ayniqsa, Sovet davridagi) bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish zarurligini ta’kidladi, chunki bu obyektlarning ahamiyati mintaqaviy ilmiy adabiyotlarda hali to‘liq baholanmagan.

Me’yoriy Hujjatlarni Qayta Ko‘rib Chiqish: Shaharsozlik va Madaniy Merosni Himoya qilishga oid qonun hujjatlariga agrosanoat binolarining alohida toifasini kiritish va ularning adaptiv qayta foydalanishga mo‘ljallangan texnik me’yorlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi (masalan, seysmik xavfsizlik sharoitida eski konstruksiyalarni mustahkamlash me’yorlari).

Soliq va Kredit Imtiyozlari Berish: Agrosanoat merosi obyektlarini adaptiv qayta foydalanish loyihalariga sarmoya kirituvchi xususiy investorlar uchun uzoq muddatli soliq imtiyozlari (binoni saqlash majburiyati bilan) va imtiyozli kreditlar berish mexanizmini joriy etish taklif qilinadi. Bu, AQF loyihalarining dastlabki yuqori xarajatlarini qoplashga yordam beradi.

Lokal Identikatorni Jonlantirish: Mahalliy me’moriy ta’lim muassasalari va shahar hokimiyatlari hamkorligida "Agrosanoat merosi keyslari"ni yaratish va ularni ta’lim dasturlariga kiritish tavsiya etiladi. Shaharsozlik loyihalarini rejalashtirishda eski agrosanoat obyektlarini atrofidagi hudud uchun jamoat maydoni yoki madaniy klaster sifatida loyihalashni majburiy etib belgilash lozim.

Xalqaro Tajribani Integratsiya Qilish: Xorijiy hamkorlar (UNESCO, ICOMOS) bilan birgalikda agrosanoat binolarini barqaror qayta tiklash bo‘yicha master-klasslar va seminarlar tashkil etish orqali texnik va amaliy bilimlarni oshirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Addis, B., & Schouten, M. (2004). Structural reuse and recycling: Environmental and economic consequences. Building and Environment, 39(8), 919-927. [https://doi.org/10.1016/j.buildenv.2004.01.002]
2. Al-Haddad, S. (2012). Economic and Environmental Benefits of Adaptive Reuse in Heritage Buildings. Journal of Sustainable Architecture, 25(3), 112-125.
3. Choay, F. (2001). The Rule and the Model: On the Theory of Architecture and Urbanism. MIT Press. (Madaniy meros va shahar nazariyasiga oid fundamental ish)
4. Geyl, J. (2010). Cities for People. Island Press. (Shahar makonidan foydalanish va barqaror urbanizm masalalari)
5. Makklelland, D. (2009). Industrial Heritage and Sustainable Development. UNESCO Publication. [http://www.unesco.org/culture/industrial-heritage]
6. Riffat, E. (2013). Sustainable Architecture: Principles, Paradigms, and Case Studies. Elsevier.
7. TICCIH. (The International Committee for the Conservation of the Industrial Heritage). (Sanoat merosini konservatsiya qilish bo'yicha xalqaro nizomlar va hujjatlar). [http://www.ticcih.org/]
8. UN. (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations General Assembly. [https://sdgs.un.org/2030agenda]
9. Vaxobov, A. A. (2019). Markaziy Osiyo shaharlarining industrial merosi: o'rganish va saqlash muammolari. O'zbekiston Arxitekturasi Jurnali, 3(1), 45-52. (Markaziy Osiyo kontekstiga oid lokal manba namunasi)

QASHQADARYONING O‘RTA ASR JOME MASJIDLARI ARXITEKTURASI

Meliqulov G‘ayrat Abdug‘afforovich
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, dotsenti PhD

Annotatsiya. Jome masjidlari islom me’morchiligi va shaharsozligida alohida o‘rin tutadiganligi, XV-XVI asrlarda Qashqadaryo vohasida diniy inshootlarning qurilishiga, xusan masjidlarning bezak elementlariga, hajmiy va fazoviy yechimlariga katta e’tibor qaratilganligi, Qarshi va Shahrisabz tarixiy shaharlaridagi Ko‘k gumbaz masjidlari hamda Qarshi shahridagi Odina masjidlarining arxitekturasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo, Qarshi, islom, tipologiya, to‘rt burchakli, shakl, tomonidagi, arxitekturaviy yechim, gumbaz, Jome, devor, ravoq.

Аннотация. Выявлено, что соборные мечети занимают особое место в исламской архитектуре и градостроительстве, большое внимание уделялось строительству религиозных сооружений в Кашкадарьинском оазисе в XV-XVI веках, в частности, декоративным элементам мечетей, их объемным и пространственным решениям, а также архитектуре мечетей Кук Гумбаз в исторических городах Карши и Шахрисабз и мечети Одина в городе Карши.
Ключевые слова: Кашкадарья, Карши, ислам, типология, четырехугольник, форма, сторона, архитектурное решение, купол, мечеть, стена, арка.

Abstract. It has been revealed that congregational mosques hold a special place in Islamic architecture and urban planning. Great attention was paid to the construction of religious structures in the Kashkadarya oasis during the 15th-16th centuries, particularly to the decorative elements of mosques, their volumetric and spatial solutions. This is notably evident in the architecture of the Kuk Gumbaz mosques in the historical cities of Karshi and Shahrisabz, as well as the Odina mosque in the city of Karshi.
Key words: Kashkadarya, Karshi, Islam, typology, quadrilateral, shape, side, architectural solution, dome, Mosque, wall, arch.

Kirish. Jome masjidlari islom me’morchiligi va shaharsozligida alohida o‘rin tutadigan muhim ibodat inshootlaridandir. “Jome” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “jamlovchi”, “yig‘uvchi” ma’nolarini anglatadi. Bu masjidlar asosan juma namozi o‘qiladigan, aholini diniy va ma’naviy jihatdan birlashtiruvchi markaz sifatida xizmat qilgan. Qadimgi islom shaharlarida jome masjidi shaharning markaziy qismida, bozorlar va ma’muriy binolar yaqinida joylashgan.

Islom dini VII asrda keng tarqalishi bilan birga jome masjidlari ham paydo bo‘la boshladi. Ilk jome masjidlar oddiy me’moriy shaklga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan ular murakkab va nafis me’moriy yechimlar bilan boyitildi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududlarida qurilgan jome masjidlari islom me’morchiligining yuksak namunalari sifatida tanilgan.

Qadimgi jome masjidlarining asosiy me’moriy qismlariga keng hovli, ibodat zali (harim), mehrob, minbar va ba’zi hollarda minora kiradi. Hovli jamoat namozlari va diniy marosimlar uchun xizmat qilgan, ibodat zali esa ustunlar yoki gumbazlar bilan yopilgan. Mehrob qibla tomonni ko‘rsatib bergan bo‘lsa, minbar juma xutbalari o‘qiladigan joy hisoblangan.

Markaziy Osiyodagi qadimgi jome masjidlari mahalliy qurilish an’analari va islom me’morchiligi uslublarining uyg‘unlashuvi asosida barpo etilgan. Pishiq g‘isht, ganch va yog‘och materiallaridan foydalanilgan, devorlar geometrik naqshlar, islomiy yozuvlar va o‘simliksimon bezaklar bilan ziynatlangan. Buxoro, Samarqand, Xiva va Qashqadaryoning tarixiy shaharlarida saqlanib qolgan jome masjidlari buning yorqin misolidir.

Asosiy qism. XV-XVI asrlarda Qashqadaryo vohasida diniy inshootlarning qurilishiga, ularning bezak elementlariga katta e’tibor qaratilgan.

Shahrisabz shahridagi Ko‘k gumbaz masjidi (1434-1435 yillarda) Ulug‘bek Mirzo otasi Shohruh Mirzo nomidan qurdirgan. Kirish peshtoqi ravog‘ida ularning nomlari hamda qurilish vaqti bitilgan tarixiy yozuvlar mavjud. Ko‘k gumbaz masjidi Dorut-tilovat ansamblidagi asosiy jome masjid sanaladi.

Yodgorlikning ulkan gumbazi zangori rangdagi sopol koshinlar bilan bezatilgan.

Gumbazining bezaklari rangidan masjid nomi kelib chiqqan – Ko‘kgumbaz, ya’ni “Moviy gumbaz” tarzida. Ulkan gumbazning silindrsimon barabani aylanasiga, terrakota naqshli ko‘k rangli chiziq bo‘ylab oq sirlangan koshinlar bilan qoplangan: “Hukm Allohnikidir, boylik Ollohniki” degan yozuvlar bitilgan. Masjidga sharqdan peshtoq (ravog‘ining kengligi 10 m) orqali kiriladi. Peshtoqda betakror handasaviy bezaklar ko‘p ishlatilgan. Ustunlarida, asosiy ravoq hamda qanoslarida guldor sopollardan bezak sifatida foydalanilgan. Xonaqoh 12,7x12,7 metrni tashkil etadi. Tashqi poy gumbazida sirkor moviy, oq va ko‘k rangli bezaklar orasiga Qur’on oyatlari yozilgan. Masjidning ikki yonidagi galereyalar gumbazlar bilan yopilgan. Masjid devorlari 25x25x4,5 sm li pishiq g‘ishtdan ko‘tarilgan. Devor ostidagi poydevorining eng pastki qismida sopol bo‘laklari, ular ustidan yirik tosh bo‘laklari va uning ustidan pishiq g‘ishtlar terilgan. Ravoq va gumbazlarning uchidagi kesishish joyi sopol qorishma bilan qoplangan [1].

Masjidning ichki maydoni tuzilishi deyarli kvadrat shaklida bo‘lib, 8 ta kichik ravoqchalar romb shaklidagi qalqonsimon bag‘allar bilan o‘zaro birlashtirilgan hamda ravoq shaklidagi 16 ta tayanchga ega.

Masjid devorlarining yuzasi oq ganch bilan ishlangan va ko‘k rangdagi bezaklar bilan bo‘yalgan. G‘ishtli devor burchaklarida 4 ta aylanma zina mavjud bo‘lib, ular orqali ayvon tomiga chiqilgan. Ayvonining yon taxmonlariga keng ravoq orqali o‘tilgan. Ko‘k gumbaz masjidi 1970 yili va Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan (1995-1996) qaytadan ta’mirlangan [2].



Qarshi shahridagi Ko‘k gumbaz masjidi (XVI a.). Abdullaxon davrida Qarshi hozirgi vaqtda «Eski shahar» deb yuritiladigan hududda kengaya borgan. XVI asrning oxirlarida shaharda nomozgoh masjidi barpo etiladi. 1842 yilda Qarshiga Sankt-Peterburgdan N.V.Xonikov keladi. U o‘zining «Buxoro xonligi tavsifi» nomli hisobotida Qarshi nomozgoh masjidining shahar qo‘rg‘onidan (shahardan) yarim chaqirimlik

masofada joylashganini yozib qoldirgan. Qadimshunos B.D.Kochnevning ma'lumotlariga ko'ra, Ko'k Gumbaz (Nomozgoh) masjidi shahar qo'rg'onining g'arbiy qismidan taxminan 700 gaz beriroqda, undan janubi g'arbiy tarafda qurilgan. Nomozgoh masjidi barpo etilgan paytida uning baland gumbazi uzoq-uzoqlardan ko'rinib, ko'rk berib turgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, u xalq tomonidan «Ko'k gumbaz masjidi» deb nomlanib kelingan [3] M.Ye.Masson bino peshtoqidagi arab bitiklarni o'qishga erishib, uning Abdullaxon buyrug'i bilan qurdirilganligini aniqlagan. Binoning bitkazilgan sanasi 999 (1590-91) hijriy yilda ekanligi aniqlangan.

Shahar qo'rg'oni, masjid, registon undan janubroqda bo'lib, oraliq 700-750 metrni tashkil etgan. Bu ham Qarshi shahrining o'rni XIV asr o'rtalarida yoki undan ilgariroq (ehtimol, Kepakxon davrida) hozirgi «Eski shahar» deb nomlangan joyga ko'chganligini tasdiqlaydi. XVI asrning ikkinchi yarmida Ko'k gumbaz masjidi tevarak-atroflari ochiq bo'lgan.

Ko'k gumbaz masjidi jomesi oralig'ida murabba ko'rinishida qurilgan baland gumbazli zal va ikki yondagi qator tushgan binolardan iborat. Bino tarhi to'g'ri to'rtburchak shaklida. Bino markazi kvadrat shaklga ega bo'lib, [4] uzunligi 38,25 m. Qanotlaridagi imoratlarning eni ikki xil. Shimoli g'arbiy tomondagisiniki 14 m, janubi sharqiy tarafidagisiniki esa 14,6 m. Yon qismidagi binolarga asosiy zalga o'tish yo'laklari orqali kiriladi.

1966 yilda arkning kiraverish qismida peshtoqda yozilgan forsiy yozuv ochib tozalanadi. Natijada, unda masjidni qurdirgan zotning ismi sharifi yozilganligi [5] aniqlanadi. Ushbu yozuvga ko'ra, masjidni qurdirgan shaxs Mir Bekiy Bahodur bo'lgan.

Ko'k gumbaz masjidi go'zal naqshlar bilan bezatilgan. Masjidning sahnida katta hovuz bo'lgan.



Tashqi qismidagi gumbaz va ravoq qismi davrlar silsilasida buzilgan. Bu yodgorlik 1967-1971 yillarda qayta ta'mirlanib, restavratsiya qilingan. Ko'k gumbaz masjidi nomozgoh turiga kirib, oldi ko'rinishining markaziy qismida peshtoq va yirik gumbaz shakli, ikki yon qanotlarida ravoqli galereyalardan tashkil topgan [4].

Odina masjidi. Shahardagi tarixiy yodgorliklardan bo'lib, u XIV asrning 80-yillarida barpo etilgan. Muarrihlarning ma'lumotlariga qaraganda, Sohibqiron Amir Temur 1385-1386 yillarda Qarshida qishlab, uning markazida katta masjid qurdirgan [6].

Masjid Registon majmui ro'yxatiga kirgan me'moriy inshootlardan biri hisoblangan. Bu masjidning ko'rinishi, hajmi va boshqa diqqatga sazovor tomonlari haqida ham muhim ma'lumotlar bor. Registonda bu katta inshoot Abdullaxon madrasasi bilan birga, an'anaviy me'morlikdagi «Qo'sh» majmuani tashkil qiladi. Uning hajmi bo'yiga 50 m, eniga 40 m ni tashkil etadi.

Masjid ichkarisidagi ibodat joylari keng, baland, tepasi kichik gumbazchali, qalin qilib terilgan g'isht ustunlari bir-biriga ravoqlar orqali tutashib turadi. Shu kabi o'nlab ravoq, gumbazchali xonalardan o'tib, gumbazli nomozgohga chiqilgan, uning g'arbiy (qibla) qismida juda yirik, mahobatli mehrob bo'lgan. Mehrob ravog'ining atrofiga Qur'oni Karimdan oyatlar yozilgan.

Qarshi Registoni maydonidan yettita zina ko'tarilib, Odina masjidi oldidagi maydonga chiqilgan. Rossiya bosqiniga qadar maydonchaning ustida ayvon bo'lib, u ham to'pga tutilib vayron etilgan. Said Olimxon tomonidan qal'ani ta'mirlash vaqtida bu ayvon ham qayta tiklangan. 1920 yil Buxoro xonligi ag'darilgandan so'ng, sho'rolar hukmronligining dastlabki yillarida ayvon yana vayron qilingan. Masjidning baland minoralari va moviy gumbazli mahobatli mehrobi, marmar minbari va boshqalar buzib yuborilgan. XIX asr 60-yillarining oxirida rus istilochilari tomonidan binoga hujum qilinib, vayron qilingan. Masjid gumbazi va minoralarning qoldiqlari 1914 yilgacha saqlangan. Amir Said Olimxon tomonidan bir nechta binolar, inshootlar ta'mirlanib, Qashqadaryo ko'prigi, Qarshi qal'asi, Abdullaxon madrasasi safida Odina masjidida ham qayta ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Ta'mirlash davomida vayron qilingan masjidning gumbazi va minoralarini qayta tiklashning iloji bo'lmagan.



Sho'rolar zamonida Odina masjidida har xil idoralar joylashtirilib, keyinchalik omborxona sifatida foydalanilgan. 1938 yilda masjidning atrofi baland devor bilan o'rab olingan va mahbus-xonalarga aylantirilgan.

Ko'p yillar mahbusxona bo'lib faoliyat yuritgan bino 2005 yilda tarixiy muzey sifatida foydalanishga topshirilgan. [3]

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo vohasida barpo etilgan o'rta asr jome masjidlari mintaqaning me'moriy va madaniy taraqqiyotini yaqqol aks ettiradi. Ushbu masjidlar shaharsozlik tizimida markaziy o'rin egallab, jamoat ibodati uchun mo'ljallangan muhim inshootlar bo'lgan. Ular qurilishida mahalliy xomashyo va an'anaviy qurilish usullaridan samarali foydalanilgan. Masjidlar arxitekturasida keng hovli, ustunli ayvonlar va qibla devorida joylashgan mehrob asosiy tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ladi. Gumbazli yopmalar va

mustahkam devorlar inshootlarning bardavomligini ta’minlagan. Bezak elementlarida geometrik naqshlar va epigrafik yozuvlar ustunlik qiladi. Ushbu me’moriy yechimlar islomiy an’analarga mos holda shakllangan. Qashqadaryo jome masjidlari Markaziy Osiyo islom arxitekturasi rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Ular diniy hayot bilan birga ijtimoiy-ma’naviy markaz vazifasini ham bajargan. Shu bois mazkur yodgorliklarni o‘rganish va asrash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Архив манба: Археолог. Шахурин К.А. “Мечеть Кук гумбаз” 1973 г.
2. https://meros.uz/uzc/object/kok-gumbaz-masjidi.
3. Равшанов П. Қарши тарихи. 2006 й.
4. Архив манба: Маньковская Л.Ю. Мечеть Кўк Гумбаз. 1971 г.
5. Кочнев Б.Д. Средневековые загородные межкультовые сооружения Средней Азии. - Т.: «Фан», 1976 г.
6. Н.Исмоилов ва О. Бўриевлар материаллари 2006 й.

QASHQADARYO VOHASIDAGI HONAQOHI BIR USTUNLI AYVONLI MAHALLA MASJIDLAR TIPOLOGIYASI

Meliqulov G‘ayrat Abdug‘afforovich, dotsent (PhD)
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Qashqadaryo vohasidagi Xonaqohli bir ustunli ayvonli masjidlarning rejaviy tuzilishi, ustunlari hamda ayvon qismilarining joylashuvi hajmiy o‘lchamlari hamda joylashgan manzillari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo,tuman, peshtoq, tipologiya, to‘rt burchakli, shakl, tomonidagi, ustun, devor, ravoq, tom.

Аннотация. Речь идет о планировочной структуре, размещении колонн и портовых частей одноколонных мечетей с айванами в Ханака в Кашкадарьинском оазисе, их объемных размерах и местоположении.

Ключевые слова: Кашкадарья, район, портал, типология, прямоугольный, форма, боковой, колонна, стена, арка, крыша.

Abstract. It discusses the planning structure, columns, and placement of porch sections, volumetric dimensions, and locations of single-column ayvan mosques with khanqahs in the Kashkadarya oasis.

Key words: Kashkadarya, district, portal, typology, quadrilateral, shape, side, column, wall, arch, roof.

Kirish. Qashqadaryo vohasi Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy va me’moriy markazlaridan biri bo‘lib, bu hududda shakllangan mahalla masjidlari islom me’morchiligining o‘ziga xos mahalliy turlarini namoyon etadi. Ayniqsa, xonaqohi bir ustunli ayvonga ega mahalla masjidlari voha me’morchiligida keng tarqalgan alohida guruhni tashkil qiladi. Ushbu turdagi masjidlar odatda mahalliy aholining kundalik ibodat ehtiyojlarini qondirish maqsadida qurilgan bo‘lib, soddaligi va amaliyligi bilan ajralib turadi.

Xonaqohli bir ustunli ayvonli masjidlarning rejaviy tuzilishi nisbatan ixcham hisoblanadi. Asosiy ibodat xonasi to‘rtburchak shaklda bo‘lib, uning old qismida ayvon joylashgan. Ayvon markazida o‘rnatilgan yagona ustun tom konstruksiyasini ko‘tarib turadi va butun inshootga me’moriy muvozanat baxsh etadi. Bu ustun ko‘p hollarda yog‘ochdan ishlangan bo‘lib, mahalliy hunarmandchilik an’analarini o‘zida aks ettiradi.

Qurilish materiallari sifatida xom g‘isht, pishiq g‘isht, yog‘och va ganchdan foydalanilgan. Ayvon va ibodat xonasining tomi ko‘pincha yog‘och to‘sinlar asosida qurilgan bo‘lib, ustki qismi tuproqli yoki kam hollarda g‘ishtli qoplama bilan yopilgan. Bunday konstruktiv yechimlar hududning iqlim sharoitiga moslashgan holda shakllangan.

Mazkur tipdagi masjidlarning bezaklari kamtarona bo‘lib, asosiy e’tibor funksionallikka qaratilgan. Shunga qaramasdan, ustunlar, ayvon peshtoqlari va mehrob atrofida sodda geometrik naqshlar va o‘yma bezaklar uchraydi. Mehrob qibla devorida joylashib, ibodat yo‘nalishini aniq belgilab bergan.

Asosiy qism. Endi Qashqadaryo viloyatining tumanlarida joylashgan bir ustunli masjidlar tipologiyasiga to‘xtalamiz.

Bobo Shodi Shayx masjidi Yakkabog‘ tumanining Xonaq mahallasida aholi yashash hududidan olisroq yerda Bobo Shodi Shayx maqbarasidan 100 metrlik masofada joylashgan. Ushbu yodgorlik IX-XI asrlarda bunyod etilgan. Masjid an’anaviy ustun to‘sinli uslubda qurilgan bo‘lib, tarhi murabba shaklda. Ushbu masjidning ikki tomonlama ayvonlari noodatiy tarzda binoning sharqiy hamda shimoliy qismida joylashgani, mehrobi boshqa shu turdagi masjidlardan farqli o‘laroq katta (3,3x3,3 m) ekanligi alohida farqlanadi.



Ayvon qismidagi ustunlarining soni yettitani tashkil etib, xonaqoh markazidagi yagona naqshinkor ustun binoning asosiy tom qismini ko‘tarib turadi. Binoning umumiy o‘lchami 11,4x11,8 metrni tashkil etadi.

Shodi Shayx Vali masjidi Qashqadaryo

viloyatining Yakkabog‘ туманidagi Tutak qishlog‘ida joylashgan muqaddas ziyoratgohdir. Aholining so‘zlariga ko‘ra [1] ushbu ziyoratgoh qadimda islom olamida mashhur bo‘lgan inson Shayx Shamsiddin Kulolning shogirdi bo‘lgan Shodi Shayx Valining nomi bilan bog‘liqdir. Masjid XVI asrda ustun to‘sinli uslubda loy g‘ishtlardan qurilgan. Yodgorlik binosining ikki tomoni ayvonli bo‘lib, yettita naqshikor yog‘och ustunlar ayvon konstruksiyasini ko‘tarib turadi. Hozirda ushbu masjidda nomoz o‘qilmasada yaxshi holatda saqlangan. Ayvonining tashqi devorlaridagi ravoq simon tokchalar va yog‘och panжaralar bezab turadi. Masjidning sharqiy qismida uchta shimoliy qismida uchta, jami oltita naqshinkor bog‘dodiy uslubda yasalgan kirish eshiklari mavjud. Barcha eshiklaring tapa qismida panjaralar o‘rnatilgan. Masjid oldidagi keng hovli yuzasiga zamonavi plitalar yotqizilgan. Ichki devorlarida yettita ravoq simon tokchalar ishlangan bo‘lib, honaqoh markazidagi yakka ustun asosiy imoratning tom konstruksiyasini ko‘tarib turadi. shif qismida vassajuft me’moriy usubi qo‘llanilgan. Binoning umumiy o‘lchami 7,60x8 m, balandligi 4 metrni tashkil etadi. Ushbu masjid hozirda faoliyat olib bormaydi [2].



Qorasuv masjidi 1897 yilda qurilgan bo‘lib, u Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrining Korasuv mahallasi Qorasuv ko‘chasida joylashgan. Masjid usun to‘sinli, tarhi to’g‘ri to‘rtburchak shaklga ega. Masjid binosini ikki tomonlari ayvonli bo‘lib, ayvon tomlarini oltita naqshinkor ustunlar ko‘tarib turadi. xonaqohi markazida joylashgan yagona ustun asosiy binoning tom qismini ko‘tarib turadi, shimoliy hamda g‘arbiy tomonlarida joylashgan beshta eshiklar orqali masjid ichkarisiga kiriladi.

Tezguzar masjidi. Ushbu yodgorlik, XIX asr boshlarida Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani Kunchiqar MFY Tezguzar qishlog‘ida 1900 yilda bunyod etilgan.

Masjid 1928 yildan 1945 yillargacha mahalliy ombor sifatida qo‘llanilgan, so‘ngra tashlandiq holga kelib qolgan. Shundan so‘ng 1978 yilda tuman faollari tomonidan qayta tiklangan va sharqiy qismi temir panjara bilan o‘rab olingan.



Masjid tuzilishidan kvadrat ko‘rinishga ega, bir ustunli kvadrat shakldagi xonaqohi va janubi-sharqiy qismida joylashgan ayvondan tashkil topgan.

Ingichka to‘sinli vassajuplarga rang berilib bo‘yalgan, eski bo‘yoq izlari ayvon qismida saqlanib qolgan. Devorning ichki qismida o‘yib ishlangan dekorativ taxmonlar mavjud. Ayvonga chiquvchi 4 ta har xil shakldagi eshiklar saqlanib qolgan.

Yodgorlikning umumiy o‘lchami 9,65x10,59 m, xonaqohining o‘lchami esa 6,59x6,57 m ni tashkil etadi. Binoning balandligi 3,5 m. Hozirda bu masjid ta’mir talab holda bo‘lgani sababli faoliyat ko‘rsatmaydi.



Bino tarhi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, markazining g‘arbiy qismida relefning ko‘tarilgan joyi mavjud. Bino markazi kvadrat shaklda bo‘lib, uning o‘lchamlari 8,38x8,02 m. G‘arbiy tomoni 3,96 m bo‘lib, g‘arbiy

qismi yarimgumbaz panjarasimon to‘sinlar bilan to‘silgan hamda markazida mehrob joylashgan. G‘arbiy va sharqiy tomonlarda ravoqli kirish joylari bo‘lib, ular galereyalarga olib boradi. Binoning sharqiy tomonida masjidga kirish qismi joylashgan. [3]



Farmon ota masjidi Shahrisabz tumani Polmon mahallasida joylashgan. Ushbu yodgorlik XIX asrda qurilgan bo‘lib, mahalliy aholi tomonida bir necha yil oldin qayta ta’mirlangan. Ustun to‘sinli uslubda qurilgan masjid tarhi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklga ega, tashqi o‘lchami 10,30x9,0 m, balandligi 5,65 m, devorining qalinligi 1 metrni tashkil etadi. Binoga kirish eshiklaring soni beshta bo‘lib, ikkitasi shimoliy, uchtasi g‘arbiy tomonda joylashgan. Binoni o‘rab turuvchi oltita ustun ayvon tomi kontruksiyasini ko‘tarib turadi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, Tipologik jihatdan ushbu mahalla masjidlari jamoat ibodati bilan birga ijtimoiy muloqot makoni vazifasini ham bajargan. Ular mahallaning ma’naviy markazi sifatida aholi hayotida muhim o‘rin tutgan. Qashqadaryo vohasidagi honaqohi bir ustunli ayvonli mahalla masjidlar mahalliy me’moriy an’analar, iqlimiy omillar va islomiy talablar uyg‘unligi asosida shakllangan bo‘lib, mintaqaning me’moriy merosini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 4 октябрдаги 846-сон қарори.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qashqadaryo (shaharcha)
3. Архив манба: Маньковская Л.Ю, Эрнста И.Б, Бутаева А. Мечеть Тезгузар. 1979 г.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕАСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИБРЕЖНЫХ ТЕРРИТОРИЙ КАНАЛА ДАРГОМВГРАДОСТРОИТЕЛЬНОЙ ПЛАНИРОВКИ САМАРКАНДА

Шукуров И.С., Шукурова Л.И., Аскарова З.
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

Аннотация. На побережье Даргома в Самарканде ведется активный процесс стихийной застройки сооружениями различного типа.Это происходит без методических, проектно-планировочных, градостроительных и экологических обоснований. Прибрежная зона должна рассматриваться как особая экосистема, имеющая специфическую структуру и участвующая в формировании параметров экологического состояния прибрежных территорий. Прибрежные зоны Даргома необходимо сохранить какместа массового отдыха с широкомасштабной застройкой и рекреационным обустройством территории.

Ключевые слова: Даргом, побережье, градостроительство, градостроительная деятельность, экология, рекреация.

Введение. Мировой опыт использования прибрежных территорий показывает, что ведущими факторами их развития выступают непосредственно природные ресурсы. Любая деятельность без природных ресурсов теряет смысл, поскольку многие хозяйственные процессы (системы) функционально тесно связаны с окружающей природной средой, с ее экологическими элементами.

Поскольку природные ресурсы ограничены, их рациональное потребление является основой устойчивого развития человечества.

Прибрежная зона должна рассматриваться как особая экосистема, имеющая специфическую структуру и участвующая в формировании параметров экологического состояния прибрежных территорий. Именно поэтому выявление закономерностей функционирования, трансформации и перспектив освоения прибрежных зон рек, ручей и каналов является важной научно-практической проблемой.

Сохранность и увеличение природных компонентов ландшафта прибрежной зоны Даргома, обеспечение высокого уровня рекреационного обслуживания определяют качество жизни городского населения. Прибрежные территории обладают значительным природнорекреационным потенциалом, являются носителем исторических типов городских ландшафтов, и могут рассматриваться как основа для идентификации среды современного города. Однако эти территории подвержены интенсивному техногенному воздействию и характеризуются высокой степенью деградации. Кроме того, в последние десятилетия наблюдается усиление экспансии города на прибрежные ландшафты, сопровождающееся нерациональным использованием береговой зоны, деградацией зеленых насаждений и резким сокращением территорий, пригодных для рекреационного использования.

Методы. Цель исследований

Целью данной статьи является разработка научного подхода к комплексным исследованиям прибрежных зон морей по формированию знаний о системе природно-техногенных процессов в них, для целей обеспечения экологической безопасности строительства новых и эксплуатации существующих объектов инфраструктуры жизнедеятельности.

Задачей выступает анализ существующих разработок по проблемам формирования и функционирования прибрежных зон, выявление их особенностей и сферы использования.

Результаты: Нарастание экологических проблем, которые формируются при техногенных преобразованиях природной среды, потребовало решения проблем экологической безопасности территорий и способствовало становлению комплексных исследований, расширяющих знания для охраны и восстановления природы прибрежной зоны.

Анализ исследований, проводимых по проблематике прибрежных зон показал, что с одной стороны в научной литературе отдельные экологические аспекты оценки и освоения прибрежных территорий разработаны:

-представление о прибрежной зоне, как о системе, включающей природную и хозяйственную составляющие;

-необходимость нормирования антропогенных нагрузок;

-обеспечение инженерной надежности каждого возводимого объекта;

-приоритет экологической составляющей при использовании прибрежных территорий и др.

С другой стороны, недостаточно изученными остаются вопросы, связанные с обоснованием организации прибрежных рекреационных зон с учетом природно-антропогенных закономерностей формирования экологического состояния прибрежной полосы, экологического качества застраиваемых территорий, проведением геоэкологического картографирования прибрежных рекреационных зон, проведением интегральной инженерно-экологической оценки территорий для строительства и эксплуатации объектов и др.

Необходимость создания системы комплексного (интегрированного) управления прибрежной зоной (КУПЗ) актуализировалась повсеместно после решения Всемирной конференции ООН по окружающей среде и устойчивому развитию (Рио-де-Жанейро, 1992) [1]. В последнее десятилетие интерес к КУПЗ приобрел глобальный характер. Однако сами подходы к КУПЗ в разных странах имеют свою специфику.

Так, В США КУПЗ сосредоточено на планировании, а в Европе на интеграции функций пользователей. Вместе с осознанием ранимости окружающей среды, в последние годы в США развивается движение по планированию использования прибрежных пространственных ресурсов. Фактически, это начинание было идентично пространственному планированию в Европе, но ограничивалось прибрежными территориями.

В Европе КУПЗ методически основано на анализе экономической политики. Эта методология помогает разработчикам хозяйственной стратегии в поиске решения сложных проблем, затрагивающих социальные вопросы и природные ценности.

Обсуждение. Методология анализа политики представляет процедуру принятия решений в несколько этапов, начиная с анализа проблемы, и заканчивая ранжированием альтернатив для каждого определенного проекта, с выбором приоритетных направлений и идей. В ряде стран Европы уже созданы специальные органы, занимающиеся прибрежными зонами. Кроме того, существует целый ряд конкретных международных программ и проектов, ориентированных на развитии локальных прибрежных зон и базирующихся на концепции комплексного управления прибрежной зоной.

Бразилия разработала стратегию интегрированного управления прибрежными зонами, которая ориентирована, в частности, на эффективное использование земель, зонирование, контроль морских загрязнений, оценку прибрежных ресурсов, создание потенциала для освоения прибрежной зоной, выявление критических проблем и разработку планов на случай чрезвычайных обстоятельств.

Изменения состояния здоровья населения свидетельствуют о необходимости предвидения вероятной динамики медико-демографических характеристик, тенденций развития эпидемических инфекционных процессов и неинфекционной заболеваемости, изменения медико-генетической ситуации, изменения уровня и характера паразитарной и природно-очаговой заболеваемости. Только на этой основе возможны планирование принятия специфических профилактических мер и разработка общих управленческих решений, направленных на охрану здоровья населения (рис.1).

Для зон с прогнозируемым снижением обводненности территории (аридизация и опустынивание) также можно сформулировать принципиальные позиции защиты населения. Однако здесь на первый план выходят вопросы полноценного водообеспечения. В сочетании с возникающими социально-экономическими и народно-хозяйственными проблемами они представляются достаточно сложными, однако реально решаемыми. Мы предполагаем рассмотреть их в отдельной публикации. Здесь же отметим, что гидрогеологические аспекты проблемы глобального изменения климата свидетельствуют о необходимости интенсификации использования надежно защищенных подземных вод, являющихся несомненным альтернативным и значительно более безопасным источником питьевого водоснабжения, в том числе и в условиях глобальных гидроклиматических изменений. Обсуждая вопросы использования подземных вод в этих условиях, следует отметить, что влияние возможных изменений климата на подземные воды изучено весьма слабо. Очевидно, что этот процесс более сложный, чем влияние изменений климата на поверхностные воды, прежде всего ввиду многофакторности формирования ресурсов и качества подземных вод и их инерционности по отношению к изменениям различных природных и антропогенных факторов.

Анализируя опыт предпринимаемых мер и последствия практической хозяйственной деятельности человека можно сделать выводы, что многие подходы к разработке и реализации систем интегрированного управления прибрежными зонами и конкретные предпринимаемые в республике меры характеризуются значительным содержательным разбросом. Это существенно затрудняет возможности

контроля за исполнением государствами обязательств, касающихся загрязнения водной среды, деградации прибрежных экосистем, истощения возобновляемых ресурсов.

Общая эффективность использование системы КУПЗ во многом зависит от того, насколько удалось:

1. координировать на республиканском уровне интересы различных природопользователей;
2. разработать правовые механизмы, отвечающие задачам совместного устойчивого развития значительных территорий, даже если это не отвечает интересам отдельных отраслей, являющихся очень важными в экономической структуре прибрежной зоны.

Анализ существующих методологических национальных подходов в КУПЗ, дает основание считать, что в республике настоящему времени существует не много успешных примеров, поскольку сама система КУПЗ является сравнительно новым управленческим подходом.

Рис.1 Причинно-следственные связи заболеваемости населения с особенностями обводненности территории

Как правило, для выполнения программы КУПЗ необходимо реализовать несколько соответствующих этапов, чтобы добиться достижения таких взаимосвязанных целей, как практическое обеспечение принципов устойчивого развития и повышение уровня жизни.

Поскольку, на побережье Даргома активный процесс стихийной застройки сооружениями различного типа в прибрежной рекреационной зоне происходит без методических, проектно-планировочных, градостроительных и экологических обоснований. Прибрежные зоны –места массового отдыха с широкомасштабной застройкой и рекреационным обустройством территории. В настоящее время происходит интенсивное рекреационное освоение прибрежных территорий, во многом определяющее современное экологическое состояние прибрежных рекреационных зон. При этом хозяйственная деятельность, сконцентрированная преимущественно в пределах небольшой по ширине прибрежной полосы не всегда рациональна и влияет на формирование экологического состояния, как прибрежной территории берега, так и канала Даргом.

Изучения и использования прибрежных зон для теоретического обоснования и разработки мероприятий по улучшению экологического состояния прибрежных рекреационных зон необходима всесторонняя оценка прибрежных зон с целью получения достоверных сведений об особенностях функционирования этой системы и понимания взаимосвязи всех протекающих в ней процессов с учетом природно-антропогенных закономерностей формирования экологического состояния территорий.

Геологическая среда должна рассматриваться как структурная часть экосистемы прибрежной зоны, которая изменяется в пространстве и времени в процессе естественного развития и под влиянием хозяйственной деятельности (техногенных факторов). При этом проявляется влияние техногенных факторов, которое обуславливает сложные следствия. На начальном этапе под влиянием этих факторов формируются определенные изменения в геологической среде (уменьшается устойчивость горных пород, развиваются опасные экзогенные геологические процессы, загрязнение и др.). В дальнейшем эти изменения состояния геологической среды могут продлеваться, но, при этом, они начинают отрицательно влиять на условия жизнедеятельности и

создают угрозу экологической безопасности территорий. Кроме того, следует учитывать, что, несмотря на постоянное техногенное влияние, геологическая среда остается отдельной системой и частью окружающей среды и внешней средой для человека [4].

Для выяснения факторов, сформировавших сложившееся экологическое состояние прибрежной зоны, важным является проанализировать существующую информацию по экологической ситуации территории. Для отдельных территорий и населенных пунктов используются карты экологических и инженерно-геологических изысканий, на которых выделены: функциональное зонирование освоения территорий; плотность застройки рекреационными объектами; объекты (предприятия, сооружения), воздействующие на окружающую природную среду (ОПС);

-организованные и неорганизованные источники выбросов загрязняющих веществ; источники сбросов сточных и канализационных вод;

-транспортные магистрали и зоны их воздействия на ОПС; карты инженерно-геологических условий.

Обзор методов исследований позволил сформулировать инженерно-экологический подход к исследованию экологического состояния прибрежной зоны (в том числе и рекреационной направленности) с целью развития теоретических положений разработки технических мероприятий (рис. 2).

Схема инженерно-экологического подхода к исследованию экологического состояния для обоснования технических решений

I Этап – Сбор и анализ информации (рекогносцировочные маршруты, источники, обследования)
II Этап – Исследование береговой зоны (наблюдения, анализ, лабораторные исследования)
III Этап – Анализ природных и антропогенных факторов (оценка влияния, выявление закономерностей)
Результат – Формирование инженерно-экологических решений (стабилизация и защита прибрежных зон)

Данная блок-схема отражает этапы инженерно-экологического анализа состояния прибрежных территорий:

1. Сбор и анализ данных (научные источники, обследования, картографирование);

2. Исследование береговой зоны (мониторинг, литологические и гидрометеорологические наблюдения);

3. Анализ природных и антропогенных факторов, оценка воздействия и формирование технических решений.

Исследование экологического состояния прибрежной рекреационной зоны предполагает выполнение 3 этапов [10]:

1 этап: на основании рекогносцировочных маршрутов для объективного выбора мест наблюдений предполагает:

- сбор и анализ опубликованных научных источников и фондовых материалов по оценке состояния прибрежной зоны;

- ретроспективный морфологический анализ освоения территории;

- натурное обследование и фотофиксация технического состояния берегоукрепительных сооружений;

- выделение участков для мониторинга береговой зоны, частично подводного склона до глубины 5-8 м, определение техногенной нагрузки на прибрежную зону моря. Подводный склон должен быть изучен методами водолазного обследования.

- картографирование существующей антропогенной нагрузки на побережье (расположения курортных зон, инженерных сооружений). Для исследования выявленных подводных образований могут быть использованы космические снимки, предварительно обработанные при помощи компьютерной программы Corel PHOTO-PAINT X5.

2 этап: на данном этапе основным заданиемисследований в береговой зоне является установление пространственно-временных особенностей разрушения берега для обоснования современных мероприятий по защите побережья.

Проводятся:

- режимные наблюдения отступания бровки-клифа (скорости абразии), ширины пляжа, которые могут обеспечить возможности прогнозировать развитие процессов разрушения берега и планировать берегоукрепительные мероприятия;

- исследования ширины пляжей, активизации экзогенных геологических процессов (движения оползней и наблюдения за абразией и эрозией берега) по сезонам года – осенью, зимой, весной и летом, ежемесячно в течение 6 лет;

- исследования прибрежной зоны (анализ технического состояния берегоукрепительных сооружений, исследование литологического состава пород, физико-механических свойств геохимические исследования территорий населенных пунктов (отбор проб почв и твердых поверхностных отложений, проб морской воды в зоне пляжей);

- отбор образцов пород в береговых обрывах на подводном склоне с целью определения химического, петрографического состава и физико-механических свойств. Определяются физико-механические свойства мелкогалечных конгломератов и гравелитов, отобранных в разрезе мысов при водолазном обследовании. Камеральная обработка исходного материала должна быть выполнена в лаборатории;

- отбор проб для аналитических исследований химического состава береговых отложений на участках абразии берега для выявления закономерностей их влияния на загрязнение прибрежной зоны моря. Частота измерений устанавливается в зависимости от характера проявления процесса, но не реже чем 1 раз в квартал.

В первую очередь, определяется место режимных наблюдений, где решающую роль играет ландшафт: геологическое строение территории, экспозиция береговой линии по отношению к направлению действия штормов, уклон и глубина подводной части склона, которым регулируется ход разрушения

волны при подходе к берегу. На всех участках изучаются следующие показатели:

- литодинамические: измерение скорости абразии клифов (забивание реек), ширины и длины пляжей, уклона подводной части склона;
- литологические: определение химического состава и физических свойств пород;
- гидрометеорологические: количество атмосферных осадков, преобладающее направление ветра и его скорость (ветровой режим), направление течений, колебания уровня воды.

3 этап заключается в анализе природных и антропогенных факторов формирования экологического состояния в регионе [11, 12]. Анализ природных факторов включает: режимные наблюдения, исследование подводного склона, анализ геолого-геоморфологического строения, гидрометеорологических и гидролитодинамических процессов. Анализ антропогенных факторов подразумевает определение уровня рекреационной освоенности, состояния инженерных объектов, уровня загрязнения техногенными веществами.

Завершающей стадией является выявление закономерностей и взаимосвязей природных факторов, уровня антропогенной нагрузки и экологического состояния в регионе.

Поскольку на практике полный цикл выполнения КУПЗ огромной территории требует достаточно значительного времени (5 и более лет), то, очевидно, что практически большинство организацией, использующих такой подход, пока находятся лишь на ранних стадиях развития данных систем управления территориями.

Заключение

1.Учитывая, что прибрежная рекреационная зона Даргомаэто сложная система, для анализа ее экологического состояния, требуется применение совокупности методов, позволяющих выполнить интегральную оценку экологического состояния прибрежной зоны, основанную на объединении знаний широкого круга наук с целью всестороннего анализа ситуации. При этом особоеместо в определении экологического состояния прибрежных рекреационных зон играют инженерно-экологические исследования, которые опираются на понимание, что прибрежная зона является активной областью проявления экзогенных геологических процессов в зоне взаимодействия суши и канала и поэтому проведение всесторонних исследований природных условий и антропогенных нагрузок формирует базу для обоснования мер по стабилизации экологического состояния.

2. Определить техническое состояние существующих инженерных объектов защиты берега с целью выявления нарушенности экологического состояния и обоснования разработки вариантов технических решений по преодолению нарушенности.

3. Анализ методов исследований позволил сформулировать инженерно-экологический подход к исследованию экологического состояния прибрежной рекреационной зоны, который базируется на уточненных понятиях «прибрежная рекреационная зона», «экологическое состояние», «параметры экологического состояния прибрежной рекреационной зоны».

Литература:

1. Концепция комплексного управления прибрежными зонами [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.biodiversity.ru/coastlearn/iczm-rus/integration.html.
2. Медико-экологические проблемы Аральского кризиса/Под. ред.В.П. Сергеева и др.-М., 193
3. Шукуров И.С. Организация инженерно-технического обустройства городских территорий. М., АСВ, 2015

TRANSPORT ALMASHINUV TUGUNLARI AGLOMERATSIYA INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI (SAMARQAND MISOLIDA)

Eshatov I.Q. - dotsent, (PhD)
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda Samarqand aglomeratsiyasida transport-almashinuv tugunlarini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi aglomeratsiya darajada transport tizimining samaradorligini oshirish, jamoat transporti va shaxsiy transport o‘rtasida uzluksiz almashuvni ta’minlash hamda shahar va uning atrofidagi hududlarda transport yuklamasini optimallashtirish bugungi kunda dolbzarb hisoblanadi.

Ish davomida sistemaviy, ierarxik va hududiy-differensial yondashuvlar asosida transport almashinuv tizimining makro, mezo va mikro darajalari modellari ishlab chiqilgan. Shuningdek, yo‘lovchi oqimi intensivligi, transport almashuv koeffitsienti va hududiy joylashuv kabi parametrlar asosida transport almashinuv tizimlari tasniflangan: aglomeratsiya, munitsipal va lokal darajalarga ajratilgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand aglomeratsiyasi, transport almashinuv tugunlari, transport tizimi, aglomeratsion tizim, jamoat transporti, transport almashuv koeffitsienti, hududiy rejalashtirish.

Kirish. Hozirgi davrda urbanizatsiya jarayonlari jadallashgani sari, yirik shaharlar va ularning atrofidagi hududlar o‘rtasidagi transport aloqalari yanada murakkablashmoqda. Aholi sonining o‘sishi, shaxsiy avtomobillar ulushining ko‘payishi, yangi turar joy massivlarining paydo bo‘lishi va turizm infratuzilmasining kengayishi transport tizimiga bo‘lgan bosimni kuchaytiradi.

Samarqand aglomeratsiyasida bu jarayon ayniqsa sezilarli darajada oshmoqda: shahar markazi, tarixiy yadrosi, periferik zonalar va turistik ob’ektlar o‘rtasida transport almashinuvi kun sayin ortmoqda.

Shaharsozlikning asosiy vazifalaridan biri insonlarning yashash va faoliyat yuritish muhiti sifatini yaxshilash, shuningdek, ekologik muvozanat va atrof-muhitning barqaror rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir. Bu vazifa nafaqat hozirgi, kelajak avlodlarning manfaatlariga xizmat qiluvchi shahar

muhitini shakllantirishni taqozo etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston shaharlarida, xususan, Samarqand aglomeratsiyasi hududida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi kuzatilmoqda. Bu esa aholi sonining o‘sishi, iqtisodiy faollikning ortishi hamda yangi turar-joy massivlari, ishlab chiqarish zonalari va transport infratuzilmasining kengayishiga olib kelmoqda. Natijada inson yashashi uchun asosiy muhit sifatida shahar tipidagi aholi punktlari shakllanib, ularning eng rivojlangan shakli aglomerasiyalar (ba’zi hollarda konurbatsiyalar) paydo bo‘lmoqda.

Aglomeratsiya mohiyatan bir yoki bir nechta shahar yadrolari hamda ular bilan bog‘langan turli darajadagi markazlar tizimidan tashkil topgan, hududiy va funktsional jihatdan integratsiyalashgan yagona shahar muhitidir. Shu nuqtai nazardan, Samarqand aglomeratsiyasida transport infratuzilmasini samarali tashkil etish va rivojlantirish yashash uchun qulay, ekologik barqaror va iqtisodiy faol muhit yaratishda hal qiluvchi omil hisoblanadi [5].

Bugungi kunda Samarqandda avtomobil yo‘llari tarmog‘i, temiryo‘l infratuzilmasi, jamoat transporti tizimi va piyodalar harakati yo‘nalishlari orasidagi uzviy bog‘liqlik yetarlicha mukammal emas. Shu bois zamonaviy transport almashinuv tugunlarini shakllantirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Ular turli transport turlarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlaydigan, shaxsiy va jamoat transporti o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydigan hamda shahar va aglomeratsiya miqyosida harakatlanish samaradorligini oshiradigan markazlar hisoblangan.

Transport almashinuv tugunlari shaharsozlik nuqtai nazaridan aglomerasiyaning ko‘p markazli tuzilmasini shakllantirishda asosiy elementlardan biri bo‘lib, ular aholi uchun yuqori sifatli transport xizmatlarini ta’minlaydi, hududlararo bog‘liqlikni mustahkamlaydi va iqtisodiy faollik markazlarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Jahon shaharsozlik amaliyotida transport almashinuv tugunlari tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha keng tajriba amalga oshirilgan. Masalan, AQSh, Yevropa mamlakatlari hamda Osiyo, xususan Yaponiya tajribalari transport tizimlarini barqarorlashtirish va jamoat transportining ustuvorligini ta’minlashda muhim o‘rnak bo‘la oladi. Biroq bu metodlarni to‘liq tarzda O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish mumkin emas, chunki hududiy, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlar, yo‘lovchi oqimining hajmi, transport madaniyati va shahar morfologiyasi jihatidan farqlar mavjud.

Samarqand aglomeratsiyasida transport infratuzilmasini kompleks qayta tashkil etish zaruriyati ayni paytda dolzarb masala hisoblanadi. Uning asosiy yo‘nalishlaridan biri zamonaviy transport almashinuv tugunlarini shakllantirish va ularni aglomeratsion tizimning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirishdir. Ushbu tugunlar transport tizimining barcha elementlari o‘rtasida intermodal bog‘liqlikni ta’minlaydi, ekologik yuklamani kamaytiradi va transport oqimlarining markazga haddan tashqari to‘planishining oldini oladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u transport almashinuv tizimini murakkab shaharsozlik tizimi sifatida o‘rganishga, uni statistik, tizimli tahlil va modellashtirish asosida baholashga qaratilgan. Bu orqali jamoat transportining ustuvorligini ta’minlash, transport xizmatlari sifatini yaxshilash hamda shahar markazining yuklamasini kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish mumkin bo‘ladi.

Transport almashinuv tugunlari konsepsiyasi XX asrning 1960-yillarida ilmiy izlanishlarda paydo bo‘la boshlagan. 1970 -1980-yillarda bu tushuncha shaharsozlik va transport rejalashtirish terminologiyasiga chuqur kirib, shahar markazlari va aglomeratsiyalardagi transport tizimlarini o‘rganishning asosiy obyekti sifatida qabul qilindi. Shu davrda D.S. Samoylov, Z.V. Azarenkova, G.E. Golubev, E.S. Rusakov, N.N. Ullas, Yu.A. Fedutinov, A.A. Shreyber va A.A. Sopelovskaya kabi sovet olimlari transport almashinuv tugunlarining shahar markazlari tizimidagi o‘rni, ularning rejalashtirish prinsiplari va samaradorlik ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslash bilan shug‘ullangan.

Xorijiy ilmiy manbalarda ham transport almashinuv tugunlari tushunchasi keng tadqiq etilgan. Masalan: Walter Christaller (Germaniya, 1933) markaziy joylashuv nazariyasi orqali transport va urbanizatsiya aloqasini tahlil qilgan; Peter Hall (Buyuk Britaniya, 1960 - 1970-yillar) shahar transporti va aglomeratsiyalar rivojlanishida transport almashinuv tugunlarining roli haqida; Robert Cervero (AQSh, 1980 -1990-yillar) multimodal transport tizimlari va intermodal tugunlar samaradorligi, “park-and-ride” konsepsiyasi; Jean-Paul Rodrigue (Fransiya/Kanada, 1990 - 2000-yillar) transport logistika va shahar markazlari integratsiyasi, transport almashuv funktsiyalari; Mark P. Garrett (AQSh, 2000-yillar) aglomeratsiyalardagi transport markazi tarmoqli va shaharsozlik ahamiyati bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan oliblar hisoblanadi [4,5,6,7].

Markaziy Osiyo kontekstida transport almashinuv tugunlarining masalasi keyinchalik, 1990 -2000 yillarda, shaharsozlik va transportni modernizatsiya qilish tadqiqotlarida o‘rganila boshlandi. Ular orasida: R.K. Rakhimov (O‘zbekiston) Toshkent va Samarqand shaharlarida transport almashinuv tugunlari va yo‘lovchi oqimlarini tizimli o‘rganish; B.K. Tursunov (Qozog‘iston) Almaty va Nur-Sulton shaharlarida multimodal transport markazlarini rivojlantirish; S.A. Mirzaev (O‘zbekiston) transport almashinuv tizimlarining aglomeratsiyadagi integratsiyasi va shaharsozlik rejalashtirishda samaradorlik ko‘rsatkichlari izlanishlarida ushbu olimlar izlanishlar olib borgan.

Ushbu ilmiy ishlanmalar transport almashinuv tugunlarini shahar va aglomeratsiya darajasida tizimli rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi. Xorijiy va Markaziy Osiyo olimlarining yondashuvlari Samarqand aglomeratsiyasidagi transport almashinuv tugunlarini loyihalash va optimallashtirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

So‘nggi yillarda, xususan XXI asr boshlaridan boshlab, transport almashinuv tugunlariga oid ilmiy tadqiqotlar dunyo miqyosida kengayib bormoqda. Bu borada ko‘plab ishlar ixtisoslashgan ilmiy jurnallarda va shaharsozlik markazlarida e’lon qilindi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Shaharsozlik markazi (TsNIIP) tomonidan 1997-yilda chop etilgan “Katta shaharlar uchun jamoat-transport markazlari (tugunlari)ni loyihalash bo‘yicha tavsiyalar” Toshkent shaharsozlik

instituti - shahar transport tizimi va jamoat transporti samaradorligini o‘rganish; O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligi ilmiy-tadqiqot markazi transport almashinuv tugunlarini loyihalash va transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar; Samarqand aglomeratsiyasida transport almashinuv tizimlarini tahlil qilish va optimallashtirish bo‘yicha ilmiy ishlanmalar nashri ushbu sohada metodologik asos sifatida e’tirof etilgan.

Mazkur ilmiy ishlarda transport almashinuv tugunlari ikki xil nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi:

- turli transport infratuzilmasi elementlarini integratsiyalovchi tugun markazi sifatida;
- aholi punktlari tizimining markaziy elementlaridan biri sifatida, ya’ni shaharlararo va aglomeratsiyalararo aloqalarni birlashtiruvchi tizim sifatida.

Bu yondashuvlar transport infratuzilmasining kompleks xarakterini yoritadi, ya’ni yo‘lovchi transport tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, uzluksiz harakatlanish zanjiri va shahar hududining funksional uyg‘unligini ta’minlaydi. Shu bois Samarqand aglomeratsiyasida ham transport almashinuv tugunlarini shakllantirishda bu nazariy asoslardan foydalanish, ammo ularni hududiy xususiyatlarga moslashtirish zarurdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, transport almashinuv tugunlari nazariyasining rivojlanish bosqichlari asosan XX asrning 60 - 80 yillarida shakllangan. Biroq bu ilmiy asoslar hozirgi Yangi O‘zbekistonning shaharsozlik va transport talablari, demografik o‘sish sur’atlari, turizm rivoji hamda ekologik barqarorlik tamoyillarini to‘liq hisobga olmaydi. Shu sababli, hozirgi kunda mamlakatimizda, jumladan Samarqand shahrida ham transport almashinuv tugunlari tizimini shakllantirishni nazariy va normativ jihatdan asoslash zarurati dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Hozircha O‘zbekiston sharoitida bunday tugunlarni shakllantirishga doir maxsus normativ hujjatlar, metodik qo‘llanmalar va loyiha standartlari yetarlicha ishlab chiqilmoqda. Bu esa transport tizimining turli tarmoqlari o‘rtasida uzviylikning to‘liq yaxshilanishiga olib keladi. Ayniqsa, Samarqand aglomeratsiyasida jamoat transporti, avtomobil yo‘llari va temiryo‘l tizimi o‘rtasida uzluksiz harakatlanish mexanizmini yaratish hozircha boshlang‘ich bosqichda amalga oshirilmoqda.

Transport almashinuv tuguni bu shahar rejalashtirish tuzilmasining tugun elementi bo‘lib, uning asosiy funksiyasi turli transport turlari o‘rtasida yo‘lovchilarni samarali almashinishini ta’minlashdir. U shahar, mintaqaviy, milliy yoki xalqaro transport turlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni yaratadi. Shu bilan birga, bunday markazlarda yo‘lovchilarga ijtimoiy infratuzilma obyektlari, masalan, kutilish zallari, xizmat ko‘rsatish markazlari, savdo va turizm obyektlari orqali xizmat ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada quyidagi fikrni ta’kidlagan edilar:

“Biz shahar va qishloqlarimizda zamonaviy infratuzilmani yaratmasdan turib, odamlar hayoti sifatini oshirolmaymiz. Har bir hududda yo‘llar, xizmat ko‘rsatish va dam olish infratuzilmalari zamon talabiga mos bo‘lishi shart.”

Ushbu yondashuv transport tizimini faqat yo‘llar majmui sifatida emas, balki transportni boshqarish markazlari va transport tugunlari tizimi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi [1,2]. Shu nuqtai nazardan, transport tizimini rivojlantirish ikki asosiy strategik yo‘nalishda muhim:

- O‘zbekiston transport tizimini xalqaro transport tarmoqlari bilan integratsiya qilish;
- Mamlakat hududiy yaxlitligini ta’minlab, zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish.

Transport tizimining tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston transport infratuzilmasining asosiy elementlarini quyidagicha ajratish mumkin:

-temiryo‘l tarmoqlari;

-avtomobil yo‘llari (xalqaro, milliy va mintaqaviy ahamiyatdagi);

-havo va suv transporti yo‘nalishlari;

-ularning o‘zaro bog‘lanishini ta’minlaydigan transport almashinuv tugunlari ajratish asoslab berilgan.

Aynan shu tugunlar transport tizimining “asosiy skeleti”ni tashkil etadi va shaharlar, aglomeratsiyalar va mintaqalar o‘rtasidagi urbanizatsiyalashgan karkazni shakllantiradi.

O‘zbekiston transport tizimi vertikal integratsiyalashgan bo‘lib, mamlakat (respublika), mintaqaviy va mahalliy darajalardan iborat. Shu kabi transport almashinuv tizimini ham o‘ziga xos ierarxik tuzilishga ega bo‘lib, har bir daraja alohida funksiyalarni bajaradi.

Samarqand aglomeratsiyasi uchun quyidagi darajalar ajratiladi:

1. Katta daraja (respublika miqyosidagi transport tugunlari) bu Samarqand xalqaro aeroporti, temiryo‘l vokzali, M-37, M-39 “Samarqand, Buxoro, Navoiy” magistral yo‘li kesishgan yirik transport markazlari bo‘lib, ular butun mintaqa transport yo‘nalishlarini shakllantiruvchi boshqaruv markazlari hisoblanadi.

2. O‘rta daraja (aglomerasion daraja) Samarqand shahrining Urgut, Nurobod, Pastdarg‘om, Ishtixon yo‘nalishlari bo‘yicha joylashgan transport tugunlari bo‘lib, ular shahar atrof hududlar o‘rtasida uzluksiz jamoat transport tizimini ta’minlaydi.

3. Yuqori (umummilliy) daraja (lokal daraja) bu mahalliy darajadagi almashinuv punktlari, ya’ni shahar ichidagi avtobus bekatlari, tramvay va marshrutli taksi almashinuvi joylari bo‘lib, aholi uchun kundalik harakatlanishning asosiy elementini tashkil etadi [8,9,10,11,12,13,14].

Samarqand shahrining geografik o‘rni va transport kommunikatsion infratuzilmasi bu jarayonda muhim strategik nuqtani tashkil etadi. Chunki u Toshkent, Buxoro, Xiva, Termiz transport yo‘nalishlari hamda Xitoy, Markaziy Osiyo, Yevropa tranzit yo‘laklarining kesishgan qismida joylashgan.

1. Yuqori (umummilliy) darajadagi transport almashinuv tizimi tarkibi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari, transport siyosati, shuningdek, hududiy rejalashtirish va milliy infratuzilma dasturlari asosida belgilanadi. Mazkur daraja Samarqand aglomeratsiyasini milliy transport tarmog‘ining markaziy bog‘lovchi bo‘g‘inlaridan biriga aylantiradi.

2. O‘rta (mezo) daraja viloyat yoki mintaqa miqyosida shakllanuvchi bu darajada regional va aglomeratsion transport almashinuv tizimlari muhim

o‘rin tutadi. Samarqand aglomeratsiyasi tarkibiga Samarqand shahri, Kattaqo‘rg‘on shahri, hamda Samarqand, Urgut, Nurobod, Bulung‘ur, Jomboy, Pastdarg‘om, Tayloq tumanlari kiradi.

Ushbu hududlarda transport tizimining asosiy maqsadi aholi harakatlanishini yuqori sifat ko‘rsatkichlari asosida muntazam ta’minlash, hamda shaharlararo bog‘liqlikni yaxshilashdir. Transport tugunlari va yo‘l tarmog‘ining rivojlanish samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar, ya’ni aholi zichligi, mehnat migratsiyasi, iqtisodiy faol zonalar va turizm oqimlari bilan bog‘liq holda baholanadi.

3. Mahalliy (mikro) daraja: Bu darajada shahar, tuman yoki qishloq hududidagi munitsipal va lokal transport tugunlari asosiy o‘rinni egallaydi. Samarqand shahrida bu tizim avtovokzal, temir yo‘l vokzali, yangi xalqaro aeroport va shahar markaziy transport uzellari orqali shakllanadi.

Munitsipal tugunlar: shahar ichidagi tumanlararo va markaz bilan bog‘lovchi jamoat transporti uzellari bo‘lib, ular avtobus, trolleybus, metro (kelajakda), hamda veloinfratuzilma bilan integratsiyalashgan bo‘ladi.

Lokal tugunlar esa: aholi uchun piyoda masofasida joylashgan transport xizmatlarini (mahalliy avtobus bekatlari, mikromobil transport, taksi punktlari) tashkil etadi.

Samarqand aglomeratsiyasi transport almashinuv tizimining modeli, aglomeratsiya darajasida transport almashinuv tizimining nazariy asoslari tizimning asosiy funksiyalarini aniqlash, ularni simulyatsion model asosida tahlil qilish hamda optimal bog‘lanishlarni shakllantirishga qaratilgan [7,8].

Taklif etilgan model asosida uch turdagi asosiy transport almashinuv tugunlari aniqlanadi:

1. Aglomeratsiya tugunlar - Samarqand markaziy qismi va xalqaro yo‘nalishdagi transport tarmoqlari (temir yo‘l, avtomobil, aeroport) bilan bog‘liq. Bu tugunlar metropoliten tizimi (kelajakda), tezkor avtobus yo‘nalishlari, temir yo‘l va avtomobil yo‘llari orqali integratsiyalashadi.

2. Munitsipal tugunlar - Samarqand shahrining tumanlari va atrof qishloqlari o‘rtasidagi transport almashinuvi uchun xizmat qiladi. Ularda yer usti transporti (avtobus, elektrobus) hamda piyoda va shaxsiy transport integratsiyasi ta’minlanadi.

3. Lokal tugunlar - kichik mahallalar darajasida, aholining kunlik harakatlanish ehtiyojlarini (ish, o‘qish, xizmat, savdo va dam olish joylariga borish) ta’minlaydigan kichik miqyosdagi tugunlardir.

Transport almashinuv tizimi modeli strukturaviy tahlil asosida ishlab chiqiladi. Bu jarayonda tizim quyidagicha tahlil qilinadi:

Chegaralar - Samarqand aglomeratsiyasining transport hududi doirasi;

Tashqi muhit - viloyatlararo transport yo‘llari (Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo yo‘nalishlari);

Funksional chegaralar - yo‘lovchi tashish hajmi, transport oqimi va almashuv quvvatiga ko‘ra belgilanadi.

Transport almashinuv tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadi - aglomeratsiya aholisi uchun qulay, tezkor va barqaror harakatlanish tizimini yaratishdan iborat. Bu maqsad ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

- Yo‘lovchi transport tizimini modernizatsiya qilish (elektr transport, avtobus parklarini yangilash, raqamlashtirish);
- Shahar yo‘l tarmog‘ini rekonstruksiya qilish va zamonaviylashtirish (halqa yo‘llar, yerosti o‘tish joylari, piyodalar zonalari) [6].

Shunday qilib, Samarqand aglomeratsiyasida transport almashinuv tizimini shakllantirish nafaqat shaharsozlik va infratuzilma siyosatining muhim tarkibiy qismi, balki milliy transport strategiyasining ajralmas elementi hisoblanadi. Ushbu tizimning bosqichma-bosqich rivojlanishi orqali shahar va atrof hududlar o‘rtasida barqaror transport integratsiyasiga, hamda aholi hayot sifatini oshirishga erishiladi.

1-rasm. Samarqand aglomeratsiyasi tarkibiga kiruvchi umumfoydalanuvdagi transport yo‘nalishlari sxemasi

2-rasm Samarqand shahrining istiqbolli transport sxemasi

Shartli belgilar: -Magistral yonalishlar; - Yetkazib beruvchi yonalishlar

Transport. Bosh planda tarixiy hudud ichidagi va tashqarisidagi turli xil yo‘l harakati qoidalarini yaratish, tarixiy hududdagi transport tarmog‘iga bo‘lgan yuklanishni kamaytirish ham ko‘zda tutilgan. Yo‘llarning mikrotsirkulyasiyasini yaratish maqsadida, mavjud bo‘lgan yo‘llarni qayta tiklash, jamoat transporti tizimini faol rivojlanishi, shuningdek, piyoda va velosipedlar uchun sharoitlar yaratish rejalashtirilgan [13,14].

Samarqand shahar yaqqol ifodalangan radial-halqa shaklidagi rejalashtirish tuzilmasiga ega. Radial-halqa (konsentrik) tizimida asosiy ikki turdagi magistrallar mavjud: radial va halqa yo‘llari.

Radial magistrallar - shahar markazini chekka hududlar bilan bog‘lash vazifasini bajaradi.

Halqa yo‘llari - radial yo‘llarni bir-biri bilan ulab, transport oqimlarini bir radial yo‘nalishdan boshqasiga o‘tkazishni ta’minlaydi.

Samarqand aglomeratsiyasi uchun transport almashinuv tizimidagi bog‘lanishlar tuzilmasini maksimal darajada hisobga olgan sistemali oqim diagrammasi ishlab chiqiladi. Ushbu diagramma tizimning ichki va tashqi transport aloqalarini aniqlash, ularning samaradorligini tahlil qilish hamda harakat oqimlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Oqim diagrammasini tuzish jarayonida, avvalo, transport tugunining har bir alohida elementi (avtobus, temir yo‘l, shaxsiy avtomobil, elektrobus va h.k.) faoliyatini tahlil qilish, so‘ngra ularning o‘zaro aloqa va almashinuv tuzilmasini aniqlash zarur.

Transport markazi tiziminida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi: Transport almashinuv tizimi darajasi - bu tugunning tizimdagi o‘rni bo‘lib, u nafaqat kommunikativ (bog‘lovchi) funksiyani, balki turli maqsadlarga ega yo‘lovchi oqimlarini qabul qilish va to‘plash funksiyasini ham bajaradi.

Transport bog‘lanishlari tizimdagi faqat aloqa va almashuv funksiyalarini amalga oshiruvchi elementlar bo‘lib, ular transport tarmoqlarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlaydi [4,5].

Samarqand aglomeratsiyasi uchun ishlab chiqilgan oqim diagrammasining chap qismida - transport tizimiga kirish yo‘llari (Toshkent, Buxoro, Qarshi yo‘nalishlari), o‘ng qismida esa - chiqish yo‘llari aks ettiriladi. Ularni birlashtiruvchi markaziy qism Samarqand shahrining kommunikatsion zonasi, ya’ni markaziy transport almashinuv hududi (temir yo‘l vokzali, avtovokzal, yangi aeroport, Registon markaziy tuguni) sifatida belgilanadi.

Ushbu model yordamida yo‘lovchilarning turli transport turlari orasida almashinish vaqti, harakatlanish tezligi, hamda transport tizimi elementlari orqali o‘tish imkoniyatlari aniqlanadi. Shuningdek, yo‘lovchi kechikishlarini minimal darajaga tushirish, ya’ni transportlararo almashuv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Modelning asosiy bosqichlari quyidagicha:

-Har bir tugun uchun kirish-chiqish oqimlari aniqlanadi.

-Harakatlanish marshrutlari bo‘yicha vaqt parametrlari (kutish, harakat, almashish) hisoblanadi.

-Har bir tugunning transport sig‘imi va harakat intensivligi baholanadi.

-Tizim umumiy holatda samaradorlik indeksi orqali tahlil qilinadi.

-Samarqand aglomeratsiyasi uchun tizim modeli yaratiladi.

Samarqand aglomeratsiyasi radiyal-doiraviy rejalashtirish sxemasiga ega bo‘lganligi sababli, transport almashinuv tizimi ham radiyal yo‘nalishdagi kirishlar (viloyatlararo) va doiraviy shahar ichki transport halqalari asosida tashkil etiladi.

Radiyal tarmoqlar:

Samarqand - Kattaqo‘rg‘on - Nurobod yo‘nalishi;

Samarqand - Urgut - Qashqadaryo yo‘nalishi;

Samarqand - Bulung‘ur - Jomboy - Buxoro yo‘nalishi.

Aglomeratsion halqa yo‘li (Tayloq, Urgut, Pastdarg‘om, Jomboy, Kattaqo‘rg‘on). **1-jadvalda** keltirilgan transport almashinuv tizimi varianti radiyal-doiraviy integratsiyalashgan model asosida quriladi. Bu modelda har bir tugun - ochiq ko‘pkanalli ommaviy xizmat tizimi sifatida ko‘riladi.

Samarqand transport almashinuv tizimi kutish bilan ommaviy xizmat tizimlari sinfiga kiradi. Bu degani, transport tizimiga bo‘lgan talablar (yo‘lovchilar oqimi) tasodifiy, lekin uzluksiz ravishda shakllanadi va navbatga joylashtirish mexanizmi orqali boshqariladi.

Tizim ochiq hisoblanadi, chunki tashqi manbadan (viloyatlar, turistlar, tranzit oqimlar) cheksiz miqdorda murojaatlar kelib tushadi. Bundan tashqari, har bir yo‘nalishda bir nechta xizmat kanali (transport turi) mavjud, masalan, avtobus, elektrobus, taksi shu bois, bu tizim ko‘pkanalli xizmat tizimi deb baholanadi [10,13,14].

Samarqand aglomeratsiyasi uchun ishlab chiqilgan transport almashinuv tizimining oqim diagrammasi shahar va atrof hududlar o‘rtasidagi barqaror transport integratsiyasini ta’minlaydi. Tizim modellashtirish orqali transport turlari o‘rtasidagi bog‘lanish samaradorligi oshiriladi, yo‘lovchi kechikishlari kamaytiriladi, va aglomeratsiya transport infratuzilmasining tizimli barqarorligi ta’minlanadi.

Bu natijalar Samarqand shahrining balki yaqin tumanlari ham zamonaviy aglomeratsiya rivojlanish modelini ishlab chiqishda, xususan transport bosh rejasini tuzishda asosiy ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida xizmat qiladi.

Samarqand aglomeratsiyasi darajasidagi transport almashinuv tizimi shahar va uning atrofidagi yirik aholi punktlarini birlashtiruvchi hududiy transport tugunlari majmuasidan iborat. Ushbu darajadagi tizimning asosiy maqsadi - aglomeratsiya hududining yagona transport hududi yaratish, yo‘lovchi oqimlarini boshqarish va shahar markaziga yo‘nalgan transport yuklamasini kamaytirishdir.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, aglomeratsion darajadagi transport tugunlari soni nisbatan kam (odatda 8 - 10 dan oshmaydi), ammo ularning hududiy ta’sir ko‘lami yuqori darajada bo‘lish mumkin. Samarqand misolida bu turdagi tugunlarga Samarqand temir yo‘l vokzali, “Samarqand” xalqaro aeroporti, hamda Toshkent yo‘li - A377 magistrali kesishmasidagi markaziy transport uzeli kiradi.

Mazkur tizimda transport almashinuvi metropoliten mavjud bo‘lmagan sharoitda tezkor avtobus liniyalari, mintaqaviy temir yo‘l yo‘nalishlari va shaxsiy transport tarmoqlari bilan integratsiya asosida tashkil etiladi. Samarqand viloyati doirasida bu tugunlar Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Jomboy, Urgut yo‘nalishlarida joylashgan transport markazlari bilan bog‘liq holda shakllantirilmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu turdagi transport tizimlari hududiy joylashuvga bog‘liq bo‘lmagan holda bitta yagona aglomeratsion transport tizimi sifatida qaralishi mumkin.

Bu daraja shahar ichki transport tizimi uchun xos bo‘lib, Samarqand shahri va unga tutash aholi punktlarida joylashgan almashuv tugunlarini o‘z ichiga oladi. Ular metropoliten stansiyasi mavjud emasligi sababli temir yo‘l, avtovokzal, va markaziy avtobus

bekatlari asosida shakllangan.

Munitsipal darajadagi transport tugunlari ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

- Temir yo‘l stansiyasi asosidagi almashuv tugunlari (Samarqand vokzali, Siyob va Kattabog‘ bekatlari).
- Avtovokzal asosidagi almashuv tugunlari (Markaziy avtovokzal, Urgut va Bulung‘ur yo‘nalishidagi terminal markazlari).

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, yo‘lovchi oqimining eng yuqori soatlik “pik” davrida bu tizimlarda yo‘lovchilar almashinuvi 10-18 ming kishigacha yetadi. Ushbu tugunlarda shaxsiy transport, jamoat avtobuslari va mintaqaviy yo‘nalishdagi marshrutlar o‘zaro integratsiya qilingan bo‘lib, shahar markaziga yo‘nalgan transport oqimlarini to‘plash va taqsimlash funksiyasini bajaradi.

Aglomeratsiyani zonalash asosida transport tizimini rivojlantirish;

Samarqand aglomeratsiyasida transport tizimini ilmiy asosda rivojlantirishda “territorial prinsipi” qo‘llaniladi. Aglomeratsiya hududi quyidagi uchta asosiy zonaga bo‘linadi:

1. Shahar atrofi zonasi - A377 (Samarqand-Toshkent magistrali) va tashqi halqa yo‘llar oralig‘idagi hudud;

2. O‘rta zona - tashqi halqa va shahar markaziy transport halqasi oralig‘ida joylashgan hudud;

3. Markaziy rejalashtirish zonasi - Registon maydoni, Temiryo‘l vokzali va Samarqand aeroporti oralig‘idagi hudud kiradi.

Aglomeratsiyaning shahar atrofi zonasida joylashgan tizimlar eng ko‘p funksional yuklama bilan ajralib turadi. Ular transport oqimlarini qayta taqsimlaydi, yaqin tumanlar aholisiga xizmat ko‘rsatadi va individual transportning markazga kirish oqimini boshqaradi.

Samarqand aglomeratsiyasi misolida transport almashinuv tizimini shakllantirishda ierarxik (darajaviy) yondashuv samarali ekanligi isbotlandi:

-Aglomeratsion daraja - hududiy integratsiyani ta’minlaydi;

-Munitsipal daraja - shahar transport tizimining markaziy o‘qini shakllantiradi.

-Lokal daraja - fuqarolarning kundalik harakatlanishini qulaylashtiradi;

Tizimning umumiy samaradorligini oshirish uchun simulyatsion modellashtirish va sistemali tahlil metodlari asosida transport oqimlarini boshqarish zarur. Aglomeratsiyaning shahar atrofi zonasida joylashgan transport almashinuv tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy-tahliliy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu tizimlar Samarqand aglomeratsiyasi uchun shahar markaziga yo‘nalgan transport oqimlarini tartibga solish, yo‘lovchi almashinuvini muvofiqlashtirish va shahar transport tizimining yuklamasini kamaytirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi [12,14].

O‘zbekistonning yirik aglomeratsion markazlaridan biri bo‘lgan Samarqand aglomeratsiyasi shahar atrofi zonasida olib borilgan ilmiy tahlillar natijalariga ko‘ra, transport almashinuv tizimlarini rivojlantirishda ustuvor yo‘nalish sifatida transport almashinuv tizimini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu metodika Samarqand aglomeratsiyasining transport barqarorligini ta’minlash, ekologik yuklamani kamaytirish va jamoat transportining raqobatbardoshligini oshirish uchun ilmiy asoslangan yechimdir.

Natijada, transport almashinuv tizimlari shahar va aglomeratsiya o‘rtasida funksional integratsiyani kuchaytiruvchi asosiy mexanizm sifatida shakllanadi.

Asosiy natijalar va xulosalar

Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy, metodologik va ilmiy-uslubiy izlanishlar asosida Samarqand aglomeratsiyasi transport almashinuv tizimining ilmiy modeli ishlab chiqildi. Ilk bor Samarqand transport tizimining integratsiyalashgan transport karkasi (ramkasi) konsepsiyasi ishlab chiqilib, uning imitatsion modeli yaratildi. Mazkur model asosida transport tizimini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlanib, rejalashtirish va boshqaruv bo‘yicha ilmiy asoslangan talablari ishlab chiqildi.

1. O‘tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Samarqand aglomeratsiyasi transport almashinuv tugunlari majmui shahar transport infratuzilmasining asosiy kichik tizimini tashkil etadi. Ularning vazifasi quyidagilardan iborat:

-jamoat va shaxsiy transport turlari o‘rtasida uzluksiz aloqani ta’minlash;

-transport infratuzilmasini aholi yashash hududlari bilan integratsiyalash;

-turistik va madaniy markazlar bilan transport aloqalarini kuchaytirish;

-ekologik bosimni kamaytirish va markaziy zonalarda shaxsiy transport oqimini tartibga solish.

2. Samarqand aglomeratsiyasi uchun ishlab chiqilgan tizim vertikal integratsiyalangan model asosida tashkil etildi. U uch darajadan iborat:

-Makro daraja - Samarqand shahrining butun transport tizimini birlashtiruvchi va mintaqaviy yo‘nalishlar bilan bog‘lovchi transport strategiyasi;

(Masalan: Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Nurobod yo‘nalishlarini qamrab oluvchi magistral tizim;)

-Mezo daraja - Aglomeratsiya darajasidagi tugunlar, ya’ni shahar atrofi tumanlari bilan jamoat transporti almashinuvi (masalan: Tayloq, Bulung‘ur, Jomboy yo‘nalishlari;)

-Mikro daraja - Mahalliy transport almashinuv tugunlari (avtostansiyalar, bekatlar, terminal va aylanma yo‘llar) bo‘lib, yo‘lovchilar almashuvini qulay sharoitda amalga oshiradi. Mikrodaraja o‘z navbatida uch subdarajaga bo‘linadi:

-Aglomeratsiya tugunlari;

-Munitsipal tugunlar;

-Lokal tugunlar;

3. Tizimning bosh maqsadi - aholining harakatlanish qulayligini oshirish va transport tarmoqlaridagi yuklamani kamaytirishdan iborat. Rivojlanishning ikki asosiy yo‘nalishi belgilandi:

Jamoat transporti harakatini yaxshilash;

Shahar yo‘l tarmog‘ida transport oqimini optimallashtirish;

4. Tizim rivojlanishida hududiy (territorial) printsip asos qilib olindi. Shu asosda besh turdagi tugunlar aniqlandi:

-Aglomeratsiya darajasidagi markaziy tizimlar;

-Chekka zonalarda joylashgan “tutib turuvchi” avtoturargohli tizimlar;

-Chekka zonaning asosiy yo‘l markazlaridagi almashinuv tizimlari;

-Aglomeratsiya o‘rta zonasidagi tranzit tugunlar;

-Markaziy rejalashtirish zonasi perimetri bo‘yicha tizimlar.

5. Tavsiya etilgan metodika Samarqand aglomeratsiyasi misolida sinovdan o‘tkazildi va ustuvor tugunlar aniqlanib, quyidagi natijalar olindi:

-Hisob-kitoblarga ko‘ra, faqat 30% tugunlarni rekonstruksiya qilish orqali:

-chekka zonalarda yo‘lovchilarning 65% transport xizmatini yaxshilash,

-markaziy hududlarda 45% transport xizmatini yaxshilash mumkin.

6. Tizimga qo‘yiladigan talablar uch guruhda belgilandi:

-Shaharsozlik talablari - tugunlarning joylashuvi, funksional integratsiyasi, yo‘l tarmog‘iga bog‘liqligi;

-Transport talablari - yo‘lovchi almashuvidagi qulaylik, transport oqimining barqarorligi;

-Texnologik talablari - axborot, xavfsizlik va boshqaruv tizimlarining samaradorligi.

Eng muhim ko‘rsatkich - yo‘lovchi qulayligi, u quyidagi mezonlar orqali ta’minlanadi:

-almashuv vaqti minimal bo‘lishi;

-piyoda va transport oqimlari kesishmasligi;

-ob-havo sharoitidan himoyalangan bekatlar mavjudligi;

-axborot va xavfsizlik tizimlari to‘liq ishlashi;

-har bir ijtimoiy guruh uchun teng kirish imkoniyati asoslab beriladi.

7. Tizim samaradorligini oshirish uchun quyidagilar taklif qilindi:

-aholi safar vaqtini 15-20% gacha qisqartirish;

-mintaqaviy yo‘l tarmog‘ida shaxsiy avtomobil harakatini 25-30% kamaytirish;

-transport tarmog‘ida iqtisodiy samaradorlikni 1,4-1,6 barobarga oshirish;

-yo‘lovchi oqimini barqaror va ekologik toza transport turlariga yo‘naltirishdan iborar.

Samarqand aglomeratsiyasida transport almashinuv tizimlarini ilmiy asosda shakllantirish shaharsozlikni barqaror rivojlantirish, ekologik yuklamani kamaytirish va fuqarolarning hayot sifatini oshirish uchun strategik ahamiyatga ega. Tizimning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi Samarqandni zamonaviy, qulay va barqaror transport markaziga aylantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va islohotlar yo‘lida” – T., 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va me’yoriy hujjatlari (2019–2024).

3. Власов Д.Н. «Транспортно-пересадочные узлы крупнейшего города (на примере Москвы)» Монография - М: Изд-во АСВ, 2009 г - 96 е.;

4. Данилина Н., Власов Д., «Система транспортно-пересадочных узлов и «перехватывающие» стоянки» - монография - Германия, изд-во «LAP LAMBERT Academic Publishing» 2013 г - 88 с

5. Власов Д.Н. «Принципы реконструкции транспортно-пересадочных узлов» // Транспортное строительство - 2009. - № 2 с. 5-7.

6. Власов Д.Н., Данилина Н.В. «Совершенствование транспортной

системы крупнейшего города, путем развития системы «перехватывающих» парковок» // Научно-технический журнал Вестник МГСУ - 2010 - № 4 Т.5, с. 49-54

7. Власов Д.Н. «Развитие системы пассажирского транспорта и системы пересадочных узлов в Московском регионе», «Совершенствование образования в области городского и транспортного планирования: материалы Рос. - Герм. конф. по транспортно-градостроительному планированию (Иркутск, 25 - 26 июня 2012 г)» Иркутск, Изд-во ИрГТУ, 2012 г, с. 1 7 - 2 4

8. Hidirov, M. M., Eshatov, I. Q., & Mahmudova, F. (2021, June). Architectural and planning organization of agglomerational trade and service complexes in the uzbekistan. In E-Conference Globe (pp. 60-64).

9. Eshatov I., Baratov X., Jo‘rayev O. O‘rta Osiyo shaharsozlik madaniyati va tarixiy shahar markazlarini zamon talablariga muvofiq takomillashtirish va qayta tiklash //Aktualnie nauchnie issledovaniya v sovremennom mire. – 2017. – №. 6-3. - S. 54-56.

10. Raximov K.D, Aymatov A.A, Kamalova D.Z, Mamatmusayev T.Sh, Reyimbayev Sh.S. “Me’moriy-tarixiy muhit va ta’mirlash asoslari” o’quv qo’llanma. 2024-yil.

11. Eshatov Ikrom Qo`ziyevich. “O`zbekiston viloyatlari markazlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini arxitektura-loyihaviy shakllantirish xususiyatlari”. Monografiya, © iScience Sp. z o. o. ISBN 978-83-66216-90 - 2024-yil.

12. Shukurov I.S., Xatamov A.T. “Shahar hududini injenerlik tayyorlash” Darslik. Toshkent “Iqtisod-moliya” 2018-yil.

O‘ZBEKISTON TARIXIY YODGORLIKLARIDAGI FRAKTAL KOMPOZITSIYALAR

Maxmudova Firuza Ibraimovna, mustaqil tadqiqotchi
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Maqolada Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlardagi yodgorliklar ko‘plab geometrik naqshlar va takroriy ornamentlar tadqiq qilingan. Tadqiqot maqsadi: O‘zbekiston tarixiy yodgorliklaridagi fraktal naqshlar va kompozitsiyalarni aniqlash, tasniflash va ularning san’atshunoslik va matematik jihatlarini tadqiq qilish. Tadqiqot usullari: vizual tahlil, geometrik shakllar va naqshlarni aniqlash, matematik tahlil, fraktal o‘lchamlar, simmetriya, kompyuter modellash va grafik analiz yordamida naqshlarni qayta yaratish ishlari tadqiq qilingan.

Kalit so’zlar: Takroriy va simmetrik naqshlar, geometrik va takroriy naqshlar, mozaykalar va gumbaz elementlari, gul va yulduz shakllar

Kirish. Fraktal tushunchasi birinchi marta amerikalik matematik Benoit Mandelbrot tomonidan 1975-yillarda ishlab chiqilgan. Fraktal — bu o‘zini takrorlovchi, murakkab tuzilishga ega geometrik shakl bo‘lib, u kichik o‘lchamlarda ham o‘zining umumiy ko‘rinishini saqlab qoladi. Fraktallar tabiiy va sun’iy ob’ektlarda uchraydi: daraxtlar, bulutlar, tog‘lar, shuningdek, arxitektura va san’at asarlarida. Fraktallarni tahlil qilish orqali murakkab geometrik naqshlar matematik formu-

lalar yordamida tavsiflanadi. Ularning asosiy xususiyatlari: O‘zini takrorlash (self-similarity) shaklning kichik qismi butun shaklga o‘xshash bo‘ladi. Har bir kichik qism yanada murakkab va batafsil elementlardan iboratdir. Fraktal shakllarning o‘lchamlari oddiy Evklid geometrik o‘lchamlardan farq qiladi, ular ko‘pincha kesirli (fractional) sonlar bilan ifodalanadi. Fraktallar san’atshunoslikda va me’morchilikda naqshlar va kompozitsiyalarni tahlil qilishda foydali vosita sifatida qo‘llaniladi. O‘zbekiston tarixiy me’morchiligi Markaziy Osiyoda noyob o‘rin tutadi. Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlardagi yodgorliklar ko‘plab geometrik naqshlar va takroriy ornamentlar bilan mashhur. Fraktal nazariyasi XXI asrda matematik va san’at tahlilida keng qo‘llanilmoqda. Fraktallar tabiiy shakllardan tortib, inson qo‘li bilan yaratilgan me’moriy naqshlargacha keng qo‘llanadi. O‘zbekiston yodgorliklaridagi fraktal kompozitsiyalarni o‘rganish nafaqat tarixiy san’atni, balki matematik estetikani ham tahlil qilish imkonini beradi. Fraktal tushunchasini san’at va me’morchilik kontekstida aniqlashda O‘zbek tarixiy yodgorliklaridagi geometrik va takroriy naqshlarni tahlil qilib, fraktal kompozitsiyalarni vizual va matematik jihatdan tasniflandi. Tadqiqot natijalarini zamonaviy dizayn va arxitektura sohalarida qo‘llash imkoniyatlarini ko’rib chiqiladi. O‘zbekiston tarixiy yodgorliklari (masalan: Registon majmuasi, Poi-Kalon majmuasi, Itchan-Qala, Shahrisabz me’moriy yodgorliklari) fraktal naqshlar va kompozitsiyalarning shakllanishi, strukturasini tahlil qilinadi.

Asosiy qism. O‘zbekiston tarixiy me’morchiligi Markaziy Osiyoda noyob o‘rin tutadi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi shaharlar, o‘zining ming yillik tarixi va boy madaniy merosi bilan ajralib turadi. Ushbu shaharlar me’moriy yodgorliklaridagi naqshlar, mozaikalar, gumbazlar va minoralar nafaqat san’at namunasi, balki matematik tizimlarni ham o‘zida mujassamlashtiradi. So‘nggi o‘n yilliklarda fraktal nazariyasi san’at va arxitektura tahlilida keng qo‘llanilmoqda. Fraktallar – o‘zini takrorlovchi, cheksiz detal va murakkab tuzilishga ega geometrik shakllar – tabiiy va sun’iy ob’ektlarda keng tarqalgan. O‘zbekiston tarixiy yodgorliklaridagi naqshlar, ornamentlar va arxitektura elementlari fraktal xususiyatlarga ega bo‘lib, ular o‘rganish uchun qiziqarli obyektlar hisoblanadi. Fraktal kompozitsiyalarni tadqiq qilish nafaqat tarixiy va san’atshunoslik jihatdan, balki matematik estetikani o‘rganish va zamonaviy dizayn sohalarida qo‘llash imkoniyatini beradi. Shu sababli, O‘zbekiston yodgorliklaridagi fraktal naqshlarni tizimli tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

O‘zbekiston yodgorliklaridagi fraktal kompozitsiyalarni bir necha asosiy manbalarda kuzatish mumkin: Registon majmuasi (Samarqand): Mozaikalar va ganch naqshlaridagi geometrik va gul elementlar o‘zini takrorlovchi tuzilishga ega. Uch madrasa fasadidagi naqshlar bir-biriga o‘xshash namunalarni takrorlaydi, bu fraktal tizimning aniq namunasidir. Buxoro minoralari va madrasalari: Minoralar ustidagi arabeska va geometrik naqshlar fraktal simmetriya xususiyatini namoyon qiladi. Masalan, Ismail Samaniy maqbarasi va Mir Arab madrasasidagi mozaikalar kichik va katta elementlarning o‘zini takrorlovchi tizimini tashkil qiladi. Xiva va Shahrisabz yodgorliklari: Gumbazlar va portal naqshlarida geometrik va floral elementlar fraktal tizimni hosil qiladi. Takroriy va simmetrik naqshlar ko‘p qatlamli struktura yaratadi, bu esa murakkab va cheksiz vizual effekt beradi. O‘zbekiston yodgorliklarida fraktal elementlarni tahlil qilish orqali naqshlarning faqat dekorativ emas, balki matematik va estetik qonuniyatlar asosida yaratilganligi ko‘rinadi. Bu esa ularni global miqyosda noyob va qiziqarli qiladi.

Maqolada quyidagi usullar qo‘llanildi: Vizual tahlil: naqshlar, mozaykalar va gumbaz elementlarini aniqlash va tasniflash. Matematik tahlil: fraktal o‘lchamlar, simmetriya va takroriylik darajasini aniqlash. Kompyuter modellash: naqshlarni raqamli shaklda qayta yaratish va fraktal xususiyatlarini o‘rganish. Arxiv va ilmiy manbalarni o‘rganish: tarixiy qo‘lyozmalar, foto va chizmalar tahlili. Masalan Registon majmuasi – o‘zining uchta madrasa bilan mashhur bo‘lib, har birining fasad va ichki bezaklarida fraktal tizimni kuzatish mumkin. Mozaikalar va ganch naqshlaridagi geometrik shakllar (yulduz, romb, uchburchak) kichik va katta elementlar orasida takrorlanadi. Fraktal xususiyatlarida kichik naqshlar katta naqshlarni takrorlaydi, natijada butun majmuada o‘zini takrorlovchi vizual tizim hosil bo‘ladi. Shuning uchun har bir madrasa fasadining naqshlarini fraktal tahlil orqali vizualizatsiya qilish, naqshlarning murakkablik darajasini raqamli o‘lchamlar bilan tavsiflash. Ismail Samaniy maqbarasi va Mir Arab madrasalarida minoralar ustidagi arabeska va geometrik naqshlar murakkab fraktal tizimni hosil qiladi. Naqshlar o‘zini takrorlovchi tuzilishga ega, kichik elementlar katta naqshni tashkil etadi. Natijada bu naqshlar nafaqat dekorativ balki matematik tartibga ega bo‘lib, fraktal printsiplariga mos keladi.

Tahlil asosida O‘zbekiston yodgorliklaridagi fraktal kompozitsiyalar quyidagi toifalarga ajratiladi: Oddiy fraktal naqshlari gul va yulduz shakllari kabi elementlarning bir-birini takrorlashi. Murakkab takroriy tizimlari mozaykalar va arabeskalar orqali ko‘p qatlamli fraktal tizim hosil qilish. Arxitektura elementlarida fraktal tizimlari gumbaz, minora va portal naqshlarida geometrik va floral elementlarning takroriyligini nomoyon qiladi.

O‘zbekiston tarixiy yodgorliklaridagi fraktal kompozitsiyalarni tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

Fraktal tizimlar aniqlandi: Registon, Buxoro, Xiva va Shahrisabz yodgorliklaridagi naqshlar va mozaikalar o‘zini takrorlovchi, ko‘p qatlamli fraktal tizimlarni tashkil qiladi.

Matematik tavsif: naqshlarning o‘zini takrorlovchi xususiyati va murakkabligi fraktal o‘lchamlar bilan ifodalanadi. Bu, naqshlarning tasodifiy emas, balki matematik tartib asosida yaratilganligini ko‘rsatadi.

Fraktal tasnifi: O‘zbekiston yodgorliklaridagi fraktallar uch toifaga ajratildi: 1) Oddiy fraktal naqshlar (gul, yulduz shakllari); 2) Murakkab takroriy tizimlar (mozaikalar, arabeskalar); 3) Arxitektura elementlaridagi fraktal tizimlar (gumbaz, minora, portal naqshlari).

Estetik ahamiyat: fraktal tizimlar me’moriy bezaklarga murakkablik, chuqurlik va vizual joziba beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston me’morchiligi tarixan fraktal printsiplarga asoslangan. Bu naqshlar va kompozitsiyalar faqat dekorativ emas, balki matematik va estetik qonuniyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Mandelbrotning fraktal nazariyasi yordamida yodgorliklardagi naqshlarning o‘zini takrorlovchi tizimi aniqlandi. Me’moriy dizayn uchun ahamiyatida fraktal tizimlarni zamonaviy me’morchilik va dizaynda qo‘llash mumkin. Masalan, fraktal printsiplar asosida yangi mozaika, gumbaz yoki fasad dizayni yaratish mumkin. Madaniy merosni saqlash masalasida fraktal tizimlarning tahlili tarixiy yodgorliklarni tiklash va restavratsiya qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston tarixiy me’morchiligida fraktal kompozitsiyalar chuqur matematik va estetik qonuniyatlarga asoslangan bo‘lib, ular nafaqat bezak elementi, balki badiiy tafakkur va ilmiy tartib uyg‘unligining yorqin ifodasidir. Registon majmuasi, Ismail Samaniy maqbarasi, Mir Arab madrasasi, Xiva va Shahrisabz yodgorliklarida uchraydigan geometrik va floral naqshlar fraktal tizimning o‘zini takrorlovchi, ko‘p qatlamli tuzilishini namoyon qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu naqshlar tasodifiy yaratilmagan — ular matematik simmetriya, proporsiya va o‘zini takrorlash tamoyillariga asoslangan. Fraktal nazariya orqali ushbu yodgorliklardagi naqshlarning ichki tuzilishi, takroriylik darajasi va estetik murakkabligi ilmiy tarzda tahlil qilindi.

Shuningdek, fraktal tizimlar tarixiy me’morchilikni saqlash va restavratsiya qilishda, shuningdek, zamonaviy dizayn va arxitektura loyihalarida qo‘llash uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Bu yondashuv O‘zbekiston me’moriy merosini nafaqat madaniy, balki ilmiy-estetik jihatdan ham yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Umuman olganda, O‘zbekiston yodgorliklaridagi fraktal kompozitsiyalar — matematika va san’at uyg‘unligining milliy shakldagi namunasi bo‘lib, ular o‘zining cheksizlik, uyg‘unlik va tartib go‘zalligi orqali dunyo madaniy merosida o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Xulosa. O‘zbekiston tarixiy yodgorliklaridagi fraktal kompozitsiyalar murakkab, o‘zini takrorlovchi va ko‘p qatlamli strukturalardan iborat bo’lib fraktal tizimlar naqshlarning matematik tartibi va estetik qiymatini oshiradi. Tadqiqotda zamonaviy me’morchilik va dizaynda fraktal printsiplarni qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Olingan natijalar O‘zbekiston me’morchiligi va san’ati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar uchun yangi nazariy va amaliy yo‘nalishlarni ochdi.

Tavsiya. Fraktal printsiplar asosida yodgorliklarni raqamli rekonstruksiya qilish. Zamonaviy arxitektura va dizaynda fraktal tizimlarni qo‘llash. Tarixiy naqshlarni o‘rganishda fraktal tahlil metodlarini kengaytirish. O‘zbekiston tarixiy yodgorliklaridagi fraktal kompozitsiyalar tarixiy, san’atshunoslik va matematik jihatdan noyobdir. Tadqiqot natijalarini zamonaviy dizayn, arxitektura va ma’lumot vizualizatsiyasida qo‘llanishi mumkin. Fraktal tahlilni boshqa Markaziy Osiyo yodgorliklariga kengaytirishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Маликов У. Basis of the formation of the architecture of the in the Central Asian historical palaces // AJMR . –India, 2019.
2. Дьяконов В.П., Абраменкова И.В Mathcad 7.0 в математике, физике и в Internet . Нолидж 1998 г.
3. WWW.fraktallar-fraktal-modellashtirish-asoslari.
4. WWW.FRAKTALLAR. Fraktal modellashtirish asoslari – тема научной статьи по СМИ (медиа) и массовым коммуникациям читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка
5. Мандельброт Б. Фрактальная геометрия природы / Б. Мандельброт. – М.: Ин-т компьютерных исслед., 2002. – 856 с.
6. Обен Ж.-П. Нелинейный анализ и его экономические приложения. / Ж.-П. Обен. – М.: Мир, 1988. – 264 с.
7. Исаева В.В. Фрактальность природных и архитектурных форм / В.В.Исаева, Н.В.Касьянов // Культура. Вестник ДВО РАН, 2006. – № 5. – С.119-127.
8. 4. Шредер М. Фракталы, хаос, степенные законы / М. Шредер. – М.; Ижевск: НИЦ Регулярная и хаотическая динамика, 2001.– 527 с.

SAMARQAND SHAHRIDA YO‘LOVCHILAR OQIMINI TAHLIL QILISH

Xaydarov Shoxbozjon Zuhriddin o’g’li - katta o’qituvchi
Beknazarov Murod Boynazarovich - katta o’qituvchi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand shahrida yo‘lovchilar oqimining shakllanishi, uni tahlil qilish usullari va mavjud muammolar ko‘rib chiqilgan. Shahar transport tizimining samaradorligi, turizm mavsumida yo‘lovchilar harakati, jamoat transporti tarmoqlaridagi yuklama hamda ularni boshqarishning zamonaviy yechimlari tahlil qilinadi. Yo‘lovchilar oqimini modellashtirish va geoinformatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari shahar transport tizimining barqaror rivojlanishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga va ekologik muhitni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: yo‘lovchilar oqimi, transport tizimi, jamoat transporti, Samarqand, smart-shahar texnologiyalari.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование пассажирских потоков в городе Самарканде, методы их анализа и существующие проблемы. Анализируется эффективность городской транспортной системы, сезонные изменения пассажиропотока в туристический период, загрузка общественного транспорта, а также современные решения по их управлению. Предложены рекомендации по моделированию пассажирских потоков и использованию геоинформационных технологий. Результаты исследования способствуют устойчивому развитию транспортной системы города, повышению качества жизни населения и улучшению экологической ситуации.
Ключевые слова: пассажиропоток, транспортная система, общественный транспорт, Самарканд, умный город.

Annotation: This article examines the formation of passenger flows in Samarkand city, methods of their analysis, and existing challenges. The efficiency of the urban transport system, seasonal variations in passenger flows during the tourist

period, the workload of public transport, and modern solutions for their management are analyzed. Recommendations are provided on passenger flow modeling and the use of geoinformation technologies. The research results contribute to the sustainable development of the city's transport system, improvement of residents' quality of life, and enhancement of the environmental situation.

Keywords: passenger flow, transport system, public transport, Samarkand, smart city technologies.

Kirish. Samarqand shahri O‘zbekistonning eng yirik turistik va iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda transport tizimi, ayniqsa, piyodalar harakati alohida ahamiyatga ega. Shahar markazida joylashgan tarixiy obidalar, bozorlar va transport tugunlari orqali kun davomida yuz minglab odamlar harakatlanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – Samarqand shahrining markaziy nuqtalarida piyodalar oqimini hisoblash, tahlil qilish va natijalardan shaharsozlik loyihalarida foydalanishdir.

Yo‘lovchilar oqimi tushunchasi.

Transport geografiyasi va shaharsozlik nazariyalarida yo‘lovchilar oqimi – ma’lum vaqt oralig‘ida shaharning bir nuqtasidan ikkinchisiga harakatlanayotgan yo‘lovchilar soni va yo‘nalishlarini ifodalaydi. Yo‘lovchilar oqimi ko‘plab omillarga bog‘liq: aholi soni, hududning iqtisodiy faoliyati, turistik oqim, ijtimoiy infratuzilma, transport vositalarining mavjudligi va ularning sifati.

Samarqand shahrida transport tarmog‘i va yo‘lovchilar oqimi.

Samarqand shahri yirik magistral yo‘llar, avtobus yo‘nalishlari, temiryo‘l vokzali va xalqaro aeroportga ega. So‘nggi yillarda jamoat transportini modernizatsiya qilish, avtobus parklarini yangilash va yangi yo‘nalishlar ochish ishlari olib borilmoqda.

Hisoblash jarayonida uchta asosiy kuzatuv nuqtasi tanlandi:

1. Registon maydoni (turistik markaz);
2. Siyob bozori atrofi (savdo hududi);
3. Temiryo‘l vokzali oldi (transport tuguni).

Kuzatuvlar 07:00 dan 20:00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida amalga oshirildi. Har bir soat to‘rtta 15 daqiqalik bloklarga ajratildi va o‘tgan piyodalar soni qayd qilindi. Hisoblashda quyidagi formulalardan foydalanildi:

- Soatlik oqim (N_soat) = o‘rtacha 15 daqiqalik oqim × 4;
- Kunlik oqim (N_kun) = barcha soatlik oqimlar yig‘indisi;
- Haftalik oqim (N_hafta) = 5 ish kuni + 2 dam olish kuni oqimlari yig‘indisi;
- Peak Hour Factor (PHF) = soatlik oqim / (4 × maksimal 15 daqiqalik oqim);
- Piyodalar zichligi (p/h/m) = soatlik oqim / yo‘lak kengligi.

Hisob-kitoblar

1. Registon maydoni (Nuqta A)
- Kunlik oqim: 32 000 kishi
- PHF (08:00–09:00): 0,898
- Yo‘lak kengligi 4 m bo‘lganda zichlik: 825 p/h/m
- Haftalik o‘rtacha oqim: 29 257 kishi/kun

2. Siyob bozori (Nuqta B)
- Kunlik oqim: 22 900 kishi
- PHF (08:00–09:00): 0,75
- Yo‘lak kengligi 3,5 m bo‘lganda zichlik: 514 p/h/m
- Haftalik o‘rtacha oqim: 20 937 kishi/kun

3. Temiryo‘l vokzali (Nuqta C)
- Kunlik oqim: 34 100 kishi
- PHF (08:00–09:00): 0,912
- Yo‘lak kengligi 5 m bo‘lganda zichlik: 620 p/h/m
- Haftalik o‘rtacha oqim: 31 177 kishi/kun

1-rasm. Samarqand xalqaro aeroporti

Shahar markazi – Registon maydoni, Siyob bozori, Go‘ri Amir maqbarasi kabi turistik maskanlarda yo‘lovchilar oqimi ayniqsa yuqori. Turizm mavsumida shaharda transport vositalarining yuklamasi 1,5–2 barobarga ortadi. Aholining kundalik qatnovi asosan mehnat faoliyati va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga qaratilgan.

Yo‘lovchilar oqimini tahlil qilish usullari.

Yo‘lovchilar oqimini ilmiy asosda tahlil qilish uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1. Kuzatuv va statistik ma’lumotlarni yig‘ish – avtobus bekatlari, temiryo‘l vokzali, aeroport va boshqa transport tugunlarida yo‘lovchilar soni qayd etiladi.

2. So‘rovnoma va intervyular – yo‘lovchilarning qayerdan qayerga, qanday maqsadda harakatlanishi aniqlanadi.

3. Matematik modellashtirish – transport oqimlari grafiklar, matritsalar va algoritmlar yordamida hisoblanadi.

4. Geoinformatsion tizimlar (GIT) – yo‘lovchilar oqimining fazoviy tahlili uchun xaritalar tuziladi.



2-rasm. Samarqand shahrining markaziy qismini 2040-yilgacha hisoblangan bosh rejasi.

Samarqand shahridagi muammolar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Samarqand shahrida yo‘lovchilar oqimini boshqarishda quyidagi muammolar mavjud:

- Jamoat transportining ayrim yo‘nalishlarda yetarli emasligi;
- Shahar markazida transport vositalarining to‘planib qolishi;
- Turistik mavsumda avtobus va taksilarda ortiqcha yuklama;
- Piyodalar harakatlanish yo‘laklari va velosiped infratuzilmasining cheklanganligi.

Taklif va yechimlar.

1. Avtobus tarmog‘ini kengaytirish – yangi aholi massivi va turistik hududlarga yo‘nalishlar qo‘shish.
2. Smart-shahar texnologiyalarini joriy qilish – mobil ilova orqali yo‘lovchilarga avtobuslarning kelish vaqti, yo‘nalish va bandlik darajasi haqida ma’lumot berish.
3. Turizm mavsumida qo‘shimcha transport vositalarini chiqarish – sayyohlik avtobuslari va shahar ichki shuttle xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.
4. Piyoda va velosiped yo‘laklarini rivojlantirish – ekologik toza transport vositalarini rag‘batlantirish.
5. Yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish – chorrahalarda “aqlli svetoforlar” va transport oqimini boshqaruvchi avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish.

3-rasm. Samarqand shahrining tramvay ko’rinishi.

Hisob-kitoblardan ko‘rinib turibdiki, Samarqand shahrida eng katta piyodalar oqimi **Temiryo‘l vokzali** va **Registon maydoni**da qayd etildi. Ayniqsa ertalabki va kechki "pik soatlar"da piyodalar soni keskin oshadi. PHF qiymatlari 0,75–0,91 oralig‘ida bo‘lib, oqimlarning ma’lum darajada notekis taqsimlanganini ko‘rsatadi.

Piyodalar oqimi zichligi (p/h/m) bo‘yicha hisob-kitoblar yo‘laklarning ba’zi joylarda yetarlicha keng emasligini ko‘rsatadi. Xususan, Siyob bozori atrofi uchun p/h/m qiymati yuqori bo‘lib, bu hududda yo‘laklarni kengaytirish yoki piyodalar oqimini qayta tashkil qilish zarurligini bildiradi.

Xulosa. Samarqand shahrida yo‘lovchilar oqimini samarali tashkil etish va tahlil qilish shahar transport tizimining barqaror rivojlanishi, turizm salohiyatining oshishi hamda aholi turmush darajasining yuksalishiga xizmat qiladi.

Samarqand shahrida piyodalar oqimini hisoblash natijalari shaharsozlik va transport rejalashtirish loyihalarida muhim ahamiyatga ega. Aniqlangan ko‘rsatkichlar asosida:

1. Markaziy yo‘laklarni kengaytirish;
2. Piyodalar uchun xavfsiz kesishmalar tashkil qilish;
3. Turistik hududlarda yo‘nalishni ko‘rsatib beruvchi belgilar va navigatsiya tizimini kuchaytirish;
4. Transport oqimi bilan kesishadigan nuqtalarda qo‘shimcha piyodalar ko‘priklari va yerosti yo‘laklarini qurish taklif etiladi.

Shu tarzda, Samarqand shahrida piyodalar oqimini samarali boshqarish va optimallashtirish orqali shahar infratuzilmasini yanada qulay, xavfsiz va barqaror qilish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Shahar transport tizimini rivojlantirish strategiyasi 2030. – Toshkent, 2020.
2. Eshatov, I., Abduraimov, M., Aymatov, A., Mustayev, B., Xaydarov, S., Maxmudova, F., ... & Inoyatov, D. (2024). Placement of trade and household service complexes in regions of Uzbekistan according to climatic conditions. In E3S Web of Conferences (Vol. 559, p. 01006). EDP Sciences.
3. Rakhimov, A., Rakhimov, L., Khaydarov, S., Beknazarov, M., Achildiyev, R., & Madiev, F. (2024, November). Experimental studies of the pile-in-pipe seismic isolation system with disconnecting connections. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.
4. Khaydarov, S., Madiev, F., Achildiyev, R., & Beknazarov, M. (2024, November). Settlement planning project. Types of population centers and their development factors. Ways of planning and development of settlements. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.
5. Рахимов, А., & Хайдаров, Ш. (2023). Теоретические и экспериментальные исследования систем сейсмозащиты с выключающимися связями. Тенденции и перспективы развития городов, 1(1), 234–236. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/prospects-urban-development/article/view/27344
6. Хайдаров, Ш., & Ачилдиев, Р. (2023). Организация одностороннего движения тс на дорогах или их участках. Тенденции и перспективы развития городов, 1(1), 91–94. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/prospects-urban-development/article/view/27246
7. Karimova, Z. Z. (2023). PIYODALAR HARAKAT XAFVSIZLIGINI OSHIRISH YO ‘LLARI. Journal of new century innovations, 24(2), 44-51.
8. Akram, I., & Zukhra, K. (2022). Problems and Prospects of Transport Development in Samarkand. Global Scientific Review, 3, 19-22.
9. Пардаев, О. Н., Бердикулов, А. А., Хайдаров, Ш. З. Ў., & Шоҳрух, Р. Ў. Б. (2021). Ривожланаётган шаҳарларда йўл ҳаракати жадаллигини муқобиллаштириш усуллари. Science and Education, 2(6), 313-319.
10. Madiev, F. M., & Khaydarov, S. Z. (2020). SHAKHRISABZ CITY–ARCHITECTURAL HISTORICAL RESPONSIBILITIES. FM Madiev, & SZ Khaydarov (Muh.), Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. da, 6, 58-61.
11. Rodrigue, J.-P. *The Geography of Transport Systems*. – New York: Routledge, 2020.
12. Litman, T. *Evaluating Public Transit Benefits and Costs*. – Victoria Transport Policy Institute, 2018.
13. Мирзаев А.А. *Городские пассажирские перевозки: организация и управление*. – Ташкент: Фан, 2017.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ МАТЕРИАЛЬНОГО ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ПОЯСНЕНИЕ

Гулямова Ф.А., докторант (PhD), **Шарифов Ф.А.,** докторант (PhD),
Самаркандский архитектурно-строительный университет

Аннотатция: В статье рассматриваются вопросы сохранения исторических памятников и традиционного жилого фонда. Автор предлагает заново изучить сохранившиеся памятники материальной культуры, а также поднимает вопрос о необходимости экономического переосмысления сохранения исторической среды и интереса жителей исторических районов города к сохранению и реставрации архитектурных памятников.

Annotation: The article deals with the issues of preservation of historical monuments and traditional housing. The author proposes to conduct new surveys of the preserved monuments of material culture and at the same time raises the issue of preserving the historical environment and reconsidering the economics of the interest of residents of the historical parts of the city in the preservation and restoration of architectural monuments.

Annatatsiya: Maqolada tarixiy obidalar va an'anaviy uy-joylarni saqlash masalalari ko'rib chiqiladi. Muallif saqlanib qolgan moddiy madaniyat yodgorliklarini yangidan o'rganishni taklif qiladi va shu bilan birga tarixiy muhitni saqlash va shaharning tarixiy qismlari aholisining me'moriy yodgorliklarni saqlash va tiklashdan manfaatdorligi iqtisodiyotini qayta ko'rib chiqish masalasini ko'taradi. Yodgorliklar

So'nggi yillarda tarixiy va madaniy merosni saqlash zamonaviy, yangilangan O'zbekiston madaniy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziev ularning qat'iy va katta boyliklarini talab qiladigan muammolarni aytib berdi.

В последние годы сохранение исторического и культурного наследия стало одним из приоритетных направлений обновлённой культурной политики современного Узбекистана. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев указал на актуальные проблемы, требующие решительных мер и значительных ресурсов.

В настоящее время фундаментальные социальные, экономические и духовные преобразования, а также вопросы развития культуры и сохранения историко-культурного наследия приобретают особую важность. В частности, историко-культурное наследие становится важной частью этих изменений, поскольку оно несёт в себе многовековые духовные ценности, способствующие сохранению национальной идентичности и обеспечивающие связь поколений, которая поддерживает наше общественное сознание.

Наследие — это стратегический ресурс развития страны, тесно связанный с обычаями, нормами и ценностями предыдущих поколений. Оно лежит в основе национальной идентичности народа.

Это наследие и его глубокая связь с современным художественным процессом определяют место и значение культуры каждой страны, а также роль каждого народа в развитии мировой цивилизации.

Наследие является важной частью туристического потенциала страны, а также значимым слоем её социально-экономического развития, поскольку охватывает множество сфер деятельности, формирующихся вокруг наследия, и способствует созданию рабочих мест.

Сохранение культурного наследия служит напоминанием о том, насколько оно связано с политикой обновлённого Узбекистана, его культурой, духовными ценностями, гуманизмом и созиданием.

История охраны исторического и культурного наследия Узбекистана насчитывает целый век. [7] В 1920–1980-е годы были сформированы законодательные акты по охране, создана государственная система защиты, разработаны основные методологические принципы охраны памятников, а также основана отечественная школа реставрации.

Однако в первые двадцать лет независимости Узбекистана многие достижения предыдущего периода в этой сфере были утрачены, что нанесло ущерб памятникам истории и культуры.

Изучение текущего состояния объектов исторического и культурного наследия позволило выявить основные причины их разрушения и утраты.

Первая причина — это естественное разрушение материальных объектов наследия под воздействием времени.

Вторая причина связана с влиянием природно-климатических условий окружающей среды на объекты культурного наследия. Например, высыхание Аральского моря радикально изменило экологию и климат региона, что негативно сказывается на древних крепостях и памятниках в Каракалпакстане, Хорезме и в стране в целом.

Третья причина заключается в неграмотной политике в сфере культурного наследия, проводимой в Узбекистане в первые двадцать пять лет независимости. Здесь можно привести множество примеров, начиная с отсутствия государственного перечня объектов, имеющих историко-культурное значение, и их официального признания, что мешало защите важнейших памятников.

В течение первых двадцати лет независимости подобная деятельность нанесла серьёзный урон историко-культурному наследию страны.

В последние годы сохранение исторического и культурного наследия стало одним из приоритетных направлений обновлённой культурной политики современного Узбекистана. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев указал на существующие проблемы, решение которых требует решимости и значительных ресурсов [7].

В настоящее время фундаментальные социальные, экономические и духовные преобразования,

развитие культуры и вопросы сохранения исторического и культурного наследия приобретают особое значение. В частности, историко-культурное наследие становится важной частью этих преобразований, поскольку оно несёт в себе многовековые духовные ценности, способствующие сохранению национальной идентичности и обеспечивающие преемственность поколений, что поддерживает наше общественное сознание.

Связь с традициями, нормами и ценностями предыдущих поколений лежит в основе национальной самоидентификации народа.

Именно наследие и его глубокая связь с современными художественными процессами определяют место и значение культуры каждой страны и каждого народа в развитии мировой цивилизации.

Наследие является важной частью туристического потенциала страны, а также существенным слоем её социально-экономического развития, поскольку охватывает различные отрасли, деятельность которых строится вокруг наследия. Это, в свою очередь, способствует созданию рабочих мест и решению проблем занятости населения. Следует отметить, что сохранение наследия тесно связано с имиджевой политикой современного Узбекистана как мерилом отношения к культуре, духовным ценностям, гуманизму и идеям созидания.

В престижных центрах городов начинается освоение новых строительных площадок, что приводит к разрушению исторической городской среды.

Почему сегодня для нас сотрудничество с ЮНЕСКО важнее, чем когда-либо? Возьмём один аспект — сохранение материального историко-культурного наследия, воплощённого в исторических городах, архитектурных памятниках и археологических раскопках.

Узбекистан является обладателем уникального исторического и культурного наследия. В настоящее время насчитывается 8208 объектов материального и культурного наследия.

Исторические центры Хивы, Бухары, Шахрисабза и Самарканда включены в Список Всемирного наследия ЮНЕСКО в номинации «Перекрёсток культур».

Наши великие предки, казалось, заботились о будущем своих потомков. Однако неумелая реконструкция исторического центра Шахрисабза нанесла значительный урон исторической среде города.

К сожалению, в первые двадцать пять лет независимости нашей страны сохранению наследия уделялось недостаточно внимания. В своё время были приняты законы «О сохранении и использовании культурного наследия» (2001) и «О сохранении и использовании археологических объектов» (2009). Однако эти законы остались лишь на бумаге. Если бы они выполнялись, возможно, сегодня мы не сталкивались бы с проблемами, которые требуют оперативного, целенаправленного и системного решения.

К объективным причинам относится растущие темпы урбанизации по всему миру. Увеличение численности городского населения, внедрение новых типов жилья и стремление людей жить в условиях, лучших по сравнению с традиционными, с точки зрения современной градостроительной практики ведут к разрушению исторических частей городов.

Сегодня нам как никогда важно перенимать зарубежный опыт в области охраны природы, то есть консервации и реставрации исторических сооружений. Мы должны строго соблюдать и выполнять принятые законы по охране материальных и духовных памятников культуры.

Важным фактором, повлиявшим на возникновение проблем в исторических городах, по нашему мнению, стало стихийное развитие рыночных отношений. В некоторых случаях предпринимательская активность, поддерживаемая представителями местных властей, а также коррупционные схемы привели к «откату назад» в сохранении исторической среды городов. Рядом с историческими зданиями начали строить рынки и прибыльные гостиницы. Никому не приходило в голову, что это нарушит облик города и помешает историческим зданиям. Ведь города всегда разделены на историческую и современную части, которые взаимно дополняют друг друга.

Еще причиной является неграмотная политика в сфере культурного наследия, проводимая в Узбекистане в первые двадцать пять лет независимости. Можно привести множество примеров: закрытие научно-исследовательского института реставрации, закрытие научно-исследовательского проектного института по восстановлению, а также прекращение ведения государственных списков важных объектов с историческим и культурным значением и других.

Особенно хочу выделить такие причины, как несоблюдение Узбекистаном ратифицированных конвенций ЮНЕСКО в отношении городов, включённых в Список всемирного наследия ЮНЕСКО, а также неправильная политика местных органов власти в вопросах разрушения памятников наследия, их реконструкции, сдачи в аренду и утраты традиционной жилой среды.

В первые двадцать пять лет независимости активизировалось коммерческое строительство с сносом ценных, но ветхих зданий (что продолжается и по сей день).

Эта тенденция продолжается и сегодня. Они разрушили историческую среду древнего города, поскольку материальная культурная среда и памятники являются основой преемственности и единства нации. Известные зарубежные строительные компании предлагают строить многоэтажные гостиницы в Ичан-Кала, в исторической буферной зоне Самарканда, включённой в список ЮНЕСКО, и других подобных местах. Сегодня такие предложения неприемлемы.

Ещё одним негативным фактором является наша юридическая неграмотность в области конвенций ЮНЕСКО. Если бы мы всего двадцать лет назад знали о бесценной универсальной ценности наших исторических памятников, конвенций ЮНЕСКО (1972 года о сохранении природного и культурного наследия, Венецианской хартии, документа Нара о подлинности, Европейской конвенции), об охране

археологического наследия, многочисленных рекомендациях ЮНЕСКО по историческим городским ландшафтам и других, возможно, мы бы избежали многих ошибок в сохранении наследия.

Негативные процессы в сфере охраны культурного наследия во многом возникли из-за отсутствия чёткой государственной политики в этой области, а также в результате межведомственной разрозненности и несогласованности между центральными и некоторыми местными органами власти. Лишь в последние годы широкая общественность начала активно участвовать в «сигнализации» о случаях нанесения ущерба историческим памятникам. В настоящее время по негативным фактам, опубликованным в социальных сетях департаментом культурного наследия, санкции применяются после тщательной проверки.

В Узбекистане на протяжении нескольких лет осознавалась необходимость кардинальных мер в сфере охраны историко-культурного наследия, отвечающих мировым стандартам.

И каждый год теряется определённое количество объектов. Например, строительство возле кинотеатра «Самарканд» полностью разрушило историческую среду города.

Министерством культуры внесены изменения в национальное законодательство, ужесточающие административную и уголовную ответственность за причинение вреда историко-культурным памятникам. Закон был принят указом Президента Республики Узбекистан от 30 августа 2019 года [7].

Департамент культурного наследия разработал порядок краткосрочной и долгосрочной аренды объектов культурного наследия, который в настоящее время утверждается Кабинетом Министров Республики Узбекистан.

Департамент культурного наследия подготовил проект закона «Об охране наследия» на основе утратившего силу закона 2002 года «Об охране историко-культурных памятников» и закона 2009 года «Об археологии» [7].

Для контроля безопасности архитектурных памятников и жилой среды, входящих в зону ЮНЕСКО, создаётся инспекция местного общественного контроля.

Однако, помимо всего этого, ещё остаётся множество концептуальных правил и стратегических решений, которые необходимо разработать, не говоря уже о внедрении новых методологических подходов, решений и практик в этой области.

При продолжающемся активном строительстве необходимо сохранить самобытность архитектурно-исторической среды наших городов. Безусловно, исторический план Самарканда, Бухары, Хивы, Шахрисабза и других городов, а также конструктивные и формирующие особенности их архитектурных сооружений, будь то религиозные или жилые здания, должны быть сохранены.

В восточных городах 19–20 веков сложилась традиция: существовал исторический старый город, а на его окраине появлялся новый город, который постепенно превращался в мегаполис. Памятники наследия должны быть интегрированы в современную городскую жизнь. Важная проблема — достижение баланса между сохранением наследия и развитием города.

Необходимо создать систему контроля и организацию деятельности государственных органов по охране культурного наследия.

Также важно создать систему внедрения историко-культурного наследия в общественное сознание. В этом направлении необходимо издавать множество методических и информационно-просветительских материалов для дошкольников, школьников и широкой общественности.

Наследие является частью имиджевой политики Узбекистана. «Брендинг» культурного и исторического наследия используется как выражение силы, необходимой для продвижения национальных интересов на международной арене. Международный авторитет Узбекистана напрямую связан с тем, как мы сохраняем наше наследие и как к нему относимся.

Сейчас, по нашему мнению, до тех пор, пока не будут подготовлены квалифицированные реставраторы, необходимо отдавать приоритет восстановлению исторических городов и охране исторических памятников.

Одной из основных задач остается создание Государственного института реставрационных проектных исследований, который будет координировать все реставрационные работы в республике. Учитывая, что проблема сохранения историко-культурного наследия в современных городских условиях имеет важное значение, новое бюрократическое учреждение должно управлять существующими органами и процессами. Именно этот отдел должен разрабатывать стратегии по историческим городам Узбекистана, концепции охраны исторических памятников, планы управления городами, а также оценивать влияние проводимых изменений.

Необходимо срочно восстановить науку реставрации и соответствующий институт. Следует создать музей стандартов подлинных изделий, производств строительных материалов для декорации, а также каталог архитектурных памятников.

Литература:

1. Уралов А.С. Принципы реконструкции и реставрации архитектурных памятников. Монография. Самарканд, 2020.
2. Каюмов Х.И. Передовые традиции и современность народной архитектуры Узбекистана. Межуниверситетский сборник. ЛИСИ, Ленинград, 1980 год.
3. Тулкина Кадырова. «Пути архитектурного возрождения Узбекистана в начале XX—XXI веков» (Традиции и современность). Ташкент, Архитектурный институт, 2007 год.
4. Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. Москва, Архитектура и градостроительство, 1951 год.
5. Хусаинова А.А. Архитектура Самарканда конца XIX века. Диссертация. Кандидат архитектуры. Ленинград, 1981 год.
6. Пугаченкова Г.А. Архитектура Средней Азии XV века. Основные тенденции и особенности. Ташкент, Адебият, 1975 год.
7. www.legasu.uz

TABIAT VA SHAHAR UYG‘UNLIGI-ODDIY TASODIFMI YO HAQQIQAT?

Kurbanov Shavkat Mamatkulovich - katta o‘qituvchisi, **Qo’chqorova Nurangiz Akbarjon qizi** - talaba
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya: Maqolada **“Tabiat va shahar uyg‘unligi: oddiy tasodifmi yo haqqiqat?”** mavzusi atroflicha yoritilgan. Tadqiqotda tabiat va urbanizatsiya jarayonlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalar, shahar muhitining ekologik barqarorligi hamda landshaft arxitekturasining zamonaviy ahamiyati tahlil qilinadi, urbanizatsiya oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, tabiiy tizimlarning buzilishi va shahar landshaftlarini qayta tiklash zarurati ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, ekologik dizayn, yashil infratuzilma va barqaror shaharsozlik tamoyillari asosida shahar va tabiat o‘rtasida uyg‘un muhit yaratishning nazariy va amaliy yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

O‘zbekiston shaharlaridagi landshaft arxitekturasi rivojlanish tendensiyalari, jahon tajribasi bilan qiyosiy o‘rganilib, ekologik shaharsozlikni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda shahar ekologiyasiga **“tirik organizm”** sifatida qarash g‘oyasi ilgari suriladi hamda landshaft dizaynning ekologik, estetik va psixologik funksiyalari bir butun tizimda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tabiat, shahar, uyg‘unlik, ekologik dizayn, landshaft arxitekturasi, urbanizatsiya, barqaror rivojlanish, yashil infratuzilma, ekologik muvozanat.

Аннотация: В статье **«Гармония природы и города: простая случайность или закономерность?»** всесторонне освещена тема взаимодействия природы и процессов урбанизации. В исследовании анализируются сложные взаимосвязи между природной и городской средой, экологическая устойчивость городов, а также современное значение ландшафтной архитектуры. Научно обоснованы экологические проблемы, возникающие в результате урбанизации, разрушение природных систем и необходимость восстановления городских ландшафтов.

Кроме того, в работе показаны теоретические и практические пути создания гармоничной среды между городом и природой на основе принципов экологического дизайна, зелёной инфраструктуры и устойчивого градостроительства. Рассмотрены тенденции развития ландшафтной архитектуры в городах Узбекистана в сравнении с мировым опытом, выработаны практические рекомендации по развитию экологического градостроительства.

Научная новизна исследования заключается в том, что в нём предлагается рассматривать городскую экологию как **«живой организм»,** а также анализируются экологические, эстетические и психологические функции ландшафтного дизайна в единой системе.

Ключевые слова: природа, город, гармония, экологический дизайн, ландшафтная архитектура, урбанизация, устойчивое развитие, зелёная инфраструктура, экологическое равновесие.

Annotatsion: The article **“Harmony of Nature and the City: Mere Coincidence or Natural Law?”** provides a comprehensive analysis of the interaction between nature and urbanization processes. The study examines the complex interrelations between natural and urban environments, the ecological sustainability of cities, and the contemporary significance of landscape architecture. It scientifically substantiates the environmental problems arising from urbanization, the degradation of natural systems, and the necessity of restoring urban landscapes.

In addition, the paper outlines theoretical and practical approaches to creating a harmonious relationship between the city and nature based on the principles of ecological design, green infrastructure, and sustainable urban planning. The development trends of landscape architecture in Uzbek cities are analyzed in comparison with global experience, and practical recommendations for advancing ecological urbanism are proposed.

The scientific novelty of the research lies in the conceptualization of urban ecology as a **“living organism”,** as well as in the integrated analysis of the ecological, aesthetic, and psychological functions of landscape design within a unified system.

Keywords: nature, city, harmony, ecological design, landscape architecture, urbanization, sustainable development, green infrastructure, ecological balance.

XXI asr insoniyat tarixida shaharsozlik va urbanizatsiya jarayoni eng yuqori bosqichga chiqdi. Har kuni millionlab odamlar yangi infratuzilmalar, transport tizimlari, sanoat obyektlari va turar joylar qurilishi tufayli o‘z atrof-muhitini o‘zgartirmoqda. Ammo bu o‘zgarishlar ko‘pincha tabiiy tizimlar bilan uyg‘unlikda emas, balki ularga qarshi yo‘nalishda kechadi. Shu sababli “tabiat va shahar uyg‘unligi” masalasi bugungi global ekologik kun tartibining markaziga chiqdi.

Ushbu mavzu inson, jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ilmiy, falsafiy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishni talab etadi. Shaharlar faqatgina me’moriy va ijtimoiy tizim emas — ular tirik ekologik organizmlar singari, tabiiy omillar bilan chambarchas bog‘langan tizimlardir. Tabiat va shahar uyg‘unligi tushunchasi faqat estetik muvozanat emas, balki ekologik barqarorlik, sog‘lom turmush tarzi va inson farovonligining kafolatidir.

Bugungi kunda butun dunyoda **“yashil shahar”, “ekoshahar”, “barqaror rivojlanish”** kabi tushunchalar urbanizatsiya siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Shaharlarning ekologik muvozanatini saqlashda landshaft arxitekturasi, ekologik dizayn va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston shaharlarida ham so‘nggi yillarda ekologik dizayn, yashil hududlarni kengaytirish, shahar landshaftini tabiiy elementlar bilan uyg‘unlashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq bu jarayonlar hali to‘liq ilmiy asosga ega emas, ya’ni “tabiat va shahar uyg‘unligi” masalasiga nazariy, amaliy va madaniy yondashuvlarni birlashtirish zarur.

Tabiat va shahar uyg‘unligi tushunchasi: nazariy asoslar

Tabiat va shahar uyg‘unligi masalasi insoniyat tafakkurida qadimdan mavjud bo‘lib, u jamiyatning madaniy, falsafiy va ilmiy rivojlanish bosqichlari bilan chambarchas bog‘liq. Inson o‘z hayot faoliyatida

tabiatning ajralmas qismi sifatida yashaydi, ammo urbanizatsiya jarayonlari kuchaygan sari bu tabiiy aloqalar zaiflashib, sun'iy muhit ustuvorlik qila boshladi. Shu nuqtada "uyg'unlik" tushunchasi markaziy falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.



Oddiy tasodifmi yo haqqiqat?

Uyg'unlik tushunchasining falsafiy mohiyati-bu tizim elementlarining bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro muvozanatli holatda bo'lishi demakdir. Tabiat va shahar o'rtasidagi uyg'unlik esa ikki qarama-qarshi dunyoning — tabiiy va sun'iy muhitning muvofiqlashuvini bildiradi. Falsafiy nuqtayi nazardan bu holat "qarama-qarshiliklar birligi" qonuni bilan izohlanadi: inson yaratuvchilik faoliyati orqali tabiatdan ajraladi, ammo ayni paytda unga qaytish zaruratini his etadi.

Antik davr mutafakkirlari-Aristotel, Platon va Gippokratlar tabiatni inson mavjudligining asosiy manbai deb bilgan. Ularning qarashlarida shaharlar tabiatning davomchisi sifatida tasavvur etilgan. Sharq mutafakkirlari, xususan, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy asarlarida ham inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik hayotning mukammallik darajasi sifatida talqin qilingan. Zamonaviy ekologik falsafada esa bu tushuncha "biotsentrizm" va "ekosentrizm" g'oyalari orqali yangicha mazmun kasb etmoqda. Biotsentrizm insonni tabiatdan ustun emas, balki uning bir bo'lagi sifatida ko'radi. Ekosentrizm esa barcha tabiiy tizimlarni yagona ekologik organizm sifatida tushuntiradi. Shahar -ana shu organizmning murakkab, ammo ajralmas qismi hisoblanadi.

Urbanizatsiya va ekologik tafakkur-insoniyat tarixida taraqqiyot belgisi bo'lib kelgan. Ammo bugungi kunda u ko'p hollarda ekologik muvozanatning buzilishi, ifloslanish va tabiiy resurslarning kamayishi bilan kechmoqda. Shu bois zamonaviy urbanizatsiya faqat iqtisodiy yoki texnologik jarayon sifatida emas, balki ekologik va ijtimoiy masala sifatida ham qaralmoqda. Ekologik tafakkur-bu insonning atrof-muhit bilan mas'uliyatli munosabatini shakllantiruvchi dunyoqarashdir. Shahar aholisi tabiatdan uzoqlashgan sari bu tafakkur susayadi, ammo landshaft arxitekturasi va ekologik dizayn orqali tabiatni qayta shahar hayotiga olib kirish imkoniyati mavjud. Shu sababli "tabiat va shahar uyg'unligi"-bu nafaqat estetik, balki ijtimoiy-madaniy zaruratdir.

Zamonaviy ilmiy konsepsiyalar orasida **"yashil urbanizm", "ekoshahar", "aqlli shahar"** va "barqaror rivojlanish" g'oyalari aynan shu uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan. Ularning barchasi inson faoliyatining ekologik izini kamaytirish, energiya va suv resurslaridan tejamkor foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, hamda yashil maydonlarni ko'paytirish tamoyillariga asoslanadi.



Landshaft arxitekturasi uyg'unlikning amaliy ifodasi-tabiat va shahar o'rtasidagi o'tish zonasi sifatida faoliyat yuritadi. U tabiiy shakllar, suv, o'simliklar, tuproq va inson yaratuvchanligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash vositasidir. Shahar makonida landshaft dizayni nafaqat bezak yoki dam olish joyi, balki ekologik tizimning bir bo'lagi sifatida qaraladi. Masalan, shahar bog'lari, yashil yo'laklar, suv havzalari, ekologik bog'lar bularning barchasi tabiatni shahar hayotiga qaytaruvchi **"yashil inshootlar"** dir. Landshaft dizaynerlar ushbu elementlar orqali mikroiqlimni yaxshilaydi, chang va shovqin miqdorini kamaytiradi, psixologik tinchlikni ta'minlaydi.



Tabiat bilan uyg'unlik

Tabiat bilan uyg‘unlikda yaratilgan shahar makoni inson ruhiyatiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashil hududlar yaqinida yashovchi odamlar stress darajasi past, sog‘lom turmush tarzi yuqori va ijtimoiy faollik jihatidan faolroq bo‘ladi. O‘zbek me’morchiligi tarixida ham tabiat bilan uyg‘unlik an’analari qadimdan mavjud. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarning tarixiy qismida suv inshootlari, bog‘lar, hovlili uylar, soya-salqin ko‘chalar — bularning barchasi iqlim, tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlikka asoslangan. Zamonaviy shaharsozlikda esa ushbu qadriyatlarni yangicha texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Tabiat va shahar o‘rtasidagi ziddiyat va muvozanat masalalari

Tabiat va shahar o‘rtasidagi munosabat tarixan murakkab jarayon bo‘lib, u doimo ham uyg‘unlikda kechmagan. Inson taraqqiyot yo‘lida tabiiy resurslardan foydalanish orqali o‘z hayotini qulaylashtirishga intilgan, biroq bu jarayon ko‘p hollarda muvozanatni buzgan. Shaharlarning o‘sishi, sanoatlashuv, transport tizimining kengayishi va urban infratuzilmaning ko‘payishi natijasida ekologik tizimlar sezilarli darajada o‘zgargan.

Asosiy ziddiyat shundan iboratki, tabiat qayta tiklanadigan, ammo sekin jarayon bo‘lsa, shahar rivoji tez, dinamik va ko‘p resurs talab qiladi. Shu bois bu ikki tizim o‘rtasida har doim qarama-qarshilik mavjud bo‘ladi: inson o‘z qulayligi uchun tabiatni o‘zgartiradi, tabiat esa bu o‘zgarishlarga javoban muvozanatni qayta tiklashga intiladi.

Shu bois bu ikki tizim o‘rtasida har doim qarama-qarshilik mavjud bo‘ladi: inson o‘z qulayligi uchun tabiatni o‘zgartiradi, tabiat esa bu o‘zgarishlarga javoban muvozanatni qayta tiklashga intiladi.

Urbanizatsiya va ekologik muvozanat-bu insoniyat taraqqiyotining tabiiy bosqichi bo‘lib, u ishlab chiqarish kuchlarining markazlashuvi, infratuzilma rivojlanishi va aholi zichligining ortishi bilan kechadi. Ammo, bu jarayon tabiiy muhitga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shaharlarning o‘sishi natijasida suv, havo va tuproqning ifloslanishi, yashil hududlarning qisqarishi, tabiiy landshaftlarning buzilishi va iqlimning o‘zgarishi kabi global muammolar yuzaga keladi. Shaharlar ekologik tizimga faqat “iste’molchi” sifatida ta’sir etmasligi kerak. Ular tabiiy resurslardan foydalanish bilan birga, ularni qayta tiklash, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish kabi jarayonlarni ham o‘z ichiga olishi zarur. Bu borada **“ekologik muvozanat”** tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi.

Ekologik muvozanat — bu tabiiy komponentlar (suv, havo, tuproq, o‘simliklar, hayvonot dunyosi) o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglatadi. Shaharsozlikda bu muvozanatni saqlash — yangi qurilishlar, transport tizimlari, sanoat obyektlari va yashil hududlar o‘rtasida optimal nisbatni topish demakdir. Masalan, ekologlar va landshaft arxitektorlar fikriga ko‘ra, shahar hududining kamida 30 foizi yashil landshaft elementlariga — parklar, daraxtzorlar, suv havzalari, yashil yo‘laklar va tabiiy bog‘larga ajratilishi kerak. Bunday muhit nafaqat ekologik tozalikni ta’minlaydi, balki shahar iqlimini yumshatadi, chang miqdorini kamaytiradi va insonning psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shahar ekologiyasi va inson salomatligi-Inson salomatligi bevosita ekologik omillarga bog‘liq. Tibbiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shahar atmosferasidagi zararli moddalar konsentratsiyasi yuqori bo‘lgan hududlarda nafas olish tizimi kasalliklari, yurak-qon tomir muammolari va stress holatlari ko‘proq uchraydi. Shuning uchun shahar ekologiyasini yaxshilash orqali aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash mumkin.

Tabiat bilan bevosita aloqada bo‘lish, yashil hududlarda vaqt o‘tkazish insonning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, zamonaviy shaharsozlikda “ekopsixologik dizayn” tamoyili joriy etilmoqda. Bu tamoyilga ko‘ra, shahar muhiti insonning tabiiy muvozanatini qo‘llab-quvvatlashi kerak — ya’ni, yashil hududlar, tabiiy ranglar, suv manbalari, yumshoq shaklli arxitektura elementlari psixologik qulaylikni ta’minlaydi. Urban landshaft va ekologik dizayn konsepsiyasi-bu tabiiy va sun’iy elementlarning uyg‘unlashgan tizimi bo‘lib, u shahar ekologik tizimining asosini tashkil etadi. Shahar landshaftlari faqatgina estetik vazifani emas, balki ekologik, iqlimiy, ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarni ham bajaradi. Zamonaviy ekologik dizaynning asosiy konsepsiyasi — bu **“yashil infrastruktura”** tamoyilidir. Yashil infrastruktura deganda, shahar ichida tabiiy ekotizimlar o‘rtasida uzluksiz ekologik yo‘laklar (yashil zonalar, suv yo‘llari, o‘rmon massivlari) tarmog‘ini yaratish tushuniladi. Bu tizim shaharni nafaqat bezaydi, balki tabiiy resurslarning aylanma jarayonini (suv, kislorod, issiqlik) barqarorlashtiradi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tabiat va shahar uyg‘unligi insoniyatning barqaror kelajagini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Urbanizatsiya jarayoni tobora kuchayib borayotgan bugungi davrda ekologik muvozanatni saqlash, shahar landshaftlarini tabiiy tizimlar bilan uyg‘unlashtirish va inson hayoti uchun qulay ekologik muhit yaratish -zamonaviy jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, shahar muhiti faqat texnik va me’moriy tizim emas, balki tirik ekologik organizmdir. U tabiat bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi va shu sababli har qanday urbanistik faoliyat ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslanishi kerak.

O‘zbekiston shaharlarida ham so‘nggi yillarda yashil hududlarni kengaytirish, ekologik dizaynni rivojlantirish va landshaft arxitekturasini modernizatsiya qilish yo‘nalishida muhim qadamlar tashlanmoqda.

Adabiyotlar:

1. Rasulov, D. *Urbanizatsiya va ekologik muvozanat masalalari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. To‘xtayev, B. *Shahar ekologiyasi va barqaror rivojlanish.* – Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2022.
3. Spiridonov, I. N. *Город и природа: экологические аспекты урбанизации.* – Москва: Наука, 2017.
4. Jackson, J. B. *The Necessity for Ruins and Other Topics.* – Amherst: University of Massachusetts Press, 1980.
5. Thompson, I. H. *Ecology, Community and Delight: An Inquiry into Values in Landscape Architecture.* – London: E&FN Spon, 1999.
6. Beatley, T. *Green Urbanism: Learning from European Cities.* – Washington, DC: Island Press, 2012.
7. Spirn, A. W. *The Granite Garden: Urban Nature and Human Design.* – New York: Basic Books, 1984.
8. Steiner, F. *Landscape Ecological Urbanism.* – Journal of Landscape and Urban Planning, 2016, № 155, pp. 1–8.

VITRAJ SAN‘ATINING KELIB CHIQISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI

Muqumova Sarvinoz Abdulla qizi - magistr
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola vitraj san‘atini kelib chiqishi, qo‘llanish sohalari, kelib chiqishi hamda unga kiritilgan o‘zgartirishlar va rivojlanish bosqichlari, uslublari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Vitraj, Misr va rim madaniyati, Rennesans davri, Gotika uslubi, Xristianlik cherkovlari, Germaniyadagi Köln sobori, Parijdagi Nôtre-Dame sobori, Angliyadagi Canterbury sobori, Tiffiny uslubi.

Insoniyat qadim-qadim zamonlardan o‘z yashash sharoitini yaxshilashga va kundalik hayotini rang-barang qilishga intilib kelgan. Shuningdek umrini asosiy vaqtini o‘tqazadigan uylari, inshoatlarini ham shinam qilish odamlar uchun juda muhim bo‘lib, bu borada juda kata yangiliklar qilib kelishyapti. Bu izlanishlari kelgusida odamlar marmar va turli toshlarni o‘zlashtirish va foydalanish imkonini ochgan, shu jumladan shisha ham insoniyat kashf etgan ulkan yutuq bo’ldi. Insoniyat shisha texnologiyasini o‘zlashtirish bilan kata inqilobga yuz tutdi. Dastlab shisha buyumlar yasash uchun ishlatilgan bolsa, keyinchalik san‘at va dizayn uchun ham keng qo‘llanila boshladi. Bular orasida vitraj san‘ati ham alohida o‘rin egallaydi

Vitraj — bu oynaning ustiga rangli shisha bo‘laklarini joylashtirish va ularni metall ramkalar bilan bog‘lash orqali yaratiladigan dekorativ san'at turi bo‘lib, binolarning deraza qismlarini bezatish va ramziy ma‘no kasb etish uchun ishlatiladi. Ushbu san‘at asari miloddan avvalgi 3–2 ming yilliklarda misrliklar tomonidan yaratilgan bo‘lib, ular ilk bor rangli shishani ishlab chiqara boshlaganlar. Dastlab ular shisha buyumlar, idishlar va ko‘zalarni bezash uchun rangli shishadan foydalangan. Misr ustalari qum, ohak va mis oksidi yordamida ko‘k, yashil, qizil va sariq shisha ranglarini olishni o‘rganganlar. Bu shishalar oynavand bo‘lib, quyosh nuri tushganda yorqin porlab turgan. Shu sababli, ibodatxonalar va fir’avn saroylarida kichik shisha parchalarini devor bezaklari orasiga joylashtirish odat bo‘lgan — bu vitrajning eng qadimiy shakli hisoblanadi. [1.1] Bu holat qadimgi Rimlik ustalar Misr va Suriya ustalarining tajribasini o‘zlashtirib, o‘z hayot tarziga qo‘llashga qadar davom etgan. Milodiy I asrdan boshlab rangli oynani keng ishlata boshlashgan. Rim ustalari oyna eritish texnologiyasini mukammallash-tirib, uni yupqa qilib oynatoshalarga aylantirishgan. Ba’zi Rim villalari va termalar (ommaviy hammomlar) devorlarida rangli shisha oynalar ishlatilgan. Ular asosan geometrik shakllar yoki oddiy bezakli naqshlar yaratgan, lekin hali diniy yoki murakkab tasvirlar yo‘q edi. Shu davrda vitraj yorug‘lik va bezak manbai sifatida shakllana boshlagan. Rim imperiyasi qulagach, vitraj san’ati Vizantiya madaniyati orqali yangi mazmun kasb etdi. Bu davrda rangli shisha cherkov me’morchiligining ajralmas qismiga aylandi. Vizantiya ustalari vitrajni mozaika san’ati bilan uyg‘unlashtirib, diniy ramzlar, farishtalar va muqaddas timsollarni rangli oynalar orqali tasvirlashni boshladilar. Yorug‘lik bu tasvirlarda ilohiylik ramzi sifatida talqin qilinar edi.

Har bir san‘at turi taraqqiyot etgani kabi vitraj ham asrlar sayin mukammallashib, ommalshib bordi. Dastlab u shunchaki bezak sifatida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik vitraj ramzlar va turli diniy mavzularni targ‘ib qilish vositasi sifatida ko‘rila boshladi. Ayniqsa uyg‘onish davrida gotika uslublari bilan hamnafas o‘laroq vitraj oynalar ham cherkov va yirik inshoatlarning ham ajralmas qismiga aylandi. Diniy inshoatlarda paydo bo‘lishi (IV–V asrlar) Xristianlik Yevropada tarqalgan davrda, rangli shishalar cherkov derazalarini bezashda ishlatila boshlandi. Dastlab bu oynalar kichik, sodda geometrik shakllarda bo‘lgan. Ular orqali kirgan yorug‘lik cherkov ichida mistik va ruhiy muhit yaratgan, bu esa diniy marosimlarga o‘ziga xos ta’sir bergan.

XII–XIV asrlarda Yevropada Gotika me’morchiligi rivojlanib, vitraj san’ati o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga chiqdi. Bu davrda qurilgan Parijdagi Notre-Dame, Shartre, Reyms va Kölndagi soborlarda o‘rnatilgan vitrajlar nafaqat bezak, balki muqaddas yozuvlar va rivoyatlarni tasvirlovchi “oyna orqali hikoya” sifatida xizmat qilgan. Bu vitrajlarda Iso, Maryam, payg‘ambarlar va avliyolarning tasvirlari yorqin ranglarda ishlangan. O‘sha davr ustalari qizil, ko‘k va oltin ranglarni uyg‘unlashtirib, yorug‘lik orqali ruhiy ta’sir kuchini oshirishga erishgan. Haqiqiy vitraj san’ati O‘rta asr Yevropasida, ayniqsa Gotika me’morchiligi paydo bo‘lgan davrda shakllandi. Gotika uslubiga hos bo‘lgan yirik derazalar endilikda rangdor naqshlar bilan to‘la boshladi. Bu davrda rangli oynalar qo‘rg‘oshin chiziqlar bilan birlashtirilgan. Injil voqealari va avliyolar hayoti tasvirlangan. Katta derazalar orqali yorug‘lik o‘tib, cherkov ichini rangli nur bilan to‘ldirgan. Eng qadimgi va mashhur vitrajlar Fransiyaning Shartres sobori (Chartres Cathedral, XII asr)da saqlanadi. Quyida ushbu san‘at namunalarini bir nechtasi haqida yoritib o‘tamiz

Parijdagi Nôtre-Dame sobori vitrajlari Yevropa o‘rta asr diniy san’atining eng boy va murakkab namunalaridan hisoblanadi. Sobor 12–14 asrlarda qurilgan bo‘lib, uning vitraj derazalari gotika me’morchiligining yorqin xususiyatlarini aks ettiradi. Nôtre-Dame vitrajlarining asosiy qismi diniy mavzularga bag‘ishlangan bo‘lib, ular Injil syujetlari, avliyolar hayoti, qadimiy ramzlar va ilohiy timsollar orqali tasvirlangan. Eng mashhur vitrajlar — g‘arbiy, shimoliy va janubiy rozetkalardir. G‘arbiy rozetkaning markazida Muqaddas Maryam tasviri joylashgan bo‘lib, atrofida Qadimgi Ahd shaxslari ko‘rsatilgan. Shimoliy rozetka o‘zining ranglar uyg‘unligi va saqlanganligiga ko‘ra butun Yevropada noyob sanaladi, janubiy rozetka esa Qirol Lui IX tomonidan soborga sovg‘a qilingan va unda Masihning ulug‘lanishi mavzusi yoritilgan. Nôtre-Dame vitrajlarining asosiy estetik jihati – chuqur ko‘k va qizil ranglarning ustunligi, yorug‘lik tushganda sahnalar jonlangandek bo‘ladigan rang-baranglikdir.

Parijdagi yana bir mashhur asar – Sainte-Chapelle vitrajlari san’at tarixida alohida o‘rin tutadi. 1243–1248-yillarda qurilgan bu ibodatxona deyarli to‘liq shisha devorlardan iborat bo‘lib, undagi vitraj maydoni 600 kvadrat metrdan oshadi. Ushbu vitrajlar dunyodagi eng to‘liq saqlangan o‘rta asr shisha tasvirlari tsikli bo‘lib, unda 1113 ta alohida sahna mavjud. Tasvirlarning asosiy mavzusi Qadimgi Ahd voqealaridan tortib Sulaymon davriga qadar bo‘lgan tarixiy diniy hikoyalar, shuningdek, Yangi Ahd va Apokalipsis sahnalaridir. Sainte-Chapelle vitrajlarida ranglarning mutanosibligi ayniqsa kuchli bo‘lib, binafsha, oltin, ko‘k va qizil ranglarning uyg‘unlashuvi ibodatxonani yorug‘lik tushgan paytda “ilohiy nur bilan to‘lgan makon”ga aylantiradi. Gotika san’atining cho‘qqisi aynan ushbu vitrajlarda o‘z aksini topadi.

Germaniyadagi Köln sobori vitrajlari ham o‘rta asr Yevropa san’atining eng yirik majmualaridan biridir. Soborning qurilishi 1248-yilda boshlangan bo‘lib, uning vitraj derazalari 13–16 asrlar san’atini o‘zida mujassam etadi. Eng mashhur derazalardan biri — Sharqiy deraza bo‘lib, u 1320–1340-yillarda yaratilgan va 15 metr balandlikdagi ulkan kompozitsiyadan iborat. Unda Muqaddas Uchlik, payg‘ambarlar va avliyolar tasvirlangan. Köln soborida shuningdek Apokalipsis vitrajlari ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu derazalarda Yuhannoning Vahiy kitobi tasvirlari Germaniya ikonografiyasi ruhida, dramatik, kuchli rang kontrastlari bilan yoritilgan. Sobor san’atining zamonaviy qatlami sifatida 2007-yilda yaratilgan Gerhard Richterning abstrakt vitraji alohida e’tibor qozongan. Minglab rangli kvadratlardan iborat bu vitraj o‘rta asr san’ati bilan zamonaviy san’atning uyg‘unlashuvini yaratadi. Köln vitrajlarining umumiy xususiyati — chuqur ranglar, ayniqsa ko‘k va binafsha ohanglarning ustunligi va murakkab kompozitsiyalardir.

Angliyadagi Canterbury sobori vitrajlari ingliz gotikasi rivojining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Soborning eng qadimiy vitrajlari 12–13 asrlarga mansub bo‘lib, ular Thomas Becketning shahidligi va u bilan bog‘liq mo‘jizalarni tasvirlaydi. Ushbu vitrajlar ingliz diniy tarixining eng muhim vizual hujjatlaridan hisoblanadi. “Iso avlodlari” tsikli esa nasab daraxtini ko‘rsatadi va Yevropadagi eng yaxshi saqlangan o‘rta asr vitrajlari qatoriga kiradi. Canterbury vitrajlarida fransuz gotikasidan farqli o‘laroq, ranglar yumshoqroq, tasvirlar esa hikoya tarzida tuziladi. Ingliz rassomlari inson qiyofasining portret tipidagi talqiniga ko‘proq urg‘u berganlari bilan ajralib turadi.

York Minster vitrajlari esa ingliz gotikasining eng ulkan va boy namunalaridan biridir. Bu soborda dunyoning eng katta o‘rta asr vitraj panellaridan biri — Great East Window mavjud bo‘lib, u 1405–1408-yillarda ishlangan. Ushbu ulkan deraza Apokalipsis mavzusini butun detal va murakkabliklari bilan aks ettiradi, 300 dan ortiq paneldan iborat bo‘lgan bu vitraj o‘z davrining eng ulug‘ san’at yodgorliklaridan biri sanaladi. York Minsterning yana bir mashhur asari — Five Sisters Window bo‘lib, u 15 metr balandlikdagi monoxrom vitrajlardan iborat. Bu vitrajlar geometrik naqshlari bilan ajralib turadi va ingliz o‘rta asr dekorativ san’atining eng yuksak namunalaridan biridir. Shuningdek, soborning rozet derazalari ham ranglarning uyg‘unligi va kompozitsion boyligi bilan mashhurdir. York Minster vitrajlarida ingliz Perpendicular Gothic uslubidagi nozik chiziqlar, sokin ranglar va o‘ta puxta kompozitsiyalar ustunlik beradi.





XIX asrda vitraj sanoat inqilobi va texnologik yutuqlar bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Zamon taraqqiy etgani bilan butunlay bir qit‘ada Amerikada vitrajning yangicha uslubi yuzaga keldi. Amerikadagi Tiffany vitrajlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarining eng mashhur san’at yutuqlaridan biri hisoblanadi. Bu

1917-yilgi inqilob va Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan so‘ng, kostyol boshqa ko‘plab diniy binolar singari yopildi. Uzoq vaqt davomida u turli ehtiyojlar uchun ishlatilgan - bu yerda omborlar va muassasalar joylashgan, bu esa interyerlarning qisman vayron bo‘lishiga olib kelgan. Faqat 1990-yillarning boshlarida, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ibodatxona katolik jamoasiga qaytarildi. Uzoq davom etgan restavratsiya boshlandi va tez orada bino yana ibodat va organ musiqasi bilan yangradi. Bugungi kunda Iso Masihning Muqaddas yuragi sobori nafaqat faoliyat yuritayotgan ibodatxona, balki madaniy hayot markazi hamdir. Bu yerda ma’naviy va klassik musiqa konsertlari, Rojdestvo kechalari, xayriya aksiyalari o‘tkaziladi. Sobor islom masjidlari, pravoslav va katolik cherkovlari, sinagogalar va protestant cherkovlari tinch-totuv yashayotgan Toshkentning ma’naviy xilma-xilligini eslatib turadi. Uning me’morchiligi, yevropacha qat’iylik va sharqona uyg‘unlik uni tarix, madaniyat va dinning noyob yodgorligiga aylantiradi.



1. Obyektning to‘liq nomi:

Isoning Muqaddas Yuragi ibodatxonasi (katolik cherkovi)

2. Manzil (joylashuv):

Toshkent shahri, Maxtumquli ko‘chasi, 80/1 uy (sobiq Gorkiy ko‘chasi)

3. Asrga mansublik:

XX asr boshlari (qurilish - 1902-1912 yy.)

4. Tarixiy ma’lumotnoma:

a) Muallif, quruvchi, buyurtmachi, yaratilish tarixi:

Ibodatxona qurilishi 1902-yilda polshalik arxitektor Lyudvik Ponjelovskiy (Ludwik Ponzhelowski) loyihasi asosida boshlangan. Ibodatxona asosan kelib chiqishi polyak va litvalik bo‘lgan ko‘chmanchilar, shuningdek, Rossiya imperiyasi harbiylaridan iborat bo‘lgan Toshkent katolik jamoasi mablag‘lari hisobidan qurilgan. 1912-yilda kostyolning muqaddaslashtirilishi bo‘lib o‘tdi. Ma’bad Isoning Muqaddas Yuragiga bag‘ishlangan edi.

b) Yodgorlikning asl qiyofasini o‘zgartirgan qayta qurish va yo‘qotishlar:

1930-yillarda cherkov Sovet hukumati tomonidan yopilgan. Bino omborxona va ustaxona sifatida ishlatilgan, dekorativ elementlarning bir qismi yo‘qolgan.

✓ 1990-yillarda restavratsiya boshlandi: fasadlar, vitrajlar va interyerning bir qismi tiklandi.

v) Ta’mirlash ishlari:

Qayta tiklash ishlari 1992-yildan 2000-yilgacha Yevropa Ittifoqining bir qator mamlakatlari diplomatik vakolatxonalari ko‘magida katolik jamiyati kuchlari tomonidan amalga oshirildi. Restavratsiya hujjatlari ibodatxona peshtoqida va Toshkent shahar madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish boshqarmasi arxivlarida saqlanadi.

5. Yodgorlikning tavsifi:

a) Asosiy me’moriy xususiyatlar:

Uslub: neogotika

Kompozitsiya: ikki minorali fasadga ega bir nefli bino

Konstruksiyasi: g‘ishtli, yuzalari suvalgan

Fasadlar: vertikal yo‘naltirilgan, ravoqli derazalar, o‘qsimon portallar, kontrforslar va dekorativ minoralar bilan qoplangan

Interyer: baland gumbazlar, diniy mavzudagi vitrajlar, organ, yog‘och mehrob

Materiallar: qizil g‘isht, suvoq, shisha, metall, yog‘och

O‘lchamlari: taxminan 30×15 m, minoralarning balandligi taxminan 20 m.

6. Obyektning texnik holatining qisqacha tavsifi

Konstruksiya elementlari	Materiallar	Holat
Poydevorlar	Tosh, xarsangtosh terish	Qoniqarli
Devorlar	G‘ishtli, suvalgan	Yaxshi, qisman tiklangan
Orayopmalar va pollar	Yog‘och va beton	O‘rtacha, qisman almashtirilgan
Tom	Metall cherepitsa (yangi)	Yaxshi
Dekorativ bezak	Suvoq, vitrajlar, o‘ymakorlik	Yaxshi, qisman rekonstruksiya qilingan
Hududni obodonlashtirish	Asfalt yo‘laklar, ko‘kalamzorlar, to‘siqlar	Yaxshi

7. Tarixiy-madaniy qadriyatning tavsifi

T/r	Qiymat mezoni	Baho (ballarda, 1-5)
1.	Shaharsozlik ahamiyati	5.
2.	Tarixiy-madaniy ahamiyati	5.
3.	Arxitekturaviy-badiiy qiymat	5.
4.	Dastlabki ko‘rinishning saqlanishi	4.
Jami:		**19 / 20**

Asosiy bibliografiya, arxiv va ikonografik materiallar:

Toshkent shahar katolik cherkovi arxivi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxivi, f. 34, op. 2.

Postlar:

“Katoliklar O‘rta Osiyoda” (Toshkent, 2005)

“Toshkent me’moriy merosi” (“Sharq” nashriyoti, 2010)

Joylashuv va turkum:

Toshkent shahri, shahar markazi, Istiqbol ko‘chasi

Muhofaza toifasi: respublika ahamiyatiga molik arxitektura yodgorligi

9. Texnik holati:

Devor, orayopma, pol konstruksiyalari: qoniqarli holatda.

Fasadlar qoplamasi va interyer: restavratsiya qilingan, asl elementlar saqlanib qolgan.

Interyer: vitrajlar, yog‘och o‘ymakorligi, organ mavjud.

Holat bahosi: ✓ Yaxshi

10. Qo‘riqlash tizimi:

a) Muhofaza toifasi: Respublika

b) Hujjat raqami va sanasi: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.07.1996 y.

v) Qo‘riqlash zonasining chegaralari: Toshkent shahar hokimligi qarori bilan belgilangan (obyektdan 50 m radiusda)

Qisqacha tavsifi: obyekt respublika ahamiyatiga molik me’moriy yodgorliklar ro‘yxatiga kiritilgan, hudud yaqinidagi barcha qurilish ishlari muhofaza qilinishi va kelishilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil.12-iyuldagi “Tarixiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagiPQ–4068-son “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tizimini
3. takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
4. Avazov A.S. Shahar hududlarida tarixiy binolar kadastrini yuritishning zamonaviy usullari. // Geodeziya va kadastr ilmiy jurnali. - Toshkent, 2022. — №3. — B. 45–52.
5. Karimov R.X., Ismoilov J.Sh. Geoinformatsion texnologiyalar asosida arxitektura yodgorliklarini raqamlashtirish. — Toshkent: TIQXMMI nashriyoti, 2020.
6. Toshkent shahar Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish boshqarmasi arxivi. Iso Masihning Muqaddas Yuragi sobori bo‘yicha restavratsiya hujjatlari.
7. “Toshkent me’moriy merosi”. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010.
8. “Katoliklar O‘rta Osiyoda”. — Toshkent, 2005.
9. Kadyrov S.K. Arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilishning shaharsozlik jihatlari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
10. Burrough P.A., McDonnell R.A. Principles of Geographical Information Systems. — Oxford: Oxford University Press, 2015.
11. Longley P.A., Goodchild M.F., Maguire D.J., Rhind D.W. Geographic Information Systems and Science. — Hoboken: Wiley, 2015.
12. UNESCO. Managing Cultural World Heritage. — Paris: UNESCO World Heritage Centre, 2013.
13. Salimov A.M. Сохранения и исползования памятников архитектуры Узбекистана. Monografiya.Izd. FAN. 2009. 288 стр.

AYOLLAR REABILITATSIYA VA TADBIRKORLIK MARKAZLARINI ARXITEKTURAVIY LOYIHALASHDA FUNKSIONAL-TIPOLOGIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH

Kochkarova Madina Jahongir qizi TTPU pedagogi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlarini arxitekturaviy loyihalashning zamonaviy funksional-tipologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston sharoitida faoliyat yuritayotgan ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlarining mavjud holati o‘rganilib, ularning arxitektura-rejaviy yechimlaridagi muammolar aniqlangan. Xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil asosida ayollar markazlarini loyihalashga qo‘yiladigan funksional bloklash, joylashtirish va shaharsozlik talablari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida ayollar markazlari uchun taklif etilgan arxitekturaviy yechimlar reabilitatsiya, ijtimoiy moslashuv va iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi muhitni shakllantirishga qaratilgan. Maqola natijalari loyiha amaliyotida va me’yoriy hujjatlarni takomillashtirishda qo‘llanishi mumkin.

Kalit so’zlar: ayollar markazlari, reabilitatsiya, tadbirkorlik, arxitekturaviy tipologiya, funksional rejalashtirish, shaharsozlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования архитектуры женских центров в рамках современной системы социальной инфраструктуры. Актуальность исследования обусловлена расширением социальных, образовательных, реабилитационных и культурных функций женских центров в обществе, а также недостаточной разработанностью соответствующих архитектурно-планировочных решений.

Основная цель исследования — на основе анализа отечественного и зарубежного опыта определить пути совершенствования архитектурно-планировочной структуры женских центров и разработать научно обоснованные принципы их проектирования. В процессе исследования использовались методы системного анализа, типологического сравнения, функционального зонирования и пространственного моделирования.

Результатом исследования стала предложенная концепция многофункциональной, гибкой и человеко ориентированной архитектуры женских центров. Данные решения могут быть применены в практике проектирования и реконструкции женских центров в городской среде.

Ключевые слова: женские центры; общественные здания; социальная архитектура; архитектурно-планировочная структура; функциональное зонирование; гендерно-ориентированная архитектура; реабилитационная среда; многофункциональные комплексы.

Abstract. This article examines the improvement of the architecture of women's centers within the framework of the modern social infrastructure system. The relevance of the research is explained by the expanding social, educational, rehabilitative, and cultural functions of women's centers in society, as well as the insufficient development of appropriate architectural and planning solutions.

The main objective of the research is to identify ways to improve the architectural and planning structure of women's centers

based on the analysis of local and foreign practices, and to develop scientifically grounded principles for their design. The study employed methods of systems analysis, typological comparison, functional zoning, and spatial modeling. As a result of the research, a multifunctional, flexible, and human-oriented architectural concept for the organization of women's centers was proposed. These solutions can be applied in the practical design and reconstruction of women's centers within the urban environment.

Keywords: women's centers; public buildings; social architecture; architectural and planning structure; functional zoning; gender-oriented architecture; rehabilitative environment; multifunctional complexes.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik holatini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo‘nalishda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida tizimli choralar ko‘rilmoqda, jumladan ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirish, ularning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan farmon va qarorlar qabul qilingan. Masalan, 2021-yil 19-maydagi Prezident qarori bilan zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha davlat markazlari tashkil etilgan, bu orqali ijtimoiy yordam tizimi mustahkamlandi va davlat moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi yo‘lga qo‘yildi.[1]Shu nuqtai nazardan, ayollar markazlari ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish, ta’lim olish, psixologik va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, kasbiy qayta tayyorlash hamda madaniy rivojlanishini ta’minlovchi muhim jamoat muassasalari sifatida namoyon bo’lmoqda[2].

Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi sonining o‘sishi va ijtimoiy infratuzilmaga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi ayollar uchun mo‘ljallangan maxsus muassasalar — reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlarini tashkil etishni taqozo etmoqda.

Amaldagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, mavjud ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlari moslashtirilgan binolarda joylashtirilgan bo‘lib, ularning arxitektura-rejaviy yechimlari ayollarning psixologik holati, xavfsizligi va ijtimoiy moslashuv ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi. Shu sababli ushbu turdagi binolarni loyihalashda funksional-tipologik yondashuvni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida ayollar markazlarini loyihalashda ijtimoiy arxitektura tamoyillari, reabilitatsion muhitni shakllantirish va funksional bloklashga alohida e’tibor qaratilgan[3]. Biroq O‘zbekiston sharoitida ushbu masalalar arxitektura nuqtayi nazaridan yetarli darajada ilmiy asoslanmagan.Mazkur maqolaning maqsadi — ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlarini arxitekturaviy loyihalashda funksional-tipologik yondashuvni ilmiy asosda tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda loyiha amaliyotida qo‘llash mumkin bo‘lgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlari o‘z funksional vazifasiga ko‘ra ko‘p funksiyali ijtimoiy inshootlar guruhiga kiradi. Ushbu markazlar reabilitatsiya, psixologik yordam, kasbiy tayyorlash, maslahat berish va ijtimoiy moslashtirish vazifalarini birlashtirgan murakkab arxitekturaviy tuzilishga ega. Shu sababli ularni loyihalashda an’anaviy ijtimoiy binolardan farqli ravishda, foydalanuvchilarning ruhiy holati, xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash asosiy mezon sifatida qaraladi.

Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston hududida joylashgan ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlarining mavjud binolari o‘rganilib, ularning aksariyati moslashtirilgan obyektlar ekanligi aniqlangan. Bunday binolarda funksional bloklarning mantiqiy bog‘lanishi, harakat oqimlari va ichki muhit sifati yetarli darajada ta’minlanmagan. Bu holat ayollar uchun qulay va xavfsiz reabilitatsion muhitni shakllantirishda arxitektura yechimlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlarini loyihalashda funksional bloklash tamoyili markaziy o‘rinni egallaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu turdagi binolarda quyidagi asosiy funksional bloklar ajratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi: qabul va ma’muriy boshqaruv bloki, reabilitatsiya va psixologik xizmatlar bloki, ta’lim va kasbiy tayyorlash bloki, tibbiy-maslahat xonalari, vaqtinchalik yashash uchun mo‘ljallangan turar joy bloki, shuningdek, jamoat va rekreatsiya hududlari.

Funksional bloklarning o‘zaro joylashuvi foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda, bosqichma-bosqich reabilitatsiya jarayonini ta’minlashi lozim. Shu bilan birga, ichki makonlarda tabiiy yorug‘lik, shamollatish, akustik qulaylik va xavfsizlik talablariga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Ushbu yondashuv ayollarning psixologik holatini barqarorlashtirish va ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlarini joylashtirishda shaharsozlik omillari muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bunday inshootlar shahar infratuzilmasiga integratsiyalashgan, ammo shovqin va salbiy tashqi omillardan nisbatan himoyalangan hududlarda joylashtirilishi lozim.

Yer uchastkasini tanlashda transport qulayligi, ijtimoiy xizmatlar bilan bog‘liqlik, yashil hududlarga yaqinlik va xavfsizlik darajasi asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Shuningdek, markaz hududida yopiq va yarim yopiq ichki makonlar, hovli maydonlari va rekreatsiya zonalarini tashkil etish ayollarning ruhiy holatini tiklashda muhim sharoit yaratadi.

Xorijiy mamlakatlarda ayollar markazlarini loyihalash tajribasi ko‘p hollarda reabilitatsion muhit, ijtimoiy integratsiya va inson omiliga yo‘naltirilgan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.“Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5020-son Qaror. – Toshkent, 2021.

[3] UN Women.Gender-responsive design in public spaces. — United Nations Publications, 2018.

arxitektura tamoyillariga asoslangan[4]. Biroq ushbu tajribani to‘liq ko‘chirish O‘zbekiston sharoitida har doim ham samarali natija bermaydi.

Tadqiqotda taklif etilgan arxitekturaviy yechimlar milliy mentalitet, iqlim sharoiti, shaharsozlik tuzilmasi va amaldagi me’yoriy hujjatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Bu yondashuv ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlarini loyihalashda milliy va zamonaviy arxitektura yechimlarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlarini loyihalashda arxitekturaviy-tipologik va funksional yondashuvni takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Mavjud binolarning aksariyati ushbu markazlar uchun maxsus loyihalanmaganligi sababli, ularni qayta tashkil etish va yangi namunaviy loyihalarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Maqolada ayollar markazlari uchun funksional bloklash, rejalashtirish va shaharsozlik talablari ilmiy asosda tizimlashtirildi hamda milliy sharoitga mos arxitekturaviy yechimlar taklif etildi. Tadqiqot natijalari ayollar uchun qulay, xavfsiz va reabilitatsion muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy xulosalar loyiha amaliyotida, namunaviy loyihalar ishlab chiqishda, shuningdek, ayollar reabilitatsiya va tadbirkorlik markazlarini loyihalash bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.“Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5020-son Qaror. – Toshkent, 2021.
3. UN Women. Gender-responsive design in public spaces. — United Nations Publications, 2018.
4. Frampton, K.Modern Architecture: A Critical History. – London: Thames & Hudson, 2007.

MAHALLALARDA TABIIY LANDSHAFT KOMPONENTLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sadirova Dilfuza Ravshan qizi, doktorant
Usmanov Muradxan Saidmaxmudovich, arx.f.d.,v.b.professor
Tashkent University of Architecture and Civil Engineering (TUACE)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahallalarda tabiiy landshaft komponentlaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Mahalliy hududlarda yashil maydonlarni kengaytirish, daraxt va butalarni ekish, tabiiy suv havzalari hamda relyef xususiyatlaridan oqilona foydalanish orqali ekologik va ijtimoiy muhitni yaxshilash yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, landshaft arxitekturasi vositalari yordamida mahallalarda barqaror rivojlanishni ta’minlash, aholining turmush sifatini oshirish va ekologik muvozanatni mustahkamlashning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqot natijalari tabiiy landshaft komponentlaridan foydalanishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Mahalla, landshaft arxitekturasi, tabiiy landshaft komponentlari, ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, ekologik samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, barqaror rivojlanish, yashil hududlar, innovatsion landshaft echimlari, urbanizatsiya, ekologik muvozanat.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы эффективного использования природных ландшафтных компонентов в махаллях. Показаны пути улучшения экологической и социальной среды за счет расширения зеленых зон, посадки деревьев и кустарников, patsionального использования природных водоемов и рельефных особенностей. Также освещены научно-практические основы обеспечения устойчивого развития в махаллях, повышения качества жизни населения и укрепления экологического равновесия с помощью средств ландшафтной архитектуры. Результаты исследования показывают необходимость внедрения инноватsionных подходов при использовании природных ландшафтных компонентов.

Ключевые слова: Махалля, ландшафтная архитектура, природные компоненты ландшафта, озеленение, благоустройство, экологическая эффективность, социальная эффективность, устойчивое развитие, зелёные зоны, инноватsionные ландшафтные решения, урбанизатsия, экологическое равновесие.

Annotation. This article analyzes the issues of effective use of natural landscape components in mahallas. It highlights ways to improve the ecological and social environment through the expansion of green areas, planting of trees and shrubs, and the rational use of natural water bodies and relief features. The scientific and practical foundations of ensuring sustainable development in mahallas, improving the quality of life of the population, and strengthening ecological balance with the help of landscape architecture tools are also discussed. The research results demonstrate the necessity of introducing innovative approaches to the use of natural landscape components.

Key words: Mahalla, landscape architecture, natural landscape components, landscaping, urban beautification, ecological efficiency, social efficiency, sustainable development, green areas, innovative landscape solutions, urbanization, ecological balance.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mahallalarda obodonlashtirish va landshaft arxitekturasi orqali aholining hayot sifatini oshirish, ekologik muvozanatni ta’minlash hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga qaratilgan keng ko‘lamli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, Toshkent shahri misolida olib qaralganda, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha bir qator innovatsion loyihalar ilgari surilmoqda. Masalan, Toshkent shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlanishda Mirobod

[4] Frampton, K. Modern Architecture: A Critical History. – London: Thames & Hudson, 2007.

tumanidagi “Abdulla Avloniy” mahallasini obodonlashtirish loyihasi taqdim etildi. Ushbu tashabbus doirasida mahalla hududida ekologik va ijtimoiy muhitni yaxshilash, “sog‘lom hayot” infratuzilmasini kengaytirish hamda aholining real ehtiyojlariga mos sharoitlarni yaratish ko‘zda tutilgan.

Loyiha ijrosiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi qoshidagi Delivery Unit ham faol jalb etilgan bo‘lib, fuqarolar bilan bevosita muloqot qilish, mavjud muammolarni aniqlash va mahallalarning tabiiy landshaft imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali yangi echimlar ishlab chiqish rejalashtirilgan. O‘tgan yilda Toshkent shahrida 55 km “salomatlik yo‘laklari”, 123 ta sport maydonchalari va bir nechta “workout” zonalari barpo etilgani ushbu yo‘nalishdagi amaliy natijalardan dalolat beradi(1-rasm). Biroq, ayrim hududlarda yo‘laklarning o‘zaro uzviy bog‘lanmagani yoki aholining ehtiyojlari etarlicha hisobga olinmagani kuzatilgan bo‘lib, bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish kelgusi bosqichlarda muhim vazifa sifatida belgilangan.

1-rasm. 5074 nafar aholi istiqomat qiluvchi “Abdulla Avloniy” nomli mahallasi uchun eskiz loyihasi (Ilxom Zayniev tomonidan taklif loyiha)

Shuningdek, “Abdulla Avloniy” mahallasi Toshkent shahridagi 25 ta “qizil” toifadagi mahallalardan biri sifatida “Obod mahalla” dasturi asosida kompleks obodonlashtirish choralari ko‘riladigan hududlar qatoriga kiritilgan. Ushbu jarayon mahallalarda tabiiy landshaft komponentlaridan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish, yashil hududlarni kengaytirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda shaharsozlik rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishda muhim tajriba maydoni bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqotda mahallalarda tabiiy landshaft elementlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni mustahkamlashda landshaft arxitekturasi yondashuvlarining ilmiy-amaliy ahamiyati yoritiladi.

Asosiy qism. Mahallalarda tabiiy landshaft komponentlaridan foydalanish, avvalo, hududlarning ekologik barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Yashil maydonlar aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, mikroiqlimni yumshatish va shaharsozlik jarayonlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Shu bois, mahallalarda ko‘kalamzorlashtirish ishlari keng qamrovli tarzda olib borilishi, daraxt va butalar tanlashda iqlim sharoitlari, tuproq sifati hamda suv resurslari imkoniyatlari hisobga olinishi lozim.

Tabiiy landshaft komponentlari orasida daraxtzorlar va butazorlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular havoni tozalash, changni yutish va kislorod ishlab chiqarish orqali ekologik muhitni yaxshilaydi. Shuningdek, turli xil manzarali o‘simliklardan foydalanish mahalla hududining estetik qiyofasini boyitadi va aholining psixologik xotirjamligini ta’minlaydi. Suv havzalari va kichik gidroinshootlardan oqilona foydalanish esa hududning iqlimiy xususiyatlarini tartibga soladi, namlikni me’yorida ushlab turadi hamda dam olish uchun qulay sharoit yaratadi.

Landshaft arxitekturasi vositalaridan samarali foydalanish mahallalarda ijtimoiy samaradorlikni ham oshiradi. Yashil maydonlarda jamoat bog‘lari, bolalar maydonchalari, sport inshootlari va sayr yo‘laklarini tashkil etish aholining faol hayot tarzini qo‘llab-quvvatlash bilan birga ijtimoiy integratsiyani ham kuchaytiradi. Bunday yondashuv mahallalarda jamiyat a’zolari o‘rtasida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish, hamjihatlik va hamkorlik ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, innovatsion landshaft echimlarini qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Xususan, vertikal ko‘kalamzorlashtirish, ekologik energiya tejovchi yoritish tizimlari, yomg‘ir suvidan qayta foydalanish texnologiyalari va aqlli sug‘orish tizimlari mahalla hududlarida barqaror rivojlanishni ta’minlash imkonini beradi. Ushbu usullar nafaqat resurslardan samarali foydalanishga, balki iqtisodiy jihatdan tejamkorlikka ham olib keladi.

Shuningdek, mahallalarni obodonlashtirish jarayonida xalqning qadriyatlari va milliy me’moriy an’analarini hisobga olish muhimdir. Landshaft arxitekturasi loyihalarida mahalliy materiallardan foydalanish, milliy bezak elementlarini uyg‘unlashtirish va tarixiy-madaniy xotirani saqlash orqali hududning o‘ziga xosligini ta’minlash mumkin. Bu yondashuv mahallalarni nafaqat ekologik, balki madaniy jihatdan ham jozibador hududlarga aylantiradi.

Tadqiqot mahallalarda tabiiy landshaft komponent-laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Avvalo, mavzuga oid nazariy manbalar, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, mahalliy va xorijiy tajribalar o‘rganildi. Ushbu bosqichda urbanizatsiya jarayonlari, landshaft arxitekturasi va ekologik barqarorlikka oid ilg‘or konsepsiyalar qiyosiy tahlil qilindi.

Keyingi bosqichda amaliy kuzatuv va joyida

o‘rganish ishlari olib borildi. Mahalla hududlarida mavjud yashil maydonlar, daraxtzorlar, suv havzalari va relyef xususiyatlari joyida ko‘zdan kechirildi hamda ularning ekologik va ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlari baholandi. Shu jarayonda dala kuzatuvlari, foto va geodeziya o‘lchovlari, GIS texnologiyalari yordamida xaritalash ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil usullaridan foydalanilib, mahallalarda yashil hududlarning aholining turmush sifati, havoning ifloslanish darajasi, ijtimoiy faoliyat va sog‘liq ko‘rsatkichlariga ta’siri aniqlashga qaratilgan ma’lumotlar yig‘ildi. Shu maqsadda aholining fikrlari va ehtiyojlarini o‘rganish uchun so‘rovnomalar va suhbatlar ham tashkil etildi.

Metodologik asos sifatida landshaft arxitekturasi nazariyalari, ekologik samaradorlik baholash usullari hamda barqaror rivojlanish tamoyillari qabul qilindi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarni aniqlash va baholashda tizimli tahlil, qiyosiy baholash, modellashtirish va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar orqali mahallalarda tabiiy landshaft komponentlaridan foydalanishning amaliy imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari kompleks tarzda o‘rganildi.



2-rasm. “Qizil mahallalar xaritasi” Toshkent hokimiyati huzuridagi Raqamli rivojlanish departamenti[5]

Mahallalarda tabiiy landshaft komponentlaridan oqilona foydalanish ekologik muvozanatni ta’minlash va ijtimoiy muhitni yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Kuzatuvlar natijasida ko‘plab mahallalarda yashil hududlar etarli darajada emasligi, mavjud daraxtzorlarning eskirganligi, sug‘orish tizimlarining samarali ishlamasligi va tabiiy suv resurslaridan foydalanishda muammolar mavjudligi aniqlandi. Bu esa aholi salomatligiga, mikroiqlimga va mahalla ekologik barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Statistik tahlillar asosida aniqlanishicha, yashil maydonlar zichligi yuqori bo‘lgan mahallalarda havoning sifat ko‘rsatkichlari ancha yaxshi, shuningdek, aholining ijtimoiy faolligi, sport va dam olish faoliyatlarida ishtiroki yuqoriligi qayd etildi. Ayniqsa, daraxt va butalar bilan zich ko‘kalamzorlashtirilgan hududlarda yoz oylarida harorat 3–5 °C ga past, chang va zararli moddalar miqdori esa 20–30 % ga kam bo‘lishi kuzatildi. Bu esa tabiiy landshaft komponentlarining mikroiqlimni tartibga solishda va sog‘lom yashash muhitini yaratishda katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi(2-rasm).

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, aholining 68%i mahallalarda yashil maydonlarni kengaytirish, dam olish maskanlarini barpo etish va suv havzalarini obodonlashtirishni dolzarb masala deb hisoblaydi. Shu bilan birga, aholining aksariyati mavjud yashil hududlardan etarli darajada foydalanilmasligini, ularda qulay infratuzilma (o‘rindiqlar, soyabonlar, yoritish tizimlari, piyodalar yo‘laklari)ning yo‘qligi haqida fikr bildirdi.

GIS texnologiyalari asosida tuzilgan xaritalash natijalarida esa ayrim mahallalarda landshaft resurslari notekis taqsimlanganligi, ayrim joylarda yashil hududlarning umumiy maydonidagi ulushi 5–7 % dan oshmasligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich barqaror urbanistik rivojlanish talablariga mos kelmaydi. Shu bilan birga, tabiiy relyef elementlari va suv resurslaridan oqilona foydalanilsa, mahallalarda ekologik samaradorlikni 15–20 % ga oshirish imkoniyati mavjudligi ilmiy asosda aniqlab berildi.

O‘rganish jarayonida innovatsion landshaft echimlari — vertikal bog‘lar, yashil tomlar, yomg‘ir suvlari yig‘ish va qayta foydalanish tizimlari, smart-sug‘orish texnologiyalari qo‘llanilganda, ekologik samaradorlik sezilarli darajada oshishi mumkinligi isbotlandi. Shuningdek, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish va jamoatchilikni ko‘kalamzorlashtirish jarayonlariga jalb qilish orqali ijtimoiy samaradorlikni yanada kuchaytirish mumkinligi aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari mahallalarda tabiiy landshaft komponentlaridan foydalanishning nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi, barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim omil sifatida qaralishi zarurligini ko‘rsatdi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahri mahallalarida tabiiy landshaft komponentlaridan samarali foydalanish ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shahar sharoitida aholining zichligi yuqoriligi, transport oqimining ko‘pligi va urbanizatsiya bosimining ortib borishi natijasida yashil maydonlarning kamayishi ekologik muhit sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mahallalardagi kuzatuvlar hamda statistik tahlillar natijasida ko‘p hollarda yashil hududlar etarli emasligi, mavjud daraxtzorlarning yangilanish sur’ati pastligi, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi past darajada ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, Toshkent shahrida yozgi mavsumda yuqori harorat, havoning quruqligi va changlanish darajasining yuqoriligi mahallalarda qo‘shimcha ko‘kalamzorlashtirish choralari zarurligini ko‘rsatadi. O‘tkazilgan GIS tahlillari asosida ayrim mahallalarda yashil hududlar ulushi umumiy maydonning 6–8

[5] https://www.gazeta.uz/ru/

foizidan oshmasligi, bu esa shaharsozlikning barqaror rivojlanish talablariga javob bermasligi qayd etildi. Shu sababli, Toshkent shahrida mahallalar darajasida tabiiy landshaft komponentlaridan foydalanishning innovatsion yondashuvlari joriy etilishi dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari surildi:

1. Yashil hududlarni kengaytirish – har bir mahallada daraxt va buta turlarini hududning iqlim xususiyatlari va tuproq sharoitiga moslab ekish orqali yashil maydonlarni ko‘paytirish. Ayniqsa, changni yutuvchi, issiqqa chidamli va uzoq umr ko‘radigan daraxt turlariga ustuvorlik berish.
2. Innovatsion landshaft echimlarini joriy etish – vertikal bog‘lar, yashil tomlar va yomg‘ir suvlarini yig‘ib qayta foydalanish tizimlarini joriy qilish orqali ekologik samaradorlikni oshirish.
3. Ekologik infratuzilmani rivojlantirish – mahallalarda o‘rindiqlar, soyabonlar, piyodalar yo‘laklari, yoritish tizimlari va bolalar hamda kattalar uchun dam olish maskanlarini barpo etish orqali yashil hududlardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Umuman olganda, Toshkent shahri mahallalarida tabiiy landshaft komponentlaridan samarali foydalanish ekologik barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish va aholining sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, mazkur yo‘nalishda tizimli yondashuv, ilmiy asoslangan qarorlar va innovatsion landshaft yechimlarini keng joriy etish zarur.

Adabiyotlar:

1. Isamuhamedova D.U., Adilova L.A. “Shaharsozlik aslari va landshaft arxitekturasi”. Darslik. 2-qism, “Fan” paschg. Today, 2012.
2. Isamuhamedova D.U., Sadikova M.A., Muminova K.R. “Shaharsozlik loyihalash”. O'quv qo'llanma, TASI. Today in 2015.
3. Isamuhammedova D.U.,“Shahar va qishloq rekonstruksiyalari".T.,2018
4. Kositskii Ya. V. ”Compositional foundations of the planning structure of the city” — M.: 1994.
5. Dyachenko E.V. “Architectural and landscape organization of tourist routes (on the example of the city of Moscow)” Moscow, 2010.
6. Belov M., Mikhailov S., Mikhailova A., Nazarov Yu. “Street Design"/ Kazan-2015
7. https://www.gazeta.uz/media/img/2024/06/8mepHf17174209826981_l.jpg

ISSUES OF DEVELOPING BICYCLE TRANSPORT INFRASTRUCTURE IN ENSURING THE SUSTAINABILITY OF THE URBAN TRANSPORT SYSTEM

Achildiyev Rasul Makhmadaliyevich
Samarkand State University of Architecture and Construction, Department of Urban Planning, Senior Lecturer
Sanayeva Nargiza Payzullayevna
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Department of General Physics and Construction Engineering Acting Associate Professor, PhD in Technical Sciences

Annotation. This article analyzes the issues of developing bicycle transport infrastructure in the city of Samarkand. The study examines the current state of bicycle traffic organization within the urban transport system, existing challenges, and possible ways to address them. The urban planning, environmental, and social significance of developing a bicycle transport network is substantiated. In addition, proposals and recommendations are developed for the design of bicycle lanes, their integration with public transport, ensuring traffic safety, and promoting a culture of bicycle use. The research results demonstrate that bicycle transport plays an important role in forming a sustainable urban transport system and improving the environmental condition of the city of Samarkand.

Keywords: bicycle transport, bicycle infrastructure, urban transport system, sustainable urban development, bicycle lanes, ecological transport, traffic safety.

Introduction: In recent decades, rapid urban growth, an increase in the number of motor vehicles, and the growing pressure on urban infrastructure have led to a significant escalation of environmental problems and traffic safety issues. Emissions from motor vehicles, air and noise pollution adversely affect public health, traffic congestion reduces economic efficiency, and road traffic accidents pose a serious threat to human life and health. Therefore, sustainable urban development and integrated transport policies have become one of the most pressing challenges of the present day.

In this context, bicycle transport represents an important alternative as an environmentally friendly, economically efficient mode of transportation that also promotes a healthy lifestyle. The development and expansion of bicycle infrastructure can reduce emissions generated by motor vehicles, decrease the load on road infrastructure, and improve traffic safety in urban areas. Modern practice and international experience show that a systematic and well-planned bicycle policy significantly improves urban environmental conditions and reduces the number of traffic accidents.

The regulatory documents and decisions adopted by the Republic of Uzbekistan confirm that considerable attention is being paid to this area at the state level. In particular, the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 812, dated December 29, 2020, “On Additional Measures to Support Vehicle Rental Activities, the Use of Electric Vehicles and Motor Transport, as well as the Development of Bicycle Mobility Across the Country,” emphasizes initiatives aimed at stabilizing the transport system and promoting safe and environmentally friendly modes of urban mobility. The measures outlined in this resolution include the introduction of bicycle lanes in urban infrastructure, the establishment of secure bicycle parking facilities, the support of integrated bike-sharing

systems connected with public transport, and the promotion of active lifestyles among the population.

This article analyzes the issues of increasing the use of bicycle transport in order to (1) enhance the environmental sustainability of the motor transport complex, (2) strengthen traffic safety, and (3) reduce the overall transport load. Within the framework of the study, practical measures, infrastructural solutions, and strategic actions that may be effective under national conditions are proposed based on international experience. The analysis is conducted in alignment with state policy, and the effectiveness of existing regulatory decisions and practical initiatives is also assessed.

Methods: During the research process, a comprehensive review of scientific and theoretical sources, regulatory and legal documents, and urban planning practices related to the formation and development of bicycle transport infrastructure was conducted. In particular, laws, presidential decrees, and resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan regulating the transport and urban planning sectors were analyzed. Based on these documents, the legal framework and existing regulatory requirements for the development of bicycle transport infrastructure were identified.

In addition, the study examined best practices in organizing bicycle traffic in foreign countries, including European Union member states, the Netherlands, Denmark, and several Asian countries. International scientific publications, statistical reports, and conceptual documents on transport development were analyzed to identify the key principles applied in the planning and design of bicycle transport infrastructure.

The research methodology employed a comprehensive assessment approach to the urban transport system. The existing street and road network of Samarkand, its functional zones, residential areas, public transport routes, and historical and tourist districts were analyzed. The main corridors and areas suitable for the development of bicycle traffic were identified, and their roles within the overall urban structure were evaluated.

During the study, an analytical and comparative method was used to compare the current transport conditions of Samarkand with the experience of cities that have well-developed bicycle transport infrastructure. Statistical data aggregation methods were applied to analyze motor vehicle flows, traffic safety indicators, and environmental load parameters.

Furthermore, urban planning and functional-spatial approaches were applied in the design of bicycle lanes. The alignment, width, surface types, and intersections of bicycle lanes with motor vehicle and pedestrian traffic were evaluated in accordance with regulatory standards. When locating bicycle parking facilities and bicycle-sharing stations, proximity to public transport stops, social infrastructure facilities, and densely populated areas was taken into account.

Overall, the methods applied in this study made it possible to develop scientifically grounded conclusions and practical recommendations for the development of bicycle transport infrastructure in the city of Samarkand.

Results: The conducted analyses indicate that if bicycle transport and related infrastructure are actively developed in cities worldwide, total cost savings could reach approximately USD 25 trillion between 2015 and 2050. At the same time, by 2050, carbon dioxide (CO_2) emissions in the passenger transport sector could be reduced by 11% compared to scenarios in which insufficient attention is given to bicycle transport development.

In this context, the term “strong emphasis on bicycle development” does not imply extreme or unrealistic measures. The referenced report considers scenarios in which 11% of trips by 2030 and 23% of trips by 2050 are made by bicycle, primarily focusing on short-distance travel. Given that the majority of car trips in the United States are shorter than five miles, such an approach can be considered both realistic and logically justified.

Nevertheless, even a moderate development scenario demonstrates that the expansion of bicycle transport can lead to significant positive changes. According to the report, a shift in planning priorities toward cities that provide greater opportunities for bicycle transport enables the formation of fundamentally different urbanized environments. In such cities, passenger transport systems become more inclusive and friendly to pedestrians, cyclists, and public transport users.

According to the proposed planning concept, increased use of bicycles and electric bicycles in cities around the world would reduce energy consumption by 2030 and decrease emissions in the passenger transport sector by 7%, while by 2050 emissions could be reduced by 11%. Current trends suggest that CO_2 emissions from the transport sector may increase from 2.3 gigatons today to 4.3 gigatons by 2050 if alternative transport modes are not sufficiently promoted.

Transport experts emphasize that developing bicycle transport is not a complex task. To achieve this, cities require the following measures:

- active and large-scale development of bicycle infrastructure;
- widespread implementation of bicycle rental programs integrated with transit transport in large and medium-sized cities;
- revision and amendment of legislation to support and protect cyclists and pedestrians;
- increased investment in public transport, pedestrian zones, and bicycle infrastructure;
- close coordination among institutions responsible for transport development and land-use planning.

In addition, a number of supplementary measures aimed at reducing automobile dependency must be implemented. In this regard, local authorities should:

- discontinue policies that support private car use, including the elimination of free parking spaces and subsidies related to fuel consumption and minimum parking requirements;
- promote active bicycle use through favorable pricing policies and information campaigns;
- introduce financial mechanisms for car owners, such as congestion charges, distance-based road pricing, and other tools that help address external negative costs;
- redirect revenues collected from motorists to support other sustainable and environmentally friendly

modes of transport.

Megacities spend billions of dollars addressing the consequences of transport-related problems rather than tackling their root causes. Even allocating a small portion of these funds to the development of bicycle infrastructure could yield substantial benefits.

The presented findings confirm that bicycles represent one of the fastest, most affordable, and most convenient modes of transport, as well as one of the most effective ways to reduce greenhouse gas emissions and relieve urban streets and roads from excessive automobile traffic.

Cyclists are equal participants in road traffic alongside motorists and pedestrians. Therefore, when developing comprehensive urban improvement projects, it is essential to consider all the needs of cyclists and create conditions that ensure safe and unrestricted movement throughout the city.

The organization of bicycle traffic within the urban structure should be based on the following requirements: ensuring that pedestrian movement is not obstructed, maintaining the continuity and accessibility of bicycle routes, and guaranteeing a high level of safety.

Based on functional and spatial planning characteristics, bicycle transport infrastructure can be classified into the following types:

- bicycle paths;
- bicycle lanes;
- shared bicycle–pedestrian paths;
- shared traffic zones where motor vehicles and bicycles use the same carriageway.

According to traffic organization principles, bicycle transport infrastructure is divided into:

- one-way facilities;
- two-way facilities.
- When selecting the type of traffic organization, it should be considered that constructing dedicated bicycle paths is more expensive than providing bicycle lanes. In addition, bicycle paths require supplementary infrastructure at intersections with motor roads, sidewalks, and public transport stops.

Copenhagen. Denmark

New York. United States

Berlin. Germany

Cologne. Germany

Liechtenstein

Barcelona. Spain

Moscow. Russia

Tokyo. Japan

A bicycle:

- occupies 5–10 times less space on the roadway compared to a car;
- requires significantly less space for parking.

Bicycles are affordable even for the lowest-income urban residents, and bicycle paths are considerably cheaper to construct than motor roads.

Bicycle paths enhance safety and comfort for motorists, pedestrians, and cyclists alike.

Historically, bicycle paths first appeared in Denmark and the Netherlands in the 1920s–1930s. In Central European countries, the construction of bicycle paths has intensified over the past decade. Bicycle infrastructure is also being actively developed in countries such as Russia, the United States, Canada, China, Japan, Singapore, Malaysia, and Australia.During the study, recommendations were developed regarding the structural types of bicycle lanes, their standard widths, safety distances, pavement materials, and the placement of bicycle parking facilities.

The priority option for bicycle lane construction



Figure 1. The bicycle transport infrastructure scheme should include a two-way bicycle lane separated from pedestrian traffic by small architectural forms (SAFs) and landscaping elements.

Discussion: The results obtained indicate that the development of bicycle transport infrastructure is not limited solely to addressing transportation issues; it also contributes to improving the urban ecological environment, promoting public health, and ensuring the efficient use of urban space. In promoting bicycle traffic in Samarkand, it is essential to adopt a comprehensive approach that takes into account the city's spatial structure, historical environment, and pedestrian flows. Cyclists should be recognized as equal participants in road traffic, and safe conditions for their movement must be provided.



Figure 2. In constrained conditions, during reconstruction or landscaping works, as well as under the existing urban structure, joint use of pedestrian and bicycle paths together with the carriageway for vehicles and cyclists is permitted.

Design variants of bicycle transport infrastructure



Priority type. A bicycle lane is a dedicated path for cyclists, separated from the carriageway and pedestrian sidewalks.

A bicycle lane strip is a distinct portion of the roadway allocated specifically for the movement of cyclists.

In urban areas, the construction of bicycle lanes should be carried out in a manner that ensures a balance between pedestrian traffic, landscaping elements, and vehicle flows. Bicycle lanes are designed not only to provide safety but also to ensure convenient and continuous movement, and therefore, a number of mandatory design parameters must be considered.

First, when establishing a bicycle lane within a pedestrian zone, the spatial arrangement of building entrances and exits, pedestrian flows, public transport stops, and landscaping elements (lawns, trees, lighting poles, small architectural forms) must be determined. To prevent interference between bicycle and pedestrian flows, separation measures such as demarcation lines, raised lawns, or other physical barriers are applied. If a

bicycle lane is separated on both sides by raised lawns, a stormwater drainage system must be installed.

The width of bicycle lanes is determined according to the site conditions. A one-way single-lane bicycle path is generally designed with a width of 1.2 to 2.0 meters, while a two-way bicycle lane is designed with a width of 2.5 to 3.0 meters. In two-way lanes, a central marking line is used to separate opposing traffic directions.

In addition to the standard lane width, additional safety clearances are provided to ensure cyclist protection, including:

- From the carriageway: 0.5 - 0.75 m
- From parking areas, trees, and poles: 0.75 - 1.0 m
- From pedestrian lanes and sidewalks: 0.5 m
- From public transport stops and parking areas: 1.5m

These distances serve to protect cyclists from obstacles, vehicles, and pedestrian traffic.

The pavement of the bicycle lane should be smooth, durable, and safe under all weather conditions, suitable for the technical characteristics of bicycles. In practice, the following materials are recommended:

- Colored asphalt concrete
- Fine-grained asphalt concrete
- Polymer-based polyurethane coatings

These pavements provide good visual appearance, long service life, and high safety performance.

Overall, bicycle lanes contribute to the sustainable development of the urban transport system, improve the ecological environment, and create safe and convenient conditions for both pedestrians and cyclists.

2. Анализ многолетних наблюдений гидрогеологических условий города Нукуса показал, что в городе наблюдается рост уровня подземных вод, оказывающих негативное влияние на экологическую обстановку города.
3. Для эффективного озеленения города Нукуса необходимо разработать научные рекомендации по выбору и размещению видов деревьев в зависимости от засоленности подземных вод и почв города Нукуса.
4. Для улучшения экологическо-гидрогеологической ситуации города Нукуса необходимо провести научно-исследовательские работы, направленные на проектирование новой инновационной дренажной системы.
5. Результаты исследований показали, что в Нукусском районе из-за роста уровня подземных вод произошло увеличение степени засоленности почв. Засоленность грунтов и подземных вод в основном относятся к сульфатному и хлоридно-сульфатному типам.
6. Для эффективного и устойчивого возделывания сельскохозяйственных культур на территории Нукусского района необходимо разработать научные рекомендации по выбору и размещению сельхозкультур, видов деревьев в зависимости от засоленности почв.
7. Для улучшения экологической ситуации Нукусского района необходимо провести научно-исследовательские работы по проектированию новой инновационной дренажной системы. Это позволит более эффективно использовать посевные площади и улучшит экологическую обстановку района по засоленности почво-грунтов.

Литература:

1. Аимбетов И.К. Инженерно-геологические основы строительства зданий и сооружений на засоленных грунтах Каракалпакстана. Нукус: Илим; 2020. 287 с.
2. Аитмуратов С., Сеитниязов Ш. Влияние орошения на режим грунтовых вод территории северной части Каракалпакии. // Вестник Каракалпакского отделения АН УзССР. 1989. N 4.С. 50-53.
3. Ковда В.А. Происхождение и режим засоленных почв. М.: АНСССР; 1946. 568 с.
4. Ломтадзе В.Д. Инженерная геология. Инженерная петрология. Л.: Недра; 1984.380 с.
5. Рафиков А. Оценка природно-мелиоративных условий земель южного Приаралья. Ташкент: ФАН УзССР; 1984. 160 с.
6. Рафиков А.А., Бахритдинов Б.А. Особенности засоления почв Южного Приаралья в связи со снижением уровня Аральского моря // Почвоведение. 1982. N10. С. 98-100.
7. Орлова М.А. Роль эолового фактора в солевом режиме территорий. Алма-Ата: Наука, 1983. 230 с.
8. Шапиро А.М. Принципы районирования территории городов Каракалпакии, подверженных подтоплению грунтовыми водами, по условиям применения вертикального дренажа. // Вестник Каракалпакского филиала АН РУз. 1972. N 3. - С. 4-8.
9. Aimbetov I.K., Bekimbetov R.T. Engineering and geoecological assessment of soils salinity in Nukus using GIS technologies. 2021. Moscow. E3S Web. Conf. Volume 265. Actual Problems of Ecology and Environmental Management (APEEM 2021). 1-7. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126503006
10. Aimbetov I.K., Shagataev A.J. Engeneering geoecological vision for the utilization of the water recourses of the Amu-Darya river (Karakalpakstan, the Aral sea basin). 2001. Biwako. 9th International Conference on the Conservation and management of lakes.
11. Angeli M., Bigas J.P., Benavente D., Menéndez B., Hébert R., David C. 2007. Salt crystallization in pores: quantification and estimation of damage. Journal Environmental geology. 52. 205-213.
12. Agudo E., Mees F., Jacobs P., Rodriguez-Navarro C. 2007. The role of saline solution properties on porous limestone salt weathering by magnesium and sodium sulphates. Journal Environmental geology. 52. 269-281.
13. Alonso E.E., Olivella S. 2008. Modelling tunnel performance in expansive gypsum clay stone. In International association for computer methods and advances in geomechanics (IACMAG). 891-910. ***DOI***:10.1007/978-981-15-0890-5.
14. Legget R. 1973. Cites and geology. 557. New York. McGraw-Hill Book Company.

УДК72.025.4(075.8)

К АРХИТЕКТУРНЫМ ОСОБЕННОСТЯМ БАНИ АНУША-ХАНА.

Рахмонов Б.С. д.т.н., профессор. Ургенчский государственный университет
Исмайилов К. д.т.н., профессор.
Самаркандский государственный архитектурно строительный университет

Аннотация: В данной статье приведен архитектурный анализ бани Ануша-хана, расположенной в г. Хиве. Особое внимание уделено к конструктивным особенностям сооружения.

Annotation. This article provide architectural analysis of baths Anusha Khana, located in Khiva. Special attention is paid to the structural features of the building.

Архитектурное наследие узбекского народа известно, как мировой общественности так и научному миру многими архитектурными памятниками. В этом плане особое место занимает Хорезмская архитектура. Такие художественные достоинства как оригинальность образцов, законченность композиций, совершенство форм, великолепное убранство привлекают к себе внимание отечественных и зарубежных историков архитектуры и искусства.

Хива находится на юге Хорезмского вилоята Республики Узбекистан. Это единственный сохранившийся в Средней Азии целиком город-памятник. Его исторические судьбы и архитектура тесно связаны с историко-культурным развитием Хорезма. Цивилизация древнего Хорезма прослеживается с эпохи неолита(IV-начало III тысячелетия до новой эры)

Город Хива был построен по традиционному на Востоке плану: прямоугольник стен вытянут с севера на юг; размеры его составляют 650*400метров-(здесь градостроители воспользовались соотношением «золотого сечения», излюбленного архитекторами всех времен). Прямоугольный город рассечен по осям крестообразно главными улицами, соединяющими между собой крепостные ворота(рис.1.).

У ворот размещалась и санитарная служба города- баня. Лечебным и гигиеническим свойствам бани придавалось огромное значение. Правила строительства бань изложены даже в «Каноне врачебной науки» Абу Али ибн Сины, считавшего достоинством хорошей бани солидную постройку, умеренную температуру, яркий свет, хороший воздух, просторный предбанник, расписанный красивыми картинами, и приятную воду.

К таким архитектурным произведением относится и баня Ануша хана.

Здание бани построено в 1657году во время правления Абулгази-хана. Её строительство связывают с именем его сына Ануша Мухаммед султана, после удачного его похода на Кермине. Строительство бани в честь Ануша Мухаммед султана было, очевидно, одним из наград, которыми Абулгази-хан одарил сына[3].

Баня Ануша-хана-полуподземное сооружение, заглубленное, как обычно, в грунт для теплоизоляции. Снаружи выделены лишь покрытия сооружения в виде купол.

Рис.1. Общий вид генерального плана заповедника «Ичан-кала»

Северной стеной баня примыкает к Ак-мечети, остальные фасады сооружения ярко не выявлены. Вход в баню лежит через купольные вестибюльное помещение, с четырьмя нишами во всю ширину стен. Оно связано с продолгаватой коридорообразной раздевальней, из которой можно попасть в главный моечный зал: квадратный, с двумя глубокими нишами в северной и южной стенах и двумя мелкими-в восточной.

Связанные с ним «мыльные» помещения-одно на северо-западе и два-на юге и юго-западе-группируются вокруг прямоугольного бассейна с горячей водой, подающейся через проемы в стенах(рис.2) Чан с холодной водой занимал все центральное помещение, вода в него напускалась по желобам, ее черпали из близлежащего колодца. Основные помещения перекрыты сфероконическими куполами кольцевой кладки, со световыми отверстиями в зените. Над главным залом-световой фонарь, выполненный из алебастровых плит, армированных камышом. Прямоугольные помещения перекрыты сводами «балхи». Паруса ложносферические. В коридорах-стрельчатые своды. Внутри помещения лишены элементов декорации. Стены изнутри покрыты водостойкой кыровой штукатуркой и побелены известью, а своды покрыты лишь водостойкой штукатуркой. Обогрев бани производился горячими газами, поступающими из кочегарки через систему подпольных каналов. Выход газов наружу обеспечен дымоходами в стенах (рис.3,4).



Рис.2 План сооружения

Рис. 3. Общий вид покрытий купол бани.

Отвод сточных вод сделан из самой заглубленной купальни в наружный поглощающий колодец. Раскопки археологов подтвердили, что под сооружением находится более древнее сооружение. На него опирается кирпичный фундамент бани, с неравномерной глубиной заложения (глубины заложения фундаментов колеблется от 0,5м. до 1,3м.) [2,3].

Несущий остов сооружения-составляет жженый кирпич квадратным основанием и размерами-25,0x25,0x5см; 25,5x25,5x5,5 см. Общая высота кладки таких «мусульманских» кирпичей в 10 рядов в ганчевом растворе составляет около 71см.

Небольшие размеры помещений позволили строителям применить несложные, устойчивые системы куполов и подкупольных конструкций(рис.5). В то же время построение плана не сковано однотипностью купольных перекрытий, так как мастера одной или несколькими нишами расширяли квадратное помещение в прямоугольное. А там, где это было удобней, для удлиненных помещений вместо сфероконических куполов были применены своды типа «балхи», а коридорообразные переходы перекрывали стрельчатыми коробовыми сводами.

Рис.4. Вид фонарей и вентиляции в систем купол.

Осмотр надземной части сооружения показал, что толщина раствора в нижней части стены составляет около 1,2-1,0см, а в остальных частях толщина раствора меньше указанного.



Рис.5. Вид в разрезе: а-общий, в продольном направлений ; б, в- фрагменты разреза, где расположены бассейны.

План сооружения отвечает требованиям правил сейсмостойкости, а также при проектировании и строительстве учтены вопросы пропорции.

Известно, основным вяжущим раствором почти во всех архитектурных памятниках Средней Азии является-ганч.

Данный строительный материал, когда применялся в качестве раствора для кладки всегда смешивался с лессовой землей и песчаным грунтом в пропорциях 1:1 до 1:3. По мнению старых мастеров, полное схватывание ганчевого раствора наступает примерно через год.

Когда кирпичная кладка возводилась для условия повышенной влажности (или периодическое затопление) в состав ганчевого раствора добавлялась зола, получаемая от сжигания травы и мелкого кустарника. Если грунтовое основание, где возводилось сооружение, сильно засорен солями, в качестве защитного слоя укладывался несколько ряда кирпича на растворе ганча с толченым древесным углем и золой.

Кроме того, данный строительный материал отвечал разносторонним требованиям зодчих. Одним из основным требованием, была необходимая эластичность раствора с точки зрения его антисейсмических достоинств[1].

В настоящее время на нижней части стены до 15 рядов кирпича заметны следы увлажнения и засоления, но повреждения не замечаются.

Помещения бани почти не отличаются от современных построек подобного рода; они имеют вестибюль, раздевальню, мыльную, бассейн с горячей водой, кочегарку. И при этом их соединение учитывает своеобразную технологию древних бань.

Четкая технология бань, хорошо сочетающаяся с их гибкой планировкой и простыми конструкциями, дает представление о суровой простоте гражданской архитектуры Хивы XVII века.

Литература:

1. Бачинский Н.М. Антисейсмика В архитектурных памятниках Средней Азии. Издательство АН СССР, М.: 1949г. 50с.

2. Булатова В.А., Ноткин И.И. Архитектурные памятники Хивы. -Т.:, Узбекистан, 1965.

3. Манковская Л. Хива: Альбом.Т.,Изд. лит. и искусства, 1982.

XORIJIY VA MDH DAVLATLARINING “DIZAYN KOD”INI TAHLIL QILISH VA O‘RGANISH

Fayzulloyeva M.N., magistrant
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Maqola “dizayn kod” – shahar muhitini boshqarishning zamonaviy va eng samarali vositasini xorijiy (Yevropa, AQSh, Avstraliya, Koreya, BAA) va MDH davlatlari (Rossiya, Qozog‘iston, Belarus, Ozarbayjon, O‘zbekiston) misollarida batafsil tahlil qiladi. 30 dan ortiq real loyiha va rasmiy hujjatlar asosida dizayn kodlarning tuzilishi, qo‘llanilishi va natijalari ko‘rsatilgan. Maqola O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi: pilot hududlarda oddiy va aniq dizayn kodlarni joriy etish orqali shaharlarimizni 5–7 yil ichida jahon darajasiga yaqinlashtirish mumkinligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: dizayn kod, shaharsozlik, arxitektura reglamenti, forma asosidagi kod, shahar muhiti, estetika, barqaror shahar, jamoat maydonlari, O‘zbekiston, MDH, Yevropa, AQSh.

Аннотация: Статья подробно анализирует «дизайн-код» как один из самых эффективных современных инструментов управления городской средой на примерах развитых стран (Европа, США, Австралия, Корея, ОАЭ) и стран СНГ

(Россия, Казахстан, Беларусь, Азербайджан, Узбекистан). На основе более 30 реальных проектов и официальных документов раскрывается структура, применение и результаты дизайн-кодов. В заключении даны практические рекомендации для Узбекистана: внедрение простых и понятных дизайн-кодов в пилотных районах позволит за 5–7 лет приблизить наши города к мировому уровню.

Ключевые слова: дизайн-код, градостроительство, архитектурный регламент, form-based code, городская среда, эстетика, устойчивое развитие города, общественные пространства, Узбекистан, СНГ, Европа, США.

Abstract: The article provides a comprehensive analysis of “design codes” – one of the most effective contemporary tools for managing the urban environment – using examples from developed countries (Europe, USA, Australia, Korea, UAE) and CIS countries (Russia, Kazakhstan, Belarus, Azerbaijan, Uzbekistan). Based on over 30 real projects and official documents, it examines the structure, application, and outcomes of design codes. The paper concludes with practical recommendations for Uzbekistan: introducing simple and clear design codes in pilot areas can bring our cities close to global standards within 5–7 years.

Keywords: design code, urban design, form-based code, architectural guidelines, urban environment, aesthetics, sustainable urbanism, public realm, Uzbekistan, CIS countries, Europe, USA.

Kirish. Shaharsozlik va arxitektura sohasida "dizayn kod" tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Dizayn kod – bu biror joy yoki hududning rivojlanishi uchun belgilangan dizayn talablari to‘plami bo’lib, u ko‘chalarning kengligi, binolarning balandligi, fasadlarning materiali, jamoat maydonlari, piyodalar uchun qulaylik va shahar muhitining umumiy ko‘rinishini tartibga soluvchi qoidalar majmuasidir. Bu qoidalar aniq, o‘lchanadigan va majburiy bo‘lishi kerak, shuningdek, mahalliy kontekstga, madaniy me’rosga va ekologik talablarga mos kelishi lozim. Dizayn kodlar shahar rivojlanishini muvofiqlashtirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish va aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Masalan, ular binolarning shakli va joylashuvini belgilab, piyodalar uchun qulay muhit yaratadi. Ushbu maqolada xorijiy (asosan Yevropa va AQSh) va MDH davlatlarining dizayn kodlarini batafsil o‘rganamiz, ularni tahlil qilamiz va solishtiramiz.

Xorijiy davlatlarning dizayn kodlari. Xorijiy davlatlarda, xususan Yevropa va AQShda, dizayn kodlar shahar rivojlanishini nazorat qilish, estetik jihatdan jozibador muhit yaratish va barqarorlikni ta’minlash uchun keng qo‘llaniladi. Bu kodlar ko‘pincha mahalliy hukumatlar tomonidan ishlab chiqiladi, jamoat ishtiroki bilan tasdiqlanadi va qat’iy ijro etiladi. Ular an’anaviy zonalashtirish tizimidan farqli, binolarning shakli va jamoat maydonlariga urg‘u beradi.

Yevropa misolida. Yevropada dizayn kodlar tartibga soluvchi va o‘lchanadigan bo‘lib, ular binolarning balandligi, ko‘cha tuzilishi, jamoat maydonlari va ekologik talablarni belgilaydi. Masalan, Buyuk Britaniyada Milliy Dizayn Kod (National Design Code) mavjud bo‘lib, u 10 ta asosiy tamoyilni o‘z ichiga oladi: sifatli va barqaror qurilish, "go‘zallik" tushunchasiga urg‘u, ekologik talablar va jamoat ishtiroki majburiy. Bu kod yangi loyihalarda ekologik barqarorlikni (masalan, yashil maydonlar va energiya tejamkorlik) va jamoat ishtirokini ta’minlaydi.

Niderlandiyada Borneo-Sporenburg loyihasi (Amsterdam, 1993) dizayn kodning muvaffaqiyatli misoli hisoblanadi. Bu yerda 10 ta oddiy qoida qo‘llanilgan: masalan, binolarning maksimal 3 qavatli bo‘lishi, old eshiklarning ko‘chaga chiqishi, tomning tekis bo‘lishi, yer darajasidagi qavat balandligi 3,5 m, shaxsiy ochiq maydon (hovli, tomda terassa yoki lodjiya), materiallar cheklangan va arxitektorlarning xilma-xilligi. Natijada, 100 ta arxitektor tomonidan yaratilgan har xil, ammo muvofiqlashtirilgan shahar muhiti shakllangan va 2002 yilda Veronica Rudge Green mukofoti bilan taqdirlangan.

Irlandiyada Limerick Dizayn va Jamoat Maydonlari Kodi (2015) shahar qayta tiklanishiga qaratilgan. U ko‘chalarning parametrlarini, binolarning shaklini, materiallar palitrasini va xarakterli zonalarini belgilaydi. Kod jamoat ishtiroki bilan ishlab chiqilgan, qurilish loyihalarini nazorat qilishda cheklist orqali qo‘llaniladi va 2015 yilda Irlandiya Rejalashtirish Institutining mukofotiga sazovor bo‘lgan.

AQSh misolida. AQShda dizayn kodlar zonaviy tizim asosida ishlaydi va shahar tarqalishiga qarshi kurashadi, binolarning shakliga urg‘u berib, an’anaviy zonaviy qoidalardan farq qiladi. Form-based codes (shaklga asoslangan kodlar) ko‘proq qo‘llaniladi, ular binolarning joylashuvi, ko‘cha bilan munosabati va jamoat maydonlarini tartibga soladi.

San-Xose shahrida (Kaliforniya) Downtown va Citywide Dizayn Qoidalari (2019/2021) mavjud. Ular piyodalar harakatiga urg‘u berib, binolarning hajmini, tarzlarini va ko‘cha harakatini tartibga soladi (masalan, yer darajasidagi tarzning 70% qismi qizil chiziq chegarasida bo‘lishi kerak, qushlar xavfsizligi uchun maxsus materiallar ishlatilishi kerak). Kodlar majburiy standartlar va tavsiyaviy ko‘rsatmalar bilan birlashtirilgan, ijtimoiy fikrlarni e’tiborga olgan holda ishlab chiqilgan.

Burien shahrida (Vashington) Munitsipal Kod (2000, 2024 yangilangan) shahar markazini piyodalar uchun qulay qilishga qaratilgan. U g‘isht va yog‘och kabi materiallarni qo‘llanilishini, binolarning shaklini (masalan, tom modulyatsiyasi, inson miqyosidagi elementlar: balkonlar, derazalar), ko‘cha belgilarini va binolarning orqa tomonidagi avtoturargohni chegarasini belgilaydi. Kod ijtimoiy fikrlarni e’tiborga olgan holda ishlab chiqilgan va qurilish loyihalarini tasdiqlashda ishlatiladi, shahar xarakterini saqlab, yangi binolarni integratsiya qiladi.

AQShda umumiy model kodlar, masalan, International Building Code (IBC), shtatlar va shaharlar tomonidan moslashtiriladi. Yevrokodlar bilan solishtirganda, AQSh kodlari ko‘proq qoidalarga asoslanadi, ammo form-based codes moslashuvchanlikni ta’minlaydi va shahar barqarorligini oshiradi. Masalan, Sintsinnati shahridagi kod binolar turlarini (townhouse, shopfront) va ko‘chaning o‘ziga xosligini belgilaydi.

MDH davlatlarining dizayn kodlari. MDH davlatlarida dizayn kodlar sobiq SSSR me’rosiga asoslangan bo’lib, markazlashgan va texnologik tizimni

aks ettiradi. Ular milliy qonunlar va normalar orqali tartibga solinadi, ammo hozirgi kunga kelib xorijiy tajribalarga moslashuvchanlik kuchaymoqda.

Rossiya. Rossiyada shaharsozlik faoliyati "Rossiya Federatsiyasining Shahar Qurilishi Kodeksi" (190-FZ, 2004, 2018 yangilangan) bilan boshqariladi. Bu kod hududiy rejalashtirish, shahar zonalari, arxitektura va qurilish dizaynini qamrab oladi, barqaror rivojlanish, ekologik muvozanat, jamoat ishtiroki va texnik standartlarni ta'minlaydi. Federal, mintaqaviy va mahalliy darajalarda hujjatlar (masalan, master planlar, zonaviy qoidalar) belgilangan bo'lib, ular funktsional zonalarni, infratuzilmani va binolar parametrlarini (balandlik, zichlik, materiallar) tartibga soladi. Jamoat muhokamalari majburiy (1-3 oy), ekologik baholash va madaniy me'ros saqlanadi. Dobrograd loyihasi kabi mahalliy dizayn kodlar "petal" shaklidagi rejalashtirish va halqa tuzilishini belgilaydi. Kod xavfsizlik, qurilish ruxsatlari va nazoratni ta'minlaydi, SRO (o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar) orqali ijro etiladi.

Qozog'iston. Qozog'istonda "Qozog'iston Respublikasida arxitektura, shaharsozlik va qurilish faoliyati to'g'risida"gi qonun (2001) asosiy hujjatdir. U SN RK normalarini (masalan, SN RK 3.01-00-2011) o'z ichiga oladi, ular qurilish loyihalarini tasdiqlash va shaharni rejalashtirilishini tartibga soladi, zich qurilish va jamoat maydonlarini targ'ib qiladi. Shaharlar o'z dizayn kodlarini ishlab chiqmoqda: Almatida yangi dizayn kod (2024) fasadlar, belgilar va rang palitrasi uchun bir xil qoidalarni belgilaydi, qozoq madaniy kodlariga asoslangan oltita asosiy rangdan foydalanadi. Astana (Nur-Sulton) da yagona stil fasadlar, tom va ko'cha yoritgichlari uchun qo'llaniladi, turar-joy majmualarida ekologik va ijtimoiy standartlar (masalan, yashil maydonlar, bolalar maydonchalari) majburiy. OECD tahliliga ko'ra, Qozog'iston tizimi ierarxik bo'lib, milliy normalar mahalliy ehtiyojlarga moslashmaydi, ammo yangi standartlar ixcham qurilish va jamoat maydonlarini targ'ib qiladi.

Belorussiya. Belorussiyada "Arxitektura, shaharsozlik va qurilish faoliyati to'g'risida"gi Kod (289-Z, 2023) yangi qabul qilingan bo'lib, u barcha asosiy normalarni jamlaydi. Bu kod loyihalarni baholash, qurilish va ekologik talablarni tartibga soladi, jamoat ishtirokini va barqaror rivojlanishni majburiy qiladi. Mintaqaviy va shahar darajasida qarorlar (masalan, Minsk shahar kengashi) qabul qilinadi, ekologik loyihalarga (masalan, "Yashil shahar rivojlanishi") urg'u beriladi. Minsk shahridagi urban kengayish tahlili (1990-2020) shuni ko'rsatadiki, kodlar makro va mikro darajalarda shahar shaklini baholaydi, ammo markazlashgan tizim xorijiyga nisbatan kamroq moslashuvchan.

Xulosa. Xorijiy va MDH davlatlarining dizayn kodlarini batafsil o'rganish shuni ko'rsatadiki, ular shahar rivojlanishining asosiy vositasi. O'zbekiston kabi MDH davlatlari xorijiy tajribalardan foydalanib, o'z kodlarini moslashtirishi mumkin, masalan, jamoat ishtirokini kuchaytirish, ekologik standartlarni joriy etish va moslashuvchanlikni oshirish orqali. Bu sohada keyingi tadqiqotlar va loyihalar shaharlarimizni yanada qulay, barqaror va estetik jihatdan jozibador qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1.Градостроительному кодексу Российской Федерации принятому 29.12.2004 (190-ФЗ).

2.Строительные нормы Республики Казахстан (СН РК) СН РК 3.01-00-2011.

3.Кодекс Республики Беларусь От 17 Июля 2023 Г. № 289-З. Об Архитектурной, Градостроительной И Строительной Деятельности В Республике Беларусь.

4.Щербинин Э.М.: "Дизайн-Код Как Средство Развития Комфортной Городской Среды".

5. "Дизайн-Код и его реализация в городской среде на примере г. Тулы".

AQLLI (SMART) TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI "AQLLI INKLYUZIV ARXITEKTURA" TIZIMLARINI YARATISH KONSEPSIYASI

Isakova Muqaddas Badirovna, dotsent.
Toshkent Milliy rassomchilik va dizayn insituti

Аннотация: Ushbu maqolada zamonaviy arxitektura rivojlanishida inklyuzivlik va aqlli texnologiyalar simbiozining ilmiy-amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay arxitektura muhitini yaratish va uni zamonaviy texnologiyalar yordamida avtomatlashtirish konsepsiyasi asoslab beriladi. Aqlli tizimlar orqali muhitni foydalanuvchining ehtiyojlariga mos holda moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv arxitektura, aqlli texnologiyalar, universal dizayn, nogironlik, avtomatlashtirilgan boshqaruv, smart city, accessibility.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-практические аспекты симбиоза инклюзивности и интеллектуальных технологий в развитии современной архитектуры. Обоснована концепция создания благоприятной архитектурной среды для людей с ограниченными возможностями и ее автоматизации с помощью современных технологий. С помощью интеллектуальных систем разрабатываются предложения по адаптации среды к потребностям пользователя.

Ключевые слова: инклюзивная архитектура, умные технологии, универсальный дизайн, инвалидность, автоматизированное управление, умный город, доступность.

XI asrda arxitektura sohasi jamiyatdagi ijtimoiy tenglik, raqamlashtirish va texnologik moslashuvchanlik tamoyillari asosida yangicha ko'rinish kasb etmoqda. Aholi ehtiyojlarining murakkablashuvi, urbanizatsiyaning jadallashuvi hamda imkoniyati cheklangan shaxslarning (ICHSh) huquqiy va ijtimoiy maqomini ta'minlash masalalari zamonaviy arxitektura oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bular qatorida, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mos va qulay yashash hamda jamoaviy makonlar yaratish dolzarb

ilmiy-ijtimoiy muammoga aylanmoqda. Ilgari taklif qilingan universal dizayn yondashuvi arxitekturani barcha uchun qulay qilishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, bu model individual ehtiyojlarga real vaqt rejimida moslashish imkonini bermaydi. Aynan shu jihatdan “aqlli texnologiyalar” bilan integratsiyalashgan arxitekturaviy tizimlar – ya’ni “aqlli inklyuziv arxitektura” konsepsiyasi ilgari surilmoqda. Bu konsepsiya orqali insonning harakatlanish, sezish, anglash va ijtimoiylashish imkoniyatlari texnologik vositalar yordamida kengaytiriladi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, “aqlli inklyuziv arxitektura” bu – sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things), avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sezgir (sensorli) strukturalar va foydalanuvchiga mos interfeyslar yordamida makonni adaptiv tarzda boshqarish tizimidir. Mazkur yondashuv orqali nogironlar, keksalar, bolalar va boshqa zaif ijtimoiy guruhlar uchun arxitektura nafaqat “foydalanish mumkin” bo‘lgan, balki “foydalanuvchiga moslasha oladigan” muhitga aylanadi.

Shunday qilib, ushbu maqolaning maqsadi – zamonaviy arxitektura amaliyotiga aqlli texnologiyalar asosida inklyuziv yondashuvlarni integratsiyalashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, xalqaro va mahalliy tajribalarni tahlil qilish, shuningdek O‘zbekiston sharoitida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan konseptual modelni taklif etishdan iborat.

Zamonaviy arxitektura amaliyotida aqlli texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali makonning funksional imkoniyatlari va foydalanuvchiga yo‘naltirilganlik darajasi sezilarli darajada oshadi. Bu integratsiyaning asosiy vazifasi - makonning real vaqt rejimida foydalanuvchi ehtiyojlariga mos ravishda moslashishini ta'minlashdir. Bunda aqlli texnologiyalar arxitekturaning statik mohiyatini dinamik, moslashuvchan va reaktiv tizimga aylantiradi.

IoT (Internet of Things) texnologiyasi yordamida turli qurilmalar, infratuzilma elementlari va foydalanuvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqa ta'minlanadi. Masalan, harakat sensorlari, harorat va yoritish boshqaruvi, xavfsizlik tizimlari, avtomatik eshiklar, liftlar, va mobil interfeyslar orqali makon foydalanuvchining harakatlanish imkoniyatiga qarab avtomatik ravishda sozlanadi. Sun‘iy intellekt (AI) esa foydalanuvchining harakatlari, odatlari, xatti-harakatlari asosida o‘zgaruvchan muhitni oldindan bashorat qilish va individual sozlash imkonini beradi. Misol uchun, nogiron aravachasida harakatlanuvchi shaxs binoga kirganda AI tizimi uning kirish darvozasi, lift va yoritish tizimini avtomatik ishga tushiradi. Shuningdek, sensorli signallar va audio-vizual interfeyslar ko‘rish va eshitish imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun ijtimoiy va ma’lumotli muhitni ta'minlaydi. Sensorlar orqali vizual belgilar o‘rniga ovozli navigatsiya, vibratsiyali ogohlantirish va yorug‘lik intensivligining avtomatik sozlanishi amalga oshiriladi.

Aqlli texnologiyalarning arxitektura bilan integratsiyasi nafaqat individual binolar, balki butun urbanistik muhit - ya’ni “smart city” konsepsiyasining asosiy elementi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shahar infratuzilmasining boshqaruvi - transport, ko‘cha yoritgichlari, jamoat binolari va xizmat ko‘rsatish obyektlari foydalanuvchi markazli tizimga moslashtirilgan bo‘lishi zarur. Ilmiy jihatdan qaraganda, bu integratsiya kiber-fizik tizimlar (Cyber-Physical Systems - CPS) asosida shakllanib, real makon (fizik muhit) bilan raqamli boshqaruv tizimlari o‘rtasidagi muvozanatni yaratadi. Bu esa arxitekturani statik inshoot emas, balki inson bilan o‘zaro muloqotda bo‘ladigan tirik muhitga aylantiradi. Shu bois, aqlli texnologiyalar va arxitektura integratsiyasi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun teng huquqli, xavfsiz, qulay va moslashuvchan yashash muhitini yaratishning zamonaviy yechimi hisoblanadi.

Aqlli inklyuziv arxitektura bo‘yicha jahonda olib borilayotgan ishlanmalar va loyiha tajribalari ko‘plab rivojlangan davlatlar tomonidan amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, ular bu sohadagi yondashuvlar, texnologiyalar va dizayn standartlarini shakllantirishda yetakchi o‘rin tutmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlari “Americans with Disabilities Act” (ADA) qonuni asosida inklyuziv dizayn talablarini majburiy standart sifatida belgilab qo‘ygan. Nyu-York va San-Fransisko shaharlarida nogironligi bo‘lganlar uchun mo‘ljallangan aqlli jamoat inshootlari, transport bekatlari va turar-joy komplekslari ishlab chiqilgan. Masalan, “The Inclusive Design Guide” asosida qurilgan binolarda harakatlanishni soddalashtiruvchi AI tizimlar, eshitish va ko‘rish bo‘yicha yordamchi qurilmalar integratsiyalangan.

Shvetsiya, Niderlandiya, Germaniya kabi davlatlar shaharsozlikda barqarorlik va inklyuzivlikni birlashtirgan holda “Smart Inclusive Urbanism” kontsepsiyasini ishlab chiqqan. Stokgolm shahrida amalga oshirilgan "Vision Zero" loyihasi doirasida nafaqat yo‘l-transport xavfsizligi, balki nogironlar uchun xavfsiz harakatlanish tizimlari yaratilgan. Amsterdam shahridagi “Smart Accessibility Map” esa nogironlar uchun mos yo‘nalishlarni sun’iy intellekt yordamida real vaqtda ko‘rsatib boradi.

Yaponiya “Universal Design 2020 Action Plan” loyihasi orqali Tokio Olimpiadasiga tayyorgarlik doirasida barcha jamoat inshootlarini inklyuziv va aqlli yechimlar bilan jihozlagan. Bunga ovozli liftlar, robot-assistentlar, Braille yozuvi bilan jihozlangan navigatsion tizimlar kiradi. Janubiy Koreyada esa “Smart Welfare City” kontsepsiyasi asosida Seul va Busan shaharlarida imkoniyati cheklanganlar uchun mobil ilovalar, real vaqtda yordam ko‘rsatuvchi xizmatlar hamda foydalanuvchiga moslashuvchi interaktiv axborot tizimlari ishlab chiqilgan. Dubay shahri “Dubai Smart City” strategiyasi doirasida har bir binoni sun’iy intellekt bilan boshqariladigan tizimlarga ulashni maqsad qilgan. Bu jarayonda nogironlar uchun alohida platformalar – masalan, foydalanuvchi holatiga qarab avtomatik ravishda eshik ochilishi, taksi chaqirish va yordam xizmatiga ulanish imkonini beruvchi interaktiv ekranlar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston sharoitida “Smart inkluziv arxitektura” konsepsiyasini joriy etish mamlakatning urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy infratuzilma holati, raqamli texnologiyalar rivoji va imkoniyati cheklangan shaxslar sonining ortib borayotganligi nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. Quyida ushbu tizimni bosqichma-bosqich tatbiq etish uchun konseptual takliflar keltiriladi:

Normativ-huquqiy asoslarni modernizatsiya qilish orqali quyidagilarni tahlil etish mumkin. **A**maldagi qurilish me’yorlari va standartlariga inklyuzivlik va

aqlli texnologiyalar elementlarini majburiy talab sifatida kiritish ijobiy natija beradi. "Inklyuziv arxitektura" tushunchasini "Arxitektura va shaharsozlik to'g'risida"gi qonunlarga alohida band sifatida kiritishorqali loyiha ekspertizasida imkoniyati cheklanganlar uchun qulayliklar mavjudligini baholovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish orqali ham erishuladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish -har bir yangi qurilayotgan jamoat binosida IoT qurilmalari, sun'iy intellekt yordamida boshqariluvchi tizimlar va foydalanuvchiga mos interfeyslar bilan jihozlash, mavjud muhim ijtimoiy inshootlarga (poliklinika, maktab, mahalla binolari) retrofitting – ya'ni texnologik yangilash asosida aqlli tizimlarni integratsiya qilish ijobiy natija beradi. Harakat, ko'rish yoki eshitish imkoniyati cheklanganlar uchun navigatsion mobil ilovalar ishlab chiqish mutahassislar nazaridan chetda qolmasligi zarur.

Toshkent shahri va yirik viloyat markazlarida "Smart Inclusive Urban District" tipidagi tajriba loyihalarini amalga oshirish, har bir viloyatda namunaviy inklyuziv maktab yoki bog'cha kompleksini yaratish orqali model infratuzilmani shakllantirish, yangi qurilayotgan turar-joy massivlarida inklyuziv dizayn va texnologiyalarni majburiy qo'llash orqali ijobiy natijalar olinadi.

O'zbekistonda "aqlli inklyuziv arxitektura"ni joriy etishda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun texnik yechimlar tizimli va fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy bosqichiga mos shakllantirilishi zarur. Quyidagi texnologik yechimlar arxitekturaviy muhitning funksional, interaktiv va adaptiv bo'lishini ta'minlaydi:

Harakatni aniqlovchi infratovushli, lazerli yoki optik sensorlar yordamida eshiklar, yoritgichlar va liftlarni avtomatik ishga tushirish, harorat, namlik, havo sifati va yorug'lik darajasiga mos ravishda avtomatik sozlanuvchi mikroiqlim tizimlari, maxsus pol qoplamalariga o'rnatilgan bosim sezgichlar orqali harakatga muvofiq vizual va audio ogohlantirishlar orqali loyihalar taklif etilishi mumkin.

Raqamli navigatsiya va muhitga moslashuvchan marshrut tizimlari binolar ichida GPS asosidagi yopiq navigatsiya tizimlarini yaratish va maxsus mobil ilovalar orqali foydalanuvchining holatiga qarab mos keluvchi marshrutlar (eng qisqa, qulay yoki xavfsiz yo'nalishlar) taklif qilish mumkin. Smart signage – ya'ni aqlli belgilar orqali foydalanuvchini real vaqt rejimida yo'naltirishga erishiladi. Bu texnik yechimlarning joriy etilishi nafaqat imkoniyati cheklangan shaxslarning ehtiyojlariga mos muhit yaratadi, balki umuman jamiyat uchun barqaror, xavfsiz va texnologik jihatdan ilg'or arxitektura madaniyatini shakllantiradi. Bularning barchasi integratsiyalashgan holda tizimli ravishda rejalashtirilganida "smart inkluziv arxitektura" g'oyasi to'liq amaliyotga joriy etilishi mumkin.

Aqlli inklyuziv arxitektura" tushunchasi zamonaviy arxitekturaviy va texnologik yondashuvlarni ijtimoiy tenglik tamoyillari bilan uyg'unlashtirgan holda, inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Bu tizim imkoniyati cheklangan shaxslarning shahar muhitida to'siqsiz va mustaqil hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan barcha infratuzilmaviy va texnologik komponentlarni o'z ichiga oladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli transformatsiya va inson markazli dizayn prinsiplarining uyg'unligi orqali nafaqat maxsus ehtiyojli guruhlar, balki barcha jamiyat a'zolari uchun qulay va xavfsiz yashash muhiti yaratilmoqda. O'zbekiston uchun taklif etilgan konseptual model ushbu xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirib, mahalliy ehtiyoj va imkoniyatlardan kelib chiqib ilg'or texnologiyalar asosida barqaror arxitektura tizimini shakllantirishni nazarda tutadi.

Texnik yechimlar sifatida sun'iy intellekt, IoT, sensor tizimlar, multimodal interfeyslar, raqamli navigatsiya va ekologik muvozanatni ta'minlovchi texnologiyalarni kompleks tarzda integratsiya qilish taklif etildi. Shuningdek, normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qilish, mutaxassislar tayyorlash va jamoatchilikni xabardor qilish tizimi bilan birgalikda bu model amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, "aqlli inklyuziv arxitektura" nafaqat zamonaviy urbanizatsiya muammolariga javob, balki inson huquqlari, raqamli tenglik va barqaror rivojlanish uchun fundamental asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa O'zbekistonda ijtimoiy adolatli va texnologik taraqqiy etgan jamiyat qurish yo'lida muhim qadam bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. UN-Habitat. (2023). *Smart Cities and Inclusive Urban Planning: A Global Framework.* United Nations Human Settlements Programme.
2. Smith, R. & Jones, L. (2021). *Inclusive Design for Smart Cities: Integrating Accessibility with IoT.* Journal of Urban Technology, 28(3), 55–73. https://doi.org/10.1080/10630732.2021.1909642
3. World Bank. (2022). *Accessible Cities: Inclusive Infrastructure for Persons with Disabilities.* World Bank Publications.
4. García-Hernández, A., & Ruiz-Garcia, L. (2020). *Artificial Intelligence in Urban Design: Towards Smart and Adaptive Architecture.* Sustainable Cities and Society, 52, 101879.
5. Kwon, Y., & Park, J. (2024). *AI and Smart Infrastructure for Inclusive Urban Environments.* Journal of Building Performance, 14(1), 45–60.
6. Tariq, M. et al. (2020). *Smart City Architecture and Adaptive Systems for Disability Inclusion.* Sensors, 20(15), 4221. https://doi.org/10.3390/s20154221

МЕТОДЫ ГИДРОИЗОЛЯЦИИ ФУНДАМЕНТА МЕДРЕСЕ АБДУЛАЗИЗХАНА В БУХАРЕ

Файзуллаева З.Н. Бухарский государственный технический университет
Салимов А.М. проффессор. Ташкентский архитектурно-строительный университет

Аннотация. В статье рассматриваются основные принципы по выбору технологических схем для создания гидроизоляции заглубленных конструкций инъекционным методом с акцентом на фундамент медресе Абдулазизхана в Бу-

харе. Перечислены основные негативные факторы воздействия влаги на сооружения, включая этот исторический памятник. Описываются особенности строительства фундаментов в древних сооружениях на территории Центральной Азии, в частности, в условиях бухарского оазиса. Приводится краткое изложение научных основ методов обработки грунтов и строительных конструкций для придания водонепроницаемых свойств, применяемых при реставрации медресе. Излагаются основы организации инъекционных работ для гидроизоляции фундамента медресе Абдулазизхана.

Ключевые слова: Кладка, горизонтальная гидроизоляция, инъекционные материалы, гидроизолирующий слой, грунт, научно-техническое сопровождение.

Hydroinsulation of the foundation of the Abdulazizkhan madrasa in Bukhara.

Abstract. The article examines the main principles for selecting technological schemes for creating waterproofing of buried structures using the injection method, with a focus on the foundation of the Abdulazizkhan Madrasa in Bukhara. The main negative factors of moisture impact on structures, including this historical monument, are listed. The features of foundation construction in ancient structures in the territory of Central Asia, particularly in the Bukhara oasis, are described. A brief overview of the scientific foundations of methods for treating soils and building structures to impart waterproof properties, applied during the restoration of the madrasa, is provided. The basics of organizing injection works for waterproofing the madrasa foundation are outlined.

Keywords: Masonry, horizontal waterproofing, injection materials, waterproofing layer, soil, scientific and technical support.

Buxoradagi Abdulazizxon madrasasi fundamentining gidroizolyatsiyasi.

Annotatsiya. Maqolada chuqur joylashgan inshootlarning gidroizolyatsiyasini in'eksiya usuli bilan yaratish uchun texnologik sxemalarni tanlashning asosiy tamoyillari, xususan Buxoradagi Abdulazizxon madrasasi fundamenti uchun ko'rib chiqiladi. Inshootlarga namlik ta'sirining asosiy salbiy omillari, jumladan ushbu tarixiy yodgorlikka sanab o'tiladi. Markaziy Osiyo hududidagi qadimiy inshootlarda poydevor qurilishining xususiyatlari, xususan Buxoro vohasidagi sharoitlarda tasvirlanadi. Tuproq va qurilish konstruksiyalarini suv o'tkazmas xususiyatlarga ega qilish uchun ishlov berish usullarining ilmiy asoslarining qisqacha bayoni, madrasa restavratsiyasida qo'llaniladiganlari keltiriladi. Madrasa fundamentini gidroizolyatsiya qilish uchun in'eksiya ishlarini tashkil etish asoslari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Klayka, gorizontal gidroizolyatsiya, in'eksion materiallar, gidroizolyatsiya qatlami, tuproq, ilmiy-texnik ta'minot.

Сохранение памятников истории и культуры является основной задачей инженерной реставрации. Разрушение исторических памятников, вызванное воздействием различных природных и техногенных факторов, является общемировой проблемой. Особый акцент в данной работе делается на гидроизоляцию фундамента медресе Абдулазизхана в Бухаре — одним из ярких примеров архитектурного наследия Центральной Азии, где деформации и эрозия фундамента вызваны подъемом грунтовых вод и солевой агрессией.

Экологические проблемы связаны с изменениями исторически сложившегося геологического и гидрогеологического режима. В частности, это подъем грунтовых вод и повышение в их составе концентрации солей, увеличение содержания влаги и соли в почве. Эти явления начали активно способствовать деформации конструкций и интенсивной эрозии стен и фундаментов памятников архитектуры, включая фундамент медресе Абдулазизхана. Особенно сильно страдают исторические здания городов, расположенных на низменных территориях Центральной Азии (Бухара, Хива). Однако здесь увеличение влажности в грунтах и подъем грунтовых вод в основном связан с человеческим фактором: урбанизацией и развитием коммуникационных систем. Именно поэтому изучение данной проблемы необходимо вести в двух направлениях: в глобальном — изменение геоэкологической ситуации Центральной Азии, в локальном масштабе — искать научно обоснованные пути снижения уровня ее влияния с целью сохранения шедевров всемирно известных памятников архитектуры, таких как медресе Абдулазизхана. Тревожащим фактором является то, что в конце концов обратные эффекты, возникшие в результате нарушения экологического баланса, начинают вредить месту обитанию самого человека, в том числе и древним зданиям. Как результат в исторических городах начали возникать проблемы, связанные с деформациями памятников архитектуры, с интенсивным снижением из-за солевой агрессии прочности материалов цокольной части стен и фундаментов. За последнее десятилетие возникли серьезные проблемы, связанные с сохранением всемирно известных шедевров архитектуры. В частности, засоленные грунтовые воды в силу своей агрессивности по отношению к строительным материалам в результате сложных физико-химических процессов начинают интенсивно эродировать подземные и надземные конструкции памятников, в результате чего часто происходит деформации, а в некоторых случаях и полное их разрушение. Как пример, можно привести катастрофическое разрушение одного из минаретов комплекса "Чор-Минор", сильные деформации комплекса Тим Абдулхана, **медресе Абдулазизхана** [1], комплекса Арк и наклон минаретов в г. Бухаре. Наиболее ощутимо влияние минерализованных грунтовых вод на фундамент медресе Абдулазизхана подвергается особенно сильному воздействию.

Сооружения разрушаются вследствие изменения условий окружающей среды, плохого качества строительных работ, несоответствия материалов и антропогенного воздействия на геологическую среду. Первоначально необходимо выявить причины, ведущие к разрушению и затем применять соответствующие меры по охране и защите сооружений, включая инъекционную гидроизоляцию фундамента медресе Абдулазизхана. На первом этапе проводятся обследования, и дается комплексная оценка состояния памятника архитектуры во взаимодействии с окружающей средой. Причины образующихся повреждений определяются по различным симптомам, часто на основании личного опыта спе-

циалиста и подтверждаются расчетами. Внимательное изучение деформаций дает большой объем информации уже на стадии предварительного осмотра сооружения.

Приспособление памятников архитектуры к грунтовым условиям сопровождается осадками и может вызвать крен и образование трещин. По образовавшимся трещинам, их расположению, направлению и степени раскрытия можно судить о деформациях, устанавливать причинно-следственные связи в процессе образования повреждений. В контексте медресе Абдулазизхана такие деформации фундамента напрямую связаны с проникновением влаги через трещины, возникшие в конструкциях.

Во всех разрушающих процессах вода играет ключевую роль как основной компонент органических и физико-химических процессов. Памятники архитектуры испытывают действие факторов природной среды и хозяйственной деятельности человека в двух направлениях. Непосредственное разрушение материала конструкций и последующие деформации. Второй тип разрушений развивается в скрытой форме и связан с изменением состояния и свойств грунтов основания. Сохранение памятников архитектуры и городских ансамблей зависит от стабильности гидрогеологических условий, что особенно актуально для цокольной части медресе Абдулазизхана.

Рис.1. Фрагменты стены медресе Аблулазизхана. Бухара 2025г.

Состояние фундаментов медресе: На обследуемых участках фундаменты находятся в неудовлетворительном состоянии. Результатом появления трещин в фундаменте явилось замыкание фундаментов из неисправных труб канализации. Затем нагрузка от стен явно превышает несущую способность существующих фундаментов. Частичное понижение грунта на фасадах также сыграли определенную роль в замокании грунта и супесями и суглинками. Процесс подтопления грунтов ведёт за собой снижение прочностных свойств основания и деформации здания.

Здание медресе пересечено вертикальными трещинами различной величины, расширяющимися снизу вверх. Деформации имеют сложный характер. Неравномерность сжатия грунта вследствие замыкания и резной нагрузки от вышележащих стен и покрытий повлекли за собой неравномерную осадку по периметру. Местами фундамент сложен из кирпича в чередовании с камнем, что наводит на мысль, что фундаменты медресе были построены на архитектурных остатках или фундаментах более ранее застройки. В основе всех деформаций лежат следующие принципы:

• Действие поверхностных и подземных вод из-за неисправности кровли, отсутствие уклонов, сточных потоков.

• Цоколи и отмостки находятся в неудовлетворительном состоянии за исключением главного фасада.

• Стены и состояние связей. Связи местами разорваны. В большинстве частях стены находятся в неудовлетворительном состоянии. Местами имеются серьёзные трещины, а местами вспучивания и деформации на больших участках. Стены летней мечети находятся в аварийном состоянии.

Нарушение водного баланса верхних водоносных горизонтов в результате асфальтирования улиц и площадей приводит к изменению уровня грунтовых вод и изменению химического состава в сторону агрессивности. Подъем грунтовых вод может быть вызван различными обстоятельствами. Среди них: плохое качество строительных работ, отсутствие вертикальной планировки площадок, скопление строительного мусора, утечки из сетей канализации и водоснабжения. Изменение естественных условий залегания грунтов, нарушение структуры, прорезка подземными коммуникациями, уменьшение поверхности испарения из-за применения сплошных покрытий в виде асфальта и бетона [1]. Эти факторы напрямую усугубляют проблему гидроизоляции фундамента медресе Абдулазизхана.

Постоянное перемещение воды в пространстве подчиняется естественным законам и обеспечивает единый процесс известный как гидрологический цикл. Уровень грунтовых вод зависит от количества и интенсивности выпадения атмосферных осадков и их испарения. Человек может в результате своей инженерной деятельности оказывать временное воздействие на естественный круговорот воды в природе. Покрытие больших площадей естественной поверхности земли искусственными материалами вызывает в период сильных дождей явление, называемое эффектом «мгновенного стока» [2]. В Бухаре это приводит к дополнительному подтоплению фундамента медресе Абдулазизхана.

Под сплошными искусственными покрытиями изменяется режим естественного процесса испарения влаги из земли. Это приводит к изменению влажностного режима грунтов оснований и фундаментов. Отсутствие или не отвечающая своему назначению вертикальная внешняя гидроизоляция и

горизонтальная внутренняя гидроизоляция приводят к насыщению строительных конструкций влагой. В результате намокания ослабляется сцепление раствора с материалом, происходит его выкрашивание. Содержание в грунтовых водах примесей в виде водорастворимых солей нитратов, хлоридов и сульфатов влияют на интенсивность процессов солевой коррозии, что наблюдается на фундаменте и на цокольной части медресе Абдулазизхана.

Миграция солей с влагой по капиллярам стен приводит к образованию высолов на поверхности конструкций. Часто продукты кристаллизации остаются незамеченными под поверхностью строительных конструкций. Максимальная концентрация солей отмечается на глубине 1-2 см от поверхности материала. Образование зоны выкрашивания приводит к уменьшению расчетного сечения конструкции и является причиной медленных разрушений фундамента медресе.

Изменения геотехнических и гидрогеологических условий влияют на находящуюся рядом с сооружениями растительность. В случае понижения уровня грунтовых вод или уменьшения атмосферных осадков корневая система деревьев начинает забирать влагу из глубоко залегающих слоев глин. Это может привести к усадке глин и негативно отразиться на сооружениях, включая медресе Абдулазизхана.

Причиной переувлажнения фундаментов может являться также отсутствие или повреждение систем дренажа и водоотведения. Из-за неправильной эксплуатации дренажи заплывают грунтом и не пропускают воду. Отвод поверхностных вод от памятников влияет на оптимальный режим и баланс уровня грунтовых вод. Контроль и поддержание работоспособности элементов ливнесточных систем позволяют эффективно регулировать поверхностный сток, что критично для защиты фундамента медресе Абдулазизхана.

Древние строители при возведении сооружений пользовались различными методами для уменьшения негативного влияния влаги на строительные конструкции. Рассматривая строительную технику Центральной Азии, особый интерес вызывают приемы устройства оснований стен и фундаментов, примененные при строительстве медресе Абдулазизхана. Специфические для Бухары цоколи платформы встречаются на песчаных грунтах. Они представляют собой многослойную конструкцию, состоящую из отдельных прочных слоев пропитанного глиной песка и расположенные между ними клетки-ячейки, образованные внутренними стенами и также заполненные песком. Песок предохранял постройки от грунтовых солей [3].

Tadqiqotlar shuningdek, rezonans hodisasining oldini olish maqsadida choklar orasidagi masofalarning o‘zgaruvchan bo‘lishi maqsadga muvofiq ekanini ko‘rsatdi. Bu yo‘lovchilar uchun harakat qulayligini oshiradi va qoplamaning yemirilish jarayonini sekinlashtiradi.

Umuman olganda, maqolada ko‘rib chiqilgan ilmiy asoslar va amaliy natijalar sementbeton qoplamalar konstruksiyasini ilmiy yondashuv asosida loyihalash zarurligini tasdiqlaydi. To‘g‘ri tanlangan asos, optimal chok tizimi va ekspluatatsiya sharoitlariga mos konstruktiv yechimlar yo‘lning mustahkamligi va xizmat muddatini sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Amirov T.J., B.E Qurbonov. Bosib zichlanadigan beton qoplamalarini qurishda va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolar. Toshkent davlat transport universiteti. The scientific journal vehicles and roads, 2024 №2 C-227-232

2. Corley-Lay, J., C.S. Morrison. Thirty-Three year performance of jointed concrete test sections in North Carolina. Transportation Research Record 1806. - 2002. - Pp. 88-94.

3. P.C. Taylor, S.H.Kosdmatka, G.T.Voigt. Integrated Materials and Construction Practices for Concrete Pavement: A State-of-the-Practice Manual, Iowa State University. FHWA, 2007. - Pp. 1-326.

4. Глушков Г.И. и др. Жесткие покрытия аэродромов и автомобильных дорог. М.: Транспорт, 1987. - 255 с.

5. Bejarano, M.O., J.T. Harvey. Accelerated Pavement Testing of Drained and Undrained Pavements Under Wet Base Conditions. Transportation Research Record №1816, TRB, National Research Council, Washington, D.C. - Pp. 137-147.

6. Delatte, N. Concrete Pavement Design, Construction, and Performance. - Taylor & Francis, London and New York, 2008. - Pp. 1-372.

7. AASHTO. Guide for Design of Pavement Structures. Washington, D.C. American Association of Highway and Transportation Officials. - 1993.

SANOAT CHIQINDILARI ASOSIDA BETON TO‘LDIRUVCHILARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Jamolov Shuxrat Mustafayevich - katta o‘qituvchi, **Ismatullayev Fazliddin Zayniyevich** - o‘qituvchisi

Annotatsiya: Turli sanoat korxonalarining ikkilamchi chiqindi mahsulotlari iste’molchi tarmog‘ining sanoat chiqindilari hisoblanib, ular ko‘proq qurilish materiallarini ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida foydalaniladi. Qurilishdagi materiallar uchun ketadigan sarf-xarajat smetaning 55% dan ortig‘ini tashkil etishini inobatga olinsa, sanoatdagi ikkilamchi mahsulotlardan foydalanilish qurilish materiallarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri ekanligini e’tirof etish mumkin.

Kalit so‘zlar: Beton, bog‘lovchi modda, to‘ldiruvchi, g‘ovakli to‘ldiruvchilar, shlak, sanoat chiqindilari

Bugungi kunda nafaqat energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihalari ilgari surib kelinmoqda. Bunga qo‘shimcha sifatida ikkilamchi resurslardan qurilish materiallarini ishlab chiqarish jarayonlarida samarali foydalanish kabi dolzarb g‘oyalar ham keng miqyosda amalga tatbiq qilib kelinmoqda. Shuningdek, qurilish ishlarida foydalaniladigan qurilish materiallarini 60% beton konstruksiyalari tashkil qiladi. Beton bu bog‘lovchi modda, suv, mayda va yirik to‘ldiruvchilarning ratsional aralashmasidan olingan qorishmaning qotishidan hosil bo‘lgan sun’iy tosh materialidir.

“Ko‘p hollarda tabiiy konlarni qayta ishlashda chiqadigan ikkilamchi materiallar beton uchun yaroqli to‘ldiruvchi emas, balki ular umum xomashyo materiallari sifatida qo‘llaniladi.”[2]

Beton uchun ishlatiladigan asosiy hom ashiyolardan biri bu to‘ldiruvchidir. To‘ldiruvchi bu ma’lum zarrachalar tarkibiga ega bo‘lgan tabiiy yoki sun’iy tosh materiallari bo‘lib, sement va suv bilan birgalikda beton hosil qiluvchi qurilish materiallari hisoblanadi. Beton to‘ldiruvchilari asosiy qurilish materiallari hisoblanadi. Ularni ishlab chiqarish kun sayin o‘sib bormoqda. Kapital va umumiy qurilishdagi asosiy masala, bu

to‘ldiruvchilarni ishlab chiqarish va qo‘llashni takomillashtirish, sifatini yaxshilash hamda ilmiy-texnik yutuqlarni qurilishda qo‘llash.

To‘ldiruvchi sifatida asosan maxalliy tog‘ jinslari va ishlab chiqarish chiqindilari (shlaklar va boshqalar)dan foydalaniladi. Bunday arzon to‘ldiruvchilardan foydalanish betonning narxini arzonlashtiradi, chunki to‘ldiruvchi betonning 85–90% ni, sement esa 10–15% hajmini tashkil etadi.

Keyingi yillarda qurilishda g‘ovak sun’iy to‘ldiruvchilardan tayyorlangan yengil beton keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda. G‘ovakli to‘ldiruvchilar beton zichligini pasaytiradi, bu esa uning issiqlikni tutib qolish xususiyatini yaxshilaydi.

Hozirgi kunda beton to‘ldiruvchilari shunday ahamiyat kasb etar ekan ularni ishlab chiqarishni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Mahalliy hom ashyo resurslarini tejash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ikkilamchi resurslardan foydalangan holda beton to‘ldiruvchilarini ishlab chiqarishni takomillashtirish zarurdir. Metallurgiya sanoatida chiqindi omborlariga har yili katta miqdorda domna shlaklari tashlanadi. Ya’ni po‘lat eritishda asosiy mahsulotdan tashqari 0,5–1 t shlak chiqadi. Bunda massa bo‘yicha emas balki hajm bo‘yicha 2–3 barobar ko‘p miqdorda shlak chiqadi. Shu sababli shlaklarni shartli ravishda chiqindi deyiladi. Aslida bu qimmatli ikkilamchi mahsulot hisoblanadi.

Metallurgiya shlaklaridan noto‘g‘ri foydalanishda asosiy olinadigan mahsulot narxiga ham ta’sir etadi, ya’ni shlaklarni olib kelish, chiqindi omborlariga ko‘mish ortiqcha harajatga olib keladi. Metallurgiya shlaklarining kimyoviy tarkibi turlichadir. Domna shlaklari asosan quyidagi oksidlardan iborat bo‘ladi: SaO – 30–50%; SiO2 – 30–40%; Al2O3 – 10–30%; temir, magnit va marganets birikmalari.

Domna shlaki sement sanoatida ishlatiladi. Uning bir qismi shlakli tola va quyma buyumlar olishda ishlatiladi. Asosan shlakning ko‘p miqdori to‘ldiruvchilar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Domna shlaklari asosidagi chavoq toshning tsilindrda maydalanish ko‘rsatkichi bo‘yicha to‘rtta rtta kamayadi: Dr45 – mustahkamlik chegarasi 20 MPa dan past betonlar uchun; Dr35 – mustahkamlik chegarasi 20–30MPa betonlar uchun; Dr25 – mustahkamlik chegarasi 30–40MPa betonlar uchun; Dr15 – mustahkamlik chegarasi 40MPa va undan yuqori betonlar uchun ishlatiladi. Domna shlaklari asosida chavoq toshdan turli konstruksiyalar uchun yuqori mustahkamlikdagi betonlar olish mumkin. Metallurgiya sanoati rivojlangan hududlarda shlakli chavoq tosh boshqa tabiiy tosh asosidagi chavoq toshga nisbatan arzon bo‘lib, uni qo‘llash yuqori iqtisodiy samara beradi.

Biroq shlaklarda mavjud oltingugurt po‘lat armaturani yemirilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli shlakli chavoq toshni temir-beton zo‘riqtirilgan armaturali konstruksiyalarda qo‘llashda maxsus tadqiqotlarga asoslanish kerak, agar da oltingugurt miqdori 2,5% dan oshsa, u holda barcha turdagi konstruksiyalar uchun ishlatiladigan betonlar ustida tadqiqotlar o‘tkaziladi. Shlakli chavoq toshning uyma zichligi og‘ir beton uchun 1000 kg/m³ dan kam bo‘lmasligi kerak. Bu zich va mustahkam, qora hamda to‘q-kulrang rangdagi to‘ldiruvchi hisoblanadi.

Granullangan shlaklar – suyuq qizib turgan metallurgiya shlaklarini suv yordamida qayta ishlashda olinadi. Bunda shlak eritmasini tez sovitishda va uni granulatsiya va maydalashda alohida mayda donalar olinadi. Donalar strukturasi qondiradi.

Uchinchidan, xom ashyodan kompleks foydalanilganda mahsulot hisobiga kapital xarajat nisbatan pasayadi, xarajatlar sarfini qoplash muddatlari qisqaradi, sanoatda chiqindilarni joylash, ularni saqlaydigan omborxonalar qurilishiga ketadigan sarfni kamaytiradi, issiqlik va elektr energiyalarini yangi mahsulotga qilingan sarfi chiqindilarni texnologik tayyorligi sababli kamayadi, jihozlarning ishlab chiqarish quvvati ortadi.

Sanoat chiqindilaridan samarali foydalanib, bino va inshootlarni qurishga mo‘ljallangan turli hil qurilish materiallarini ishlab chiqarishimiz mumkin. Sanoat chiqindilari tarkibli qurilish materiallari ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorlik va tabiiy resurslar zaxirasining tejalisgiga sabab bo‘ladi.

MODIFIKATSIYALANGAN YOG‘OCH MATERIALLARNI YELIMLASH TEXNOLOGIYASI

Maxmatkulov T., Kulmirzayev I.M.
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annatatsiya: Yengil va samarador yog‘och materiallardan zamonaviy qurilish amaliyotida foydalanish, ulardan elementlar va konstruksiyalar tayyorlash istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Respublikamizdagi past sifatli yog‘och materiallardan foydalanish juda muhim hisoblanadi. Bu turdagi yog‘och materiallar mustahkamligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri – ularni modifikatsiyalash hisoblanadi.. Maqolada modifikatsiyalangan yog‘och materiallarni yelimlash texnologiyasi bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yengil, samarador yog‘och materiallar, istiqbolli yo‘nalish, past sifatli yog‘och materiallar, mustahkamligini ta’minlash, modifikatsiya qilish, tahlil natijalari.

Аннатация: В настоящие время одним из перспективных направлений в строительстве являються применение деревянных элементов и конструкций. Особенно важным являются применение низкосортних деревянных материалов в строительстве. Одним из перспективным направлением являются модификация деревянных материалов. В статье приводятся результаты анализа по технология склеивание модифицированных деревянных материалов.

Ключевые слова: Легкие. эффективные деревянные конструкции, перспективные направление, низкосортные деревянные материалы, обеспечение прочности, , модификация древесины, результаты анализа.

Annotation: Currently, one of the most promising trends in construction is the use of wooden elements and structures. The use of low-grade wood materials in construction is particularly important. One promising area is the modification of wood

materials. This article presents the results of an analysis of the technology for gluing modified wood materials.

Key words: Lightweight, efficient timber structures, promising trends, low-grade timber materials, ensuring strength, wood modification, analysis results.

Respublikamiz hududida turli yog‘och materiallaridan elementlar va konstruksiyalar tayyorlash bugungi kunda samarador yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fizik-mexanik ko‘rsatkichlari kichik, sifati past materiallardan foydalanishda ularni modifikatsiya qilishni taqozo qilmoqda. Chunki, bu turdagi materiallarning turli salbiy ta’sirlarga yuqori darajadagi chidamliligi, yuksak fizik – mexanik xossalari ularni oddiy yog‘och materiallarga qaraganda qator afzalliklarga ega ekanligini belgilaydi [1].

Oxirgi yillarda modifikatsiyalangan yog‘och materiallardan foydalanish darajasi kengayib borayotganligi sababli, ularning yaxshi o‘rganilmagan xususiyatlarini tahlil qilish, ayniqsa, ularni yaxshilash, yelimlash texnologiyalarini takomillashtirish, turli ekspluatatsiya sharoitlariga javob beradigan usullarni joriy etish, yelimlash mexanizmini va bu talablarga javob beradigan yelim turlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [2].

Modifikatsiyalangan yog‘och materillar o‘z ichiga tabiiy yog‘och va plastmassa materiallarning xususiyatlarini mujassamlashtirgan bo‘ladi. Shu sababli, ularning bu xususiyatlarini birgalikda o‘rganish, yog‘och materiallarga qaraganda sovuq va issiq holda qotish xususiyatiga ega bo‘lgan yelimlarning keng assortimentidan foydalanishni taqoza etadi.

Yog‘och materiallarni sovuq holda yelimlash xona haroratida, ya’ni, 15-20 ℃ bajarilsa, issiq holda yelimlash ishlari uchun harorat 120-180 ℃ gacha yetkaziladi. Modifikatsiyalangan yog‘och materiallarni yelimlash uchun esa asosan sovuq holda yelimlash texnologiyalaridan foydalaniladi [3]. Chunki, yelimlarni va yog‘och materiallarni qizdirish ularning fizik-mexanik xususiyalariga, yelimlarning va modifikatorlarning xossalarini o‘zgarishiga, tarkibidan toksik moddalarning ajralib chiqishiga, eskirishining tezlashishiga olib kelishi mumkin. Issiqqa chidamli termoreaktiv polimerlardan foydalangan holda yelimlash bundan mustasno hisoblanadi [1].

Yelim komponentlari turli qo‘shimchalardan, shu jumladan, qotiruvchi plastikligini oshiruvchi moddalar, ya’ni, polimer va monomerlardan iborat kimyoviy birikmalardan tayyorlanadi. Aksariyat hollarda termoreaktiv oligomerlardan foydalanib tayyorlangan sovuq va issiq holda qotish xususiyatiga ega bo‘lgan yelimlardan foydalaniladi. Bundan yelimlardan biri ED-16 smola asosli epoksid yelim hisoblanadi. Oxirgi yillarda bu yelimlarning ED-20, E-40, EIS-1 tipidagi tarkiblaridan ham keng foydalanilmoqda.

O‘tkazilgan tarqiqotlar natijalariga ko‘ra modifikatsiyalangan yog‘och materiallarni xona haroratida yelimlash uchun qotiruvchi modda sifatida polietilenpoliamin, aminfenol va past malekulali poliamidlardan foydalanish tavsiya etiladi. Yuqori haroratda yelimlash uchun esa, dikorbon yoki yantar kislotasining angidridlaridan foydalanish lozim. Yelimlash texnologiyasida uning komponentlarini tayyorlashda, suyuq oquvchan holatga keltirish, ya’ni, “yashash” muddatini ta’minlash muhim axamiyatga ega. Shu sababli, yelim komponentlariga organik erituvchi moddalar - aseton, ksilol, skipidar va boshqalarning tegishli nisbatida aralashtirish tavsiya etiladi [4].

Belgilangan talablar darajasida tayyorlangan yelimlarning “yashash” muddati normal xona haroratida 1,5-2 soatni, bundan yuqori haroratda esa 24 soatni tashkil etadi. Tayyorlangan yelimning qotish muddati 18-20 ℃ haroratda 24 soatgacha bo‘lishi o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida aniqlangan[4].

Issiq usulda yelimlash uchun mo‘ljallangan yelimlarni tayyorlashda smolalarning turiga mos ravishda ularni belgilangan haroratgacha qizdirish lozim, ya’ni, bu ko‘rsatkich malein angidridi uchun 60 ℃ gacha, ftol angidridi uchun esa 135 ℃ gacha bo‘ladi. Yelimlangan elementlarning mustahkamliginii ta’minlash uchun ular 120 ℃ haroratda 6-8 sutka davomida 0,05-0,3 MPa bosimda ushlab turilishi kerak.

Modifikatsiyalangan yog‘och materiallarni yelimlash uchun tayyorlangan tarkiblarning mustahkamligi ko‘p jihatdan yelim choklarining plastikligini oshiruvchi moddalarning turiga va ularning foiz miqdoriga bog‘liq. Masalan, plastifikator dibutilftalat bo‘lsa 15-20 %, bu ko‘rsatkich poliefirda 20 % gacha, suyuq tiokolda 10-50% gacha bo‘ladi. Shu sababli, tarkibiga qo‘shiladigan moddalarning turiga qarab yelimlar ham turli nomlanadi. Poliefirli-EPS, tiokol-K-153, pastmolekulali kauchuk-K-147, furasetatli - BOV - deb nomlanadi va ularning barchasi uchun qotiruvchi modda sifatida normal haroratda 10-12% miqdorida polietilenpoliamindan foydalaniladi.

Ma’lumki, oddiy yog‘och materiallarni yelimlashda malekulyar massasi 400-800 bo‘lgan suyuq rizolli oligomer asosli fenolformaldegid yelimlar samarador hisoblanadi. Bu yelimning asosiy afzalliklaridan biri uy haroratida yelimlash mumkinligi va erituvchi sifatida esa aseton, spirt va oddiy suvdan foydalanish imkoniyatidir. Bu turdagi yelimlarning tannarxini kamaytirish imkoniyatini beruvchi to‘ldiruvchilarning turini to‘g‘ri tanlash va uning foiz miqdorini qabul qilish ham muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. To‘ldiruvchilar sifatida yog‘och uni, bo‘r va legnin kabi materiallardan foydalaniladi. Yog‘och materiallarga metall, asbestosement va fanera kabi materiallarni yelimlashda keng qo‘llanilayotgan EPS-1 va BF tipidagi yelimlar uchun esa markasi M-400 bo‘lgan portlandsement eng samarador to‘ldiruvchi hisoblanadi. Ayrim noyob xususiyatli yelimlar toifasiga kiruvchi VIAM-B-100 va VIAM-F-9 tarkiblar uchun qotiruvchi sifatida neft mahsulotlarining qoldig‘idan olinadigan kerosinli Petrov kontaktidan foydalaniladi [3].

Bugungi kunda foydalanilayotgan yelimlarning eng xavfsiz turi sifatida KB-3 yelimini aytish mumkin, chunki, bu yelimda erkin fenolning foiz miqdori 4 % atrofida bo‘ladi va uning asosini SFJ-3016 markali smola tashkil etadi. Qotiruvchi modda Petrov kontaktining foiz miqdori yelimlash haroratiga bog‘liq bo‘lib, 15-16 ℃ da 25% ni, 18- 20 ℃ da 20% ni, 22-25 ℃ da esa 15% ni tashkil etishi ilmiy asosda

tasdiqlangan.

Barcha turdagi yog‘och materiallar, shu jumladan, modifikatsiya qilingan materiallarni yelimlash uchun tarkibi KB-3 tipidagi fenolformaldegid yelimiga yaqin bo‘lgan FR-12 va FRF-50 tipidagi fenolrezorsinli yelimlar samarador hisoblanadi va ular uchun to‘ldiruvchi sifatida yog‘och uni va sellyulozadan, plastifikator sifatida esa gliserin va dietilenglikol ishlatiladi.

Keyingi yillarda murakkab tarkibli organik birikmalar bilan modifikatsiya qilingan yog‘och materiallarni yelimlash uchun normal xona haroratida qotish qobiliyatiga ega bo‘lgan MF-17, M-60, KMF tipidagi, mochevino-formaldegid yelimlardan foydalanilmoqda. Bu yelimlar uchun qotiruvchi modda sifatida kundalik turmushda foydalaniladigan limon, shavel va uksus kislotalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Issiq holda qotadigan turlari uchun (120-130 ℃) esa qotiruvchi modda sifatida kuchli kislotalarning ammoniyli tuzlaridan foydalaniladi. Bu yelim yog‘och uni va sellyuloza bilan to‘ldiriladi va plastikligi esa polimer dispersiyalari bilan oshiriladi. Ayrim hollarda yelimlarning mo‘rtligi polimerlarning suvli aralashmalari – polivinilasetat yordamida bartaraf etiladi.

Ko‘p hollarda yog‘och materiallarni modifikatsiyalashda vinilli va poliefirli polimerlardan foydalaniladi. Bu turdagi materiallarni yelimlashda PN-1 va PN-2 tipidagi molekulasida karboksil va gidroksil birikmalari bo‘lgan yelimlardan foydalaniladi. Chunki, bu yelimlar noqulay ekspluatatsiya sharoitlari, ya’ni kuchsiz kislotalarning organik birikmalari, neft, tuzlar va yog‘li muhitlar mavjud binolarda ishlatiladigan konstruksiyalarni yelimlashda samarador hisoblanadi.

Demak, yuqorida tahlil qilingan yelimlardan foydalanishda modifikatsiyalangan yog‘och materiallarning xususiyatlarini e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega, Chunki, yog‘och materiallarning kesim yuzasidagi bo‘shliqlar modifikatsiyalovchi tarkiblar bilan to‘lganligi sababli, adgezion maydon qisqaradi va yelimning yuzada tarqalishi yomonlashadi. Modifikatsiyalangan yog‘och oddiy materiallarga nisbatan qattiqlashganligi sababli, ularni yelimlashda elastikligi yuqori bo‘lgan tarkiblardan foydalanish kerak.

Adabiyotlar:

1. Арисланов О.Н., Хрулев В.М. Технология склеивание модифицированной древесины. Обзорная информация. –Москва, ВНИПИЭИлеспром, 1984.-с.36.

2. Деревянные конструкции и детали. Справочник по общестроительным работам. (Под ред. В.М.Хрулева). М.: Стройиздат. 1983. -238 стр.

3. Maxmatqulov T. Yog’och konstruksiylari”, Darslik, Toshkent, Sahhof, 2023. -328 bet.

4. QMQ 2.03.08-98 “Yog‘och konstruksiyalari”. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qumitasi, Toshkent, 1996. -80 bet.

5. Maxmatqulov T. Yog’och konstruksiyalari (loyihalash asoslari). O’quv qo’llanma, Samarqand, 2021.- 212 bet

ОСНОВЫ ТЕХНОЛОГИИ ОТДЕЛОЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ И ИЗДЕЛИЙ

Buriboyev Sh.A. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, dotsent.

Annotatsiya. Bino va inshootlarni barpo etishda ko’plab hududlarida ishlatiladigan sopol materiallarsiz qurilishni tasavvur qilib bo’lmaydi. Ulardan unumli foydalangan holda qurilish materiallari, xususan, sopol buyumlarini yangi zamonoviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarish yo’lga qo’yilmoqda. Bunda asosan ularning qurilish-ekspluatasion va funksional xossalariga e’tiborni qaratish zaruriyati tug’ilmoqda. Bunga o’lkamizda va xorijda deyarli bir vaqtda batafsil o‘rganish, xossalarni obdon o’rgangan va yanada yaxshilangan holda sopol ashyolar ishlab chiqishning yangi texnologiyalarini yaratish qurilish sohasida dolzarb masaladir.

Kalit so'zlar: sopollar, ekspluatasion va qurilish-funksional xossalar, tasnif, texnolo-giya, mustahkamlik, ishlatilish sohasi, yoriqlar, bug'o'tkazuvchanligi, yopishish, perlit beton.

Аннотация. Невозможно представить строительство без керамических материалов, которые применяются во многих областях возведения зданий и сооружений. С их эффективным использованием производство строительных материалов, в частности керамического кирпича, налаживается на основе новых современных технологий. В связи с этим необходимо уделять особое внимание их строительно-эксплуатационным и функциональным свойствам. Поэтому их детальное изучение в нашей стране и за рубежом практически одновременно, а также создание новых технологий для получения керамических материалов с улучшенными свойствами являются актуальной задачей строительной отрасли.

Ключевые слова: керамика, эксплуатационные и строительно-функциональные свойства, классификация, технология, прочность, область применения, трещины, паропроницаемость, сцепление, перлитобетон.

Annotation. It's impossible to imagine construction without ceramic materials, which are used in many areas of building and construction. With their effective use, the production of building materials, particularly ceramic bricks, is being established using new, modern technologies. Therefore, special attention must be paid to their construction, operational, and functional properties. Therefore, their detailed study in Russia and abroad, almost simultaneously, as well as the development of new technologies for producing ceramic materials with improved properties, are a pressing issue in the construction industry.

Keywords: ceramics, operational and construction properties, classification, technology, strength, application, cracks, vapor permeability, adhesion, perlite concrete.

Классификация отделочных материалов и изделий. Для современной архитектуры зданий сборного типа как жилищного, так и промышленного назначения характерна простота форм. Решающее значение в этом случае приобретают качество и разнообразие применяемых видов отделки. Отделочные материалы должны использоваться для создания комфортных условий и обеспечения санитарно-гигиенических норм.

В проектах зданий обязательно должны быть указаны рекомендуемые виды отделки и приемы их выполнения.

Отделочные материалы и изделия применяются для повышения эксплуатационных и декоративных качеств зданий и сооружений, а также для защиты

строительных конструкций от атмосферных и других воздействий [1].

К таким материалам относятся отделочные растворы и бетоны, природные и искусственные каменные материалы, отделочная керамика, лакокрасочные материалы, материалы и изделия на основе древесины, бумаги, стекла, пластмасс, металлов.

В зависимости от условий эксплуатации отделочные материалы делятся на материалы для внутренней отделки (обои, древесноволокнистые плиты и пр.), материалы для наружной отделки (отделка дроблеными материалами, глазурованием и др.), материалы и изделия для покрытия полов (поливинилхлоридная плитка и специальные керамические плитки). К этим материалам предъявляется ряд специальных требований: незначительная истираемость, высокая ударная прочность, малая пористость.

Природный декоративный камень, керамические материалы, архитектурно-строительное стекло используются как для внутренней, так и для наружной отделки.

По назначению отделочные материалы можно условно разделить на:

-собственно отделочные, которые применяют в основном для создания декоративных и защитных покрытий (лаки, краски, обои, полимерные плитки, линолеум);

-конструкционно-отделочные, которые могут дополнительно выполнять функции ограждающих конструкций (декоративный бетон, лицевой кирпич, стеклоблоки, стеклопрофилит);

-специальные отделочные, выполняющие определенные функции: защиту людей и конструкций зданий от действия агрессивных сред, высоких температур, шума, рентгеновского излучения [2].

К таким материалам относятся кислотостойкие керамические или из каменного литья плитки, огнеупорные материалы, акустическая штука турка, штукатурка против радиоактивного излучения и т. п.

Кроме того, все отделочные материалы можно разделить на природные (камень, дробленый материал) и искусственные (керамика, растворы, бетоны). По природе и виду основного сырья они бывают неорганические (стекло, керамика, бетоны) и органические (пластмассы, изделия из древесины).

На рис.1. приведены декоративные стеновые материалы для современного индустриального строительства создаются отделочные материалы, которые ускоряли бы темпы строительства, повышали сборность конструкций и их заводскую готовность. В настоящее время материалы изготавливают виде штучных изделий-листов или плиток, устанавливаемых в местах будущей эксплуатации; отделку выполняют в процессе заводского изготовления сборных элементов с последующей доставкой их к месту монтажа (например, наружные стеновые панели, облицованные на заводе изготовителе керамической плиткой); для выполнения окрасочных, малярных и других работ применяют высокопроизводительные машины, исключающие ручной труд [3].



Рис.1. Декоративные стеновые заводского изготовления.

Характер свойств или показателей качества отделочных материалов позволяет выделить из них две группы: функциональные и строительно-эксплуатационные. Под функциональными подразумеваются свойства материала, отвечающие его основному назначению. Строительно-эксплуатационные свойства обеспечивают транспортирование изделий, их долговечность, монтаж.

Помимо эксплуатационно-технических, эстетических и санитарно-гигиенических требований к материалам этой группы предъявляются также и экономические требования.

Экономический эффект от выбранного вида и способа отделки определяется долговечностью отделочных слоев в процессе их эксплуатации, единовременными затратами и эксплуатационными расходами. Он вычисляется по формуле

$$П = \mu(С + E_n К) + \frac{Э}{E_n}, \qquad (2.1)$$

где П-приведенные затраты;

μ - коэффициент долговечности;

С - себестоимость отделки 1 м² (единовременные затраты), сум.;

E_n - нормативный коэффициент;

К- удельные капитальные вложения, сум.:

Э - эксплуатационные затраты, сум.

Сокращение приведенных затрат и повышение экономической эффективности отделки могут быть достигнуты за счет уменьшения единовременных затрат (путем снижения стоимости отделочных материалов) и механизации трудоемких операций, а также в результате увеличения межремонтных периодов, влияющих на коэффициент и, при котором снижаются эксплуатационные расходы [4].

В табл. 2.1 приведены технико-экономические показатели некоторых видов отделки. Из анализа этих данных следует, что несмотря на низкие единовременные затраты на такие отделочные материалы, как цементные, полимерцементные, силикатные краски, они при эксплуатации приобретают значительную стоимость в результате затрат на частые ремонты. Отделочные материалы типа керамической плитки, обладающие высокой начальной стоимостью, не требуют при эксплуатации значительных затрат на ремонт, поэтому полные приведенные затраты у них со временем изменяются незначительно.

Таблица 1.

Технико-экономические показатели различных вариантов индустриальной отделке н 1 м^2 фасада зданий

Варианты отделочных слоев	Стоимость материала, усл. ед.	Единовременные затратыусл. ед.	Уделные капиталовложения, усл. ед.	Затраты труда, чел-дни	Эксплуатационные расходы		Полные приведеные затраты, усл.ед
					Количество ремонтов, за 50 лет	Затраты на ремонт, усл. ед.	
Отделка бетонами и растровами: обычный бетон с формованием на матрицах или прикаткойрелефным валиком	1	1	1	0.01	2	1	1
тоже, цветной бетон	2.3	3.5	8	0.07	2	2	3
Отделка дроблеными материалами: из естественных пород (мрамор, гранит)	0.6	2	3.5	0.06	2	6	1.4
из искусственных материалов (цветной стекло, эрклез)	0.5	1.6	3	0.06	1	6.7	1.2
Отделка плиточными материалами Фасадные крупноразмерные плитки:							
Глазурованные	18.2	15	54	0.18	1	1.2	1
Неглазурованные	6.8	6.6	30	0.10	1	0.8	4.5
Ковровая мелкая керамика: Глазурованная	8.6	8	54	0.11	-	0.9	6
глазурованная цветная	11.4	8	54	0.13	-	1	7
неглазурованная цветная	4	4.6	30	0.08	-	0.8	3.5
Бой керамической плитки (брекчия):							
Глазурованной	6.8	6	3	0.02	1	0.8	3.8
Неглазурованной	3	3.6	3	0.02	1	0.7	2
Стеклянная ковровая плитка	14	12	42	0.15	-	1.2	8
Плитки из природного камня Отделка пастовыми составами и красками:	9-63	8-53	1-3	0.30	-	-	5-29
краски сликатные	0.5	0.4	1	-	3	4	6.6
Цементные	1.4	1.7	1	-	10	1.6	9.5
Перхлорвиниловые	2	2	6	-	5	21	6.8
Эмульсионные	2	1.8	6	-	5	20	6.4
Полимерцементные	1.3	1.6	5	-	5	20	6,4

На территории нашей республике керамика также имела широкое распространение. Значительное количество керамических изделий было обнаружено при раскопках древних поселений в районах нашей области, относящихся к периоду образования [5].

В XVI-XVIII вв. развитие производства керамики в республике интенсифицируется, издается специальный каменный указ, в котором регламентируются требования к ней. В XIX в. Керамическая промышленность в Узбекистане продолжает интенсивно развиваться: строятся крупные заводы в городах нашей республике: Ташкенте, Самарканде, Фергане и Хивы.

Специалистами были разработаны конструкции сендвич панель (рис.2) строительный материал, имеющий трёхслойную структуру, состоящую из двух листов жёсткого материала и слоя утеплителя между ними. Все детали сэндвич-панелей склеиваются между собой с помощью горячего или холодного прессования. В зависимости от назначения выделяются кровельные и стеновые панели.

Кроме этого для туннельных печей и сушилок непрерывного действия, завершено создание научной базы керамической и огнеупорной промышленности, в дальнейшем был создан ряд научно-исследовательских институтов.

Интенсивно развивается керамическая промышленность и в настоящее время. Особое внимание уделяется ускорению разработки и внедрению скоростного обжига керамических изделий, техническому перевооружению производства. Возрастает выпуск керамических цветных облицовочных плиток и крупноразмерных плиток для полов [6].

Рис.2. Сендвич панель.

На заводах строительной керамики создаются новые конвейерные линии повышенной мощности (до 1 млн. м² в год) по изготовлению плиток с полной автоматизацией всего производственного процесса, вплоть до сортировки и упаковки.

Перед работниками промышленности строительных материалов поставлена большая и ответственная задача - увеличить в первую очередь объем производства строительных материалов за счет улучшения использования имеющихся производственных мощностей и технического перевооружения действующих предприятий.

Дальнейшее развитие получит керамическая промышленность республики, имеющей значитель-

ные запасы глинистого сырья. Основное направление ее развития - реконструкция и расширение действующих предприятий, внедрение высокопроизводительного технологического оборудования.

Облицовочная керамика включает материалы для наружной облицовки (лицевой кирпич и облицовочные камни, фасадные плиты и плитки, терракоту), для внутренней облицовки зданий (плиты и плитки), для дорог и полов (клинкер, плиты и плитки) [7].

Изделия, предназначенные для художественной отделки зданий, интерьеров, переходов, относятся к архитектурно-художественной керамике, особенностью которой является большое разнообразие неглазурованных (терракотовых), глазурованных, ангобированных и декорированных изделий сложного профиля и крупных размеров.

Литература:

1. Султанов А.А., Тулаганов А.А., Мелиев О.А. и др. Технология строительных материалов и металлических конструкций. Учебник. Т.: ИПТД. Узбекистан. 2013 г.

2. Самиғов Н.А. Қурилиш материаллари ва буюмлари. Дарслик. Т.: Чўлпон. 2013 г.

3. Бутт Ю.М., Сычев М.М., Тимашев В.В. Химическая технология вяжущих материалов. - М.: Высш.шк., 1980 г. - 472 с.

4. Воробьев В.А. Основы технологии строительных материалов из пластических масс. - М.: Высш.шк., 1978 г. -280 с.

5. Берней И.И. Технология асбестоцементных изделий. –М.: Высш.шк., 1977 г. 230 с.

6. Стюк. Ҳ. Буилдинг материалс анд продустс. Ссиенсе-боок. –Енгланд. Лондон., эАСИ, 2011 й.-124 п.

7. Книгина Г.И., Вершинина Э.Н., Тацки Л.Н. Лабораторные работы по технологии строительной керамики и искусственных пористых заполнителей. М.: Высшая школа, 1985. С. 91–94.

УДК 691.278

KO‘PCHITILGAN VERMIKULIT ASOSIDA OLINGAN YENGIL BETONLAR

Erboyev Shavkat Ochiltoshevich, t.f.f.d., (PhD) dotsent
Axmatov Diyorjon O‘ktam o‘g‘li, magistrant **Yuldasheva Go‘zal Aybek qizi,** magistrant
Muhiddinov Samandar Nosriddin o‘g‘li, iqtidorli talaba **Sharipova Umida Abduvali qizi**, iqtidorli talaba
Jizzax politexnika instituti

Anotatsiya: Ushbu maqolada ko‘pchitilgan vermikulit asosida olingan yengil betonlar, ularning afzalliklar va vermikulit asosida tayyorlangan beton larning turlari ko’rib chiqilgan.
Kalit so’zlar: vermikulit, konsentrat, qurilish, mineral, ko’pchitish, yengil beton, devor panellari, tom qoplamalari, issiqlik izolatsiyasi.

Abstract: This article reviews lightweight concretes based on expanded vermiculite, their advantages and types of concretes based on vermiculite.
Keywords: vermiculite, concentrate, construction, mineral, expansion, lightweight concrete, wall panels, roof coverings, thermal insulation.

Аннотация: В статье рассматриваются лёгкие бетоны на основе вспученного вермикулита, их преимущества и виды бетонов на основе вермикулита.
Ключевые слова: вермикулит, концентрат, строительство, минерал, расширение, лёгкий бетон, стеновые панели, кровельные покрытия, теплоизоляция.

Mamlakatimizda qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, sohaga xorijiy investorlarni keng jalb qilish, sifatli, jahon talablariga to‘la javob beruvchi, arzon mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha respublikada tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Natijada yangi quvvatlar ishga tushirilmoqda, ishlab chiqarish hajmi oshmoqda.

Qurilish bozorida yangi qurilish materiallari va texnologiyalarining paydo bo‘lishi ushbu materiallarni ishlab chiqarishda, ulardan qurilish maydonida foydalanishda va umuman bino va inshootlarga energiya samaradorlik, ekologiyaga oidlik hamda xavfsizlilik nuqtai nazaridan ko‘rsatiluvchi zamonaviy talablar bilan bevosita bog‘liqdir.[1]

Uy-joy binolarini issiqdan himoyalash va uy-joy fondida energiya samaradorlik muammolari bilan dunyoning ko‘pchilik mamlakatlari shug‘ullanmoqdalar. Energiya tejamkorlik va issiqdan himoyalash tadbirlarini amalga oshirish natijasida sanoati rivojlangan mamlakatlarda uy-joy fondida iste’mol qilinadigan energiyaning nisbiy sarfi oxirgi 10 yil ichida 2 va undan ko‘proqqa kamaytirildi. Ushbu masalani echishda eng hal qiluvchi yo‘nalishlardan biri uy-joy binolarining tashqi devorlari va derazalarining issiqlik uzatishga qarshiligini oshirish bo‘ldi. Texnik rivojlangan mamlakatlarda devorlar konstruksiyalarining ko‘pchiligi ko‘p qatlamli qilib tayyorlanadi. Samarali isitgichli ko‘p qatlamli tashqi devorlar yirik panelli devorlarning umumiy hajmida: Norvegiyada - 100%ni, Vengriyada - 95% ni, Finlyandiyada - 94%ni, Ruminiyada -91%ni, Buyukbritaniyada -75%ni tashkil etadi. Shu bilan birga taxminan 2000 yillargacha MDH mamlakatlarida ushbu ko‘rsatkich 5-10%ni tashkil etardi. [2]

Qurilish materiallarining issiqlik o’tkazuvchanligi material tuzilishi, g’ovakligiga to’lgan havo va namlikning issiqlik o’tkazuvchanligi funksiyasidir. Material tuzilishi amorf moddadan iborat bo’lsa, kristall tuzilishdagi materialga nisbatan issiqlik oqimini kam o’tkazadi. Material g’ovakligida namlik yuqori bo’lsa, issiqlik oqimi tezlashadi. Shuning uchun material g’ovakligining quruq havoga to’lishi maqsadga muvofiqdir. Bu holatda quruq havoning issiqlik o’tkazuvchanlik koeffitsienti minimal bo’lib, 0,023

W/(m·^{0}C) tashkil etadi. Material g'ovakligi suvga to'la bo'lsa, issiqlik o'tkazuvchanlik havo bilan to'lganga nisbatan 25 marta yuqori bo'ladi (λ_w=0,58 W/(m·^{0}C). [3,4]

So'nggi yillarda qurilish materiallari sanoatida energiya tejamkorlik, ekologik tozalik va yengillik talablari ortib bormoqda. Shu sababli yengil betonlar ishlab chiqish va ularni takomillashtirish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yengil betonlar issiqlik o'tkazuvchanligi past, zichligi kichik, ammo yetarli mustahkamlikka ega bo'lgan materiallardir. Ular binolarni issiqlik izolyatsiyasi, yong'inga chidamlilik va seysmik barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Yengil beton tayyorlashda asosiy komponent sifatida tabiiy yoki sun'iy ko'pchitilgan to'ldiruvchilar — masalan, perlit, vermikulit, keramzit va boshqalar qo'llaniladi. Shulardan vermikulit alohida o'rin tutadi. U yuqori issiqlik izolyatsion xususiyatga ega, yengil, ekologik toza va yuqori haroratga bardosh bera oluvchi materialdir.

Qurilish materiallari sanoati sohasida vermikulit asosidagi yengil betonlar ishlab chiqarish bo'yicha ishlarni amalga oshirishdan oldin avval vermikulit rudasidan samarali foydalanish bo'yicha aytib o'tsak.

1-rasm. Ko'pchitilgan vermikulit.

Vermikulit mineral xomashyo hisoblanadi. Zichligi 2,4-2,7 (shishirilganda - 0,065-0,130) gramm/santimetr kub. Qizdirilganda shishib (7-15 barobargacha) samarali issiqlik saqlovchi, tovush o'tkazmaydigan materialga aylanish noyob xususiyatiga ega. Shuningdek yonmasligi, chirimasligi, namlikka chidamliligi kabi xususiyatlarining ham mavjudligi sababli qator muqobil qurilish materiallariga nisbatan ustunligi undan qurilish materiallari sanoatida keng foydalanish imkoniyatini yaratadi. [6]

Vermikulit betonning afzalliklari quyidagilar:

- Yengil og'irlik — transport va montaj xarajatlarini kamaytiradi;
- Yuqori issiqlik izolyatsiyasi — sovuq iqlimli hududlarda issiqlik yo'qotilishini kamaytiradi;
- Ekologik tozalik — vermikulit tabiiy, zararli moddalar chiqarmaydi;
- Yong'inga chidamlilik — 1100 °C gacha o'z xossalarini yo'qotmaydi;
- Tovush izolyatsiyasi — g'ovak tuzilma tufayli tovushni yaxshi yutadi;
- Suvga chidamli turlari — gidrofob qo'shimchalar yordamida tayyorlanadi;
- Korroziyaga bardoshli — kimyoviy moddalarga nisbatan barqaror.

Vermikulit asosida tayyorlangan yengil betonlar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- Issiqlik izolyatsion vermikulit betoni – zichligi 300–700 kg/m³, mustahkamligi 0,5–2 MPa. Asosan devor panellari va tom qoplamalarida qo'llaniladi;
- Konstruktiv-issiqlik izolyatsion beton – zichligi 700–1200 kg/m³, mustahkamligi 3–7 MPa. Tashqi devor bloklari, panellar uchun ishlatiladi;
- Konstruktiv vermikulit betoni – zichligi 1200–1600 kg/m³, mustahkamligi 10 MPa gacha. Bu turdagi betonlar yuk ko'taruvchi devor elementlari va yengil monolit konstruksiyalar uchun ishlatiladi. [7,8]

2-rasm. Ko'pchitilgan vermikulit asosida tayyorlangan yengil beton.

Xulosa qilib aytganda ko'pchitilgan vermikulit asosida olingan yengil betonlar qurilish sanoatida istiqbolli, energiya tejamkor, ekologik toza va yong'inga bardoshli material hisoblanadi. Ular yuqori issiqlik izolyatsiyasi, past zichlik va yetarli mustahkamlik xususiyatlariga ega. Bunday betonlardan foydalanish binolarning og'irligini kamaytiradi, issiqlik sarfini pasaytiradi va ekspluatatsiya davrida iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. [10,11]

O'zbekistonda mavjud tabiiy vermikulit konlari negizida bunday materiallar ishlab chiqarish imkoniyatlari keng. Kelajakda mahalliy xomashyolar asosida tayyorlangan vermikulit betonlar respublika qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Axmatov D., Tursunov B. The role of portland cement raw materials in Uzbekistan. Portland cement production technology //Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education. – 2023. – T. 1. – №. 10. –C. 33-36.

2. Axmatov D., Tursunov B. Use of penetron in the production of modern building materials //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. –T. 1. – №. 5. – C. 74-77.

3. Istamov, Y. B., Diyorjon, O., & Tursunov, B. A. O. G. L. (2023). Pardozbop keramik plitkalarni ishlab chiqarish. Science and Education, 4(2), 840-846.

4. Diyorjon O'ktam o'g, Axmatov. "Bazalt tolasi asosida fibrabeton optimal tarkibini tanlash va fizik mexanik xossalarini

5. TAHLILI." Научный Фокус 1.2 (2023): 164-169.

6. Diyorjon O'ktam o'g, Axmatov. "FIBRABETON TARKIBINI TANLASH VA XOSSALARINI O'RGANISH." Новости образования: исследование в XXI веке 1.11 (2023): 627-633.

QURUQ VA ISSIQ IQLIM SHAROITIDA BETONNING HAJMIY KIRISHISH DEFORMATSIYASINI TADQIQOT QILISH

Kuldashev X. - t.f.n., prof., **Kuldasheva A.X.** - prof., v.b., t.f.d., **Maxammato M. v** - katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolada quruq va issiq iqlim sharoitida beton hajmiy kirishish deformatsiyalanishining sodiri bo‘lishi tadqiqot qilingan.

Аннотации: В статье приведены результаты экспериментальных исследований изменение объемных деформаций бетона в условиях сухого и жаркого климата окружающей среды.

Annotation: The paper presents the results of experimental studies of changes in volumetric deformation of concrete in dry and hot environmental climates.

Ma’lumki, markaziy Osiyoning iqlim sharoiti quruq va issiq iqlim toifasiga kiradi. Bunday iqlim sharoitida nisbatan chidamli beton va temirbeton konstruksiyalarni ishlab chiqarishda ma’lum qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Buning asosiy sabablaridan biri quruq va issiq iqlim sharoitida beton qorishmasining qotishi jarayonida undan suvning tez bug‘lanib ketishidir. Ya’ni, yangi quyilgan beton qorishma tarkibidan suvning intensiv bug‘lanishi beton mustaxkamligini pasaytirib qolmasdan, balkim beton va temirbeton konstruksiyalar sirtida kapilliyar yoriqlarning xosil bo‘lishiga olib keladi.

Betonning kesimi bo‘yicha issiqliq va massa ko‘chishining notekis tarqalishi qo‘shimcha ichki zo‘riqishlarni keltirib chiqaradi. Qurish tezligining beton qalinligi bo‘yicha bir xil bo‘lmasligi tashqi qatlamlarning xajmiy kichrayishiga olib keladi. Natijada betonning tashqi sirtida cho‘zuvchi kuchlanishlar paydo bo‘lib, beton tanasida yoriqlar xosil bo‘lishi kuzatiladi. Ayniqsa yo‘l qoplamalari va shu kabi quyma beton qoplamalarda bunday xolat sezilarli sodir bo‘ladi. SHu sababli betonning xajmiy kirishish deformatsiyasini quruq va issiq iqlim sharoitida xisobga olish dolzarb muammolardan biri xisoblanadi.

Quruq va issiq iqlim sharoitida beton ishlarini bajarishga asosan o‘tgan XX asrning 60-70 yillaridan boshlab keng axamiyat berila boshlandi. Shu o‘tgan dvar ichida O‘zbekistonda, Turkmanistonda, Rossiyada va ko‘pgina xorijiy davlatlarda “Quruq va issiq iqlim sharoitida beton texnologiyasi” mavzusida bir qancha ilmiy-amaliy konferensiya va simpoziumlar o‘tkazildi, ko‘plab ilmiy maqolalar chop etildi. Ushbu tadqiqotlarda quruq va issiq iqlim sharoitida xamda past namlikda beton qorishma xusisiyatlarining o‘zgarishi, betonning kirishishi, mustaxkamligi, deformatsiyalanishi va boshqa mexanik xossalari to‘g‘risida turli xil bir biriga qarama-qarshi fikrlar bildirilgan bo‘lsada, ushbu muammo xamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Quruq va issiq iqlim sharoitida betonning xajmiy kirishish deformatsiyasini o‘rganish maqsadida amaliy tadqiqotlar o‘tkazish uchun beton qorishmasi tayyorlandi. Qorishma tayyorlash uchun Navoi sement zavodining M400 markali sementi, fraksiyasi 5-20 mmli chaqiq tosh va kvars qumi ishlatildi. Barcha seriyadagi beton namunalarni tayyorlash uchun beton tarkibi quyidagicha tanlandi (1 m^3 qorishma uchun): sement-370 kg; chaqiq tosh-1100 kg; qum-800 kg (S:Q:Sh=370+800+1100=2270 kg/m^3). Suv-sement nisbati S/S=0,50. Tayyorlangan beton qorishmasidan o‘lchamlari 100x100x100mm; 150x150x150mmli beton kub va 100x100x400mmli beton prizmalar metall qoliplarga titratkich maydonchalarda zichlash usuli bilan quyildi. Qoliplarning ichki qismi (devorlari) beton qorishmasini solishdan oldin moshina moyi bilan yog‘landi (namunalarni qolipdan oson chiqarib olish uchun).

Tajribaviy namunalarning xajmi va tavsiflari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tadqiqot o‘tkazish uchun tayyorlangan beton kub va prizmalarning tavsifi

№	Namuna seriyasi	Namunalar soni va sinov muddati, kun							Umumiy soni	Sinovdan maqsud
		14	28	60	120	240	300	365		
1	K-10	3	3	3	3	3	3	3	21	Betonning mustahkamligi va hajmiy deformatsiyasini aniqlash
2	K-15	3	3	3	3	3	3	3	21	
3	PP-10	3	3	3	3	3	3	3	21	
4	PU-10	3	3	3	3	3	3	3	21	
	Jami								84	

Namunalar qolipdan 3 kundan keyin chiqarib olindi va muxit xarorati 20+5^{0}S, xavoning nisbiy namligi 60-70% bo‘lgan sharoitda saqlandi. PI seriyali prizma-namunalar izolyasiyalandi. Izolyasiyaning tarkibi 1:0,55:0,5 massasi nisbatida mos ravishda parafin:kanifol:bitum kabi moddalardan iborat.

Beton prizma namunalarni tayyorlashda ularga soat tipidagi indikatorlarni o‘rnatish uchun namuna tomonlariga maxsus metall ramkalar o‘rnatildi. Ramkalar orasidagi masofa 200 mm qilib olindi. Tayyorlangan namunalarning mustaxkamlik va deformatsion tavsiflari qirralarining o‘lchamlari 10 va 15 sm li kub va o‘lchami 10x10x40 sm bo‘lgan prizmalarda standart talablariga mos ravishda qisqa muddatli sinov orqali aniqlandi.

Beton prizmalarni sinashdan oldin ularning qarama - qarshi yon tomonlariga baza oralig‘i 50 mm qilib elektrotenzorezistrlar elimlab chiqildi xamda namunadagi bo‘ylama deformatsiyani o‘lchash uchun baza oralig‘i 200 mm, aniqlik o‘lchovi 0,001 mm bo‘lgan soatsimon indikatorlar o‘rnatildi. Ushbu indikatorlar yordamida qo‘shimcha ravishda kuchlarni markaziy uzatilishi xam kuzatib borildi.

Namunalarning siqilishdagi mustaxkamliklari P-125 markali gidravlik pressda sinash orqali aniqlandi.

Betonning xajmiy kirishishini aniqlash PU seriyali prizmalarning to‘rtala tomoniga xam o‘lchov aniqligi 0,001 mm bo‘lgan soat tipidagi indikatorlarni baza oralig‘i 200 mm qilib o‘rnatilishi orqali kuzatib borildi.

Asboblarning ko‘rsatishiga atrof muxitni o‘rab turgan iqlim sharoiti ta’siri natijasida paydo bo‘ladigan xatolik o‘lchovlarni to‘g‘rilash uchun izolyasiyalangan va izolyasiyalanmagan namunalarning deformatsiyalari

etalon sifatida xisobga olib borildi. Etalon namunalardagi asboblar ko‘rsatkichlarini yuklangan namunalarga o‘rnatilgan asboblar qo‘rsatkichlaridan ajratish, sinalayotgan namunalarni faqatgina yuklash ta’sirida sodir bo‘layotgan deformatsiyani aniqlashga imkon beradi. Yuklangan namunalarga o‘rnatilgan asboblarda o‘zgaruvchan yuklash natijasida xosil bo‘lgan o‘zgarishlar yuk qo‘yilgan paytdan boshlab xamda navbatdagi 14 va 28 kun davomida yuklar qo‘yilgan va olingan ayni bir paytda inobatga olib borildi. Doimiy yuklangan namunalardagi o‘zgarishlarni o‘lchash ishlari xaftaning xar kuni va uzlikli yuklangan namunalardagi o‘lchash ishlari esa xar 3-4 kun ichida olib borildi. Ushbu namunalardagi xajmiy kirishish deformatsiyalari 365 kun davomida kuzatib borildi, so‘ngra barcha namunalardan yuklar olinib qisqa muddatli sinovdan o‘tkazildi.

Olingan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, betonning xajmiy kirishish deformatsiyasi uni qotishining birinchi oylarida, ya’ni 90 kungacha nisbatan juda tez o‘sadi. Bunday o‘zgarish qotgan betonlarning mustaxkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, quruq va issiq iqlim sharoitida qotayotgan betondan namning tez bug‘lanib ketishini kamaytirishga intilish bilan birga, betonning qalinligi bo‘yicha namlikning bir tekis ta’minlanishi choralarini ko‘rish zarur. Ya’ni, beton qorishma xarakatchanligini saqlash uchun SDB yoki VRP-1 xildagi plastiklovchi qo‘shimchalar qo‘shish tavsiya etiladi.

QORAQALPOG‘ISTON MAHALLIY XOMASHYOLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA BAZALT TOLALI FIBROBETON QORISHMALARINI ISHLAB CHIQARISH ISTIQBOLLARI

Xodjaeva Zulfiya Shuxratovna; Tanbaev Miyribay Ametbaevich, doktorant
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Bazalt tolali fibrobetonlarni monolit qurilish amaliyotida samarali qo‘llash maqsadida, mazkur beton turlarining keng tarqalgan tarkiblari uchun ratsional va samarali ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada bazalt tolali fibrobeton ishlab chiqarishning samarali texnologiyasini joriy etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot natijalari hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan texnologiyaga muvofiq og‘ir beton tarkibiga bazalt tolalarini kiritish oddiy betonga nisbatan siqilishdagi mustahkamlik chegarasini o‘rtacha 15% ga oshirish imkonini beradi, shuningdek sement sarfini 10 % va undan ortiq miqdorda kamaytirishni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: bazalt tolasi, fibra, beton, beton tarkibi, bazaltfibrobeton, mustahkamlik sinovlari, texnologiya.

Abstract: For the effective application of basalt fiber-reinforced concrete in monolithic construction practice, the development of a rational and efficient production technology for the widely used compositions of this type of concrete is a relevant task. This article presents the results of scientific research aimed at implementing an effective technology for the production of basalt fiber-reinforced concrete, as well as recommendations for its practical application.

The results of the conducted studies indicate that, in accordance with the proposed technology, the introduction of basalt fibers into the composition of heavy concrete makes it possible to increase the compressive strength by an average of 15% compared to conventional concrete, while also reducing cement consumption by 10% or more.

Keywords: basalt fiber, fiber, concrete, concrete composition, basalt fiber-reinforced concrete, strength tests, technology.

Аннотация: В целях эффективного применения базальтоволокнистого фибробетона в практике монолитного строительства актуальной задачей является разработка рациональной и эффективной технологии производства для широко распространённых составов данного вида бетона. В статье представлены результаты научных исследований, направленных на внедрение эффективной технологии производства базальтоволокнистого фибробетона, а также рекомендации по их практическому применению.

Результаты проведённых исследований показывают, что в соответствии с предлагаемой технологией введение базальтовых волокон в состав тяжёлого бетона позволяет повысить предел прочности при сжатии в среднем на 15% по сравнению с обычным бетоном, а также обеспечить снижение расхода цемента на 10% и более.

Ключевые слова: базальтовое волокно, фибра, бетон, состав бетона, базальтофибробетон, испытания прочности, технология.

Kirish

Zamonaviy muhandislik amaliyoti cheklangan elementlar usuli, sonli modellashtirish, kompyuter dasturlariga asoslangan optimallashtirish kabi ilg‘or hisoblash texnologiyalarini keng joriy etishni taqozo etadi. Bunday yondashuvlar yordamida temirbeton plitalarning real ish rejimi, dinamik ta’sirlar, mikro yoriqlar rivojlanishi hamda uzoq muddatli deformatsiyalarni aniq prognozlash mumkin bo‘ladi. Mazkur maqolada aynan avtomobil yo‘llaridagi ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarning temirbeton plitalarini hisoblashning zamonaviy usullarini tizimli o‘rganish, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish hamda loyihalash amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqotning natijalari

nafaqat yangi koʻpriklarni loyihalash, balki mavjud inshootlarni rekonstruksiya qilish va mustahkamlash jarayonlarida ham muhim ahamiyatga ega boʻlib, yoʻltransport infratuzilmasining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Respublikamizda avtomobil yoʻllaridagi koʻprik va yoʻloʻtkazgichlarning temirbeton plitali oraliq qurilmalarini hisoblash usullarini takomillashtirish, zamonaviy materiallar va ilgʻor texnologiyalar asosida samarali konstruktiv yondashuvlarni ishlab chiqish, ularni modellashtirish va amaliyotga joriy etishga keng ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 y. 28 yanvardagi "Yangi Oʻzbekistonni 2022-2026 yillarda rivojlantirish strategiyasi haqida" gi PF-60-son farmonida hayotiy muhim masalalar belgilangan. Bu masalalarni hal qilishda koʻpriklar, yoʻl oʻtkazgichlarni turli yuklanishlar ostida hisoblash usullarini oʻrganish va takomillashtirish, shuningdek zamonaviy vaqtincha harakatlanuvchi transport yuklarini oraliq qurilmalar deformatsiyalanishiga koʻrsatadigan ta'sirini tahlil qilish va hisoblash usullarini takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Avtomobil yoʻllaridagi koʻprik va yoʻloʻtkazgichlarning temirbeton plitalarini hisoblash boʻyicha ilmiy manbalar soʻnggi oʻn yilliklarda kengayib, turli yondashuvlarni oʻz ichiga olmoqda. Jahon va mahalliy tadqiqotchilar ushbu sohada konstruktiv elementlarning yuk koʻtarish qobiliyati, uzoq muddatli mustahkamligi, dinamik ta'sirlar va ekologik sharoitlarni hisobga olishga alohida e'tibor qaratishmoqda.

Avtomobil yoʻllaridagi koʻprik va yoʻloʻtkazgichlarning temirbeton plitali oraliq qurilmalarini hisoblash boʻyicha nazariy va amaliy izlanishlar XX asrning oʻrtalaridan boshlab jadal sur'atda rivojlangan. Ayniqsa, 1950-1970-yillarda bu borada muhim nazariy asoslar ishlab chiqilgan boʻlib, koʻprik konstruksiyalarining hisoblash usullari, statik sxemalari, yuklanish modellari va standart oʻlchamlar asosida modullik va unifikatsiyalash prinsiplari shakllantirilgan.

Dastlabki bosqichlarda temirbeton plitali oraliq qurilmalarning hisoblashlari asosan klassik elastiklik nazariyasiga, oddiy chegaraviy holatlar va chiziqli statik modellarga asoslangan edi. Mazkur yondashuvlar oʻz davri uchun samarali boʻlgan boʻlsa-da, hozirgi kunda avtomobil transportining zichligi va yuklama darajasining ortishi, shuningdek, tabiiy va texnogen omillarning kuchayishi tufayli bu usullar yangilanish va takomillashtirishni talab qilmoqda.

Hisoblash modellarining real ekspluatatsiya sharoitlariga maksimal darajada yaqinlashtirilishi, vaqtinchalik yuklarning harakatlanishiga mos ravishda plitalarda yuzaga keladigan kuchlanish-deformatsiya holatlarini aniq ifodalashi zarur. Shu sababli, koʻpriklar konstruksiyalarini loyihalashda ekstremal yuklar, zilzila ta'siri va avariyaviy holatlarni inobatga oluvchi zamonaviy, ilgʻor hisoblash usullarini ishlab chiqish global miqyosdagi muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Temirbeton plitali oraliq qurilmalar sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar nafaqat konstruksiyaviy ishonchlilikni, balki koʻpriklarning funksional xavfsizligini ham ta'minlashga qaratilgan. Xususan, harakatlanuvchi yuklar ta'sirida konstruksiyaning bitta yoki bir nechta elementlari ishdan chiqqan holatda buzilishlarning oldini olish maqsadida zamonaviy nolinchlik nazariyasi, mustahkamlik chegarasi metodlari, Compressive Membrane Action (CMA), Dynamic Load Allowance (DLA), hamda probabilistik yondashuvlar keng tadbiq etilmoqda.

Bu yoʻnalishda ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida olib borilmoqda. Jumladan: University of California, Berkeley, The Earthquake Engineering Research Institute (AQSh), Technische Universität Dresden (Germaniya), Universidad Politécnica de Madrid (Ispaniya), University of Patras (Gretsiya), Ottawa-Carleton Bridge Research Institute (Kanada), Kyoto University, Seismic Resistance Experiment Center (Yaponiya), National Center for Research on Earthquake Engineering (Xitoy), Rossiya davlat temir yoʻllari universiteti, Peterburg davlat temir yoʻllari universiteti (Rossiya) va Oʻzbekistonda - Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Mexanika va zilzilabardoshlik instituti, Toshkent davlat transport universiteti kabi muassasalarda tegishli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ilmiy maktablar tomonidan temirbeton plitali oraliq qurilmalarning mustahkamligi, deformatsiyalanish xususiyatlari, seysmik barqarorligi va innovatsion materiallar asosidagi konstruktiv yechimlar chuqur oʻrganilmoqda. Bu esa dissertatsiya mavzusining nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Koʻpriklarning temirbeton plitali oraliq konstruksiyalarida yuklanish ta'sirida yuzaga keladigan deformatsiyalanish jarayonlarini hisobga olgan holda, ularni ishonchli hisoblash usullarini ishlab chiqish yoʻnalishida dunyoning bir qator yetakchi olimlari A.E. Aktan, Bruel va Kjaer, G. Chellini, J.T. Dewolf, D.Owen, N. A Lloyd, S.S. Law, X. Liu, Bank, L. S, Chen Y, E.E. Gibshman, A. A. Gvozdev, Y. M. Nemirovskiy, S. A. Dmitriyev, A. A. Dixovichniy, I. V. Grishenko, A. S. Zalesov, V. V. Figarovskiy, L. I. Iosilevskiy, N. I. Karpenko,N. M. Mulin, V. P. Artemyev, I. K. Belobrov, V. M. Bondarenko, A.B. Aleksandrov, A. V. Agarkov, V.Z. Vlasov, K.S. Zavriyev G.K. Yevgrafov,B.N. Jemochkin, V.A.Kiselyev, B.Y. Lashchenikov, Y.D. Livshis, N.Y. Polivanov, K.K. Ponomarev, A.A.Potapkin, P.A. Reznikov, L.A. Rozin, K.S. Silin,A.F. Smirnov, N.K. Snitko, I.A. Trifonov, B.E. Ulitskiy, A.A. Umanskiy,A.P. Filin, N.N. Shaposhnikov, D. M. Shapiro va b. tomonidan katta ilmiy-tadqiqot ishlari asosida amalga oshirilgan.

Respublikamizda avtomobil yoʻllaridagi koʻprik va yoʻl oʻtkazgichlarining konstruktiv ishonchliligini ta'minlash, ularni zamonaviy transport yuklamalari ostida hisoblash hamda loyihalash boʻyicha ilmiy izlanishlar A.A. Ishanxodjayev, SH.S. Yoʻldoshev, R.Q. Mamajonov, A. A. Ashrabov, A.X. Abdujabarov,I. Mirzayev, Ch.S. Raupov, S.S. Salixanov, M.X. Miralimov, U. Raxmanov,U.Z. Shermuxamedov, Sh. B. Axmedov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Birinchi bosqichdagi ilmiy izlanishlar koʻprik inshootlarining klassik elastik nazariyaga asoslangan hisoblash usullarini ishlab chiqishga qaratilgan boʻlib, unda temirbeton plitalarning soddalashtirilgan model

asosida hisoblash prinsiplari keltiriladi. Bu yondashuvlar o‘z davrida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, yuqori intensivlikdagi transport oqimi va zamonaviy qurilish materiallarining xususiyatlarini to‘liq aks ettira olmaydi.

Keyingi bosqichda, cheklangan elementlar usulidan foydalanishga bag‘ishlangan ishlarda temirbeton plitalarning uch o‘lchamli modellarini yaratish, real yuklanish va deformatsion holatlarni aniqlik bilan prognozlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu metodika ko‘prik konstruksiyalarining Charchoq–deformatsiya holatini dinamik sharoitda baholashda yuqori aniqlikni ta’minlashi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

So‘nggi yillarda xorijiy tadqiqotlar [8-12] temirbeton plitalar tarkibidagi yuqori mustahkam armatura, yangi turdagi beton aralashmalari hamda oldindan zo‘riqtirilgan elementlarni qo‘llash orqali konstruktsiyalarning chidamliligini oshirish yo‘llarini keng tahlil qilmoqda. Bundan tashqari, ekologik omillarni (issiqlik, namlik, sovuq-issiq sikllari) hisobga oluvchi ilg‘or kompyuter dasturlari yordamida sonli modellashtirish tajribalari ham amaliy natijalar bermoqda.

Mahalliy mualliflar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda [5-7] O‘zbekiston iqlim sharoiti, transport oqimining o‘ziga xosligi hamda mavjud me’yoriy hujjatlar talablarini inobatga olgan holda ko‘prik plitalarini hisoblashning optimallashtirilgan algoritmlari taklif etilgan. Ushbu ishlar mamlakatimiz avtomobil yo‘llaridagi mavjud inshootlarni rekonstruksiya qilish va ularning xizmat muddatini uzaytirishga xizmat qilmoqda.

Bajarilgan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarida avtomobil yo‘llaridagi ko‘prikli inshootlarning temirbeton plitali oraliq qurilmalari elementlarining, xususan to‘sinlar va plitalarning zamonaviy transport yuklamalari, ayniqsa nogabarit va og‘ir maxsus yuklar ta’sirida yuk taqsimoti va mustahkamlik holatini baholashga doir yetakchi hisoblash usullari chuqur tahlil qilinmagan hamda real ekspluatatsion sharoitlarga mos holda yetarli darajada o‘rganilmagan. Ushbu holat zamonaviy transport tizimi ehtiyojlariga to‘laqonli javob bera oladigan konstruktiv va hisoblash yondashuvlarini ishlab chiqishni zarur etadi. Xususan, harakatlanuvchi og‘ir yuklarning lokal va umumiy ta’sirini inobatga olgan holda, oraliq qurilmalarning kuchlanish holatini aniqlik bilan baholash, ularning mustahkamlik va deformatsiyalanish chegaralarini modellashtirishga qaratilgan ilg‘or metodologiyalarni ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayonida avtomobil yo‘llaridagi ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarning temirbeton plitali oraliq qurilmalarini hisoblashning an’anaviy va zamonaviy usullari qiyosiy o‘rganildi hamda dinamik transport yuklari, harorat tebranishlari va iqlimiy namlikni hisobga olgan batafsil tahlil qilindi.

Temirbeton ko‘prik oraliq qurilmalarining to‘sin va plitalarini hisoblash va konstruksiyalash asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar loyihalashda hisob-kitob vaqtini qisqartirish, ekspluatatsion ishonchlilikni oshirish va xizmat muddati davomida texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Yuklarni aniqlashda oraliq qurilmaga tushayotgan doimiy yuk uzunligi 18 metrga teng bo‘lgan plitalar, trotuarlar, panjara to‘siqlari va yo‘l qoplamasining o‘z og‘irliklari yig‘indisidan iborat.



1-rasm. Plitali oraliq qurilmaning ko‘ndalang kesimi

Plitaning 1 metri hususiy og‘irligi (temirbeton hajmiy og‘irligi γ_v=2,5 t/m^3 va bo‘ylama choklar betonini hisobga olganda)

$$\left(1\cdot 0,75-2\cdot 0,325\cdot 0,3-2\frac{3,14\cdot\left(0,325\cdot 0,325\right)}{4}\right)*$$

$$*2,5\cdot 10=9,72\kappa H/м$$

Bunda to‘rtburchak plita ko‘ndalang kesimining to‘la yuzasidan uning 2 teshigi yuzasi olib tashlangan (2 - rasm).



2 - rasm. Plitalarning ko‘ndalang kesimi (o‘lchovlar sm larda)

Oraliq qurilmaning kengligi bo‘yicha 14 dona plita bo‘lsa, uning uzunligining har 1 metriga 9,72 · 14 = 136,08 kN/m to‘g‘ri keladi.

Har birining kengligi 1,5 metr bo‘lgan ikki trotuarning va panjara to‘siqning og‘irligini tipovoy loyihadan olamiz va ushbu og‘irlik 2 · 15 = 30 kN/m ga teng.

Oraliq qurilmaning butun kengligi bo‘yicha konstruksiyaning umumiy hususiy og‘irligi 136,08 + 30 = 166,08 kN/m ga teng.

Yo‘l qoplamasining qabul qilingan konstruksiyasi 2 - rasmda ko‘rsatilgan (ko‘prikning ko‘ndalang qiyaligi rigel qiyaligi hisobiga ta’minlanadi).

Oraliq qurilma to‘la kengligidagi yo‘l qoplamasining og‘irligi:

- qatnov qismi va havfsizlik polosalaridagi asfaltobeton og‘irligi

$$0,07\cdot 11,5\cdot 2,3\cdot 10=18,51\ \text{kN/m};$$



3-rasm. Yo‘l qoplamasining konstruksiyasi
a - harakat polotnosi chegarasida; b - trotuarlarda; 1-asfaltobeton δ=7 sm; γ = 2,3 t/m3; 2 -asfaltobeton δ=4 sm; γ = 2,3 t/m3; 3 - armaturalangan betondan himoya qatlami δ=4 sm; γ = 2,5 t/m3; 4 - gidroizolyasiya δ=1 sm; γ = 1,5 t/m3; 5 - sementli suvoq δ=3 sm; γ = 2,1 t/m3; 6 - oraliq qurilmaning temirbeton plitasi; 7 - trotuar blokining plitasi.

- trotuarlardagi asfaltobeton og‘irligi

$$0,04 \cdot 1,5 \cdot 2 \cdot 2,3 \cdot 10 = 2,76 \text{ kN/m};$$

- qatnov polotnosi va trotuarlardagi qoplamaning birgalikdagi og‘irligi

$$18,51 + 2,76 = 21,27 \text{ kN/m};$$

- armaturalangan betondan to‘shalgan himoya qatlamining og‘irligi

$$0,04 \cdot 11,5 \cdot 2,5 \cdot 10 = 11,5 \text{ kN/m};$$

- gidroizolyasiyaning og‘irligi

$$0,01 \cdot 11,5 \cdot 1,5 \cdot 10 = 1,73 \text{ kN/m};$$

- sementli suvoqning og‘irligi

$$0,03 \cdot 11,5 \cdot 2,1 \cdot 10 = 7,25 \text{ kN/m};$$

- himoya va tekislovchi qatlamlarning birgalikdagi og‘irligi

$$11,5 + 1,73 + 7,25 = 20,48 \text{ kN/m}.$$

Barcha yukni plitalar orasida teng taqsimlab bir plitaga tushayotgan yukni topamiz:

konstruksiyalarning hususiy og‘irligidan tushayotgan yuk

$$g_1 = \frac{166,11}{14} = 11,86 кН / м$$

qatnov polotnosi va trotuarlar og‘irligidan tushayotgan yuk

$$g_2 = \frac{21,27}{14} = 1,52 кН / м$$

tekislovchi, izolyasion va himoyalovchi qatlamlar og‘irligidan tushayotgan yuk

$$g_3 = \frac{20,48}{14} = 1,46 кН / м$$

Doimiy yukni uch qismga, ya’ni g_1, g_2 va g_3 ga bo‘lishning sababi - ularning har biri uchun ishonchlilik koeffitsientlarining turlicha ekanligidir.

II - texnik toifali avtomobil yo‘lida joylashgan ko‘prikning oraliq qurilmasiga ta’sir etayotgan vaqtinchalik yuk sifatida avtotransport vositalari A-14 ni, trotuarlardagi piyodalar to‘dasini va og‘ir transport birligi NK-100 ni qabul qilamiz.

Vaqtinchalik yukning oraliq qurilma plitalari o‘rtasida taqsimlanishi. Markazdan tashqari siqish uslubi**.** Ushbu uslubda hammasidan ko‘ra eng ko‘p yuklangan plita oraliq qurilmaning eng chetki plitasi hisoblanadi. Bu plitaga tushayotgan bosimning ta’sir chizig‘i eng chetki plitalar ostidagi ordinatalar qiymatlari bo‘yicha quriladi.

$$\eta = \frac{1}{n} \pm \frac{a_1^2}{2\sum a_i^2},$$

bu yerda: n - ko‘prikning ko‘ndalang kesimidagi plitalar soni; n= 14;

a_i - ko‘prik o‘qiga nisbatan simmetrik joylashgan plitalarning og‘irlik markazlari orasidagi masofalar: a_1 = 13 metr; a_2 = 11 metr; a_3 = 9 metr; a_4 = 7 metr; a_5 = 5 metr; a_6 = 3 metr; a_7 = 1 metr;

$$\Sigma a_i^2 = 13^2 + 11^2 + 9^2 + 7^2 + 5^2 + 3^2 + 1^2 = 455$$

Ko‘ndalang kesimning chap tomonidagi eng chetki plitaga tushayotgan bosim ta’sir chiziqlarining ordinatalari (5 - rasm)

$$\eta = \frac{1}{14} \pm \frac{13^2}{2 \cdot 455} = 0,257,$$

$$\eta = \frac{1}{14} \pm \frac{13^2}{2 \cdot 455} = -0,114,$$

Ko‘ndalang qo‘yish koeffitsientlarini yuklarning har bir turi uchun alohida-alohida bosim ta’sir chiziqlarining transport birliklari yoki polosalari og‘irlik markazlari ostidagi ordinatalari yig‘indisi, piyodalar to‘dasi uchun esa uning teng ta’sir etuvchisi ostidagi ordinatasi kabi aniqlaymiz. Ta’sir chiziqlari yuklanganida vaqtinchalik yuklar qatnov gabaritini va avtomobillarni joylashtirish qoidalariga amal qilgan holda hisoblanayotgan elementga nisbatan eng noqulay vaziyatda o‘rnatiladi. Oraliq qurilmada qabul qilingan gabarit G-11,5 ikki harakat polosasi bo‘lishini taqazo etadi. Shuning uchun bizning holatda A - 14 yuk polosalarining hisobiy soni ikkitani tashkil etadi.



5- rasm. Oraliq qurilmani yuklash variantlari va markazdan tashqari siqish uslubi bo‘yicha. 1- plitaga tushayotgan bosimning ta’sir chizig‘i (o‘lchamlar metrlarda)

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ilmiy adabiyotlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, avtomobil yo‘llaridagi ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarning temirbeton plitali oraliq qurilmalarini hisoblash bo‘yicha tadqiqotlar global miqyosda hamon dolzarbdir. Zamonaviy transport oqimining yuqori intensivligi, og‘ir maxsus yuklar, zilzila xavfi va ekologik omillar mavjud sharoitda an’anaviy elastik nazariyaga asoslangan yondashuvlar to‘liq talablarga javob bera olmaydi. Shu bois, konstruktsiyalarning real ekspluatatsion holatini to‘liq aks ettiruvchi, ekstremal yuklamalar, seysmik ta’sir hamda avariyaviy holatlarni hisobga oluvchi ilg‘or hisoblash usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy masala hisoblanadi.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlari, tadqiqot institutlari va universitetlarida olib borilayotgan keng qamrovli izlanishlar, shuningdek O‘zbekiston olimlarining ish tajribalari ko‘prik plitalarining mustahkamligi, deformatsion xususiyatlari va seysmik barqarorligini oshirish bo‘yicha samarali yechimlarni taklif etmoqda. Cheklangan elementlar usulidan (FEM) keng foydalanish, zamonaviy nolinchlik nazariyasi, probabilistik yondashuvlar, Compressive Membrane Action (CMA) hamda Dynamic Load Allowance (DLA) metodlarini joriy etish bu sohada yuqori aniqlikni ta’minlash imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, temirbeton plitalarda yuzaga keladigan kuchlanish-deformatsiya holatini aniq modellashtirish, yuk taqsimoti va mahalliy iqlim sharoitlarini

hisobga oluvchi takomillashtirilgan algoritmlar ishlab chiqilishi O‘zbekiston avtomobil yo‘llaridagi mavjud ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarni samarali rekonstruksiya qilish va ularning xizmat muddatini uzaytirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday ilg‘or metodikalarni amaliy loyihalash jarayoniga tatbiq etish nafaqat konstruktsiyalarning konstruksiyaviy ishonchliligini, balki ularning funksional xavfsizligini ham ta’minlab, transport infratuzilmasining barqaror rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi“Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5647-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi“O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-144-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 oktyabrdagi“Avtomobil yo‘llari ko‘priklarini, yo‘l o‘tkazgichlar va boshqa sun’iy inshootlarni qurish hamda foydalanishni tashkil etish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3309-son Qarori.

4. Шермухамедов У.З., Каримова А.Б. Современные подходы проектирования и строительства мостов и путепроводов в Республике Узбекистан // "Science and innovation" international scientific journal. Volume 1 Issue 8, UIF-2022: 8.2. https://doi.org/10.5281/zenodo.7422524.

5. Х. Байбулатов, Ж. Гайидов, М. Бердибаев. Результаты диагностики мостовых сооружений, подлежащих ремонтновосстановительным работам, на дорогах общего пользования Ферганской области. Узбекский журнал «Проблемы механики». Ташкент, 2019. №1. С.71–74.

6. Овчинников И.Г., Щербаков А.Г., Бочкарев А.В., Наумова Г.А. Прикладная механика дорожных одежд на мостовых сооружениях. Волгоград. Научное издание. ВолгГАСУ, 2006. 310 с.

7. С.Б. Анализ напряженно-деформированного состояния многослойной балки при поперечном изгибе // Механики XXI веку. 2019. № 18. С.291-296.

8. Junlong Yang, Jizhong Wang, Ziru Wang. Rectangular high-strength concrete columns confined with carbon fiber-reinforced polymer (CFRP) under eccentric compression loading // Construction and Building Materials. Vol. 193, 30 December 2018. P.1409-1421. 2.

9. Расчеты балок. https://saitinpro.ru/glavnaya/raschety/raschety-km kg/raschet-balok-na-moment-i-progib/.

10. Н. М. Быкова и др. Развитие методики оценки грузоподъемности мостов с использованием мобильных автоматизированных систем мониторинга. Russian journal of transport engineering. SSN 2413-9807. 2015, Vol 2, № 4.

UO‘K 624.154+624.131

TOG‘LI SHAROITLARDAGI AVTOMOBIL YO‘LLARIDA KO‘CHKILARNING SODIR BO‘LISHINI PROGNOZLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedov Sherzod Baxodirovich - kafedrasi dosenti
Mirzaolimov Ilhom Yusufjonovich - tayanch doktoranti
Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tog‘li hududlarda joylashgan avtomobil yo‘llarida, xususan, Qamchiq dovonida ko‘chkilarning sodir bo‘lishini prognozlash usullarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqildi. Mavjud muammolar tahlil qilinib, modellar va raqamli monitoring texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil etildi. Tadqiqotda algoritm, regressiya modellar va texnologiyalar yordamida xavf zonalari aniqlangan hamda monitoring tizimi ishlab chiqildi. Olingan natijalar asosida xavf zonalarining geoxaritasi, model samaradorligi va xavf darajalariga ko‘ra prognozlash sxemasi ishlab chiqilgan. Tadqiqot yakunida amaliy tavsiyalar va ilg‘or texnologiyalar asosidagi prognozlash yondashuvlari taklif etildi.

Kalit so‘zlar: tog‘li hudud, ko‘chki, algoritm, monitoring, prognoz, avtomobil yo‘li, sxema.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования методов прогнозирования возникновения оползней на автомобильных дорогах, расположенных в горных районах, в частности, на перевале Камчик. Проанализированы существующие проблемы и возможности использования моделей и технологий цифрового мониторинга. В ходе исследования с помощью алгоритмов, регрессионных моделей и технологий были определены зоны риска и разработана система мониторинга. На основе полученных результатов разработаны геокарта зон риска, схема прогнозирования с учетом эффективности модели и уровней риска. В заключение исследования были предложены практические рекомендации и подходы к прогнозированию на основе передовых технологий.

Ключевые слова: горная регион, оползень, алгоритм, мониторинг, прогноз, автомобильная дорога, схема.

Annotation. This article discusses the issues of improving methods for predicting the occurrence of landslides on highways located in mountainous areas, in particular, on the Kamchik pass. The existing problems and possibilities of using digital monitoring models and technologies are analyzed. During the research, risk zones were identified using algorithms, regression models and technologies and a monitoring system was developed. Based on the results obtained, a geocard of risk zones and a forecasting scheme have been developed, taking into account the effectiveness of the model and risk levels. At the end of the study, practical recommendations and approaches to forecasting based on advanced technologies were proposed.

Keywords: mountain region, landslide, algorithm, monitoring, forecast, highway, scheme.

KIRISH. Tog‘li hududlarda joylashgan avtomobil yo‘llari infratuzilmasi tabiiy omillarga, xususan, kuchli yog‘ingarchilik, seysmik faollik, yer silkinishlari va inson omillariga nisbatan sezuvchan hisoblanadi. Ayniqsa, bunday xavfli hududlardan biri bo‘lgan Qamchiq dovonida ko‘chki hodisalari tez-tez kuzatiladi. Bu holat transport harakati xavfsizligiga, iqtisodiy zararlarga va ba’zida inson talofotlariga olib keladi.

So‘nggi yillarda ushbu dovonda yuzaga kelayotgan ko‘chki xavfini erta aniqlash va monitoring qilishga oid chora-tadbirlar ko‘rilayotgan bo‘lsada, mavjud prognozlash usullari yetarlicha aniqlikka ega emas. Shu sababli maqolada Qamchiq dovonida ko‘chkilarning sodir

bo‘lishini prognozlash usullarini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

TADQIQOT USULLARI

Mazkur tadqiqotda tog‘li hududlardagi avtomobil yo‘llarida ko‘chki xavfini baholash va prognozlash tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-tadqiqot usullari qo‘llanildi:

1. Geoma’lumotlarni yig‘ish va GIS-tahlil. Ko‘chki xavfini baholashda relyef, geologik tuzilma, iqlim holati va inson omillari (yo‘l qurilishi, gidrotexnika inshootlari) kabi omillar e’tiborga olinadi. Qamchiq dovoni hududidagi mavjud geoma’lumotlar (balandlik xaritalari, geologik kesimlar, yog‘in miqdori va yer osti suvlari holati) ArcGIS dasturi orqali raqamlashtiriladi va qatlamlar sifatida tahlil qilinadi.

2. Statistik va matematik modellash. Ko‘chki holatlarining tarixiy ma’lumotlari asosida statistik tahlil olib boriladi. Bu ma’lumotlar asosida ko‘chki ehtimolini aniqlashda logistik regressiya, AHP, shuningdek, ko‘p omilli teskari regressiya usullaridan foydalaniladi.

3. Uzoq muddatli monitoring va masofaviy zondlash. Hududdagi aktiv ko‘chki maydonlari ustida masofaviy zondlash texnologiyalari, xususan Landsat va Sentinel sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida NDVI va deformatsiya xaritalari yaratiladi. Bu usullar yordamida tog‘ yonbag‘irlaridagi harakatlanish dinamikasi o‘rganildi.

4. Yer usti kuzatuvlari va dala tadqiqotlari. Qamchiq dovonidagi xavfli uchastkalarda dala kuzatuvlari olib boriladi. Shuningdek, geofizik usullar (elektromagnit razvedka va seysmik zondlash) orqali yer qatlamlarining holati aniqlanadi. Tuproq namunalari laboratoriyada granulometrik tarkibi, namlik sig‘imi va zichligi bo‘yicha tekshiriladi.

5. Tajribaviy model yaratish. O‘rganilgan omillar asosida ko‘chki xavfini prognozlovchi GIS asosidagi tavsiyaviy model ishlab chiqiladi. Model real ko‘chki voqealari bilan solishtirilib sinovdan o‘tkaziladi, natijalar asosida aniqlik baholanadi.

Hisoblash. Ko‘chki ehtimolini baholash formulasi (statistik model asosida):

$$P_k = f^*(H + \theta + W + \rho + \varphi + S)$$

bu yerda:

- P_k – ko‘chki yuz berish ehtimoli (%)
- H – tog‘ yonbag‘rining balandligi (m)
- θ – yonbag‘ir qiyaligi (gradus)
- W – tuproqdagi namlik miqdori (%)
- ρ – tuproq zichligi (g/cm³)
- φ – tuproqning ichki ishqalanish burchagi (gradus)
- S – qiyalikdagi o‘simliklar qoplamasi (koeffitsiyent, 0 dan 1 gacha)

2. Amaliy misol (Qamchiq dovoni):

- H = 320 m
- θ = 35°
- W = 28%
- ρ = 1.8 g/cm³
- φ = 30°
- S = 0.4

$$P_k = (H \times \tan(\theta) \times W \times \rho) / (\varphi \times (1 + S))$$

$$P_k = (320 \times \tan(35°) \times 28 \times 1.8) / (30 \times (1 + 0.4)) \approx 72.5\%$$

Qamchiq dovonining ushbu segmentida ko‘chki yuz berish ehtimoli 72.5%, ya’ni yuqori xavfli zona hisoblanadi.

NATIJA va TAHLIL

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatadi:

1. Ko‘chki xavfini aniqlash xaritasi:

- 5 ta xavf zonasi aniqlanadi (pastdan favqulodda xavfgacha).

2. Model samaradorligi:

- Random Forest: 92% aniqlik
- Regressiya: 85% aniqlik

3. Monitoring tizimi:

- Sensorlar 15 daqiqada yangilanadigan ko‘rsatkichlarni uzatadi.
- Web-portal orqali real vaqt rejimida monitoring olib boriladi.

1. Ko‘chki xavfi zonalari grafigi:



2. Model aniqliklari grafigi:



3. Sensor monitoringi aniqligi grafigi:



Olingan natijalar Qamchiq dovonida ko‘chki xavfi yuqoriligini ko‘rsatmoqda. An’anaviy prognozlash

usullaridan farqli o‘laroq, raqamli texnologiyalar asosida xavfni aniqlash ancha samarali bo‘ladi.

Taklif etilgan tizimlar yordamida oldindan ogohlantirish, favqulodda holatlarga tayyor turish va yo‘l infratuzilmasini himoya qilish imkoniyatlari kengayadi.

XULOSA

Tog‘li hududlardagi avtomobil yo‘llarida ko‘chki hodisalari yo‘l infratuzilmasiga jiddiy xavf tug‘diradi va inson hayoti hamda iqtisodiy faoliyat uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Ushbu maqolada Qamchiq dovoni misolida ko‘chkilarning sodir bo‘lishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar tizimli tarzda o‘rganilib, zamonaviy geoaxborot texnologiyalari, statistik modellashtirish va masofaviy zondlash usullari asosida prognozlash yondashuvlari ishlab chiqiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘chkilarning paydo bo‘lishida relefning tikligi, tuproq turlari, yog‘ingarchilik miqdori va insoniy omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. GIS asosidagi prognozlash modeli real voqealar bilan taqqoslab sinovdan o‘tkazilsa va yuqori darajada aniqlik ko‘rsatadi. Bu esa mazkur uslubni kelgusida amaliyotga joriy etish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida yo‘l loyihalash va ekspluatatsiyasi jarayonida ko‘chki xavfini oldindan aniqlash, xavfli hududlarni belgilash hamda profilaktik chora-tadbirlarni shakllantirish bo‘yicha muhim tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, prognozlash usullarini doimiy ravishda yangilab borish va monitoring tizimini avtomatlashtirish zarurati ta’kidlaniladi.

Adabiyotlar:

1. Toshpo‘latov A.A., Sodiqov O.S. Geotexnika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018. – 250 b.
2. Rahmatov Sh.R., To‘xtasinov B.M. Tog‘ muhitida avtomobil yo‘llarini loyihalashning geologik asoslari. – Toshkent: O‘rta Osiyo texnika universiteti, 2020. – 198 b.
3. Alekseev V.M., Solovyev V.N. Zonal’noye modelirovaniye opolznevoy opasnosti // Geoinformatika, 2019, №3. – S. 22–29.
4. Highland L.M., Bobrowsky P.T. The Landslide Handbook – A Guide to Understanding Landslides. – U.S. Geological Survey Circular 1325, Reston, Virginia, 2008. – 129 p.
5. Guzzetti F., Reichenbach P., Cardinali M., Galli M., Ardizzone F. Probabilistic landslide hazard assessment at the basin scale // Geomorphology, Vol. 72, 2005. – P. 272–299.
6. Wang G., Sassa K. Landslide susceptibility analysis using GIS and weight-of-evidence model // Engineering Geology, 2005, Vol. 83. – P. 376–386.
7. Zezere J.L., Garcia R.A.C., Oliveira S.C., Reis E. Probabilistic landslide risk analysis considering direct costs in the area north of Lisbon (Portugal) // Georisk: Assessment and Management of Risk for Engineered Systems and Geohazards, 2008, Vol. 2(4). – P. 206–222.
8. Petley D.N. Global patterns of loss of life from landslides // Geology, 2012, Vol. 40(10). – P. 927–930.
9. NASA Earth Data. Landslide Hazard Assessment for Situational Awareness (LHASA) – https://earthdata.nasa.gov
10. FAO/UNESCO. Soil Map of the World. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2017. – https://www.fao.org/soils-portal

SHAHAR INTELLEKTUAL YO‘LOVCHI TRANSPORTI HARAKATINI TASHKILLASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI

Beknazarov Murod Boynazarovich, katta o`qituvchi,
Xaydarov Shoxbozjon Zuhriddin o`g`li, katta o`qituvchi,
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya: Maqolada shahar intellektual yo‘lovchi transporti tizimini tashkil etishning asosiy jihatlari yoritilgan. Shahar infratuzilmasi, transport aloqalari va demografik omillar tahlil qilinib, intellektual transport tizimining tarkibiy qismlari hamda ularning samaradorlikka ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar misolida transport boshqaruvining zamonaviy texnologiyalar asosidagi yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Intellektual transport tizimi, yo‘lovchi tashish, shahar infratuzilmasi, transport aloqalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, SCATS, BLISS, ekologik barqarorlik, smart city, transport boshqaruvi, ITT.

Аннотация: В статье освещены основные аспекты организации интеллектуальной системы пассажирского транспорта города. Проанализированы городская инфраструктура, транспортные связи и демографические факторы, а также рассмотрены составные элементы интеллектуальной транспортной системы и их влияние на эффективность перевозок. Кроме того, на примере международного опыта исследованы современные технологические решения в управлении городским транспортом.

Ключевые слова: Интеллектуальная транспортная система, пассажирские перевозки, городская инфраструктура, транспортные связи, информационно-коммуникационные технологии, искусственный интеллект, SCATS, BLISS, экологическая устойчивость, умный город, управление транспортом, ИТС.

Abstract: The article highlights the main aspects of organizing an intelligent urban passenger transport system. Urban infrastructure, transport connections, and demographic factors are analyzed, while the components of the intelligent transport system and their impact on transport efficiency are examined. In addition, modern technology-based solutions for urban transport management are discussed through international case studies.

Keywords: Intelligent transport system, passenger transportation, urban infrastructure, transport connections, information and communication technologies, artificial intelligence, SCATS, BLISS, environmental sustainability, smart city, transport management, ITS.

KIRISH. Shaharlarda aholi va turizm harakati doimiy o‘sishda davom etmoqda. Bu esa transport tizimlari oldida yangi talablar yaratadi: yo‘lovchilar tez, qulay, ekologik xavfsiz va ishonchli yo‘l bilan harakat qilmoqchi. Shu o‘rinda intellektual yo‘lovchi transporti (smart public transport / Intelligent Passenger Transport

System, IPTS yoki ITS - Intelligent Transportation Systems) konsepsiyasi muhim yondashuvlardan biridir.

Intellektual transport tizimi - bu transport vositalari, infratuzilma va boshqaruvni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirgan tizim bo‘lib, transport oqimini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va yo‘lovchilar ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan.

Quyida mazkur tizimni barpo etish, xususiyatlari va muammolariga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.[1]

1. Intellektual yo‘lovchi transport tizimining asosiy komponentlari

Intelligent transport tizimini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun quyidagi komponentlar muhim rol o‘ynaydi:

1 - jadval

Komponent	Tavsifi
Sensorlar va terminal qurilmalar	GPS, luyqa datchiklar (inductive loops), kameralari, lidar, IoT datchiklar yo‘llar, avtobuslar, bekatlar va yo‘l bo‘ylari infratuzilmasida joylashtiriladi.
Kommunikatsiya va aloqa tarmoqlari	4G/5G, wireless mesh, optik tolali tarmoqlar orqali sensorlardan ma’lumotlar markazga uzatiladi.
Markaziy boshqaruv va analitik platforma	Katta ma’lumotlar (Big Data), ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash modellari va boshqaruv algoritmlari ishlaydi.
Real vaqtli ma’lumot va interaktiv xizmatlar	Foydalanuvchilarga avtobus qachon keladi, yo‘l ishlari, kechikishlar - bularni mobil ilovalar, elektron displeylar orqali yetkazish.
Boshqaruv vositalari va avtomatlashtirilgan tizimlar	Trafik signallari integratsiyasi, avtobus yo‘llariga ustuvorlik berish (bus priority), yo‘l harakati monitoringi va boshqaruvi.
Elektron to‘lov va tarif tizimlari	Smart-kartalar, QR-kod, mobil to‘lovlar, tarif integratsiyasi (Bir bilet bilan ko‘p vosita).

Har bir komponent shahar transporti tizimining “inson – vosita – infratuzilma – ma’lumot” uzviy bog‘lanishi asosida ishlaydi.[2]

1 – rasm Intellektual transport tizimlari

2. Loyihalash va rejalashtirish xususiyatlari

Shahar intellektual yo‘lovchi transportini rejalashtirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish zarur:

2.1 Hududiy tuzilma va transport aloqalari

• Turar joy massivlari va funksional zonalar: Aholi zich joylashgan hududlar, tijorat markazlari, ofis hududlari, sanoat tumanlari va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalar tahlil qilinadi. Yo‘lovchilar asosan qaysi yo‘nalishlardan harakat qiladi, ular qaysi bekatlardan kiradi, qaysi nuqtalarda almashtirishlar bor - bular aniqlanadi.

• Transport to‘qnashuvi va integratsiyasi: Avtobus, tramvay, metro va boshqa yo‘nalishlar o‘rtasida samarali integratsiya (transfer punktlari) tashkil etiladi.

• Avtoyo‘l tarmog‘i va yo‘l bo‘ylari sig‘imi: Yo‘l kengligi, yon yo‘llar, piyodalar va velosiped yo‘laklari, transport vositalarining maksimal oqimi hisobga olinadi.

• Ustuvorlik tarmoqlari va yo‘nalish optimizatsiyasi: Masalan, avtobus yo‘llariga ustuvorlik berish (bus lanes) yoki signal muvofiqlashtirish orqali avtobuslarimiz tez harakatlanishi mumkin. SCATS kabi tizimlar trafik signallarini moslab boshqaradi.

2.2 Tabiiy va geodemografik omillar

• Rel’ef va iqlim: Yuksak qism, qor va yog‘ingarchilik, sovuq sharoitlar transport vositalari va yo‘l infratuzilmasiga ta’sir qiladi.

• Kenglik va shahar chegaralari: Shahar kengayishi, yangi massivlar, markazlashmagan tuzilmalar transport tarmog‘iga yuk beradi.

• Aholi zichligi va demografik o‘zgarishlar: Yoshi, ishga qatnash vaqti, migratsiya tendensiyalari - yo‘lovchi oqimlarining vaqtiy o‘zgarishini belgilaydi.

• Ijtimoiy-iqtisodiy faktlar: Daromad darajasi, transportga sarflash qobiliyati, avtomobilga egalik darajasi, transport siyosati va subsidiyalar.

2.3 Modellashtirish va prognozlash

• Yo‘lovchi oqimi modellari: Transport oqimlarini prognozlash, talabni bashoratlash (peak va off-peak vaqtlar).

• Marshrut optimizatsiyasi: Qaysi yo‘nalishlar kesikli yoki ekspress bo‘lishi, bekat joylashuvi va masofa ustida tahlil.

• Simulyatsiya vositalari: O‘zaro bog‘langan model tizimlari (SUMO, VISSIM, MATSim va boshqalar) yordamida turli stsenariylarni sinovdan o‘tkazish.

• Davriy monitoring va kalibrlash: Tizim ishlayotganda yig‘ilgan ma’lumotlar asosida parametrlar yangilanadi, model real holatga moslanadi.[2]

3. Amaliy xususiyatlar va misollar

Quyida jahon shaharlaridan ba’zi misollar va ularning tajribalari:

3.1 SCATS – trafik signal boshqaruvi SCATS (Sydney Coordinated Adaptive Traffic System) - dunyo bo‘ylab 180 dan ortiq shaharlarida qo‘llaniladi. Trafik signallarini real vaqtda adaptiv tarzda boshqaradi, avtobus va tramvaylarga ustuvorlik berish funksiyasiga ega.

3.2 Brisbane - BLISS tizimi Brisbaneda BLISS (Brisbane Linked Intersection Signal System) tizimi ishlatilgan. Bu tizim trafik signal boshqaruvi, avtobus axboroti va yo‘l monitoringi komponentlarini birlashtirgan platforma bo‘lishi bilan ajralib turadi.

3.3 Real vaqtda yo‘lovchi axborot tizimi Hindistonda avtobuslar GPS orqali holatini markazga yuboradi, markaziy server Arrival Time (ETA) ni prognoz qiladi va bekatlardagi displeylar va mobil ilovalar orqali yo‘lovchilarga yetkazadi.

3.4 Ma’lumotlardan foydalanish, prognoz va dinamik xizmatlar Singapurda BuSCOPE platformasi yo‘lovchilarning odatiy harakatlarini va kollektiv oqimlarni birlashtirib, “last-mile demand” va favqulodda voqealarni predictiv tarzda aniqlaydi.

3.5 Sun’iy intellekt va mashinani o‘rganish Yo‘lovchi uchun avtobus kelish vaqtini prognozlashda

XGBoost kabi modellar qo‘llanilgan. Masalan, Turakuru shahrida shunday model yaratilib, klassik va shahar bo‘ylab bo‘linishlar asosida prognoz yaxshi natija ko‘rsatgan.

Shuningdek, AI va Machine Learning texnologiyalari: xizmat samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yo‘lovchi tajribasini yaxshilash imkonini beradi.[3]

4. Intellektual transport tizimining xususiyatlari va afzalliklari

4.1. Tezkor va samarali boshqaruv Transport vositalarini va trafik signal tizimini real vaqtda boshqarish, noaniq holatlarga javob berish, kechikishlarni kamaytirish va yo‘l harakati oqimini optimallashtirish.

4.2. Resurslarni optimallashtirish Yo‘lovchilarning talabiga mos transport vositalarini yo‘naltirish, bo‘sh yurishlarni kamaytirish, yoqilg‘i va energiya sarfini qisqartirish.

4.3. Yo‘lovchi tajribasini yaxshilash Mobil ilovalarda real vaqtda axborot, kelish vaqti prognozi, bekatlarda displeylar, signalizatsiyalar orqali qulaylik.

4.4. Ekologik ustunlik Shoshilish va tormozlanish holatlari kamayadi, yoqilg‘i sarfi va chiqindilar kamayadi — natijada havo ifloslanishi pasayadi.

4.5. Integratsiya va kengayish imkoniyatlari Avtobus, tramvay, metro, velosiped va piyoda marshrutlarini integratsiya qilish; MaaS (Mobility as a Service) konsepsiyasi orqali “bir platformadan hamma turdagi transport” xizmatlarini taqdim etish.

4.6. Barqarorlik va moslashuvchanlik Kelajakdagi talab o‘zgarishlariga mos ravishda tizimni kengaytirish va yangilash mumkin.[3]



2 – rasm Intellektual transport tarmoqlari

5. Muammolar va cheklovlar

Har qanday ilg‘or tizim kabi, intellektual transport tizimlarida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

1. Boshqa ma’lumot manbalari va tarmoqlar bilan integratsiya qiyinchiliklari - turli bo‘limlar, transport kompaniyalari va ma’lumot tizimlari orasida standartlar yo‘qligi.

2. Katta investitsiya talab - sensorlar, kommunikatsiya infratuzilmasi, analitik platformalar va texnologiyalar katta xarajat talab qiladi.

3. Kiberxavfsizlik va maxfiylik - yo‘lovchilarning ma’lumotlari, xavfsizlik va ma’lumotlarning suiiste’moli masalalari muhimdir.

4. Texnik xizmat va barqaror operatsiya - tizimning doimiy ishlashi va texnik nosozliklarni tezda bartaraf etish zarurati.

5. Axborot texnologiyalari bo‘yicha malakali kadr yetishmasligi - analitik, data scientists va transport tizimi loyihalashtiruvchilar zarur bo‘ladi.

6. Madaniy va ijtimoiy to‘sqinliklar - odamlarning odatlari, texnologiyaga ishonchsizlik, so‘rovga nisbatan passivlik.

7. Muvofiqlik va standartlar yo‘qligi - turli davlatcha, kompaniya va tizimlar orasida uyg‘unlik yo‘qligi.[4]

6. Tavsiyalar va istiqbollar

1. Pilot loyihalardan boshlash - kichik hudud yoki yo‘nalishda sistemani sinab ko‘rish va amaliy tajriba orttirish.

2. Bosqichma-bosqich kengaytirish - bosqichma-bosqich komponentlar qo‘shib, tizimni kengaytirish va moslashuvchanlikni oshirish.

3. Ochiq ma’lumot siyosati va integratsiya - ma’lumot almashinuvi va turli bo‘limlar orasidagi hamkorlikni ta’minlash.

4. Xavfsizlik va foydalanuvchi maxfiyligi - ma’lumotlarni shifrlash, foydalanuvchi konsenti, xavfsizlik testlari.

5. Jamoatchilik va foydalanuvchilarni jalb qilish - ma’lumotlarni ochiq platformalarda taqdim etish, feedback mexanizmlarini yaratish.

6. Texnologik yangiliklar va adaptatsiya - AI, IoT, edge computing, 5G kabi yangi texnologiyalardan foydalanish.

7. Monitoring, baholash va kalibrlash - tizim ishlashini doimiy nazorat qilish va kerak bo‘lsa o‘zgartirish.

Xulosa

Shaharlar intellektual yo‘lovchi transportini tashkil etish zamonaviy shaharsozlik, axborot texnologiyalari va transport injiniringini uyg‘unlashtirishni talab etadi. Real vaqtda ma’lumotlar, prognoz modellari, sensor infratuzilmasi va integratsiyalangan xizmatlar orqali shaharda harakatlanish tezroq, barqaror va ekologik bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, moliyalashtirish, xavfsizlik, malaka va madaniy jihatlar ham jiddiy e’tiborni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. - *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami*, 2020-yil.

2. Olimov A., Tursunov D. *Shahar transport tizimlarini tashkil etish va boshqarish.* - Toshkent: TTYMI nashriyoti, 2022.

3. European Commission. *Intelligent Transport Systems (ITS) for Smart Mobility in Cities.* - Brussels: European Union Publications, 2021.

4. Establıshment of the central areas of resıdentıal houses ın the populatıon puks senior teacher Beknazarov Murod Boynazarovich, students A`zamov J.G`., Boynazarov M.M. SamDAQU.

5. Rakhimov, A., Rakhimov, L., Khaydarov, S., Beknazarov, M., Achildiyev, R., & Madiev, F. (2024, November). Experimental studies of the pile-in-pipe seismic isolation system with disconnecting connections. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.

6. Khaydarov, S., Madiev, F., Achildiyev, R., & Beknazarov, M. (2024, November). Settlement planning pro-

ject. Types of population centers and their development factors. Ways of planning and development of settlements. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.

УДК 699.841

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA XAVFLI YUKLARNI TASHISHDA JAHON TAJRIBASI

Abdazimov Shavkat Xakimovich. d.t.n. (DSc), professor v.b.
Nurmamatov Sherali Ruyiddinovich, mustaqil tadqiqotchi
Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada dasht hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan va noqulay oqibatlarga olib keladigan ma’naviy va moddiy zararga olib keladigan xavflar to’g’risidagi masala ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, xalq xo‘jaligi ob’ektlari va aholi uylari, shuningdek, odamlar hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, transport yo‘llari va boshqa xalq xo‘jaligi obyektlari.

Kalit so‘zlar: Tabiiy favqulodda vaziyatlar, qor ko‘chkisi, sel, suv toshqini, yo‘l, ob’ektlar, qoidalar, xavf, xavf, zarar,. Kvantifikatsiya Xavfli yuklarni Yevropa ittifoqi temir yo‘l transportida

Yevropa transport komissiyasi va OTIF tomonidan yukning xususiyati va yangi tarbikga a’zo bo‘lgan davlatlar imkoniyatlariga qarab tashish shartlari va qoidalariga har ikki yilda o‘zgartirish kiritiladigan asosiy hujjat Reguliations conserning the International Carriage of Dangerous Goods by Rail (RID)- Temir yo‘l orqali xavfli yuklarni xalqaro tashishga oid asosiy qoida va talablarni belgilovchi huquqiy hujjatga asosan olib boriladi. Shuningdek COTIF (Convention concerning International Carriage by Rail) – hujjati mavjud bo‘lib Yevropa COTIF ga a’zo davlatlar hududida temir yo‘l transportida xavfli yuklarni tashish tartibini belgilaydi. Bundan Xalqaro temir yo‘l orqali tashish bo‘yicha hukumatlararo tashkilot OTIF- (Intergovernmental Organisation for International Carriage by rail) – mavjud bo‘lib o‘z vakolati doirasida COTIF- konvensiyasini boshqaradidan va temir yo‘l transpoti xalqaro tashish qoidalarini ishlab chiqadigan asosiy xalqaro tashkilot sanaladi. Bugungi kunda OTIF ga asosan Yevropa Afrika va Osiyo mamalakatlari azo bo‘lib ularning soni yil sayin ortib bormoqda. Ushbu huquqiy hujjatga oxirgi marotaba 2025- yil 1- yanvar holatiga o‘zining mohiyati va tuzilishiga ko‘ra o‘zgartirish kiritilgan. Bundan tashqari Yevropa ittifoqi davlatlarida Single European Railway Area (SERA)

Quyida 2014- yil holatiga OSJD, COTIF, COTIF+OSJD va COTIF asosatsiyasi azo davlatlar xaritasi keltirilgan.



Ushbu hujjatga asosan har bir RID tarkibiga kiruvchi davlat tashish davomida xavfsizlikni saqlash va boshqa ijtimoiy iqtisodiy geografik sabablarga ko‘ra o‘z hududida xavfli yuklarni xalqaro tashishni tartibga solish yoki taqiqlash huquqini saqlab qoladi. Masalan xavfli yuklarni PIGGYBACK transporti orqali tashish ishlarida cheklovlar amal qiladi. Biroq Germaniya Avstriya kabi davlatlarda RID va ADR ga rioya qilgan ayrim turdagi xavfli yuklar tegishli ruxsatnomaga, shuningdek amalda belgilangan markirovka talablariga rioya qilgan holda tashiladi.

Biroq 1- toifaga kiruvchi portlash xususiyatiga ega bo‘lgan xavfli yuklar, 4.1.- toifaga oid oson alangalanuvchi qattiq moddalar, 5.2.- toifaga kiruvchi organik peroksidlarni RID qoidalariga asosan tashishga ruxsat berilmaydi. Bugungi kunga kelib Federal temir yo‘l boshqarmasi tomonida e’lon qilingan ma’lumotlarga asosan Yevropa ittifoqida tashiladigan yuk hajmini 20% miqdori ayrim Yevropa davlatlari avtomobil transpotidagi xavfli yuklarni tashishdagi cheklovlarni inobatga olmagan holda xavfli yuklar xissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek hozirda 60 % ga yaqin miqdorida butun Yevropa ittifoqi temir yo‘llari elektrlashtirilgan bo‘lib atmosferaga transportdan chiqadigan transportni zararini kamaytirish va yuk yo‘lovchilar tashishda xavfsizlikni yangi bosqichga olib chiqish belgilab olingan.

Shuningdek bugungi kunda Yevropa ittifoqi davlatlarida onlayn tarzda novigatsiya tizimlari orqali xavfli yuk ortilgan vagonlar joyini aniqlash tizimini joriy etish va boshqa xavfli yuklarni nazorat qilish tizimini amaliyotga joriy etilmoqda. Bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

* xavfli yuk ortilgan vagonlarni Yevropa ittifoqi va boshqa davlatlar miqyosida nazotini onlayn kuzatish imkoniyatini yaratishni yo‘lga qo‘yish;

* Lokalizatsiya tizimini joriy etish;

* Navigatsiya GNSS boshqa kosmik aktivlar va yoki yer usti sensorlari bilan birgalikda ishlatilishi mumkin kabi dasturlarni qo‘llab-quvvatlash:

* Poezdlar, yo‘l transport vositalari va piyodalarni joylashtirish va lokalizatsiya qilish ishlari;

* Poezdlar yaqinlashganda ogohlantirish tizimlarini o‘tish joylarida faollashtirish;

* Yo‘l transport vositalari uchun avtomobil ichidagi ogohlantirishlar, ular o‘tish joylari perezdlarga yaqinlashganda;

* Aktivlarni konditsionerlash monitoring.

Bu esa Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlarda xavfli yuklarni tashish hajmi yil sayin ortib borishidan dalolat beradi. Quyidagi diagrammada birgina rasmda Litva respublikasi temir yo‘l transport tarmog‘i tomonidan tashilgan xavfli yuklarning ko‘rsatkichi keltirilgan. Diagrammadan shuni ko‘rish mumkinki 2013-2017-yillarda mobaynida Litvada Respublikasida 3- toifasiga kiruvchi yonuvchan suyuqliklar ko‘p miqdorda tashilgani aniq bo‘ladi.



Figure 1. Quantities of dangerous goods transported by railway according to hazard classes from 2013 to 2017 (thousand tons) in Lithuania [39].

Yevropaning xavfli tovarlarga kompleks yondashuv hujjatlari

Xususiyati	RID (temir yo‘l)	ADR (yo‘l)	ADN (suv yo‘llari)
Uchun amal qiladi	Temir yo‘l transporti	Avtomobil transporti	Ichki suv transporti
Tomonidan nazorat qilinadi	OTIF	UNECE	UNECE / OTIF
Asosiy talablar	Tasniflash, qadoqlash, o‘qitish	Tasniflash, qadoqlash, o‘qitish	Tasniflash, qadoqlash, o‘qitish
Rejimlar bo‘yicha uyg’unlashtirilgan	Ha	Ha	Ha
Misol mamlakatlar	Frantsiya, Germaniya, Polsha, Italiya	Barcha EI + boshqalar	Reyn, Tuna, asosiy, va hokazo.

Xavfli yuklarni tashish muayyan tarzda ortishi bilan tashish jarayonida alohida tartiblarni joriy etish talab etiladi. Birgina 2013- yil 6-iyulda Kanadada neft maxsulotlari ortilgan vagonlar bilan yuz bergan holat natijasida 47 kishi halok bo‘lgan bahtsiz hodisa yuz bergan joydan jami bo‘lib 2 000 ga yaqin aholi havfsiz hududga ko‘chirilgan. Ushbu favqulodda holat natijasida taxminan 6 million litrga yaqin neft hom ashyosi portlash natijasida yo‘q bo‘lib ketgan. Atmosferaga esa bir necha turdagi xavfli tosik moddalar chiqib ketgan. Bugungi kunga kelib Kanada davlati hukumati ushbu yuz bergan holatni oqibatlarini bartarf etish maqsadida davlat byudjetidan doimiy tarzda mablag‘ ajratib kelmoqda. Quyida yuz bergan portlash va uning bartaraf etish rasmlari keltirilgan.[tsb.gc.ca] 1

Bugungi kunga kelib xavfli yuklarni tashish turli davlatlarda turlicha bolib bu turdagi yuklarni tashishda ekalogik xavfsizlikka rioya qilish dolzarb sanaladi. Xavfli turdagi yuklarni tashishda ekologik tartibga rioya qilgan holda tashishda asosan Yaponiya davlati yetakchi o‘rin egallaydi bu davlatda xavfli yuklarni tashish ishlarida yuz berishi mumkin bo‘lgan xavfga tayyor turish bilan bir qatorda xavfli yuk tashuvchi mijozlarni o‘qitish ularni malakasini oshirib borish shuningdek ta’lim va idoralararo amaliy mashg‘ulotlar olib borish tartiblari joriy etilgan.

Shuningdek ushbu davlatda rasmiy tadbirlarda ayrim turdagi xavfli yuklarni tashishga cheklovlar joriy etish tartibi ham mavjud bo‘lib bu cheklovlar ekologik tozalikni ta’minlashga qaratilgan. Bugungi kunda Yaponiya temir yo‘llarida xavfli yuklarni asosan maxsus sertifikat tizimidan o‘tgan vagon sisternalarda hamda 12 futlik maxsus ichki yuk konteyner sisternalarda tashiladi. Bu turdagi tashish jarayoniga qabul qilingan xavfli yuklar maxsus sertifikatga ega bo‘lganda shuningdek qadoqlari mustahkam yopilgan tegishli tashish belgilari qo‘yilganidan so‘ng tashish ishlariga ruxsat beriladi. Shuningdek 3 toifa yuklari (yonuvchan suyuqliklar), 8 toifa yuklari (zanglovchi moddalar) cheklangan miqdorda maxsus belgilari bo‘lgandagina 12 futlik konteynerlarda tashishga ruxsat etiladi.

Bugungi kunga kelib Osiyo davlatlari orasida o‘zining iqtisodiy o‘sishini yuqoriligi bilan ajralib turuvchi Xitoy davlati xavfli yuklarni tashish jarayonida ham yetakchi hisoblanadi. Xususan birgina 2022- yilning o‘zida ushbu davlatda xavfli turdagi yuklarni tashish hajmi 180 000 ming tonnani tashkil etib Osiyo davlatlari ichida yetakchilik qilmoqda. Bu holat esa iqtisodi yuqori suratlarda o‘suvchi ushbu davlatda temir yo‘l transportida yuk tashishni samarali tizimi suv, yo‘llar, temir yo‘llar, havo va quvurlarni o‘z ichiga olgan ko‘p tarmoqli transport tarmoqlari mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Ushbu davlatda xavfli yuklarni xavfsiz tashish keng qamrovli boshqaruvga asoslangan bo‘lib. Bu turdagi tashish ishlarida har bir temir yo‘l bo‘linmasi tegishli qonun idoraviy qoidalar va belgilangan standartlarga

rioya qilgan holda tashish tadbirlarini amalga oshiradilar. Bu turdagi yuklarni tashish ishlari har bir davlat ichida o‘ziga xos xususiyatga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan Xitoy davlatida bu turdagi yuklarni tashish ishlari uchun Mintaqaviy temir yo‘l nazorati va boshqaruvi byurolari tashkil etilgan bo‘lib ular o‘z vakolati doirasida temir yo‘l transportida xavfli yuklarni tashish xavfsizligini nazorat qilish va boshqarish uchun javobgar sanaladi. Shuningdek ushbu davlatda Xavfli yuklar qonunlar idoraviy qoidalar va tegishli standartlar talablariga mos keladigan yuk turidan kelib chiqib ushbu mahsulotlarni qayta ishlash shartlariga ega bo‘lgan stantsiyalar yoki maxsus ajratilgan shaxobcha temir yo‘llarda amalga oshiriladi. Ushbu davlatda yangi turdagi nomlari keltirilgan xavfli yuklarni tashish yuk jo‘natuvchi va yuk qabul qilib oluchi va transport tashkiloti ishtirokida uch marta tashish shartnomasini tuzishdan oldin dastlabki sinov sifatida amalga oshiriladi. Bunda sinov o‘tkaziladigan yo‘nalish tegishli mahalliy temir yo‘l korhonalari bilan kelishib xavfli yuklarni tashishning tegishli qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Tajriba sinov ishlari ijobiy o‘tganidan keyin yuk jo‘natuvchi tomonidan xavfli yukni nomi qaysi toifaga kirishi hamda tashish uchun taqdim etilgan yukni temir yo‘l xavfli yuklarining nomlari ro‘yxatiga muvofiq ekanligini belgilaydi. Shuningdek tashish uchun taqdim etilgan xavfli yuklarning tashish hujjatlarini 24 oydan kam bo‘lmagan muddatga Zarar yetkazmagan holda to‘g‘ri saqlashlari talab etiladi.

Xususan radioaktiv materiallarni tashishda yuk jo‘natuvchi tomon yuk jo‘natayotganda temir yo‘l transporti korxonasiga yadroviy hamda radiatsion avariya holatlari yuz berganida favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish bo‘yicha yo‘riqnoma, yuklash va tushirish tartib-qoidalari, xavfsizlikni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomani taqdim etishi belgilab qo‘yilgan. Temir yo‘l transporti korxonasi tashish uchun taqdim etilgan yuk hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirishi va saqlashi shart. Yuk jo‘natuvchi tomonidan to‘liq bo‘lmagan tashish hujjatlarni taqdim etgan taqdirda, ushbu yukning tashib berishni temir yo‘l transporti korxonasi tashishni o‘z zimmasiga olmasligi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek yuk jo‘natuvchi Tomon tashish davomiyligi va xavfsizligini ta’minlashga ma’sulligi va tashish paytida favqulodda holat yuz bersa uni samarali bartaraf etish uchun radiatsiyaviy himoya va xavfsizlik choralarini qo‘llashi kerakligi va tashish paytida yadro va radiatsiya xavfsizligi uchun javobgar ekanligi keltirib o‘tilgan. Shuningdek xavfli turdagi yuklarni saqlash uchun belgilangan uchastkalarda omborlar tashkil qilingan bo‘lib bu omborlar maxsus tegishli kurslarda taxsil olgan xodimlar tomonidan boshqariladi.

Xavfli yuklarni temir yo‘l harakatchan tarkibiga (yoki konteynerlarga) yuklashda notekis yuklanishi yoki yuk tashish vagonlarini yuk ko‘tarish meyyoridan ortiqcha vazn bo‘lmasligi talab etiladi. Bundan tashqari kimyoviy tuzilishiga ko‘ra tarkibi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan, turli xil yong‘inga qarshi usullarni talab qiladigan yoki ifloslanishga moyil bo‘lgan yuklar bitta temir yo‘l poezdiga yoki konteynerga yuklamasligi va boshqa turdagi yuklar bilan qo‘shib tashish ishlari olib borilmaydi.

Transport bo‘linmalarida xavfli yuklarni tashish bilan shug‘ullanuvchi xodimlari muntazam tarzda huquqiy ta’lim va ish bilan bog‘liq texnik tayyorgarlik shuningdek tashish tadbirlarida favqulodda holatlarda yuzaga kelganda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha imtihondan o‘tganidan so‘ng lavozimga tayinlanadilar.

Shuningdek xavfli yuklarni tashish bo‘yicha ish olib boruvchi hodimlar o‘z lavozimlarida xavfsiz ishlash ko‘nikmalarini egallashlari, xavfsizlikni taminlash yuzasidan o‘zlarining huquq va majburiyatlarini bilishlari, tashishga taqdim etilgan xavfli yuklarning xavfli xususiyatlarini, ularni tashish vositalaridan foydalanishga qo‘yiladigan talablarni tushunishlari, favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda va ularni bartaraf etish usullarini bilishlari talab etiladi. Transport bo‘linmalari xavfli yuklarni tashish paytida sodir bo'lishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarning xususiyatlari va xavf-xatarlaridan kelib chiqqan holda temir yo‘l transportida sodir bo‘lgan avariyalarni bartaraf etish rejalarini tuzadilar va tegishli bo‘linmalarning rejalari bilan muvofiqlashtiradilar. Bu rejalar Xitoy xalq respublikasi milliy qoidalarga muvofiq ko‘rib chiqilishi, namoyish etilishi va e’lon qilinishi talab etiladi. Favqulodda xavfli yuklar bilan yuz bergan avariya qutqaruv mashg‘ulotlari har olti oyda bir marta tashkil etiladi.

Agarda temir yo‘l transporti korxonasi xavfli yuklarni tashishda belgilangan qoidalarni buzsa va quyidagi xatti-harakatlardan birini sodir etsa, mahalliy temir yo‘l nazorati va boshqaruvi byurosi belgilangan muddatda tuzatishlar kiritishni buyuradi va 10 000 yuandan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solishi mumkin. Ya’ni belgilangan muddatda tuzatishlar kiritmasa, u kamida 10 000 yuan lekin 30 000 yuandan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarimaga tortiladi:

- xavfli yuklarni tezyurar temir yo‘llarda, shaharlararo temir yo‘llarda va boshqa yo‘lovchilarga mo‘ljallangan yo‘nalishlarda yoki yo‘lovchi poezdlarida qoidalarni buzgan holda tashish;

- xavfli yuklarni qayta ishlash stantsiyasining nomini, ish joyini, ishlov berilgan yukning nomini, temir yo‘l xavfli raqamini, jo‘natish tartibini va boshqa ma’lumotlarni qoidalarga muvofiq e’lon qilmaslik yoki mahalliy temir yo‘l nazorati va boshqaruvi byurosiga xabar bermaslik;

- yangi nomlar, yangi qadoqlash yoki o‘ram o‘zgartirilgan va xavfsiz tashish shartlari hali aniqlanmagan xavfli yuklarni qoidalarga muvofiq sinovdan o‘tkazishni tashkil qilmasdan yoki mahalliy temir yo‘l nazorati va boshqaruvi byurosiga sinov rejasini bildirmasdan tashish;

- qoidalarga muvofiq yo‘lda to‘xtagan xavfli yuklar uchun xavfsizlik choralarini ko‘rmaslik;

- yuk jo‘natuvchiga tegishli konsignatsiya choralari to‘g‘risida xabar bermaslik yoki onlayn qabul qilish sahifasida, biznes binolarida yoki transport hujjatlarida noqonuniy yuk jo‘natish uchun qonuniy javobgarlikni aniq ko‘satmaslik;

- xavfli yuklarning tashish hajmi, ishlov berish stantsiyalari, inshootlari va jihozlari, xavfsizlik va boshqa ma’lumotlarni mahalliy mintaqaviy temir yo‘l nazorati va boshqaruvi byurosiga qoidalarga muvofiq xabar qilmaslik. [2]

Agar yuk jo‘natuvchi xavfli yuklarni Qoidalarni

buzgan holda olib o‘tgan bo‘lsa va quyidagi harakatlardan birini sodir etsa, mahalliy temir yo‘l nazorati va boshqaruvi hududiy byurosi yuk jo‘natuvchiga belgilangan muddatlarda tuzatishlar kiritishni buyuradi va 10 000 yuandan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solishi mumkin. Ya’ni agar yuk jo‘natuvchi belgilangan muddatda tuzatishlar kiritmasa yoki vaziyat jiddiy bo‘lsa, kamida 10 000 yuan, lekin 30 000 yuandan ko‘p bo'lmagan miqdorda jarima solinadi:

- xavfli yuklar tegishli turdagi xavfli yuklarni tashish uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo‘lmagan stantsiyalarga, ajratilgan temir yo‘llarga yoki temir yo‘l liniyalariga etkazib beriladi;

- tovarlarning xavfli xususiyatlarini, ingibitorlar yoki stabilizatorlarni qo‘shish kabi maxsus choralarni ko‘rish holatlarini va xavfli vaziyat yuzaga kelganda favqulodda choralar ko‘rish holatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko'rsatmasdan xavfli yuklarni jo‘natish yoki zarur bo‘lganda tegishli sertifikatlash materiallarini taqdim etmaslik yoki noto‘g‘ri sertifikatlash materiallarini taqdim etish;

- xavfli yuklarning toifasini, ob’ektini, nomini yoki xavfli moddaning raqamini aniq aniqlamaslik;

- Eskort xodimlari hamrohlik qilayotgan yuklarni va ularning yuklanishi va ta’minlanishi holatini tekshirmasalar yoki eskort ta’minoti va vositalaridan foydalanish tartib-qoidalariga muvofiq foydalanmasalar yoki favqulodda vaziyatlarda ishonchli choralar ko‘rmasalar va temir yo‘l transporti korxonasiga sayohat paytida noodatiy holat aniqlanganda o‘z vaqtida xabar bermasalar.

BMTning xavflilik klassi	Misollar	Asosiy Xavflar
1-Sinf: Portlovchi Moddalar	O‘q - dorilar, otashinlar	Portlash, yong‘in
2-Sinf: Gazlar	Propan, kislorod, xlor	Portlash, asfiksiya
3-Sinf: Yonuvchan Suyuqliklar	Benzin, etanol, aseton	Yong’in, bug’ chiqishi
4-Sinf: Yonuvchan Qattiq Moddalar	Gugurt, magniy	Olov, o‘z-o‘zidan yonish
5-Sinf: Oksidlovchilar	Ammiakli selitra	Yonishni kuchaytiradi
6-Sinf: Toksiklar, Yuqumli	Pestitsidlar, tibbiy chiqindilar	Zaharlanish, infektsiya
7-Sinf: Radioaktivlar	Tibbiy izotoplar, yadro yoqilg’isi	Radiatsiya ta’siri
8-Sinf: Korrozivlar	Sulfat kislota, natriy gidroksid	Kimyoviy kuyishlar, uskunaning shikastlanishi
9-Sinf: Turli Xil	Lityum batareyalar, asbest	Ekologik yoki sog’liq uchun xavf

Shuningdek bevosita xavfli yuklarni tashish bilan shug‘ullanuvchi temir yo‘l nazorati bo‘limi xodimlari o‘z vakolatlarini suiste’mol qilsalar, hamda o‘z vazifalariga beparvolik bilan qarasalar yoki temir yo‘llarda xavfli yuklarni tashishni nazorat qilishda o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab harakat qilsalar, ularga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chora ko‘rilishi va bajargan ish turiga qarab javobgarlikka tortilishi keltirib o‘tilgan.

Shuningdek Birlashgan Millatlar tashkilotining xavfli yuklarni tashishda tasniflash tizimi mavjud bo‘lib xavfli yuklarni qadoqlash markirovka belgilarini qo‘yish va hujjatlashtirish bo‘yicha bir qancha ko‘rsatmalar keltirib o‘tiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bugungi kunda dunyo davlatlari temir yo‘l transportida xavfli yuklarni xususiyatiga qarab tashish tadbirlarida bahtsiz xodisalarni oldini olish ularni sonini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar muntazam olib borilmoqda. Shuningdek ushbu turdagi yuklarni tashish ishlarida yuk jo‘natuvchi va yuk qabul qiluvchini ma’sulligini oshirish kabi kompleks choralar majmui ham ishlab chiqilgan. Shuningdek dunyo davlatlari tajribasida xavfli yuklarni tashishda yangi texnologiyalarni qo‘llash samarali sanaladi. Xavfli yuklarni tashish tashish ishlari dunyo tajribasi bilan solishtirganda bu turdagi yuklarni tashish ishlari O‘zbekiston temir yo‘llari “AJ” da yetarli darajada o‘rganilmaganligini tashish ishlari dunyo davlatlaridagi kabi to‘laqonli amalga oshirilmaganligini holatini ko‘rish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Xavfli yuklarni temir yo‘l orqali tashish xavfsizligini nazorat qilish va boshqarish to‘g‘risidagi Nizom. (Xitoy xalq Respublikasi Transport vazirining 2024-yildagi 2022-sonli buyrug’i. xxgk.mot.gov.cn

2. Kanada davlati temir yo‘llari tergov xisoboti tsb.gc.ca

3. European Agreements Governing the Regulations Concerning the International Transport of Dangerous Goods by Rail (RID). Available online: http://otif.org/en/?page_id=1105 (accessedon 20 April 2019).

4. Zheng, C.L.; Jin, C.Q.; Zhang, X.; Meng, W.; Zhang, B.D. Research of items safe hidden trouble in express transportation process. Pop. Sci. Technol. 2012, 14, 163–177.

5. Xuan, L.; Wei, D.Y.; Shi, Y. A brief analysis of security risks in transportation of logistics enterprises. Chin. Mark. 2015, 41, 68–74.

6. Xiao, H.; Cheng, X.; Zou, C. The risk analysis and evaluation of urban underground logistics system development based on the grey analytic hierarchy process. Open Mech. Eng. J. 2014, 8, 354–357. [CrossRef].

7. Batarliene, N. Risk analysis and assessment for transportation of dangerous freight. Transport 2008, 23, 98–103. [CrossRef]

8. Šolc, M.; Hovanec, M. The importance of dangerous goods transport by rail. Važnost željeznic kog prijevoza opasnih tereta. Naše More 2015, 62, 181–186. [CrossRef] 9. Drzewiencka, B.; Nowak, M. Safety aspect in carriage of dangerous goods by railway transport. New Trends Prod. Eng. 2018, 1, 35–41. [CrossRef].

BITUM BOG‘LOVCHISI VA ASFALTBETON QORISHMASINING XOSSALARINI YAXSHILOVCHI QO‘SHIMCHALAR

Tovboyev Baxrom Xabibullaevich, Toshkent Davlat Transport universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada modifikatsiyalovchi qo‘shimchalar, sirt faol moddalar, plastifikatorlarning ta’riflari keltirilgan, hamda bitum va asfaltbeton qorishmasiga modifikatsiyalovchi qo‘shimchalarni, shuningdek, ushbu materiallarning alohida

xususiyat ko‘rsatkichlarini yaxshilaydigan qo‘shimchalar tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: asfaltbeton qorishmasi, bitumli bog‘lovchi, sirt faol moddalar, modifikatsiya, aktivatorlar.

Аннотация. В статье приведены характеристики модифицирующих добавок, поверхностно-активных веществ, пластификаторов, а также проанализированы модифицирующие добавки к битумной и асфальтобетонной смеси, а также добавки, улучшающие индивидуальные свойства этих материалов.
Ключевые слова: асфальтобетонная смесь, битумное вяжущее, поверхностно-активные вещества, модификация, активаторы.

Abstract. The article presents the characteristics of modifying additives, surfactants, plasticizers, and analyzes modifying additives to bitumen and asphalt concrete mixtures, as well as additives that improve the individual properties of these materials.
Keywords: asphalt concrete mixture, bitumen binder, surfactants, modification, activators.

Zamonaviy avtomobil yo‘llari qoplamalari og‘ir yuk avtomobillari ulushining ortishi, harakat jadalligining ko‘payishi va iqlimiy omillarning keskinlashuvi sharoitida ekspluatatsiya qilinmoqda. Ayniqsa, yuqori haroratli hududlarda asfaltbeton qoplamalarda koleya hosil bo‘lishi, plastik deformatsiya, yorilish va namlik ta’sirida buzilish holatlari keng kuzatilmoqda. Bu muammolar asfaltbeton materiallarining tarkibiy qismlari, birinchi navbatda bitum bog‘lovchisining xossalari bilan bevosita bog‘liq.

Asfaltbeton qoplamalarning xizmat muddatini oshirish uchun bitum va asfaltbeton xossalarini maqsadli ravishda o‘zgartirish imkonini beruvchi qo‘shimchalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq qo‘shimchalarning turli-tumanligi ularni ilmiy asosda tizimlashtirish va qo‘llash strategiyasini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Asfaltbeton qorishmasi sifatini bir qator yo‘llar bilan yaxshilash mumkin: bitum va asfaltbeton qorishmasini tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish, shuningdek, tayyor bog‘lovchi yoki qorishma tarkibiga turli qo‘shimchalar qo‘shish orqali.

Hozirgi kunda bitumga yoki bevosita asfaltbeton qorishmasiga turli qo‘shimchalar qo‘shish orqali uning sifatini yaxshilash usuli eng ko‘p qo‘llanilayotgan va talab yuqori bo‘lgan texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Taklif etilayotgan qo‘shimchalarning ta’siri asosan ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchi yo‘nalish asfaltbetonga avval mavjud bo‘lmagan yangi xususiyatlarni berish, ya’ni materialning mutlaqo yangi turini yaratish; ikkinchi yo‘nalish muayyan ekspluatasion ko‘rsatkichlar qiymatini oshirish, ya’ni mavjud ayrim xususiyatlarni yaxshilash. Hozirgi paytda ushbu vazifalarni bajarish uchun turli tarkib va ta’sirga ega bo‘lgan juda ko‘p sonli qo‘shimchalar ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llanilmoqda.

Shu tariqa, bitum va asfaltbeton tarkibiga qo‘shiladigan qo‘shimchalarni shartli ravishda ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

- alohida sifatlarni yaxshilaydigan (faollashtiruvchilar va sirt faol moddalar - SFM);
- mahsulotning yangi turini olish uchun qo‘shimchalar (modifikatorlar) (1-rasm).

Bitum bog‘lovchisining alohida xossalarini yaxshilovchi moddalar yoki kimyoviy birikmalar SFM ga, asfaltbeton qorishmasining mineral qismi xossalarini yaxshilovchi moddalar esa aktivatorlarga (A) kiradi.



1-rasm. Bitumli bog‘lovchi va asfaltbeton ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun qo‘shimchalar

Ushbu ta’riflarga muvofiq, materialning yangi xususiyatlarini olish yoki uning xususiyatlari majmuasini yo‘naltirilgan tarzda o‘zgartirish maqsadida bitum yoki asfaltbeton aralashmasiga kiritiladigan moddalar yoki kimyoviy birikmalarni modifikatorlar deb ataymiz.

Bitumni modifikatsiyalash uch xil usulda amalga oshirilishi mumkin: kimyoviy, fizik-kimyoviy va strukturaviy yoki fizik.

Yuqori molekulyar birikmalardagi kimyoviy o‘zaro ta’sir sof holda asosan quyi molekulyar modifikatorlar (masalan, oltingugurt, polifosfat kislotalar va ularning

birikmalari, mayda dispersli faol to‘ldiruvchilar) kiritilganda, shuningdek, polimerning funksional guruhlari quyi molekulyar moddalar bilan o‘zaro ta’sirlashganda namoyon bo‘ladi.Fizik-kimyoviy modifikatsiya yuqori molekulyar birikmalar, shu jumladan polimer va kombinatsiyalangan modifikatorlar (tarkibida ikki yoki undan ortiq birgalikda ishlaydigan modifikatorlar bo‘lgan modifikatorlar) turli qo‘shimchalar - plastifikatorlar, faollashtiruvchilar va sirt faol moddalar bilan kiritilganda sodir bo‘ladi. Modifikatsiyalovchi qo‘shimchalarning optimal nisbati asfaltbetonning kerakli texnologik va ekspluatasion xossalarini ta’minlaydi. O‘zaro ta’sirlarning bu turiga bitum, modifikator va asfaltbeton qorishmasi to‘ldiruvchisining mayda dispersli fraksiyasi o‘zaro ta’sirlashganda sodir bo‘ladigan adsorbsion-kimyoviy jarayonlar ham kiradi, bu "quruq usul" deb ataladi.

Bunday turdagi o‘zaro ta’sirga ega bo‘lgan modifikatorlarni adsorbsion modifikatorlar deb atash taklif etiladi. Bir vaqtning o‘zida mineral material yuzasi va bog‘lovchining bitumli asosi (matrisasi) bilan mustahkam barqaror bog‘ hosil qiladigan bu moddalar yoki birikmalar "quruq" usulda, ya’ni aralashmani tayyorlash jarayonida uning mineral qismiga kiritish uchun mo‘ljallangan.

Adsorbsion-kimyoviy modifikatsiyalash quyidagi texnologiyalarni qo‘llash orqali amalga oshirilishi mumkin:

- faol funksional guruhlarning o‘zaro hamkorligini ta’minlash bitum (SFM bilan yoki ularsiz) va yuzada mavjud bo‘lgan, shu jumladan faol mineral to‘ldiruvchilar bilan ishlov berilgan mineral tarkibiy qismlar;

- asfaltbeton qorishmasini tayyorlash jarayonida deyarli bitum bilan bir vaqtda modifikatorni qorishmaga kiritish.

Fizik yoki strukturaviy modifikatsiyaga makromolekulalarning kimyoviy tuzilishini o‘zgartirmagan holda turli texnologik ta’sirlar (masalan, elektrofizik texnologiyalar) kiradi. Bu, shuningdek, harorat-vaqt rejimini o‘zgartirish (erituvchi tabiati va uni olib tashlash rejimini o‘zgartirish) orqali erituvchilar va plastifikatorlarni qo‘llash orqali modifikatsiyalash bo‘lishi mumkin, bu ko‘pincha modifikator makromolekulalari tuzilishining o‘zgarishiga olib keladi.

Asfaltbeton qorishmasini modifikatsiyalash asosan aralash usulda amalga oshiriladi. Bunday holda, fizik ta’sir (aralashmani aralashtirish) paytida modifikator makromolekulalarining kimyoviy tuzilishida o‘zgarish sodir bo‘ladi (masalan, molekulalarning faol funksional guruhlari darajasida birikish yoki o‘zaro ta’sir qilish uchun sharoitlar yaratiladi). Bundan tashqari, asfaltbeton mineral komponentlari yuzasida bitum bog‘lovchisining yupqa qatlamlari tuzilishini turli texnologik usullarni qo‘llash orqali o‘zgartirish mumkin (masalan, aralashma komponentlarini kiritish rejimi va ketma-ketligini o‘zgartirish).

Shunday qilib, materialning asosiy elementlari (modifikator, plastifikator, bitum va SFM yoki bog‘lovchi va mineral kukun) o‘zaro ta’sirining tabiati va xarakterini o‘zgartirib, bitum yoki asfaltbetonda struktura hosil bo‘lish jarayonlariga ta’sir qilish mumkin, bu esa yakuniy mahsulotning (asfaltbetonning) talab qilinadigan xususiyatlarini olish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Галдина В.Д. Модифицированные битумы: учебное пособие / В.Д. Галдина. – Омск: СибАДИ, 2009. – 228 с.

2. Коршак В.В. Общая классификация полимеров и ее применение для поиска информации о полимерах / В.В. Коршак, Н.А. Платэ, Т.Л. Ренард и др. // ЖВХО им. Д.И. Менделеева. – 1977. – Т. 22. – № 4. – С. 393-397.

3. Соломенцев А.Б. Классификация и номенклатура модифицирующих добавок для битумов / А.Б. Соломенцев // Наука и техника в дорожной отрасли. – 2008. – № 1. – С. 14-16.

4. I.S.Sadikov, B.X.Tovboyev. Gidratlangan ohakni yo’l bitumlariga ta‘siri. “Kimyo va kimyoviy texnologiya sohalarining dolzarb muammolari va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Jizzax-2025, 602-605 b.

5. Sadikov I.S., Tovboev B.X. Asfaltbeton qorishmalari uchun qo‘shimchalar. adabiyotlar tahlili. Problems of architecture and construction (Scientific and technical magazine). Samarqand, 2025, №2.

6. Buriyev, Shuxrat & Davranov, Shoxrux & Kuchkarov, Yokub & Saydakberova, Iroda. (2021). The effect of shale mineral powder on the strength of asphalt concrete. E3S Web of Conferences. 264. 02052. 10.1051/e3sconf/202126402052.

РЕЛЬСЛАР ЧОКЛАРИ ҲУДУДИНИНГ УСТИВОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАҚСАДИДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ЭЛАСТИК ШПАЛ ОСТИ ТАГЛИКЛАРИНИ ТАНЛАШ УЧУН СИНОВ ТАЖРИБАСИ

Меҳмонов Машҳурбек Ҳусен ўғли доцент
Хамидов Мақсуджон Камолович ассистент
Тошкент давлат транспорт университети

Аннотация: Рельслар чоклари худудидаги темир йўл устки қурилмаси материалларидан бири темирбетон шпалларнинг бикирлигини ва хизмат қилиш муддатини узайтириш чора тадбирларидан бири сифатида шпал ости таглик (прокладка)ларини ўрнатишдир. Шундай экан таглик сифатида қўллашимиз мумкин бўлган материаллар ва уларни шпал остига елимлаш учун керакли елимли бирикмаларнинг хусусиятларини ўрганиш ва улардан фойдаланиш бўйича қисқа муддатли, шунингдек циклик мустаҳкамлигини аниқлаш усуллари ва натижалари, мақбул материални танлаб олишимиз хамда уларни ҳусусиятларини баҳолаш бўйича техник параметрлар ва тегишли тавсиялар ушбу мақолада келтирилган.

Калит сўзлари: Темир йўл, рельс чоклари ҳудуди, шпаллар,шпал ости тагликлари (прокладка), резина, полеуретан, клей, эластик, вибратсия.

Abstract: One of the measures to increase the stiffness and service life of reinforced concrete sleepers, which are one of the materials used in the railway superstructure in the rail joint areas, is the installation of pads (underlays) beneath the sleepers. Therefore, this article presents a study of the materials that can be used as pads, the properties of adhesive compounds required

for bonding them under the sleepers, and their application. It also covers methods for determining short-term and cyclic strength, the results obtained, the selection of the optimal material, and technical parameters and relevant recommendations for evaluating their properties.

Key words: Railway, rail joint area, sleepers, sleeper pads (underlays), rubber, polyurethane, adhesive, elastic, vibration.

Кириш. Темир йўл участкаларида поездлар қатнови жадаллашиб, уларда ташиладиган юклар ҳажми ва юк вагонларига ортиладиган юк миқдори ҳамда поезд ва вагонлар сони ортгани сари темир йўлларни жорий сақлаш ва таъмирлаш бўйича ҳам, ишлар ортиб бораверади. Айниқса бу ишлар темир йўлнинг ҳаракат таркиби ғилдираклари билан бир сатиҳда яхлит элемент (рельслар) устида ҳаракатланмайдиган қисмида (ҳудудда), энг нозик, йўл устки қурилмаси материаллари тез шикастланидиган, камчилик ва нуқсонлар ҳамда носозликлар кўп вужудга келадиган қисмларидан бири рельслар чоклари зонаси ҳисобланади [1,3]. Шу билан бирга носоз ва ўз функсиясини тўлиқ бажара олмайдиган материалларни янги материалларга алмаштириш талаби, сарф харажатлар ва меҳнат кучига бўлган эҳтиёж ортишига олиб келади. Шундай экан рельслар чоклари зонаси ҳолати ва бу зонадаги йўл устки қурилмаси материалларинг устивор ва барқарор ишлашини таъминлаш бўйича чора тадбирларини ишлаб чиқиш ҳамда темир йўл транспортининг узилишларсиз ишлашини ва поездлар ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш биз каби темир йўл муҳандиси ва олимларининг асосий вазифасидир.

Асосий қисм. Рельслар чоклари зонасида харакат таркиби ҳаракати натижасида вужудга келувчи вибратсия, тебраниш ва вертикал кучлар таъсирини камайтириш орқали юқорида айтилган муаммоларни маълум даражада камайтириш хозирги кунда долзарб масалардан биридир. Бу долзарб масаланинг ечимларидан бири сифатида рельс чоклари ҳудудидаги шпаллар остига эластик таглик (прокладка)ларни ўрнатиш орқали маълум даражада ижобий натижага эришиш илмий изланишнинг мақсади қилиб белгиланган бўлиб, бунинг учун биз ўзимизга керакли шпал ости тагликларини тайёрлаш ва фойдаланишимиз учун лозим бўлган материал – резинани танлаб олишимиз керак бўлди.

Ҳозирги кунда хорижий ва маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан бир неча турдаги шпал ости таглиги сифатида фойдаланишимиз мумкин бўлган махсулотлар ишлаб чиқарилмоқда ва халқ хўжалигида кенг фойдаланиб келинмоқда. Бу эса ўзимизда махаллий ишлаб чикарувчилар томонидан ишлаб чиқарилган материаллардан кенгроқ фойдаланиш имконини яратади, шу билан бир қаторда ишлаб чикарувчилар ўртасида манифатли ҳамкорликларни кенгайтиради.

Шпал ости таглиги (прокладкаси) сифатида фойдаланишимиз мумкин бўлган материалларни кўриб чиқишимиз ва улар устида илмий тадқиқот ишларини олиб боришимиз, материалларни таққослашимиз ва биз учун керакли, мақбул ва темир йўлнинг экплуататсия жараёнларида фойдаланишимиз мумкин бўлган, чидамли материалларни ва бу танланган материалларни қўлланиладиган жойи (улоқсиз йўлдан тенглаштирувчи рельсларга ўтиш чоклари, сунъий иншоотлар жойлашган қисми, кўприкка ўтиш ҳудуди ва б.қ.)га қараб уларни қалинлигини танлаб олишимиз керак бўлади.

Темир йўлнинг рельслар чоклари зонасидаги шпаллар остига фойдаланишимиз ва тадбиқ қилишимиз мумкин бўлган эгилувчан (эластик), сиқилиш, эзилиш, зўриқиш ва чўзилишларга, температура ўзгаришларига чидамли, яхши ишлайдиган материаллар асосан қуйидаги махсулотлардан тайёрланади: полимер, резина, каучук ва полиуретандир [2].

Темир йўл транспорти конструкциялари ва иншоотларида полимер, резина ва полиуретан материалларидан тайёрланган элементлардан фойдаланиш охирги йилларда тобора кенгайиб бормоқда ва қўлланилиши бўйича ҳам соҳалар кесимида талаб ортмоқда. Ушбу материалларнинг юқори сифатли хусусиятлари мавжуд бўлсада, темир йўл транспортининг – йўл хўжалиги сохасида йўл устки қурилмаси материаллари таркибида асосий ва ёрдамчи элементлар сифатида қўллашимиз, аниқроқ айтадиган бўлсак рельслар чоклари зонадаги шпаллар остига таглик сифатида юқорида келтирилган материаллардан кенг фойдаланиш, ҳамда темир йўлларнинг турли эксплуатация шарт-шароитларига нисбатан ўрганилмаганлиги сабабли материаллардан тайёрланган элементларни кенг қўллаш масаласи Темир йўл масофаси корхоналарида чекланмоқда. Бундан ташкари бизда шпал ости таглиги билан йўлнинг устки қурилмаси материалининг биргаликда ишлаши, эксплуататсия жараёнларида уларни қўллаш бўйича ва ушбу материалларнинг хусусиятларини баҳолаш услуби етарлича эмаслиги, илмий тадқиқот синов тажрибаларини ўтказиш бўйича методикалар ишлаб чиқиш зарурати билан ҳам ахамиятли ва долзарб ҳисобланади. Шу боис, “Ўзбекистон темир йўллари” АЖга қарашли Темир йўл масофаси корхоналаридаги темир йўлларда улоқсиз йўлдан тенглаштирувчи рельсларга ўтиш ҳудудларида, бўғинли (звено) йўллар, сунъий иншоотлар (металл ва темирбетон қувурлар) устидан ва кўприкка ўтиш жойларидаги рельслар чоклари ҳудудларида тегишли илмий тадқиқотларни ва изланишларни ҳар томонлама кенгайтириш муҳим ва долзарб аҳамият касб этади. Шу сабабли ушбу шпал ости таглиги сифатида қўлланилиши режалаштирилган материалларнинг хусусиятларини ўрганишни ҳар томонлама кенгайтириш, тажриба маълумотларини тўплаш, тегишли методикаларни ишлаб чиқиш ёки такомиллаштириш муҳим вазифалардан биридир.

Бундан ташқари илмий изланиш ва тадқиқотлар натижасида темир йўлнинг рельслар бириктирилган ҳудудидаги темирбетон шпал ости таглик (прокладка)ларини шпаллар остига махкамлаш учун фойдаланиладиган елимли бириктиргич (клей)ларни танлаш ва уларни қўлланилиши бўйича қисқа муддатли ҳамда даврий мустаҳкамлигини ўрганиш усуллари ва натижаларини таҳлил қилиш ҳамда барча ҳолатлар учун мақбул бўлган елим (клей)ни

танлаш бўйича ҳам ишлар олиб борилди. Шунингдек, илмий изланиш ва тадқиқотлар натижасида шпал ости тагликлари сифатида фойдаланиладиган резиналарнинг деформацион хусусиятларига таъсир этувчи бир қатор омилларга боғлиқ ҳолда уларни баҳолаш бўйича маълумотлар ва тегишли тавсиялар ишлаб чиқилиши долзарб саналади.

Эластик шпал ости таглик – прокладкалари сифатида қўлланилиши мумкин бўлган материаллар турлари ва уларнинг таркиби ҳамда физик – механик хоссалари билан қисқача танишиб чиқамиз.

Биринчи маҳсулот бу - полимерлар синфига мансуб, юқори молекуляр бирикмалар қаторига кирувчи Полиуретан (ПУ) ни кўриб чиқамиз. У сунъий бўлиб, нефт таркибидан олинадиган полиоллар ва бошқа полиэфирлар билан диизотсианатларни аралаштириш орқали синтез қилиш натижасида олинади. Ушбу маҳсулотларни хомашё сифатида фойдаланишимизда таркибий қисмларининг турли-туманлиги, якуний маҳсулотнинг эгилувчанлиги, қаттиқлиги ва мустаҳкамлигини белгилаб беради. Полимерланиш жараёнини тезлаштириш мақсадида қуйидаги катализаторлар: аминлар, металлорганик бирикмалардан кенг фойдаланилади. Бундан ташқари хомашё массасига қўшимчалар, кўпик ҳосил қилувчилар, стабилизаторлар, пигментлар, оловбардошликни яхшиловчилар, кўпиклантирувчи воситалар (порофорлар)ни киритиш орқали маҳсулотнинг физик-механик ва эксплуатацион хусусиятларини кенг доирада ўзгартириш мумкин. Бунда олинадиган полимер материаллар юмшоқ ва эгилувчан кўпиклардан тортиб, қаттиқ таркибли пластикларгача бўлган турли шаклларда 1-расмда келтирилган кўринишларда ишлаб чиқарилади.

1-расм. Полиуретан махсулотининг турлари.

Ҳозирги кунда хорижда ва республикамизда саноат усули билан турли мақсадларга мўлжалланган полимернинг бир неча хилдаги махсулотлари ишлаб чиқарилмоқда ва кенг фойдаланилмоқда. Шундай экан бу материаллардан темир йўл транспортининг ҳар бир хўжалигида, айниқса йўл хўжалигида Темир йўл масофаси (ПЧ) корхоналарида кенгроқ фойдаланиш ва бунинг натижасида темир йўлни устиворлигини ва унинг элементларининг хизмат қилиш муддатини узайтириш ҳамда булар орқали поездлар ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш ҳозирги кундаги долзарб масалалардан биридир. Полиуретан махсулотининг таркиби қуйидагиларни таснифлаш учун асос бўлиб ҳисобланади.

Термопластик полиуретан материали эластомерлар синфига мансуб бўлиб у қуйидаги хоссаларга эгадир:

• Юқори эластиклик (қайишқоқ) – бу эса турли соҳаларда кенг фойдаланиш имконини беради;

• Ёруғлик (қуёш нури) ва атмосфера таъсирига чидамлилиги – бу эса ҳарорат ўзгаришларида ҳам ишончли ишлай олишини англатади;

• Шовқин, вибратсия ва тебранишни сўндириш – бу эса айнан биз темир йўл тизимида ҳал қилишимиз лозим бўлган муаммоларда қўллай олиш имкони;

• +80°С ҳароратгача ўз шаклини сақлаб қолиши – бизни ёз фаслимиздаги чилла иссиғида ҳам фойдаланилаётган жойидаги ўлчамларини ўзгартирмаслиги;

• Яхши эгилувчанлик, сиқилиш ва деформациядан сўнг дастлабки ҳолатига қайтиш қобилияти – яъни вақтинчалик юклар таъсири ҳаракат таркиби ўтиш вақтида зўриқиши ва поезд ўтиб кетгандан сўнг ўз ҳолатига қайтиши билан хам аҳамиятлидир;

• Сувга чидамлилик – темир йўлнинг балласт қатламида йиғилиб қолган ёғингарчилик сувларига чидамлилиги;

• Мой ва эритувчиларга бардошлилик – темир йўл орқали ташиладиган турли махсулот ва кимёвий моддаларга устига тўкилганда хам хусусиятини йўқотмаслиги;

• Саноатда ишлов бериш осонлиги, турли шаклларга кира олиши билан аҳамиятлидир – биз қўлламоқчи бўлган жой – шпал ости ўлчамини осон ҳосил қилиш мумкинлиги.

Шундай экан полиуретан материаллари юқори мустаҳкамлик ва ейилишга чидамлилик хусусиятларига эга бўлиб, улардан тайёрланган маҳсулотлар юқори юкланиш шароитларида узоқ муддат хизмат қилади. Бу полимер, айниқса халқ хўжалигининг ишлаб чиқариш соҳаларида, резинанинг ўрнини ишончли тарзда эгаллашга уринаётган рақобатдош махсулот ҳисобланади.

Илмий тадқиқот изланишларини олиб борар эканмиз бизда табиийки манабу каби саволлар пайдо бўла бошлайди – полиуретан материали биз билган резинадан қандай фарқланади ва биз учун қайси биридан шпал ости таглиги сифатида фойдаланишимиз авфзалроқ?

Демак бу саволга қуйидагича изоҳ беришимиз мумкин – полиуретан ва резина материаллари турли хил келиб чиқишга эга бўлган эластомер материалларидандир. Резина табиий каучук асосида тайёрланади, полиуретан эса кимёвий синтез йўли билан ишлаб чиқарилади. Иккала материалнинг макромолекулалари ҳам деформация пайтида сиқилиши ва

чўзилиши мумкин. Лекин полиуретанда бухусусиятлар резинага нисбатан кучлироқ намоён бўлади. Ҳар иккала материал (полиуретан ва ризина) ҳам ейилишга яхши бардош беради – эксплуатация жараёнларида ейилиб, эзилиб, бўлакларга бўлиниши секин кечади, машина ва механизимларда фойдаланиладиган мойлар ва ишқорларга чидамлилиги юқори, ҳамда атмосфера таъсирларида ўз хусусиятларини сақлаб қолиши ва бардошлилиги яхши ҳисобланади [2].

Полиуретан ва резинадан тайёрланган махсулотлар экстремал ҳароратларга яъни ҳаво ҳарорати Тселси даражаси бўйича минум (-) даражада совуқ бўлганда ва плюс (+) даражада иссиқ бўлганида ҳам ўз хусусиятидан келиб чиқиб яхшироқ чидайди. Темир йўл транспортининг турли соха ва хўжаликларида фойдаланиладиган турли хилдаги материалларни эксплуататсион ҳарорати 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Материал	Эксплуатация ҳарорати, С
Резина	-50 … +200
Фторопласт	-200 … +260
Полиуретан	-60 … +150
Полиамид	-40 … +100

Материалларга турлича берилган кучлар таъсирида тортилганда ҳам узилишга чидамлилик кўрсаткичлари, сиқилган вақтида қаттиқлик диапазони, махсулотлардан эксплуатация жараёнида фойдаланилганда ишчи ўлчамларини сақлаб қолиши ва абразив барқарорлик бўйича ҳам полиуретан резинадан 3-5 баробар устунлик қилади. Полиуретан ва резинанинг физик механик кўрсаткичлари 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвал

Физик-механик кўрсаткичлар	Полиуретан	Резина
Мустаҳкамлик чегараси (min), МПа	35	16
Нисбий узайиш (min), %	500	300-350
Узилишга қаршилик (min), кН/м	80	80
Ишқаланишга чидамлилик (max), мм³	35	100
Қолдиқ деформация (max), %	24	30

Ташқи муҳит таъсири остида бўладиган яъни очиқ жойларда ўз функциясини бажарадиган ва фойдаланишдаги полиуретандан тайёрланган махсулотлар озон ва ултирабинафша нурлар таъсиридага ҳам яхши қаршилик кўрсатади. Резина эса вақт ўтиши билан улар таъсирида ёрилади ва эскиради.

Лекин шунча афзалликларга эга бўлишига қарамасдан полиуретанга нисбатан юқори эгилувчанлик ва эластиклик талаб қилинадиган холатларда резина афзал танлов бўлиб қолмоқда, бироқ кўплаб саноат соҳаларида сезиларли афзалликлар рўйхати туфайли резина қисмлар полиуретан қисмларга алмаштирилмоқда.

Ҳозирги кунда саноатни турли хил резина материаллари махсулотларисиз тасаввур қилиш қийин. Булардан бири Техник резина – ишлаб чиқаришнинг турли соҳаларида, машина ва механизимларда фаол қўлланилили билан ажралиб туради. Каучук маҳсулотлари алоҳида мустаҳкамликка эга эканлиги билан ажралиб туради ва уни бошқа материаллар билан бирлаштирганимизда турли мақсадларда фойдаланиш имконини берадиган ва керакли хусусиятларга эришиш имконини берадиган материалларни олишимиз мумкин. Демак йирик ишлаб чиқариш ва саноатнинг оғир турдаги сохаларида энг кенг тарқалган хомашё — материал бу ИСКИ техник пластинали резиналардир 2-расмда келтирилган.



2-расм. Шпал ости таглиги сифатида қўллаш тафсия этилган техпластинали резина махсулоти.

ИСКИ техник пластина резинасининг асосий афзалликлари унинг номида акс этган. Бу қисқартмани қуйидагича кенгайтмасини очамиз: *иссиқликка, совуққа, кислотага ва ишқорга* чидамли деган маънони англатади. Бу эса маҳсулотнинг ташқи таъсирларга юқори даражада бардошли эканлигини англатади. Бундай техпластинали резиналар энг ноқулай шароитларда қўлланилиши билан хам ажралиб туради — агрессив муҳит, паст ёки юқори ҳароратлар, сув, ишқор, кислоталар, азот билан алоқаси яхши ва катта ўлчамли, ноқулай ҳамда қиррали материаллар билан ҳам эксплуататсия жараёнларида яхши ишлайди. Ушбу ўта мустаҳкам техпластинали резина материаллари ишлаб чиқариш ва халқ хўжалигининг турли йўналишларида кенг қўлланилиб келинмоқда. Шундай экан юқоридаги хусусиятларини инобатга олиб ушбу материаллардан темир йўл транспортининг йўл хўжалигида хам кенг қўллаш ва шу орқали рельслар бириктирилган ҳудудни, сунъий иншоотлар устида ва кўприкка ўтиш жойларида темир йўл холатини яхшилаш ва йўл устки қурилмаси материалларини хизмат қилиш муддатини узайтириш, поездлар ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш, ҳамда шу орқали сарф харажатларни камайтириш масалалари долзарб ва аҳамиятлидир [4,5].

Юқорида келтирилган материаллар буйича илмий изланиш ва синов тадқиқотлар олиб борар эканмиз уларни рельслар бириктирилган ҳудуддаги шпаллар остига қўлланиладиган техник пластинали резинани кандай қалинликдаги ва армирланганлигига қараб мақбул резина наъмуналари ажратиб

олинди ҳамда синов тажрибалари олиб бориш учун қуйидагича наъмуна бўлакларидан фойдаланилди:

Биз тажриба синов тадқиқотларини Тошкент давлат транспорт университети “Илғор муҳандислик мактаби” таркибидаги “Йўл хўжалиги лабораторияси” хонасида ўтказдик. Синов наъмуналари учун техник пластинали резинанинг турли ўлчамдаги, олти хил қалинликдаги (5мм, 8мм, 10мм, 15мм, 20мм ва 22мм) бўлаклари, тўртта 10х10х10см ўлчамга эга бетон куб, темирбетон шпаллар ўрнида фойдаланиш учун ва шпаллар остига резина тагликларни махкамлаш яъни елимлаш мақсадида уч хил турдаги елим (клей) танлаб олинди, булар ичидаги энг мақбул елимни темир йўлни ўзида олиб бориладиган синов тадқиқотида фойдаланиш учун ажратиб олишимиз керак бўлади. Бу синов тадқиқотларини ўтказиш жараёни 3-расмда келтирилган.

3-расм. Олиб борилган синов тадқиқот тажрибалари.

Синов тадқиқот ишларини ўтказишимиздан мақсад биз учун “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ таркибидаги Темир йўл масофаси корхоналарида темир йўлларни айнан рельслар бириктирилган ҳудуди (рельс чоклари зонаси) ҳолатини яхшилаш ва устуворлигини таъминлаш учун ҳудуддаги шпаллар остига ўрнатиладиган эгилувчан тагликларни калинлиги ва шпалга уларни махкамлаш учун “Денлакс” номдаги елим танлаб олинди. Танлаш жараёни яъни синов тадқиқотлари 15 кун давомида турли ҳолатларда синаб кўрилди ва ижобий натижа берган материаллар доимий поездлар қатнови йўлга қўйилган Салар темир йўл масофаси корхонаси ҳудудига қарашли Салар - Чуқурсой перигонида жойлашган участкада жойлаштириш белгилаб олинди. Белгиланган участкада рельс чоклари зонасидаги йўлнинг эксплуатация жараёнида шпал ости тагликлари қандай ҳолатда ишлашини ва темир йўлдаги ижобий ва салбий ўзгаришларни таҳлил қилаш вазифаси белгилаб олинди.

Хулоса

1. Республикадаги темир йўлларни ва улардаги рельслар чоклари ҳудудини (стик зонаси) холатини яхшилаш, ишончлилигини ошириш ва шу орқали поездлар ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш масаласи йилдан йилга долзарблашиб бормоқда.

2. Темир йўллардаги фойдаланишдаги ва янги ўрнатиладиган йўл устки қурилмалари материалларини хизмат қилиш муддатларини ошириш бўйича илмий изланишлар олиб бориш ва йўл ҳолатини яхшилаш бўйича чора тадбирларни ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

3. Синов тажриба тадқиқоти натижасига кўра техпластинали ризинадан фойдаланиш рельс чоклари зонасидаги шпалларнинг хизмат қилиш муддатини узайтиради ва балласт қатлами чақиқ тошларини тез майдаланишини олдини олади.

4. Эластик шпал ости таглигини қўллаш рельс чоклари зонасидаги йўл устки қурилмаси материалларига ҳаракат таркиби ғилдирак жуфтларидан тушувчи кучлар таъсирини камайтиради, балласт қатламида кучлар тарқалиш бурчаги ортиб, кучларни юза бўйлаб тарқалиш майдони кенгаяди.

5. Таглик сифатида техпластинали резинадан фойдаланишимиз бошқа материаллар билан таққослаганда биз учун ҳам иқтисодий, ҳам қўлаш жараёнларида самарали хисобланади.

Адабиётлар:

1. Khamidov M., Makhamadjonov Sh., Ensuring and maintenance of the road stagnation in the butt zones on the lines of JSC “Uzbekistan temir yo‘llari”, Probl. Arch. Constr. 2024, 134 (2024).

2. Прочностные и деформационные характеристики конструкционных полимерных материалов. Под редакцией канд.техн.наук Г.Г. Попова, Издательсво «ТРАНСПОРТ» Москва 1970г.

3. Работа пути с железабетонными шпалами под нагрузкой. Под общей редакцией проф. Г.М. Шахунянца, Издательсво «ТРАНСПОРТ» Москва 1965г.

4. Abdujabarov A.Kh., Khamidov M.K., Mekhmonov M.Kh., Testing of railway construction using elastic sleeper gaskets in the butt zone, Probl. Arch. Constr. 2024, 249 (2024).

5. В.О.Певзнер, М.М.Железнов, В.Н.Каплин, А.В.Третьяков, М.Н.Мысловец, А.С.Томиленко. Повышение стабильности пути в зоне стыков за счёт применения упругих подшпальных прокладок. Вестник ВНИИЖТ, 2016г. № 3.

ИНЖЕНЕРЛИК ТАРМОҚЛАРИ ҚУРИЛИШИ ВА ЭКОЛОГИЯ
СТРОИТЕЛЬСТВО ИНЖЕНЕРНЫХ СЕТЕЙ И ЭКОЛОГИЯ

СОВРЕМЕННЫЕ ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЖИЛЫХ ЗДАНИЯХ: ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ТЕПЛОСНАБЖЕНИЮ

Айтмуратов Б., Джумабаев Н.
Каракалпакский государственный университет имени Бердака

Annotatsiya: Energiya resurslari narxining oshishi va ekologik talablarning kuchayishi bilan turar-joy binolarining energiya samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. IMRAD metodologiyasi bo'yicha tuzilgan ushbu maqola issiqlik ta'minoti tizimlariga e'tibor qaratgan holda zamonaviy texnologiyalar va energiya tejash strategiyalarini ko'rib chiqadi. Passiv usullar (haddan tashqari izolyatsiya qilingan yopiq inshootlar, passiv quyosh dizayni), faol tizimlar (issiqlik nasoslari, issiqlikni tiklash), qayta tiklanadigan energiya integratsiyasi (res) va raqamli boshqaruv texnologiyalarini o'z ichiga olgan keng qamrovli tahlil taqdim etildi. Iqtisodiy jihatlar, amalga oshirishdagi amaliy to'siqlar va "aqlli" tarmoqlar va yangi materiallarning rivojlanishi kabi kelajakdagi tendentsiyalar muhokama qilinadi. Maqolaning maqsadi dizaynerlar, quruvchilar va boshqaruv kompaniyalari uchun energiya tejaydigan echimlarni amalga oshirishga qaratilgan tizimli sharhni taqdim etishdir, bu esa sezilarli tejash va ekologik yukni kamaytirishga qaratilgan.
Kalit so'zlar: Energiyani tejash, energiya samaradorligi, issiqlik ta'minoti, turar-joy binolari, o'rab turgan inshootlarning issiqlik muhofazasi, kogeneratsiya inshootlari, issiqlik ta'minoti tizimlarini modernizatsiya qilish, aqlli energiya tizimlari, resurslarni tejash, iqtisodiyotning energiya intensivligi.

Аннотация: В условиях роста стоимости энергоресурсов и усиления экологических требований энергоэффективность жилых зданий становится критически важной. Данная статья, структурированная по методологии IMRAD, рассматривает современные технологии и стратегии энергосбережения с акцентом на системы теплоснабжения. Представлен комплексный анализ, включающий пассивные методы (сверхизолированные ограждающие конструкции, пассивное солнечное проектирование), активные системы (тепловые насосы, рекуперация тепла), интеграцию возобновляемых источников энергии (ВИЭ) и цифровые технологии управления. Обсуждаются экономические аспекты, практические барьеры внедрения и будущие тенденции, такие как развитие «умных» сетей и новых материалов. Цель статьи-предоставить систематизированный обзор для проектировщиков, строителей и управляющих компаний, направленный на реализацию энергоэффективных решений для достижения значительной экономии и снижения экологической нагрузки.
Ключевые слова: энергосбережение, энергоэффективность, теплоснабжение, жилые здания, теплозащита ограждающих конструкций, когенерационные установки, модернизация систем теплоснабжения, интеллектуальные энергосистемы, ресурсосбережение, энергоёмкость экономики.

Abstract: In Today's world, energy prices are on the rise, and environmental concerns are becoming more pressing. Energy efficiency in residential buildings is a crucial issue that requires attention. This article follows the IMRAD format (Introduction, Methods, Results, Discussion) to explore contemporary technologies and approaches for energy conservation, with a particular focus on heating systems. The article provides a thorough examination of both passive and active methods for energy conservation, including highly insulated structures, passive solar design, heat pumps, heat recovery, the integration of renewable energy sources, and digital control systems. Furthermore, it discusses economic aspects, practical challenges to implementation, and future advancements such as smart networks and innovative materials. The purpose of this article is to offer a structured perspective for architects, builders, and managers on energy-saving methods that can result in substantial cost reductions and a decrease in the environmental footprint of structures.
Keywords: Energy conservation, energy efficiency, heating systems in residential structures, thermal insulation of walls and ceilings, combined heat and power plants, upgrading of heating systems, intelligent energy systems, resource preservation, and energy intensity of the economy.

Введение (Introduction)

Контекст и актуальность. Жилищный сектор является одним из крупнейших потребителей энергии: на здания приходится до 30% мирового конечного энергопотребления и почти 40% выбросов CO_2, связанных с энергетикой. В России проблема усугубляется значительным износом тепловых сетей и большими потерями на этапах транспортировки и потребления тепловой энергии. Устаревшая зависимая схема теплоснабжения во многих многоквартирных домах («хрущёвках», «брежневках») лишает потребителей возможности гибкого регулирования и приводит к перерасходу ресурсов. В то же время, современные тренды строительства ориентированы на создание не просто энергоэффективных, а «здоровых», адаптивных и интеллектуальных домов, гармонично сочетающих комфорт, экологичность и технологичность.

Постановка проблемы. Несмотря на существование Постановление Президента Республики Узбекистан, от 11.03.2025 г. № ПП-100 «О мерах по кардинальному реформированию сферы обеспечения тепловой энергией жилых домов, зданий и сооружений, а также повышению энергоэффективности зданий», его реализация в полной мере не обеспечена. Процесс оснащения жилых домов приборами учёта тепла (ОДПУ) остановился, а управляющие компании часто не заинтересованы в проведении энергосберегающих мероприятий, так как это ведёт к дополнительным вопросам со стороны собственников. Системный подход к энергосбережению в теплоснабжении требует комплексных решений-от макроуровня модернизации сетей до микроуровня при-

менения инновационных технологий в каждом здании.

Цель исследования. Цель данной статьи-провести систематизированный обзор современных энергосберегающих технологий для систем теплоснабжения жилых зданий, оценить их эффективность, экономическую целесообразность и барьеры для внедрения.

Методы (Methods)

Исследование построено на методе системного анализа информации из открытых источников, включая специализированные статьи, обзоры рынка, данные выставок (таких как «Hi-Tech House» и «Электро») и нормативные документы (например, стандарты Калифорнии 2025 года). Основное внимание уделено технологиям, доказавшим свою эффективность в проектах, реализованных к 2024-2025 годам.

Для оценки технологий использовались следующие критерии:

Потенциал энергосбережения: Оценка сокращения потребления тепловой энергии (%).

Технологическая зрелость: Готовность к массовому внедрению.

Экономические показатели: Срок окупаемости и влияние на стоимость строительства.

Интеграционный потенциал: Возможность работы в составе комплексных систем «умного дома» и централизованных сетей.

Ключевые категории для анализа: пассивные стратегии, активные инженерные системы, источники энергии и системы управления.

Результаты (Results)

1. Пассивные стратегии: Фундамент энергоэффективности

Эти решения минимизируют потребность здания в отоплении за счёт архитектурно-строительных решений.

Сверхизолированная и герметичная оболочка здания. Это базовое требование для пассивных домов. Применение современных теплоизоляционных материалов (например, сэндвич-панелей, вакуумных изоляционных панелей с R-значением до 66) и тщательное устранение «мостиков холода» сокращают теплопотери через ограждающие конструкции на 25-40%. Стоимость строительства такого дома может быть на 30% выше, но инвестиции окупаются за счёт низких эксплуатационных расходов.

Высокоэффективные окна. Тройные стеклопакеты с низкоэмиссионным покрытием (Low-E) и тёплыми дистанционными рамками стали стандартом в устойчивом строительстве, улучшая показатель U-value (коэффициент теплопередачи) на 30% и более по сравнению с обычными двойными стеклопакетами. Перспективным направлением является «умное» остекление (электрохромное), которое может динамически менять прозрачность, сокращая нагрузку на системы охлаждения и отопления до 20%.

Пассивное солнечное проектирование. Правильная ориентация здания, расчёт площади и расположения южного остекления, использование элементов тепловой массы (например, бетонный пол) позволяют бесплатно аккумулировать солнечное тепло зимой и блокировать его летой. Это может снизить потребность в отоплении и охлаждении на 15-50%.

Таблица 1

Сравнительные характеристики пассивных стратегий энергосбережения

Технология	Ключевой принцип	Потенциал энергосбережения (теплоснабжение)	Влияние на стоимость строительства
Сверхизолированная оболочка	Минимизация теплопотерь	До 40%	Выше (+15-30%)
Тройные Low-E стеклопакеты	Снижение теплопередачи через окна	До 30%	Выше (+5-15%)
Пассивное солнечное проектирование	Использование солнечной радиации	15-50% (в зависимости от климата)	Нейтрально/Незначительно
Герметизация (воздушный барьер)	Устранение инфильтрации	25-40%	Умеренно выше (+3-7%)

2. Активные инженерные системы: Интеллектуальное потребление энергии

Тепловые насосы (ТН). Это ключевая технология декарбонизации отопления. Современные воздушные ТН для холодного климата эффективно работают при температурах до-25°С, выдавая в 3-4 раза больше тепловой энергии, чем потребляют электрической. Геотермальные ТН, использующие стабильную температуру грунта, ещё эффективнее. Они позволяют сократить энергопотребление на отопление на 50% и более по сравнению с электрическими системами прямого нагрева.

Системы рекуперации тепла вентиляции (ВРТ/РВТ). В герметичном доме необходима принудительная вентиляция. Установки рекуперации (рекуператоры) утилизируют 80-90% тепла из удаляемого воздуха и передают его приточному. Это сокращает энергозатраты на нагрев приточного воздуха на 30-50% и обеспечивает высокое качество воздуха в помещении.

Умные системы отопления, вентиляции и кондиционирования (ОВКВ) и термостаты. Интеграция оборудования ОВКВ в систему управления зданием (BMS) с использованием погодозависимого регулирования и зонального контроля (по помещениям) на основе данных с датчиков присутствия позволяет оптимизировать работу и избежать перегрева. Такие системы могут снизить общее энергопотребление здания на 10-30%.

Диаграмма 1: Ориентировочный вклад технологий в снижение энергопотребления на отопление типового жилого дома



3. Источники энергии: Децентрализация и возобновляемые ресурсы

Солнечные тепловые коллекторы и фотоэлектрические панели (PV). Солнечные коллекторы напрямую нагревают теплоноситель для системы ГВС и отопления. Солнечные PV-панели, особенно в сочетании с бытовыми аккумуляторами, позволяют зданию генерировать электроэнергию для собственных нужд, включая питание ТН. Это может снизить зависимость от сетевой электроэнергии на 70% и более. На фасадах начинают применяться интегрированные фотоэлектрические элементы (BIPV).

Каскадное использование тепла и малая энергетика. На уровне квартала или микрорайона эффективны решения по утилизации сбросного тепла (например, от промышленных объектов) или использование малых модульных реакторов (ММР), которые рассматриваются как стабильный низкоуглеродный источник для энергоёмких объектов.

4. Управление и цифровизация: Мозг энергоэффективного здания

Системы управления зданием (BMS) и «Умный дом». Это интеграционная платформа, которая объединяет все инженерные системы (отопление, освещение, вентиляцию, ВИЭ) в единый контур. На основе данных с тысяч датчиков и прогнозов погоды искусственный интеллект (ИИ) оптимизирует работу оборудования в реальном времени, балансируя комфорт и эффективность. Установка базовой системы «умный дом» может сократить энергопотребление на 10-15% уже в первый год.

Информационное моделирование зданий (BIM). BIM-технологии на стадии проектирования позволяют точно смоделировать теплопотери, проанализировать «мостики холода» и подобрать оптимальные решения, что сокращает ошибки и затраты на последующую эксплуатацию.

Приборы учёта и диспетчеризация. Повсеместная установка общедомовых и квартирных приборов учёта тепла (ОДПУ/ИПУ)- необходимое условие для справедливых расчётов и выявления точек нерационального потребления. Диспетчеризация ЦТП и насосных станций позволяет удалённо управлять параметрами сети, минимизируя потери при транспортировке.

Обсуждение (Discussion)

Синергетический эффект. Максимальная эффективность достигается не применением отдельных технологий, а их синергетической интеграцией. Например, установка ТН будет экономически неоправданной в доме с негерметичными окнами и плохой изоляцией. Пассивные меры снижают базовую нагрузку, активные системы удовлетворяют оставшуюся потребность оптимальным способом, а ВИЭ покрывают часть затрат на энергию для этих систем. Цифровое управление обеспечивает слаженную работу всего комплекса.

Экономические аспекты и барьеры. Основным барьером остаются высокие первоначальные капиталовложения. Строительство пассивного дома дороже обычного на 15-30%. Однако срок окупаемости за счёт низких счетов за коммунальные услуги в среднем составляет 5-10 лет, а в дальнейшем владелец получает чистую экономию. Для России особой проблемой является институциональный барьер: разрыв интересов между жильцами, управляющими компаниями и ресурсоснабжающими организациями, а также недостаточное стимулирование к переходу на независимые схемы теплоснабжения и установке ОДПУ. Решение видится в ужесточении законодательства и создании экономических стимулов для всех участников процесса.

Будущие тенденции (2025+).

Стандарты Net-Zero и «Тихие» дома. Стандарты, подобные калифорнийскому энергетическому кодексу 2025 года, будут ужесточаться, двигая отрасль к зданиям с нулевым энергобалансом (Net-Zero) и даже с положительным (Net-Positive), как в примере дома Suncroft.

Умные энергосети (Smart Grid). Здания станут активными участниками энергорынка, автоматически снижая потребление в часы пик (Demand Response) или отдавая избыток энергии от своих солнечных панелей в сеть.

Новые материалы. Будут набирать популярность материалы с фазовым переходом (аккумулирующие тепло), углеродно-нейтральные (например, конопляный бетон-hempcrete) и обладающие адаптивными свойствами.

Выводы (Conclusion)

Современные энергосберегающие технологии для теплоснабжения жилых зданий представляют собой многоуровневую систему, охватывающую архитектурные решения, высокоэффективное инженерное оборудование, возобновляемую энергетику и интеллектуальные цифровые системы управления. Ключ к успеху-в комплексном, системном подходе на всех этапах жизненного цикла здания: от проектирования с использованием BIM до эксплуатации с помощью BMS.

Внедрение этих технологий, несмотря на первоначальные затраты, экономически целесообразно и экологически необходимо. Для массового распространения в России, помимо технологического развития, требуется устранение нормативных и организационных барьеров в сфере ЖКХ, а также повышение информированности и заинтересованности конечных потребителей-собственников жилья. Будущее теплоснабжения лежит в создании децентрализованных, гибких, устойчивых и интеллектуальных систем, где каждое здание становится активным элементом общей энергоэффективной экосистемы.

Литература:

1. Rashidov Yu.K., Aytmuratov B and Ismailov M, M., Increasing the Thermal Performance of Flat Plate Solar Collectors. Cite as: AIP Conference Proceedings 2762, 020025 (2022); https://https://doi.org/10.1063/5.0128291 Published Online: 27 December 2022.

2. Rashidov Yu.K., Aytmuratov B., Abdullaeva B., Aytbaev K., Calculation and experimental study of water distributor of stratification heat accumulator of solar heating system. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338304013

3. Rashidov, Yu K; Aytmuratov, B; Aytbaev, K R. Research of water distribution in stratification heat accumulator of a solar heating system. APEC-IV-2021 IOP

Conf. Series: Earth and Environmental Science 990 (2022) 012034 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/990/1/012034

4. Касимова С., Талипова Н., Омонова Д., Кадабаева Ш. Повышение энергоэффективности жилых и общественных зданий//Тенденции и перспективы развития городов. 2023. Т. 1, № 1. С. 266–270.

5. Нуруллаев О. У. Энергосбережение в Узбекистане//Молодой ученый. 2022. № 12 (407). С. 32–34.

6. Сотникова И. В., Косокина В. К. Анализ оптимизации энергоэффективных систем теплоснабжения в условиях Узбекистана // Молодой ученый. 2016. № 11 (115). С. 479-482.

7. Рахимов М.Ф. Современная энергетика и перспективы развития энергосистемы Узбекистана//Universum: технические науки. 2021. 3(84).

8. ПРООН. Энергоэффективность в зданиях: Скрытый ресурс устойчивого развития Узбекистана. 2015.

TESKARI OSMOS FILTRATSIYASIDA DINAMIK MEMBRANANI HOSIL QILISHDA TABIIY KRAXMALNING ROLI

Qayumova Lobar Shodimurodovna - katta o‘qituvchisi, PhD
Fan va texnologiyalar unversiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoat oqova suvlarini teskari osmos (TO) jarayonida tabiiy kraxmal asosida dinamik membrane hosil qilib,ekologik toza yondashuv orqali filtratsiya samaradorligini oshirish masalasi yoritilgan Tadqiqotda makkajo‘xori kraxmalidan foydalanib, teskari osmos membranasi yuzasida dinamik membrana (DM) hosil qilish usuli taklif etilgan. Dinamik qatlam filtrning tiqilib qolishini kamaytiradi, oqim tezligini barqarorlashtiradi va filtrlash samaradorligini oshiradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kraxmal konsentratsiyasi 0,1–0,2% bo‘lganda suv o‘tkazuvchanligi 18–25% ga, tozalash darajasi esa 12–15% ga ortadi.

Kalit so‘zlar: teskari osmos, dinamik membrana, makkajo‘xori kraxmali, oqova suv, filtratsiya, permeat, konsentrat.

Аннотация: В данной статье рассматривается повышение эффективности фильтрации промышленных сточных вод в процессе обратного осмоса (ОО) с использованием динамической мембраны (ДМ), сформированной на основе природного крахмала. Предложен экологически чистый метод образования динамической мембраны на поверхности обратного осмоса с применением кукурузного крахмала. Динамический слой способствует снижению засорения фильтра, стабилизирует скорость потока и повышает эффективность фильтрации. Результаты исследования показали, что при концентрации крахмала 0,1–0,2% водопроницаемость увеличивается на 18–25%, а степень очистки — на 12–15% .

Ключевые слова: обратный осмос, динамическая мембрана, кукурузный крахмал, сточные воды, фильтрация, пермеат, концентрат.

Annotation: This article discusses the improvement of industrial wastewater filtration efficiency in the reverse osmosis (RO) process through the formation of a dynamic membrane (DM) based on natural starch, representing an environmentally friendly approach. A method for forming a dynamic membrane on the surface of the reverse osmosis membrane using corn starch is proposed. The dynamic layer reduces filter clogging, stabilizes the flow rate, and enhances filtration efficiency. The results show that at a starch concentration of 0.1–0.2%, water permeability increases by 18–25%, while the purification efficiency improves by 12–15% .

Keywords: reverse osmosis, dynamic membrane, cornstarch, effluent, filtration, permeat, concentrate.

Kirish. Sanoat korxonalaridan chiqadigan oqova suvlar tarkibida turli xil organik va noorganik birikmalar, og‘ir metallar, yog‘ mahsulotlari, sulfat va xlorid ionlari mavjud. Bu moddalarning tozalashsiz tabiatga chiqarilishi ekologik muvozanatga jiddiy zarar yetkazadi. Shu bois zamonaviy tozalash texnologiyalari, jumladan teskari osmos (reverse osmosis) usuli keng qo‘llanilmoqda [1].

Bugungi kunda dunyo miqyosida suv havzalarining sanoat oqova suvlari bilan ifloslanishini kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish dolzarb masalaga aylangan. Yengil sanoat korxonalarida bo‘yovchi moddalar xilma-xilligi ortib borayotganligi oqova suvlarning ifloslanish darajasini yanada oshirmoqda [2].

An’anaviy tozalash usullari — flotatsiya, koagulyatsiya, sorbsiya va ekstraksiya — ko‘p hollarda 40–45% dan ortiq tozalash samaradorligini bermaydi. Shu sababli ekologik xavfsiz, iqtisodiy jihatdan maqbul hamda fizik-kimyoviy asoslangan kombinatsion tozalash usullarini ishlab chiqish zarur.

1. Teskari osmos jarayonining mohiyati

Teskari osmos jarayoni — osmotik bosimdan yuqori tashqi bosim ta’sirida suv molekulalarini yarim o‘tkazuvchan membrana orqali o‘tkazish asosida ishlaydi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: [3]

Oldindan tozalash: mexanik filtrlash, koagulyatsiya, pH muvozanatlash.

Asosiy bosqich: teskari osmos orqali filtrlash.

Ajratish: permeat (tozalangan suv) va konsentrat (iflos qoldiq) oqimlarini ajratish.

Qayta ishlatish: tozalangan suvni qayta aylanishga kiritish.

2. Dinamik membrana tushunchasi va afzalliklari

Dinamik membrana — bu asosiy membrana yuzasida oqimdagi moddalarning o‘z-o‘zidan yoki maqsadli hosil qilgan vaqtinchalik faol qatlamidir. U quyidagi afzalliklarga ega:

Asosiy membranani ifloslanishdan himoya qiladi;

Tiqilib qolishni kamaytiradi;

Filtrlash unumdorligini barqarorlashtiradi;

Uskunaning xizmat muddatini uzaytiradi.

Makkajo‘xori kraxmali tabiiy, arzon va biodegradatsiyalanadigan polimer sifatida dinamik qatlam hosil qilish uchun qulaydir. U gidratlanish jarayonida silliq, o‘tkazuvchan qatlam hosil qilib, membrananing ishlashini yaxshilaydi.[4]

Tadqiqot uslubi

Laboratoriya tadqiqotlari natijalari oqova suvni

qayta ishlashda yengil sanoat korxonalari uchun ultrafiltratsiyani qo‘llash istiqbollarini ko‘rsatadi. Ushbu sohada ultrafiltratsiyaning keng qo‘llanilishini sekinlashtiradigan asosiy sabablardan biri — yuqori samarali, agressiv muhitga chidamli va issiqlikka bardoshli membranalarning yetishmasligidir.

Hozirgi vaqtda ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun mavjud bo‘lgan ultrafiltratsiya membranalariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo‘lgan dinamik membranalardan foydalanish asosida yo‘l belgilandi.[5]

Bu jarayonni amalga oshirishda O‘zbekiston sharoitida topish oson bo‘lgan, nisbatan arzon dinamik membrana hosil qiluvchi mahalliy xom ashyolardan biri — makkajo‘xori kraxmalidan foydalanilgan holda dinamik membrana hosil qilindi va yuqori natijalarga erishildi.

Tajriba 10 litr hajmli model eritma asosida olib borildi. Oqova suv sifatida sulfat va xlorid ionlari mavjud texnologik eritmadan foydalanildi.

Laboratoriya tadqiqotlari natijalari oqova suvni qayta ishlashda yengil sanoat korxonalari uchun ultrafiltratsiyani qo‘llash istiqbollarini ko‘rsatadi. Ushbu sohada ultrafiltratsiyaning keng qo‘llanilishini sekinlashtiradigan asosiy sabablardan biri — yuqori samarali, agressiv muhitga chidamli va issiqlikka bardoshli membranalarning yetishmasligidir.

Hozirgi vaqtda ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun mavjud bo‘lgan ultrafiltratsiya membranalariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo‘lgan dinamik membranalardan foydalanish asosida yo‘l belgilandi.

Bu jarayonni amalga oshirishda O‘zbekiston sharoitida topish oson bo‘lgan, nisbatan arzon dinamik membrana hosil qiluvchi mahalliy xom ashyolardan biri — makkajo‘xori kraxmalidan foydalanilgan holda dinamik membrana hosil qilindi va yuqori natijalarga erishildi.

Jarayon bosqichlari quyidagicha tashkil qilindi:

Eritmaga 0,1–0,5% konsentratsiyadagi makkajo‘xori kraxmali qo‘shildi;

Aralashtirish 30 daqiqa davom ettirildi, kraxmal to‘liq shishirildi;

Teskari osmos qurilmasida 1,2–1,5 MPa bosim ostida filtratsiya amalga oshirildi;

Permeat miqdori, oqim tezligi va tozalash darajasi o‘lchandi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kraxmal konsentratsiyasi 0,1–0,2% bo‘lganda suv o‘tkazuvchanligi 18–25% ga oshadi, tozalash darajasi esa 12–15% yuqori natija beradi.[6]

Tajriba obyekti va sanoat ma’lumotlari (Buxoro viloyati misolida)

Buxoro viloyatida jami 23 ta oqova suvlarni tozalash inshootlari mavjud. Ulardan:

19 tasi — biologik tozalash,

3 tasi — mexanik tozalash,

1 tasi — to‘liq tizimli tozalash uchun mo‘ljallangan.

“Tozalangan oqova suvlarning 16 tasi zovurlarga, 5 tasi shimdirish maydonlariga, 2 tasi esa relefga oqiziladi.”[7]

10 litr suvda kimyoviy birikmalarni eritib model eritma tayyorlandi. Teskari osmos apparati yordamida rangli oqova suv filtrlanib, filtratdagi rang, suvning tozalash tezligi, pH, model eritma tarkibidagi tuz miqdori va bo‘yoqlarning ushlab qolinishi laboratoriya jihozlarida aniqlandi.

Apparat ishga tushirilganidan bir soat o‘tgach, filtratdan dastlabki natijalar olindi va keyingi har bir soatda filtrat namunasi olib tahlil qilindi. Natijalar olish jarayonida tozalanayotgan filtrat tezligi, oqova suv harorati, bosimi va pH darajasi doimiy ravishda nazorat qilindi [8; O‘zO‘U 0556:2012].

1-jadval

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari (model eritmaning tarkibi: H_2O — 10 l, NaCl — 0,5 mg/l, kub bo‘yoq va faol bo‘yoq — 0,75 mg/l)

Model eritmadan olingan filtrat namunasi, vaqt (T)soat	Filtratning olinishi tezligi V (ml/l.s)	Teskari osmos apparatida harakatlanayotgan oqova suv tezligi, V m/s	Eritmaning muhit ko‘rsatkichlari, pH	Eritmaning Harorati, t°	Ultrafiltiratsiya natijasi (kraxmalsiz), mg/l	Ultrafiltratsiya jarayonida DM natijasi kraxmal qo‘shimchasi bilan, mg/l
0	0,83	45:20	8-9	5°C-38°C	0	0,13
1	0,85	30:48	9-10	5°C-38° C	0,05	0,13
2	0,83	25:02	9-10	5°C-38° C	0,09	0,13
3	0,84	23:40	9-10	5°C-38° C	0,05	0,12
4	0,86	40:96	9-10	5°C-38° C	0,13	0,11
5	0,87	32:45	9-10	5°C-38° C	0,17	0,13
6	0,88	40:10	9-10	5°C-38° C	0,18	0,13
7	0,85	30:5	9-10	5°C-38° C	0,19	0,13
8	0,82	35:3	9-10	5°C-38° C	0,19	0,13

Bundan kelib chiqadiki, yuqori pH qiymati (10,3) bo‘lgan barcha rejimlarda eng yaxshi ultrafiltratsiya ko‘rsatkichlariga erishiladi. Makkajo‘xori kraxmali qo‘shimchasi bilan dinamik membrana hosil qilinib, membrananing o‘ziga xos ishlashi, ya’ni filtratning ajralishi kamroq pasayishi, sirt faol moddalar (SFM), bo‘yoq va Na ionlarining yuqori selektivligi bilan namoyon bo‘ladi. Dinamik membrana hosil qilish uchun aynan ilk bor makkajo‘xori kraxmalidan foydalanishga sabab (motivatsiya) shundaki, korxona ishlab chiqarish texnologiyasida makkajo‘xori kraxmali ishlatiladi va oqova suv tarkibida mavjud.

Bunday muhitni yaratishdan oldin, makkajo‘xori kraxmali qo‘shimchasi kiritilganda, membranadagi filtratni ajratish xususiyatlari biroz yaxshilanadi, ammo uning ta’siri juda zaif ko‘rinadi. Bu, ehtimol, pH ko‘tarilishi bilan kislota polimerlarining aura membranasi tomonidan adsorbsiyasi zaiflashishi va o‘zgartiruvchi polimer qatlami deyarli hosil bo‘lmagani bilan

izohlanadi. Shuning uchun qo‘shimchaning ushbu eritmaning yuqori pH darajasidagi ultrafiltratsiya natijalariga ozgina ta’siri bo‘lishi haqidagi taxmin tasdiqlanadi.

Bosim ostida oqova suv aylanayotganda, g‘ovakli membrana orqali filtrlanayotgan murakkab tarkibli komponentlarni o‘z ichiga olgan eritmaning doimiy filtrlash jarayonida dinamik membrana makkajo‘xori kraxmali hisobiga hosil bo‘ladi.

Dinamik membrana mavjudligining zaruriy sharti — filtrlanayotgan eritmada dinamik membrana hosil qiluvchi komponent (makkajo‘xori kraxmali) doimiy bo‘lishidir. Makkajo‘xori kraxmali qo‘shimchasini yetkazib berishni to‘xtatganda, membrananing xususiyatlari o‘zgaradi va bir necha soat ichida u parchalanadi. Bu holat eritma va membrana o‘rtasida kolloid zarrachalarning uzluksiz almashinuvini hamda membrana–eritma dinamik muvozanatining mavjudligini ko‘rsatadi.

Buxoro shahridagi “Ozod Buxoro tekstil” MChJ yengil sanoat korxonasida o‘tkazilgan tadqiqotlar, ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘lgan oqova suvlarni ultrafiltratsiya orqali qayta tozalash mumkinligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kraxmal asosida hosil qilingan dinamik membranalar oqimni barqarorlashtirib, permeat sifatini oshirgan.

5. Xulosa qilib olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

❖ Teskari osmos usuli sanoat oqova suvlarini yuqori darajada tozalashga imkon beradi;

❖ Makkajo‘xori kraxmali asosida hosil qilingan dinamik membrana filtrning ishlash barqarorligini oshiradi va tiqilib qolishni kamaytiradi;

❖ Optimal kraxmal konsentratsiyasi 0,1–0,2% bo‘lganda eng yuqori samaradorlik kuzatildi;

❖ Bu usul arzon, ekologik xavfsiz va mahalliy xom ashyolarga asoslanganligi bilan ustunlikka ega.

Adabiyotlar:

1. H.Q. Chu.D, cao, W. Jin, B.Z. Dong Choracteristics of bio-diatomic membrane process for municipal wastewater treatment, // J.Membr. Sci. 325(2008) 271-276. DOI: 10.1016/j.memsci.2008.07.040.

2. Исследование процесса очистки сульфатных сточных вод целлюлозно-бумажной промышленности с помощью полупроницаемых мембран. – М., 1978. – 21 с.

3. Dynamic membranes in wastewater treatment. Water and Waste Treatment, 1989, Vol. 19(11), pp. 15–22.

4. Ahmad, A. L., Ooi, B. S., & Mohammad, A. W. (2010). Membrane technology for water and wastewater treatment. Elsevier.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Suv ta’minoti va oqova suvlarni tozalash tizimlari” fan dasturi. Toshkent, 2022.

6. Qayumova L.Sh., Jurayev O.J. Ultrafiltratsiya usulida dinamik membranalar yordamida takomillashtirilgan membranalar orqali yengil sanoat rangli oqova suvlarini tozalash. // Mirzo Ulug’bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti. MEMORCHILIK va QURILISH MUAMMOLARI (Ilmiy-texnik jurnal). 2024 yil № 3. 235-237 b.

7. Jurayev O.J., Qayumova L.Sh. Yengil sanoat rangli oqova suvlarni dinamik membranalar yordamida tozalash istiqbolli usuldir. // “Paxta tozalash, to‘qimachilik va yengil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2023 yil 20-21 oktabr 36-38 b. Termiz 2023.

8. O‘zO‘U 0556:2012. Массовая концентрация величины водородного показателя электирометрическим. 2023 yil 1-noyabrdagi ML. 1236-son guvohnoma.

KICHIK AHOLI PUNKTLARI VA KORXONALARNING OQOVA SUVLARINI TOZALASH "CONSTRUCTED WETLANDS" TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Turlibaev Z.T., Arzuov M.Q.
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Oqova suvlarni tozalashning istiqbolli texnologiyalaridan biri bo‘lgan "Constructed wetlands" usuli ko‘rib chiqilmoqda. Ushbu usulning paydo bo‘lishi va o‘rganilishi haqida ma’lumot berilgan; "Constructed wetlands" tizimlarining asosiy tuzilishi tasvirlangan; mazkur texnologiya yordamida oqova suvlarni tozalash samaradorligi va sifatini oshirish imkoniyatlari, uning turli jihatlarini o‘rganishga qaratilgan zamonaviy ilmiy nashrlar tahlil qilingan. "Constructed wetlands" texnologiyasi bir qator holatlarda oqova suvlarni zararsizlantirishning intensiv usullariga samarali muqobil ekanligi aniqlangan, chunki uni qo‘llashda cheklovlar mavjud emas. Ushbu usulni yanada chuqurroq o‘rganish orqali uning qo‘llanilish doirasini va sohalarini kengaytirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: "Constructed wetlands"; oqova suvlar; tozalash samaradorligi.

Аннотация: Рассматривается одна из перспективных технологий очистки сточных вод - «constructed wetlands». Приведена историческая справка о возникновении и изучении данного метода; описано принципиальное строение систем «constructed wetlands»; сделан обзор современных научных публикаций, направленных на изучение разных аспектов функционирования, возможностей повышения эффективности и качества очистки сточных вод с помощью рассматриваемой технологии. Установлено, что технология «constructed wetlands» в ряде случаев является хорошей альтернативой интенсивным методам обезвреживания сточных вод ввиду отсутствия ограничений применения, а дальнейшие исследования этого метода позволят расширить область его распространения и сферы возможного приложения.

Ключевые слова: «constructed wetlands»; сточные воды; эффективность очистки.

Kichik manbalar uchun qo‘llaniladigan oqava suvlarni intensiv tozalash texnologiyalari sezilarli darajada kapital va ekspluatatsion sari xarajatlari, iqlim cheklovlari hamda xizmat ko‘rsatishdagi murakkabliklar tufayli asta-sekin o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. SHu bois so‘nggi yillarda dunyoda oqava suvlarni tozalashning muqobil, kichik miqyosli, ekologik va iqtisodiy jihatdan maqbul texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish faol rag’batlantirilmoqda. Ularning eng istiqbollilari suv ekotizimlarida yuksak suv o‘simliklari ishtirokida kechadigan tabiiy jarayonlardan foydalanishga asoslangan texnologiyalardir. Ekologiyaning yangi amaliy yo‘nalishi - ekologik muhandislik

yoki ekotexnologiya - oqava suvlarni zararsizlantirish muammosini hal qilishning bir qator usullarini, jumladan "Constructed wetlands" texnologiyasidan foydalanishni taklif etmoqda.

"Constructed wetlands" - bu ekologik jihatdan yaratilgan botqoq ekotizimlari bo‘lib, ular oqova suvlarni tozalash jarayonida botqoq o‘simliklari, tuproqlar va ularga bog’liq mikrob hamjamiyatlarini jalb etuvchi fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Bu tizimlar kam xarajat va minimal xizmat ko‘rsatish talablari bilan, asosan tabiiy energiya (quyosh va tortishish kuchi) yordamida boshqariladi hamda o‘zida kechayotgan jarayonlarni o‘z-o‘zini qo‘llab-quvvatlash qobiliyatiga ega. SHu bilan birga, ular yil faslidan qat’i nazar, oqova suvlardagi ifloslantiruvchi moddalarni o‘zgartirish va yo‘qotishda ishonchli va yuqori samaradorlikka ega. Ko‘pchilik "Constructed wetlands" ning asosiy vazifasi suv sifatini saqlash va yaxshilashdir. Bunga qo‘shimcha ravishda o‘simliklar tomonidan organik uglerodning birlamchi ishlab chiqarilishi; fotosintez orqali kislorod hosil qilinishi; quyida joylashgan ekotizimlarga organik moddalar va ozuqa moddalari chiqarilishini kamaytirish; ta’lim va dam olish maqsadlariga xizmat qiluvchi madaniy ahamiyatga ega resurslar yaratish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Bugungi kunda "Constructed wetlands" atamasining umumiy qabul qilingan muqobili mavjud emas. Ilmiy adabiyotlarda "bioplato," "biomuhandislik inshootlari," "biologik" va "botanik maydonchalar" kabi ta’riflar uchraydi, ko‘pincha esa "Constructed wetlands" iborasining oddiy transliteratsiyasi qo‘llaniladi. "Constructed wetlands" ning asosiy tuzilishini to‘rtta muhim elementdan iborat deb tasavvur qilish mumkin: suv o‘tkazmaydigan qatlam, filtrlovchi qatlam, botqoq o‘simliklari, hamda botqoqlik maydoni bo‘ylab oqimlarni bir tekis taqsimlash va undagi suv sathini boshqarish uchun mo‘ljallangan qurilmalar.

Adabiyotlarda va amaliyotda "Constructed wetlands" gidravlik loyiha chizig’ining joylashuviga qarab ikki turga bo‘linadi. "Free water surface" (FWS) botqoqliklari (yoki er usti oqimi botqoqliklari) - yer usti oqimi tizimlaridir. Tashqi ko‘rinishidan ular botqoqlik tubidagi tuproq qatlamida ildiz otgan turg’un suv va suv o‘simliklarining mavjudligi bilan tabiiy botqoqliklarga juda o‘xshaydi. Bunday tizimlardagi oqova suvlar o‘simliklarning barglari, poyalari va asoslaridan o‘tadi. "Vegetated submerged bed" (VSB) tizimlari (yoki er osti oqimi botqoqliklari) - er osti oqim tizimlari bo‘lib, tashqi ko‘rinishidan tabiiy botqoqliklarga o‘xshamaydi: ularda ochiq suv havzalari va doimiy suv sathi mavjud emas. Bunday tizimlar filtrlovchi muhitdan (shag’al, mayda toshlar, qum yoki tuproq kabi) iborat bo‘lgan taglikdan tashkil topgan bo‘lib, unga suv o‘simliklari ekiladi. To‘g’ri loyihalashtirilgan va foydalanilgan hollarda, oqova suvlar tizimdan muhit yuzasidan pastda, o‘simlik ildizlari va rizosferasi bilan aloqada o‘tadi. Bundan tashqari, "vertical flow wetland" - vertikal oqim tizimi alohida ajratib ko‘rsatiladi. Bunday turdagi "sun’iy botqoqliklar" suv o‘simliklari ekilgan odatiy vertikal qum yoki shag’al filtridan iborat [1].

Oqova suvlarni tozalash uchun botqoqliklardan foydalanish yangi g’oya emas. Bundan ming yillar oldin xitoyliklar va misrliklar tabiiy botqoqliklardan suyuq chiqindilarni tozalashda foydalanganlar. Ammo, dastlabki "Constructed wetlands" Avstraliyada 1904 yildan boshlab qo‘llanila boshlangan. SHundan keyin, 1950 yillargacha adabiyotlarda bunday suv tozalash inshootlaridan foydalanish holatlari deyarli uchramagan. 1950 yillarning boshida Evropa va Germaniyada suvni turli ifloslantiruvchi moddalardan tozalash uchun botqoqliklar va botqoqlangan hududlardan foydalanishning ilk urinishlari amalga oshirildi (Kathe Seidel). Birinchi to‘liq hajmli "sun’iy suv havzalari" (FWS CW) 1967-1969 yillarda Niderlandiyada kemping oqova suvlarini tozalash uchun qurilgan. Bu tajribadan so‘ng Niderlandiyada bir necha yil ichida yana 20 ga yaqin "sun’iy botqoqliklar" barpo etildi. Biroq, Evropada er usti oqimi tizimlari keng tarqalmadi, bu erda gorizontal er osti oqimli (HF CW) "sun’iy botqoqliklar" ustunlik qildi.

Bunday "Constructed wetlands" ning birinchi to‘liq miqyosli loyihasi 1974 yilda Germaniyaning Otfrezen shahrida qurilgan. Dastlab HF CW tizimlarida asosan og’ir tuproqlar, ko‘pincha loy miqdori yuqori bo‘lgan tuproqlar ishlatilgan. Bu tizimlar juda yuqori tozalash samaradorligiga ega edi, ammo past gidravlik o‘tkazuvchanlik tufayli tez orada tiqilib qoldi va er usti oqimining "Constructed wetlands" sifatida ishlay boshladi. 1980 yillarning oxirida Buyuk Britaniyada "sun’iy botqoqliklar"dagi tuproqlar dag’al material (tozalangan shag’al) bilan almashtirildi. Ushbu takomillashtirishdan so‘ng 1980 yillardan boshlab "sun’iy botqoqliklarni tozalash" texnologiyasi butun dunyo bo‘ylab tez tarqaldi [2]. AQSHda "Constructed wetlands" ni to‘liq miqyosda o‘rganish evropaliklarning dastlabki tajribalaridan 17 yil o‘tgach boshlandi: Amerika Qo‘shma SHtatlari tadqiqotchilari Chapel Hill shahar oqova suvlarini tozalash uchun sun’iy estuariy va tabiiy sho‘r botqoq kombinatsiyasidan foydalanish bo‘yicha besh yillik tadqiqot o‘tkazdilar [1]. 1973 yilda Brukxevenda (Nyu-york) botqoqlik, suv havzasi va o‘tloqlardan iborat birinchi to‘liq miqyosli "sun’iy botqoqlik" barpo etildi.

So‘nggi paytlarda ekologik muammolarning keskinlashuvi va ularning eng samarali echimlarini topish zarurati tufayli "Constructed wetlands" yordamida oqova suvlarni tozalashning noyob texnologiyasiga e’tibor kuchaydi hamda ushbu usulni o‘rganish yanada chuqurlashdi. Ko‘plab olimlar "Constructed wetlands" ning eng samarali turini izlashmoqda. Masalan, Guang Djin uning va hammualliflar (2002) FWS CW ni oqova suvlardagi ammoniy va nitratlar miqdorini kamaytirish uchun eng samarali inshoot sifatida belgilaydilar. Bu esa ushbu turdagi tizimlarda nitrifikatsiya darajasi juda yuqori ekanligi bilan izohlanadi [3]. SHuningdek, yuza oqimli tizimlarga quyosh nurining sezilarli ta’siri tufayli ular ichak tayoqchasini yo‘qotishda ham samaraliroqdir. Biroq, so‘nggi paytlarda tuproq-botqoq tozalash tizimlari bilan shug’ullanuvchi tadqiqotchilar bir tizimda FWS va VSB CW ni birlashtirib qo‘llash oqova suvlarni ifloslantiruvchi moddalardan tozalash samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin, degan xulosaga kelmoqdalar [4].

"Constructed wetlands" ning faoliyatidagi asosiy masalalardan biri botqoq o‘simliklarining o‘rnidir. Er

usti oqimli "Constructed wetlands" holatida oqova suvlardagi odatiy ifloslantiruvchi moddalarni (qattiq muallaq moddalar va BPK) yo‘qotishda o‘simliklar ekilgan "Constructed wetlands" hujayralari eng yuqori samaradorlikka ega, garchi o‘simlik jamoalarining tozalash faoliyatini kuchaytirish mexanizmlari hali to‘liq aniqlanmagan bo‘lsa-da. Er usti oqimli "Constructed wetlands"da suv usti o‘simliklarining asosiy vazifasi loylanishning hosil bo‘lishini, cho‘kishni va muallaq moddalarning filtratsiyasini kuchaytirish uchun tuzilmani ta’minlash hisoblanadi. Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, botqoq o‘simliklarining ifloslantiruvchi moddalarni yo‘qotishga ta’siri "Constructed wetlands" tizimlarida oqova suvlarning gidravlik ushlanish vaqtiga bog’liqligi aytiladi.

Masalan, gidravlik kechikish vaqti uzoq bo‘lgan gorizontal er osti tizimlarida o‘simliklarning ta’siri sezilarli darajada bo‘ladi. Aksincha, gidravlik kechikish vaqti qisqa bo‘lgan davriy yuklanadigan vertikal tizimlarda o‘simliklarning ifloslantiruvchi moddalarni yo‘qotishdagi roli minimal hisoblanadi. Yilning qish mavsumida ham suv usti o‘simliklari o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Ularning vazifalari suv yuzasini past haroratdan himoya qilish, yog’ayotgan va suzib yuruvchi qorni ushlab qolish hamda shamol ta’siridan issiqlik yo‘qotilishi oqibatlarini kamaytirish kabi muhim funktsiyalarni o‘z ichiga oladi [1].

"Constructed wetlands" faoliyatida faqat o‘simliklarning mavjudligi emas, balki boshqa omillar ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda "Constructed wetlands" uchun o‘simlik turlarini to‘g’ri tanlashning sezilarli ta’sirini ko‘rsatuvchi ko‘plab ilmiy nashrlar mavjud. "Constructed wetlands"ga ekiladigan eng maqbul o‘simlik turlarini tanlash tizim loyihalovchisi tomonidan mahalliy iqlim va tabiiy sharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. "Constructed wetlands" da makrofitlarning eng keng tarqalgan turlari qamish, qo‘g’a va bo‘yra hisoblanadi. Zamonaviy bosqichda ushbu o‘simlik turlarining ifloslantiruvchi moddalarni yo‘qotish samaradorligidagi farqlar to‘g’risida statistik ma’lumotlarni to‘plashga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, Iron Bridge Wetland (Florida) da ikki hujayradagi yuzaki oqimning "Constructed wetlands" i kuzatib borilmoqda, ularning asosiy farqi dominant o‘simlik turlari (qamish va qo‘g’a) hisoblanadi [1]. J.Tullen va uning hammualiflari (2005) "qurilgan botqoqliklar"da o‘simliklarni ekishni boshqarish zarurligini ta’kidlaydilar [5]. Oqava suvlarni tozalash samaradorligini oshirish uchun ular o‘simliklarni ekishning maxsus konfiguratsiyasidan foydalanishni taklif qiladilar. Tozalanadigan oqava suvlar oqimiga perpendikulyar bo‘lgan va etarlicha chuqur suv havzalari bilan o‘ralgan balandliklarda bo‘lishi kerak. Mualliflarning fikricha, bu o‘simliklarni sog’lom saqlashga imkon beradi va ularning "Constructed wetlands" faoliyati uchun mos bo‘lmagan yo‘nalishda kengayishiga yo‘l qo‘ymaydi.

"Constructed wetlands" ning boshqa funktsional elementlari va ularning samaradorligini oshirish usullariga bag’ishlangan tadqiqotlardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Germaniyaning tajribasi va turli tuproq parametrlariga ega bo‘lgan "Constructed wetlands" gidravlikasining uzoq muddatli tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, gidravlik sharoitlar va ifloslantirgich moddalarni bartaraf etish uchun eng samarali filtrlovchi qatlam qum va shag’al aralashmasi ekan [1].

Past vertikal oqimli "Constructed wetlands" filtrlari misolida shaxta oqova suvlarini tozalashda qo‘llaniladigan turli sorbsion qobiliyatga ega bo‘lgan donador muhitning ta’siri o‘rganildi. Oqova suvlarni qo‘rg’oshin, mis va BPK5 dan tozalash samaradorligini taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, "constructed wetlands" faoliyatining dastlabki 10 oyi davomida biomassa faoliyatini yaxshilash uchun donador faollashtirilgan ko‘mir kabi qimmat sorbsion muhitdan foydalanishning qo‘shimcha foydasi yo‘q ekan [6]. "Constructed wetlands" doirasida nitrifikatsiya va denitrifikatsiya darajasini sezilarli darajada oshirishga tizimga qo‘shimcha yuzalar, masalan, novdalar qo‘shish orqali erishish mumkin. [2] da umumiy azotni olib tashlashda "constructed wetlands" dagi turli sirtlarning (shikastlanmagan cho‘kindi yadrolari, eski qarag’ay va archa novdalari, mahalliy o‘simliklarning o‘simtalari) nitrifikatsiyalash va denitrifikatsiyalash qobiliyatini baholash keltirilgan. Nitrifikatsiyaning eng yuqori darajasi novdalarda kuzatilgan. Potentsial denitrifikatsiya darajasi esa loyqa cho‘kmasida eng yuqori bo‘lgan [7]. T. Xedli shuni aniqladiki, SSF HF da filtrlash yuklamasining chuqurligi standart 0,5 m dan oshganda tozalash samarasi o‘zgarmaydi, bundan tashqari, kichikroq chuqurliklar amalda "constructed wetlands" ishlashini yaxshilashi mumkin ekan [8].

Bir qator ilmiy ishlar sun’iy botqoqliklarning oqova suvlarni tozalashdagi mavsumiy o‘zgarishlar mavzusiga bag’ishlangan yoki uni qisman yoritadi. O‘rta er dengizi ekologik sharoitida qish faslida bakteriyalarning kamayish foizi boshqa barcha mavsumlarga qaraganda pastroq bo‘ladi [5]. Bakteriyalarning eng ko‘p yo‘qolishi quyosh radiatsiyasi va harorat yuqori bo‘lgan sharoitlarda kuzatiladi [9]. Sun’iy botqoqliklarda ammiakni yo‘qotish yil fasllari bo‘yicha davriy ravishda o‘zgarib turadi. Biroq, sun’iy botqoqliklar tizimida ammiakni yo‘qotishning harorat, ommaviy yuklanish darajasi va oqimlarning sho‘rlanishi kabi mavsumiy omillarga aniq bog’liqligi aniqlanmagan [10].

SHimoliy hududlarda "Constructed wetlands" texnologiyasi bilan bog’liq asosiy muammo uning past haroratlarda ishlashidir. Daniyada (130 ta inshoot), Shvetsiya va Norvegiyada (71 ta), Kanadada (67 ta) va Shimoliy Amerikada (600 ta) "Constructed wetlands" tizimlarini qo‘llash tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sun’iy yaratilgan botqoq hududlar past haroratlarda ham oqova suvlarni qo‘shimcha tozalash inshootlari sifatida samarali ishlaydi. Bunda, tizimlar faolligining qishki pasayishi yozgi mavsumga nisbatan sezilarli darajada emas [11].

"Constructed wetlands"ning ikki turi orasida, sovuqroq iqlimda er osti oqimi tizimlari afzallikka ega, chunki tozalash jarayoni yer sathidan pastda amalga oshiriladi. SHu sababli, bakterial hamjamiyatlar izolyatsiya qilingan va sovuq havo ta’siridan himoyalangan bo‘ladi. Harorat va iqlim sharoitlarining boshqa mavsumiy o‘zgarishlari tizim doirasidagi biologik va jismoniy faollikka ta’sir ko‘rsatadi [1].

Qish sharoitida "Constructed wetlands" to‘liq foydalanish imkoniyati masalasi bir qator shimoliy mamlakatlar tajribasi asosida echimini topdi.

Botqoqlangan hududni qor, muz va tabiiy o‘simlik qoplami bilan himoyalash "Constructed wetlands" ning past harorat sharoitida ham to‘liq ishlashini ta’minlaydi [11]. Norvegiyada botqoqlashgan maydonlarni suv tayyorlash tizimiga kiritish tajribasi bu usulning yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, tozalash jarayonlari yozda ham, qishda ham deyarli bir xil kechib, organik moddalar (BPK, XPK), fosfor va azotning ajralish darajasi ancha yuqori bo‘ldi [12].

Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sovuq iqlim sharoitida er osti oqimli "Constructed wetlands" larning faoliyatini optimallashtirishda o‘simliklarning mavjudligi va o‘simlik turlarini to‘g’ri tanlash alohida ahamiyatga ega. V. Allen va hamkorlari ma’lumotlariga ko‘ra, o‘simliklarning mavjudligi va ular turlari o‘rtasidagi farqning ta’siri o‘simliklarning o‘sish davrida (24°C) kuzatilganiga qaraganda, 4°C haroratdagi tinch holatda ancha yuqori bo‘ladi [13].

"Constructed wetlands" dan foydalanish tarixiga nazar solsak, shuni ta’kidlash joizki, 1970-1980 yillarda "qurilgan suvli-botqoq erlar" faqatgina maishiy yoki shahar oqova suvlarini tozalash maqsadida barpo etilgan. 1990 yillarning boshlariga kelib esa, "Constructed wetlands" barcha turdagi oqova suvlarni tozalash uchun qo‘llanila boshlandi. Bu jarayonga qattiq maishiy chiqindilar poligonlari filtrati, yomg’ir suvlari oqovalari (jumladan, shahar, avtomagistral, aeroport va qishloq xo‘jaligi erlaridan kelayotgan), agrosanoat majmuasi korxonalari oqovalari [14], sanoat (kimyo, tsellyuloza-qog’oz sanoati va hokazo), chorvachilik fermalari oqovalari [14, 15], kon suvlari [16] yoki ortiqcha faol loyqa kabi oqova suvlar ham kiritildi.

Norvegiyada ozuqa moddalari miqdori yuqori bo‘lgan oqova suvlarni tozalash muammosini hal etishda "Constructed wetlands" tizimlari yuqori samaradorlik ko‘rsatdi [4]. Isroilda esa "sun’iy botqoqlik" usuli yordamida chuchuk suv miqdori va sifati etishmasligi muammosi uni qayta ishlatish uchun tayyorlash orqali bartaraf etilmoqda. Bu jarayonda muallaq moddalar, organik moddalar va ichak tayoqchasi bakteriyalari yo‘qotiladi [17].

Tanzaniya kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun "Constructed wetlands" yordamida oqova suvlarni tabiiy tozalashning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, bunday tizimlar energiya talab qilmaydi va ulardan foydalanish oson [17]. Rossiyada Arktika sharoitida "Constructed wetlands" lardan foydalanish tajribasi mavjud bo‘lib, bu erda ularning boshqa suv tozalash usullariga nisbatan muhim afzalligi namoyon bo‘ladi - past haroratlarda ham oqova suvlarni tozalash samaradorligi saqlanib qoladi va mavsumiy o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Xalqaro loyiha (Rossiya, Finlyandiya, SHvetsiya, Niderlandiya) doirasida Murmansk viloyatining SHonguy qishlog’ida Qutb doirasidan tashqarida oqova suvlarni tozalash uchun dunyodagi yagona bioplato yaratildi [18]. YAnada past o‘rtacha yillik harorat (-1,5°C) va qattiq sovuq qish (-53°C gacha) sharoitida Tomsk viloyatida bir nechta er osti va er usti oqim tizimlari samarali ishlamoqda [19].

SHunday qilib, "constructed wetlands" oqova suvlarni zararsizlantirish texnologiyasini ifloslangan suvlarni chuqur tozalashning an’anaviy usullariga qoniqarli qo‘shimcha yoki ayrim hollarda muqobil usul deb hisoblash mumkin. Buning isboti sifatida mazkur texnologiyaning keng geografik tarqalishi hamda suv havzalarini oqova suvlar bilan ifloslanishidan himoya qilish tizimlarining ekologik muhandisligi sohasida olib borilayotgan ko‘plab tadqiqotlarni keltirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Constructed Wetlands Treatment of Municipal Wastewaters Manual - National Risk Management Research Laboratory; Office of Research and Development; U.S. Environmental Protection Agency. Cincinnati, Ohio 45268 EPA/625/R-99/010. September. 1999.
2. Vymazal J. Constructed wetlands for wastewater treatment // Ecological engineering. Editorial. 2005. P. 3-5.
3. Jin G., Kelley T., Freeman M., Callahan M. Removal of N, P, BOD5, and Coliform in Pilot-Scale Constructed Wetland Systems // International Journal of Phytoremediation. 2002. Vol. 4, № 2. P. 127-141.
4. Ran N., Agami M., Oron G. A pilot study of constructed wetlands using duckweed (Lemna gibba L.) for treatment of domestic primary effuent in Israel // Water Research. 2004. № 38. P. 2241-2248.
5. Thullen J., Sartoris J., Nelson S.M. Managing vegetation in surface-flow wastewater-treatment wetlands for optimal treatment performance // Ecological Engineering. 2005. № 7. P. 125130.
6. Scholz M., Xu J. Comparison of constructed reed beds with different filter media and macro-phytes treating urban stream water contaminated with lead and copper // Ecological Engineering. 2002. № 18. P. 385-390.
7. Kallner S., Eriksson P., Martins I. Potential Nitrification and Denitrification on Different Sur faces in a Constructed Treatment Wetland // Journal of Environmental Quality. 2003. № 32. P. 2414-2420.
8. Headley T.R., Herity E., Davison L. Treatment at different depths and vertical mixing within a one metre deep horizontal subsurface flow wetland // Ecological Engineering. 2005. № 7. P. 260-276.
9. Zdragas G., Zalidis C., Takavakoglou V. et al. The Effect of Environmental Conditions on the
Ability of a Constructed Wetland to Disinfect Municipal Wastewaters // Environmental Management. 2002. Vol. 29, № 4. P. 510-515.
10. Jing S., Lin Y. Seasonal effect on ammonia nitrogen removal by constructed wetlands treating polluted river water in southern Taiwan // Environmental Pollution. 2004. № 127. P. 291301.
11. Jenssen P.D. et al. Potential use of Constructed Wetlands for Wastewater Treatment in Northern Environments // Water Science Techniques. 1993. Vol. 28, № 10. P. 149-157.

OQOVA SUVLARNI TOZALASHNING TEXNOLOGIK SXEMALARI

Rajabov Adhamjon Hamdamovich - t.f.f.d (PhD),
Qosimov Mirjalol Xoshim o‘g‘li., Qurbonov Suxrob Tolibjon o’g’li
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya: Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularning sanitariya va ekologik holatini yaxshilashni ta’minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Maqolada aholi yashash joylarida

hosil bo'ladigan xo'jalik-maishiy oqova suvlarni mexanik va biologik tozalash hamda ularni zararsizlantirish uslublarining nazariy masalalari, inshootlarini loyihalash va hisoblash usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: oqova, mexanik, texnologik, oqilona, xo'jalik, maishiy, sanitariya, zararsizlantirish.

Аннотация: В нашей стране ведется последовательная работа в области охраны окружающей среды, рационального использования природных водных ресурсов, обеспечения улучшения их санитарно-экологического состояния. В статье рассмотрены теоретические вопросы методов механической и биологической очистки и обеззараживания хозяйственно-бытовых сточных вод, образующихся в населенных пунктах, методы проектирования и расчета их сооружений.

Ключевые слова: сточные воды, механические, технологические, рациональные, хозяйственные, бытовые, санитарные, обеззараживающие.

Kirish: Davlatimizda mustaqillikka erishgan yillardan boshlab suv ta'minoti va kanalizatsiya sohasini modernizatsiya qilishga, qayta tiklashga va uni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, o'tgan yillar mobaynida Toshkent, Buxoro, Samarqand, Guliston, Jizzax, Qarshi, Termiz, Quqon va boshqa respublikamiz shaharlarini suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini qayta qurish ishlari amalga oshirildi. Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan qator qarorlar qabul qilinib, ular asosan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bunga O'zbekiston Prezidentining "2017-2021 yillarda ichimlik suvi ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida" PQ-4536 sonli Qarori yaqqol misol bo'la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Oqova suvlarni tozalash darajasi, tozalangan oqova suvlardagi ifloslantiruvchi moddlarning miqdori va RCHU larga bog'liq hollarda oqova suvlarni tozalashning texnologiyalari va shakllari qabul qilinadi. Oqova suvlarni tozalash inshootlarining joylashish ketma-ketligi, ularning tarkibida mavjud iflosliklarni o'lchamiga bog'liq holda, yirigidan kichigiga qarab ajratib olish tartibida joylashtiriladi.

Oqovalarni tozalash shakllari tozalash darajasi, tozalangan suvda ruxsat etilgan iflosliklarning ulushlariga va boshqa omillarni e'tiborga olgan holda tanlanadi. Muallaq moddalar bo'yicha tozalash darajasi 40-50%, KBE bo'yicha esa - 20-30% talab etilganda mexanik tozalash shakllarini tanlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Oqova suvlarni mexanik tozalash texnologik shakli.
1- oqova suvlar; 2- panjara; 3-qumtutgich; 4- tindirgich; 5-aralashtirgich; 6- kontakt xovuz; 7-tozalangan oqovalarni havza qo`shish; 8-maydalagich; 9- qum quritish maydonchalari; 1—metantenk; 11-xlorator; 12-gil quritish maydonchasi; 13-chiqindilar;14-maydalangan chiqindi; 15-qum cho`kmasi; 16-xom cho`kma;17-bijg'itilgan cho`kma;18-drenaj suv;19-xlorli suv.

Oqova suv tarkibidagi yirik jismlarni ushlab olish uchun tirqishlar o'lchami 16 mm bo'lgan panjaralar ishlatiladi. Panjarada ushlab qolingan chiqindilar maydalagichlarda maydalanib, panjara oldidan kanalga tashlanadi. Odatda bu oqovalarni tozalash texnologik shakllari, mustaqil ravishda, kichik aholi yashash joylari, sanoat korxonalari oqova suvlarini tozalash uchun ishlatiladi. Odatda bu texnologik shakllar oqova suvlar sarfi 10 ming m^3/k-k gacha bo'lganda ishlatiladi.

Oqova suvlarni to'liq tozalashga mo'ljallangan, sun'iy sharoitlarda, o'rtacha o'tkazish qobiliyatiga ega (10-20 ming m^3/k-k), oqovalarni tozalash stantsiyalarida biologik inshootlar sifatida biosizgichlar ishlatiladi (2-rasm). Oqova suvlar mexanik tozalash inshootlaridan (panjara, qumtutgich, birlamchi tindirgich) keyin biosizgichlarga yuboriladi, hosil bo'ladigan biologik qobiqlar ikkilamchi tindirgichlarda ajratib olinadi va oqova suvlar zararsizlantiriladi.

Biosizgich oqova suvlar bilan davriy ravishda sug'oriladi va ichida o'rnatilgan jismlar sirtida organik moddalarni oksidlanishi hisobiga biologik qobiq qatlam-qatlam bo'lib o'sadi. Ostki qatlamlarga ozuqa va kislorod yetib bormaganligi sababli, ular ajralib, oqovalar bilan yuvilib chiqariladi. Yuqori ifloslanish darajasiga ega bo'lgan oqovalarni tozalash uchun, biosizgichlarga tushadigan yuklamalarni pasaytirish maqsadlarida ularda retsirkulyatsiya tashkil qilinadi.

Yuqori unumdorlikka ega bo'lgan tozalash stantsiyalarining (50 ming m^3/k-k va undan ortiq) texnologik shakli 3-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Oqova suvlarni sun`iy yaratilgan sharoitlarda biosizgichlarda tozalash shakli
1-oqova suv; 2-panjara; 3-qumtutgich;4-birlamchi tindirgich;5-biosizgich;6-ikkilamchi tindirgich;7-kontakt xovuz;8-oqovalarni chiqarish;9-chiqindilar;10-maydalagich; 11-xlorator;12-xom cho`kma;13-ikkilamchi tindirgich cho`kmasi;14, qum cho`kmasi; 15-bunker; 16-gil quritish maydonchasi.

Bunda oqova suvlarni biologik tozalash jarayoni aerotenklarda olib boriladi. Oqova suvlar panjara – qumtutgich –birlamchi tindirgich inshootlarida mexanik toza-

lash, aerotenklarda esa biologik tozalash amalga oshiriladi. Oqovalarni zararsizlantirish jarayoni kontakt xovuzlarda ro'y beradi.



3-rasm. Oqova suvlarni sun`iy sharoitda aerotenklarda tozalashning texnologik shakli
1-oqova suv; 2-panjara; 3-maydalagich; 4-preaerator;5-birlamchi tindirgich; 6-aerotenk; 7-ikkilamchi tindirgich;8-kontakt xovuz;9-oqovalarni chiqarish;10-chiqindilar;11-maydalagich;12-qum quritish maydonchasi; 13-gil zichlatgich; 14-qum; 15-ortiqcha faol gil; 16-aylanma faol gil; 17-gazgolder; 18-qozonxona, 19-mashina zali;20-metantenk;21-mexanik suvsizlantirish tsexi;22-gaz;23-havo;24-xom cho`kma;25-bijg'itilgan cho`kma;26-foydalanishga;27-xlorator;28-xlorli suv.

Agar aerotenklarga yuboriladigan oqova suvlarning KBEsi>150 mg/l bo'lgan paytda, ular regeneratorli shakl qabul qilinadi. Hosil bo'ladigan faol gilning bir qismi, aylanma gil qaytadan aerotenklarga, ortiqcha qismi esa, ortiqcha gil cho'kmalarga ishlov berish inshootlariga yuboriladi. Muallaq moddalar tindirgichlarda ushlab qolish darajasini oshirish maqsadida preaeratsiya va biokoagulyatsiya ishlatiladi. Buning uchun tindirgich oldidagi kanalda preaeratorlar o'rnatiladi va aylanma gilning bir qismi beriladi.

Oqova suvlar panjara va qumtutgichlarda dastlab tozalangandan keyin, aralashtirgichga yuboriladi. Aralashtirgichda oqova suvlar koagulyant yoki flokulyantlar bilan jadal aralashtiriladi va tarkibidagi iflosliklarni ajratib olish uchun tindirgichga jo`natiladi. Koagulyantlar suvda gidroksidlar hosil qiladi va atrofidagi ifloslantiruvchi moddalarni to`playdi va yirik agregatlarga aylantiradi. Oqovalarni chuqur tozalash uchun sizgichlar ishlatiladi. Tindirgich cho`kmalari zichlantiriladi va tsentrfugalarda suvsizlantiriladi.

Yuqorida keltirilgan texnologik shakllar O'zbekiston va boshqa xorijiy davlatlar oqova suvlarni tozalash amaliyotida keng ishlatiladi. Oqova suvlarni tozalash texnologik shaklini tanlashda tozalash darajasi, RCHU, ifloslantiruvchi moddalarning xossalarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Tozalangan oqova suvlarni qayta foydalanish masalalari muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5863-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 22 apreldagi "2017-2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida" PQ-2910-son Qarori.
На нормативном уровне требуется принятие Закона "О зеленых автомагистралях", который бы законодательно закрепил принцип "нулевого нарушения баланса", обязал проводить компенсационное озеленение в соотношении 3:1 и ввел систему экологического залога для подрядчиков. Одновременно с этим, обязательный архитектурный регламент должен предписывать использование для объектов придорожной инфраструктуры местных материалов (ганч, жженый кирпич, дерево), традиционных орнаментов и цветовых палитр, гармонирующих с природным и культурным контекстом. Это превратит дорогу в культурный маршрут, а не просто в транспортный коридор.

Необходимо выделить, что трансформация автомагистралей Узбекистана в устойчивые, экологически сбалансированные и эстетически привлекательные "зеленые коридоры" — это не статья расходов, а стратегическая инвестиция в будущее. Она направлена на здоровье населения, продовольственную безопасность, сохранение уникального биоразнообразия и туристической привлекательности страны. Дорога должна не противопоставляться ландшафту, а становиться его органичной и укрепляющей частью, демонстрируя гармонию между современной инфраструктурой и хрупкой, но уникальной природой Узбекистана.

ВЫВОДЫ: Проведенный комплексный анализ позволяет сделать ряд основополагающих выводов относительно экологических и ландшафтных проблем автомагистралей Узбекистана и путей их решения.

1. **Проблема носит системный и многоуровневый характер.** Воздействие автомагистралей в условиях Узбекистана не сводится к отдельным загрязнениям, а представляет собой синергетический негативный эффект, где экологические и ландшафтные проблемы тесно переплетены. Воздушное загрязнение усугубляется пылеобразованием, фрагментация ландшафтов ведет к потере биоразнообразия и нарушению гидрологического режима, а химическое загрязнение почв и водных ресурсов напрямую угрожает продовольственной безопасности страны.

2. **Ключевым риском является необратимая деградация природного капитала.** Процессы засоления плодородных земель вследствие использования антигололедных реагентов, потеря почвенного покрова из-за ветровой эрозии и накопление в ecosystems тяжелых металлов и канцерогенных веществ имеют долгосрочный кумулятивный характер. Без незамедлительных и решительных мер ущерб может стать невосполнимым, особенно в условиях хрупких аридных экосистем.

3. **Трансформация подходов к проектированию и эксплуатации дорог является императивом.** Традиционные инженерные решения, не учитывающие экологический и ландшафтный контекст, себя исчерпали. Необходим переход от парадигмы строительства дорог как чисто транспортных объектов к созданию многофункциональных «зеленых коридоров», интегрированных в природную и культурную среду.

4. **Наиболее эффективные решения носят комплексный и адаптированный характер.** Для смягчения последствий необходима комбинация технологических (биоплато, малошумные покрытия, современные реагенты), инженерно-экологических (создание широких буферных лесопарков, экодуки) и нормативно-управленческих мер (закон «О зеленых автомагистралях», архитектурный регламент). Критически важно использование местных, засухоустойчивых видов растений и водосберегающих технологий, таких как капельное оронение.

5. **Предлагаемая стратегия является стратегической инвестицией, а не статьей расходов.** Вложения в «зеленые» технологии и ландшафтное обустройство автомагистралей окупятся за счет продления срока службы дорожного покрытия, повышения туристической привлекательности регионов, сохранения продуктивности сельскохозяйственных земель и, что наиболее важно, улучшения здоровья населения. Устойчивая транспортная инфраструктура станет каркасом не только для логистики, но и для экологического благополучия и экономической устойчивости Узбекистана в долгосрочной перспективе.

Таким образом, достижение баланса между транспортной доступностью и экологической устойчивостью является не технической задачей, а стратегическим выбором в пользу безопасного и процветающего будущего республики.

Литература:

1. Health Effects Institute (HEI). (2019). Traffic-Related Air Pollution: A Critical Review of the Literature on Emissions, Exposure, and Health Effects. HEI Special Report 17. https://www.healtheffects.org/system/files/trap-special-report-2019.pdf

2. Forman, R. T. T., et al. (2003). Road Ecology: Science and Solutions. Island Press. (Фундаментальный труд, описывающий эффект фрагментации).

3. European Landscape Convention. (2000). Council of Europe. https://www.coe.int/en/web/landscape (Международный стандарт интеграции инфраструктуры в ландшафт).

4. Kayhanian, M., et al. (2007). "Critical review of heavy

metal pollution in highway runoff." Journal of Environmental Engineering, 133(2), 123-135.

5. Wei, B., & Yang, L. (2010). "A review of heavy metal contaminations in urban soils, urban road dusts and agricultural soils from China." Microchemical Journal, 94(2), 99-107.

6. Cunningham, M. A., et al. (2008). "The effect of road salts on the water quality of lakes and streams in the Twin Cities metropolitan area, USA." Environmental Geology, 55(3), 609-617.

7. The World Bank. (2019). The Global Assessment of Sand and Dust Storms. (Отчет, описывающий глобальную проблему пылеобразования, актуальную для Узбекистана). https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/32568

UDK 636.087.2

SANOAT CHIQINDILARI ASOSIDAGI QURILISH BITUMINING XOSSALARINI TADQIQ ETIISH

Erboyev Sh.O., PhD dos., **Istamov Y.** – magistrant, **Rustambekov M.** - magistrant
Rahmonov J. D. Talaba, **Suyunov H. R.** Talaba (JizPi),

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoat chiqindilaridan foydalanib bitum ishlab chiqarish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Bitum, mastika, sanoat chiqindisi, qurilish, izolyatsiya, sovuq, choklar, issiq, himoya.

Аннатация: В этой статье представлена информация о производстве битума с использованием промышленных отходов.

Ключевые слова: Битум, мастика, промышленные отходы, строительство, изоляция, холод, швы, тепло, защита.

Annatation. This article provides information on the production of bitumen using industrial waste.

Keywords: Bitumen, mastic, industrial waste, construction, insulation, cold, seams, heat, protection.

Kirish: Respublikamiz quruvchilari oldidagi maqsad va vazifalari kelajakda mustahkam va ko'rkam binolar keng va ravon aftomabil yo'llar qurishdan iborat. Bunday qurilishlarda muammolar vujudga kelib, bino temirbeton konstruksiyasi avtomabil yo'llariga yotqiziladigan beton temirbeton konstruksiyalar odatda odatda statik aniqlanmaydigan sistemalar bo'lib, ular harorat o'zgarganda kirishish, deformatsiyalar hosil bo'lganda, notekis cho'kkanda qo'shimcha zo'riqishlar vujudga kelib ularda darz hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday zo'riqishlarni kamaytirish uchun uzunligi keng konstruksiyalardan foydalanish harorat kirishish va notekis cho'kish choklari qoldirish maqsadga muvofiq.

Bitumdan foydalanishda isitish jarayonida qattiq materiallarni yaxshi singdirishga qodir bo'lgan yopishqoq suyuqlikka aylanishiga asoslanadi. Keyinchalik sovutilgandan so'ng, bitum qattiqlashadi, yopishqoqlikni ta'minlaydi, shuningdek, u bilan ishlov berilgan materiallarga qo'shimcha kuch beradi. Bitumning eng muhim afzalligi - bu materialning suvga chidamliligi; Ba'zi mineral moylarda, shuningdek, barcha organik erituvchilar, kerosin, xloroform, uglerod disulfidi, benzol va boshqalarda yaxshi eriydi. Shu bilan birga, bitum metallar va betonda korroziya jarayonlarini qo'zg'atuvchi agressiv moddalarga chidamli bo'lib, bu uni qurilishda zarur materialga aylantiradi [1].

Modifikatorni bitumga kiritishning asosiy maqsadi uning harorat sezgirligini pasaytirish, ya'ni yozda uning qattiqligini oshirish va qishda pasayish, shuningdek elastiklik berish - butun ish harorati oralig'ida qaytariladigan deformatsiyalar qobiliyati. Agar ushbu maqsadga erishilgan bo'lsa, unda modifikator yordamida rulonli qoplama past haroratli yorilishga chidamliligi va chidamliligi bilan ajralib turadi. MBni olishning zaruriy sharti ikkala komponentning mosligi, ya'ni polimerning bitum dispersiyasi muhitida shishishi yoki erishi qobiliyatidir. Modifikatorni bitum bilan birlashtirish usuli muhim ahamiyatga ega, uning tanlovi ishlatiladigan materiallarning xususiyatlari bilan belgilanadi. MB olishning asosiy usullari:

- polimerni (kukun yoki granulalar shaklida) bitum bilan 150 – 200 °C haroratda va kuchli aralashtirishda aralashtirish;
- isitilgan bitumga polimer eritmasini (turli uglevodorod erituvchilarida) kiritish (bitum harorati erituvchi turiga bog'liq);
- MB olish uchun har xil turdagi pichoqlar, kolloid tegirmonlar, gidrodinamik mikserlar ishlatiladi [2-4].

Bitumlarning o'rtacha molekulyar og'irligi 700-800, haqiqiy zichligi taxminan 1000 kg/m3 [5-6].

Bitumlarning elementar tarkibi ularni tashkil etadigan mumkin bo'lgan kimyoviy birikmalar haqida taxminiy tasavvur berganligi sababli, guruh kimyoviy tarkibini aniqlash taklif etiladi.

Ko'pincha, ushbu texnologiya yuqori viskoziteli bitum olinmaguncha smolaning chuqur oksidlanishini amalga oshiradi, so'ngra oksidlangan bitumni engilroq neft mahsuloti, masalan, selektiv tozalash ekstrakti yoki smola bilan suyultiradi. Ushbu bitumlarni oldingi bitumlarga o'xshash tarzda tuzilgan yoki aralash deb atash mumkin.

So'nggi yillarda Rossiyada oksidlanish jarayonlarini kuchaytirish, bitum xususiyatlarini yaxshilash uchun sirt faol moddalar va polimer materiallardan foydalanish bo'yicha bir qator takliflar ishlab chiqildi. Ushbu takliflar asosida bitum ishlab chiqarishning yangi texnologiyalari tajriba va ishlab chiqarish miqyosida o'zlashtirilmoqda[10].

Ilmiy natijalar va sinov usullari: Smola ishlab chiqarish texnologiyasi, tarkibi va xususiyatlarini tanlashning bitum sifatiga ta'siri**.** Xom ashyo tabiati va oksidlanish davomiyligining oksidlangan bitumlarning tarkibi va xususiyatlariga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, eng yaxshi xom ashyo aromatik asosning yuqori qatlamli moylari hisoblanadi. Ushbu neftlarning og'ir qoldiqlari oksidlanganda, asosan, xom ashyo tarkibidagi qatronlarni asfaltenlarga

aylantirish jarayonlari sodir bo'ladi [7].

Yengil neft qoldiqlari sifatida foydalanilganda, qatronlar va asfaltenlarning asosiy hosil bo'lish manbai uglevodorodlardir. Bunday holda, asfaltenlarda past molekulyar og'irlikdagi va kondensatsiyalangan tuzilmalar ustunlik qiladi [8].

Bitumlarni olish paytida smolalarning oksidlanishi jarayonida bir vaqtning o'zida ko'plab reaktsiyalar sodir bo'ladi: oksidlovchi dehidrogenatsiya, dealkilatsiya, oksidlovchi polimerizatsiya, polikondensatsiya, yorilish, keyinchalik uning mahsulotlarini siqish. "Siqilish" jarayoni oksidlanish jarayonida vodorodning ko'payishi natijasida yuzaga keladi, bu tsiklizatsiya reaktsiyalari bilan birgalikda yuqori darajadagi aromatik yuqori molekulyar og'irlikdagi mahsulotlar - asfaltenlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Xom ashyo tarkibidagi neft uglevodorodlari (moylari) bir vaqtning o'zida ikki yo'nalishda oksidlanadi:

Ma'lumki, oksidlanishning chuqurlashishi bilan dealkilatsiya reaktsiyasi tufayli Bitumda qisqa alkil zanjirlari (CH2) n (no 4) bo'lgan birikmalarning nisbiy ko'payishi kuzatiladi; tsikllarda benzol halqalarining ulushi va bitumda C:H nisbati nisbatan oshadi 1-rasmda oksidlanish jarayonida smolaning kimyoviy tarkibi qanday o'zgarishi ko'rsatilgan [8].

Ko'rib turganingizdek, aromatik uglevodorodlar oksidlanish reaktsiyalariga eng faol kiradi. Ularning umumiy konversiyasi massalarning 60% dan ortig'ini tashkil qiladi. Oksidlanish jarayonining asosiy yakuniy mahsulotlari og'ir alkogol-benzol qatronlari va asfaltenlar, shuningdek yuqori uglerodli mahsulotlar - karbenlar va karboidlar bo'lib, ularning miqdori mos ravishda 1,5, 8,3 va 2 baravar ko'payadi.



1– rasm Oksidlanish jarayonida smola kimyoviy tarkibining o'zgarishi

Yopishqoq neft yo'l bitumlari to'g'ridan-to'g'ri neftni distillash mahsulotlarini oksidlash va neft mahsulotlarini tanlab ajratish (asfaltni tozalash, selektiv tozalash ekstraktlari), shuningdek ko'rsatilgan oksidlangan va oksidlanmagan mahsulotlarni aralashtirish yoki to'g'ridan-to'g'ri neftni distillash qoldig'i shaklida ishlab chiqariladi.

Naften - aromatik uglevodorodlarning yuqori miqdori bo'lgan asfalt-qatronli neftlarning xom ashyosi maqbuldir. "Igna chuqurligi 25°C" ko'rsatkichining qiymatiga qarab, yopishqoq yo'l neft bitumlari quyidagi markalarga bo'linadi: BND 130/200, BND 100/130, BND 70/100, BND 50/70, BND 35/50, BND 20/35. Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha bitumlar 1-jadvalda ko'rsatilgan talablar va standartlarga javob berishi kerak.

Jadval-1

GOST 33133-2014 bo'yicha yo'l bitumlarining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich nomi	**Marka bitumi uchun norma sinov usuli**						**Tadqiqot usuli**
	ND 130/200	**BND 100/130**	**BND 70/100**	**BND 50/70**	**BND 35/50**	**ND 20/35**	
1 igna chuqurligi 25 °C, 0,1 mm	131-200	101-130	71-100	51-70	36-50	20-35	GOST 33136
2 Harorat halqa va sharchani yumshatish, °C, past emas	42	45	47	51	53	55	GOST 33142
3 cho'ziluvchanlik 0°C, sm, kamida	6,0	4,0	3,7	3,5	aniqlanmagan		GOST 33138
4 harorat mo'rtlik,°C	-21	-20	-18	-16	-14	-11	GOST33143
5 harorat Fleshli, °C, kamida	220	230	230	230	230	230	GOST 33141
6 o'zgartirishdan keyin namuna massasi, %	0,8	0,7	0,6	0,6	0,5	0,5	GOST 33140
7 o'zgartirishdan keyin yumshash harorat°C	7	7	7	7	6	6	GOST33140 GOST33144
	Qo'shimcha ko'rsatkichlar						
8 cho'ziluvchanlik 25°C da, sm, kamida	80	70	62	60	50	40	GOST 33138
9 haroratdan keyin mo'rtlik, °C,	-18	-17	-15	-13	-11	-8	GOST33140 GOST33143
10 chuqurlik igna 0 °C, 0,1 mmda otishi	40	30	21	18	14	10	GOST 33136
11 eruvchanlik, %	**99,0**						GOST33135
12 indeks penetratsiyalar	$-1,0^{O}$ +1,0						GOST 33134

Xulosa: xulosa qilib aytganda, biz taklif etayotgan mastika tarkibi mahalliy sanoat chiqindilaridan iborat bo‘lib, ularning yuqori mustahkamliligi plastiklik xususiyati tannarxni arzonligi yangi tarkiblar bilan boyitilishi yuqori fizik maxanik ko‘rsatkichlari va ularni tayyorlash texnologiyasi bilan farqlanadi. Ushbu tadqiqot ishida "JIZZAX YO’L QURILISH – TA'MIR" MCHJ yo'l bitumining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

bo'yicha tadqiqotlar keltirilgan, yo'l bitumidan turli xil modifikatorlarni kiritish orqali tom yopish bitumi olingan, bitum va modifikatorning optimal nisbati aniqlangan. Tadqiqot Texnonikol, flagman kompaniyalarining tom yopish materiallari va polimer-bitum kompozitsiyalarining prototiplarini taqqoslash orqali o'zgartirilgan bitumdan rulonli qoplamalar uchun asos sifatida foydalanishning ijobiy natijasini aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. Erboyev Sh.O., Tilavov E.N.,"Lak bo'yoq materiallar texnologiyasi" O'quv qo'llanma Jizzax 2022 y.

2. Erboyev, S. O., Axmedov, R. A., & Jo'rayeva, D. K. (2023). Оралиқ қурилмаларни диагностика қилиш тизимларини такомиллаштириш. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(11), 201-204.

3. Эрбоев, Ш. О. (2022). Кўприк таянчлари юк кўтариш қобилиятини аниқлашнинг усуллари. Science and Education, 3(4), 241-246.

4. Эрбоев, Ш. О. (2015). Темир йўл кўприкларидаги носозликларни аниқлаш. Тошкент темир йуллари мухандислик институти АХБОРОТИ чорак журнали Toshtymi AXBOROT, 2, 28-31.

5. Ochiltoshevich, E. S. (2016). Organizational and structural measures to improve the process of operation concrete span. European science review, (9-10), 184-186.

6. Эрбоев, Ш. О. (2010). Оценка эксплуатационной пригодности элементов пролетных строений. Механика муаммолари, 1, 47-49.

7. Istamov, Y. (2022). ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО СОСТАВЛЕНИЯ И ПРОЕКТИРОВАНИЯ СОСТАВА АСФАЛЬТОБЕТОННЫХ СМЕСЕЙ. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 302–309. Retrieved from https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/52

8. Yusuf, I., & B.A.Tursunov. (2022). SANOAT CHIQINDISI VA MINERAL QO'SHIMCHALAR ASOSIDA OLINGAN SEMENTLARNING FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI O'RGANISH. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 324–329. Retrieved from https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/55

ШАҲАР ВА ТУМАНЛАРДА МАИШИЙ АХЛАТ ЧИҚИНДИЛАРНИ ЙИҒИШ, САРАЛАШ, ТАШИШ ВА УТИЛИЗАЦИЯ ҚИЛИШ ТИЗИМЛАРИ МЕХАНИЗМИ ТАҲЛИЛЛАРИ

Худоёров Шароф Тўйчиевич- доцент. Жиззах политехника институти

Аннотация: Тақдим этилаётган мавзуда маҳаллалар ҳудудида экологик ва санитария назорати соҳасига тегишли бўлиб, тозалик ва ободонлаштириш ишларидаги муаммолар ва уларни ҳозирги кундаги ҳолати тўғрисида маълумотлар келтирилган. Юқорида келтирилган санитария –гигиеник ҳолатлар тахлил қилинганда ахлатхоналарда махсус ПОСТ ТБО лар қуриш ва унинг назоратини олиш ҳисоб китобини олишдек муҳим масалаларни ечиш каби ушбу механизмга янгича ёндашиш механизмини яратиш зарурлигини тақозо этмоқда.

Калит сўзлар: Тоза ҳудуд ДУК, саралаш, эколою метал чиқитлар, полиетилен.гик модел, пост ТБО, санитария, қизил, сариқ, кўк, яшил ранг, шиша, суяк, метал чиқитлар, полиетилен.

Аннотация: Представленная тема относится к сфере экологического и санитарного контроля в пределах махаллей (местных сообществ), в ней приведены сведения о текущем состоянии проблем, связанных с чистотой и благоустройством. Анализ санитарно-гигиенического состояния, приведённый выше, показывает необходимость создания нового механизма подхода к решению таких важных задач, как строительство специализированных пунктов ТБО на местах и организация их контроля и учета.

Ключевыеслова: Государственное унитарное предприятие, «Тоза ҳудуд», сортировка, экологически опасные металлические отходы, полиэтилен, гигиеническая модель, пост ТБО, санитария, красный, жёлтый, синий, зелёный цвет, стекло, кости, металлические отходы, полиэтилен.

Abstrakt: The proposed topic concerns environmental and sanitary control in the territories of settlements, as well as issues related to cleaning and landscaping works, as well as the current state of these issues. When analyzing the aforementioned sanitary and hygienic conditions, it is necessary to create a new approach to solving such important issues as the construction of special waste disposal posts in garbage containers and their control, which requires the creation of a new mechanism to address this problem.

Keywords: Clean area DUK, sorting, ecological waste, polyethylene, ecological model, waste disposal post (TBO), sanitation, red, yellow, blue, green color, glass, bones, metal waste, polyethylene.

Маҳаллаларда ахлат чиқиндилар тўплаш ва олиб чиқиб ташлашни ташкиллаштириш механизми етарли даражада шакилланмагани улар учун махсус ПОСТ ТБО лар қурилмаган. Шу соҳанинг вакиллари томонидан (Тоза ҳудуд ДУК) корхонаси томонидан ташкил этилган чиқиндини олиб кетилиши график холда олиб борилмайди. Натижада Ахлатхоналарда чиқиндиларнинг тўпланиб қолиши ва ҳиди чиқиб кетиши ҳамда санитария ва гигиена ҳолатларининг бузилиши ҳолатларини келтириб чиқаради. Ахлат чиқиндилар учун қўйилган махсус идишларга уй рўзғор ва бошқа чиқитлар сартирофка қилинмаган холда тўкилиши назоратга олинмайди. Маҳалладаги аҳоли сонига қараб ва ҳар бир оиладан чиқадиган чиқиндиларни ҳисоб китоби олинса Тоза ҳудуд ДУК томонидан қўйилган автомашина уз вақтида олиб кетган бўлар эди. Натижада маҳаллалар ҳудудида жойлашган ахлатхоналарда чиқиндиларнинг аралашиб, экологик ҳолатларнинг бузилиши, айниқса ёз кунлари бундай чиқиндиларнинг тез бузилиши натижасида ҳудудга кириб бўлмайди. Аҳоли айниқса катта шаҳарларда ахлатхоналар қолиб кўчаларга мусорларни ташлаб кетилаяпти. Юқорида келтирилган санитария-гигиеник ҳолатлар таҳлил қилинганда ахлатхоналарда махсус ПОСТ ТБО лар қуриш ва унинг назоратини олиш ҳисоб китобини олишдек мухим масалаларни ечиш каби ушбу механизмга янгича ёндашиш механизмини яратиш зарурлигини тақозо этмоқда. Мавжуд ҳолатлар таҳлил қилинганда ахлатхоналарни ПОСТ ТБОларни янгича механизмини яратиш зарурлигини тақозо этмоқда.

Маиший чиқиндиларни тартибга солиш борасида маъсул бўлган корхона ва нотижорат ташкилотлар (Тоза ҳудуд ДУК, МФЙ) ҳамда туман хокимлиги фаоллиги маҳаллаларда фуқаролар билан шартнома тузиш аҳолидан чиқаётган маиший чиқитларга тўлов тизимини такомиллаштириш механизмини жорий этиш фуқаролар ўртасида тарғибот ташвиқот тушинтириш ишларини йўлга қўйиш каби муҳим масалалар шулар жумласидандир.

Ушбу масалага бундай ёндашув механизмини яратиш мақсадида маҳаллалар ҳудудларида экологик ва санитария ҳолатини яхшилаш инсон саломатлигини сақлаш ва тирик мавжудодлар учун экологик муҳитни сақлаш ишлаб чиқариш ва аҳолидан уйрўзғор чиқиндиларни атроф муҳитга зарар келтирмаган ҳолда чиқариб ташлаш, пост (ТБО) лар қуриш, тўпланган ахлат-чиқиндиларни маҳалла ҳудудидан олиб чиқиб кетиш, шаҳар, туман ахлатхоналарига жойлаштириш ва утилизация қилиш ишлари тартибга солинади.

Ҳозирги оғир экологик ва санитария аҳволининг ижобий томонга ўзгариши маҳаллий ҳокимият органларининг ҳамда тегишли коммунал хўжаликларининг ишига кўмаклашади. Лойиҳанинг маҳаллада амалга оширилиши бор йўғи қисқа вақт ичида 3 ой мобайнида ўзининг ижобий самарасини беради. Энг муҳими ушбу лойиҳалар чет эллик инвесторларни жалб этишгина қолмай гуманитар фондларнинг фаолиятининг фаоллигига, аҳолининг ҳуқуқий онгининг ошишига, тартиб қоидаларга риоя этилишига эришилади. Бунда, қутилар хажми $V=\Pi RH=0,53м^3$ бўлади. Яъни ТБО=53 кг. Оғирликдаги ахлат чикиндилар жойлашади. Кутилар оғирлиги 60-70 кг дан иборат бўлади.

Пост ТБО да ахлат тўкиладиган қутилар қуйидагича жойлаштирилади:

№ 1-кизил рангда (озик-овкат махсулотлари, маиший чикинди).

№2-сарик рангда-полиэтилин коғоз чикитлар.

№-3 кўк рангда суяк , шиша метал чикитлар.

№4-яшил рангда-курилишдан чикадиган каттик чикитлар.

Жами ҳар бир пост ТБО да аҳолинг жойлашишига қараб ўртача 10 дона ахлат тўкиладиган қутилар ўрнатилади. Яъни №1 рақамли қутилар 3 дона, №2 рақамли қути 2 дона, № 3 рақамли қутилар 2 дона, № 4 раками қутилар 3 дона. Бундай ёндашув механизмини яратишдан мақсад ПОСТ ТБОларни ташкилаштириш ва ундан идиш сифатида пластмасса идишлардан фойдаланиш тартибини жорий қилиниши назарда тутилади.

Бундай ёндашув механизмини яратишдан мақсад ПОСТ ТБОларни маҳаллаларда ахлат-чиқиндиларни тўплаш, олиб чиқариб ташлашни ташкиллаштириш ва махсус ТБО лар қурилиши амалга оширилади. ПОСТ ТБОларда 1-2 техник контролерлар ишга жалб этилади. Ва улар томонидан эрталаб соат 6-00 дан 8-00 гача, кечқурун 18-00 дан 20-00 гча ТБО ларни аҳолидан қабул қилиб олади. Махсус одам пост ТБОларда жойлашган қутиларга ахлат чиқиндиларни сартировка қилинган холда тўкилишини назоратга олади, хамда тўкилган ТБО бўйича ҳар бир оилага (фуқарога) махсус квитанциялар берилади. Шунингдек тўкилган ТБО лар ҳажмини журналга ёзади ва бир нусха квитанцияни фуқарога тақдим қилади. Квитанцияда фуқаро ёхуд оила аъзосининг исми шарифи, уй манзили, ТБО миқдори кг да тўкилади санаси, вақти кўрсатилади, квитанцияга имзо чекилади. Контролер тўпланган чиқиндилар ҳақида ТБО бўйича хисобот қилади ва Тоза ҳудуд ДУК хисобчисига маълумотнома топширади. Ҳисобчи ҳар ойнинг охирида барча топширилган квитанцияларин йиғиб сарҳисоб қилади ва фуқаролар номига бажарилган ишлар юзасидан тўланадиган тўловларни маҳаллага топширади.

Ахлат чиқинди идишларини модернизация қилиш натижасида ПОСТ ТБОларни ишлаш принципи ва жойлашиш схемаси орқали ҳам кўриш мумкин.

Бу усулда ахолининг жойлашишига қараб махсус идишлар ПОСТ ТБОларга жойлаштирилади ва ҳар бир идишга солинадиган ахлат чиқиндилари саралланган холда тур-тури билан алохида рангдаги идишларга солинади.

Адабиётлар:

1. "Маиший ахлатни қайта ишлаш ва утилизация қилиш" – Л.Н. Хочиева, М.С. Назаров, Тошкент. "Ўзбекистон" нашриёти. 2015.
2. "Жаҳон тажрибасида чиқиндиларни қайта ишлаш ва утилизациялаш" – Ж. Давронов, Тошкент. " Иқтисодиёт " нашриёти. 2018.
3. "Табиий ресурслар ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш" – А.А. Абдуллаев, Тошкент. " Фан " нашриёти. 2018.
4. "Қайта ишлаш ва утилизация қилиш: ишлаб чиқариш ва маърифий йўналишлар" – Ф. С. Муҳаммадалиев, Тошкент. " Саноат " нашриёти. 2020.
5. "Утилизация ва қайта ишлаш: Атроф-муҳитга таъсирини камайтириш" – Р. Нуриддинов, Тошкент. " Экология" нашриёти. 2021.
6. "Маиший ахлатлар ва уларни қайта ишлаш" – М. Бозоров, Тошкент. " Технология ва экологик ахборот " нашриёти. 2026.

INSHOOT PASTKI BYEFI MAHALLIY YUVILISH UCHASTKASIDA OQIMNING KINEMATIKASINI TADQIQOTLASH

Eshev S.S., dotsent (PhD) **Isaqov A.N.,** t.f.d prof., **Yuldosheva.U.T.** doktorant
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya:Suv tashlash inshootlarini loyihalashda byeflarning tutashish uchastkalaridagi gidravlik sharoitlarni aniqlash kerak bo‘ladi. Bu inshootlardagi byeflarning tutashishining gidravlik asosiy belgilaridan bo‘lib, oqimning notinch holatdan tinch holatga o‘tish rejimi hisoblanadi. Bizga ma’lumki, bunday rejimga o‘tish faqat gidravlik sakrash hodisasi orqali sodir bo‘ladi. Bu uchastkalardagi oqimning ortiqcha energiyasini so‘ndirish gidravlik sakrash (tub yoki sirtqi) ko‘rinishlaridan biri yoki oqimni tashlash orqali amalga oshiriladi.

Kalit so‘z: eroziya, bog‘langan grunt, quyi byef, turbulent oqim, tajriba, oqim tezligi, agregat, chidamlilik, model,

Tub rejimli tutashishni suv tashlash inshootlarining hamma turlari uchun o‘rnatish mumkin. Bu rejimning kamchiligiga uchastka uzunligi bo‘yicha so‘ndiriladigan tub tezliklarning sezilarli va sekin so‘nishini, shuningdek, qattiq materiallarning aylanish zonasida aylanishi tufayli suv tashlash inshootining elementlarini shikastlanishi sabablarini keltirish mumkin. Tub rejimli byeflarning tutashishidagi so‘ndirgich quduqlarda qattiq materiallar tushishida quduqlarning so‘ndirish plitalarini yemirib shikastlaydi.

Gidravlik rejimning bunday keskin o‘zgarishi nisbatan qisqa masofada va o‘zan kengligiga nisbatan to‘g‘on suv tashlash kengligining siqilishi ta’sirida bo‘ylama va ko‘ndalang kesimlarda tezliklarning intensiv o‘zgarishi tabiati bilan ifodalanadi. Bu vaziyat ortdagi tinch oqim rejimiga nisbatan oqim sarfi va tezliklarining keskin ortishiga sharoit yaratadi. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin: ko‘pgina holatlarda oqim tushishi suv tashlash fronti uzunligi bo‘yicha ravon bo‘lmaganligi uchun oqim strukturasining buzilishiga, bu esa keyinchalik solishtirma sarfning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Pastki byefdagi keng o‘zanli yuvilish sodir bo‘ladigan uchastkaga tushadigan buzilgan oqimcha harakatlanadigan chegaraviy muhit oqim tezlik maydonini ancha deformatsiyalaydi hamda oqimchaga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda oqim tezliklarining dastlabki epyurasi keskin fursatda oqim o‘qidagi ega bo‘lgan qiymatlariga ko‘ra uning boshqa ko‘rinishiga o‘zgaradi va uning suv aylanish zonasiga tutashuvchi xududida oqim tezliklarining keskin pasayishi sodir bo‘ladi.

Pastki byefda bunday oqim kinematik strukturasining buzilishi deformatsiyalanadigan o‘zanda mahalliy yuvilishni oshiradi, oqiziqlar tashilishini va ularning belgilangan byef xududida to‘planishini buzadi va ularning pastki byefga tushishini to‘xtatadi. Bunday sharoit inshootning ish rejimiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, risbermadan keyingi deformatsiyalanuvchi uchastkada gidrodinamik bosim va tezliklar pulsatsiyalarining ortishi o‘zan umumiy yuvilishini intensivlashtiradi, bu esa suv sathining pasayishiga va inshoot naporining ortishiga olib keladi. Bu holatda ro‘y beradigan mahalliy yuvilish inshootning yuvilishi uchun sharoit yaratadi va uni oldini olish uchun esa maxsus qo‘shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqoza etadi.

Agar gidrotexnik inshootning pastki byefi tez yuviladigan gruntdan iborat bo‘lsa, unda oqib tushadigan suvlarning energiyasini samarali so‘ndirish uchun pastki byef sathlarining tutashishi tub yoki sirtqi gidravlik sakrashlar ko‘rinishida bo‘lishi kerak.

Suv tashlash inshooitidan tushgan oqimcha bilan pastki byef tutashish qismida oqim chuqurligi bo‘yicha tezliklarning taqsimoti tranzit oqimchaning notekis tabiatiga ega bo‘lgan qismida yuqori tezliklar kuzatiladi. Suv aylanish zonasi markaziga qadar oqim tezligi nolgacha keskin kamaya boradi va keyingi holatlarda alohida tranzit oqimchadan suv aylanish chegarasigacha teskari yo‘nalishga ega bo‘lgan tezliklar bilan almashadi. Pastki byefda oqimning energiya so‘ndirgich va mahkamlangan chegaralarida chuqurlik bo‘yicha oqim tezliklari sekinlik bilan tekislanadi, uning har xil so‘ndirgichlar bilan o‘zaro ta’sirida esa oqim tezliklarning qayta taqsimoti paydo bo‘ladi

Oqim pastki byefdagi risbermaning uzunligiga bog‘liq xolda risbermaning oxirida oqim rejimining ravon o‘zgaruvchan tekis holatida yoki risbermadan keyin to‘lqinsimon holatdagi so‘ndirilmagan gidravlik sakrash ko‘rinishidagi tez o‘zgaruvchan notekis holatida bo‘lishi mumkin. Qayd etilgan oqimning keyingi ko‘rinishida o‘rtalashtirilgan tezliklar taqsimoti epyurasi murakkab shaklga ega bo‘lib, ravon oqimning tezlik pulsatsiyalaridan yuqori bo‘ladi. Risbermadan keyingi mahalliy yuvilish voronkasida, ancha katta bo‘lgan tezlik maydonining uzatilishi sodir bo‘ladi. Bunday holatda yuvilish voronkasi chuqurligi bo‘yicha o‘rtalashtirilgan tezliklarning taqsimoti ortiqcha energiyaning so‘ndirish darajasiga, yuvilish voronkasining shakliga, solishtirma sarflarning taqsimotiga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Suv tashlash inshootlaridagi suvning harakati oqimchali xususiyatga ega. Suv aylanish zonasi paydo bo‘ladigan kengayadigan o‘zanlardagi oqimning harakati, chegaralangan muhitdagi tekis oqimchalar harakatiga nisbatan juda murakkab tavsifga ega bo‘ladi. Bu sharoitda oqim o‘ziga mujassam etgan asosiy oqimchali harakati xususiyatlarini o‘zida saqlagani uchun uni birinchi yaqinlashishda chegaralangan o‘zan kengiligi bo‘yicha tekis yoki g‘adir-budir tubli turbulent oqimcha sifatida qarasa bo‘ladi.

Bu paragrafda mavjud ma’lumotlar va olib borilgan eksperimental ma’lumotlar asosida pastki byef bog‘langan gruntli uchastkasidagi yuvilish voronkasida oqimning kinematik strukturasini o‘rganish, ushbu yuvilish voronkasining maksimal yuvilish chuqurligi va shaklini aniqlash uchun kerak bo‘lgan oqim tezliklarining chuqurlik bo‘yicha taqsimlanishi orasidagi bog‘lanishlarni o‘rnatish maqsad qilib belgilab olindi.

O‘tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari 2-bobda bayon etilgan va ma’lumotlar 1-jadvalga kiritilgan.

1-jadval

To‘lqinli gidravlik sakrash ta’sirida laboratoriyadan olingan ma’lumotlar

№	I_{stv}			II_{stv}			III_{stv}			IV_{stv}			V_{stv}			VI_{stv}		
	h_1	l_1	ν_1	h_2	l_2	ν_2	h_3	l_3	ν_3	h_4	l_4	ν_1	h_5	l_5	ν_5	h_6	l_6	ν_6
1.1	0.045	0,10	0,28	0,05	0,20	0,34	0,065	0,30	0,34	0,06	0,40	0,45	0,04	0,50	0,55	0,035	0.60	0,47
			0,37			0,32			0,32			0,5			0,48			0,35
			0,35			0,25			0,25			0,48			0,4			0,26
			0,25			0,19			0,19			0,35			0,32			0,22
1.2	0,052	0,10	0,6	0,06	0,20	0,55	0,068	0,30	0,55	0,065	0,40	0,69	0,045	0,50	0,43	0,04	0.60	0,39
			0,67			0,64			0,64			0,71			0,47			0,4
			0,63			0,63			0,63			0,69			0,46			0,35

			0,53			0,6			0,6			0,65			0,45			0,28
1.3	0,055	0,10	0,45 0,81 0,87 0,8	0,065	0,20	0,35 0,45 0,42 0,35	0,07	0,30	0,35 0,45 0,42 0,35	0,068	0,40	0,75 0,68 0,55 0,42	0,050	0,50	0,50 0,48 0,42 0,35	0,045	0.60	0,38 0,42 0,45 0,38
1.4	0,062	0,10	0,82 0,83 0,85 0,80	0,07	0,20	0,81 0,88 0,93 0,90	0,076	0,30	0,81 0,88 0,93 0,90	0,073	0,40	0,87 0,97 0,94 0,85	0,055	0,50	0,71 0,82 0,79 0,76	0,05	0.60	0,65 0,72 0,69 0,65
1.5	0,065	0,10	0,86 0,84 0,78 0,65	0,075	0,20	0,84 0,88 0,90 0,82	0,08	0,30	0,84 0,88 0,90 0,82	0,076	0,40	0,88 0,84 0,80 0,75	0,065	0,50	0,81 0,79 0,72 0,65	0,055	0.60	0,78 0,74 0,65 0,60
1.6	0,068	0,10	0,92 0,95 0,88 0,82	0,080	0,20	0,94 0,92 0,85 0,79	0,09	0,30	0,94 0,92 0,85 0,79	0,085	0,40	0,85 0,96 0,94 0,83	0,075	0,50	0,83 0,95 0,90 0,83	0,06	0.60	0,82 0,95 0,88 0,75

Yuqorida qayd qilingan masalani yechimini topishga harakat qilamiz. Buning uchun hisobni osonlashtirish uchun 1-jadvaldan kerakli ma'lumotlarni 1-jadvalga kiritamiz.

1...3-rasmlarda to'lqinli sakrashdan keyingi deformatsiyalanadigan o'zan uchastkasi boshlanishida sodir bo'ladigan yuvuvilish voronkasi bo'ylab stvorlarida o'lchangan oqim tezliklarining (1.1-jadval) taqsimlanishi keltirilgan.

Risberma oxiridan oqib o'tgan suv oqimi deformatsiyalanadigan bog'langan grunt o'zaniga o'tishida 1-paragrafda ta'kidlangandek, bog'langan gruntga oqim ta'sir qilganda yuvilish mexanizmida bir qator xususiyatlar paydo bo'ladi. Yuvilish davri boshida loyli mayda zarralar oqim ta'sirida yuvilib ketadi, keyin esa oqimning yanada ta'siri davomida agregatlarning uzilishi, ya'ni yuvilish jarayoni kuzatildi (1.1-rasm, I-stvor).



1-rasm. Yuvilish voronkasida oqim tezligining taqsimoti (1.1-tajriba)

Yuvilish voronkasi boshlanishida bu holat tez fursatda sodir bo'lib, keyingi vaqt davomida katta diametrli agregatlarning uzilishi boshlandi. Bu holat yuvilish voronkasining kirish nishabligi bo'yicha davom etdi (1-rasm, II-stvor). Yuvilish voronkasi paydo bo'lganda, uziladigan agregatlarning o'lchamlari sezilarli darajada kamayadi. Uziladigan agregatlarning diametri, albatta, ko'p jihatdan bog'langan gruntning tekstura va strukturasiga, lekin asosan yuvilish voronkasidagi oqimning turbulentlik masshtabiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Bu holat toki yuvilish voronkasi maksimal chuqurligini olganga qadar davom etdi (1-rasm, III -stvor). Shuningdek, yuvilish voronkasining tubida boshlanishdan toki oxirigacha tub tezliklarning ortishi kuzatildi.

Yuvilish voronkasi maksimal yuvilishidan keyingi stvorlarda oqimning teligi sekinlik bilan ortib boradi va voronka ta'sir darajasi kamaygandan keyin oqim tezligi tekislashadi. Bunga mos ravishda tub tezliklarning taqsimlanishi ham sodir bo'ladi.

Yuvilish voronkasida sodir bo'ladigan oqim tezliklarining taqsimlanishi boshqa tajribalarda ham taqsimlanishning bir-biriga o'xshashligini ko'rsatdi (2...3-rasmlar).



2-rasm. Yuvilish voronkasida oqim tezligining taqsimoti (1.3-tajriba)



3-rasm. Yuvilish voronkasida oqim tezligining taqsimoti (1.6-tajriba)

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanida joylashgan M-3 kanal" ining PK387+75 va PK388+44 oraliq uchastkalarida dala sharoitlarida tadqiqotlar olib borildi. Dala sharoitida tadqiqotlarni o'tkazish uslublari II-

bobda bayon etilgan va olingan ma’lumotlar 2-jadvalga kiritilgan.

1.2-jadval

№	Q, m^3/s	v, m/s	$_0H$	I_{stv}			II_{stv}			III_{stv}			IV_{stv}			V_{stv}			VI_{stv}		
				h_1	l_1	ν_1	h_2	l_2	ν_2	h_3	l_3	ν_3	h_4	l_4	ν_1	h_5	l_5	ν_5	h_6	l_6	ν_6
2.1	9.68	0.94	2.062	0.25	15	0.49	0.20	25	0,72	0,23	35	0.49	0.20	45	0.49	0.20	50	0.23	0.20	55	0.15
				0.50		0.66	0.50		0,39	0.49		0.57	0.49		0.29	0.50		0.17	0.46		0.67
				0.70		0,33	0.80		0,75	0.80		0.39	0.8		0.22	0.85		0.48	0.65		0.39
				0.90		0,26	1.17		0,31	1.0		0.21	1.17		0.37	1.11		0.55	0.96		0.32
2.2	9.09	1.050	1.989	0.21	15	0.66	0.57	25	0.33	0.50	35	0.16	0.23	45	0.41	0.21	50	0.46	0.25	55	0.25
				0.49		0.54	0.93		0.18	0.79		0.34	0.57		0.39	0.50		0.84	0.51		0.34
				0.79		0.51	1.16		0.42	1.18		0.45	1.01		0.32	0.71		0.78	0.77		0.58
				0.98		0.32	1.42		0.21	1.50		0.15	1.26		0.45	1.09		0.26	1.01		0.31
2.3	9.216	1.050	1.898	0.51	15	0.55	0.21	25	0.22	0.50	35	0.29	0.51	45	0.40	0.25	50	0.21	0.23	55	0.61
				0.72		0.3	0.60		0.34	0.84		0.48	0.80		0.36	0.51		0.23	0.47		0.65
				0.87		0.46	0.82		0.36	1.14		0.38	1.00		0.29	0.80		0.52	0.69		0.46
				1.05		0.39	1.12		0.32	1.39		0.36	1.30		0.28	1.00		0.60	0.96		0.36
2.4	9.686	0.939	1.843	0.23	15	0.37	0.24	25	0.43	0.23	35	0.74	0.20	45	0.26	0.20	50	0.45	0.21	55	0.55
				0.51		0.40	0.64		0.66	0.51		0.59	0.47		0.50	0.44		0.52	0.41		0.58
				0.76		0.85	0.98		0.43	0.76		0.24	0.79		0.65	0.80		0.30	0.58		0.78
				0.95		0.46	1.18		0.44	1.06		0.39	1.23		0.35	1.05		0.64	0.85		0.52
2.5	9.666	0.865	1.868	0.21	15	0.48	0.25	25	0.52	0.21	35	0.49	0.22	45	0.30	0.24	50	0.50	0.22	55	0.24
				0.49		0.53	0.50		0.78	0.50		0.53	0.48		0.72	0.55		0.69	0.41		0.49
				0.67		0.63	0.80		0.45	0.78		0.61	0.80		0.82	0.92		0.51	0.74		0.49
				0.86		0.38	1.05		0.25	1.03		0.51	0.98		0.45	1.20		0.26	0.92		0.14
2.6	0,098	0,90	0,20	0.44	15	0.42	0.21	25	0.48	0.45	35	0.36	0.25	45	0.45	0.50	50	0.30	0.21	55	0.31
				0.68		0.61	0.54		0.65	0.85		0.62	0.55		0.66	0.76		0.55	0.55		0.52
				0.97		0.30	0.86		0.41	1.10		0.44	0.86		0.43	1.12		0.44	0.77		0.57
				1.20		0.31	1.10		0.25	1.42		0.36	1.01		0.29	1.42		0.12	0.98		0.48



1.6-rasm. Dala sharoitida yuvilish voronkasida oqim tezligining taqsimoti (2.4-tajriba)



1.5-rasm. Dala sharoitida yuvilish voronkasida oqim tezligining taqsimoti (2.3-tajriba)



1.4-rasm. Dala sharoitida yuvilish voronkasida oqim tezligining taqsimoti (2.1-tajriba)

Olib borilgan tajriba sharoitlarida faqat to‘lqinli gidravlik sakrash kuzatildi ($h''/h' < 2$). Bunda h', h'' - gidravlik sakrash tutash chuqurliklari. 1.4...1.6-rasmlarda to‘lqinli gidravlik sakrashdan keyingi uchastkada sodir bo‘ladigan yuvilish voronkasi stvorlarida o‘lchangan oqim tezliklarining taqsimoti ko‘rsatilgan.

Yuvilish voronkasining bo‘ylama profili bo‘yicha o‘rtacha yuvmaslik tezliklarning va tub osti yuvmaslik maksimal tezliklarning belgilangan stvorlardagi tezliklarning taqsimlanishini qarab chiqamiz. Tahlil qilish uchun uchun 1.2-jadvaldan foydalanamiz.Dala sharoitida olingan kanaldagi oqim tezliklari taqsimoti ma’lumoti tahlilidan ko‘rinadiki, bunda ham xuddi laboratoriya sharoitida olingan tezlik taqsimotlariga mos bo‘lgan tezlik epyuralariga ega bo‘lamiz (1.4...1.6-rasmlar).

Demak, laboratori va dala sharoitlarida o‘tkazilgan g yuvilish voronkasi bo‘ylab tezliklarning tasimlanishi bo‘yicha tadqiqotlardan ko‘rinadiki, oqimning

risbermadan bog‘langan gruntli kanal o‘zaniga o‘tishida kanal boshida grunt mayda zarrachalarining oqim tezligi ta’sirida yuvilishi boshlanadi, keyin esa tezliklarning ortishi sababli katta agregatlarning gruntdan uzilishi boshlanadi va yuvilish voronkasi sodir bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Eshev S.S., Isakov A.N., Safarov A.A., Yuldosheva U.T. Calculation of Local Water Behind the Lower Water Mountings. // Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 11, Issue 2, February 2024, , [ISSN: 2350-0328] 21419-21425 betlar. Copyright to IJARSET. (05.00.00, №8)

2. Eshev S.S., Bobomurodov F.F., Isaqov A.N., Mamatov N.Z. Evaluation of the influence of the physical properties of bound soils on the washing process. // Universum: texnicheskie nauki. DOI:10.32743/UniTech.2022.102.9.14293, 19-22 pages. Centyabr, 2022 g. (02.00.00; №1).

3. Eshev S.S., Bobomurodov F.F., Isakov A.N., Mamatov N.Z. Evaluating the Effect of Cohesive Strength on Self-Leaching in Bonded Soils // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology-Vol. 9, Issue 8 , August 2022 ISSN: 2350-0328,19636-19641 pages. Copyright to IJARSET (05.00.00, №8).

4. Eshev S.S., Isakov A.N., Bobomurodov F.F. Raschet mestnogo razmыva za krepleniyami nijnego befa // Me’morchilik va qururish muammolari 2024 yil №4 son ISSN: 2901-5004, 260-263 betlar. (05.00.00.№14)

5. Eshev S.S., Isakov A.N., Bobomurodov F.F. K Raschetu nijnego befa vodosbrosnыx soorujeniy. // Me’morchilik va qururish muammolari 2021 yil №4 son, 63-67 betlar. (05.00.00, №14)

6. Raximov A.R., Nazarov O.O., Isaqov A.N., Bobomurodov F.F. Dinamicheski ustoychivыe secheniya krupnыx kanalov s uchetom vetrovogo volneniya// Innovatsion texnologiyalar Ilmiy-texnik jurnal Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti. Maxsus son - 2021, 82-89 betlar. (05.00.00, №38)

UDK: 632.15

OQOVA SUVLARNI SORBSIYA USULIDA TOZALASHNING TAVSIFLARI VA XUSUSIYATLARI

Safarova Marhabo Asadullaevna, Urazbaev Asadbek Shuhrat o’g’li.
Jizzax politexnika instituti

Аннотация. Oqova suvlarni tozalashning ko‘plab usullari va texnoliyalari ishlab chiqilgan, jumladan okova suv tarkibidagi og‘ir metall ionlardan suvni tozalashning ko‘plab texnologiyalari ishlab chiqilgan, ammo bu yoki boshqa texnologiyalarni tanlash turli omillarga bog‘liq va birinchi navbatda texnik va iqtisodiy hisob-kitoblar bilan oqlanishii kerak. Suvni samarali tozalashni va komponentlarni yuqori darajada ajratib olishni ta’minlaydigan kompleks texnologiyaalarni qo‘llash eng muhimdir.

Ключевые слова: Сточные воды, устройство, фенол, гербицид, пестицид, ароматические нитросоединения, тяжелые металлы.

Аннотация. Разработано много методов и технологий очистки сточных вод, в том числе много технологий очистки воды от ионов тяжелых металлов в сточных водах, но выбор той или иной технологии зависит от различных факторов и должен быть обоснован прежде всего технико-экономическими расчетами. Наиболее важно использовать комплексные технологии, обеспечивающие эффективную очистку воды и высокое разделение компонентов.

Abstract. Many methods and technologies for wastewater treatment have been developed, including many technologies for treating water from heavy metal ions in wastewater, but the choice of a particular technology depends on various factors and should be justified primarily by technical and economic calculations. It is most important to use complex technologies that provide efficient water purification and high separation of components.

Key words: Wastewater, device, phenol, herbicide, pesticide, aromatic nitro compounds, heavy metals.

Atrof muhitning oqova suvlar bilan ifloslanishida eng katta ekologik xavfi suv tarkibida og‘ir metallar, turli xil kimyoviy birikmalar, shuningdek patogen va shartli patogen mikroorganizmlar mavjudligi bilan bog‘liq. Oqova suvlarni tozalashning zamonaviy usullari orasida, sorbsiyali tozalash katta ahamiyatga ega va usulning samaradorligi albatta sorbent sifatiga bog‘liq. Oqova suv tarkibidan og‘ir metallarni samarali chiqarib yuborilishiga imkon beradigan yangi avlodning sorbentlarini yaratish chiqindi suvlardan tortib, dezinfeksiyasini ta’minlash, shuningdek, chiqindilarni tozalash uchun bunday sorbentlardan foydalanish usulini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib, uni hal yetish katta amaliy ahamiyatga ega. [1]

Oqova suvlarni tozalashning sorbsiya usuli biologik usuldan keyin va birgalikda tozalash imkonini beradi. Sorbsiya usuli okova suvlarni fenol, gerbitsit, pestitsid, aromatik nitrobirikmalar og‘ir metallarva boshka moddalardan zarrasizlantirishda foydalaniladi. Bu usulning afzalligi yuqori samaradorligi bo‘lib, tarkibida bir necha modda bo‘lgan oqova suvlarni tozalash va ularni rekuperatsiya qilish mumkinligidadir. [5]

Suvlarni sorbsiya usulda tozalash regenerativ bo‘lishi mumkin, ya’ni sorbentdan moddani ajratib olib uni utilizatsiya qilish va destruktiv bo‘lishi mumkin, ya’ni oqova suvlardan ajratib olingan moddalar adsorbent bilan birga yo‘qotib yuborilishi mumkin. Oqova suvlarni sorbsiya usuli bilan tozalashning samaradorligi 80-95% va bu adsorbentning kimyoviy xususiyatiga, adsorbsiya yuzasining o‘lchamiga va uning yaroqliligiga, moddaning kimyoviy joylashishiga va uning aralashmadagi xolatiga bog‘liq. [3]

Sorbentlar sifatida faollangan ko‘mir, sintetik sorbentlar va ishlab chiqarishning ba’zi chiqindilari (kul, shlam, qipiq va hokazo) ishlatiladi. Mineral sorbentlar–tuproq, silikagel, alyumogel va metal gidroksidlari oqova suvlardagi turli moddalarni adsorbsiyalash uchun kam ishlatiladi, chunki ularning suv molekulalari bilan ta’sir etish energiyasi juda katta, ba’zida adsorbsiya energiyadan oshib ketadi. Ko‘p ishlatiladigan sorbentlar – faol ko‘mirdir, ammo ular mahsus bir xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Faollangan ko‘mir suv molekulalari bilan sust ta’sirda bo‘lishi va organik moddalar bilan esa juda ta’sirchan bo‘lishi kerak, katta g‘ovaklarga radiusi 0.8-5 nm yoki 8-50 A ega bo‘lishi kerak, ularning yuqori qatlami (yuzasi)

katta va murakkab organik molekulalarga yaroqli bo‘lishi kerak. Suv bilan qisqa vaqt ichida kontaktda bo‘lganda yuqori adsorbsion sig‘imga ega bo‘lishi kerak, yuqori selektiv va regeneratsiya vaqtida ushlab turish qobiliyati past bo‘lishi kerak. Oxirgi sharoitni xisobga olganda ko‘mirni regeneratsiya qilayotganda reagentlarning sarfi kam bo‘ladi. Ko‘mirlar mustahkam, suvda tez namlanishi kerak, ma’lum bir granulometrik xolatga ega bo‘lishi kerak. Tozalash jarayonida mayda zarrachali adsorbentlar (0,25-0,5 mm) va o‘lchami 40 mkm bo‘lgan yuqori dispers ko‘mir zarrachalari ishlatiladi. [1]

Suvni sorbsiya usulida tozalash deganda moddalarning qattiq material tuynuklarida yoki yuzasida to‘planishi tushuniladi. Odatda oqova suvlarni tozalashda amaliyotda tabiiy va sun’iy kelib chiqishga ega bo‘lgan yuqori darajadagi sirtga ega bo‘lgan sorbentlar qo‘llaniladi. Lekin faol ko‘mirdan foydalanish keng tarqalgan. [2]

Oqova suvlarni metall va ularning tuzlaridan tozalash uchun reagent qo‘shish, ionalmashinish, sorbsion va va elektrokimyoviy (elektrokoagulyatsiya, elektroliz, elektrodializ) usullari qo‘llaniladi. Ammo amalda oqova suvlarni temir va tuzlardan tozalashda ko‘plab qurilmalar, ayniqsa galvanik sexlardan foydalanilsa ham ularning samaradorligi past ko‘rsatkichlarni qayd etmoqda. Oqovalarning ushbu guruhini zararsizlantirish texnik va iqtisodiy tomondan katta miqdorda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun oqova suvlarni tozalash usuli tanlanganda metallardan qutulish bilan birga berk tizimli suv aylanish texnologiyalarini ham nazarda tutish kerak. Shundagina toza suv sarfi hamda oqova suvlarning hajmi ma’lum bir miqdorda kamayadi.

Oqova suvlarni fenoldan tozalash nihoyatda dolzarb muammo hisoblanadi va so‘nggi paytlarda bu muammo sorbsion va ekstraksion usullardan tozalashning mahalliy tizimlari doirasida foydalanish tufayli samarali hal etilmoqda.

O‘zgaruvchan tarkibli oqova suvlarni umumiy tozalashda o‘ziga xos selektiv xususiyatli sorbentlarni qo‘llash samarasiz hisoblanadi. Ya’ni agar kimyoviy korxonaning oqova suvlarini umumiy tozalash yaxshi aromatik birikmali idishga ega alohida mikrog‘ovakli GFK (granulali faol ko‘mir) orqali amalga oshirilsa, u holda faol ko‘mir tufayli dastlabki ish davrida 70 – 80 % organik moddalardan qutulish mumkin, oqova suvning tarkibi o‘zgarsa bor yo‘g‘i 20 – 40 % iflosliklardan tozalash mumkin. GRINTEKfirmasi bilan 15 ta ishlab chiqarish yo‘nalishi bo‘yicha 68 ta sanoat oqova suvlarini faol ko‘mir orqali sorbsion tozalash holatini o‘rganish uchun 222 ta tahlil o‘tkazilgan. Natijada 8 tadan 5 ta holatda umumiy organik uglerodning miqdori 90% dan ko‘proqqa va ikkitasida 85% dan kamroqqa pasaydi. 7 tadan 6 ta holatda ranglilik 95% dan ko‘proqqa va bitta holatda esa 90% dan kamroqqa pasaydi.

Amaliyotda oqova suvlarni organik birikmalardan tozalashda faol ko‘mirli sorbsiya keng qo‘llaniladi. Bu usul tufayli iflosliklardan tozalash darajasi 90 – 99 % ni tashkil etadi. Organik moddalarni faollashtirilgan ko‘mir orqali sorbsiyalash usulining samaradorligi ularning kimyoviy xususiyati va suvdagi konsentratsiyasi, shu bilan birgalikda faollashtirilgan ko‘mirning turiga bog‘liq bo‘ladi. [6]

Oqova suvlarni tozalashning ko‘plab usullari va texnoliyalari ishlab chiqilgan, jumladan okova suv tarkibidagi og‘ir metall ionlardan suvni tozalashning ko‘plab texnologiyalari ishlab chiqilgan, ammo bu yoki boshqa texnologiyalarni tanlash turli omillarga bog‘liq va birinchi navbatda texnik va iqtisodiy hisob-kitoblar bilan oqlanishii kerak. Suvni samarali tozalashni va komponentlarni yuqori darajada ajratib olishni ta’minlaydigan kompleks texnologiyaalarni qo‘llash eng muhimdir.

Oqova suvlarni tozalashning sorbsiya usuli biologik usuldan keyin va birgalikda tozalash imkonini beradi. Sorbsiya usuli okova suvlarni fenol, gerbitsit, pestitsid, aromatik nitrobirikmalar og‘ir metallar va boshqa moddalardan zarrasizlantirishda foydalaniladi. Bu usulning afzalligi yuqori samaradorligi bo‘lib, tarkibida bir necha modda bo‘lgan oqova suvlarni tozalash va ularni rekuperatsiya qilish mumkinligidadir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PK-2910-sonli “2017-2021 yillarda ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida”qarori www.lex.uz-O‘z.P Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. [1]

2. Baqiyev M., Nosirov B., Xajaqulov R. Gidrotexnika inshootlari, O‘quv qo‘llanma. T.O‘MQTM, «Bilim» nashriyoti, 2004. – 264 b. 2004. – 264 б. http://www.Vent.ru[2]

3. Zokirov O‘.T. «Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlari» O‘quv qo‘llanma. TAQI. http://www.energ.narod.ru[3]

4. Энциклопедия «Инженерное оборудование» М. 1994http://www.Valtec.ru[4]

5. Бородин. И. ”Технология и организатсия строителства водопроводных и канализатсионных сетей и сооружений”.Стройиздат 1972. 1994ҳттп://www.Валтес.ру[5]

6. Zokirov U.T., Bo‘riev E.S. «Oqova suvlarni oqizish va tozalash» fanidan o‘kuv qo‘llanma. Toshkent 2003. . http://www.Vent.ru[6]

7. N.Abdug‘aniev, S.Tursunov “Suv ta’minoti va kanalizatsiya”. Farg‘ona 2002. http://www.energ.narod.ru

ВЛИЯНИЕ ЧИСЛЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ НА ВЫБОР ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ ДЛЯ ОЧИСТКИ ГОРОДСКИХ СТОЧНЫХ ВОД

Игитов Ф.Б. доцент , **Есемуратова Г.Б.** базовый докторант
Ташкентский химико-технологический институт

Аннотация: В статье рассматривается влияние численности населения на выбор технологических решений для очистки городских сточных вод (ОГСВ). Анализируются факторы, определяющие специфику задач водоотведения в городах разного масштаба, включая объем и состав сточных вод, нормативные требования к качеству очищенной воды и экономические ограничения. На основе сравнительного анализа предлагаются рекомендации по выбору оптимальных

технологических схем и оборудования для городов с различной численностью населения, обеспечивающих достижение требуемых экологических показателей и экономическую эффективность.

Annotatsiya: Maqolada shahar oqava suvlarini (SHOQST) tozalash uchun texnologik echimlarni tanlashda aholi sonining ta'siri ko'rib chiqiladi. Turli miqyosdagi shaharlarda kanalizatsiya vazifalarining o'ziga xos xususiyatlarini, shu jumladan chiqindi suv hajmi va tarkibini, tozalangan suv sifatiga qo'yiladigan me'yoriy talablarni va iqtisodiy cheklovlarni belgilaydigan omillar tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil asosida aholi soni har xil bo'lgan shaharlar uchun maqbul texnologik sxemalar va uskunalarni tanlash bo'yicha tavsiyalar taklif etiladi, bu esa talab qilinadigan ekologik ko'rsatkichlar va iqtisodiy samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

Kalit so‘zlar: Noan’anaviy energiya, qayta tiklanuvchi manbalar, shaharsozlik, energiya samaradorligi, quyosh energiyasi, biogaz, geotermiya, shamol energiyasi, barqaror qurilish, energiya balansi.

Аннотация. В данной статье исследуются научные и практические решения по эффективному использованию нетрадиционных энергетических ресурсов в градостроительном строительстве. Проанализированы преимущества интеграции солнечной, ветровой, биогазовой, геотермальной и отходовой энергии в инфраструктуру города с технической, экономической и экологической точек зрения. В исследовании представлены результаты экспериментального моделирования, расчета энергетического баланса, симуляции тепловых потоков и математической оптимизации размещения возобновляемых источников энергии в городской среде. Результаты показывают, что комплексное применение альтернативных источников может повысить энергетическую независимость городов на 25–40 % и снизить выбросы парниковых газов на 18–30 %. В заключении представлены практические рекомендации и стратегические решения для устойчивого градостроительства.

Ключевые слова: Нетрадиционная энергия, возобновляемые источники, градостроительство, энергоэффективность, солнечная энергия, биогаз, геотермальная энергия, ветровая энергия.

Abstract. This article investigates scientific and practical solutions for the effective use of non-traditional energy resources in urban construction. The study examines the technical, economic, and environmental benefits of integrating solar, wind, biogas, geothermal, and waste-to-energy systems into urban infrastructure. Experimental modeling, energy balance assessment, heat flow simulation, and mathematical optimization of renewable energy placement in cities were conducted. Findings reveal that comprehensive utilization of non-traditional energy sources can increase urban energy independence by 25–40% and reduce greenhouse gas emissions by 18–30%. The article concludes with practical recommendations and an energy strategy for sustainable urban development.

Keywords: Non-traditional energy, renewable energy resources, urban planning, energy efficiency, solar power, wind power, geothermal systems, biogas, sustainable construction.

Kirish. Shaharlar aholisi sonining ortib borishi, ishlab chiqarishning kengayishi, transport tizimining murakkablashuvi va iqlim o‘zgarishining jadallashuvi natijasida zamonaviy urbanizatsiya jarayonlari energetik barqarorlikka katta bosim o‘tkazmoqda. An’anaviy tabiiy gaz, ko‘mir va neftga asoslangan energiya tizimlari shaharlarning kelajakdagi rivojlanish ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emasligi hamda ekologik xavflarni kuchaytirishi tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli dunyo bo‘ylab shaharsozlikning asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri - qayta tiklanuvchi va noan’anaviy energiya resurslarini urbanistik tizimlarga integratsiya qilishdan iborat bo‘lib, u “yashil energetika”, “aqlli shahar” va “nolinchi chiqindilar” konsepsiyalarining poydevorini tashkil etadi [1,2].

Zamonaviy yondashuvlar ko‘rsatadiki, shaharsozlikda energiya samaradorligini oshirish faqat binolarni issiqlik izolyasiyasini yaxshilash yoki energiya tejamkor qurilma o‘rnatish bilangina cheklanmaydi [3]. Energiya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’molini kompleks boshqarish, ya’ni “energiya klasterlari”ni yaratish talab etiladi [4,5]. Bu jarayonda quyosh panellari, shamol turbinalari, biogaz reaktorlar, geotermal issiqlik nasoslari, chiqindidan energiya ishlab chiqarish zavodlari va issiqxona gazlarini kamaytiruvchi aqlli monitoring tizimlari muhim o‘rin egallaydi.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekiston kabi quyosh nuri yuqori mintaqalarda noan’anaviy energiyadan foydalanish ulkan potensialga ega bo‘lsa-da, ularning shaharsozlik loyihalarida qo‘llanish darajasi hanuz pastligicha qolmoqda. Mazkur tadqiqot shaharsozlik qurilishi jarayonida noan’anaviy energiya resurslarini qo‘llashning ilmiy asoslari, texnik modellarini, amaliy samaradorligini va iqtisodiy afzalliklarini aniqlashga qaratilgan [6,7].

Metodologiya. Tadqiqot uslublari

1. **Energiya balansi modellashtirish** – shahar hududlari uchun energiya ishlab chiqarish va iste’molini matematik modellashtirish.
2. **Issiqlik oqimi simulyatsiyasi (CFD)** – binolarning energiya yo‘qotish darajasini aniqlash.
3. **GIS asosida optimal joylashuv modeli** – quyosh panellari va shamol turbinalarining joylashuvini aniqlash.
4. **LCA (life-cycle assessment)** – har bir energiya manbasining ekologik ta’sirini baholash.
5. **Eksperimental obyektlarda monitoring** – real obyektlarda energiya samaradorligini o‘lchash.

Natijalar.

Quyida tadqiqot natijalari asosida rasm, jadval va grafikda keltirilgan.



1-rasm. Quyosh energiyasining yillik potensiali (kWh/m²)

1-jadval. Energiya manbalarining taqqiyosiy samaradorligi

Energiya manbasi	Samara-dorlik (%)	CO_2 kamayishi (%)	Barqarorlik
Quyosh	18–22	25	O‘rtacha
Shamol	25–35	28	O‘zgaruvchan
Biogaz	65	40	Barqaror
Geotermal	45–55	30	Juda barqaror
Chiqindi-energiya	70	35	Uzluksiz



2-grafik. Noan’anaviy energiya ulushi oshishi bilan shahar CO_2 chiqishi kamayishi

Energiya mustaqilligi tahlili

Modellashtirish natijalariga ko‘ra:

- 100 ming aholiga ega shahar uchun quyosh energiyasi infratuzilmasi energiya ehtiyojining **18–22 %** ini qoplaydi.
- Shamol turbinalari qo‘shilgach ulush **30–35 %** ga yetadi.
- Biogaz va chiqindidan energiya ishlab chiqarish tizimi joriy etilganda energiya mustaqilligi **40 % dan yuqori** bo‘ladi.

Muhokama

Natijalar shaharsozlikda noan’anaviy energiyadan foydalanish iqtisodiy, ekologik va texnik jihatdan asosli ekanini ko‘rsatdi. Integratsiya jarayonlarida quyidagi omillar aniqlangan:

Iqtisodiy afzalliklar

- 8–10 yil davomida investitsiya to‘liq qoplanadi.
- Shahar byudjetidan energiya xarajatlari 20–30 % ga qisqaradi.

Ekologik yutuqlar

- Atmosfera ifloslanishi keskin kamayadi.
- Biogaz chiqindilarni utilizatsiya qilish muammosini hal qiladi.

Texnik xususiyatlar

- Shamol turbinalari baland binolar orasida lokal shamol tezligining oshishidan foydalanadi.
- Geotermal nasoslar tuproq harorati barqarorligidan foydalanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaharsozlik qurilishida noan’anaviy energiya resurslaridan kompleks foydalanish quyidagi asosiy natijalarga olib keladi:

1. Shaharlarning energiya mustaqilligi 25–40 % ortadi.
2. CO_2 chiqishi 18–30 % ga kamayadi.
3. Energiya xarajatlari sezilarli qisqaradi.
4. Barqaror infratuzilma shakllanadi va ekologik xavfsizlik kuchayadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi hisobotlari.
2. Норов Н. Н., Худайназарова Ю. Дж. (2024). Вопросы повышения энергоэффективности существующих низкоэтажных сельских домов. Строительство и образование, 3 (1), 21-26.
3. Турапов М. Т., Эгамбердиева Т. И. (2022). УДК 693.01243 Применение энергосберегающих методов при производстве железобетонных изделий. Научный импульс. стр. 1 (2), 646-648.
4. Эгамбердиева, Т. (2024). Индивидуальность производства и организации труда в малокомнатном жилищном строительстве. Excellencia: Международный многодисциплинарный журнал образования (2994-9521), 2 (5), 289-294.
5. Тутиё, Э. (2021). Анализ влияния сухого жаркого климата на работу железобетонных элементов. ACADEMICIA: Международный многодисциплинарный исследовательский журнал, 11 (5), 959-963.
6. Тутиё, Э. (2020). Совершенствование термической обработки при производстве железобетонных изделий. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research, 6 (5), 457-461.
7. Эгамбердиева Т., Матгозиев Х. (2024). Особенности технологического моделирования в строительстве жилья. Строительство и образование, 3 (4), 30-33.

ОСОБЕННОСТИ УСКОРЕНИЯ ГАЗОНЕФТЯНОГО ПОТОКА В НАСОСНО-КОМПРЕССОРНОЙ ТРУБЕ

Хаджиматова Мавлуда Мамасалиевна
Джизакский политехнический институт

Аннотация: В статье рассмотрены процессы нестационарного движения газожидкостной смеси в насосно-компрессорных трубах (НКТ) при наличии клапанных устройств, изменяющих структуру потока. Показано, что циклические гидродинамические воздействия, применяемые при добыче нефти с высоким газовым фактором, приводят к многократным процессам разгона и остановки смеси, что требует углубленного теоретического анализа. На основе модифицированного уравнения Бернулли, учитывающего инерционный напор, вязкостные и молярные сопротивления, получено дифференциальное уравнение разгона смеси. Представлены аналитические выражения для определения времени

разгона и фактической скорости газожидкостного потока в зависимости от параметров НКТ и коэффициентов гидравлических сопротивлений. Проведён анализ влияния геометрических характеристик трубопровода и сопротивлений на длительность неустановившегося режима движения, что позволяет обосновать пути совершенствования технологий добычи нефти.

Ключевые слова: газожидкостная смесь, насосно-компрессорная труба, НКТ, нестационарное движение, разгон потока, инерционный напор, уравнение Бернулли, гидродинамические процессы, коэффициент сопротивления, установившийся режим, добыча нефти.

Annotatsiya: Maqolada nasos-kompressor trubalarida (NKT) oqim tuzilishini o‘zgartiruvchi klapan qurilmalari mavjud bo‘lgan sharoitda gaz–suyuqlik aralashmasining noustuvor harakati o‘rganiladi. Yuqori gaz omilligi bilan neft qazib olishda qo‘llaniladigan majburiy tsiklik gidrodinamik jarayonlar aralashmaning ko‘p martalik tezlanish va to‘xtashiga olib keladi, bu esa jarayonlarni chuqur nazariy tahlil qilishni talab etadi. Inertsion bosimni, yopishqoqlik va molyar qarshiliklarni hisobga olgan holda Bernulli tenglamasining modifikatsiyalangan ko‘rinishi asosida aralashmaning tezlanish jarayonini tavsiflovchi differensial tenglama olingan. NKT parametrlariga va gidravlik qarshilik koeffitsientlariga bog‘liq ravishda aralashmaning tezlanish va haqiqiy harakat tezligini aniqlovchi analitik ifodalar keltirilgan. Trubaning geometrik xususiyatlari va qarshiliklarning noustuvor harakat davomiyligiga ta’siri tahlil qilingan bo‘lib, bu amaldagi neft qazib olish texnologiyalarini takomillashtirish yo‘llarini asoslashga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: gaz–suyuqlik aralashmasi, nasos–kompressor trubasi, NKT, noustuvor harakat, oqimning tezlanishi, inertsion bosim, Bernulli tenglamasi, gidrodinamik jarayonlar, qarshilik koeffitsienti, barqarorlashgan rejim, neft qazib olish

Annotation: The article examines the unsteady motion of a gas–liquid mixture in tubing (NKT) in the presence of valve devices that modify the flow structure. The forced cyclic hydrodynamic processes used in oil production with a high gas factor lead to repeated acceleration and deceleration of the mixture, which necessitates an in-depth theoretical analysis. Based on a modified form of the Bernoulli equation that accounts for inertial head, viscous and molar resistances, a differential equation describing the acceleration process of the mixture is derived. Analytical expressions are obtained for determining the acceleration time and the actual flow velocity as a function of tubing parameters and hydraulic resistance coefficients. The influence of the pipeline’s geometric characteristics and resistances on the duration of the unsteady motion is analyzed, providing a basis for improving existing oil production technologies.

Keywords: gas–liquid mixture, tubing, NKT, unsteady flow, flow acceleration, inertial head, Bernoulli equation, hydrodynamic processes, resistance coefficient, steady-state regime, oil production.

В последние годы в области добычи нефти с высоким газовым фактором в нашей Республике применяются устройства, осуществляющие принудительные циклические гидродинамические процессы, приводящие к увеличению дебита нефти и уменьшению газового фактора, что приводит к эффективному использованию подъемной энергии попутного газа [1,2].

До настоящего времени в открытой печати не существуют теоретические работы, касающиеся вопросов математического моделирования и решения задач о движении газонефтяной смеси при наличии в насосно компрессорной трубе (НКТ) устройств-клапанов, преобразующих структуру потока, которые позволили бы определить пути и способы усовершенствования и создания более эффективных технологий относительно существующих.

В упомянутой выше технологии газожидкостные смеси подвергаются многократному разгону и остановки, что требует углубленного изучения динамических процессов в них. В связи с чем, появилась необходимость рассмотрения вопросов теоретического моделирования основных физико-механических процессов, происходящих при разгоне и остановке газожидкостной смеси в трубе.

Из анализа исследований по добычи нефти следует, что движение газожидкостной смеси в НКТ при наличии в них клапанов является нестационарным. Главным образом нестационарность потока проявляется при разгоне и остановке газожидкостного потока в НКТ при открытии и закрытии клапанов.

При исследовании неустановившегося движения жидкостей в практике используется уравнение Бернулли в виде:

$$z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{\upsilon_1^2}{2g} = z_2 + \frac{P_2}{\gamma} + \frac{\upsilon_2^2}{2g} + h_c + h_i\,, \qquad (1)$$

где $\frac{p}{\gamma}$ - пьезометрический напор; $\frac{\upsilon^2}{2g}$ - скоростной напор; h_c - потеря энергии единицы веса жидкости между двумя исследуемыми сечениями

$h_i = \frac{1}{g}\int_{\ell_1}^{\ell_2} \frac{\partial \upsilon}{\partial t} d\ell$ - инерционный напор.

Считая, что ускорение в рассматриваемом промежутке расстояния изменяется мало, h_i запишем в виде

$$h_i = \frac{\ell}{g} w, \quad \text{где} \quad w = \frac{d\upsilon}{dt}.$$

Рассмотрим разгон смеси в вертикальной трубе. Для чего уравнение Бернулли для смеси запишем в виде

$$H + \frac{P_0}{\gamma_{см}} + \frac{\upsilon_0^2}{2g} = \frac{P_1}{\gamma_{см}} + \frac{\upsilon_{см}^2}{2g} + \sum \xi \frac{\upsilon_{см}^2}{2g} + \lambda \frac{\ell}{d} \frac{\upsilon_{см}^2}{2g} + \frac{\ell}{g} w_{см}$$

где $H = z_0 - z_1$, υ_0 - скорость подхода к выходу из устройства;

ξ - коэффициент местных сопротивлений;

$\lambda \frac{\ell}{d}$ - коэффициент вязкостных и молярных сопротивлений, так как в начальный момент $\upsilon_0 = 0$, то пренебрегая ею и тем, что в то же время $P_0 \sim P_1$ введем обозначение коэффициента сопротивления в виде

$$\sum \xi + \lambda \frac{\ell}{d} = \xi_c\,, \qquad (2)$$

С учетом выше сделанных упрощений, уравнение примет вид

$$H = (1-\xi_c)\frac{\upsilon_{см}^2}{2g} + \frac{\ell}{g} w_{см} ,$$

где

$$\upsilon_{см} = \alpha_г \upsilon_1 + \alpha_c \upsilon_2, \quad \frac{d\upsilon_{см}}{dt} =$$

$$= \upsilon_1 \frac{d\alpha_г}{dt} + \upsilon_2 \frac{d\alpha_{ж}}{dt} + \alpha_г \frac{d\upsilon_1}{dt} + \alpha_{ж} \frac{d\upsilon_2}{dt}$$

$\alpha_г + \alpha_ж = 1$; $\alpha_г$ и $\alpha_ж$ - объемное содержание фаз. Разделяя переменные получим

$$dt = \frac{\ell}{g} \frac{d\upsilon_{см}}{H - \frac{\upsilon_{см}^2}{2g}(1-\xi_c)} \quad \text{или}$$

$$dt = \frac{2\ell}{1+\xi_c} \frac{d\upsilon_{см}}{\frac{2gH}{(1+\xi_c)} - \upsilon_{см}^2} . \qquad (3)$$

В данном случае постоянная $\frac{2gH}{(1+\xi_c)}$ является скоростью установившегося движения смеси в системе, т.е.

$$\upsilon_{-} = \sqrt{\frac{2gH}{(1+\xi_c)}} . \qquad (4)$$

С учетом последнего и интегрируя уравнение (3) при начальных условиях $\upsilon_0 = 0$ при $t = 0$ получим

$$t = \frac{\ell}{\upsilon_c(1+\xi_c)} \ell n \left(\frac{\upsilon_c + \upsilon_{см}}{\upsilon_c - \upsilon_{см}} \right), \qquad (5)$$

введя обозначение $\tau = \frac{\ell}{\sqrt{2gH(1+\xi_c)}}$, (6)

запишем (5) относительно $\upsilon_{см}$ в виде $\upsilon_{см} = \upsilon_{-} \frac{И^{t/\tau} - 1}{И^{t/\tau} + 1}$. Так как

$$\frac{И^{t/\tau} - 1}{И^{t/\tau} + 1} = th\frac{t}{2\tau}, \quad \text{то} \quad \upsilon_{см} = k\,\upsilon_c, \qquad (7)$$

где $k = th\frac{t}{2\tau}$, подставляя (7) в равенство

$$t = \tau \ell n \frac{\upsilon_c + \upsilon_{см}}{\upsilon_c - \upsilon_{см}}, \text{ получим } \frac{t}{\tau} = \ell n \frac{1+k}{1-k} . \qquad (8)$$

Параметр k зависит от времени и характеризует степень разгона смеси в рассматриваемом участке трубы длиной ℓ и называется коэффициентом разгона. Этот параметр принимает численные значения в пределах $0 < k < 1$.

Из равенства (7) следует, что фактическая скорость движения смеси $\upsilon_{см}$ в период разгона всегда меньше скорости смеси установившегося потока к которой асимптотически приближается $\upsilon \to \upsilon_c$ при $t \to \infty$.

Такая трактовка вопроса однако имеет математическое значение. В самом деле для практических расчетов можно считать, что скорость составляет 99% от установившейся, т.е. $\upsilon_{см} = 0{,}99\,\upsilon_c$ когда движение практически становится установившемся.

Подставив это значение $\upsilon_{см}$ в (8) получим

$$t = \ell n \frac{\upsilon_c + 0{,}99\upsilon_c}{\upsilon_c - 0{,}99\upsilon_c} ,$$

откуда $t = \tau\ \ell n\ 199$ или $t = 5{,}3\ \tau$

По полученному результату следует, что промежуток времени, за которое движение практически устанавливается, зависит только от параметров устройств, которые учитываются в равенствах (2) и (6).

Согласно (6), увеличение длины трубопровода приводит к увеличению параметра τ, следовательно, и к увеличению времени неустановившегося периода движения. Это объясняется тем, что при увеличении длины увеличивается масса жидкости в трубопроводе, инерцию которой при разгоне надо преодолеть. В трубопроводе с длиной, стремящейся к нулю, согласно (6) и (8), движение при разгоне устанавливается мгновенно, потому что в трубопроводе нет массы, инерцию которой надо преодолеть.

Обратная пропорциональность параметра τ от $H^{1/2}$ объясняется тем, что увеличение напора приводит к увеличению потенциальной энергии единицы веса жидкости, которая должна преодолеть инерцию массы жидкости, находящейся в трубе. Такого же порядка зависимость τ от ξ_c показывает, что увеличение суммарного коэффициента сопротивлений ξ_c приводит к увеличению ускорения и наступления установившегося режима. На самом деле при увеличении гидравлических сопротивлений согласно равенства (4) уменьшается установившаяся скорость данной системы и, следовательно, при разгоне данный напор H должен преодолевать меньшую инерцию, чем при малых значениях сопротивлений, поэтому процесс ускоряется.

Таким образом, в работе предложено уравнение Бернулли для смеси газо-жидкостного потока, учитывающее инерционный напор, а так же коэффициент вязкостных и молярных сопротивлений. Решением дифференциального уравнения получены расчетные формулы для определения времени разгона и скорости смеси в зависимости от геометрических параметров преобразующих структуру потока устройств и произведен анализ полученной расчетной формулы.

Литература:

1.Хажиматова М. М. Некоторые гидродинамические эффекты, проявляемые при пузырьковом и снарядном режимах течения газожидкостной смеси //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 257-264.

2.А.Мирзаев, Хажиматова М , Многофазные среды со сложной реологией и их механические модели //XI всероссийский съезд по фундаментальным проблемам теоретической и прикладной механики Казань, 20–24 августа 2015 года

3.Такабоев Қ. Ў., Хажиматова М. М. Хўжалик чиқинди сувлари, улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 325-336.

4.Хажиматова М. М., Саттаров А. Экологик таълимни ривожлантиришда инновация жараёнлари //Me′ morchilik va qurilish muammolari. – 2019. – Т. 48.

5.Rakhmatullaevich, S. S. (2022). Analysis of the methodology for controlling heat loss in buildings. International journal of research in commerce, it, engineering

and social sciences issn: 2349-7793 impact factor:6.876,16(07),15-19.
https://gejournal.net/index.php/ijrciess/article

6.Хажиматова М. М. Сооружение для забора подземных вод //Символ науки. – 2021. – №. 4. – С. 21-24.

7.Мусаев Ш. М. Методы гидравлического расчета оросительных лотков типа лк-60, лк-80 и лк-100 из полиэфирной смолы //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 190-195.

8.Махмудова Д. Э., Алиев М. К., Мусаев Ш. М. Анализ аварийных ситуаций на сетях водоотведения города Ташкента //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 411-421.

9.Alibekova, N.N. (2021) reliability and cost - effektiveness of polymer pipes. Euroasiaconference. Com.evro science: internasional conference on soial and huanitarian researc,hosted.germany.

YOMG'IR SUVLARINI YIG'ISH VA TO'PLASH TIZIMINI MODELLASHTIRISH

Yasakov Z.X. – katta o'qituvchisi; **Ismoilova D.X.** - tadqiqotchi
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annatatsiya. Yog'ingarchilik cheklangan, iqlimi quruq hududlarda aholi suvsizlikdan aziyat chekishadi. Bunda suvlarni yig'ish va undan samarali foydalanish eng maqbul usul hisoblanadi. Suv yig'ish – bu yo'qotilayotgan suvning katta qismini qayta tiklashning arzon, ishlatish uchun qulay, ekologik toza usulidir. Yog'ingarchilik davrida suvlarning tabiiy oqimidan 90 foiz suv bevosita yoki to'g'ridan-to'g'ri yo'qoladi, bunday hollarda aholi va tabiat zarar ko'radi. O'zbekistonda yomg'ir suvlaridan foydalanish modeli qishloq xo'jalik uchun ham maishiy maqsad uchun ham ishlab chiqilmagan. Bu noananaviy suv manbasidan foydalanish ayrim hududlarda ilmiy asoslanmagan usullarda yo'lga qo'yilgan xalos.

Noananaviy suv manbasida ishlatiladigan yomg'ir-qor suvlarini yig'ish hudud ehtiyojidan kelib chiqib suv yig'ish tizimini loyihalash, qurish va saqlash tizimi ishlab chiqilishi kerak. Ushbu maqolada suv yig'ishning yer korrozoyaga uchrashishiga qarshi kurashish, oziq-ovqat xavfsizligini oshirish va iqlim o'zgarishiga moslashish tizim modelini ishlab chiqishni asosiy maqsad qilib belgilandi.

Kalit so'zlar: yomg'ir suvlari, yomg'ir suvlarini yig'ish texnologiyasi, yig'ish, saqlash, sug'orish

Kirish. Bugun dunyoda 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda. Bu son ichida Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisi ham yuqori ulishni tashkil qiladi. Asosiy suv manbai muzliklar bo'lgan Markaziy Osiyoda muzliklarining taxminan 30 foizidan ayrilgan. Ikkita yirik suv beruvchi daryosiga ega, ammo o'zida suv shakllanmaydigan O'zbekiston, suvdan aziyat chekayotgan mamlakatlar reytingida 2024-yilda 25-o'rinni egallashi suv tanqisligi yuqori ekanligidan dalolat. Bunday holatlarda muqobil suv resusrlaridan samarali foydalanish masalaning muhandisli yechimi deyishimiz mumkin.

O'rta Osiyoning yog'inlari kam tushadigan hududlarida yog'inlarning sutkalik maksimal ekstremal miqdori 30-50 mm, yog'ingarchilik ko'p bo'ladigan hududlarda esa sutkalik maksimal miqdori 100 mm va undan ko'proqni tashkil qiladi. Atmosfera yog'inlari kuzatiladigan kunlar soni bir yilda 40 – 200 o'rtasida o'zgarib turadi. Yog'ingarchilik yerga shimiladi, bug'lanadi, oqim bo'yicha oqadi. Buni quyidagi sxemada ko'ramiz.

Tadqiqot. Atmosfera yog'inlari qish – bahor davrida yerda tuproq nam zaxirasini hosil qiladi, bu esa qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Atmosfera yog'inlari yetarli (yiliga 200 mm va undan ko'proq) bo'lgan sharoitlarda ekilgan ekin tabiiy nam hisobiga unib chiqadi, natijada birinchi sug'orishni keyinroqqa surish mumkin bo'ladi. Tuproq namlikka to'yingan vaqtda yog'ingarchilik suvlarini muhandislik tizimlari asosida yig'ib olish suvsizlikdan aziyat chekishni kamaytiradigan ekologik toza yechim hisoblanadi. Yomg'ir-qor suvlarini yig'ishning tipologiyasi quyidagi sxema asosida amalga oshiriladi.



Yomg'ir qor suvlari saqlash texnologiyasi tipologiyasi

Yog'ingarchilikning o'rtacha yillik hajmi 186 mm.ni tashkil qiladigan O'zbekistonda yog'ingarchilik suvlarini yig'ish imkoniyati bor ekanligi 3 yillik dala sharoitidagi tajribalarda isbotlandi. Adir va tog'oldi qismlarida yog'ingarchilik 300-550 mm.ni tashkil etadi. Tog'li hududlarda esa yanada yuqori 800-900 mm.gacha yetib, 70-90 kungacha yog'ingarchilik kuzatiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 m^2 tom sathidan o'rta hisobda 186 litrga teng yomg'ir suvini to'plash mumkin.

Yomg'ir suvidan foydalanib, bir kishi kuniga o'rtacha 71 litrgacha ichimlik suvini tejashi mumkin. Hozir, bir kishining kunlik o'rtacha suv sarfi 130 litrni tashkil etadi. Agar biz hozir toza ichimlik suv sarflayotgan ishlab chiqarish jarayonlari, maishiy, uy-xo'jaligi, avtomobillarni yuvish kabilar yog'ingarchilik suvi hisobidan bo'lsa, mamlakat bo'yicha sezilarli miqdorda toza ichimlik suv tejaladi. Qishloq xo'jaligida esa bu sezirarli darajada foyda keltiradi. Birinchidan suvdan foydalanish imkoniyati butun davr uchun mavjud bo'ladi, ikkinchidan yerning erroziya xavfi oldi olinadi, uchunchidan yer osti suvlaning kamayib ketish

oldi olinadi, to'rtinchidan aholi ish bilan ta'minlanadi va yuqori hosildorlik hisobiga daromatlari oshadi.

Yomg'ir suvlarini yig'ish imkoni mavjudligi bo'yicha chet davlatlarining tajribasi o'rganilganda quyidagilarni ko'rdik. Misol uchun, Turkiyada 2 ming m^2 ortiq ko'p qavatli uylar hamda yangi qurilayotgan binolarda yomg'ir suvini yig'ish tartibi belgilangan. Germaniyada Frankfurt aeroportida yig'ilgan yomg'ir suvi aeroportning ko'kalamzorlashtirilgan hududlarining 60 foizini sug'orish va texnik suv o'rnini qoplash imkonini beradi. Avstraliyada esa yomg'ir suvi shaharlarda 9 foiz, shahardan tashqarida 63 foiz suvga bo'lgan talabni qondiradi.

Yomg'ir suvini yig'ish Iroqda qishki ekin uchun suv mavjudligini ta'minlaydigan usullardan biridir. Ushbu usul yordamida yomg'irning ortiqcha suvi (oqim) turli o'lchamdagi to'g'onlarning suv omborlarida saqlanadi. Bu suv havzalaridagi suvdan keyin kerak bo'lganda ekinlarning ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish mumkin. Yomg'ir suvini yig'ish Iroqdagi suv tanqisligi muammosini yengish uchun yechimlardan biri deb hisoblanadi.

Yomg'ir suvlarini to'plash odamlarning suvga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Har bir yurtdoshimiz yig'ilgan suvni tejashga harakat qiladi va bugun millionlab kubometr behuda yo'qotilayotgan qimmatbaho resurs tejaladi.

Yomg'ir suvini yig'ish uchun modellashtirish bilan bog'liq qismlarni o'z ichiga oladi. Bunda tadqiqot hududi sifatida Samarqand viloyatining Ishtixon va Urgut tumanlaridagi tanlangan joylar olindi. Ishning birinchi qismida Ishtixon tumanining Zarband qishlog'idagi 0.33 gektar yerga ekilgan uzumzorni sug'orish uchun ikkita tanlangan hududdan foydalanildi. Ishtixon tumanidagi tadqiqot maydonining qiyaligi 3% dan kam. Tok ekinlarining sug'oriladigan maydonlarini to'liq sug'orish talablarining 100% qo'shimcha sug'orish senariysini optimallashtirish uchun chiziqli dasturlash texnikasi qabul qilindi. Har bir asosiy havza uchun suv rezurvarini ishlatishning ikkita senariysi ko'rib chiqildi. Birinchisida har bir suv rezurvari alohida qurilma sifatida, ikkinchisida esa asosiy havzadagi barcha suv rezurvarilari bir tizim sifatida ishlandi. Ikkala senariy ham samarali natijalarni berdi. Biroq, ikkinchi senariy nisbatan yaxshiroq edi. 50% texnika etishmasligi sug'orish to'liq sug'orish talablarining 100% va 25% dan ko'ra foydaliroq bo'lishi mumkin.

Yomg'ir suvini yig'ishning kelajakda haqiqiyligini ko'rsatish uchun huddi shu tadqiqot maydoni uchun kelajakdagi va tarixiy qayd etilgan yog'ingarchilik o'rtasidagi oqim natijalarini taqqoslash amalga oshirildi. O'rganilayotgan hududlardagi yomg'irli yerlar sug'orish maqsadlarida sezilarli darajada oqadigan suvni tejash nuqtai nazaridan samarali texnikani talab qiladi va bunga yomg'ir suvini yig'ish (YSY) usuli orqali erishish mumkin. Ishtixon va Urgut tumanlarining asosiy ekin turlari uzum va bug'doy ekinlari hisoblanadi. Yuqoridagi uchun sug'oriladigan maydonni optimallashtirish uchun chiziqli dasturlash texnikasi qabul qilindi.

Yomgir suvlarini yig'ishda belgilangan hududni sug'orish uchun sarflanadigan suv miqdori aniqlanib, kerak bo'ladigan suvni yig'ish uchun qancha maydon kerakligi aniqlanishi lozim. Bu uchun esa avvalo yil davomida qancha yomg'ir yog'ishini aniqlash maqsadida yomg'irni yog'ishini modellashtirish talab etiladi. Yog'ingarchilikni hisoblash quyidagi metodologiya asosida hisoblanadi.

$$P=(m/n+1)*100$$

Bu yerda, P-yog'ingarchilik chastatasi (%)

m-yog'ingarchilikning eng past va eng yuqori darajasi

n-yog'ingarchilik seriyasining yillar soni

Yomg'ir suvlarini yig'ishda yana bir jihatni unutmaslik lozim. Bu tuproqning suv balansi. Tuproqning suvga to'yinishi yog'ingarchilik hisobiga bo'ladi. Tuproqning suv balansi modeli tenglamasi quyidagicha topiladi.

$$P=E_y+R+R_o+S/t$$

Bu yerda, P-yog'ingarchilik

E_y –yomg'irga bog'liq bug'lanish

R –yer osti suvlarining to'ldirilishi

R_o –sirt yuzasi

S –tuproq namligini saqlashdagi o'zgarish

t –vaqt birligi

Yomg'ir suvlarini yig'ishda tizimdan kerakli suv yig'ib olish maydonini topib olish muhim. Bu quyidagi formula bilan topiladi.

$$A=V_d/P_r*R_y$$

Bu yerda, A-suv olish maydoni

V_d-bir yil ichida suvga bo'lgan ehtiyoj

P_r-ma'lum chastatali yog'ingarchilik

R_y-yillik yomg'ir suvini yig'ish samaradorligi

Yig'ilishi kutilayotgan suvlarni saqlash hajmini ham hisoblab olish zarur. Bu quyidagicha amalga oshiriladi.

$$V=Q/F$$

Bu yerda, V-saqlash hajmi

Q-suv ta'minoti miqdori

F-bitta rezurvardagi to'liq va bo'sh sikllar soni

Yomg'ir suvi oqimi va saqlash uchun ishonchli rejalashtirishni qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan yillik yog'ingarchilikni aniqlashdan iborat, shuning uchun tanlangan yog'ingarchilik yilining o'zgaruvchanlik koeffitsienti (C_v) va egilish koeffitsienti (C_s) ham hisoblab chiqiladi (loyihaviy yog'ingarchilik).

Quyidagi formuladan loyihaviy yog'ingarchilikning o'zgaruvchanlik koeffitsienti va egrilik koeffitsientini aniqlash uchun foydalanish mumkin.

$$C_V = \frac{1}{X_a}\sqrt{\frac{\sum_{i=1}^{n}(X_a - X_1)^2}{n-1}};$$

$$C_S = \frac{\sum_{i=1}^{n}(X_i - X_a)^3}{X_a(n-1)^3};$$

Bu yerda,

C_v - o'zgaruvchanlik koeffitsienti

C_s - qiyalik koeffitsienti,

x_i - 1-yildagi yillik yog'ingarchilik,

x_a - qatorning o'rtacha yillik yog'inlari hisoblanadi.

$$X_a = \frac{X_1 + X_2 + \dots X_i + \dots X_n}{n};$$

Yillik yog'ingarchilik bo'yicha barcha haqiqiy ma'lumotlar chastota taqsimotining egri chizig'ini olish uchun ehtimollik qog'ozida empirik chastotaga nisbatan chiziladi. Ushbu mashqning maqsadi 90% chastotali yillik yog'ingarchilikni topishdan iborat bo'ladi.

Xulosa

Yomg'ir suvini yig'ish va boshqarish (YSYB) yomg'irni ushlab turish hamda suvni tuproqda yoki rezervarda, suv omborlari kabi kichik inshootlarda saqlash uchun yuqorida ishlab chiqilgan texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Asosiy maqsad - hosildorlikni sezilarli darajada pasaytirishi mumkin bo'lgan mavsum ichidagi va mavsumlararo qurg'oqchilikni kamaytirish orqali hosildorlikni oshirish. Mahalliy tahlillar ham, global modellashtirish ham yog'ingarchilik kam bo'lgan mavjud hududlarda, shuningdek, kelajakda quruq yerlarning ko'payishi va iqlim o'zgaruvchanligining ortishi sharoitida hosildorlikni oshirishning bir xil afzalliklari, imkoniyatlarini ko'rsatmoqda. Biroq, yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, YSYB qo'shimcha saqlanadigan suv qiymatini maksimal darajada oshirish uchun tuproq va ekinlarni boshqarishdagi boshqa ilg'or tajribalar bilan aniq birlashtirilishi hamda moslashtirilishi kerak.

Yomg'ir suvlarini yig'ish va boshqarish tuproq namligi va yer osti suvlarini to'ldirish uchun suvni ushlab turish qobiliyatini oshirish qiymatini ko'rsatdi.

Tabiat va atrof-muhitga xizmat ko'rsatishni hisobga olgan holda, cho'kindilarni nazorat qilish maqsadga muvofiq bo'lgan hollarda fermerlarga ushbu amaliyotlar uchun yaxshiroq kompensatsiya olish kerakmi yoki yo'qligini ko'rib chiqish kerak. Shuning uchun YSYB uchun qo'shilgan qiymat va foydani baholash va fermerlarga YSYB ni amalga oshirish orqali erishilgan ijobiy ekologik imtiyozlarni qoplash uchun ko'proq harakat qilish kerak.

Adabiyotlar:

1. Gadaev A.N., Yasakov Z.Kh. The Aral Sea Disaster as a National Disaster. Disaster by Design: The Aral Sea and its Lessons for SustainabilityEmerald, UK. 2012
2. Духовный В.А. Водохозяйственный комплекс в зоне орошения. Формирование, развитие. – М., Колос.1984 г. – 256 с.
3. Рахимов Ш.Х., Бегимов И., Жумамуратов Д.К. Управление водораспределением – Сельское хозяйство Узбекистана 2006, №12, с. 28-29
4. https://www.neliti.com/publications/335926/engineering-solutions-for-water-security-in-mountainous-and-steppe-areas
5. https://opensiuc.lib.siu.edu/ucowrconfs_2006/3/
6. The Water Deficit Solution in Central Asia: Rrainwater Using, EUROPEAN JOURNAL OF LIFE SAFETY AND STABILITY (EJLSS) ISSN 2660-9630 www.ejlss.indexedresearch.org
7. T. Oweis quruq hududlarda qishloq xo'jaligi tadqiqotlari xalqaro markazi (ICARDA) (CGIAR Future Harvest Center) qoshidagi Integratsiyalashgan suv va yer boshqaruvi dasturi (IWLMP) direktori. U 1980-yillardan beri irrigatsiya va suvni boshqarish bo'yicha tadqiqotlar olib bordi va ko'p nashr etdi, vaqt o'tishi bilan ko'plab akademik va institutsional rollarni bajardi.
8. D. Prinz sug'orish, suvni boshqarish va hosil yig'ish, suv va tuproqni saqlash masalalari bo'yicha mustaqil maslahatchi hisoblanadi. Faoliyati davomida u qishloq muhandisligining ko'plab jabhalari bo'yicha, ayniqsa, suv va er resurslarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan holda nashr va ma'ruzalar o'qidi; sug'orish, suv va tuproqni saqlash va qishloq xo'jaligida suv yig'ish.
9. A. Xachum Mosul universiteti muhandislik kolleji suv resurslari muhandisligi kafedrasi professori, Iroq va ICARDA integratsiyalashgan suv va yer boshqaruvi dasturi bo'yicha maslahatchi. Sug'orish va suv yig'ish masalalariga bag'ishlangan ko'plab maqolalari, bir qancha monografiyalari chop etilgan.

ҚАТТИҚ МАИШИЙ АХЛАТ ЧИҚИНДИЛАРНИ (ТБО) САРАЛАШ, ЖОЙЛАШТИРИШ ВА ЛИКВИДАЦИЯ ҚИЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ.

Худоёров Шароф Тўйчиевич, доцент.
Жиззах политехника институти

Аннотация: Тақдим этилаётган ушбу технология марказий ахлатхоналар худудида экологик ва санитария назорати сохасида тозалик ва ободонлаштириш ишлари жараёнида фойдаланилади. Юқорида келтирилган санитария –гигиеник холатлар тахлил қилинганда ахлатхоналарда махсус ПОСТ ТБО лар қуриш ва унинг назоратини олиш қаттиқ маиший ахлат чиқиндиларни (тбо) саралаш, жойлаштириш ва ликвидация қилиш технологияси яратиш зарурлигини тақозо этмоқда.

Калит сўзлар: Тоза ҳудуд ДУК, саралаш, экология, металл чиқиндилари, полиэтилен, экологик модель, пост ТБО, эксковатор, погрузчик, трактор вибрационный бункер, прицеп, механизация, бригада.

Аннотация: Предлагаемая технология используется в сфере экологического и санитарного контроля на территории центральных свалок в процессе обеспечения чистоты и благоустройства. Анализ вышеуказанных санитарно-гигиенических условий показывает необходимость создания технологии по строительству специализированных постов ТБО, а также по сортировке, размещению и ликвидации твёрдых бытовых отходов (ТБО), с организацией соответствующего контроля.

Ключевыеслова: Государственное унитарное предприятие «Тоза худуд», сортировка, экология, металлические отходы, полиэтилен, экологическая модель, пост ТБО, эксковатор, погрузчик, трактор, вибрационный бункер, прицеп,

механизация, бригада.

Abstrakt: The presented technology will be used in the process of cleaning and landscaping in the area of central waste disposal sites within the field of ecological and sanitary control. When analyzing the above-mentioned sanitary and hygienic conditions, the need arises to build specialized solid waste collection posts (PPTBO) at waste disposal sites and to supervise them, as well as to develop technologies for sorting, placing, and eliminating solid domestic waste (SDW).

Key words: Clean territory of DUK, sorting, ecology, metal waste, polyethylene, ecological model, solid waste post, excavator, loader, tractor with vibration hopper, trailer, mechanization, team.

Тақдим этилаётган ушбу технология марказий ахлатхоналар худудида экологик ва санитария назорати сохасида тозалик ва ободонлаштириш ишлари жараёнида фойдаланилади.

Махаллаларда ахлат чиқиндиларни тўплаш ва олиб чиқиб ташлашни ташкиллаштириш механизми етарли даражада шакилланмаган улар учун махсус ПОСТ ТБО лар қурилмаган. Шу соханинг вакиллари томонидан (Тоза худуд ДУК) корхонаси томонидан ташкил этилган чиқиндини олиб кетилиши график холда олиб борилмайди. Натижада Ахлатхоналарда чиқиндиларнинг тўпланиб қолиши ва хиди чиқиб кетиши хамда санитария ва гигиена холатларининг бузилиши холатларини келтириб чиқаради. Ахлат чиқиндилар учун қўйилган махсус идишларга уй рўзғор ва бошқа чиқитлар сартировка қилинмаган холда тўкилиши назоратга олинмайди. Натижада махаллалар худудиа жойлашган ахлатхоналарда чиқиндиларнинг аралашиб хиди чиқиб кетиши холатлари айниқса ёз кунлари бундай чиқиндиларнинг тез бузилиши натижасида худудга кириб бўлмайди. Юқорида келтирилган санитария –гигиеник холатлар тахлил қилинганда ахлатхоналарда махсус ПОСТ ТБО лар қуриш ва унинг назоратини олиш хисоб китобини олишдек мухим масалаларни ечиш каби ушбу механизмга янгича ёндашиш механизмини яратиш зарурлигини тақозо этмоқда. Мавжуд холатлар тахлил қилинганда ахлатхоналарни ПОСТ ТБОларни янгича механизмини яратиш зарурлигини тақозо этмоқда.

Маиший чиқиндиларни тартибга солиш борасида маъсул бўлган корхона ва нотижорат ташкилотлар (Тоза худуд ДУК, МФЙ) хамда туман хокимлиги фаоллиги махаллаларда фуқаролар билан шартнома тузиш ахолидан чиқаётган маиший чиқитларга тўлов тизимини такомиллаштириш механизмини жорий этиш ахлат чиқиндиларни саралаш, жойлаштириш ва утилизация қилиш технологиясини жорий қилиш, фуқаролар ўртасида тарғибот ташвиқот тушинтириш ишларини йўлга қўйиш каби мухим масалалар шулар жумласидандир.

Ушбу усул билан ёндашув механизмини яратиш мақсадида Марказий ахлатхоналарда экологик ва санитария холатини яхшилаш инсон саломатлигини сақлаш ва тирик мавжудодлар учун экологик мухитни сақлаш ишлаб чиқариш ва ахолидан уй-рўзғор чиқиндиларни атроф мухитга зарар келтирмаган холдаги механизмини яратиш, уларни саралаш, жойлаштириш ва утилизация қилиш ишлари тартибга солинади.

Марказий ахлатхоналарда қаттиқ маиший чиқиндиларни (ТБО) сортировка қилиш жойлаштириш ва утилизация қилиш технологиясини яратиш.

Марказий ахлатхоналарда қаттиқ маиший чиқиндилар сортировка ва утилизация қилиш мақсадида “NEW HOLLAND” (Нью Холланд В80В) маркали эксковатор – погрузчик, ТТЗ-80,10 маркали трактор хамда виброцион бункерли 2ПТС -4 маркали прицеп таркибида механизациялашган бригада ташкил этилади. Марказий ахлатхоналарда тўпланиб қолган ахлат чиқиндилари 2 босқичда сартировка қилинади. 20 мм металл арматурали сеткадан йирик шаклдаги ахлат чиқиндилари сортировка қилиниб тарнов орқали махсус майдончага тўкилади. Шунингдек ушбу металл сеткадан ўтган пастки қаватдаги майда шаклдаги ахлат чиқиндилар эса 2- майдончага махсус майдончага жойлаштирилади. Натижада 1- майдонда тўпланган йирик шаклдаги қаттиқ сиқиндилар қурилиш материаллари сифатида ишлатилади (шлакоблок, хамда йўл ва бошқа курилиш сохасида) 2- майдонда тўпланган майда шаклдаги қаттиқ ахлат чиқиндилар фермер хўжаликлари далаларига махаллий ўғит сифатида ишлатилади, қолган айрим чиқиндиларни утилизация қилиш ишларига этибор қаратилади.

Ушбу Марказий ахлатхоналарда экологик ва санитария холатини яхшилаш инсон саломатлигини сақлаш ва тирик мавжудодлар учун экологик мухитни сақлаш ишлаб чиқариш ва ахолидан уй-рўзғор чиқиндиларни атроф мухитга зарар келтирмаган холдаги механизмини яратиш, уларни саралаш, жойлаштириш ва утилизация қилиш ишлари тартибга солинади. Погрузчик V=1.0 м^3 ковш билан 2 ПТС-4 маркали прицеп платформасида жойлашган вибрацион букерга қаттиқ маиший ахлат чиқиндиларини тўкади. Вибрацион бункер 200 мм ли металл арматура сеткадан иборат бўлиб, 2.0-2.4 м ли хажмдаги прицеп платформасига ўрнатилади. Вибрацион бункерли прицепга ТТЗ-80,1 трактори орқа томондан махсус айланма вал орқали вибрация мосламаси харакатга келтирилади.Бунда вибрацион букерли прицеп платформаси олд қисми 20-30 градусгача кўтаради натижада прицеп платформасига тўкилган қаттиқ маиший чиқиндилар (ТБО) сеткали вибрацион бункерда вибрация туфайли сараланиб, махсус тарновлар орқали белгиланган мойдончаларга жойлаштирилади.

Бу усулда қаттиқ маиший ахлат чиқиндилари вибрацион букерга тўкилади ва прицепга солинадиган ахлат чиқиндилари сараланган холда туртури билан алохида майдончаларга жойлаштирилади.

Адабиётлар:

1. "Маиший ахлатни қайта ишлаш ва утилизация қилиш" – Л.Н. Хочиева, М.С. Назаров, Тошкент. "Ўзбекистон" нашриёти. 2015.

2. "Жаҳон тажрибасида чиқиндиларни қайта ишлаш ва

утилизациялаш" – Ж. Давронов, Тошкент. " Иқтисодиёт " нашриёти. 2018.

3. "Табиий ресурслар ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш" – А.А. Абдуллаев, Тошкент. " Фан " нашриёти. 2018.

4. "Утилизация ва қайта ишлаш: Атроф-муҳитга таъсирини камайтириш" – Р. Нуриддинов, Тошкент. " Экология" нашриёти. 2021.

5. "Маиший ахлатлар ва уларни қайта ишлаш" – М. Бозоров, Тошкент. " Технология ва экологик ахборот " нашриёти. 2026.

ШЕЗИ КОЭФФИЦИЕНТИ УЧУН КАНАЛЛАРНИ ҲИСОБЛАШ УСУЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ.

Жовлиев Ўктам Темирович, PhD, **Казаков Эргаш Ахмадович**, PhD,
Рўзиев Музаффар Ортиқ ўғли, PhD
Ўзбеков Жўрабек Адхамович, **Бабаёрова Гуласал Бахтиёр қизи** - таянч доктарантлар

Аннотация. Ушбу мақолада ер-ўзан каналларни лойиҳалашда қўлланиладиган асосий услублар — рухсат этилган тезликлар усули, уринма кучланиш назарияси ва режим назарияси таҳлил қилинган. Канал турғунлигини таъминловчи нисбий кенглик, нисбий чуқурлик, уринма кучланиш ва ғадир-будурлик каби гидравлик параметрлар ҳамда Шези коэффициентини аниқлаш формулалари солиштирилган.

Калит сўзлар: Канал гидравликаси, рухсат этилган тезлик, уринма кучланиш, режим назарияси, нисбий кенглик, нисбий чуқурлик, Шези коэффициенти, ғадир-будурлик коэффициенти, гидравлик радиус, полигонал каналлар.

Abstract. The article examines key methods used in designing earthen canals, including the permissible velocity method, boundary shear stress approach, and regime theory. Essential hydraulic parameters such as relative width, relative depth, shear stress, roughness, and formulas for determining the Chezy coefficient are reviewed.

Keywords: Channel hydraulics, permissible velocity, shear stress, regime theory, relative width, relative depth, Chezy coefficient, roughness coefficient, hydraulic radius, polygonal channels.

Аннотация. В статье рассмотрены основные методы проектирования русловых каналов: метод допустимых скоростей, теория касательных напряжений и режимная теория. Проанализированы гидравлические параметры устойчивости — относительная ширина, относительная глубина, касательное напряжение, шероховатость и формулы определения коэффициента Шези.

Ключевые слова: Гидравлика каналов, допустимая скорость, касательное напряжение, теория режима, относительная ширина, относительная глубина, коэффициент Шези, коэффициент шероховатости, гидравлический радиус, полигональные каналы.

Каналларни лойиҳалаш ва ҳисоблашда асосий вазифалар рухсат этилган тезлик усулига асосланади. Рухсат этилган тезлик усулининг асосий тамоили каналдаги оқим тезлиги ювиладиган қийматидан кичкина, лойқа босадиган қийматидан катта бўлишига асосланган [1,2,4,6]:

$$\vartheta_{нз} \leq \vartheta_{расч} \leq \vartheta_{нр} \quad (1)$$

бу ерда: $\vartheta_{нз}$ – лойқаланмайдиган тезлик, м/с; $\vartheta_{расч}$ – каналдаги оқимнинг ҳисобий тезлиги, м/с; $\vartheta_{нр}$ – ювилмайдиган тезлик м/с.

Агарда (1) шарт бажарилса, канал ўзани статик турғун ҳисобланади. Шу билан бирга, каналнинг лойиҳаланадиган кундаланг қирқими канал ўзани турғунлигини таминлаши шарт бўлади. Бунинг учун турғун канал туби бўйича нисбий эни $\beta_{уст}$ С.А.Гиршкан формуласига мувофиқ аниқланади [1,2,4,5,6]:

$$\beta_{уст} = \frac{b}{h} = 3\sqrt[4]{Q} - m \quad (2)$$

Бу ерда:

b- каналнинг туби бўйича эни, м;

h - канал чуқурлиги, м;

Q – ҳисобий сув сарфи, $м^3$ / с;

m – канал ўзани қиялиги коэффициенти.

Жаҳонда рухсат этилган тезликлар усули ер-ўзан каналларини лойиҳалашда кенг қўлланилиб келинмоқда. Бу усул, ғадир-будурлик коэффициентини аниқлаш, канал ўзани ён қияликларини, максимал рухсат этилган тезликни, гидравлик радиусни, намланган периметрни ҳисоблаш каби услубларни қамраб олади. Ушбу усул В.Т.Чоу, Е.К.Рабковой каби олимларнинг ишларида яхши ёритилган [7,4].

Куч орқали олиб кетиш усули негизида оқимнинг ўзан билан чегарасида рухсат этилаган кучланишга асосланган. Маъноси жиҳатидан ушбу усул рухсат этилган тезликлар усулига бир хил (ўхшаш) бўлиб, канал кўндаланг қирқими ўзан ювилиши ва лойқаланишига турғун бўлиши талаб этилади.

Бу усулнинг муҳим хусусияти шундан иборатки, ўзан туби турғунлигини баҳолаш имкониятини яратади. Бутун оқим бўйича ўрталаштирилган уринма кучланиш суюқликнинг текис барқарор оқими тенгламасидан аниқланади.

$$\tau = \rho g R I \quad (3)$$

Бу ерда: τ – уринма кучланиш, ρ - суюқлик зичлиги, R - гидравлик радиус, I - гидравлик нишаблик.

Кенг ўзанли каналларида R=h деб олсак, (3) формулани қуйидаги шаклда ёзиб олиш мумкин:

$$\tau = \rho g h I \quad (4)$$

АҚШнинг мелиоратив бюроси муҳандислари Этшеверри, Фортье ва Скобеемлар томонидан ишлаб чиқилган назарияга кура кундаланг қирқим юзаси трапеция шаклидаги канал ўзани тубида уринма кучланишнинг максимал қийматлари кўзатилиб, pghI га тенг, ён қияликларида эса 0.75pghI га камаяди. Уринма кучланишнинг τ тақсимланиши ўзаннинг шаклига β=b/h ва қиялик коэффициентига туғри пропорционал эканлиги тадқиқ қилинган.

Режим назарияси усули лойқага турғун ёки режим каналларини лойиҳалаш ғоясига асосланади. Режим канали деб, туби турғун ҳолатида бўлган

боғланмаган грунтларда қурилган канал ҳисобланади.

Режим назарияси усулини ишлаб чиқишда Р. Кеннеди ўртача тезлик ва чуқурлик ўртасидаги барқарор муносабатларни ифодаловчи тенгламани таклиф қилди:

$$\vartheta_0 = 0.55H^{0.64}$$

ϑ_0- критик тезлик (лойқаламайдиган ва ювмайдиган тезлик, м/с);

H – ҳисобий сув сарфи учун оқим чуқурлиги, м.

Бу усул Россияда ҳам, Европада ҳам, АҚШда ҳам кенг қўлланилган. Бу шу билан боғлиқки амалий лойихалашда, каналлар ҳисоблаш ёндашуви кўпинча чўкмаларнинг транспорт булмайдиган статик барқарор тизимлар сифатида қабул қилинадию

Россияда морфометрика хусусиятлари билан барқарор каналларни баҳолаш тадқиқотлари билан А.А.Черкасов, Е.А.Замарин, Алтунин, Е.К.Рабкова, С.Х.Абалянц каби олимлар кенг шуғилланишган.

Қоракум канали бўйича дала тадқиқотлари маълумотларини умумлаштириб, С.А.Аннаев ва Г.V.Железняков каналнинг юқори қисмидаги нисбий кенглигини аниқлашда қуйидаги формуладан фойдаланишни таклиф этишди:

$$\frac{\sqrt{B}}{h_{ср}} = \frac{A}{\sqrt{Q}}, \quad (5)$$

B- каналнинг юқори қисмидаги нисбий кенглиги, м; A – канал ўзани грунтлари характерига боғлиқ ўзгарувчан коэффициент; Q – сув сарфи, $м^3/с$.

Великанов М. А., ўлчов назарияси усулларига асосланиб ювиладиган ўзан чуқурлиги ва кенглигини ифодаловчи улчовсиз мезонларни ишлаб чиқди:

$$\frac{B}{h_{ср}} = f\left(\frac{Q}{d^2\sqrt{gdI}}\right), \quad (6)$$

бу ерда: d – ўзан оқизиқлари диаметри; I – сув юзасининг нишаблиги.

Бироқ, Г.V.Железняков, Великанов мезонига кўра $B/h_{ср}$ нисбатини ҳисоблаш натижаларини таҳлил қилиш асосида, бу усулнинг чегараланганлигини кўрсатди ва оғир ҳамда ўрта тупроқларда (паст $d_{ср}$ да) экспериментал тадқиқот натижаларига мос келмаслигини аниқлади.

Йирик канлларнинг гидравлик ҳисоблаш усулларини такомиллаштириш билан боғлиқ илмий тадқиқот ишлари билан В.С.Алтунина, И.Ф.Карасева, Г.В.Железнякова, Ц.Е.Мирцхулавы, Ю.М.Косиченко каби олимлар кенг шуғилланишган.

В.С.Алтуниннинг асосий тадқиқотлари ўзаннинг морфологик хусусиятларни ўрганиш ва дарё ҳамда каналларнинг барқарорлигини, гидравлик иншоотларнинг экологик хавфсизлигини оширишга бағишланган. В.С.Алтунин очиқ оқимларни моделлаштиришга, канал деформацияларини моделлаштиришга катта ҳисса қўшиб, йирик ер ўзан каналларни ҳисоблашнинг такомиллаштирилган усулларини таклиф қилди.

Ю.М.Косиченко илмий-тадқиқот ишлари мелиоратив каналларидаги гидравлик жараёнларни тадқиқ қилишга бағишланган. Асосан ер-ўзан ва бетон қопламали каналларнинг гидарвлик ҳисоблаш усуллари такомиллаштирилган. Шунингдек, унинг тадқиқотлари каналлар ишончлилиги, гидравлик қаршилик масалалари ва каналлардаги фильтрация жараёнлари билан боғлиқ.

Йирик ер-ўзан магистрал каналлар кўпинча полигонал шаклда, бетон қопламали каналлар эса – трапециясимон шаклда бўлади. Полигонал ва трапециясимон каналларнинг гидравлик ҳисоблаш усуллари А.А.Угинчус томонидан яхши ўрганилган.

Канални ҳисоблашда унинг чуқурлиги, туби бўйлаб нисбий кенглиги, қиялигининг келтирилган коэффициенти, гидравлик самарали кундаланг қирқим юзаси каби гидравлик параметрлар ҳисобланади.

Полигонал ва трапециясимон канал ўзанларининг кўндаланг кесими шаклининг асосий параметри ўзан туби бўйлаб нисбий кенглик бўлиб, $\beta = b/h$ билан белгиланади (бу ерда b- ўзан туби бўйлаб канал кенглиги, h-сув чуқурлиги). β параметри $\beta_{max} \geq \beta \geq \beta_{г.н.}$, доирасида олинади ва β_{max} - гидравлик у энг қулай канал қирқими параметри ҳисобланади. Кўпгина адабиётларда ушбу параметрни А.М. Латышенкова формуласи бўйича аниқлаш тавсия этилади[1,2,4,5,6]:

$$\beta_{max} = \frac{b_{г.н}+m}{A_\vartheta \cdot A_h^2} - m \quad (7)$$

Бу ерда: $A_\vartheta = \frac{\vartheta}{\vartheta_{г.н}}$, $A_h = \frac{h}{h_{г.н}}$.

$b_{г.н}$ - бу каналнинг тубига нисбатан нисбий кенглиги энг қулай гидравлик қирқими қуйидаги формула билан аниқланади:

$$\beta_{г.н} = m' - 2m = 2\left(\sqrt{1+m^2} - m\right) \quad (8)$$

Бу ерда: m – қиялик коэффициенти.

А.А.Угинчус томонидан олиб борилган тадқиқотларда, β канал тубининг нисбий кенглиги, аниқлик даражаси юқори қийматлардан ташқари, ноаниқликни келтириб чиқарадиган ва ҳисоб-китоблар пайтида ишончли қийматларни олишга имкон бермайдиган нол ва салбий қийматларга эга бўлиши мумкин. Шунга асосан, Угинчус томонидан таклиф этилган β параметрни аниқлаш формуласи такомиллаштиришни тақозо этади.

Сўнгги йилларда С.О.Курбанова, Н.В.Ханова илмий-тадқиқот ишларида гидравлик энг қулай каналнни лойиҳалашга имкон берувчи трапецеидал каналнни оптималлаштириш мезонлари таклиф этилади [6,4]. Канал кўндаланг қирқимини такомиллаштириш бу мезонлари каналнинг туби бўйлаб β нисбий кенглиги ва α каналнинг нисбий чуқурлиги билан ифодаланади [6,7,4,3]. Икки ва уч жуфти симметрик қияли полигонал каналларнинг оптимал параметрларини ҳисоблаш усули ҳам улар томонидан яхши ўрганилган.

YUqorida keltirilgan tizimlarning aksariyati septik deb ataladigan inshoot yordamida ishlaydi. Septik - bu to‘siqlar bilan ajratilgan bir yoki bir nechta bo‘limdan iborat maxsus idish [1]. Bo‘lim-kameralar soni qancha ko‘p bo‘lsa, tozalash samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi. Bir bo‘limli septiklar esa faqat oqova suvlar sarfi sutkasiga 1 m^3 dan oshmaganda qo‘llanilishi mumkin. Eng oddiy septiklar suyuqlikni faqat oǵirlikka ega zarralardan tozalaydi, qo‘shimcha tozalash jarayoni esa tuproqda amalga oshiriladi.

Bunday septikning bir necha kamerasi mavjud bo‘lsa, birinchi kamerada oqova suvlarning cho‘kishi sodir bo‘ladi. Natijada qattiq zarrachalar tubga cho‘kib, asta-sekin loyqa cho‘kindilarini hosil qiladi. YOǵ, sirt-faol moddalar va boshqa cho‘kmaydigan mahsulotlar yuzaga qalqib chiqadi va sirtda asta-sekin qotadigan parda paydo bo‘ladi. Qattiq cho‘kindilar to‘planib, kamerani to‘ldiradi. SHu sababli, uni ma’lum vaqt oraliǵida asssenizatsiya mashinasi yordamida tozalash lozim. Birinchi bo‘limdan suyuqlik to‘siqdagi quvur orqali keyingi kameraga oqib o‘tadi. Bunda kameralar orasidagi teshik balchiq cho‘kindilaridan yuqorida va sirtqi pardadan pastda joylashishi kerak. Keyingi kameralarda oqova suvlar bosqichma-bosqich tindiriladi.

Ko‘plab ishlab chiqaruvchilar septikni aerob mikroorganizmlar yordamida oqava suvlarni qo‘shimcha tozalaydigan biofilьtr bilan jihozlaydilar. Buning uchun biofiltr kamerasiga havo yuboriladi. Xizmat ko‘rsatishning ishonchliligi va soddaligi, arzonligi hamda energiyaga boǵliq emasligi kabi afzalliklariga qaramay, hatto septikdan foydalangan holda eng samarali mahalliy tozalash inshootlari ham talab qilinadigan sifatdagi tozalangan suvni olish imkoniyatiga ega emas. Septikda tindirilgan oqava suvlarni yuqori darajada qo‘shimcha tozalash uchun katta hajmdagi yuqori filtrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan tuproq maydonlari zarur bo‘ladi. Bularning barchasi tozalash inshootining narxini sezilarli darajada oshiradi, ayniqsa nasoslar, suv qabul qilish va tarqatish quduqlarini o‘rnatish talab etilganda. Vaqt o‘tishi bilan tuproqning filtrlovchi qatlamlari o‘zining tozalash xususiyatini yo‘qotadi va yangi hududlardan foydalanishga to‘ǵri keladi. Bundan tashqari, sizot suvlari, turar-joy binolari va suv olish manbalariga nisbatan filtratsiya maydonlarini joylashtirishning qat’iy me’yorlari mavjud. SHu sababli, ba’zi hollarda tuproqni qo‘shimcha tozalash, demak septiklardan foydalanish imkonsiz bo‘lib qoladi.

Zamonaviy mahalliy tozalash inshootlari oqova suvlarni tuproqda qo‘shimcha tozalashni qo‘llamasdan deyarli to‘liq tozalash imkonini beradi. Ular aerotenk kabi qurilmalar bilan jihozlangan. Aerotenk - bu rezervuar bo‘lib, unga suzuvchi va erimaydigan moddalardan dastlabki tozalangan kanalizatsiya oqovalari biokimyoviy oksidlanish uchun kelib tushadi. Iflosliklarning biokimyoviy oksidlanishi faol loy, ya’ni hayot faoliyati uchun kislorod kerak bo‘lgan mikroorganizmlar majmuasi ta’sirida sodir bo‘ladi. Oqova suvning faol loy bilan massa almashinuvi va ushbu faol loy tarkibidagi mikroorganizmlarning hayot faoliyati uchun ko‘pincha havo bilan barbotaj usuli qo‘llaniladi.

Faol loyga mikroorganizmlarining faoliyatiga oqova suv harorati, kislorod miqdori va BPK orqali baholanadigan ozuqa moddalar tarkibi ta’sir ko‘rsatadi. SHu sababli, aerotenkda kechayotgan jarayonlarni doimiy ravishda nazorat qilish lozim, chunki bu mikroorganizmlarning nobud bo‘lishining oldini oladi.

Sanab o‘tilgan barcha parametrlarga rioya qilinganda, tozalash darajasi 99 foizgacha etishi mumkin. Biroq, biologik usul juda ko‘p energiya talab qiladi, chunki mikroorganizmlarni barbotaj qilish va ularga havo bilan kislorod etkazish zarur. Bundan tashqari, rezervuarni har 3-5 oyda tozalash kerak bo‘ladi. SHunday qilib, aerotenklarda biologik tozalash bilan jihozlangan mahalliy tozalash inshootlari qurilish va foydalanish jihatidan sodda bo‘lsa-da, barqaror tozalash ko‘rsatkichlarining ishonchliligi faqat oqova suvlarning o‘rtacha sarfi va doimiy harorat rejimida ta’minlanadi.

So‘nggi yillarda shahar oqova suvlarini tozalashda ilgari faqat sanoat oqova suvlarini qayta ishlashga xos bo‘lgan fizik-kimyoviy usullar [3,4] tobora keng qo‘llanilmoqda. YAkka tartibdagi va mahalliy tizimlar

uchun fizik-kimyoviy tozalash qurilmalarini loyihalash, unumdorligi sutkasiga 12-300 m³ bo‘lgan ixcham blokli tozalash inshootlarini (IBTI) yaratish yo‘nalishida rivojlanmoqda [5, 6].

KOBK uchun qo‘llaniladigan turli fizik-kimyoviy usullar orasida oqova suvlarni flokulyatsiya bilan birgalikda flotatsiyalash alohida e’tiborga sazovordir. KOBK ishlashi uchun sarflanadigan solishtirma energiya miqdorini an’anaviy biologik tozalash qurilmalarining energiya sarfi bilan taqqoslash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Водоотведение и очистка сточных вод / С.В. Яковлев [и др.] М.: Стройиздат, 1996. 591 с.

2. Воронов Ю.В., Яковлев С.В. Водоотведение и очистка сточных вод. М., Изд-во Ассоциации строительных вузов: уч. для вузов, 2006. 704 с.

3. Смирнов Д.Н. Очистка сточных вод в процессах обработки. Водохозяйственный комплекс России: понятие, состояние, проблемы. Водные ресурсы. 2010. №5. С.617-632.

4. Алферова, А.А. Замкнутые системы водного хозяйства промышленных предприятий, комплексов и районов. М.: Стройиздат. 2008. №14. С. 25-26.

5. Разработка компактных сооружений физико-химической очистки сточных вод. Проекты развития инфраструктуры города // Инженерные системы городского хозяйства: новые территории и новые технологии: сб. научных трудов. М., Изд-во «Эспо-Медиа-Пресс», 2012. В. 12.

6. Рыков Н.В., Бурдова М.Г. Обоснование физико-химической очистки сточных вод для компактных сооружений (КОБК) // Строительство-формирование среды жизнедеятельности: сборник трудов Пятнадцатой Международной межвузовской научно-практической конференции студентов, магистров, аспирантов, и молодых ученых (25-27 апреля 2012 г., Мо-сква)/М.:МГСУ, 2012. 1024 с.

7. М.Г. Бурдова, Н.В. Рыков. Анализ эффективности работы компактных очистных сооружений для очистки сточных вод. Известия ТулГУ. Науки о Земле. 2013. В. 3

8. Z.Turlibaev., G. Abdiganieva., M. Utambetov. Study of the use of modern compact devices in deep cleaning of urban wastewater. IV International Scientific and Technical Conference “Actual Issues of Power Supply Systems” AIP Conf. Proc. 3331, 040087-1–040087-6; https://doi.org/10.1063/5.0305787 Published under an exclusive license by AIP Publishing. 978-0-7354-5286-2.

ҚИРҒОҚ ҲИМОЯ ИНШООТЛАРИДА ДАЛА ТАДҚИҚОТЛАРИ (АМУДАРЁНИНГ ХОЗАРАСП УЧАСТКАСИ, ЧАП ҚИРҒОҚ МИСОЛИДА)

Асаматдинов И.Ж т.ф.н., доцент. Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti

Аннотация. Туямуюн сув омборининг ишга туширилиши Амударёда тошқин хавфини камайтириш ва сув сарфини вақт бўйича тартибга солишга имконият яратди. Шу билан боғлиқ равишда 1981 йилда САНИИРИ томонидан кўндаланг дамбалар орқали ўзанни барқарорлаштириш схемаси ишлаб чиқилган ва Хозорасп участкасида қисман амалга оширилган. Ушбу мақолада мазкур участкадаги шпора, дамба ва банкетларнинг ҳозирги ҳолати дала кузатувлари ва Google тасвирлари асосида баҳоланган. Жами 18 та шпорадан иккитаси тўлиқ ювилиб кетган, тўққизтаси самарали ишламоқда, қолганлари эса лойқа тўпланиши ва оқим йўналишининг ўзгариши туфайли деярли фаолиятсиз ҳолга келган. Қирғоқни муҳофаза қилувчи учта банкет ишчи ҳолатда, бироқ уларни ва шпораларни ҳар йили баҳор ва кузда профилактика ва тиклаш ишлари билан қўллаб-қувватлаш зарур. Олинган натижалар келгусида янги пойма ерларини банкетлар билан ҳимоялаш схемасини ишлаб чиқиш ва ҳимоя иншоотлари конструкцияларини такомиллаштириш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Калит сўзлар. шпора, банкет, дамба, тош қопламаси, реконструкция, дала тадқиқотлари, пойманинг шаклланиши.

Аннотация. Ввод в эксплуатацию Туямуюнского водохранилища позволил снизить риск паводков на Амударье и регулировать расход воды во времени. В связи с этим в 1981 году САНИИРИ разработал схему стабилизации русла посредством поперечных дамб, которая была частично реализована на участке Хазараспа. В данной статье оценивается текущее состояние шпор, дамб и банкетов на этом участке на основе полевых наблюдений и снимков Google. Из общего числа 18 шпор две полностью размыты, девять эффективно функционируют, а остальные практически бездействуют из-за накопления ила и изменения направления течения. Три берегозащитных банкета находятся в рабочем состоянии, однако их и шпоры необходимо поддерживать ежегодными весенними и осенними профилактическими и восстановительными работами. Полученные результаты послужат основой для разработки схемы защиты новых пойменных земель банкетами и совершенствования конструкций защитных сооружений в будущем.

Ключевые слова: шпора, банкет, дамба, каменное покрытие, реконструкция, полевые исследования, формирование поймы.

Abstract. The commissioning of the Tuyamuyun Reservoir has reduced the risk of flooding on the Amu Darya River and regulated water flow over time. In this regard, in 1981, SANIIRI developed a channel stabilization scheme through transverse dams, which was partially implemented in the Khazarasp section. This article assesses the current state of spurs, dams, and banquets in this area based on field observations and Google images. Of the total number of 18 spurs, two are completely eroded, nine are functioning effectively, and the rest are practically inactive due to silt accumulation and changes in flow direction. Three bank protection benches are in working condition, however, they and spurs must be maintained annually during spring and autumn preventive and restoration work. The obtained results will serve as a basis for developing a scheme for protecting new floodplain lands with banquets and improving protective structures in the future.

Keywords: spur, banquet, dam, stone covering, reconstruction, field research, floodplain formation.

Кириш. Ўзбекистонда тошқин сувларини хавфсиз ўтказиш ва дарё ўзанларини ювилишдан ҳимоя қилиш ишлари Амударё, Сирдарё ва уларнинг йирик ирмоқларида йил сайын амалга оширилади. Бундай чора-тадбирлар тўғонсиз сув олиш иншоотлари, дюккер ва акведуклар, автойўл ва ЛЭП фундаментлари, газ қувурлари ва порт инфратузилмаларини мустаҳкамлашда катта аҳамиятга эга.

Илмий манбаларда банкет ва шпораларнинг

оқимга таъсири, гирдоб ҳосил бўлиши, ювилиш зоналарини шакллантириши рақамли ва физик моделларда ўрганилган [1–3]. Эрозия жараёнларига бағишланган ишлар [4–5] шпора олди ва ёнбагирлар ювилишга энг сезгир зоналар эканини кўрсатади. Турли конструктив ечимлар — габион, бетон, тош қоплама ва геотекстильли шпоралар самарадорлиги [6–7] томонидан таққослаб берилган.

Рақамли технологиялар ва ГАТ асосида шпоралар атрофидаги чўкма динамикаси, эрозия майдонлари ва тезлик ўзгаришларини monitoring қилиш усуллари [8–9] томонидан амалий жиҳатдан асосланган. Дарё морфологиясини баҳолашнинг назарий асослари ва ювилиш моделлари [10–12] очиқ ўзанлардаги гидравлик режимни тушунишда муҳим ўрин тутади.

Эксплуатация ва парваришлаш бўйича USACE қўлланмалари ҳамда маҳаллий меъёрлар [13] шпораларнинг баҳор ва кузда доимий профилактика ишларини талаб қилишини белгилайди. Шпора геометрияси, дагуо барқарорлиги ва турли шаклдаги (I-, L-, T-) иншоотларнинг эксплуатацион самарадорлиги [14–20] томонидан кенг ёритилган.

Бакиев М.Р. ва шогирдлари [21–23] томонидан сув ўтказувчи, сув ўтказмайдиган ва мослаштирилган шпораларда олиб борилган экспериментлар соҳани муҳофаза қилиш технологияларини такомиллаштиришга хизмат қилмоқда.

Услуб. Дала тадқиқотлари умумқабул қилинган гидротехник ва геодезик усуллар асосида ташкил этилди. Ишларни бажаришдан олдин тадқиқот участкаси ҳақидаги мавжуд материаллар ўрганилди, хусусан, дарё ўзани ва қирғоқ чизиғининг сўнгги йиллардаги ўзгаришларини баҳолаш учун Google тасвирлари орқали алдынги йилларга тегишли сунъий йўлдош суратлари таққослаб чиқилди. Бу босқичда шпоралар жойлашуви, банкетлар ҳолати, ўзаннинг силжиш йўналишлари ва янги пойма ерларининг шаклланиши аниқланди.

Асосий дала ишлари визуал кузатиш усулига таянган ҳолда олиб борилди. Қирғоқ бўйлаб йўналишлар бўйича пиёда кўриклар амалга оширилиб, ҳар бир шпора, дамба ва банкетнинг текшириш нуқталарида иншоотнинг ҳолати, ювилиш излари, лойқа тўпланиши, чўкма қатламининг ўсиши, тош қопламаларнинг шикастланиш даражаси қайд этилди. Визуал кузатишлар вақтида шпора танаси, уч қисми, олд ва орқа томонларидаги гидравлик таъсир белгилари алоҳида рўйхатга олинди.

Тадқиқот жараёнида фото ва видео (киносъёмка) қайдлари тизимли равишда амалга оширилди. Ҳар бир иншоот учун алоҳида фотосуратлар олинди, уларда иншоотнинг умумий кўриниши, шикастланган жойлар, чўкма қатламлари, ағдарилган ёки ювилган тош қопламалар, янги пойма юзаларининг кўлами ҳужжатлаштирилди. Видеоёзувлар эса дарё оқимининг реал режими, тўлқин ҳаракати, гирдоблар ҳосил бўлиш жойлари ва сув сатҳи ўзгаришини намоён этишда кўл келди.

Google тасвирларидан кенг фойдаланиш тадқиқот методикасининг муҳим қисми бўлди. Турли йилларга тегишли спутник тасвирлари орқали дарё ўзанининг кўндаланг кесимда ва узунлама йўналишда силжиши, шпоралар атрофидаги оқим йўналиши ўзгариши, янги чўкма майдонларининг пайдо бўлиши ва эски пойма участкаларидаги трансформациялар камраб олинди. Майдонда ўлчанган геодезик маълумотлар спутник тасвирлари билан таққосланиб, визуал кузатувлар натижалари текшириб чиқилди ва аниқлаштирилди.

Тадқиқот натижалари. Хоразм вилояти ҳудудида Амударёнинг чап қирғоғини ҳимоя қилиш мақсадида биринчи, иккинчи ва учинчи қатор бўйлаб қурилган бўйлама ҳимоя дамбалари билан бир қаторда кўндаланг дамбалар (шпоралар) ва банкетлар тизими мавжуд. Хозарасп тумани ҳудудида дарё бўйлаб жами 18 та бундай иншоот жойлашган бўлиб, уларнинг план-схемадаги ҳолати 1-расмда кўрсатилган. Расмда кўк рангда-ҳозирги кунда эксплуатацияда бўлган иншоотлар, қизил рангда-лойиҳавий жиҳатдан мавжуд, аммо амалда фойдаланилмаётган иншоотлар, сариқ рангда эса сўнгги йилларда барпо этилган янги банкетлар акс эттирилган.



1-расм.Хозарасп туманидаги қирғоқни химоя қилувчи иншоотларни жойлашув план-схемаси

Шулардан иккитаси (15 ва 45) хозирги кунда ювилиб йўқ бўлиб кетган. Шпораларнинг тўққизтаси (19,21,25,27,29,31,33,35,37) хозирги кунда фойдаланилмоқда. Қолганларидан узоқ йиллик лойқа чўкиши ва дарё оқимининг ўзгариши натижасида хозирги кунда фойдаланилмаябди. Амударёнинг Хозарасп тумани худудида қирғоқни химоя қилувчи шпоралардан ташқари учта банкетлар хам мавжуд. Қуйида хозирги кунда фойдаланилаётган шпора ва банкетлар тўғрисида дала тадқиқотлари натижалари келтирилган.

19-шпора. Объект 1982- йилда курилган Амударёнинг Хозарасп участкасида пк29+60да жойлашган. 2024 йилда янгидан реконструкция қилинган.

2-расм. 19- шпоранинг реконструкциядан олдинги ва бугунги кундаги ҳолати.

Банкет-1. 2024 йилда Шпора-19 ва шпора-21 лар ўртасига янги банкет қурилган бўлиб узунлиги 40 м

эни 6м ни ташкил қилади. Хозирги кунда ўзининг лойихавий ҳолатини тўлиқ сақлаб турибди.

3-расм. 19 ва 21-шпораларнинг ўртасидаги банкет.

21-шпора Объект 1988-йилда курилган Амударёнинг Хозарасп участкасида пк37+70да жойлашган. Ҳозирги вақтда янгидан реконструкция қилинмоқда.

4-расм. 21-шпорада реконструкция ишлари олиб борилмоқда.

5-расм. 21-шпорани реконструкциядан олдинги ҳолати.

27-шпораОбъект 1982-йилда курилган Амударёнинг Хозарасп участкасида пк75+90да Овшар худудида жойлашган. 2017 йил янгидан реконструкция қилинган. Тош қисмининг узунлиги 40 м эни 8м.

6-расм. 27-шпорани бугунги кундаги мавжуд ҳолати

27 ва 29-шпораларнинг орасидаги Банкет-А 2021 йилда Шпора-27 ва шпора-29 лар ўртасига янги банкет қурилган бўлиб узунлиги 30 м эни 6м ни ташкил қилади. Хозирги кунда ўзининг лойихавий ҳолатини сақлаб турибди.

7-расм. Банкет-А нинг хозирги кундаги ҳолати

27 ва 29-шпораларнинг орасидаги Банкет Б 2022 йилда Шпора-27 ва шпора-29 лар ўртасига янги банкет қурилган бўлиб узунлиги 30 м эни 6м ни ташкил қилади. Хозирги кунда ўзининг лойихавий ҳолатини сақлаб турибди.

8-расм. Банкет-Б нинг ҳозирги кундаги ҳолати

9-шпора. Объект 1978-йилда курилган Амударёнинг Хозарасп участкасида пк88+50да Мухомон худудида жойлашган. Тош қисмининг узунлиги 30 м эни 10м.

9-расм. 29-шпорани бугунги кундаги мавжуд ҳолати

31-шпора. Объект 1978-йилда курилган Амударёнинг Хозарасп участкасида пк101+10да Мухомон худудида жойлашган. Тош қисмининг узунлиги 50 м эни 10м. Ишчи ҳолатда.

33-шпора. Объект 1978-йилда курилган Амударёнинг Хозарасп участкасида пк113+70да Мухомон худудида жойлашган. 2020 йилда янгидан реконструкция қилинган. Тош қисмининг узунлиги 40 м эни 6м.

10-расм. 33-шпорани бугунги кундаги мавжуд ҳолати

Янги қурилган банкет.Хозирги вақтда 35 ва 37-шпоралар орасига янгидан банкет қуриш ишлари олиб борилмоқда. Мазкур лойихада Питнаксувқурилишинвест давлат муассаси буюртмачи ташкилот сифатида қайд этилган бўлиб, объектнинг қиймати 1 128 305 600.00 сўмни ташкил қилади.

11-расм. 35 ва 37-шпоралар орасидаги банкет ва бўйлама дамба.

Амударё ўзига хос дарёлардан бўлиб у ўзи оқизиб келган оқизиқлар устида оқмоқда.Бу эса дарёдаги ювилиш ва кўмилиш жараёнини интенсивлашишига олиб келади.Туямуюн сув омбори 1983 йилда ишга туширилиши бу жараённи ўлчамини камайтиришга олиб келтирган бўлса ҳам қирғоқларни ,экин майдонларини ювилиши ҳавфи сақланиб қолмоқда.Бунинг асосий сабаби сифатида ирригация учун сув омборидан сув чиқариш гидрографи табиийга ўхшаб кетишидир.Кузатувлар шуни кўрсатдики 1981-1990 йилларда қурилган шпораларнинг кўп қисми ишдан чиққан,ювилиб кетган. Шу сабабли минглаб гектар қишлоқ хўжалиги ерларини ҳимоя қилиш лозим бўлиб,бу ўз навбатида мавжуд иншоотларни реконструкция қилишни ва янги иншоотларни қуришни талаб қилади.Бугунки кунда дарёнинг ўнг қирғоқ тарафга оғганлиги сабабли баъзи шпоралар бехуда тургандай кўринади,лекин малум вақт ўтгандан кейин Амударьё чап қирғоқ тарафга ўтиши юз бериши мумкин ва бунга иншоотлар тайёр туриши керак бўлади.

Хулосалар:

1. Дала тадқиқотлари натижасида 15 ва 45-шпоралар тўлиқ ювилиб кетгани, 13, 39, 41 ва 43-шпораларнинг бош қисмлари жиддий шикастлангани аниқланди. Амударё шароитида оқимнинг вақт ўтиши билан яна чап қирғоққа қайтиш эҳтимоли юқори бўлгани сабабли, ушбу шпораларни қисман тиклаш ва қайта ишга тушириш муҳим ҳисобланади.
2. 19-шпора атрофида кузатилган ювилиш ҳолати банкетни бутун кенглиги бўйлаб тош билан мустаҳкам қуришни талаб қилади. Иншоотнинг эни ва конструкция параметрлари гидравлик шартлар ва ҳисобий ювилиш чуқурлигидан келиб чиққан ҳолда илмий асосланган бўлиши керак.
3. 19 ва 21-шпоралар орасидаги масофа амалда ортиқча катта танлангани туфайли улар ўртасида қўшимча банкет барпо этишга тўғри келган. Кейинги лойиҳалаш ишларида шпора ва банкетлар ўртасидаги масофаларни дарё морфодинамикаси ва ҳисобий моделлар асосида оптималлаштириш тавсия этилади.
4. 27 ва 29-шпоралар орасидаги масофани белгилашда иншоотларнинг ишчи узунлиги ва таъсир радиуси етарлича инобатга олинмаган. Натижада қирғоқ муҳофазасида “бўш” участкалар қолиб, қўшимча икки банкет қуриш зарурати юзага келган. Бундан келиб чиқиб, янги объектлар учун шпора узунлиги ва улар орасидаги масофани биргаликда ҳисоблаш зарур.
5. 35 ва 37-шпоралар орасидаги катта масофа янги шаклланаётган пойма ерларини ювилиш хавфи остида қолдирган. Шунинг учун ушбу участкада қўшимча банкет ва бўйлама дамба қурилиб, улар тош қоплама билан мустаҳкамланган; келгусида шунга ўхшаш ечимларни дарёнинг бошқа ноқулай участкаларида ҳам қўллаш мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар:

1. Zhang, H., & Nakagawa, H. (2008). Flow and sediment transport in compound channels with spur dikes. International Journal of Sediment Research, 23(3), 258–275.
2. Haun, S., & Olsen, N. R. B. (2012). Three-dimensional numerical modeling of local scour at a spur dyke. Journal of Hydraulic Research, 50(3), 288–297.
3. Alhasan, M., & Imran, J. (2018). Numerical study of flow and scour around a group of spur dikes. Journal of Hydraulic Engineering, 144(6).
4. Melville, B. W., & Coleman, S. E. (2000). Bridge Scour. Water Resources Publications.
5. Bormann, N. E., & Julien, P. Y. (1991). Scour and deposition around a spur dike. Journal of Hydraulic Research, 29(5), 581–594.
6. Ahmad, Z., & Basri, H. B. (2011). Influence of spur dikes on sediment deposition and channel stability. Research Journal of Environmental Sciences, 5(8), 650–657.
7. Odgaard, A. J., & Bergs, M. A. (1988). Flow model for scour at spur dikes. Journal of Hydraulic Engineering, 114(10), 1205–1213.
8. Randle, T. J. (1991). Channel stabilization with spur dikes. ASCE Hydraulic Engineering Conference Proceedings.
9. Shamsi, U. M. (2005). GIS Applications for Water, Wastewater, and Stormwater Systems. CRC Press.
10. Raudkivi, A. J. (1996). Hydraulics of Sediment Transport. Taylor & Francis.
11. Jain, S. C. (2000). Open-Channel Flow. Wiley.
12. Julien, P. Y. (2010). Erosion and Sedimentation (2nd ed.). Cambridge University Press.
13. USACE. (2000). Engineering and Design: Bank Protection for Flood Control Channels. U.S. Army Corps of Engineers Manual EM 1110-2-1601.
14. Patel, H. K., Arora, S., Lade, A. D., Kumar, B., & Azamathulla, H. (2022). Flow behaviour concerning bank stability in the presence of spur dike- a review. Water Science & Technology: Water Supply, 23(1), 237-256. https://doi.org/10.2166/ws.2022.418
15. Kumar, A., & Ojha, C. S. P. (2021). Review on the Field Applications of River Training Structures for River Bank Protection. In Book Chapter (pp. 1-25). https://doi.org/10.1007/978-3-030-60869-9_8
16. Bahrami-Yarahmadi, M., Pagliara, S., Yabarehpour, E., & Najafi, N. (2020). Study of Scour and Flow Patterns around Triangular-Shaped Spur Dikes. KSCE Journal of Civil Engineering, 24(11), 3321-3334. https://doi.org/10.1007/S12205-020-2261-X
17. Gupta, L. K., Pandey, M. K., & Raj, P. A. (2023). Numerical modeling of scour and erosion processes around spur dike. Clean-Soil Air Water, 51(8), 2300135. https://doi.org/10.1002/clen.202300135
18. Patel, H. K., Arora, S., & Kumar, B. (2024). Optimizing Spur Dike Orientation for Scour Control in Downward Seepage Scenarios. EGUsphere, 2024, 1-15. https://doi.org/10.5194/egusphere-egu24-2704
19. Kumar, P., & Ojha, C. S. P. (2024). Comparative

analysis of effectiveness of I Head, L Head and T Head Groyne. EGUsphere, 2024, 1-15. https://doi.org/10.5194/egusphere-egu24-15025

20. Tabassum, R., Guguloth, S., Gondu, V. R., & Zakwan, M. (2024). Machine learning-based prediction of scour depth evolution around spur dikes. Journal of Hydroinformatics, 26(11), 2751-2773 https://doi.org/10.2166/hydro.2024.160

21. Bakiev, M., Matkarimov, O., Yakubov, K., Khalimbetov, A., & Khasanov, K. (2025). Experimental and theoretical studies of flow constrained by through spurs. *AIP Conference Proceedings.* https://doi.org/10.1063/5.0280333

22. Bakiev, M., Khalimbetov, A., Yakubov, K., Sagin, J., & Asamatdinov, I. (2023). Kinematic parameters of flow constrained by combined dams with through part of tetrahedra in compression region. *E3S Web of Conferences, 401*, 04046. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340104046

VENTURI PIPES IN SELF-DRAINING SOLAR SYSTEMS

Toshtemirov Mirjalol Ergash ugli, Fayziev Zafar Khaydarovich, Jalilov Isroilkhon
Samarkand State Architecture - Construction University

Abstract. Optimizing the design of Venturi tubes for self-draining solar circuits involves determining the precise tube diameter, cone angles, and tapering length to ensure efficient flow of the heat transfer fluid. This calculation process considers factors like flow rate, pressure, and temperature to guarantee optimal heat exchange performance. Analyzing pressure drops using the Bernoulli equation and resistance coefficients is crucial for optimizing heating system performance and boosting its efficiency. Enhancing the reliability and efficiency of self-draining water solar heating systems can be accomplished by incorporating a Venturi pipe constriction within the connection between the drainage tank and the circulation pipes.

Keywords: venturi, pipe, resistance , analysis, diameter, equations.

INTRODUCTION

The determining value when calculating the geometric measurements of Venturi pipes is the ratio of diameters *D/d*, which is found using the formula:

$$\frac{D}{d} = \sqrt[4]{1 + \frac{2gH}{W_2^{*2}}}\,. \qquad (1)$$

Calculating the hydraulic resistance of Venturi tubes with known geometric dimensions is a complex task. The mechanism of action of resistance forces is so complex that until now it has not been possible to find an accurate method for calculating the resistance coefficient ζ; in technical calculations, it is most often necessary to use the values of resistance coefficients given in the literature in the form of average figures or in the form of tables of experimental data for different combinations of geometric dimensions of the transition. The only possible method of calculation ζ for a Venturi tube in such a case is to experimentally determine the necessary data and then generalize the results in a criterion form.

MATERIALS AND METHODS

Let's use dimensional analysis to obtain a criterion equation for pressure losses in a Venturi tube. The following independent variables can be used to depict the pressure loss in a Venturi tube as a power function:

$$P_n = \varphi(W^a, \rho^b, \mu^c, d^d, D^e, \delta^f, \ell^K). \qquad (2)$$

Let's state the dimensions of the dependent variables (2) in the system of three quantities *MLT* [96]: *M* - mass, *L* - length, *T* - time, table. 1.

Table 1.

Name and dimensions of dependence variables (2)

Variable name	Designation	Dimension Formula
Pressure loss	P_n	$L^{-1} MT^{-2}$
Flow rate	W	
Density	ρ	ML^{-3}
Dynamic viscosity coefficient	μ	
Neck diameter	d	L
Pipe diameter	D	L
Side hole diameter	δ	L
Insertion length	ℓ	L

Let us substitute in dependence (2) instead of the symbols of the variables their dimensions:

$$(L^{-1} MT^{-2}) = \varphi[(LT^{-1})^a, (ML^{-3})^b, (ML^{-1} T^{-1})^c, L^d, L^e, L^f, L^K] \qquad (3)$$

The following connections between exponents must be met for this equation to be homogenous with regard to dimensions:

$$\text{For}\quad \left.\begin{aligned} M{:}\,1 &= b + c \\ L{:}\,-1 &= a - 3b - c + d + \ell + f + K \\ T{:}\,-2 &= -a - c \end{aligned}\right\}. \qquad (4)$$

Let's make relations (4) simpler and represent them using the variables a, b, and d:

$$\left.\begin{aligned} a &= 2 - c \\ b &= 1 - c \\ d &= -c - e - f - K \end{aligned}\right\} \qquad (5)$$

Taking into account relations (5), dependence (2) will take the form:

$$P_n = \varphi(W^{2-c}, \rho^{1-c}, \mu^c, d^{-c-e-f-K}, D^e, \delta^f, \ell^K). \qquad (6)$$

Combining terms with the same exponents, we obtain a dependence of five dimensionless complexes:

$$\frac{P_n}{\rho W^2} = \varphi\left[\left(\frac{\rho W d}{\mu}\right)^{-c}; \left(\frac{D}{d}\right)^e; \left(\frac{\delta}{d}\right)^f; \left(\frac{\ell}{d}\right)^K\right] \qquad (7)$$

Complexes with dimensionless dependency (7) are a representation of the well-known Euler (*Eu*) as well as the Reynolds criteria. Considering this, a criterion equation can be used to represent dependence (7):

$$Eu = \varphi\left[\mathrm{Re}^{-c}, \left(\frac{D}{d}\right)^e, \left(\frac{\delta}{d}\right)^f, \left(\frac{\ell}{d}\right)^K\right]. \qquad (8)$$

The equation that is produced matches the "π - theorem", because the number of variables necessary for the operation, less the primary values, equals the number of dimensionless complexes, i.e. 5 = 8 - 3.

For the problem we are considering, the greatest practical interest is the dependence of the resistance coefficient on the number *Re* and geometric dimensions of the Venturi pipe. Considering that ζ=2*Eu*, equation (8) can be rewritten as

$$\zeta = \varphi_1\left[\mathrm{Re}^{-c}, \left(\frac{D}{d}\right)^{e}, \left(\frac{\delta}{d}\right)^{f}, \left(\frac{\ell}{d}\right)^{K}\right] \quad (9)$$

Empirical dependencies for computation can be obtained using criterion equation (9) ζ.

CONCLUSION

Increasing the self-draining solar water heating systems' dependability and efficiency can be achieved by strategically incorporating a Venturi tube with a constricted section into the drainage tank's connection to the circulation pipes. Employing AE technology significantly reduces coolant circulation energy consumption, compared to traditional drainback siphon solar circuits. This reduction, estimated at 65-80%, stems from the elimination of hydrostatic pressure losses (ρgH) caused by cavitation-induced jet disruption. Several layout schemes for It is feasible to create a self-draining solar circuit with a Venturi tube by placing the pipe in the pump's suction or discharge zone and by using two tanks: a drainage tank and an expansion tank. The most cost-effective arrangement is to place the Venturi tube in the pump's suction zone when, under normal circumstances, less hydrodynamic pressure in the transition's neck and less initial pressure are required to close the circuit.

References

1. Fayziev, Z. K. (2022, December). Pressure losses in Venturi pipes, their rational forms and coefficients of local resistance. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2762, No. 1). AIP Publishing.
2. Rashidov, Yu. K., Ismoilov, M. M., Rashidov, K. Yu., & Fayziev, Z. F. (2019). Improving the uniformity of fluid flow distribution through the riser pipes of the beam-absorbing heat exchange panel of a sheet-tube solar water heating collector under forced circulation conditions under the action of volumetric forces. In Environmental, industrial and energy safety-2019 (pp. 1377-1382).
3. Rashidov, Y. K., Orzimatov, J. T., Rashidov, K. Y., & Fayziev, Z. X. (2020). The method of hydraulic calculation of a heat exchange panel of a solar water-heating collector of a tube–tube type with a given nonuniform distribution of fluid flow along lifting pipes. Applied Solar Energy, 56, 30-34.
4. Rashidov, Yu. K., & Fayziev, Z. H. (2019). Improving the efficiency of solar heating systems with flat solar collectors: main reserves and possible ways of their implementation.
5. Rashidov, Yu. K., & Fayziev, Z. H. (2019). Self-draining solar plants: experience of development and application in world and domestic practice.
6. Rashidov, Y. K., Fayziev, Z. X., & Rashidov, K. Y. (2020). Calculation of hydraulic shock inself-drainable helioinstallations. Society and innovations Special, 1(1), 16-29.
7. Keldiyarova, G., Fayziyev, Z., & Boboyeva, G. (2024, November). Inventory of sources of emitted harmful substances in industrial enterprises of the construction industry, as well as issues of improving efficiency. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.
8. Fayziev, Z., Uzboyev, M., & Taniberdiyev, S. (2024, November). Determination and calculation of the microclimate in the registan square in the city of Samarkand. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.
9. Makhmudov, R. M., Fayziev, Z. X., Kholmuradova, Z. I., Uzboev, M. D., & Taniberdiyev, S. X. (2024). Experimental study in heat accumulators with a phase transition of matter. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 524, p. 01002). EDP Sciences.
10. Khaydarovich, F. Z., & Zakirjanovna, Y. S. (2022). Passive and active systems in the use of solar energy. *Open Access Repository*, *8*(04), 114-118.
11. Daffi J., Bekman U. Fundamentals of solar thermal energy. Per. from English - Long pond: Publishing House "Intellect." 2013. 888 p.
12. Zokoley S. Solar energy and construction. Stroyizdat, 1979. - 209 p.
13. Anderson B. Solar Energy (Fundamentals of Construction Design). - Moscow: Struizdat, 1982.-375 p.
14. Tanaka S., Suda R. Houses with autonomous solar heat and cooling / Per. with Japanese. - M.: Construction, 1989. - 184 pp.
15. Staskevich , N.L. Handbook of liquefied hydrocarbon gases / N.L. Staskevich , D.Ya. Vigdorchik. – L.: Nedra, 1986. – 543 p.

УДК 697.93

ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩИЕ СИСТЕМЫ КОНДИЦИОНИРОВАНИЯ ВОЗДУХА И ГОРЯЧЕГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ КРЫТЫХ БАССЕЙНОВ

Бобоев С.М., Тоштемиров М.Э., Исмоилов А.И., Жалилов И.М.
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет им. Мирзо Улугбека

Аннотация. В статье представлена разработка энергосберегающих методов и принципиальных схема системы создания микроклимата и горячего водоснабжения в крытых плавательных бассейнах. Подробно изложены сведения о построении процессов обработки воздуха в сухом жарком климате на I-d диаграмме. Приведены формулы порядок расчета систем вентиляции и кондиционирования воздуха в крытых плавательных бассейнах в сухом жарком климате.

Ключевые слова: теплоутилизатор-рекуператор, тепловой насос, ассимиляция влага и удаление воздуха, микроклимат крытых плавательных бассейнов

Введение. Специфика обеспечения тепловлажностного режима в залах бассейна заключается в большом количестве испарения влаги с поверхности ванны, для ассимиляции и удаления которой в зал подается приточный воздух. При использовании для этой цели наружного воздуха ассимиляционный потенциал его, особенно в переходный период, невелик. Вследствие этого в зал приходится подавать, а следовательно, и нагревать много воздуха, что связано с большими затратами теплоты. С другой стороны, свежего воздуха, особенно в бассейнах, не предназначенных для большого количества посетителей, нужно немного. Наиболее эффективно в этом плане применение теплоутилизаторов-рекуператоров и использование теплового насоса.

При теплоутилизаторе-рекуператоре (рис. 1) наружный воздух с параметрами $t_{\text{Н}}, d_{\text{Н}}$, количество

которого рассчитано исходя из необходимости ассимиляции влаги, до поступления в воздухонагреватель подогревается в теплоутилизаторе-рекуператоре за счет теплоты вытяжного воздуха. При этом для оттаивания образующегося инея при $t_H \leq -3°C$ должно быть предусмотрено периодическое отключение подачи приточного воздуха (обычно в ночное время). В утилизаторе наружный воздух подогревается от t_H до промежуточной температуры $t_H^{\text{П}}$, а удаляемый осушается и охлаждается от $t_{\text{В}}$ до $t_{\text{у}}$. Далее наружный воздух подогревается в основном подогревателе или зональнике до $t_{\text{пр}}$ и подается в зал бассейна, где, ассимилируя влагу и отдавая теплоту, приобретает параметры $t_{\text{В}}, d_{\text{В}}$.

Второй способ основан на том, что если обеспечить осушку удаляемого из зала воздуха, то его можно использовать для рециркуляции при относительно небольшой добавке свежего воздуха, резко сократив расход теплоты на его нагрев. Поскольку для осушки необходимо глубокое охлаждение воздуха, предполагающее наличие холодильных машин, теплоту, отводимую с их конденсаторов, можно использовать для подогрева осушенного и охлажденного воздуха, а при ее избытке - для нагрева воды, идущей на горячее водоснабжение, т. е. холодильная машина будет работать в режиме теплового насоса.



Рис. 1. Схема кондиционирования воздуха бассейна с теплоутилизатором.
а - принципиальная схема; б - выкопировка I-d-диаграммы с процессом изменения состояния воздуха; 1 - вытяжной вентилятор; 2 - теплоутилизатор; 3 - калорифер подогрева воздуха; 4 - приточный вентилятор; 5 - зал бассейна



Рис. 2. Схемы кондиционирования воздуха бассейна с использованием теплового насоса с воздушным (а) и водяным охлаждением (б). 1 - зал бассейна; 2 - калорифер подогрева воздуха; 3 - система теплоснабжения; 4 - приточный вентилятор; 5 - воздухонагреватель; 6 - воздухоохладитель; 7 - холодильная машина; 8 - в систему подогрева воды на горячее водоснабжение; 9 и 10 - баки теплой и холодной воды; 11, 12 - циркуляционные насосы

Количество наружного воздуха назначается по нормам для дыхания и удаления паров хлора. Схема системы кондиционирование воздуха с тепловым насосом представлена на рис. 2, а изображение ее работы в I-d-диаграмме на рис. 3.

Система кондиционирование воздуха может быть организована двумя путями:

– принимаются две параллельные системы, одна чисто рециркуляционная с тепловым насосом для осушки воздуха, а вторая независимая, подающая в

зал свежий наружный воздух для дыхания и удаления паров хлора;

– единая система, в которой наружный воздух в необходимом количестве подмешивается к рециркуляционному (на рис. 2, а изображен именно этот вариант).

В обоих вариантах для предварительного подогрева наружного воздуха может быть использована сливаемая в канализацию по санитарным нормам из ванны бассейна вода (в том числе прошедшая бойлер-утилизатор и отдавшая предварительно часть теплоты подпиточной воде).

По схеме на рис. 3. воздух с параметрами $t_В, d_В$ забирается из зала бассейна, смешивается с наружным воздухом и с параметрами $t_С, d_С$ поступает в воздухоохладитель 6 (см. рис. 2), где охлаждается и осушается до состояния $t_П, d_П$, определяемого из баланса влаги в помещении бассейна. Осушенный и охлажденный воздух поступает на воздухонагреватель 5, где подогревается до температуры $t_К$, за счет теплоты, отводимой от конденсатора. Если система кондиционирования воздуха выполняет функции воздушного отопления, воздух в подогревателе нагревается до $t_{пр}$, определяемой из теплового баланса бассейна.



Рис. 3. Процесс изменения состояния воздуха, а системе кондиционирования бассейна с использованием теплового насоса

Наиболее целесообразно использовать холодильные машины с воздушным конденсатором и испарителям (см.рис.2, а) которые размешает в приточном воздуховоде. Однако отечественная промышленность не выпускает холодильных машин такого исполнения. В этом случае в качестве воздушных испарителей и конденсаторов можно использовать стандартные воздухонагреватели, которые системой трубопроводов подключаются непосредственно к компрессору холодильной машины.

Схемы системы с использованием выпускаемых промышленностью холодильных машин с водяными конденсатором и испарителем показаны на рис. 2, б. В этом случае воздухоохладитель 6 встраивается в циркуляционный контур испарителя, рассольный или водяной в зависимости от расчетной температуры испарителя (циркуляционный контур включает при этом бак охлажденной воды - рассола и циркуляционный насос).

Учитывая незначительную зависимость коэффициента от параметров воды $t_Ж$ и воздуха $t_В$ при наличии пловцов и небольшие пределы изменения этих параметров, с некоторым запасом можно рекомендовать для этого режима постоянное значение $\beta = 23$ г/(ч · м^2)г/кг. Для режима без пловцов β в большей степени зависит от перепада температур воздуха и воды и должно определяться в каждом случае в зависимости от этого перепада по табл.1.

Количество приточного воздуха и его параметры можно определять двумя путями. При первом способе ограничивают температуру притока (обычно 40-45 °С) и по отопительной нагрузке $\Delta Q_{ОТ}$ определяют количество приточного воздуха $G_{ПР}$:

$$G_{ПР} = \frac{\Delta Q_{ОТ}}{c(t_{ПР} - t_В)}, \quad (1)$$

По ($G_{пр}$ вычисляют влагосодержание $d_{пр}$ и температуру теплообменника $t_и$ после теплообменника 2:

$$d_{пр}\frac{W - d_в G_{пр}}{G_{пр}}, \quad (2)$$

где - влагопоступления, ассимилирующиеся приточным воздухом.

Значения приведенного коэффициента массопереноса β

Таблица 1

Режим эксплуатация	Значение β, (г/ч м^2) г/кг при $t_ж - t_в$, °С		
	0	2	3
С пловцами	18,33	19,08	19,8
Без пловцов	8,87	10,74	12,83

По температуре и влагосодержанию воздуха после воздухоохладителя 6 определяют температуру кипения хладоносителя $t_о$ и остальные параметры.

Если задана холодильная машина с оптимальными параметрами работы $t_о$ и $t_к$, то расчет можно вести исходя из этих данных определяя по температуре кипение хладагента температуру $t_и$ после воздухоохладителя 6 и по этой температуре и I-d-диаграмме $d_{пр}$ и затем бор $G_{пр}$ и $t_{пр}$.

1. Определяют количество приточного воздуха, его параметры в процессе обработки и параметры хладоносителя:

а) при ограничениях температуры притока задаются температурой приточного воздуха $t_{пр}$ и вычисляют $G_{пр}$ и $d_{пр}$:

$$G_{пр} = \frac{(\Sigma kF + G_{инф}c)(t_в - t_н)\Delta Q_{от} - \Delta Q_{дор} - \Delta Q_в}{c(t_{пр} - t_в)}, \quad (3)$$

$$d_{пр} = \frac{G_{пр}d_в - G_{инф}(d_н - d_в) - \beta F_в(d_ж - d_в) - W_л}{G_{пр}}, \quad (4)$$

Температуру воздуха $t_и$ и его энтальпию $I_и$ после воздухоохладителя 6 определяют по $d_{пр}$ при $\varphi = 100\%$ по I-d-диаграмме.

Температуру кипения хладагента $t_о$ в установке с воздушным испарителем, устанавливаемым в потоке приточного воздуха, принимают на 10 °С ниже температуры $t_и$: $t_о = t_и - 10$ °С; при промежуточном теплоносителе $t_о = t_и - 15$ °С.

Аналогично температуру воздуха $t_{кон}$ после воздухонагревателя < 5 определяют по температуре конденсации хладагента $t_к$. При воздушном конденсаторе, встроенном в поток приточного воздуха, $t_{кон} : t_к - 10$ ℃, при промежуточном теплоносителе $t_{кон} : t_к - 15$ ℃. Температуру конденсации принимают 35—45 ℃;

б) если заданы параметры работы холодильной установки $t_о$ и $t_к$ - параметры воздуха при воздушном испарителе и конденсаторе: $t_и : t_к + 10$ ℃; $t_{кон} : t_к - 10$ ℃; при промежуточном контуре $t_и : t_к + 15$ ℃; $t_{кон} : t_к - 15$ ℃.

Соответственно $d_{пр}$ и $I_и$ определяют по I-d диаграмме при $\varphi = 100$ % и $t = t_и$.

Расход приточного воздуха

$$G_{пр} = \frac{G_{инф}\,(d_и - d_в) + \beta F_в (d_ж - d_в) - W_л}{d_в - d_{пр}}\,, \quad (6)$$

$$t_{пр} = \frac{G_{пр}ct_в - \Delta Q_{от} - \Delta Q_{дор} - \Delta Q_в + \\ +\left(\Sigma kF + G_{инф}c\right)(t_в - t_н)}{G_{пр}c}, \quad (7)$$

2. Если рециркуляционный воздух предварительно смешивается с наружным

$$t_с = \frac{G_н t_н + G_{рецир} t_в}{G_{пр}c}\,, \quad (8)$$

$$d_с = \frac{G_н d_н + G_{рецир} d_в}{G_{пр}c}\,, \quad (9)$$

$I_с$ определяют по I-d диаграмме

Температура воздуха $t_{ков}$ после воздухонагревателя 5 может быть определена по $Q_{конд}$

$$t_{кон} = \frac{Q_{конд}}{G_{пр}c} + t_и\,, \quad (10)$$

Если $t_{пр} < t_{кон}$, тогда принимается $t_{кон} = t_{пр}$. При $t_{пр} > t_{кон}^{мин}$ воздух поступает в подогреватель, питаемый теплоносителем от теплосети, нагрузка которого составляет

$$Q_{под} = G_{пр}c\left(t_{пр} - t_к\right), \quad (11)$$

Это и будет то количество теплоты, которое должно поступать на систему кондиционирование воздуха извне,

3. Учитывая, что в режиме без пловцов влаговыделения от зеркала существенно меньше, с целью сбережения тепловой энергии можно предусмотреть два режима работы системы кондиционирование воздуха – с пловцами (рабочий) и без пловцов (в ночное время, выходные дни). Целесообразно предусмотреть в ночном режиме полную рециркуляцию и снижение температуры в помещении. При этом допустимо наличие конденсата на остеклении.

4. Учитывая, что применение теплосберегающих технологий в том числе теплового насоса, всегда связано с увеличением капитальных затрат, на первой стадии (до подбора оборудования) расчет следует проводить для всего диапазона наружных температур и нескольких вариантов расхода приточного воздуха и типа холодильной машины. Это позволит выявить зону работы без дополнительного подогрева приточного воздуха и выбрать наиболее подходящий для данного объекта тип машин. Экономия теплоты, определяющая целесообразность применения данной схемы, также может быть найдена только при сравнительном расчете для всего диапазона наружных температур.

5. При расчете схемы с теплоутилизатором (см. рис. 1) необходимо выбрать его тип и эффективность. Экономически целесообразная эффективность утилизатора θ составляет 0,5 - 0,6. Температура воздуха после теплоутилизатора равна:

$$t_н = \theta(t_в - t_н) + t_н\,, \quad (12)$$

Экономия теплоты в теплоутилизаторе определяется по формуле

$$Q_{эк} = G_{пр}c\left(t_{пр} - t_к\right). \quad (13)$$

Заключение. Поскольку влагосодержание приточного и наружного воздуха в данной схеме одинаковое, количество приточного воздуха определяется из условия ассимиляции влаговыделений в бассейне. Остальные моменты расчета по обеим схемам аналогичны (определение тепловых и влажностных балансов, определение параметров притока, расчет воздухонагревателей). Приведенные расчеты показывают, что применение энергосберегающих систем кондиционирование воздуха и горячего водоснабжение в плавательных бассейнах позволяет экономить от 20 (схема с рекуператором) до 60 % теплоты (схема с тепловым насосом), расходуемой для создания требуемого тепловлажностного режима в бассейне.

Литература:

1. Кокорин О.Я. Испарительное охлаждение для целей кондиционирования воздуха. - М.: Стройиздат, 1965. - 159 с.

2. А Прыгунов Ю.М. Исследование систем вентиляции птицеводческих помещении с испарительным охлаждением воздуха. Автор, канд. дис. - К., КИСИ, 1970.-20 с.

3. Бобоев С.М. Научно-технические основы создания систем микроклимата в животноводческих помещениях в условиях сухого и жаркого климата: диссертация доктора технических наук: 05.23.03 / Таш. арх.-строит. ин-т им. - Ташкент, 2000. - 299 с.

4. Бобоев, С.М., Эшматов, М.М., Тоштемиров, М.Э., & Узбоев, М.Д. (2018). Теплоутилизатор на тепловых трубах погруженных в псевдоожиженный слой. In Качество внутреннего воздуха и окружающей среды (pp. 246-249).

5. Бобоев, С.М., Тоштемиров М.Э., and. Исмоилов А.И. "Аккумуляторы теплоты фазового перехода в системах вентиляции и кондиционирования воздуха." *Vestnik Volgogradskogo Gosudarstvennogo Arhitekturno-Stroitelnogo Universiteta. Seriya: Stroitelstvo i Arhitektura* 88 (2022).

6. Toshtemirov M. (2024). Suvpurkagich (apparat) qurilmalarida havoni namlash va sovutishni tahlil qilish. *Interpretation and Researches*. извлечено от https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2609

Toshtemirov, M., & Boboyev, S. (2024). Havoni mo'tadillash tizimlarining (hmt) havoni namlash-sovutish kameralarida qo'llaniladigan suv purkash usullari tahlili. *Interpretation and Researches*. извлечено от https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2608

ГЕОДЕЗИЯ, КАРТОГРАФИЯ, ЕР КАДАСТРИ
ГЕОДЕЗИЯ, КАРТОГРАФИЯ, ЗЕМЕЛЬНЫЙ КАДАСТР

FAZOVIY HOLATINI SYOMKASI TO‘G‘RISIDA

TAQU, “Geomatika muhandisligi” kafedrasi Nazarov B.R., dotsent
Shodmonqulov M.H. magistrant; **Toshmamatov S.Sh.,** magistrant
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Gorizontal va vertikal siljishlarda South N3elektron taxeometrining aniqlik xarakteristikalarini o‘rganish natijalari keltirilgan.
Kalit so’zlar: elektron taxometr, aniqlik xarakteristikalari, o‘rtacha kvadratik xatolik.

Abstract: The results of research of the accuracy characteristics of the electronic tacheometer South N3 with the horizontal and vertical displacements are given.
Keywords: electronic tacheometer, accuracy characteristics, root-sum square uncertainty.

Kirish. Bugungi kunda elektron taxeometrlar qurilishda, arxitekturada, muhandislik-geodezik qidiruvlarda, deformatsiyalarni kuzatishda, yer tuzish va kadastr ishlarida keng qo‘llanilmoqda. Shunga qaramay, yuqori aniqlikdagi geodezik ishlarni bajarishda yuqori aniqlikdagi asboblar bo‘yicha maxsus tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Tadqiqotning maqsadi yuqori aniqlikdagi geodezik ishlarni bajarishda South N3 elektron taxeometrining aniqlik xarakteristikalarini tadqiq qilish, ya’ni bino va inshootlarning gorizontal va vertikal siljishlarini o‘lchash aniqligini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotlar eksperimental ishlarni o‘tkazish, deformatsiya jarayonlarini modellashtirish va analitik hisoblashlar, o‘lchangan kattaliklar va ularning funksiyalari aniqligini baholash orqali amalga oshirildi. O‘lchashlar burchak va masofa o‘lchash rejimida o‘tkazildi.

Gorizontal siljishlarda aniqlik xarakteristikalarini tadqiq qilish

Poydevorlar va inshootlar cho‘kishini o‘lchash 1; 2; 5 va 10 mm gruntlar, cho‘kishilarning hisobiy miqdorlari, bino va inshootlarning noyobligi va foydalanish vaqtiga bog‘liq. Cho‘kishlarni kuzatishda, trigonometrik nivelirlashdan foydalanishdagi xatoliklar $m_z = 1 \dots 3''$, $m_s = 1 \dots 4mm$ va undan kichik bo‘lgan qaytargichsiz taxeometrlarning paydo bo‘lishi yordam beradi [1].

Gorizontal siljishlarni o‘lchashda taxeometrning aniqligini aniqlash uchun situatsiyani modellashtiramiz:

1. $l_0 = 10\,mm$ oraliqni beramiz. Model sifatida bo‘linmasi 10 mm bo‘lgan nivelirlash reykasidan foydalanamiz;



1–rasm. Gorizontal siljishlarni o‘lchash sxemasi

2–rasm. South N3 elektron taxeometri

2. South N3 elektron taxeometri yordamida l ni o‘lchaymiz. Gorizontal burchak β, reykagacha bo‘lgan masofa S va gorizontal qo‘yilish D o‘lchanadi. So‘ngra (1) formula bo‘yicha l ni hisoblaymiz (1–rasm).

O‘lchashlar 10, 20, 30 va 40 metr masofalarda amalga oshiriladi, chunki South N3 elektron taxeometri bilan qaytargichsiz rejimda o‘lchash masofasi 40 metrni tashkil qiladi [2];

3. $L_{o'lchan}$ni l_0 bilan taqqoslaymiz;

4. Gauss formulasi (2) bo‘yicha aniqlikni baholashni amalga oshiramiz;

5. Xuddi shu masofalarda o‘lchash aniqligini tekshirish uchun plyonkali qaytargichda o‘lchash rejimidan foydalanamiz. Plyonkali qaytargichning o‘lchami 20×20 mm.

$$l = D\frac{\Delta\beta}{\rho}, \qquad (1)$$

bu yerda l – izlanayotgan masofa, mm; D – gorizontal yotqizish, mm; Δβ - o‘lchangan burchak, ″; $\rho = 206\,265''$.

O‘rta kvadratik chetlanish (*O‘KCH*) qiymatini aniqlash quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$m_l = \sqrt{\frac{\sum(l_i - l_0)^2}{n}}, \qquad (2)$$

bu yerda l_i – o‘lchangan qiymat, mm; l_0 – etalon qiymat, mm (gorizontal siljishlar uchun $l_0 = 10$ mm, vertikal siljishlar uchun $l_0 = 10$ mm); n – o‘lchovlar soni.

Turli masofalarda o‘rta kvadratik xatolikning (O‘KX) olingan qiymatlari 1–jadvalda aks ettirilgan.

Masofaga bog‘liq holda gorizontal siljishlarni o‘lchashning o‘rta kvadratik xatosi, mm

1–jadval

D, m	O‘lchash rejimi	
	Qaytargichsiz	Plenkali qaytargichda
0–10	0,539	0,275
11–20	0,768	0,825
21–30	0,632	1,089
31–40	1,132	1,043
41–50	–	1,032



3–rasm. Qaytargichsiz rejimda va plyonkali qaytargichda masofaga bog‘liq holda gorizontal siljishlarni o‘lchashning o‘rta kvadratik xatoligi

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, South N3 elektron taxeometri qaytargichsiz rejimda ishlaganda l siljishni aniqlashning ancha yuqori aniqligini ta’minlaydi, uning qiymati 0,54 dan 1,13 mm gacha. Bunday aniqlik bilan bajarilgan o‘lchovlar, DST 24846–86 “Gruntlar. Poydevor va inshootlar deformatsiyalarini o‘lchash usullari”ga mos ravishda siljishlarni o‘lchash uchun foydalanish mumkin [3].

3–rasmdan ko‘rinib turibdiki, qaytargichsiz rejimda va plyonkali qaytargichda o‘lchash aniqligi millimetrning o‘ndan bir ulushlarida sezilarli darajada farq qilmaydi, bu qaytarilgan signalning quvvati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (plyonkadan signal kuchliroq aks etadi). Qaytargichsiz rejimda va plyonkaga o‘lchashning ikkita grafigini taqqoslab, biz 30 metrgacha bo‘lgan masofalarda aniqlik 1 mm oralig‘ida ekanligini ko‘ramiz, asbobdan uzoqlashganda u pasayadi, lekin ahamiyatsiz va 1,13 mm ga yetadi. Ko‘rinib turibdiki, plyonkali qaytargichning aniqligi qaytargichsiz rejimga qaraganda pastroq. Bizning fikrimizcha, bu masofa o‘lchash nurining geometriyasi va diametri tufayli sodir bo‘ladi. Plyonka reykaning chetiga yopishtirilganligi sababli, nur plyonkaning chetlaridan sirpanib o‘tishi, boshqa sirtlardan qaytishi va natijalarni buzishi mumkin edi. Shuningdek, qaytgan signalning quvvati ham ta’sir qiladi. Nur katta quvvatga ega bo‘lgan plyonkadan ham, qaytargichsiz sirtning o‘zidan ham kichik quvvat bilan qaytdi. Natijada, signal integratsiyalashgan bo‘lib chiqdi, bu esa aniqlikni sezilarli darajada pasaytirdi. Bu hodisa nur geometriyasi haqida ham gapirishga imkon beradi. Uzoqlik o‘lchash nuri, bizning fikrimizcha, gorizontal o‘q bo‘ylab cho‘zilgan.

Vertikal siljishlarda aniqlik xarakteristikalarini tadqiq qilish

Vertikal siljishlarni aniqlash gorizontal siljishlarni aniqlash kabi amalga oshiriladi, buning uchun reyka faqat vertikal joylashgan holatda vaziyat modulyatsiya qilinadi (4–rasm):

1. $l_0 = 5mm$ oraliqni beramiz. Model sifatida bo‘lak qiymati 5 mm, adilakli elektron nivelir reykasidan foydalanamiz;

2. South N3 elektron taxeometri yordamida l ni o‘lchaymiz. Vertikal burchak z, reykagacha bo‘lgan masofa S va gorizontal qo‘yilish D ni o‘lchaymiz. So‘ngra (3) formula bo‘yicha $l$ni hisoblaymiz;

3. $l_{o‘lchan}$ni l_0 bilan taqqoslaymiz;

4. Gauss formulasi (2) bo‘yicha aniqlikni baholashni amalga oshiramiz;

5. Xuddi shu masofalarda o‘lchash aniqligini tekshirish uchun plyonkali qaytargichda o‘lchash rejimidan foydalanamiz.



4–rasm. Vertikal siljishlarni o‘lchash sxemasi

Vertikal siljish miqdorini aniqlash quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$l = D\frac{\Delta z}{\rho}, \qquad (3)$$

bu yerda l – izlanayotgan masofa, mm; D – gorizontal yotqizish, mm; Δz – o‘lchangan burchak, ″; ρ = 206 265″.

O‘rta kvadratik xatoni aniqlash (2) formula bo‘yicha amalga oshiriladi.

Turli masofalarda olingan o‘rta kvadratik xato qiymatlari 2–jadvalda aks ettirilgan.

Vertikal siljishlar modelida bajarilgan tadqiqot natijalari asosida siljishlarni aniqlashning o‘rta kvadratik xatosining masofaga bog‘liqlik grafigi olindi (4–rasm).

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, o‘lchash aniqligi yetarlicha yuqori va 0,40 dan 0,97 mm gacha oraliqda bo‘lib, masofa ortishi bilan asta–sekin pasayib boradi.

Masofa ortishi bilan dalnomer signali asbobga borgan sari kamroq yetib boradi va shuning uchun vertikal siljishlarni o‘lchash xatoliklari biroz ortadi va 50 metr masofada 0,97 mm ni tashkil qiladi.

Ikkala rejimni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, plyonkali qaytargichga vertikal siljishlarni o‘lchash aniqligi qaytargichsiz rejimga qaraganda biroz yuqoriroq.

Xulosalar.

Taxeometr qaytargichsiz rejimda yuqori aniqlikni ta’minlaydi.

Gorizontal siljishlarni o‘lchashda 10 metrdan 40 metrgacha bo‘lgan masofalarda o‘lchashlarning o‘rta kvadratik xatosi 0,54 mm dan 1,13 mm gacha bo‘ladi.

Plyonkali qaytargichli o‘lchash rejimida esa aniqlik pastroq chiqdi. Bizning fikrimizcha, buning sababi quyidagicha: plyonka reyka chetiga yopishtirilganligi sababli, signal undan uzoqroqqa o‘tishi va boshqa sirtlardan qaytishi mumkin, bu esa ko‘rib chiqilgan holatlarga o‘xshash aniqlikning biroz yo‘qolishiga olib keladi [4].

Ikkita rejimda– qaytargichsiz va plyonkali o‘lchashlarni taqqoslab, aniqlandiki: qaytargichsiz rejimda aniqlik 20 dan 40 metrgacha bo‘lgan masofalarda yuqori bo‘ldi. Bunga qaytgan signalning quvvati sabab bo‘lishi mumkin. Gorizontal siljishlarni aniqlashda yuqori aniqlikka erishish uchun o‘lchashlarni qaytargichsiz rejimda 30 metrgacha bo‘lgan masofalarda bajarish kerak.

Vertikal siljishlarni qaytargichsiz rejimda

o‘lchashda xatoliklar 10 metrdan 40 metrgacha bo‘lgan masofalarda 0,55 mm dan 0,89 mm gacha ravon o‘sadi. Plyonkali rejimda o‘lchashlar aniqroq olinadi: xatoliklar 10 metr masofada 0,40 mm va 50 metr masofada 0,97 mm ni tashkil etadi.

Plyonkali qaytargichda vertikal siljishlarni o‘lchash yaxshiroq, chunki u yerda aniqlik gorizontal siljishlarga qaraganda ancha yuqori. Bundan ko‘rinadiki, bu taxeometr yordamida vertikal va gorizontal burchaklarni o‘lchash aniqligi turlicha bo‘lib, vertikal burchaklarda 1" dan yuqori bo‘ladi. Taqqoslash uchun South N3 va South N4 elektron taxeometrlarida qaytargichsiz rejimda burchak o‘lchash aniqligi mos ravishda 2" va 3" ga teng.

Umuman olganda, yuqori aniqlikdagi South N3 elektron taxeometri binolar, inshootlar, poydevorlarning siljishlari va deformatsiyalarini o‘lchash uchun yetarli bo‘lgan juda yaxshi aniqlikni ko‘rsatdi, South N3 va South N4 taxeometrlari uchun esa maqolada keltirilgan eng yomon ma’lumotlar olingan [4]. Binobarin, asbobni ShNK 3.01.03-09 “Qurilishda geodezik ishlar” [5] ga muvofiq yuqori aniqlik talab qilinadigan yuqori aniqlikdagi uskunalar, metall konstruksiyalar, katta oraliqli binolar va xonalarni o‘rnatishda qo‘llash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Voroshilov A.P. Sun’iy yo‘ldosh tizimlari va qurilish ishlarini ta’minlashda elektron taxeometrlar / A.P. Voroshilov. - Chelyabinsk: YuURGU, 2007. - 163 b.

2. South N3 Station. Foydalanish bo‘yicha qo‘llanma / South Surveying & Mapping Technology CO., LTD, 2020. – 134 b.

3. DST 24846-2012. Gruntlar. Poydevor va inshootlar deformatsiyalarini o‘lchash usullari. – T.: 2012 y.

4. Voroshilov A.P. Qisqa masofalarda elektron taxeometrlar bilan chiziqli o‘lchash aniqligini oshirish/ A.P. Voroshilov, D.Yu. Katkova, Ye.P., Xoxlova //Qurilish va ta’lim: ilmiy ishlar to‘plami – 2010. – № 13. –5–7 b.

5. ShNK 3.01.03-09. Qurilishda geodezik ishlar. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining 10.03.09–yildagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan. №28.

UDK: 528.48:624.042.8

BINO VA INSHOOTLARNING DEFORMATSIYASINI GEODEZIK MONITORING QILISH

Xaydarov Baxodir Maxmarajabovich
Uzbekistan Respublikasi xarbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

Annotatsiya. Maqolada baland binolar va murakkab muhandislik inshootlarining deformatsiya jarayonlarini geodezik monitoring asosida aniqlash, baholash va bashoratlash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy shaharsozlik sharoitida osmono‘par binolar, yirik sanoat va transport inshootlarining ko‘payishi ularning konstruktiv barqarorligi va ekspluatatsion ishonchliligini doimiy nazorat qilishni talab etadi. Shu sababli geodezik monitoring deformatsiya jarayonlarini aniqlashning eng ishonchli va aniqligi yuqori usullaridan biri hisoblanadi. Maqolada geodezik monitoringning nazariy asoslari, kuzatuv usullari, asboblar majmuasi, monitoringni tashkil etish bosqichlari hamda real sharoitga yaqin modellashtirilgan natijalar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari baland binolarning cho‘kish, og‘ish va siljish jarayonlarini aniqlashda geodezik monitoringning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: geodezik monitoring, baland binolar, deformatsiya, cho‘kish, og‘ish, nivelirlash, inshootlar xavfsizligi.

Геодезический мониторинг деформации зданий и сооружений

Аннотация. В статье научно проанализированы вопросы выявления, оценки и прогнозирования процессов деформации высоких зданий и сложных инженерных сооружений на основе геодезического мониторинга. В условиях современного градостроительства увеличение числа небоскребов, крупных промышленных и транспортных сооружений требует постоянного контроля за их конструктивной устойчивостью и эксплуатационной надежностью. Поэтому геодезический мониторинг является одним из наиболее надежных и точных методов определения деформационных процессов. В статье анализируются теоретические основы геодезического мониторинга, методы наблюдений, комплекс инструментов, этапы организации мониторинга, а также моделируемые результаты, близкие к реальным условиям. Результаты исследований показывают, что геодезический мониторинг играет важную роль в определении процессов осадки, отклонения и смещения высотных зданий.

Ключевые слова: геодезический мониторинг, высокие здания, деформация, просадка, отклонение, нивелирование, безопасность сооружений.

Geodetic monitoring of building and structure deformation

Abstract. The article provides a scientific analysis of the issues of determining, assessing, and forecasting deformation processes of tall buildings and complex engineering structures based on geodetic monitoring. The increase in the number of skyscrapers, large industrial and transport facilities in modern urban planning conditions requires constant monitoring of their structural stability and operational reliability. Therefore, geodetic monitoring is one of the most reliable and accurate methods for determining deformation processes. The article analyzes the theoretical foundations of geodetic monitoring, observation methods, a set of instruments, stages of monitoring organization, as well as modeled results close to real conditions. The research results show the importance of geodetic monitoring in determining the processes of subsidence, deflection, and displacement of tall buildings.

Keywords: geodetic monitoring, high-rise buildings, deformation, subsidence, deflection, leveling, safety of structures.

Kirish. Zamonaviy urbanizatsiya jarayonlari va shahar infratuzilmasining jadal rivojlanishi baland binolar va murakkab muhandislik inshootlarining son jihatidan ko‘payishiga olib kelmoqda. Osmono‘par binolar, ko‘priklar, metro tunnellari, gidrotexnik inshootlar va sanoat obyektlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, ularning barqarorligi va xavfsizligi muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Baland binolar va inshootlar qurilishi jarayonida va ekspluatatsiya davrida turli tashqi va ichki omillar ta'sirida deformatsiyaga uchraydi. Ushbu omillarga gruntning notekis cho‘kishi, seysmik ta'sirlar, harorat o‘zgarishlari, shamol bosimi, yuklamalarning o‘zgarishi va qurilish texnologiyasidagi kamchiliklar kiradi. Deformatsiya jarayonlari vaqtida aniqlanmasa, jiddiy avariyalar va iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, baland binolar va inshootlarning texnik holatini uzluksiz nazorat qilish uchun geodezik monitoring tizimlarini joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Geodezik monitoring inshootning fazoviy holatini yuqori aniqlikda aniqlash, deformatsiya dinamikasini kuzatish va xavfli holatlarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi baland binolar va inshootlarning deformatsiyasini geodezik monitoring asosida o‘rganish, mavjud usullarni tahlil qilish va monitoring natijalarini baholashdan iborat.

Materiallar va usullar. Geodezik monitoring — bu inshootlarning geometrik holatini ma'lum vaqt oralig‘ida takroriy o‘lchashlar orqali aniqlash va deformatsiya jarayonlarini tahlil qilish tizimidir. Monitoring jarayonida yuqori aniqlikdagi geodezik asboblar va texnologiyalar qo‘llaniladi.

Asosiy deformatsiya turlari:

Baland binolar va inshootlarda quyidagi asosiy deformatsiya turlari kuzatiladi:

- Vertikal cho‘kish
- Gorizontal siljish
- Og‘ish (egilish)
- Burilish
- Notekis deformatsiya

Geodezik kuzatuv usullari

1. Geometrik nivelirlash – cho‘kishlarni aniqlashda eng aniq usul
2. Trigonometric nivelirlash – baland inshootlar uchun qulay
3. Elektron total stansiyalar – kompleks fazoviy kuzatuvlar
4. GNSS texnologiyalari – katta masshtabli va uzoq muddatli monitoring
5. Lazer skanerlash – yuqori aniqlikdagi 3D model yaratish

1-rasm. Geodezik monitoring

Jadval-1.

Monitoring bosqichlari

Bosqich	Tavsifi
1	Kuzatuv tarmog‘ini loyihalash
2	Dastlabki nol o‘lchashlar
3	Davriy kuzatuvlar
4	Natijalarni qayta ishlash
5	Deformatsiya tahlili

Natijalar. Tadqiqot jarayonida shartli ravishda 25 qavatli baland binoda geodezik monitoring olib borildi. Kuzatuvlar 12 oy davomida amalga oshirildi. Binoning poydevor qismida 12 ta reper, yuqori qismida esa 8 ta nazorat nuqtasi o‘rnatildi.

Jadval-2.

Cho‘kish natijalari (mm)

Oy	O‘rtacha cho‘kish
1	1.2
3	3.5
6	6.8
9	9.1
12	11.4

Natijalarga ko‘ra, cho‘kish jarayoni dastlabki 6 oyda intensiv bo‘lib, keyinchalik sekinlashgan.

Tadqiqot davomida 25 qavatli baland binoda 12 oy davomida geodezik monitoring olib borildi. Natijalarga ko‘ra binoning poydevor qismida cho‘kish jarayoni dastlabki oylarida faol bo‘lib, keyinchalik barqarorlashgani aniqlandi.



2-rasm. Binoning cho‘kish grafigi



Og‘ish natijalari. Binoning maksimal og‘ishi 12 oy yakunida **1/1900** nisbatni tashkil etdi, bu me'yoriy hujjatlar doirasida ekanligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, geodezik monitoring baland binolarning deformatsiya jarayonlarini erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, GNSS va total stansiyalarni birgalikda qo‘llash kuzatuv aniqligini sezilarli darajada oshiradi.

Monitoring natijalari asosida inshootning texnik holati baholanib, zarur konstruktiv choralar ko‘rilishi mumkin. Bu esa ekspluatatsiya xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Baland binolar va inshootlarning deformatsiyasini geodezik monitoring qilish zamonaviy muhandislik amaliyotida ajralmas jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalari geodezik monitoring usullarining yuqori aniqligi va ishonchliligini tasdiqlaydi. Monitoring natijalari asosida inshootlarning xavfsiz ekspluatatsiyasini ta’minlash, avariya holatlarining oldini olish va texnik xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish mumkin.

Kelgusida raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish geodezik monitoring samaradorligini yanada oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Герасимов А.В. Инженерная геодезия. – М.: Недра, 2020.
2. Wolf P., Ghilani C. Elementary Surveying. – Pearson, 2018.
3. ISO 18674-1:2015. Geotechnical monitoring.
4. Leick A. GNSS Satellite Surveying. – Wiley, 2015.
5. Ubaydullayev S. Muhandislik geodeziyasi. – Toshkent, 2019.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГИС ПРИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ОЦЕНКЕ ОПОЛЗНЕВОЙ ОПАСНОСТИ

Мирзаолимов И.Ю. старший преподаватель,
Ташкентский государственный транспортный университет

Аннотация: В данной работе анализируется использование географических информационных систем (ГИС) при оценке регионального оползневого риска, ориентируясь на интеграцию геологических, гидрологических и морфометрических параметров в прогностические модели. Рассматриваются хорошо зарекомендовавшие себя подходы, такие как SHALSTAB, SINMAP и SMORPH, подчеркивая их зависимость от цифровых моделей высот (ЦМВ), индексов устойчивости склонов и гидрогеологических факторов. Примерное исследование в районе перевала Камчик показывает, что геологическое строение, мощность отложений, уклон склона и тип ландшафта являются критическими переменными, влияющими на процессы оползней. Методом статистического взвешивания были разработаны интегрированные индексы восприимчивости и карты зонирования рисков. Результаты подтверждают, что методологии, основанные на ГИС, обеспечивают более высокую точность и надежность по сравнению с традиционными методами, предлагая эффективную структуру поддержки решений для планирования землепользования, защиты инфраструктуры и снижения риска бедствий.

Ключевые слова: Риск оползня; Устойчивость склона; мелководье; синокарта; сморф; демо; Геоопасности; Районирование опасностей.

Abstract: This paper analyzes the use of Geographic Information Systems (GIS) in regional landslide risk assessment, focusing on the integration of geological, hydrological, and morphometric parameters into predictive models. Well-established approaches such as SHALSTAB, SINMAP, and SMORPH are reviewed, highlighting their reliance on digital elevation models (DEM), slope stability indices, and hydrogeological factors. A case study in the Qamchiq pass region demonstrates that geological structure, deposit thickness, slope gradient, and landscape type are critical variables influencing landslide processes. By applying statistical weighting, integrated susceptibility indices and hazard zoning maps were developed. The findings confirm that GIS-based methodologies provide higher accuracy and reliability compared to traditional techniques, offering an effective decision-support framework for land use planning, infrastructure protection, and disaster risk reduction.

Keywords: Landslide risk; Slope stability; shallow water; synoptic map; smorf; demo; Geohazards; Hazard zoning.

За последние годы были разработаны различные методы комплексного анализа геологической среды с целью прогнозирования оползней различного генезиса. Так как большинство методов требуют комплексного анализа значительных массивов данных, все большее число исследователей внедряют свои методики в среду ГИС (геоинформационная система), зачастую разрабатывая при этом специфическое ГИС-ориентированное программное обеспечение.

На базе ГИС-технологий в последние годы составляется значительное число карт [1], непосредственно связанных с прогнозированием оползней. К наиболее крупным группам таких карт можно отнести карты инвентаризации оползней, на которых отображается положение и контуры уже известных оползней. К следующей крупной группе относятся карты прогноза оползней, или карты, на которых отражается возможность схода оползней в какой-либо период времени для какой-либо определенной территории. Еще одна крупная группа карт-карты прогноза ущерба, наносимого оползнями.

В основе всех без исключения ГИС методов оценки оползневой опасности лежит цифровая модель рельефа (DEM).

К существующим детерминистическим методикам прогнозирования оползней, опирающимся, в основном, на стандартные инструменты современных ГИС относятся такие методики, как методика прогнозирования оползней на базе ГИС с помощью метода логического возвращения к предыдущему состоянию [2], а также сходная методика, с дополнительным привлечением ROC (receiver operating caracteristic curve analysis) анализа [3]. Данные методики характеризуются тем, что среда ГИС используется не только для сбора данных и вывода результирующих карт. Часть расчетов производится также стандартными инструментами развитых ГИС. Часть расчетов проводится с использованием стандартных

электронных таблиц. В обязательный набор данных, собираемых в среде, ГИС при использовании данных методик можно отнести литологические характеристики пород, текстура, водонасыщаемость и эффективная мощность грунтов, крутизна склонов, экспозиция склонов, общая расчлененность рельефа, и др. В ряде случаев [4] для проведения расчетов используются не только стандартные средства ГИС и электронных таблиц, но и создаются небольшие приложения, реализованные, например, в программном пакете MATHLAB.

Помимо технологий прогноза оползней использующих, главным образом, встроенный математический аппарат ГИС, в которых те необходимые вычисления, которые невозможно провести встроенными средствами, производятся с помощью внешних приложений, существуют ГИС-ориентированные методики прогноза с разработанными специально для них, и интегрированными в ГИС расчетными модулями.

Широкое применение в зарубежной практике оценки региональной оползневой опасности нашли геолого-гидрогеологические методы [5], [6].

Прогнозирование оползней, основанное на данном подходе, производится на базе модели бесконечного склона с привлечением аналитических методов оценки устойчивости склонов Эти методы требуют вычисления предельных значений устойчивости склонов, что требует определения параметров устойчивости, мощности грунтов, вовлекаемых в процесс оползания, гидродинамических условий, и т.д., причем для каждой точки исследуемого района. Естественно, это вызывает значительные проблемы при сборе исходных данных и при анализе их пространственной изменчивости.

К настоящему моменту разработаны несколько расчетных модулей для реализации геолого-гидрологического подхода в геоинформационных системах. Наиболее известными являются модули под Arcview – Sinmap и Shalstab.

Расчетный модуль оценки оползневой опасности SHALSTAB был разработан в Geological Sciences University of Washington, Seattle [7].

Он базируется на совмещении двух моделей [8]:

Определение устойчивости склонов методом бесконечного откоса основе критерия прочности Мора-Кулона.

Гидрогеологической модели

В методике SHALSTAB используется дополнительное допущение о том, что сцепление грунтов равно нулю. Это приближение, очевидно, неправильно в большинстве случаев, однако авторы метода сочли возможным введение этого упрощения по двум причинам:

Во-первых - величина сцепления изменяется в широких пределах как в пространстве, так и во времени. Пространственно-временная интерполяция данного параметра представляет непростую задачу и ее адекватное решение сопряжено со значительными усилиями. Таким образом, исключая сцепление грунтов из расчета авторы исключали свободный (неопределенный) параметр.

Во-вторых – расчет оползневой опасности, полученный при условии равенства нулю сцепления грунтов, носит более консервативный характер (дополнительные удерживающие силы идут в «запас»). Таким образом, итоговая модель характеризует максимальную степень возможной оползневой опасности в исследуемом районе. Окончательная оценка оползневой опасности определяется с учетом гидрогеологических условий.

Модель, заложенная в модуль SHALSTAB, лучше всего работает в областях, где тонкий чехол разуплотненных в различной степени обводненных грунтов залегает на коренных породах. Причем граница между коренными породами и разуплотненным грунтом достаточно резкая.

В областях с таким типом рельефа, оползни не глубокого заложения образуются, в основном, с вовлечением в тело оползня только грунтов чехла, а их плоскость скольжения располагается вблизи границы чехла с коренными породами. Такие оползни, чаще всего, перемещаются на небольшое расстояние. и останавливаются когда достигают дна долины.

На достаточно крутых склонах могут образоваться оползни в виде потоков обломочного материала, достаточно быстро достигающего дна долины, и двигающегося по ней, вовлекая в себя и коренные порода.

Для прогнозирования именно таких оползней, и именно в таких условиях создан пакет SHALSTAB. Применение его в других условиях требует соответствующего обоснования модели.

Достаточно близким, по сути, методике Shalstab является метод регионального прогноза оползневой опасности по индексу стабильности (SINMAP) [5].

Данный метод (Stability INdex MAPping - картирование по индексу стабильности) был разработан в Университете штата Юта (США) в сотрудничестве с консалтинговой фирмой Terratech Consulting Ltd, организацией C.N. Goodwin Fluvial System Consulting, U.S. Forest Service, Rocky Mountain Research Station (США) и организацией Forest Renewal British Columbia (Канада). В его основе так же лежит расчет устойчивость склонов по схеме бесконечного откоса с учетом влияния подземных вод, которая определяет коэффициент устойчивости склона как отношение между удерживающими (stabilizing forces) и сдвигающими (destabilizing forces) силами, согласно зависимости (1) [9].

$$F_s = \frac{C_r + C_s + \cos^2\theta[\rho g(D - D_w) + g(\rho - \rho_w)D_w]\operatorname{tg}\varphi}{D\rho g \sin\theta\cos\theta} \quad (1)$$

где F_S – коэффициент устойчивости склона, безразмерная величина; C_r – вегетативное сцепление, Н/м^2; C_s – сцепление грунтов, Н/м^2; θ – угол наклона склона, град.; ρ – плотность грунтов, кг/м^3; ρw – плотность воды, кг/м^3; g – ускорение свободного падения, g = 9,81 м/с^2;

D –мощность слоя грунта по вертикали, м; D_w – мощность водоносного слоя по вертикали, м; φ – угол внутреннего трения грунтов, град.

На Рис. 1 показана геометрия, предполагаемая в уравнении (1).



Рис. 1. Модель схемы бесконечного откоса при расчете устойчивости склона

Зависимость (1) может быть преобразована к следующему виду (2):

$$F_s = \frac{C+\cos[1-W_r]tg\varphi}{\sin\theta} \quad (2)$$

где C – комбинированное сцепление, безразм., C = (Cr + Cs) / (h ρ g), где h = D cosq, м; W – относительная влажность, W = Dw/D = hw/h, д.ед.; h – истинная мощность слоя, м; hw – мощность водоносного слоя, м, hw = Dw cosq; r – отношение плотности воды ρw к плотности грунтов ρ, безразм., то есть r = ρw / ρ.

Из практики инженерно-геологических исследований известно, что влажность грунтов тесно связана с гидрогеологическими особенностями территории. Используя гидрологический критерий, авторы SINMAP предлагают определить относительную влажность следующим образом (3):

$$W = \min\left(\frac{R}{T}\frac{a}{\sin\theta}, 1\right) \quad (3)$$

где T = Кт – коэффициент водопроводимости грунтов, м^2/сут; K – коэффициент фильтрации, м/сут; m – мощность водоносного слоя, м; a = A/b – удельная площадь водосбора, рассчитываемая на единицу длины топографического профиля, (рис. 2); R – коэффициент эффективного питания подземных вод на единицу площади поверхности, м/сут; рассчитываемый по формуле:

$$R = (I - E_T)K_{sr} \quad (4)$$

где K_{sr}– коэффициент поверхностного стока, безразм., определяемый как отношение объема поверхностного стока на водосборе при выпадении осадков к общему объему выпавших осадков; I – показатель интенсивности осадков, м/сут; ET – показатель интенсивности испарения, м/сут.

Объединяя расчет устойчивости склона по схеме бесконечного откоса (2) с гидрогеологическим подходом (3), получим следующую зависимость:

$$F_s = \frac{C+\cos\theta\left[1-\min\left(\frac{R}{T}\frac{a}{\sin\theta},1\right)r\right]tg\varphi}{\sin\theta} \quad (5)$$

Авторы модели SINMAP ввели понятие индекса стабильности склона (SI) определив его следующим образом: для «неблагоприятного» и «благоприятного» сочетания.



Рис. 2. Определение удельной площади водосбора

При «неблагоприятном» сочетании параметров (минимальных прочностных характеристиках грунтов, максимальных осадках):

$$SI = F_{S,min} = \frac{C_1+\cos\theta\left(1-\min\left[\frac{R_1}{T_1}\frac{a}{\sin\theta},1\right]r\right)\tan\varphi_1}{\sin\theta} \quad (6),$$

где $F_{S,min}$ – минимальный коэффициент устойчивости склона, безразм.; C_1 – минимальное комбинированное сцепление Н/м^2; θ – угол наклона склона, град.; φ_1 – минимальный угол внутреннего трения грунтов, град., R_1 – максимальный коэффициент эффективного питания подземных вод на единицу площади поверхности, м/сут; T_1 – минимальный коэффициент водопроводимости грунтов, м^2/сут.

При «благоприятном» сочетании параметров (максимальных прочностных характеристиках грунтов, минимальных осадках):

$$SI = F_{S,max} = \frac{C_2+\cos\theta\left(1-\min\left[\frac{R_2}{2}\frac{a}{\sin\theta},1\right]r\right)\tan\varphi_2}{\sin\theta} \quad (7),$$

где $F_{S,max}$ – максимальный коэффициент устойчивости склона, безразм.; C_2 – максимальное комбинированное сцепление, Н/м^2; θ – угол наклона склона, град.; φ_2 – максимальный угол внутреннего трения грунтов, град.; R_2 – минимальный коэффициент эффективного питания подземных вод на единицу площади поверхности, м/сут; T_2 – максимальный коэффициент водопровод мости грунтов, м^2/сут.

При расчете индекса устойчивости склонов в районе перевала Камчик значения φ, C и R/T для "благоприятной" и "неблагоприятной" комбинаций параметров приведены в таблице 1. 1 [10].

Таблица 1

При расчете индекса устойчивости склонов в районе перевала Камчик значения φ, C и R/T для "благоприятной" и "неблагоприятной" комбинаций параметров

Сочетание параметров	Возраст оползнеопасных отложений	g, м/с^2	ρ_w, кг/м^3	ρ, кг/м^3	ϕ, град.	C	R/T
Благоприятное	T3n-r hg	9,81	1000	1982	15,2÷30,3	0,011÷0,340	0,00190÷0,00040
Неблагоприятное	Q	9,81	1000	1846	6,5÷29,3	0,010÷0,260	0,00083÷0,00036

В широком смысле индекс стабильности - понятие вероятностное, которое связано с коэффициентом устойчивости следующим образом (8):

$$S_1 = Prob\ (F_S > 1) \quad (8)$$

Принципиальная схема районирования оползневой опасности на основе SINMAP представлена на

рис. 3.

Наилучшие результаты использование SINMAP дает при оценке опасности от не глубоких оползней.

Иной подход для анализа оползневой опасности, основанный на морфометрических критериях склонов, был использован в расчетном модуле под ARCVIEW – SMORPH (slope morphology model) [11].

Научно-методические аспекты этой модели не новы. В течение последних нескольких десятилетий геологи и инженеры оценили ту важную роль, которую морфометрические критерии играют в развитии оползневых процессов. Одновременно, математики разработали системы численных уравнений для описания рельефа земной поверхности. Это сделало возможным создание процедуры моделирования оползневой опасности в таком формате, который удобно использовать как при научном анализе, так и при экономической оценке прогнозного освоения территорий [12].



Рис. 3. Принципиальная схема районирования оползневой опасности на основе SINMAP.

Вычислительная модель оценки оползневой опасности SMORPH основана на предположении, что морфологические особенности склонов (то есть градиент наклона и форма кривизны поверхности) являются важнейшими факторами при развитии мелких оползней. При этом, градиент наклона определяет с одной стороны соотношение удерживающих и сдвигающих сил, а с другой - влияет на мощность оползневых отложений и совместно с формой кривизны склона на гидрологические процессы (скорость движения поверхностных вод), что, как следствие, определяет степень водонасыщения грунтов. Таким образом, модель оценки оползневой опасности SMORPH отражает восприимчивость рельефа к оползневому процессу.

Данное утверждение не является бесспорным и очевидным. Однако, независимое тестирование теории, связывающей морфометрические критерии с потенциалом развития оползневого процесса, выполненное в штате Вашингтон, показало, что 90 % всех существующих на данной территории оползней мелкого заложения могут быть идентифицированы на основе модели SMORPH [11].

Входными данными для анализа являются: топографическая основа и данные морфометрического анализа территории, подверженной оползневому процессу.

Для получения этой информации обычно используется легкодоступные цифровые модели местности (DEM), что, безусловно, является большим преимуществом метода.

На основе совместного анализа градиента наклона поверхности склона и его кривизны (вогнутый, плоский, выпуклый) создается «морфометрическая матрица» оползневой опасности территории.

Градиент наклона поверхности склона (в процентах) легко получить зная угол склона в градусах. Математически, поверхность склона может быть задана как функция, которая в свою очередь может быть аппроксимирована полиномом четвертого порядка [13]:

$$Z = Ax^2y^2 + Bx^2y + Cxy^2 + Dx^2 + Ey^2 + Fxy + Gx + Hy + I \quad (9)$$

Кривизну поверхности склона в этом случае можно получить как вторую производную от приведенного выше полинома, при этом если она отрицательная – то склон выпуклый, а если положительная – то вогнутый.

Количество и градации классов градиента наклона поверхности склонов первоначально устанавливаются на основе данных дистанционного зондирования и полевых исследований или определяются по объектам - аналогам для каждого участка территории однородного в геоморфологическом отношении и затем экстраполируются на все подобные участки в пределах геологической области. На втором этапе каждому элементу морфометрической матрицы, с учетом данных полевых исследований, ставится в соответствие определенный уровень оползневой опасности.

Модель SMORPH хорошо работает при прогнозе оползней неглубокого заложения (менее 10м), формирующихся в элювиально-делювиальных отложениях. Она не предназначена для прогнозирования развития оползней потоков, глубоких и сложно построенных оползней.

В развитие существующих методик оценки региональной оползневой опасности, рассмотрим усовершенствованный подход, близкий по смыслу к методу геодинамического потенциала, метод восприимчивости территории к оползневому процессу [10].

Для определения восприимчивости территории к оползневым процессам следует определить основные факторы, обусловливающие их активизацию. Для региона Ха Лонг – Кам Фа на основе данных дистанционного зондирования были выбраны следующие основные факторы:

геологическое строение;

мощность потенциально оползнеопасных отложений (для скальных и полускальных грунтов – мощность коры выветривания);

крутизна склонов;

тип ландшафта.

Основным критерием для того, чтобы считать тот или иной фактор оползнеопасным, является форма функции распределения выявленных оползней по информационным классам рассматриваемого фактора. В качестве примера (рис. 4) показаны две возможные функции такого распределения. Из этого

рисунка видно, что фактор 1, имеющий большую дисперсию, является менее оползнеопасным по сравнению с фактором 2. Отметим, что кривая распределения строится по количеству проявлений оползневых процессов в каждом классе фактора (например, в факторе «геологическое строение» выделено 6 классов, в каждом из которых выявлено определенное количество проявлений оползневых процессов).



Рис. 4. Функции распределения выявленных оползней по информационным классам

Стандартное отклонение функции распределения выявленных оползней по информационным классам рассматриваемого фактора является основой для определения его веса w_j (д.ед.), при этом веса всех (n) оцениваемых факторов нормируются таким образом, чтобы их сумма равнялась 1:

$$w_j = 1 - \frac{\sigma_j}{\sum_{j=1}^{n} \sigma_j} \qquad (10)$$

где σ_j – стандартное отклонение функции распределения выявленных оползней по информационным классам j-го фактора.

В таб. 2 приведены веса wj оползнеопасных факторов для региона Камчикского перевала [10]. В свою очередь, каждый из этих факторов представлен информационными классами.

Таблица 2

Веса факторов, оказывающих существенное влияние на развитие оползней в регионе Камчикского перевала [10]

Фактор	Вес wj, д.ед.
Геологическое строение	0,337
Мощность потенциально оползнеопасных отложений (для скальных и полускальных грунтов – мощность коры выветривания)	0,230
Крутизна склонов	0,254
Тип ландшафта	0,180
Сумма	1,000

Веса x_{ij} информационных классов нормируются относительно количества выявленных оползней таким образом, чтобы их сумма для каждого фактора составляла 1:

$$x_{ij} = \frac{\text{количество выявленных активных оползней в данном информационном классе}}{\text{количество выявленных активных оползней в всей исследуемой территории}} \qquad (11)$$

Методика районирования территории по восприимчивости к оползневым процессам заключается в следующем. Для каждого элементарного участка рассматриваемой территории рассчитывается интегрированный показатель H по следующей формуле:

$$H = \sum_{i,j=1}^{n} w_j x_{ij} \qquad (12)$$

где H – интегрированный показатель восприимчивости к оползневым процессам, безразм.; w_j – вес фактора j, д.ед.; x_{ij} – вес класса i фактора j, д.ед.

При построении итоговой карты восприимчивости территории к оползневым процессам важным моментом является выбор разумных уровней классификационного показателя H. Эта задача решается путем подбора оптимальной (с учетом выявленных оползнеопасных факторов для данной территории) классификационной шкалы.

Литература:

1. Chacon J., Irigaray C., Fernandez T., Hamdouni R., "Engineering geology maps: landslides and geographical information systems," Bulletin of Engineering Geology and the Environment, Vol. 65, No. 4, 2006. pp. 341-411.

2. García-Rodríguez M.J., Malpica J.A., Benito B., Díaz M., "Susceptibility assessment of earthquake-triggered landslides in El Salvador using logistic regression," Geomorphology, Vol. 95, 2008. pp. 172-191.

3. Gorsevski P.V., Gessler P.E., Foltz R.B., Elliot W.J., "Spatial Prediction of Landslide Hazard Using Logistic Regression and ROC Analysis," Transactions in GIS, Vol. 10, 2006. pp. 395- 415.

4. Lee S., Ryu J.-H., Min K., Won J.-S., "Landslide Susceptibility Analysis Using Gis And Artificial Neural Network," Earth Surface Processes and Landforms, Vol. 28, 2003. pp. 1361- 1376.

5. Shaw S.C., Vaugeois L.M. Comparison of GIS-based Models of Shallow Landsliding for Application to Watershed Management. Seattle: State of Washington Timber/Fish/Wildlife Publication #118, TFW-PR10-99-001, 1999. 132 pp.

6. Montgomery, D. R., Dietrich W. E. A Physically Based Model for the Topographic Control on Shallow Landsliding // Water Resources Research. 1994. Vol. 30. No. 4. pp. 1153-1171.

7. Hammond, C., D. Hall, S. Miller and P. Swetik, "Level I Stability Analysis (LISA) Documentation for Version 2.0," USDA Forest Service Intermountain Research Station, General Technical Report INT-285, 1992.

8. Зыонг М.Х., Фоменко И.К., Пендин В.В., "Региональный прогноз оползневой опасности для района Ха Лонг – Кам Фа на северо-востоке Вьетнама / М.Х. Зыонг, И.К. Фоменко, В.В. Пендин // Журнал "Инженерная геология," Инженерная геология, № 1, 2013. С. 46- 54.

9. Vaugeois L.M., Jenness J., Rosenberg L.I. SMORPH slope stability software, ArcView 3.x implementation. Washington: Department of Natural Resources, 2007.

ИНЖЕНЕРЛИК ИНШООТЛАРИ НАЗАРИЯСИ
ТЕОРИЯ ИНЖЕНЕРНЫХ СООРУЖЕНИЙ

KONUSSIMON BARABANLI GIDROTURBINA.

Xayitov Zokir Turaboyevich. Alfraganus University
Raximov Habibulloh Nabijon o‘g‘li – tadqiqotchi. Samarqand shahar 1-son IMI.

Annotatsiya: Turbina ishchi qismi aylanish harakatida momentning qiymati kuchning aylanish markaziga nisbatan masofasiga mutanosibdir. Kuchni ko‘paytiruvchi radius momentni oshiradi. Konussimon barabanli gidroturbinalar gidravlik energiyani mexanik aylanish energiyasiga aylantirishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Ushbu konstruksiya suv oqimini barabanning torayuvchi qismida to‘liq foydalanishga yo‘naltiradi, bu esa hajmiy va gidravlik yo‘qotishlarni kamaytiradi va valda maksimal buralish momentini hosil qilishga imkon beradi. [1]

Kirish: Gidroturbina valida hosil bo‘ladigan buralish momenti (torque) va valning aylanish tezligi (angular velocity) qurilmaning mexanik samaradorligini aniqlovchi muhim parametrlardandir. Buralish momenti asosiy formulasi:

$$M = F \cdot r$$

Bu yerda: M – buralish momenti (Nm), F – val uchiga ta’sir etuvchi kuch (N), r– kuch ta’sir qilayotgan nuqtaning val markazidan uzoqligi (m).

Buralish momenti real tajriba natijalariga asoslangan holda mexanik dinomometr orqali aniqlanadi [3].

Konstruktiv tahlil:

Mazkur qurilmada ishchi organ sifatida tanlangan konussimon barabanning alohida, yaqindan ko’rinishi berilgan. Bu g’ildirak ichki qismi bo’sh, kovushlar esa baraban periferiyasiga radial joylashtirilgan. Ushbu struktura turbinaga yengillik beradi, aylanishda minimal qarshilik yaratadi va suv oqimini maksimal foyda bilan qabul qilib, ishlatib bo’limgan suvni tashqariga tez uzatishni ta’minlaydi.



1-rasm. 1-suv oqimi kiruvchi qism, 2-suv oqimi chiquvchi qism, 3-tashqi korpus, 4-konussimon baraban, 5-barabandagi chuqurchalar.



2-rasm. 4-konussimon barabannig yuqoridan ko’rinishi. 5-barabandagi chqurchalar.

2-rasmda konussimon barabanning yuqoridan qaralgan holdagi ichki joylashuvi tasviri yuqoridagi umumiy rasmdan olingan bo’lib qurilmaning umumiy tuzilishini to’liq tasavvur qilishga yordam beradi. Barabandagi kovush 5-chuqurchalar suv oqimini qabul qilib, burish momentini hosil qilish uchun xizmat qiladi. Bunday geometriya suv oqimining energiyasini maksimal darajada aylanma harakatga o’tkazishga mo’ljallangan [2].

Konussimon barabandagi har bir kovushga tushgan suv oqimi unga normal yo’nalishda ta’sir qilib, barabanni burishga majbur qiladi. Barabanning harakatlanishi natijasida o’q orqali mexanik energiya tashqariga uzatiladi.

Qurilmaning mazkur konstruksiyasi suv oqimini maksimal darajada foyda bilan ishlatishni ta’minlaydi. Har bir element – tashqi korpus, baraban shakli – suv energiyasini mexanik burovchi kuchga aylantirishga qaratilgan.

Mikro gidroturbina qurilmasining asosiy elementi – parraklar vazifasini bajaruvchi konussimon baraban metall listdan yasalib, undagi chuqurchalar soplo orqali yo‘naltirilgan suvni maksimal darajada qabul qilishi uchun baraban chetki uchlariga tomon chuqurcha shaklida joylashtirilgan. Barabandagi har bir parrak vazifasidagi uchi oldi tomoni keng yuzali, bu yuzada chuqurcha boshlanib, uning orqa tomoniga cho‘zilgan bo‘lib, bu suv zarbasining yo‘nalishini konussimon baraban uchu tomoniga yo’naltiradi [4]

Baraban valga qattiq mahkamlangan holda joylashtirilgan. Ichki chuqurchalarning joylashuvi markaziy o‘qqa nisbatan simmetrik tarzda tanlangan bo‘lib, barqaror aylanishini ta’minlaydi [7].

Valning har ikki uchida podshipniklar o‘rnatilib, aylanishda kam ishqalanish ta’minlandi. Qurilmaning yon ko‘rinishida chuqurchalarning orqa qismi qirrali va aerodinamik qarshilikni kamaytiruvchi shaklda. Baraban suv yordamida aylanish jarayonida

Qirralar suvning qarshiligini kamaytiradi (3-rasm).

Tajriba sinov tahlili: Sinov jarayonida quyidagi o‘lchov asboblari va usullari qo‘llanildi:

- Aylanish chastotasini aniqlash: taxometr yordamida baraban valining aylanish soni o‘lchandi;
- Valning buralish momenti: aylanuvchi valning radiusini 10 mm bo‘lgan holda, unda hosil bo’luvchi

burovchi kuch dinamometr bilan aniqlanib, M=F·r formuladan buralish momenti hisoblandi;

3-rasm. Barabanli turbina ishchi organining yon ko'rinishi.

• Suv sarfi: tajribaviy o'lchov usuli bilan, chiqihdagi suv oqimi sig'imli idishda to'lish vaqti asosida;

• Chiqish quvvati**:** Valdagi foydali quvvat N=M·ω formula orqali, bu yerda burchak tezlik ω=2π·f formula yordamida hisoblandi;

Konussimon barabanli gidroturbinani ustida dastlab tashqi korpus o'rnatilmagan holda tajriba o'tkazildi. So'ngra konussimon barabanli gidroturbinaga tashqi korpus o'rnatilgan holda tajriba o'tkazildi [5]. Ushbu bo'limda ikki holat uchu o'lchov natijalari tahlili keltirilgan.

Quyidagi jadvaldan Tashqi korpusli va tashqi korpussiz holatlar uchun barabanli barabanli turbina validagi foydali quvvatlarini ko'rish mumkin [6]. Hisob-kitoblar quyidagi formulaga asoslangan:

$$P = M \cdot \omega$$

Bu yerda: P – valdagi foydali quvvat, W; M– buralish momenti, Nm; ω – burchak tezlik, rad/s.

1-Jadval.

Buralish momentlari bo'yicha quvvatlar.

Suv sarfi Q (m³/s)	Bur-chak tezlik (rad/s)	Tashqi korpussiz holatda buralish momenti (Nm)	Tashqi korpus holatida buralish momenti (Nm)	Gidrav-lik quvvat P (W)	Tashqi korpussiz holatda valdagi quvvat (W)	Tashqi korpus holat-ida val-dagi quvvat (W)
0.001	9.77	0.383	0.455	5	4	4.5
0.002	19.54	1.54	1.83	41	30	35.7
0.0027	26.37	2.80	3.32	98	73	88

1-Grafik. Turbina validagi foydali quvvatlarining suv sarfiga bog'liqlik grafigi.



Xulosa

Tajriba natijalari va grafik tahlillar quyidagilar:

• Suv sarfi ortishi bilan buralish momenti ham ortib boradi.

• Barabanli turbina konstruksiyasi ayniqsa, yopiq (korpusli) holatda ishlatilganda sezilarli afzallik beradi.

• Tashqi korpus o'rnatilgan turbina validagi foydali quvvat nisbatan 12% gacha ko'proq.

• Barabanli turbina yuqori bosim ostidagi yopiq tizimlarda barqaror ishlashi, konussimon baraban uchlaridagi qirralarning suv ta'sirini kamaytirishi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar.

1. RU 126765 U1, RU 83545 U1, RU 2146336 C1.
2. Ergashev Rustam Raximovich, Xayitov Zokir Turaboyevich. № FAP 2574. Foydali modelga berilgan patent.
3. K.SH. Latipov O.M. Arifjanov. "Gidravlika va gidravlik mashinalar". Toshkent, Munavvarov A. A. "Gidromexanika va mashinasozlik asoslari", Irrigatsiya va melioratsiya instituti. Toshkent, 2011, 163-b.
4. M.M.Muxammadiev, B. XAMDAMOV, D.A. Mamatkulov. Gidroenergetika izlanishlari, geodeziya. Toshkent 2019. 233b
5. A.Jo'rayev, R. Tojiboyev. Amaliy mexanika. T., «Fan va texnologiya», 2007. 236-42 bet. NamDU-ARM-7200-Amaliy_mexanika..pdf .
6. R.I.Karimov K.A.Karimov N.N Begimov. – Mashina va mexanizmlar nazariyasi – Sano standart. Toshkent-2019. 56-60 b.
7. Rustam Rakhimovich Ergashev. Zakir Turaboyevich Khaitov. Efficient use of low-pressure water energy. mental enlightenment scientific – Methodological journal.

GEOMETRIK MASALALARNI YECHISHDA ANALITIK GEOMETRIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

G'oyibnazarova G. - p.f.n., dotsent
Alfraganus universiti

Annotatsiya. Maqolada geometrik masalalarni yechish va bunda analitik geometriya elementlaridan foydalanishga bag'ishlangan bo'lib, mazkur muammoga doir o'quv-metodik adabiyotlar, chet el va mamlakatimiz olimlari tomonidan muammoga oid amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilingan holda geometrik masalalarni yechishda analitik geometriya elementlaridan foydalanish yo'llari keltirilgan. Shuningdek, geometrik masalalar yechish orqali talabalarning tasavvur qilish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yordam beruvchi masalalar yechib ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, masala, masala sharti, masala talabi, nuqtaning koordinatalari, vektorlarning vektor ko'paytmasi, vektorlarning aralash ko'paytmasi.

Аннотация. Статья посвящена решению геометрических задач с помощью элементов аналитической геометрии.

Посредством анализа учебно-методической литературы по данной тематике, а также научных исследований отечественных и зарубежных ученых, в данной статье приведены пути применения элементов аналитической геометрии при решении геометрических задач. Также, отражены аспекты улучшения навыков представления и воображения, логического мышления студентов путём решения геометрических задач.

Ключевые слова. Обучение, задача, условие задачи, требование задачи, координаты точки, векторное произведение векторов, смешанное произведение векторов.

Annotation. The article is devoted to solving geometric problems using elements of analytical geometry. By analyzing educational methodological literature on this topic, as well as scientific researches of national and foreign scientists, this article presents ways to apply the elements of analytical geometry in solving geometric problems. Also, aspects of improving visualization skills and logical thinking of students by solving geometric problems are reflected.

Keywords. Teaching, problem, task condition, task requirement, point coordinates, vector product of vectors, mixed product of vectors.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchiga matematik ta'lim berishda geometrik tushunchalarning ahamiyati benihoya kattadir. Geometrik tushunchalar boshlang'ich sinflardanoq kiritilib, keyinchalik ular mukammallashtirib boriladi. Geometrik figuralarni tasvirlay bilish, ulardagi kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni ko'ra olish o'quvchilarning matematik qobiliyatining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, geometriyaning stereometriya kursini o'rganish jarayonida o'quvchilarning fazoviy figuralarni tasavvur qilishi, ularni tasvirlay olish qobiliyatlari rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, o'quvchlarda geometrik masalalarni, ayniqsa matnli masalaalrni yechish qoboliyatini shakllantirish, mathla masalaning moxiyatini tushunib yetishlari, tegishli chizmalarni to'g'ri chiza olislari ayniqsa muhimdir. Shu sababdan maqolada ba'zi geometrik masalalarni yechishda analitik geometriya elemenlaridan foydalanish qulay ekanligi haqida fikrlar bildiramiz.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Hozirgi zamon matematika o'qitish metodikasining matematik masalalar nazariyasi muammosini ishlab chiqish, matematik masalalarning o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi rolini ochib berish, matematik masalalarni yechishga o'rgatishning nazariy asoslari muammolari Yu.M.Kolyagin [3], V.I.Krupich, S.L.Rubinshteyn va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan matematika fanining bevosita davomi keyingi bosqichda 5-6 sinflarda davom ettiriladi. Bu bosqichda matematika fanining bir qismi sifatida o'qitiladigan geometriya kursining maqsad va vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

-ushbu bosqichda o'rganiladigan geometrik materiallar o'quvchilarning umumiy geometrik tasavvurini rivojlantirishga;

-o'quvchilarda kelajakda geometriya fanini sistemali o'rganishga tayyorlashga;

-atrof olamni o'rganishda geometriya faninng rolini ko'ra bilishga o'rgatishdan iborat.

6-9 sinf o'quvchilarga matematik ta'lim berishda asosiy bosqich hisoblanib bu bosqich uchun ko'pgina darsliklar chop etilmoqda. Bu bosqichda o'qitiladigan geometriya kursi boshlang'ich sinflarda egallangan geometrik bilimlarga tayangan holda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quv standartlarida ko'zda tutilgan asosiy matematik bilim va ko'nikmalarni egallashni ta'minlashi lozim. Bundan tashqari, ushbu bosqichda o'qitiladigan geometriya fani o'quvchilardagi alohida xususiyatlarning shakllanishiga va kelajakdagi o'z faoliyatini belgilab olishiga yordam beradi. Aynan shu bosqichda o'qitiladigan geometriya fanlararo aloqalarni va atrof olamni o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Muhokama

BMTning hisobotiga ko‘ra, 2050 yilga kelib, jahon aholisi soni 9.8 milliardga yetishi taxmin qilingan. Demografik o‘sish, tabiiyki, insoniyatga yangidan-yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Oziq-ovqat yetishmovchiligi, ichimlik suvi muammosi, aholi zichligi, ijtimoiy himoyaga muhtojlik shular jumlasidandir. Va yana shunday muammo ham borki, uning yechimi qolgan mushkulotlarning aksariyatini bartaraf eta oladi. Bu – energiya muammosi. Bugun uning borligi ham, yo‘qligi ham birdek muammo tug‘diryapti: energiya yetishmovchiligi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning murakkablashuviga sabab bo‘lsa, energiya ishlab chiqarish quvvati ko‘pligi tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki birlamchi energiyaning 80 foizdan ko‘p miqdori an’anaviy uglevodorod manbalari va yadro energetikasiga to‘g‘ri keladi. Energiya transportirovkasi esa suyuq holatda – neft-gaz shaklida amalga oshiriladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining istiqboli borasida juda ko‘p gapirildi. Masalan, quyoshdan kelayotgan radiatsiyaning sayyoramizga tushadigan energiya miqdori o‘rtacha 1.31.4 kVt/m2ni tashkil qiladi. Atmosferadan kosmosga qaytib ketadigan radiatsiya miqdorini hisobga olmasak, yer yuzasiga o‘rtacha 1 kVt/m2 energiya to‘g‘ri keladi. Bu energiya sayyoramizning ayni damdagi energiya ehtiyojidan 9000 marotaba ko‘pdir. Shu sababli yangi qo‘shilayotgan energiya quvvati an’anaviy energiya emas, balki qayta tiklanuvchi manbalar hisobidan amalga oshirilyapti. IRENA xalqaro tashkilotining hisobotiga ko‘ra, 2019 yili global energiya ishlab chiqarishda 248,6 GVt qo‘shimcha quvvat qo‘shilgan. Shundan 179 GVt quvvat qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga to‘g‘ri keladi. Bu jahon bo‘ylab umumiy qo‘shilgan energiyaning 72 foizi deganidir. Va shundan 90 foizi – quyosh va shamol energiyasi. Xususan, quyosh energiyasi 2019 yilda 97 GVt quvvatga ortgan. So‘nggi 10 yillikda qo‘shilib borayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining turlar bo‘yicha ulushi evolyusiyasini qaraydigan bo‘lsak, quyosh energetikasi qo‘shilayotgan energiya quvvatida eng tez o‘sayotgan qayta tiklanuvchi energiya sanaladi.

Bunga asosiy sabab sifatida quyosh energetikasi qurilmalarining kichik masshtabda ham rentabelli bo‘la olishi va sohaga texnologik innovatsiyalar doimiy tatbiq qilinishini ko‘rsatish mumkin. Energetika bo‘yicha barcha hisobotlarda quyosh energetikasi o‘sib kelayotgani haqidagi ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Shunday ekan, nega bugun biz kundalik energetik ehtiyojlarni quyosh energetikasi orqali hal qilmayapmiz? Nega olis qishloqlarda energiya muammosi mavjud bo‘lsa-da, hamon quyosh fotovoltaik qurilmalaridan keng foydalanilmaydi? Ushbu maqolada quyosh energetikasining yurtimizda keng tarqalishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar ko‘rib chiqiladi. Maqolada faqat fotovoltaik (PV, quyosh radiatsiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektr energiyasiga o‘tkazuvchi yarim o‘tkazgichli qurilma) qurilmalar va panellar tilga olinadi. Quyosh konsentratorlari va radiatsiyasining foydali energiyaga aylantiruvchi boshqa qurilmalari haqida so‘z yuritilmaydi. Quyosh energiya stansiyalari generatsiya qiladigan energiya, aslida, nechog‘li qimmat? Bugun jahonda 1 kVt soat elektr energiyasi uchun o‘rtacha narx 0.14 AQSh dollarini tashkil etmoqda, ya’ni 14 sent. O‘zbekistonda esa 0.028 dollar (295 so‘m 0 tiyin) – 2,8 sent. Endi quyosh stansiyalarida generatsiya qilinadigan elektr-energiya narxi haqida to‘xtalamiz. 2019 yili quyosh radiatsiyasidan olingan elektr-energiya narxi jahon bo‘ylab o‘rtacha 0.045 dollarni (4,5 sentni) tashkil qilgan edi. Oxirgi 10 yilda narxlar sezilarli tushib kelgan va bu tendensiya saqlanib qolmoqda. 2020 yili ishga tushgan quyosh stansiyalari hatto 1 kVt soat uchun 0.033 dollar qiymatidagi narxlarda ham o‘z rentabelligini saqlab qoladi.

2010-2020-yillarda jahon miqyosida qo‘shilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining turlari bo‘yicha taqsimlanishi Quyosh energetikasi texnologiyalari sanoat miqyosida keng qo‘llash uchun “pishib yetilgani” quyosh panellarini katta masshtabda ishlab chiqarish imkonini berdi. Ushbu sohada texnologiyalar yaratish uchun kiritilgan investitsiyalar ishlay boshlagach, qolaversa, innovatsiyalar davomiy joriy qilinishi natijasida panellar narxi so‘nggi 10 yilda 90 foizga pasaydi va umumiy generatsiya quvvati 400 foizga oshdi.

Qisqa davr ichida narxlarning bu qadar tushib ketishi – texnologik yutuq. Lekin biz narxlar “sho‘ng‘ishi”ni xuddi shu tempda yana qaytara olamizmi? Mutaxassislarning hech biri bu savolga “ha”, deb javob berishga shoshilmayapti. Chunki narxlardagi bu tariqa keskin pasayishda subsidiya va yirik loyihalarning sezilarli o‘rni bor. Ammo texnologik jihatdan narxlarga zarba berish mumkin bo‘lgan nuqtalar mavjud. Hozircha bevosita narxga ta’sir qiluvchi quyidagi muammolar mavjud: quyosh energetikasini loyihalash, marketing va litsenziyalash ishlarini amalga oshirish teng quvvatlarda muqobillariga nisbatan ko‘proq xarajat talab qiladi. Bu xarajatlar, (soft costs) odatda, uyingizga o‘rnatiladigan stantsiyaning 15-20 foizini tashkil qiladi; quyosh energetikasi samaradorligining an’anaviy muqobillaridan pastligi va unga ishlatiladigan xom ashyo materiallari nisbatan qimmatligi ishlab chiqarilayotgan energiya tannarxiga ta’sir qiladi; quyosh panellarini loyihalashda individual integratsiyaga muhtojlik loyihalash va o‘rnatish jarayonida qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Xonadonlarga o‘rnatiladigan stantsiyalar ularning arxitekturasidan kelib chiqib loyihalanadi. Tom yoki uyning boshqa qismiga panellarni moslash, odatda, qo‘shimcha texnik echim talab qiladi va bu tannarxga ta’sir o‘tqazadi. Agar uy qurilishi loyihalarida quyosh panellari inobatga olinsa, ushbu xarajat kamaygan bo‘lar edi. Shunga qaramay, quyosh stantsiyalarida ishlab chiqariladigan fotovoltaik energiya narxi raqobatbardosh bo‘la oldi. Ayniqsa, bu tendentsiya katta stantsiyalarda seziladi. Germaniyada yangi qurilayotgan stantsiyalardan olingan energiya narxi bo‘yicha quyosh stantsiyalari eng yaxshi ko‘rsatkichga ega. Bu holat barcha davlatlarda kuzatilyapti.

Shunday ekan, O‘zbekistonda ham yangi elektrostantsiyalarni qurishda to‘g‘ri tanlov qilinishi lozim. Chunki O‘zbekiston energiya infrastrukturasi bo‘yicha mintaqada eng salbiy ko‘rsatkichga ega. Elektr energiyasi ishlab chiqarishning 75 foizida ekspluatatsiya davri 30 yildan oshgan. Faqatgina 7 foiz infrastruktura ishga tushganiga 5 yildan oshmagan. Ya’ni, O‘zbekistonda elektr energiya ishlab chiqarish strukturasi ham ma’nan, ham texnologik jihatdan eskirgan va modernizatsiyaga muhtoj. Yangi infrastrukturani shakllantirishda jahonning “quyoshli” infrastrukturasiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

Lekin unga qadar fuqarolar avtonom ravishda mini stantsiyalarni ekspluatatsiya qilish orqali o‘zini-o‘zi ta’minlashi necha pulga tushishini ko‘rib chiqamiz. Quyosh panellari quyoshdan kelayotgan radiatsiyani elektr energiyasiga aylantirar ekan, maksimal energiya olish uchun quyosh radiatsiyasi panel yuzasiga maksimal darajada tik tushishi lozim. Panellar yuzasidan yutilmay qaytgan yorug‘lik energiya generatsiyasida ishlamaydi. Shu bois, xo‘jalikka quyosh panellarini o‘rnatishda professional loyihaga tayanish lozim. Zero, qo‘shningizga to‘g‘ri kelgan loyiha sizning uyingizga to‘g‘ri kelmaydi. Buning uchun uyingizda quyosh panellari o‘rnatiladigan joy kun davomida quyoshdan kelayotgan energiyani maksimal darajada tik holatda qabul qilishi uchun sharoit bo‘lishi kerak. Bunda panellarni o‘rnatish burchagi, panellar konfiguratsiyasi muhim rol o‘ynaydi. Panellarni o‘rnatish burchagi joylashgan lokatsiyada quyoshga nisbatan joylashuv hisobga olinadi. Bu hisob-kitoblarni amalga oshirishda maxsus qurilmalar va sputnik ma’lumotlaridan foydalanilsa, shuningdek, o‘lchov o‘ta aniq olinsa, panellar kutilgan natijaga maksimal yaqinlashadi. Bundan tashqari, montaj ishlarini quyosh panellari bo‘yicha mutaxassislar bajargani ma’qul. Ko‘pincha, bu ish elektriklarga topshirilgani uchun panellar yuzasida qisqa tutashuvlar kuzatilyapti. Bu, ko‘pincha, iste’molchi mustaqil ravishda panellar hamda avtonom va gibrid ishlash uchun qolgan qismlarni sotib olib o‘rnatishga harakat qilganida kuzatilyapti. OTMlar o‘quv dasturiga muqobil energetika sohasida loyihalash va qurilmalarni ekspluatatsiya qilish, elektr ta’minoti kabi mavzularni kiritish kerak. Texnika yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarida bu yo‘nalish endi o‘qitila boshlandi. Kelgusida mutaxassislar safi kengaysa, quyosh panellari soni va ularni o‘rnatish sifati ham ortadi. Quyosh panelining samaraliligi unga tushayotgan quyosh radiatsiyasi elektr energiyasiga aylangan miqdorining foizlardagi qiymati bilan o‘lchanadi. Samaradorlik haqida so‘z yuritganda, quyosh elementining samaradorligi va umumiy panel samaradorligiga alohida baho beriladi.

Chunki, quyosh elementi samaradorligi ularni panelga joylagandan so‘ng panel konfiguratsiyasi va tokni echishdagi yo‘qotishlar hisobiga pasayadi. Shu sababli umumiy panelning samaradorligi alohida quyosh elementinikidan past bo‘ladi. Bugungi kunda standart quyosh panellarining samaradorligi 15-20% oralig‘idadir. So‘ngi yillarda samaradorlik ortishi standart quyosh panelining chiqish quvvatini 250 Vt dan 340 Vt gacha oshirdi. Quyosh elementlarining turiga qarab, uning samaradorligi farqlanadi. Bugungi kunda bozordagi 90 foizdan ortiq quyosh elementlari kremniy asosida yasalgan. Kristal turi (mono, poli, multi), strukturasi va boshqa texnik-texnologik echimlariga qarab, kremniy quyosh elementlari turlanadi hamda samaradorligi bo‘yicha farqlanadi. O‘zbekiston bozorida, asosan, polikristal kremniy asosidagi 16-17 % samaradorlikka ega bo‘lgan quyosh panellari sotilmoqda. Ba’zi PERC (passivated emitter rear contact) va SHJ (silicon heterojunction solar cells) quyosh elementlari 22% dan baland samaradorlikka egadir. Afsuski, quyosh panellarining tashqi ko‘rinishi o‘xshashligi tufayli qurilma sifatini bir qarashda ajratib olish mushkul. Shuning uchun iste’molchi har doim ham sifatli quyosh panelini xarid qilavermaydi. YUqoridagi so‘rovnomada quyosh panellarini xarid qilganlarning 10 nafaridan faqat 3 kishi mazkur qurilmaning tipi va xarakteristikasi haqida to‘liq ma’lumotga ega ekanligi ayon bo‘ldi. Quyosh panelini maxsus qurilmalar orqali tekshirib ko‘rmasdan uning sifatiga baho berish deyarli imkonsiz. Panellarning kamchiligi tabiiy ravishda 5 yil davomida namoyon bo‘ladi. Ya’ni buning uchun tabiiy agressiv (issiq, sovuq) sharoitda uzoq vaqt talab qilinadi. Panellar vaqt o‘tgach, tashqi sharoit ta’sirida chiqishdagi quvvatini pasaytirib boradi, ya’ni tabiiy degradatsiyaga uchraydi. Birinchi 2 yilda chiqishdagi quvvat degradatsiyasi 23 foizni tashkil qilsa, keyingi yillarga borib, degradatsiya tezligi keskin kamayadi va yiliga 0.5-0.7 foizni tashkil qiladi. Ushbu ko‘rsatkichlardan chetlashgan va degradatsiya tezligi baland bo‘lgan panellar sifatsiz hisoblanadi. Shu sababli quyosh panellarini xarid qilganda, ishlab chiqaruvchi va sotuvchidan kamida 5 yil kafolat so‘rash kerak. Quyosh panellarining samaradorligiga panellar joylashgan lokatsiyaning iqlim sharoitlari ham ta’sir o‘tqazadi. Ishlab chiqaruvchi quyosh elementlari va panellarni sotuvga chiqarishdan avval ularni maxsus laboratoriyada sinab ko‘radi.

Ko‘rsatkichlar quyosh panellari xarakteristikasining belgilangan standartlariga javob berishi lozim. Qurilma pasportiga ham shu ko‘rsatkichlar yoziladi. Va biz shu xarakteristika asosida mahsulotni xarid qilamiz. Muammo shundaki, pasportda ko‘rsatilgan xarakteristikaning O‘rtaer dengizi iqlim sharoitiga mos qiymatlari keltirilgan. Ya’ni pasportda ko‘rsatilgan xarakteristika amaliyotda to‘liq namoyon bo‘lishi uchun qish yumshoq (10-16 °S), yoz esa quruq va o‘rtacha issiq (22-30°S) bo‘lishi kerak. Havo namligi yozda 50—65 %, qishda 65—80 %ni tashkil qilishi lozim. Quyosh panellari mana shu iqlimga yaqin sharoitda test qilinib, xarakteristikasi yoziladi. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, 1000 Vt/m² radiatsiya, quyosh spektri uchun havo massasi koeffitsienti 1.5

panellar temperaturasi 25°S bo‘lgan sharoit standart test sharoiti (STC) hisoblanadi.

Muqobil energiyadan foydalanish ommalashmaganiga yana bir sabab – ko‘pchilikning masalani huquqiy jihati xususida etarli ma’lumotga ega emasligidir. Bu borada 2019 yil 22 avgust kuni imzolangan “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PP-4422 sonli Prezident qaroriga murojaat qilamiz.

Ushbu qarorda quyidagilar belgilangan: qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran, besh yil muddatga soliqning barcha turlarini to‘lashdan; qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo‘lgan) o‘rnatganlik uchun ular foydalanishga topshirilgan paytdan e’tiboran, 10 yil muddatga mol-mulk solig‘ini hamda ushbu qurilmalar bilan band bo‘lgan uchastkalar bo‘yicha er solig‘ini to‘lashdan; ishlab turgan energetika resurslari tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan yashash uchun mo‘ljallangan joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgan oydan e’tiboran, 3 yil muddatga yer solig‘ini to‘lashdan ozod etilishi nazarda tutilgan.

Mutaxassislarning kamligi ushbu texnologiyalar yetarlicha yoki to‘g‘ri joriy etilmayotganiga sabab bo‘lmoqda va bu, o‘z navbatida, quyosh fotoelektrik tizimlarining to‘liq imkoniyatidan foydalanmaslikka yoki noto‘g‘ri foydalanishga olib kelmoqda. Muqobil energetika, xususan, quyosh fotoelektrik tizimlarini joriy etish energotejamkorlik madaniyati shakllanishiga va maishiy hayotda tejamkor texnikatexnologiyalar ommalashuviga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Ergashev, R., Bekchanov, F., Musaev, S., Saydullaev, S., & Xolbo'taev, B. (2023). Meliorativ tizimlarning nasos agregatlarining tebranishini kamaytirish. Yilda E3s konferentsiyalar veb-sayti (Vol. 365, p. 03021). EDP fanlari
1. Majidov T.Sh. “Noan’anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari”, darslik. Toshkent, 2014 y.

2. Rashidov YU.K. “Muqobil energiya manbalaridan foydalanish” o‘quv qo‘llanma, Toshkent, TAQI, 2019 y.

3. Popel O.S., Fortov V.E.. Vozobnovlyaemaya energetika v sovremennom mire: uchebnoe posobie — M: Izdatelskiy dom MEI, 2015 g. — 450 str. Клычев Sh.I., Muxammadiev M.M., Avezov R.R., Potaenko K.D. Netraditsionnые i vozobnovlyaemые istochniki energii. -T.: Izd-vo «Fan va texnologiya», 2010, 192 str.

4. O’zbekistonda quyosh energiyasini rivojlantirishdagi muammolar Tursunov M.K, Mansurova SH.P 379

KORZINKA HAMDA MARKAZIY OSIYODAGI ENG YIRIK TAQSIMLASH MARKAZI — ANGLESEY FOOD MCHJ FAOLIYATI

Toshqulov Sh.B. – magistranti, **L.A.Raximov** Arx.f.b.(PhD), dotsent
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi va savdo infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi islohotlar samarasi natijasida so‘nggi yillarda logistika sohasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Buning yorqin namunasi sifatida “Anglessey Food” kompaniyasi tomonidan yangi avlod maxsus sanoat zonasida barpo etilayotgan taqsimot markazini tilga olish mumkin.

Davlatimiz rahbari o‘zlarining navbatdagi tashrifi bilan “Anglesey Food” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining mahsulotlarni saqlash va taqsimlash markazida bo‘ldi. Davlat rahbarining ta‘kidlashicha, *«Bunday loyihalar investorlar ishonchi hamda O‘zbekistonning puxta o‘ylangan iqtisodiy siyosatining amaliy natijasini ifoda etadi»*[1].

“Yangi avlod” maxsus sanoat zonasi hududida barpo etilgan korxona “Korzinka” do‘konlar tarmog‘i uchun mahsulotlarni saqlash, saralash va qadoqlash xizmatlarini ko‘rsatadi. Korxona hududi 10 gektarni tashkil etadi, shuningdek, omborlar jami hududning 49 ming kvadrat metriga qurilgan. Qurilish materiallari va muzlatkich kameralar uchun jihozlar Xitoy, Turkiya, Belarus va Rossiya davlatlaridan olib kelingan. Ushbu loyiha Markaziy Osiyodagi “A” sinfiga kiruvchi eng yirik taqsimot markazi hisoblanadi. Bir vaqtning o‘zida 145 ta darvozada yuklash hamda yukni tushirish imkoniga ega.

Korzinkaning yangi logistika majmuasi Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib, kompaniyaning uglerod ta‘sirini kamaytiradigan, sovuq zanjirni saqlashni kafolatlaydi, oziq-ovqat xavfsizligini oshiradi, yangi va ultra yangi mahsulotlarning optimal holatda yetkazib berilishini ta‘minlaydigan EDGE (Excellence in Design for Greater Efficiencies) sertifikatiga ega bo‘ladi.

Markazda 4 xil harorat rejimi mavjud: muzlatkich -18°C, sovutish kameralari +2-4°C; +4-6°C; +6-8°C;, quruq saqlash kameralari +25°C haroratda ishlash quvvatiga ega. Shu bois, mahsulotlar turiga qarab muzlatkichda, past haroratli sovutish kameralarida hamda quruq joyda saqlanadi. Shuningdek, markazda tunu-kun ishlovchi 96 ta sinov usuliga ega maxsus laboratoriya barpo etiladi. Mingdan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratish ko‘zda tutilgan.



18-sentabr 2024 yil, Toshkent-Markaziy Osiyodagi yirik nemis investorlaridan biri bo‘lgan DEG (Deutsche Investitions-und Entwicklungsgesellschaft mbH)

tomonidan berilgan kredit Korzinkaning rivojlanish rejalariga ishonchini namoyish etadi.

«Jahon bankining sho'ba korxonasi Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan ilgari olingan mablag'lar bilan bir qator DEG tomonidan yangi mablag' Toshkent shahrida zamonaviy tarqatish markazini qurish va kompaniyaning o'sish strategiyasini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi» - deb ta'kidlaydi Korzinka.uz saytida.

DEG (Deutsche Investitions- und Entwicklungsgesellschaft mbH) 60 yildan ortiq vaqt davomida rivojlanayotgan bozorlarda xususiy korxonalar va moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning hamkori bo'lib kelgan. DEG O'zbekistonda 15 yildan beri faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Moliya instituti malakali ish o'rinlari va qiymatni yaratadigan, mahalliy infratuzilmani yaxshilaydigan va xalqaro ESG standartlariga javob beradigan kompaniyalarga sarmoya kiritadi. Qayta tiklanadigan energiya loyihalariga va mahalliy banklarni moliyalashtirishga kiritilgan umumiy sarmoyalar hozirgi kunda 370 million evro atrofida.

Amalga oshirilayotgan mazkur yirik infratuzilma loyihasining umumiy qiymati 50 mln. dollarni tashkil etadi. Bu markaz Korzinka tarmog'ining barcha 184 ta do'koniga xizmat ko'rsatadi. Shu bilan birga markaz faoliyati orqali yiliga 335 mlrd. so'mlik byudjet tushimi ta'minlanishi kutilmoqda. Darhaqiqat, bu loyiha mamlakatda ishlab chiqarish va savdo zanjirini yanada mustahkamlab, mahalliy mahsulotlarning ichki bozorda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [2].

Asosiy ko'rsatkichlar

- Sutkasiga 3000 pallet mahsulot va 2000 t kunlik aylanma;
- Jami 24000 ta pallet
- 10.000 t meva va sabzavot mahsulotlari sig'imi
- Hozirda 300 nafardan ortiq xodim, xodimlar sonini 500 kishiga yetkazish rejalashtirilgan.

Tanishuv yakunida jamoatchilik vakillari bilan bo'lib o'tgan muloqotda oqilona iqtisodiy siyosat va investorlarning bunga ishonchi haqida so'z yuritildi.

«Oxirgi 8 yilda jalb qilingan 130 mlrd. dollarlik xorijiy investitsiya orqali qanchadan-qancha zavod va korxonalar qurildi. Bugun ham yana bir katta loyiha – yangi xalqaro aeroport qurilishini boshladik. Unga Saudiya Arabistoni, Yaponiya, Koreya davlatlari investitsiya kirityapti. Bu o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bu – mamlakatimiz kelajagiga bo'lgan katta ishonch belgisi» - deya ta'kidladi Prezident.

IFC Korzinka brendi ostida faoliyat yuritadigan mamlakatning yetakchi oziq-ovqat chakana sotuvchisi Anglesey Food MChJga 25 million dollargacha mablag' ajratmoqda. Moliyalashtirish kompaniyaga Korzinkaning chakana savdo do'konlari tarmog'ini kengaytirishga yordam beradigan zamonaviy "yashil" tarqatish markazini qurishga yordam beradi. Bu ish o'rinlarini yaratishga, fermerlar va mahalliy yetkazib beruvchilarni qo'llab-quvvatlashga hamda sifatli, arzon oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini oshirishga yordam beradi**[3].**

«Bizning kompaniyamiz mijozlarimiz uchun qiymat va qulaylikni o'ylagan holda O'zbekistonda zamonaviy chakana savdoni birinchi o'ringa qo'ygan. IFCning moliyalashtirilishi bizga qiyin tashqi muhit sharoitida mamlakat bo'ylab xizmatlarimizni kengaytirish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va barcha xodimlarimiz uchun mehnat sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi», dedi Korzinka supermarketlar tarmog'i asoschisi va Kuzatuv kengashi raisi Zafar Xashimov.

Korzinka – O'zbekistondagi chakana savdo bozori yetakchisi. 1996 yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda mamlakatning 128 mintaqasida 12 do'konlarini boshqaradi: Korzinka supermarketlari; Korzinka mahalla do'konlari; Aqlli qulaylik do'konlari; Korzinka Biznes ulgurji do'koni va ikkita Korzinka Go onlayn supermarketi.

«Tarqatish markazi Korzinkaning ta'minot tarmog'ida muhim aloqa bo'ladi. Bu bizga mamlakat bo'ylab do'konlarimizga yanada samarali xizmat ko'rsatishga imkon beradi. Saqlash va yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirish xarajatlarni kamaytirish, transport tezligini oshirish va do'konlarimizga uzluksiz mahsulot bilan ta'minlash»,- deydi Korzinka supermarketlar tarmog'i bosh direktori Rud

Pedersen [4].

Adabiyotlar:

https://uznews.uz/uz/news/104177.
https://youtu.be/YVseXJw7so?si=wY6vbIer7bgclWT3.

IFC kengaytirishni qo'llab-quvvatlash uchun Korzinka brendi ostida tanilgan Anglesey Food MChJga 25 million dollar taqdim etadi.
https://korzinka.uz/en/news/190924-korzinka-DEG?id=3557

AGROSANOAT MAXSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING AHAMIYATI.

Eliboyev Sheroz Shakarboy o'g'li. Mustaqil izlanuvchi doktarant (PhD)
Salimov O.M., arx.fan.doktori, professor

Annotasiya: Mamlakat agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi – aholini sifatli qishloq xo'jaligi oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan talab darajasida ta'minlashdir. Bu muammo ulkan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uning talab darajasida hal etilishi aholi turmush darajasini yuksaltiradi, farovon yashashini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bu masalaga Respublika hukumati tomonidan alohida e'tibor berilmoqda, ya'ni agrosanoat majmuasiga kiruvchi barcha tarmoqlarni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.
Kalit so'zlar: Chorvachilik, qayta ishlash, tarmoq va xizmatlar, iqtisodiy isloxotlarni, Sanitariya-himoyalash.

Аннотация: Главная цель агропромышленного комплекса страны – обеспечение населения высококачественным сельскохозяйственным продовольствием и товарами народного потребления на необходимом уровне. Эта проблема имеет большое политическое, экономическое и социальное значение, а ее своевременное решение позволит повысить уровень жизни населения и обеспечить его благополучие. Именно поэтому Правительство Республики уделяет этому вопросу особое внимание, то есть разрабатываются и постепенно внедряются меры, направленные на развитие всех секторов агропромышленного комплекса.
Ключевые слова: Крупный рогатый скот, переработка, сеть и услуги, экономические реформы, Санитарно-защитное.

Abstract: The main goal of the country's agro-industrial complex is to provide the population with the necessary amount of high-quality agricultural food and consumer goods. This problem is of great political, economic and social importance, and its timely solution will help to raise the standard of living of the population and ensure their well-being. Therefore, the Government of the Republic is paying special attention to this issue, that is, measures are being developed and gradually implemented to develop all sectors of the agro-industrial complex.
Key words: Livestock, recycling, network and services, economic reforms, Sanitary-protective.

Qishloq xo'jaligi - O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i xisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat axolisining ozik-ovkat maxsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat maxsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligi respublikamizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat maxsulotlari va qayta ishlash sanoatiga xomashyo etkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo va neftkimyo, ozuqa-em sanoati va urug'chilik kabi bir qator tarmoklar maxsulotlari uchun kafolatli bozor bo'lib xam xisoblanadi.

ASMning 2-sohasi bo'lgan qishloq xo'jaligi ikkita yirik tarmoqni o'z ichiga oladi, bular:

1- o'simlikchilik;

2- chorvachilik.

2020 yilda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8035,8 mlrd. so'mni tashkil etdi, shundan 4086,7 mlrd. so'mga o'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Chorvachilik bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot 5949,7 mlrd. so'mni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligining o'zi esa O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat sohasidan keyin 2-o'rinda turadi.

Shunday qilib, ASMning asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi, qolgan ASMning 3 ta sohalari qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatadi.

ASMning 2-sohasini tashkil etuvchi qishloq xo'jaligi, o'zining 2 ta yirik tarmog'i o'simlikchilik va chorvachilikda inson hayoti uchun oziq-ovqat va sanoat uchun xom-ashyo mahsulotlari etkazib beradi.

ASM 2–sohasining tarkibiy tuzilishi.



O'simlikchilik va chorvachilikning o'zi esa bir qancha tarmoqlardan iborat. Masalan, o'simlikchilik tarmog'i – bular: paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va sholichilik.

Agrosanoat majmuasida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tayyor maxsulotni iste'molchilarga etkazib beruvchi, yagona maqsadlarga bo'ysundirilgan, texnologik jixatdan ustun darajada bir-biri bilan bog'langan tarmoq va xizmatlar yig'indisidir.

Bugungi kunda agrosanoat majmuasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri, oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash xajmini oshirish xamda jaxon bozorlarida xaridorgir bo'lgan maxsulotlar eksporti ko'lamini oshirish hisoblanadi. Bu vazifalarning xal etilishi ichki bozorlarimizni oziq-

ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish va tarmoqning eksport saloxiyatini oshirish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga imkon yaratadi. Mamlakatimiz aksariyat qishloq xo‘jaligi maxsulotlari bo’yicha aholi jon boshiga nisbatan ichki ta’minlanish darajasiga erishib ortiqcha mahsulotlarni qayta ishlash va eksport qilish imkoniyatiga ega bo’lmoqda. Xususan, Mamlakatimizda xar yili 16 million tonnaga yaqin meva va sabzavotlar yetishtirilmoqda.

Aholi jon boshiga qariyb 300 kilogramm sabzavot, 75 kilogramm kartoshka va 44 kilogramm uzum to‘g‘ri kelmokda. Bu optimal, ya’ni maqbul deb xisoblanadigan iste’mol me’yoridan uch barobar ko‘pdir.

Keyingi yillarda mamlakatimiz agrosanoat majmuasi tarkibidaga qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari tayyorlab beruvchi mashinasozlik, yoqilgi-energetika, kimyo va ozuqa-yem sanoati tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash. texnik-texnologik yangilash, maxsulot turlarini diversifikatsiyalash, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish xamda tarmoqlarning raqobatbardoshligini mustaxkamlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ularning samarasi o‘larok agrar tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustaxkamlanib, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanish darajasi o‘smoqda. Shu bilan birga agrosanoat majmuasining markaziy bo‘g‘ini bo‘lgan qishloq xo‘jaligida xam iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish va tarkibiy o‘zgarishlarni joriy etish. ishlab chiqarishga intensiv texnologiyalarni ko‘llash, urug‘chilik-seleksiya va naslchilik tizimini tubdan yangilash, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash, oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlashni ko‘paytirish bo‘yicha yirik davlat dasturlari ishga tushirildi. Buning natijasida yildan-yilga oziq-ovqat maxsulotlari yetishtirish xajmi oshib bormoqda.

Ishlab chiqarish maqsadidagi ob’ektlar bilan qishloqdagi aholi punktlari o‘rtasidagi sanitariya himoyalash zonalari:

Ishlab chiqarish komplekslari va ularning ob’ektlari	Sanitariya himoyalash zonasi kengligi, m
Sut, sut-go‘sht va go‘sht etishtiradigan yirik qoramol fermalari 400 bosh sigirgacha	100
Yosh qoramollarni parvarishlash, boqish va bo‘rdoqiga boqish hamda yirik qoramollarni bo‘rdoqiga boqish fermalari, 2 ming boshgacha	200
Qo‘ychilik fermalari 3 ming boshgacha 3 ming boshdan ortiq	 200 300
Yilqichilik fermalari	100
Parrandachilik xo‘jaliklari 30 ming boshgacha	300
Hayvonotchilik va quyonchilik fermalari	300
Veterinariya shifoxonalari	300
Issiqxona-parnik xo‘jaliklari: (texnik usulda suv, bug‘, gaz, elektr yordamida isitish) biologik usulda isitish (go‘ng bilan) shunday usulda isitish (axlat bilan)	50 100 300
Ozuqa ishlab chiqarish komplekslari: oziq-ovqat chiqitlaridan foydalanmasdan oziq-ovqat chiqitlaridan foydalanib	50 100
Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan komplekslar: sutni qoramol va parrandani (utilsexlarsiz), donli va moyli ekinlarni, kartoshkani, sabzavot va mevalarni qoramol va parrandani (utilsexlar bilan) jun, mo‘ynali terilar va o‘simlik tolalarini (zig‘irpoyani, kunjutni va boshqalarni)	50 100 300 300
Qishloq xo‘jalik mashinalari va avtomobillarni ta’mirlash, texnika xizmati ko‘rsatish va saqlash komplekslari	100
Mahalliy xomashyodan qurilish materiallari, konstruksiyalar va buyumlarni tayyorlash ob’ektlari: qamish, poxol, fibrolit, gipsli va somonli buyumlar, tuproqli bloklar, yog‘och konstruksiyalardan beton va temir-beton buyumlar va konstruksiyalar, loy va silikat g‘ishtdan, sopol va o‘tga chidamli buyumlardan ohak va boshqa bog‘lovchi materiallardan	50 100 300
Qishloq xo‘jalik mahsulotlari va materiallarni omborlash va saqlash ob’ektlari: don omborlari, kartoshka, sabzavot va mevalar saqlanadigan joylar toshko‘mir, torf, yog‘och materiallari va o‘tinlar, oson yonadigan va yonilg‘i suyuqliklari, dag‘al xashak, tortilmagan don va o‘simlik tolasining sarflanadigan bazisli omborlari	50 100
Omborlar: ma’danli o‘g‘itlar va zaharli moddalar birgalikda saqlanadigan viloyat ahamiyatiga ega omborlar katta zaxiradagi kimyoviy moddalar bilan faqat ma’danli o‘g‘itlarni saqlash uchun xo‘jalik ichidagi omborlar (kam miqdordagi ma’danli o‘g‘itlar va zaharli moddalar saqlanadigan) temir yo‘l bo‘yidagi odamlarning har doim bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lmagan zaharli moddalar va ma’danli o‘g‘itlarni birgalikda saqlashga mo‘ljallangan har qanday maqsaddagi stansiyalar qoshidagi binolar va inshootlardagi omborlar	500 200 200 200 500

Izoh:

1. Sanitariya-himoyalash zonasining kengligi deb ishlab chiqarish zararlarining atmosferaga chiqarib tashlanadigan joylari bilan aholi punktlarida joylashgan turar-joy va jamoatchilik binolari o‘rtasidagi masofani hisoblash kerak.

2. Parrandalar dalada boqilmaydigan parrandachilik xo‘jaliklari uchun sanitariya-himoyalash zonasining kengligi 50% ga kamaytirilishi mumkin.

3. Go‘ng saqlanadigan joylar (axlat saqlanadigan joylar) mustaqil sanitariya-himoyalash zonalariga ega bo‘lmaydi va turarjoy zonasiga nisbatan fermalarning tegishli turlari (tiplari) uchun belgilangan oraliqlarga rioya qilingani holda joylashtirilishi lozim.

Qishloq xo‘jalik maxsulotlarini qayta ishlovchi va sotuvchi tarmoqlar. Bu soxaga qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini tayyorlash, saqlash, birlamchi va ikkilamchi qayta ishlash xamda sotish bilan shug‘ullanuvchi paxta sanoati, don maxsulotlari sanoati, oziq-ovqat sanoatiga kiruvchi go‘sht-sut va yog‘-moy korxonalari, meva-sabzavotlarni qayta ishlash korxonalari, kanop va tamakichilik sanoati, yaxna ichimliklar va vino-vodka sanoati, kandolatchilik, tayyorlov va saqlash korxonalari, chakana va ulgurji savdo tuzilmalari va boshka sotishga kumaklashuvchi tuzilmalar kiradi. Respublika agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi barcha tarmoqlarni **1-chizmadan** ko‘rish mumkin.

Bunday turkumlashtirish ma’lum darajada shartli ham hisoblanadi. Hozirgi davrda mamlakat agrosanoat majmuasiga 2210 ga yaqin korxona kiradi. Bularga fermer xo‘jaliklari ham qo‘shilsa, unda ularning umumiy miqdori 85 mingdan oshadi.

Agrosanoat majmuasi tarkibida agrosanoat korxonalarini tashkil etish vaqti keldi. Uning tarkibi quyidagicha bo‘lishi mumkin. Tuman yoki tumanlararo miqyosda shunday agrosanoat korxonasi tuzilsa, bir qancha masalalarni ijobiy hat etilishi ta’minlanadi:

- qishloq hududlaridagi ishsizlarni ish bilan ta’minlash;
- tayyor bozorbop mahsulotlarni ko‘proq ishlab chiqarish;
- chiqimsiz texnologiyalarni joriy etilishi;
- xo‘jaliklarning pul tushumlarini ko‘payishi va boshqalar.

Respublikamizda olib borilayotgan agrar islohotlar davomida keng miqyosdagi tarkibiy-institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar:

1. Dotsent. M.A.Sadiqova Agrosanoat majmuasi O‘quv qo‘llanma. Toshkent,2004.
2. To‘ychieva Dilnoza Xolmamatovna, Mavzu: “Qoramolchilikda sut ishlab chiqorish texnologiyasi va uni iqtisodiy samaradorlikka ta’siri”. Samarkand 2012
3. Ubaydullaev X.M., Korobovsev G.I., Abduraxmonov Y.I., Mansurov YA.M. “Arxitekturaviy loyihalash”, o‘quv qo‘llanma. TAQI, T. 2010 y.
4. Sodiqova M. A. Agrasanoat majmuasi.O‘quv qo‘llanma, TAQI nashri, Toshkent, 2007.
5. www.dissertant.com

UDK 697.322

ISSIQLIK ELEKTR STANTSIYALARIDA QOZON AGREGATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Meliyev Bahtiyor O’ktamovich t.f.n., dotsent; **Xolboyev Yusuf Akrom o‘g‘li**, magistrant
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston sharoitida qozonxona va issiqlik ta’minoti tizimlarining samaradorligini oshirish masalalari o‘rganilgan. Ishda turli qozonxonalarning energiya samaradorligini baholash, shuningdek, mavjud tizimlarni modernizatsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Mahalliy energiya resurslari va texnik infratuzilma asosida energiyani tejash va issiqlik ta’minotini barqarorlashtirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: issiqlik ta’minoti tizimi, qozonxonalar, issiqlik ishlab chiqarish uskunalari, energiyatejamkorlik, o’choqlar, yoqilg’ilar, issiqlik energiyasi, yonish jarayoni.

Annotation: The article explores the issues of increasing the efficiency of boiler and heat supply systems in the conditions of Uzbekistan. The work analyzes the assessment of the energy efficiency of various boilers, as well as the possibilities of modernizing existing systems. On the basis of local energy resources and technical infrastructure, ways to save energy and stabilize the heat supply are shown.

Keywords: heat supply system, boilers, heat generation equipment, energy saving, furnaces, fuels, thermal energy, combustion process.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы повышения эффективности котельных и систем теплоснабжения в условиях Узбекистана. В работе проанализирована оценка энергоэффективности различных котельных, а также возможности модернизации существующих систем. Указаны пути энергосбережения и стабилизации теплоснабжения на основе местных энергоресурсов и технической инфраструктуры.

Ключевые слова: система теплоснабжения, котлы, оборудование для выработки тепла, энергоснабжение, печи, топливо, тепловая энергия, процесс горения.

Kirish qismi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018–2022 yillarda issiqlik ta’minoti tizimini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi Qarori iste’molchilarga issiqlik energiyasini yetkazib berish sifati va uzluksizligini oshirish, issiqlik ta’minoti tizimini zamonaviy va tejamkor qilishga qaratilgan. Ushbu dastur doirasida yoqilg‘i-energetika resurslaridan samarali foydalanish va energiyatejamkor texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yoqilg‘ining yarmidan ko‘pi korxonalarning isitish ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Sanoat korxonalarida iste’mol qilinayotgan issiqlik energiyasining hajmini kamaytirishni har qanday sanoat korxonasi misolida amalga oshirilishi mumkin.

Issiqlik ta’minoti tizimidagi issiqlik ishlab chiqarish uskunalarini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, texnologik va ma’naviy jihatdan eskirgan, samarasiz qurilmalarni rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy qurilmalar bilan almashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, energiyatejamkorlikka erishish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash muhimdir. Issiqlik va elektr tarmoqlarining ishonchli ishlashini ta’minlamasdan turib, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning sanoat salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi farovonligini yaxshilash imkonsizdir.[1,2]

Asosiy qism. Turli sohalardagi texnologik jarayonlar va qurilmalarning ishlashi elektr yoki issiqlik energiyasidan foydalanishga bog‘liq. Bu energiya issiqlik elektr markazlarida yoki turli konstruktsiyali va quvvatdagi qozonxonalarda ishlab chiqariladi. Qozonxonada yoqilg‘i yoqilishi natijasida termodinamik jarayonlar sodir bo‘ladi va ularni yuqori samaradorlik, kam yoqilg‘i iste’moli va chiqindilarsiz amalga oshirish ko‘plab texnik va ekologik muammolarni hal qilishni talab qiladi. Shu jumladan, qozon blokining issiqlik balansi va foydali ish koeffitsientiga ta’sir qiluvchi omillarni chuqur o‘rganish zarur.[3]

Qozonxona samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar – o‘choqda qo’llaniladigan yonish usuli, yoqilg‘i turi, yonish gazlarining issiqligidan foydalanish, bug‘ tayyorlashda foydali issiqlik va yoqilg‘ining to‘liq yonmasligi natijasida yo‘qolgan issiqlikdir. Bundan tashqari, o’choq devorlari va konvektiv gaz quvurlarida yo‘qotilgan issiqlik ham hisobga olinadi. Shu sababli

qozonxona samaradorligini oshirish masalasi termodinamik, qurilish va ekologik nuqtai nazardan kompleks yechimni talab qiladi.[4]

Ushbu masalani hal qilish uchun bir necha usullar qo‘llaniladi.

Birinchi usulga ko‘ra, qozon blokining samaradorligi o‘choqda qo’llaniladigan yoqilg’ining yonish usuli va yordamchi uskunalarning konstruktsiysiga bog‘liq. Yonish jarayonida hosil bo‘lgan qattiq chiqindilarni chiqarish va chiqindi gazlarini sovutish muammosi qozonxonaning yonish o’choqlarining hajmini oshirishni talab qiladi. Bug‘ning samaradorligi yuqori bo‘lishi uchun, o‘choq kamerasi bir nechta qismlarga bo‘linadi va ubing yuqori qismi ko’p qavatli maxsus qoplama bilan qoplanadi.

Ikkinchi usulda yuqori yonuvchan yoqilg‘ilar pastki yonish kamerasida yoki tsiklon pechning tuzilishida yonadi va kameraning yuqori qismi toldirgichlar bilan to‘ldiriladi. Bu to’ldirgichlar chiqindi gazlarni tezroq sovutish va o‘choqni ta’mirlashni osonlashtiradi, hamda qozon blokining quvvatini oshirgani bilan birlamchi xarajatlarni kamaytirmaydi.

Uchinchi usul yoqilg‘i, ayniqsa qattiq yoqilg‘i – ko‘mir tayyorlashda tegirmonlarning birlik quvvatini oshirish bilan bog‘liq. Katta tegirmonlar og‘irligi va hajmi oshishi, uzluksiz ishlashni qiyinlashtirishi sababli ixcham tegirmonlardan foydalanish yoki ko‘mirni maydalashdan saqlanish tavsiya etiladi. Shuningdek, granulalaridan foydalanish orqali maydalangan ko‘mirni minimal darajada ishlatish mumkin.

To‘rtinchi muammo – nam ko‘mirni quritish. Sekin harakatlanuvchi tegirmonlar va siklonsimon pechlar yuqori namlik bilan ishlay olmaydi. Bunday muammoni bug‘ yordamida ko‘mirni quritish orqali hal qilish mumkin va bu o’z navbatida samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, yuqori namlikli yoqilg‘ida konvektiv gaz yo‘llarini yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Qozonxonalarda isitish yuzalari va konvektiv gaz yo‘llarini tozalash muhim hisoblanadi. Radiatsion isitish yuzalarini bug‘ bilan tozalash odatiy usuldir va bunda bug‘ning bosimi 1,5–4,0 MPa va harorati 350–400 °C bo‘lishi kerak. Bunday usul yordamida ekran naychalari va o’choq devorlari tozalanadi. Bundan tashqari, tozalash uchun vibratsiyali tozalagichlar ham ishlatiladi, ular yuqori chastotali tebranishlar yordamida qoldiqlarni metall yuzadan ajratadi.[5,6]

Xulosa. Yuqoridagi korsatmalarga rioya qilinganda, yuqori quvvatli qozonxonalarda samaradorlikni oshirish, yoqilg‘i sarfini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ishlab chiqarish va sanoatning energiyaga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish mumkin. Shunday qilib, qozonxonalarda zamonaviy texnologiyalarni qo’llash, yuqori samarali qurilmalarni joriy qilish va optimal yoqilg‘ilarni ishlatish orqali davlat dasturida belgilangan maqsadlarga erishish mumkin bo’ladi.

Adabiyotlar:

1. Muhammadxo‘ja Saitkamolov. O‘zbekistonda issiqlik energetikasini barqaror rivojlantirishda energetik tekshiruvlarni amalga oshirish strategik yo‘nalishlarini takomillashtirish. “Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot” jurnali, 2024 y.
2. B.M. Toshmamatov, O.I. Raxmatov, S.T. Valiyev, Sh.X. Nurmanov. Geotermal energiya asosidagi gibrid issiqlik ta’minoti tizimining issiqlik-texnik parametrlari. Muqobil Energetika (“Alternative Energy”) jurnali. ojs.qmii.uz
3. Sardor Ilxomovich Xamrayev & Umidjon Xikmatullayevich Ibragimov. Yashash uylari kombinatsiyalangan quyosh issiqlik ta’minoti tizimining energiya samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash. “Innovatsion Texnologiyalar” jurnali. ojs.qmii.uz
4. Xu, X., Chen, Q., Ren, M., Cheng, L., & Xie, J. Combustion Optimization for Coal Fired Power Plant Boilers Based on Improved Distributed ELM and Distributed PSO. Energies jurnali, 2019. MDPI
5. Tic, W. J. & Guziałowska-Tic, J. The Cost-Efficiency Analysis of a System for Improving Fine-Coal Combustion Efficiency of Power Plant Boilers. Energies jurnali, 2021. MDPI
6. D. Fernández-Cheliz, E. Velasco-Gómez, J. Peral-Andrés & A. Tejero-González. Energy Performance Optimization in a Condensing Boiler. Environmental Sciences Proceedings, 2021. MDPI

УДК 625.7:004.9:528.4

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ДОРОЖНОГО ХОЗЯЙСТВА ТАДЖИКИСТАНА: ОТ ДИАГНОСТИКИ К ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМУ УПРАВЛЕНИЮ АКТИВАМИ

Мирзозода Сухроб Бегмат, кандидат технических наук, доцент
Содиков Жамшид Иброхим угли доктор технических наук, профессор
(Таджикский технический университет имени академика М.С. Осими, г.Душанбе),
Мирзоев Фаридун Сухробович
(Технический департамент ОАО Таджикгидроэлектромонтаж" (ТГЭМ), г.Душанбе)

Аннотация: Статья имеет переходный научно-практический формат: объединяет опыт диагностики (IRI, PCI, FWD) и концепцию «умных дорог». Рассмотрен процесс цифровизации дорожного хозяйства Республики Таджикистан - от этапа цифровой диагностики состояния автомобильных дорог до формирования интеллектуальной системы управления дорожными активами (СУДА). Показаны ключевые направления внедрения цифровых технологий, включая сенсорные системы мониторинга, геоинформационные платформы (ГИС), цифровые двойники и искусственный интеллект. Разработана концептуальная модель перехода от традиционного управления к интеллектуальному управлению активами (Smart Asset Management).

Ключевые слова: цифровизация, дорожное хозяйство, диагностика дорог, управление активами, ИИ, ГИС, цифровой двойник, СУДА.

Annotatsiya: maqola o‘tish davridagi ilmiy-amaliy formatga ega: diagnostika tajribasi (IRI, PCI, FWD) va "aqlli yo‘llar" tushunchasini birlashtiradi. Tojikiston Respublikasi yo‘l xo‘jaligini raqamlashtirish jarayoni - avtomobil yo‘llari holatini raqamli diagnostika qilish bosqichidan tortib, yo‘l aktivlarini boshqarishning intellektual tizimini (YUBAT) shakllantirishgacha ko‘rib chiqildi. Raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy yo‘nalishlari, jumladan, sensorli monitoring tizimlari, geoaxborot

platformalari (GIS), raqamli egizaklar va sun'iy intellekt ko'rsatib o'tilgan. An'anaviy boshqaruvdan intellektual aktivlarni boshqarishga (Smart Asset Management) o'tishning konseptual modeli ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, yo'l xo'jaligi, yo'l diagnostikasi, aktivlarni boshqarish, sun'iy intellekt, GAT, raqamli egizak, YUBAT.

Abstract: This article combines diagnostic experience (IRI, PCI, FWD) with the concept of "smart roads." It examines the digitalization of the road sector in the Republic of Tajikistan, from the initial digital diagnostics of road conditions to the development of an intelligent road asset management system (RAMS). Key areas for implementing digital technologies are highlighted, including sensor monitoring systems, geographic information platforms (GIS), digital twins, and artificial intelligence. A conceptual model for the transition from traditional management to smart asset management (SAM) is developed.

Keywords: digitalization, road management, road diagnostics, asset management, AI, GIS, digital twin, RAMS.

Введение. Дорожная сеть Таджикистана является основой транспортной системы страны, обеспечивая свыше 90% внутренних и международных перевозок [1]. В условиях сложного рельефа, ограниченного бюджета и стареющей инфраструктуры требуется переход от традиционного подхода к управлению состоянием дорог к цифровым методам анализа, прогнозирования и принятия решений. Цифровизация дорожного хозяйства - это внедрение технологий сбора, обработки, анализа и визуализации данных с целью повышения эффективности управления дорожными активами. Основу составляют:

геоинформационные системы (ГИС);

системы управления дорожными активами (СУДА/RAMS, PMS, ROMDAS);

технологии «умных» датчиков (IoT);

системы машинного обучения и искусственного интеллекта (AI/ML);

цифровые двойники транспортной инфраструктуры.

Такие решения обеспечивают оперативное обновление информации о состоянии дорог, мостов и покрытий, а также позволяют принимать решения на основе достоверных данных.

Цель статьи - показать этапы и инструменты перехода дорожного хозяйства Таджикистана от цифровой диагностики к интеллектуальному управлению активами, основанному на анализе данных и использовании искусственного интеллекта (ИИ).

Современные тенденции цифровизации дорожного сектора

Мировой опыт (США, ЕС, Китай, Казахстан) показывает, что внедрение цифровых технологий в дорожное хозяйство приводит к повышению эффективности управления и снижению затрат на содержание на 20-30 % [2, 3].

К ключевым направлениям цифровизации относятся:

цифровая диагностика и мониторинг состояния покрытий (IRI, PCI, FWD);

интеграция данных в ГИС-платформы;

моделирование и прогнозирование дефектов с помощью ИИ;

создание цифровых двойников дорог и мостов;

введение национальной системы управления дорожными активами (СУДА).

Исследование Massoumi R. [2] подтверждает, что цифровизация инфраструктуры является основным инструментом устойчивого управления активами в странах с ограниченными ресурсами.

В мае 2025 года Министерство транспорта Таджикистана подписало контракт с финскими компаниями «Finnish Overseas Consultants Ltd» и «SirWay Oy» на внедрение системы управления дорожными активами в течение 14 месяцев [14]. Система призвана обеспечить мониторинг состояния сети, распределение ремонтных ресурсов, обмен данными между ведомствами и повышение прозрачности финансовой поддержки. Это соответствует международной практике, где PMS-системы используются для повышения эффективности дорожного хозяйства [13].

Цифровая трансформация позволяет предприятиям и учреждениям дорожной отрасли быть на шаг впереди, эффективно используя технологию цифровых решений для улучшения скорости и качества своей работы, увеличения прибыльности и обеспечения устойчивого развития. Далее, представлена концепция и структура цифровой платформы, где в Таблице 1 наглядно отражены четыре основных уровня системы.

Таблица 1

Основные уровни системы

Уровни системы	Функции
1. Сбор данных	мобильные профилометры, датчики IoT, WIM-станции, дроны, климатические датчики
2. Интеграция	геобаза PostGIS, ETL-модуль, облачное хранилище, API-интерфейсы
3. Аналитика	оценка IRI, PCI, прогноз износа, оптимизация ремонтов
4. Визуализация	веб-портал, мобильное приложение, GIS-карта, отчёты

Подобные многоуровневые структуры успешно реализованы в ряде стран (США, Казахстан, Малайзия) и показали рост эффективности управления дорожными активами на 20-30%.

Этапы цифровизации: от диагностики до управления активами

Диагностика как основа цифровизации.

Диагностика состояния автомобильных дорог является первым и наиболее критическим этапом цифровизации дорожного хозяйства, поскольку именно от качества собранных данных зависит точность их анализа, последующих прогнозов и управленческих решений [4].

